

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

SOTIMBOY TURSUNBOYEV

**O‘zbek teatri
tarixi
M A J M U A**

O‘quv qo‘llanma

(Pyasalardan parchalar,
san`atkorlar esdaliklari, mutaxassislar sharhlari)

TOSHKENT—2007

Maxsus muxarrir T.Tursunov — san’atshunoslik fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:

Muhabbat To’laxo’jayeva — San’atshunoslik fanlari doktori, professor.

Naim Karimov — Filologiya fanlari doktori, professor.

Majmuada p’esalardan olingan parchalar, ijodkorlarning esdaliklari, matbuotda chiqqan teatr haqidagi maqolalar, taqrizlar orqali o’zbek teatri va dramaturgiyasining tug’ilishi davridan hozirgacha bo’lgan rivojlanish jarayonlari yoritilgan.

O’quv qo’llanma san’at, madaniyat, san’atshunoslik hamda filologiya va jurnalistika yo’nalish bilan bog’liq oily o’quv yurtlari talabalari uchun mo’ljallangan.

В хрестоматии освещены процессы развития узбекского театра и драматургии начиная с периода зарождения театра и до сегодняшнего дня, на основе отрывков из пьес, воспоминаний актёров и режиссёров, театральных статей, рецензий периодической печати.

Учебное пособие предназначено для студентов высших учебных заведений искусства и культуры а также связанных с направлениями искусствоведения, филологии и журналистики.

The reader lights up the processes of development of Uzbek theatre and drama beginning from the early period of theatre up to days on the basis of fragments of plays, memories of actors and producers, theatrical articles and resumes of periodicals.

This textbook is intended for the students in the Art and Culture Institutions, also it is useful for those whose major field of study is philology, art and journalism.

KITOB HAQIDA IKKI OG'IZ SO'Z

Yevropacha usuldagi o'zbek teatri xalqimizning avloddan-avlodga o'tib asrlar davomida sayqallanib, boyib borgan badiiy qadriyatlari asosiga qurildi va tez fursatda dunyodagi eng nufuzli teatlardan biriga aylandi. Bu o'n yillar davomida sahnadan tushmay tomoshabinlarning dil-dilidan o'rin olgan spektakllar, san'atga bo'lgan buyuk e'tiqodi, yuksak mahorati bilan afsonaga aylangan aktyorlarga boy teatr. Shunga ko'ra ham o'zbek teatrini o'rganish bo'lg'usi san'at kishilari uchun faqat bilish, ma'rifiy boyish uchungina emas, shu qatori betakror va barqaror ibrat, namunalardan ilhomlanish o'ziga singdirish va shu buyuk an'analarni davom ettirish uchun ham zarurdir. "O'zbek teatri tarixi" majmua qo'llanmasi avalo shu ma'noda e'tiborga loyiqdir. Kamina yagona bir maqsad bilan, ya'ni ushbu qo'llanmada hozirgi kunda topilishi qiyin lekin bo'lg'usi san'atkorlar uchun juda zarur manbalar jam bo'lganligini uqdirib o'tish niyati bilan qo'lga qalam oldim. Unda birgina jo bo'lgan pyesalarni olaylik: unda elikka yaqin pyesadan namunali parchalar berilgan. Bular keyingi 20-30 yil ichida turli nashrlarda chop etilgan pyesalardir. Pyesa esa, ma'lumki, sahna san'ati bilan bog'liq o'quv yurtlarida o'quv "materiali" xisoblanadi. Lotincha yozuvda pyesalar chop etilayotgan yo'q. institutlarga o'quvchilar yoppasiga lotincha yozuv ta'limi bilan kelmoqdalar. Shu holatning o'zi o'quv jarayoni uchun qo'llanmaning naqadar zarurligini ko'rsatib turibdi.

Qo'llanmada teatr san'atining adabiy asar, sahna ijodi, teatr tanqidchiligidan iborat uch tarkibiy qismi o'rin olgan. Qo'llanmada dramaturg shaxsi bog'lovchilik o'rniga ega: dramaturgning ijodiga tafsil, pyesalarning sahnaviy tarixi, rejissyor va ijrochilari haqida ma'lumotlar berilib, so'ng eng yirik pyesasidan parcha, u haqda san'atkorlar esdaliklari va matbuot sharxlari ilova qilinadi.

Qo'llanma orqali o'zbek dramaturgiyasining eng sara asarlari bilan tanishish mumkin. Unda F. Fitrat, Cho'lpon, H. Hakimzoda, M. Shayxzoda, A. Qahhor, O'. Umarbekov kabi dramaturglarning dramatik asarlari qatori Xurshidning "Farhod va Shirin", S. Abdullaning "Tohir va Zuhra", K.Yashinning "Nurxon" kabi musiqali dramalaridan parchalar berilgan, o'zbek teatri ko'p janrli teatr, u ijrochilikda ham turlicha iste'dodlar teatri bo'lib kelganligiga guvoh bo'lish mumkin.

Qo'llanmadan sahnada muvaffaqiyat qozonsa-da, lekin chop etilmagan ancha-muncha pyesa ham o'rin olgan. Masalan, Gulom Zafariyning "Halima" pyesasi birinchi marta ushbu kitobda to'laligicha chop etilganligi juda o'rinli bo'lgan. Sababi o'quvchi shu matn bilan tanishib bu birinchi ko'p pardali o'zbek musiqali dramasi 1920-30 yillari ko'plab yuqori ovozli aktyorlar ijodida alohida o'rin tutganligi va sahnada katta shuhrat topganligi sabablarini anglay boshlaydilar. Keyingi yillarda yaratilib teatrimiz repertuaridan mustahkam o'rin olgan lekin chop etilmagan E. Hushvaqtovning "Chimildiq", U.Azimning "Kunduzsiz kechalar", O. Yoqubovning "Bir koshona sirlari", H. Rasulning "Piri koinot" asarlaridan parchalar berilganligi ham maqsadga muvofiq bo'lgan.

San'atkorlarimizning dil-dilidan o'rin olgan hayajonli esdaliklari san'at bo'stoniga endi qadam qo'ygan yoshlar uchun bebaho saboq bo'lmog'i mumkin. Sahnamizning ulkan san'atkori Sora Eshonto'rayeva Jamila rolini o'ynar ekan, "Menga uning toza qalbi, chin muhabbati yoqardi. Va men uning bu xislatlarini xuddi o'zimga ifoda etishga harakat qilardim" deb eslaydi. San'atkor chorak asrga yaqin muddat davomida shu rolda besh yuz marta sahnaga chiqqan va har safar spektakldan keyin ancha vaqtgacha o'ziga kelolmay

“yig’lab-yig’lab” “ho’ng bo’lishi”ni aytadi. Boshqa buyuk san’atkorimiz Lufixonim Sarimsoqova sahnaga chiqish oldida bolasi qazo qilib qolganligini eshitsa-da, bu shum habarni hech kimga aytmay “Halima”dagi Ona timsolida “marsiya aytib faryod urayotgani” va hammani hayratga solgani haqida xotirlaydi. Qalbdan otilib chiqqan bunday ijodiy kechinma va fidoyilik tuyg’ulari san’atga endigina qadam qo’ygan yosh san’atkorlarni befarq qoldirmaydi, shubhasiz.

San’atkorlar ijodiy hayotidan olingan lavhalarining e’tiborliligi shundaki, ularda ijodning zavqli va mashaqqatli jarayoni ustida so’z boradiki, bu bo’lg’usi san’atkorlar uchun professional ko’nikma ma’nosida qimmatlidir. Masalan: Zaynab Sadriyevadek ulkan san’atkor “Boy ila Xizmatchi”dagi Poshshoyim roli ustida ish boshlaganda o’zidan tajribaliroq Holida Xo’jayeva (Xonzoda)ning rolga kirishib ketganidan hangu-mang bo’lib “holatga kirolmay rosa qiynalgani” haqida yozadi. Olim Xo’jayev Hamlet, Alisher Navoiy, Komilov (“Imon”) rollari xususida so’z ocharkan bizning aktyorlarimiz o’z rolida yuksak, tafakkur sohibi sifatida ko’rinishi lozimligini uqtiradi.

Poeziya va nasr olamidani dramaturgiyaga kelib, shu sohaning chinakam sohibi bo’lib qolish har kimga ham nasib etavermaydi. “Chet”dan kelgan qalamkashning teatr “kishi”si bo’lib qolishining siri bir qator rejissyor va aktyorlarning xotiralarida ochilgan: bu teatr, aktyor va rejissyorlar bilan aloqani uzmaslikdir. Mannon Uyg’urning Fitrat, Quadrat Xo’jayevning Abdulla Qahhor, Maqsud Shayxzoda, Razzoq Hamroyevning Komil Yashin, Hamid G’ulom, Zikir Muhammadjonovning Odil Yoqubov, Rustam Hamidovning O’lmas Umarbekov haqidagi xotira, fikr-mulohazalarida bu dramaturglarning teatr bilan doimiy ijodiy hamkorligi keng ochilganki, bu bo’lg’usi dramaturglar uchun saboq bo’lishi mumkin.

Qo’llanmadan M.Rahmonov, T. Tursunov, M. Qodirov, T. Islomov, T. Bayandiyev, M. To’laxo’jayeva, S. Ahmedov singari teatrshunos olimlar qatori Y. Mirzo, B. Qosimov, S. Mamajonov, N. Karimov singari journalist va adabiyotshunos olimlarning maqola va taqrizlaridan tahliliy lavhalar o’rin olganki, bular teatrimiz rivoji manzarasini keng tarzda ifoda etib beradi. Ozod Sharafiddinovning A. Qahhorning “Tobutdan tovush” asari haqidagi “G’azabli qah-qaha” mashhur maqolasini o’rin olishi kishi e’tiborini tortmay iloji yo’q. sababi bu kabi maqola va tanqidiy taqrizlar teatr tanqidchiligi sohasida sog’lom ijodiy muhit uchun kurash olib borganiligidan dalolat beradi.

S. Tursunboyevning ushbu qo’llanmasining birinchi nushasi 2005 yili chop etilib kollejlardan zarur o’quv qo’llanmasi tarzida qabul qilindi. Hozirgisi shu qo’llanmaning tubdan qayta ko’rib chiqilgan nushasi bo’lib, sahna ijodi va dramaturgiya bilan bog’liq ko’plab yangi o’zbek dramaturgiyasi va teatr tanqidchiligining eng sara namunalari jamlangan mazkur qo’llanma bo’lg’usi san’at mutaxasislari qatori filologlar, jurnalistlar uchun ham zarur manba bo’lib xizmat qilishi mumkin manbalar bilan boyitildi.

M.Uyg’ur nomidagi Toshkent
Davlat san’at instituti “San’atshunoslik”
kafedrasini mudiri, O’zbekistonda xizmat
ko’rsatgan yoshlar murabbiysi, professor
H.Ikromov

MUQADDIMA

Yevropacha usuldagi o'zbek teatri madaniyatimiz tarixida ro'y bergan noyob hodisalardir. 1914-yili Mahmudxo'ja Behbudiyning «Padarkush» pyesasi bilan o'z pardasini ochgan o'zbek teatri ikki-uch o'n yillik ichida har bir xalq g'ururlansa arzigulik teatr sifatida maydonga chiqdi.

O'zbek teatri jadidchilik harakatining mevasi — ma'rifiy teatr sifatida tug'ilgan edi.

Birinchi o'zbek ijodiy jamoasi bo'lmish «Turon» truppasining «Nizom»ida teatrning bosh maqsadi «a) aholi o'rtasida sahna ishlari va hayriyaga jiddiy munosabatni rivojlantirish, b) xalq uchun spektakl ko'rsatish, unga sog'lom tomosha berish...» deb uqtirilgan edi. Sahna ishini tashkil etgan va uni xalq orasida keng yoygan Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Mahmudxo'ja Behbudiy singari atoqli ma'rifatparvarning sa'y-harakati bilan bu teatr tez orada xalq madaniy hayotining tarkibiy qismiga aylandi. Sanoqli bir necha yil davomida o'ttizga yaqin pyesa yaratildi, aktyorlik va rejissorlik san'atining tub tamoyillariga asos solindi.

Jadid teatri va dramaturgiyasining muhim xususiyati — uning oila hayotini tasvirlash bilan inson qalbiga kirib borish, uni ma'rifiy tarbiyalash va shu orqali jamiyat hayotida avj olib borayotgan milliy uyg'onish g'oyalarini tarannum etishda ko'ringan edi.

Jadid ma'rifatparvarlari yoqqan ma'rifat mash'ali qariyb 1930-yillarga qadar yangi g'oya va intilishlar bilan teatr hamda dramaturgiyaga kirib kelgan ahli san'at yo'llarini yoritib turdi.

Shuni ta'kidlash joizki, o'zbek teatri milliy mahdudlik qobig'ida o'ralashib qolmay, balki o'z taraqqiyoti yo'lida jahon teatri tajribasini o'zlashtirib bordi. «Turon» truppasida boshlangan o'zga xalqlar dramaturgiyasini sahnalashtirish tajribasi keyinroq, o'zbek sahnasiga Shiller, Gogol, Shekspir singari dramaturglar asarlarining kirib kelishi bilan davom ettirildi. O'zbek aktyorlarini 1924—1927-yillari Boku teatr texnikumi va M. Uyg'ur, Cho'lpon rahbarligida Moskva teatr studiyasida tahsil ko'rganliklari ularning kasbiy darajasini oshirishda muhim ahamiyat kasb etdi. Moskvadagi ta'lim davri rus teatrida turlicha uslubiy yo'nalishlar, izlanishlar avj olgan davrga to'g'ri kelgan edi. O'zbek aktyorlari bu shov-shuvli teatr hayotini astoydil kuzatadilar, o'rganadilar. Lekin shunisi e'tiborliki, ularga taqlid qilish, uslublarini ko'r-ko'rona qabul qilish yo'lidan bormaydilar. Cho'lpon «Meyerxold teatri» degan maqolasida, masalan, 1920-yillarda Moskva teatri hayotining yalovbardoriga aylangan bu rejissorning shon-shuhrati haqida ilhom bilan qalam tebratgan bo'lsa-da, lekin biron joyda unga ergashish, undan andoza olish fikrini olg'a surmaydi. «Bu teatrning soddaligi biz uchun kerak. Ko'pchilikka yaqin kelishi biz uchun lozim. Bizning xalq teatri unsurlaridan ba'zilar bu teatrdan bor» (Cho'lpon. «Adabiyot nadi», 111-bet). Ya'ni ulug' shoir chet ta'sirlarga nisbatan sezgir, hushyor turishga da'vat etib, faqat o'zbek xalq teatriga xos «ba'zi unsurlar», «soddalik», «ko'pchilikka yaqinlik» jihatlarini olish mumkinligi g'oyasini olg'a surgan.

Bu o'zbek teatrining dastlabki davrdanoq o'z milliyligini asrash yo'lida qat'iy turganligidan guvohlik beradi. Bir jihatdan, bu ajablanarli emas. Sababi, taqdirlarini teatr va dramaturgiya bilan bog'lashga ahd qilgan kishilar eski maktab, madrasa ko'rgan, mumtoz adabiyot, musiqa, xalq teatri ta'sirida bu nafosat olamiga chinakam milliy teatr san'atini barpo etish ezgu istagi bilan kirib kelgan zotlar edi. O'zbek teatrining asoschilari, xususan,

atoqli rejissor va teatr arbobi Mannon Uyg'ur o'z atrofiga eng iste'dodli dramaturg va san'atkorlarni uyushtirib, ular bilan ilhombaxsh izlanishlar olib borar ekan, xalqimizning boy ma'naviyatiga mushtarak keladigan zamonaviy teatr barpo etish yo'lidan borgan edi.

O'zbek teatrining tug'ilganiga o'n yil bo'lmayoq Abdurauf Fitratning «Chin sevish», «Abulfayzxon», Cho'lponning «Yorqinoy», Hamza Hakimzodaning komediya va dramalarining yaratilishi, eng qimmatlisi, bu asarlarni ovrupacha drama estetikasi talablari darajasida bo'lishi shu izlanishlarning mantiqiy natijalari edi.

Musiqali dramadek murakkab sintetik san'at janrining paydo bo'lishi ham o'zbek xalqining benihoya boy badiiy merosga egaligi va shu merosni zamonaviy teatr tiliga ko'chira oluvchi sohibi talantlar borligi bilan bog'liq edi. Dastlab kichik musiqali sahnalar tarzida ko'ringan bu janr G'ulom Zafariyning «Halima», Xurshidning «Farhod va Shirin», «Layli va Majnun» asarlarining yaratilishi bilan o'zbek teatrida alohida san'at yo'nalishi tarzida taraqqiy topdi. Ta'kidlash lozimki, o'tmishda bu «folklor janr, o'tkinchi, opera san'atiga o'tishda ko'prik vositasi xolos» degan fikr-mulohazalar musiqali drama yo'lga qanchalik to'siq bo'lmasin, u rivojlanishda davom etaverdi. Ham sof drama, ham musiqali drama asarlarini sahnalashtirishga qaratilgan «Musiqali drama va komediya teatri» deb atalgan viloyat teatrlari drama borasida hozirgi Milliy akademik drama teatridan, musiqali drama sohasida 1930-yillarda Respublika musiqa teatri, keyin Muqimiy nomidagi musiqa teatri tajribalariga suyandi va har biri san'atimiz xazinasiga ulush bo'lib qo'shilgan badiiy-estetik qadriyatlarni yaratdi.

Chet elliklar Shekspirning «Hamlet», «Otello» kabi asarlarining o'zbek aktyorlari tomonidan yuqori darajada mujassam etilishidan hayratga tushib so'z ochar ekanlar, buning asosiy sabablaridan biri, bu spektakllarning biron bir boshqa teatrlar postanovkasiga o'xshamasligi, ya'ni ularda Shekspir g'oyalariga mushtarak tarzda o'zbekona dunyoqarash va badiiy qadriyatlarning ifoda etilishida deb bilish mumkin. Keng ko'lamda avj olgan shunday ijodiy jarayonlardan so'ng Abror Hidoyatov, Shukur Burhonov, Olim Xo'jayev. Sora Eshonto'rayeva kabi o'nlab yuqori iqtidorli drama ustalari va Lutfixonim Sarimsoqova, Razzoq Hamroyev, Mahmudjon G'ofurov singari ko'plab musiqali drama ustalarining yetishib chiqishi o'zbek teatrining boshdanoq mustahkam zaminga evrilib, so'ng jahon teatri tajribalarini ijodiy o'zlashtirgan holda jadal taraqqiy topishining tabiiy mahsuli ekani o'z-o'zidan ayon bo'ladi.

Toshkent teatr san'ati instituti 1950 yillardan boshlab oliy malakali aktyor va rejissyor kadrlarni yetishtira boshlagach, o'zbek teatrining nufuzi tez ko'tarila bordi. Institut rejissyorlik bo'limini birinchilardan bo'lib bitirgan razzoq Hamrayev, Toshxo'ja Xo'jayev, Albert Xachaturov, Shuxrat Abbosov, Ibrohim Ahmedov, Hoshim Islomov, Anatoliy Qobulov, Obid Tolipov, Mahkam Muhammedov kabi rejissyorlarning sa'y-harakati tufayli poytaxtdagina emas, shu qatori viloyatlarda ham teatrlarning professional darajasi yoppasiga ko'tarila boshladi.

1960-1970 yillari yana bir guruh iste'dodli rejissyorlar yetishib chiqadi. Bular Nosir Otaboyev, Abdurashid Rahimov, Karim Yo'ldoshev, Mansur Ravshanov, bahodir Yo'ldoshev, Ubaydulla Baqoyev, Rustam Hamidov, Ibodulla Niyozmetov. Baxtiyor Ixtiyorov, Jo'ra Mahmudov, Ergash Masafayev kabilar edi.

Prezidentimiz Islom Karimov O'zbek Davlat akademik drama teatrining ochilishi marosimida (2002-yilning 30-avgustida) so'zlagan nutqida: «Necha yillar davomida o'zining beqiyos san'ati va mahorati, klassik asarlarning betakror ijrosi bilan bu teatr

nafaqat milliy san'atimiz muxlislarini, balki dunyodagi manaman degan teatrlarning mashhur rejissor va aktyorlarini, ularning eng nozikta'b teatrshunos va mutaxassislarini ham hayratda qoldirgani ma'lum», — der ekan, mutlaqo haq edi. Prezidentimizning bu nutqi o'zbek teatri tarixini anglash va uning keyingi rivojida katta ahamiyatga egadir. «Bugun, Vatanimiz, yurtimiz XXI asrga qadam qo'yib, o'zining buyuk kelajagi sari intilayotgan, bu yo'ldagi barcha harakatlarimiz imon-e'tiqod tuyg'usi bilan yo'g'rilib, kuchayib borayotgan bir paytda, — deb uqtirdi Prezident, — o'z tarixiy ildizlarimizni, shu jumladan, san'atimiz, milliy teatrimiz tarixini chuqur anglash, undan saboq olish haqida gapirishimiz har jihatdan o'rinli bo'ladi, deb o'ylayman». Bu da'vatkorona so'zlar teatr haqidagi ilm-fanni rivojlantirishda ham alohida qimmatga ega.

O'zbek teatrining rivojlanishi davomida uni o'rganish, tadqiq etishga qaratilgan alohida ilm sohasi — teatr tanqidchiligi va teatrshunoslik fani tarkib topdi. M. Uyg'ur nomidagi San'at institutidan oliy malakali teatrshunos kadrlarning yetishib chiqishi bilan, 1950-yillardan e'tiboran o'zbek teatrining o'tmishi va zamonaviy jarayonini ilmiy o'rganishda yangi davr boshlandi. O'zbek teatrining alohida davrlari, aktyorlik, rejissorlik san'ati muammolari, aktyor va rejissorlarning ijodiy yo'llari haqida o'nlab monografiyalar, kitoblar chop etildi. Akademik M. Rahmonovning ikki jildidan iborat «Hamza nomli O'zbek Davlat akademik drama teatri tarixi» (2001-y.), «Istiqlol va milliy teatr» (2001-y.) maqolalar to'plami, M. Qodirovning «Tomosha san'ati o'tmishidan lavhalar» (1993-y.), Sh. Rizayevning «Jadid dramasi» (1997-y.), T. Islomovning «Tarix va sahna» (1998-y.), T. Tursunovning «O'zbek teatri tarixi» (2002-y.) dasturiy qo'llanmasi teatrshunoslik ilmining keyingi yillar mahsuli hisoblanadi.

«Milliy teatrimiz tarixini chuqur anglash» haqida so'z borayotgan ekan, teatrshunoslik fani oldida uning ayrim muammolari bo'yicha ilmiy monografiyalar qatori darslik va o'quv qo'llanmalari yaratish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda. Taassufki, hozirga qadar oliy o'quv yurtlari, litsey va kollejlarda talabalari uchun mo'ljallangan qo'llanmalar yaratilganicha yo'q. Qo'lingizdagi qo'llanma shu yo'nalishdagi ilk izlanish hisoblanadi.

Qo'llanma Prezidentimizning nutqi bilan boshlanadi. Kitobda qayd etilgan ko'plab tarixiy hujjatlar, ya'ni xotiralar, pyesalardan olingan parchalar, mutaxassislarning sharhlari Prezident nutqida ifoda etilgan fikr-mulohazalarni to'la tasdiqlay oladi.

Kitobdan o'rin olgan manbalarni uch guruhga bo'lish mumkin. Asarlarni tanlashda asosiy e'tibor ularning adabiy-badiiy qimmatini hamda sahna san'ati rivojida tutgan o'rniga qaratildi. Teatr va dramaturgiya rivojida alohida o'rin tutgan Abdurauf Fitrat, Hamza Hakimzoda, Maqsud Shayxzoda, Abdulla Qahhor kabi dramaturglardan ikkitadan pyesa olindi. Ayrim hollarda hozirda dolzarb bo'lmagan, lekin teatrdan shov-shuvli muvaffaqiyat qozongan (masalan, B. Rahmonovning «Yurak sirlari» asari) pyesalardan ham namunalar keltirildi. Ikkinchi guruhga oid manbalar rejissorlar, aktyorlarning xotiralaridan iborat. Ular orqali ijodiy jarayonda bevosita ishtirok etgan M. Uyg'ur, M. Muhamedov, H. Nosirova, Q. Xo'jayev, Z. Sadriyeva singari o'nlab san'atkorlarning jonli taassurotlari va kuzatuvlari bilan tanishish mumkin.

Teatrshunos olimlar, qisman adabiyotshunos va jurnalistlarning tadqiqotlari, vaqtli matbuotda chop etilgan maqola va taqrizlaridan olingan ko'chirmalar uchinchi guruhga oid manbalardir.

Ijodiy jarayonda bevosita ishtirok etgan kishilarning kuzatuv va yozishmalari, pyesa va spektakllar yaratilgan paytda matbuotda izma-iz chiqqan maqola va taqrizlar teatr tarixini

xolis anglashda eng inobatli manbalar hisoblanadi. Bularning qimmati shundaki, o'quvchi ular orqali teatr haqida, u yoki bu san'atkor ijodining o'ziga xosligi haqida o'zi mustaqil fikr yuritishi, xulosalar chiqarishi mumkin. Ushbu kitob shu vazifani ado etishga qaratilgan.

MILLIY TEATRIMIZ — IFTIXORIMIZ

Respublikamiz Prezidenti Islom Karimovning 2001-yil 30-avgustda Toshkent shahrida O'zbek davlat akademik drama teatri yangi binosining ochilishi marosimida so'zlagan nutqi.

Assalomu alaykum, aziz do'stlar!

Muhtaram san'atkorlar!

Qadrli mehmonlar!

Avvalo, barchangizni bugungi unutilmas kun — azim poytaxtimiz Toshkent shahrida ushbu ajoyib san'at saroyi — O'zbek davlat akademik drama teatrimizning yangi binosi ochilishi munosabati bilan chin qalbindan samimiy muborakbod etaman.

Hurmatli birodarlar!

Bugun yurtimizdagi eng ulug' va eng aziz bayram arafasida mana shu betakror, muhtasham, zamonaviy teatr koshonasi san'at muxlislari uchun o'z eshiklarini ochayotgani g'oyat quvonchlidir.

Bunday go'zal saroyning taqdimot marosimida ishtirok etishning o'zi har qanday odamni ham quvontirib, uning ko'ngliga xush kayfiyat, yorug'lik bag'ishlaydi, desam, o'ylaymanki, barchangiz bu fikrga qo'shilasiz. O'zingiz bilasiz, o'zbekiston rahbari sifatida mening ko'p-ko'p xalqaro miqyosdagi katta anjumanlarda, mahobati bilan ko'zni qamashtiradigan saroylarda, imperatorlar, qirol va podshohlarning qasrlarida, bugungi zamonning eng chiroyli, boy va hashamatli binolarida bo'lishimga, u joylarda nutq so'zlashimga, muloqotlarda ishtirok etishimga to'g'ri keladi.

Lekin men mana shu daqiqalarda qalbindan bir hayajon kechirayotganimni sizlarga ochiq aytishim kerak.

Bu hayajonning sababi shundaki, o'zbek madaniyatining ko'zgusi bo'lgan mana shu akademik teatrimiz sahnasida Mannon Uyg'ur, Yetim Bobojonov, Abror Hidoyatov, Shukur Burhonov, Olim Xo'jayev, Sora Eshonto'rayeva, Nabi Rahimov, Obid Jalilov, Zaynab Sadriyeva, Toshxo'ja Xo'jayev, Aleksandr Ginzburg, G'ani A'zamov singari ne-ne buyuk san'at namoyondalarining qutlug' izlari qolgan, ovozlari yangragan, ularning o'lmas ruhi bugun ham shu dargohda kezib yuribdi.

Necha yillar davomida o'zining beqiyos san'ati va mahorati, klassik asarlarning betakror ijrosi bilan bu teatr nafaqat milliy san'atimiz muxlislari, balki dunyodagi manaman degan teatrlarning mashhur rejissor va aktyorlarini, ularning eng nozikta'b teatrshunos va mutaxassislarini ham hayratda qoldirgani ma'lum. O'zbek teatrining nomini butun dunyoga tanitgan bunday ijodkorlar har qaysi xalq va davlatning faxru iftixori bo'lishga munosib ekanini bugun vaqtning o'zi isbotlab bermoqda, desam bu ham ayni haqiqat bo'ladi.

Bu tarixiy sahnada Beruniy, Ibn Sino, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo kabi ulug' siymolar Vatanga sadoqat, ezgulik va adolat, ma'rifat va nafosat singari oliyjanob fazilatlaridan, muxtasar qilib aytganda, insoniylik ilmidan minglab tomoshabinlarga, butun xalqimizga saboq berganini minnatdorlik bilan eslaymiz.

Ishq-muhabbat, halollik, do'stlik, odamiylik kabi yuksak tuyg'ular ifoda etilgan, zamon va inson muammolari haqida bahs yuritadigan, hali-hanuz tomoshabinlar xotirasidan

o'chmay kelayotgan o'nlab san'at asarlari ham mana shu teatrimiz tarixining yorqin sahifalarini tashkil etadi.

Bir so'z bilan aytganda, odamlarning qalbiga beqiyos ta'sir o'tkazib, ularni mudom ezgulik va oliyanoblikka chorlab kelayotgan akademik teatrimiz ma'naviy hayotimizning uzviy bir qismiga aylanib qolgan, desak, hech qanday mubolag'a bo'lmaydi.

Muhtaram do'stlar!

Bugun biz o'zligimizni anglash yo'lida o'tmishimizning va ilgari noma'lum bo'lgan sahifalarini ochayotgan hozirgi sharoitda teatr san'atimiz tarixidagi ba'zi nuqtalarning asl mohiyati namoyon bo'layotganiga guvoh bo'lib turibmiz.

Tarixiy haqiqat nuqtayi nazardan qaraganda, Abdulla Avloniy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar qori kabi ma'rifatparvar ziyolilarimiz tashabbusi bilan tashkil etilgan o'zbek teatri truppassi 1914-yil 27-fevral kuni Toshkent shahrida, hozirgi Birja markazi o'rnida joylashgan «Kolizey» binosida «Padarkush» spektaklini namoyish etgani — bu Turkiston zaminida professional teatr talablariga javob beradigan birinchi milliy sahna asari bo'lganini aytib o'tish o'rinli, deb bilaman.

XX asr boshida, mustamlakachilik zulmiga qaramay, xalqimiz yangi urflarga — milliy uyg'onish va erkinlik sari intilib yashagan bir davrda buyuk ajdodlarimiz — jadidlar tomonidan amalga oshirilgan bu ulkan ish, bu harakatni o'ziga xos ma'naviy jasorat namunasi deb atash mumkin.

Bugun, Vatanimiz, yurtimiz XXI asrga qadam qo'yib, o'zining buyuk kelajagi sari intilayotgan, bu yo'ldagi barcha harakatlarimiz imon-e'tiqod tuyg'usi bilan yo'g'rilib, kuchayib borayotgan bir paytda, o'z tarixiy ildizlarimiz, shu jumladan, san'atimiz, miliy teatrimiz tarixini chuqur anglash, undan saboq olish haqida gapirishimiz har jihatdan o'rinli bo'ladi, deb o'ylayman.

Aziz yurtdoshlarim!

Shu zalda o'tirganlarning ko'pchiligi yaxshi biladi — bu joyda ilgari «Vatan» degan kinoteatr bo'lar edi. Keyinchalik shu bino teatr uchun naridan beri moslashtirib berilgan edi. Har gal Navoiy ko'chasidan o'tganimda ushbu teatrni ko'rib, bu dargohda ne-ne san'atkorlar, ularning iste'dodli davomchilari ijod qilsa-yu, u ana shunday yuksak badiiy salohiyatga munosib binoga ega bo'lmasa, degan savol ko'pchilik qatori mening ham ko'nglimdan kechar edi.

Chunki sahna san'atining odamlarga nafaqat zavq-shavq baxsh etishi, ayni vaqtda milliy g'urur, milliy iftixor manbayi, qudratli tarbiya vositasi ham bo'la olishi — bu isbot talab qilmaydigan haqiqatdir. Teatrning madaniy hayotimizdagi ulkan vazifasi to'g'risida, uning o'rnini hech narsa bosa olmasligi haqida, umuman teatrni ulug'lash, uning ta'sir kuchi haqida ko'p gapirish mumkin.

Lekin bu borada bitta muhim masala borki, u ham bo'lsa teatr o'zining shu vazifasini ado etishi uchun, insonning qalbiga, ongu tafakkuriga ta'sir o'tkazib, uni ezgu fazilatlar sari chorlashi uchun teatr va uning jamoasiga, san'at fidoyilariga shart-sharoit yaratib berish zarurligini goho unutib qo'yamiz.

Umuman, bu muammolardan uzoq bo'lish, bu masalada mas'uliyatni bo'yniga olmaslikka urinish holatlari har qadamda uchrab turadi.

Ta'bir joiz bo'lsa, shuni ta'kidlash zarurki, hammamiz teatr tomoshalarini yaxshi ko'ramiz, ammo unday ta'sirchan sahna asarlarini nechog'li mashaqqatli va og'ir mehnat evaziga dunyoga kelishi haqida o'ylab ko'rmaymiz.

Ya'ni, bu san'at koshonasini Prezidentning, davlatning, mamlakatning, hukumatning, Madaniyat ishlari vazirligining, Toshkent shahar hokimligining, kerak bo'lsa, mana shu Shayxontohur tumani hokimligining, balki yana bir qancha katta-kichik rahbarlarining saxiyligi, g'amxo'rligi sifatida ta'riflanishini kutishimiz mumkin.

Lekin, bu borada men shuni aytmqochimanki, bu teatr binosini bunyod qilganimiz o'zbek madaniyatining iste'dodli namoyandalari bo'lmish sizlarning oldingizda, qolaversa, sizning timsolingizda bugungi yorug' kunlarga yetib kelolmagan buyuk san'atkorlarimizning ruhi oldida biz o'z qarzimizni, o'z burchimizni ado etganimiz ifodasi, xolos.

Muhtaram san'at arboblari!

Bugun mana shu nafosat saroyida siz, azizlar bilan bir taklif haqida maslahat qilmoqchiman: milliy ruh va zamonaviy qiyofada qayta tiklangan ushbu teatrimizni bundan buyon O'zbekiston Milliy akademik drama teatri deb atasak, nima deysizlar?

O'ylaymanki, bunday yuksak va sharaflı nom bu koshonaga bamisoli uzukka ko'z qo'ygandek yarashadi, san'at namoyandalarini yangi ilhom va mas'uliyat bilan ijod qilishga, milliy istiqlol g'oyalari ruhida badiiy barkamol asarlar yaratishga, zamonamiz qahramonlarining yorqin obrazlarini yuksak darajada talqin etishga ruhlantiradi.

Men milliy teatrimiz sahnasida sizlar yaratadigan rang-barang asarlarni millionlab san'at ixlosmandlari, butun xalqimiz hayrat va hayajon, zavqu shavq bilan tomosha qilishini, ular hayot yo'llarida duch keladigan, har bir insonni o'ylantiradigan murakkab savollarga teatr ibрати orqali javob topishini istayman.

Sizlar o'zbek teatr san'atimizning eng yaxshi an'alarini asrab-avaylab, rivojlantirib, kelajak avlodlarga yetkazasiz, milliy va umumbashariy qadriyatlarni tarannum etuvchi yetuk asarlaringiz bilan xalqimiz madaniyatini yanada yuksaltirishga munosib hissa qo'shasiz, deb ishonaman.

Barchangizga tilagim shuki, sizlar sahnada betakror obrazlar yaratib, xalqimiz mehriga sazovor bo'lishdan charchamang, bizga esa ajoyib mahoratingizga qoyil qolib, san'atingizni olqishlab, sizlarga mana shunday hurmat-ehtirom, izzat-ikrom ko'rsatib yurish nasib etaversin.

Hayot haqida, inson umrining ma'no-mazmuni haqida teatr ixlosmandlari bilan qizg'in va jonli muloqotingiz davom etadigan, yurtimiz, millatimiz dovrug'ini tarannum qiladigan bu muazzam ijod maskani avvalo sizlarga, barcha san'atkorlarimizga buyursin, ezigulik va go'zallikni yuksak qadrlaydigan tomoshabinlarga, butun xalqimizga muborak bo'lsin.

Fursatdan foydalanib, ushbu madaniyat qasrini bunyod etgan qo'li gul quruvchilarimizga, me'moru muhandislarimizga, bu oliyjanob ishda qatnashgan barcha yurtdoshlarimizga o'z nomimdan, butun san'at muxlislari nomidan samimiy minnatdorlik izhor etaman.

Mana shu unutilmas daqiqalarda barchangizni Vatanimiz istiqlolining 10 yillik qutlug' to'yi bilan yana bir bor tabriklayman.

Sizlarga yangi-yangi ijodiy yutuqlar, sihat-salomatlik, xonadonlaringizga baxtu saodat tilayman. Ilhomingiz, iste'dodingiz yanada ziyoda bo'lsin, hamisha muxlislaringiz, xalqimiz ardog'ida bo'ling.

E'tiboringiz uchun tashakkur.

MAHMUDXO'JA BEHBUDIY

(1874—1919)

Mahmudxo'ja Behbudiyl Samarqand yaqinidagi Baxshiyona qishlog'ida ruhoniyl oilasida tug'ilgan. Avval u eski maktabda, so'ng madrasada tahsil ko'radi va XX asrning boshlaridan jo'shqin ma'rifatparvar sifatida ko'rina boshlaydi. Yangi usuldagi maktablar ochadi, darsliklar yaratadi, gazeta va jurnallar chop ettirib, o'zga xalqlar ilg'or tajribalarini o'zlashtirish, zamonaviy bilimni egallash haqida ko'plab maqolalar e'lon qiladi.

Mahmudxo'ja Behbudiylning milliy g'oya, erkinlik ideallarini targ'ib etishda eng ommabop hisoblanmish milliy teatr san'atini barpo etish dasturi bilan maydonga chiqishi ayniqsa katta ahamiyatga ega bo'ldi. U o'zi noshir va muharrir bo'lgan «Oyna» jurnali orqali teatr san'atini uzluksiz ravishda targ'ib etadi. «Teatr nadur?», «Turkistonda birinchi milliy teatr», «Teatr, musiqa, she'r» kabi maqolalari bilan O'zbekistonda teatr tanqidchiligini boshlab berganlardan biri bo'ldi. Uning tashabbusi va da'vati bilan Nusratillo Qudratullo, Hoji Muin Shukrullo, Abdulla Badriy kabi yosh adiblar dramaturgiyaga kirib keladilar. Mahmudxo'ja Behbudiylning o'zi esa «Padarkush yoxud o'qimagan bolaning holi» (1911) pyesasini yaratish bilan ko'plab yosh ziyolilarga namuna ko'rsatdi.

U zulm va jaholatga qarshi ayovsiz kurash olib bordi. 1919-yili erkinlik dushmanlari qo'lida vahshiylarcha o'ldirildi.

MAHMUDXO'JA BEHBUDIY TEATR HAQIDA

Teyotr — ibratnomadur... Hech kimni rioya qilmasdan to'g'ri so'zlaguvchi va ochiq haqiqatni bildiruvchidir... Umumiy odatlarni nafi va zararidan paydo bo'laturg'on natijalarni teatr-xonada aynan ko'rsaturlarki, har kim mundan ta'sirlanib, yomon odatlarni tark etib, yaxshilikni ziyoda ishlamoqg'a sabab bo'lur... teyotr xonalari masxarabozxona bo'lmay, balki ibratxonadur, mushaxxis-aktyor muallimi axloqdurlar.

MAHMUDXO'JA BEHBUDIY ZAMONDOSHLARI XOTIRASIDA

Siyosiy, ijtimoiy faoliyat va bilimining kengligi jihatidan Turkistonning o'sha vaqtdagi jadidlaridan unga teng keladigani yo'q, deb o'ylayman.

Fayzulla Xo'jayev

Behbudiyl eng avval Turkistonni chor hukumati qo'lidan qutqarish g'oyasini elga talqin qiluvchilardan, aholining ezilganligini birinchi sezganlardan va bu haqda turli usta yo'llar ila xalqni istiqbol ko'rishga chaqirganlardandir. Turkistonning uyg'onish davrini uch qismga — maorif, matbuot va jamiyatga bo'lib, shu davr rahbarlarini tekshira boshlasak, bu harakatlarning boshida Behbudiyl turganligini ko'ramiz.

Laziz Azizzoda

Behbudiy afandi bir yoqdan o'zining «Padarkush» kitobini yozib, Turkistonda yangi adabiyotga negiz qo'yg'onidek, ikkinchi yoqdan shul asari bilan yerlik xalqning o'z orasidan sahna olamiga ishlaguchi kuchlar yetishtirib, Turkiston teatrini tug'dirdi.

Abdulhamid Azamat, tatar teatr arbobi

Mahmudxo'ja Behbudiy uyg'onish davri va o'zbek adabiyoti tarixida birinchi o'rinni olurga loyiq bir zotdir.

Hoji Muin Shukrullo, dramaturg.

«Padarkush» XX asr boshida Turkiston xalqlari hayotini eng dolzarb muammolari mavzuida yozilgan bo'lib, u jadidizm mafkurasining dasturi sifatida ma'rifatparvarlikning tub siyosiy va ijtimoiy maqsadini ifodalagan. O'qimagan bolaning jamiyatni olg'a siljishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi haqidagi asargina emas, muallif bu pyesada jadidlarning Turkistondagi ijtimoiy tuzumga, mustamlaka zulmiga bo'lgan munosabatlarini boy va uning o'qimagan o'g'li misolida tasvirlagan.

«PADARKUSH» asari haqida sharhlar. *Mamajon Rahmonov*,
O'zFA akademigi «Hamza nomidagi O'zbek Davlat
akademik drama teatri tarixi». G'afur G'ulom
nomidagi Adabiyot va san'at
nashriyoti, 2001-yil, 9-bet.

«Padarkush» dramasi Samarqanddagina emas, balki butun O'rta Osiyo, Kavkaz va Tataristonda katta voqea bo'ldi. Ana shu voqeaning kuchli ta'sirida Toshkentda, Kattaqo'rg'onda, Qo'qon, Namangan, Andijon va Buxoroda teatr truppalari vujudga keldi... Shunisi quvonchliki, barcha shaharlarda namoyish etilgan spektakllarning daromadi xalqni ma'rifatlantirish uchun sarf qilindi: bunga o'zbek matbuotida misollar juda ko'p. Ushbu masalada ham Behbudiyning xizmati kattadir.

Sirojiddin Ahmedov, san'atshunoslik fanlari nomzodi
«O'limdan qo'rqmagan mutafakkir».
«Sovet O'zbekistoni san'ati»
jurnali 1989-yil, 2-son.

1914-yil 27-fevralda Toshkent Yangi shaharidagi «Kolizey» teatrining 2000 kishilik tomoshaxonasida kech soat yettida «musulmon jamiyati imdodiyasi foydasig'a» Toshkent teatr havaskorlari rasman o'z spektakllari namoyishini boshlaydilar...

Ilk parda ochilishidan avval sahnaga Munavvar qori Abdurashidxonov chiqib, teatrning «ibratxona» ekani, unga yengil-yelpi qaramaslik, aktyorlar esa «bir tabibi hoziq misoli» ekanliklaridan qisqacha va'z so'ylab, butun jamoani buyuk madaniy hodisa bilan tabrik etadi.

«Padarkush»ning Toshkent truppasi tomonidan sahnalashtirilishi kutilgandan ko'ra a'loroq natijalar berdi. Bu voqea Turkistondagi shu davrda mavjud bo'lgan barcha matbuot nashrlarida yoritilgan edi. Jumladan, «Turkiston viloyatining gazetasi»ning axboroti g'oyat

xarakterli: «Turkiston viloyati taraqqiylik Rusiya hukumatiga tobe bo'lganiga yarim asr bo'lib, sartiylarda bu o'yin birinchi marotaba bo'lib ham shu darajada yaxshi o'xshatdilarki, har qayu teatrni ko'rib, teatr ishiga omil kishilar bularning, yangi o'rganganlariga inonmay, balki bular bir necha yil Ovrupada mashq qilgan odamlar, deb xayol qiladi... Rusiya hukumatiga tobe bo'lganiga 300 yil bo'lgan tatarlardan necha daraja ortiq deganda mubolag'a bo'lmas. U muqallid o'yinida sartiylalar, tatarlar shu daraja ko'p bo'ldilarki, keyin kelgan odamlarga bilet yetmay qolib, teatr ichida va tepalarida odamlar mo'ru malaxdek qaynab turdilar. Rusiyalar ham bo'ldilar. Sartiylarning bu tariqa ko'p bo'lganliklari teatrga ishlari va taraqqiyga qadam qo'yishlarining alomati bo'lib, teatrdan tushgan aqcha Toshkent jamiyati imdodiyasi foydasig'a berilar ekan».

*Shuhrat Rizayev «Jadid dramasi»,
1997-yil, 63—64-betlar.*

«Padarkush» pyesasida o'qimishli bo'lishdan ko'ra o'qimaslikni afzal ko'rgan bir boy va o'qimay, otasi pullarini ichkilikka sarf qilib, oxiri o'z otasi o'limiga sababchi bo'lgan bebosh o'g'il Toshmurodlarning fojiali qismati haqida hikoya qilingan.

Asar ilk bor 1914-yilning yanvarida Samarqandda, so'ng o'sha yilning 27-fevralida Toshkentda «Turon» truppasida (rejissor Ali Asqar Asqarov) sahnalashtirilgan. «Turon» truppasida bosh rollarni Abdulla Avloniy (boy), Nizomiddin Xo'jayev (Ziyoli) kabi aktyorlar ijro etganlar.

Quyida pyesaning birinchi pardasidan Boy va Ziyoli suhbatini chop etildi.

PADARKUSH YOXUD O'QIMAGAN BOLANING HOLI

Ziyoli musulmon kirar, palto va asosini mixga qo'yar. Boy ola-ola Harar, xohlamas.

Ziyoli. Assalom alaykum.

Boy (*karaxt ila*). Va alaykum assalom, Xayrulla! Kursi keltur. Bu kishi yerg'a o'ltura olmaydur.

Kelturar. Ziyoli o'lturub papiros chekar.

Ziyoli. Janob boy, sizni kayfsiz ko'rarman. Mumkinmi sababini bilsam?

Boy. Bir mullomehmon kelib edi, o'g'lungni o'qutmaysan, deb juda jonimni oldi. Quvlagandek qilib zo'rg'a qutuldim, faqat mushlashmadug.

Ziyoli. Oh-ho, qiziq va interesniy hodisa emish. (*Odamlarga qarab*) Bu shaharda boylarga amri ma'ruf qilaturgan mullo bor ekan, xudoga shukur. Ul janob haqqoniy domlani topib, ziyorat qilmak kerak, boy afandi! Sizga malol kelmasun, ushbu to'g'ridan men ham sizga qachonlar bir necha so'z aytmoqchi edim. Va ammo soati, birinchi daqiqa manga quloq bersangizki, ilm naf'i to'g'risinda so'zlayin.

Boy (*ola-ola qarab*). Endi bildim, Siz ham o'g'lungni o'qut, deb mani qisar ekansiz. (*Odamlarga qarab.*) Bukun chap qo'lim ila turganman. O'ylaymanki ishlar oldimdan chiqar. Mazmuni: qordan qutulib, yog'murga uchraymiz. Xayrulla! Chilim keltur! (*Tarafayn sukut. Chilim kelar. Boy chekar, yo'talar*).

Boy. Xayrulla!

Xayrulla. Labbay, taqsir!

Boy. Joyimni tashla, uyqum keldi. (*Hamyoza tortar*). Ertag'a ishlar ko'b, vaqtlik yotmak kerak. (*Yana hamyoza*).

Xayrulla. Xo'sh, taqsir.

Ziyoli (*jiddiyat ila*). Boy afandi! Men sizga dedimki, millatga keraklik ilmlar to'g'risida so'zlamogchiman, ammo siz mani so'zumni eshitmoqg'a xohlamaydurganga o'xshaysiz! Ikkinchi daf'a aytarmanki, quloq, bering va bu so'zlar sizni va millatni naf'idur!

Boy. So'zingizni jabr va zo'r ila eshitturarsizmi? Va yo mani azob bermoqg'ami keldingiz?

Ziyoli. Yo'q, men asli boshqa ish uchun kelib edim va lekin ilm bahsini ustidan chiqib qoldim, ushbu sababli muddaoni tabdil qilib, ilm to'g'risidan sizga bayon qilmoqni qasd etdim, shoyadki, janobingizdek boylar millat bolalarini o'qitmog'iga sa'y qilsalar.

Boy (*Xalqqa qarab*). Koshki domla hikoyatini aytmasa edi. Xo'p, madomiki, kuymaysiz, ertaroq so'ylab tamom qiling, uyqum kelgan (*hamyoza*). Odamlar bolasini o'qut, deydur-o.

Ziyoli. Hozir yangi va boshqa zamonadur. Bu zamonga ilm va hunarsiz xalqning boyligi, yeri va asbobi kundan-kun qo'lidan ketgandek, axloq va obro'vi ham qo'ldan chiqar, hatto dini ham zaif bo'lur. Buning uchun biz, musulmonlarni o'qimoqg'a sa'y qilmoq'imiz lozimdur. Vaholanki, dini sharifimiz har nav naflik ilm o'qumoqni beshikdan mozorgacha bizlarga farz qilgandur. Bu hukm — hukmi shariatdur. Biz, musulmonlarga alal-xusus, bu zamonda ikki sinf ulamo kerakdur: biri olimi diniy; digari olimi zamoniyy; olimi diniy: imom, xatib, muddaris, muallim, qozi, muftiy bo'lub, xaloyiqni diniy va axloqiy va ruhoniyy ishlarini boshqarar, bu sinfga kiraturg'on talabalar, avvalo, Turkistonda va Buxoroda ilmi diniy va adabiy va biroz ruscha o'qub, so'ngra Makka, Madina, Misr yo Istambulda borib, ulumi diniyyani xatm qilsalar kerak. Toki komil mulla bo'lsunlar. (*Boy mudraydur.*) Ongladingizmi, boy?

Boy (*boshini ko'tarib*). Ha, ha ayta bering. Qulog'im sizga.

Ziyoli. Olimi zamoniyy bo'lmoq uchun bolalarni, avvalo, musulmoniy xat va savodini chiqarib, zaruriyoti diniyya va o'z millatimiz tilini biladurg'ondan so'ngra hukumatimizni nizomiy maktablarida bermoq kerakdur: ya'ni gimnaziya va shahar maktablarini o'qub tamom qilganlaridan so'ng Peterburg, Maskav dorilfununlariga yuborib, do'qturlik, zakunchilik, injirnerlik, sudyalik, ilmi tijorat, ilmi ziroat, ilmi iqtisod, ilmi hikmat, muallimlik va boshqa ilmlarni o'qitmak lozimdur. Rusiya vatanini va davlatina bilfe'l sherik bo'lmoq kerakdur hamda davlat va mansablariga kirmak lozim. Toki maishat va ehtiyoji zamoniyyamiz to'g'risida vatan va millati islomga xizmat qilsinsa. Va podshohlik mansablariga kirib musulmonlarga naf yetkurilsa va ham davlati Rusiyaga sherik bo'linsa, hattoki, shu tariqa o'qigan musulmon bolalarini Farangiziston, Amrika va Istanbul dorilfununlariga tajriba uchun yibormak kerakdur. Hazrati paygambarimiz: ilm Xitoyga ham bo'lsa talab qilingiz, demadiblarmu? (*Boy uyquda*). Bul ishlar bo'lmasa, magar pul ilava sizdek katta boylarni qimmatiga ila, chunonchi, Kafkaz, Urunburg va Qozon musulmonlarini boy va aqli hayriyoti ilm yo'liga ko'p pullar sarf etadilar va kambag'al bolalarini o'qutdurarlar. (*Boyga qarab.*) Albatta, so'zlarimg'a tushungansiz, janob boy! Boy! Bobo boy!

Boy (*mudraydur, bosh ko'tarib, esnab*). Ha, ha.

Ziyoli. Aloho, biz Turkiston xalqig'a bir imon odat borki, bir kishi ruscha o'qub, podshohlik ishig'a kirib, rasmiy furma kiysa, oni ayb qiladurlar. Yo bir musulmon bolasi nizomiy maktab furmasida yursa, masxara qiladurlar. Agar izvoshchik va yo qaro

mehnatkash bo'lub, ovrupoyilarni eski libosini kiysa va yo javon bacha bo'lub, o'yunchilar libosini kiysa, hech kim bir nima demaydurki, bur kamoli nodonlik va dunyodan xabarsizlikdur. Shunday emasmur, amaki boy?!

Boy (*o'ltirgan yeridan bir tarafg'a og'ib yotib*). Xur-xur-xuro-xuro...

Ziyoli. Iloho, xudoyo! Ummati islomiyag'a, xususan, biz turkistonliklarga rahming kelsun. (*Ro'moli ila ko'z yoshini artib chiqib ketar.*)

Mahmudxo'ja Behbudi. Tanlangan asarlar
«Ma'naviyat» nashriyoti, T., 1999-yil.

ABDULLA AVLONIY

(1978—1934)

Abdulla Avloniy Toshkentning Mergancha mahallasida to'quvchi oilasida tug'ilgan. Avval diniy maktabda, so'ng madrasada tahsil ko'rgan, XX asrning birinchi o'n yilligidayoq jurnalist, shoir sifatida ko'rinadi, gazetalar chop ettiradi, «usuli jadid» maktablari uchun darslik, o'quv qo'llanmalari yaratadi.

A. Avloniy Turkistonda birinchi (1913) o'zbek truppasining asoschisi hisoblanadi. Truppa o'zining birinchi pardasini 1914-yilning 27-fevralida M. Behbudiyning «Padarkush» pyesasi bilan ochdi. Truppaning 1917-yilgacha davom etgan faoliyatida A. Avloniy aktyor, rejissor, dramaturg va tarjimon sifatida ish olib borgan. U Boy («Padarkush»), Fayziboy («Baxtsiz kuyov»), shayx Nasrullo («O'liklar») kabi rollarni birinchi bo'lib ijro etgan, «Qotili Karima», «Badbaxt kelin», «Xo'r-xo'r» kabi qator pyesalarni tatar va ozar tilidan o'zbekchaga ag'dargan va o'zi sahnalashtirgan. Dramaturgiya sohasida «Finak» (1915), «Advokatlik osonmi?» (1916), «Ikki muhabbat» (1916) singari pyesalar yaratgan.

Abdulla Avloniy o'zbek, tatar, ozarbayjon teatr aloqalarining tashkilotchilaridan biri sifatida ko'rindi. Unga mehnat qahramoni (1925), professor (1930) unvonlari berilgan.

Abdulla Avloniyning e'tiborli xizmatlaridan yana biri «Turon» truppasi «Nizomi»ni tuzish va amalda ro'yobga chiqarishda namoyon bo'ldi.

Abdulla Avloniy komediyalarida bilimsizlik — kishilarni jaholat va nodonlik botqog'iga botiruvchi og'ir qismat tarzida talqin etilgan. «Advokatlik osonmi?» asarida shunday voqea tasvir etilgan: Rossiyada tahsil ko'rib advokatlik kasbi bilan Turkistonga qaytgan Davronbek yetti yil avvalgidek yana o'sha nodonlikka duch keladi. Uning qabuliga arz bilan kelgan kishilar o'z muammolarini hal etish yo'lini bilish u yoqda tursin, maqsadlarini ham aniq tushuntirib bera olmaydilar. Pyesada olti arzchi bilan bo'lgan mashmasha ifoda etilgan. Quyida ikki arzhining hol-ahvoli bilan tanishasiz.

ADVOKATLIK OSONMI?

M e h r i n i s o (*eshikdan kirar, so'rashur. Advokat joy ko'rsatur, o'ltirar*). Jonginam, onaginang aylansun, seni daragingni eshutub oldingga keldim. Bizani mahallani yaqinidagi Rustambekni o'g'li ekansan. Opaginang aylansun, man boshimdan o'tgan sarguzashtlarimni sanga birin-birin so'ylab berayin, san yaxshigina quloq solib, tinglab, xatga yozub turgin. Opaginang aylansun, qo'lingga qalam-qog'ozingni ol.

D a v r o n b e k. Xolajon, avval gapiraturg'on gapingizni cho'zmasdan qisqagina gapirung. Qog'oz, qalamga navbat keyin keladur.

M e h r i n i s o. Opaginang aylansun, dunyoni mani xasratimga quloq soladurg'on odam ham bor ekan. Dod-faryodimga yetadurg'on kishini endi topdim. O'n besh yildan beri man baxti qaro sho'rlik... Bir qimorbozni qo'liga tushub, o'tga yoqilub, toshga chaqildim. Kuyub-o'rtanub cho'b-ustuxon bo'lub ketdim. Rahmatlik ota-onam bor vaqtida bu yigit o'lgur erim manga muncha zulm qilolmas edi. Ular o'lgandan keyin ayniqsa, bu sho'rlik

boshim to'qmoq ostida qoldi. Har kun ichg'on oshim zahar-zaqqum, ko'rg'on kunimni it ham ko'rmasun. Mani muttaham erim qurg'ur bir kun qimorg'a yutquzub kelub, alamini mendan olsa, bir kun mast bo'lub kelub, man sho'rlikni boshig'a qiyomat kunini soladi. Ichg'on oshim — zahar-zuqqum, ko'rgan kunum — jahannam.

D a v r o n b e k. Xolajon, bu yerga kelishdan maqsadingiz nima, shundan gapuring, gapni ko'p cho'zmang.

M e h r i n i s o. Opaginang aylansun, jonginamni qoqay. Mani hasratlarim juda ko'p. Bir boshidan sanga tushuntirmasam, maqsadinga yetmayman, alamimdan chiqmayman. Etni tutog'i bit — degandek, mani qimorboz okam qo'yarda-qo'ymasdan, ota-onalarim bunga bermaymiz, desalar ham yolg'on-yashiqnlarni gapurub, maqtab, shu zolimni qo'liga mani asir qilub qo'ydi. O'n besh yildan beri it azobin tortaman, dardu hasratlarimni aytayin, desam hech bir jonkuyarim yo'q. Bir necha marotaba qozig'a borub arz qilg'on edim. Yigitgina o'lgur erim ma'ruz, rivoyatmi, allanima balolar qilub, yana uyiga haydab olib keldi. Manga yo'l-yo'riq ko'rsatadurg'on bir jonkuyar bo'lmadiki, u zolimning qo'lidan man mushtiparni ozod qilsa!

D a v r o n b e k. Xolajon, endi nima qilmoqchi bo'lasiz, eringizdan chiqmoqchimisiz?

M e h r i n i s o. Opaginang aylansun, ilojini topsam ul zolimning uyida bir nafas ham turmayman.

D a v r o n b e k. Eringizni sizg'a jabr-zulm qilishig'a mahallangizni domla-imom, ellikboshilari sizning tarafingizdan guvohlik beradilarmi?

M e h r i n i s o. Opaginang aylansun, ijoraxo'r imom ila poraxo'r ellikboshi qachon man mushtiparni tarafi bo'ladi deysan. Qozixonaga borganda ham mahallalari muttaham erimni tarafi bo'lib ketdilar.

D a v r o n b e k. Bo'lmasa endi eringiz urgan vaqtida qo'ni-qo'shnilaringizdan ikki kishini guvoh qilib keling, manga keling, man ilojini qilaman.

M e h r i n i s o (*boshini ochub, yarasini ko'rsatur*). Opaginang aylansun. Mani o'tgan kuni urgan. Yarasi hali ham tuzalgani yo'q.

D a v r o n b e k. Mana man sizg'a katta ko'chadagi do'xtirxonaga qog'oz yozib beraman. Olib borsangiz qo'lingizga, guvohnoma qilub beradur. Soat uchda shu guvohnomani olib keling, man sizg'a tegishlik joyga ariza yozub beraman. Tez fursatda zolim eringizdan qutulursiz.

M e h r i n i s o. Opaginang aylansun (*o'rnidan turib*), advokatlik oson ish emas, manga o'xshag'on g'arib benavolarni (ng) dodiga yetmoq kerak (*chiqib ketar*).

A b d u j a b b o r (*orqasidan*). Qimorboz erga tegub, kaltagini yeb, boshlarni yorub yurmoq ham oson emas.

D a v r o n b e k (*o'rnidan turib jiddiyat ila*). Oh, zolim madaniyat, bizim Turkistonliklarning orasig'a qachon kelub tomir yoyasan?! Qachon bizim bu jaholat zindonidan xalos qilasan?! Bizda uy tarbiyasi boshlanub, xotin-qizlarimiz ilmu maorif ila nurlanmag'uncha bizning oramizda shunday ko'ngilsiz hollar davom etsa kerak. Mana bu xotun bechorani erg'a berg'on vaqtlarida o'z xohishi bilan, o'zining rizolig'i bilan, o'zi ko'rib xohlag'on eriga bermasdan hayvon kabi kuchlab qo'lidan tutib, bir zolimning qo'lig'a berganlar. Bu mushtipar ma'sumaning butun umri azob-mehnatda, qayg'u va kulfatda o'tub dunyog'a kelg'oniga-da ming marotabadan pushmon yeb, g'am zindonida yashag'on. Mana bizning oramizdan bunday ko'ngilsiz hollarni (ng) yo'q qilmoq uchun butun kuch quvvatimizni (ng) xotin-qizlarimizni (ng) o'qitmoq, maorif va madaniyat ila

oshna qilmoq yo'linda sarf qilmog'imiz lozimdur. Shundagina bizlar ham boshqa qavmlar orasinda o'rtoqchasig'a yashamog'imiz mumkindur. (*Eshik qo'ng'irog'i jiringlar.*) Abdujabbor, chiqub qara, yana kim keldi.

A b d u j a b b o r (*zo'r berub kulur*). Xo'jayin, bo'lib qoldingiz g'archcha moy, beliga qamchin qisturg'on bir aravakash, kirsunmi?

D a v r o n b e k. Chaqir, kirsin.

E g a m b e r d i (*kirib, advokat bilan ko'rishub o'lturur*). Mullo aka, man bechora juda og'ir kunga qoldim. Barakallachilarning so'zig'a kirub, o'z holimg'a qaramasdan katta to'y qilub, qarzdor bo'lub, bir parcha hovlim qarzing'a xatlanib, yaqinda sotiladurg'on bo'lib qoldi. Xotunim, to'rt adad yosh go'dak bolalarim ila ko'chada qoladurg'on bo'ldim...

D a v r o n b e k. «Ena — o'ltirishingg'a qarab chena» degandek kambag'al nima uchun o'z holingizg'a qarab to'y qilmadingiz, nima uchun ko'rpangizga qarab oyoq uzatmadingiz?

E g a m b e r d i. Mulla aka, aslo qo'yavering, «Jin charchaganni urar, dev tegirmonchini», — degandek man sho'rlikni jin urmasa, ko'chadagi «barakallachi»larning so'ziga kirarmidim. To'y qiladurg'on vaqtimda qarindosh-urug'im, yor-do'stim juda ko'payib ketdi. Har biri manga to'yni katta qilmoq uchun nasihatlar qila boshladilar. Ularning so'zlariga uchub mani qarasangiz hotamtoy bo'lib ketdim. O'zimcha bir qozonchada osh qilub kesdirmoqchi edim. Betahorat-benamozni bo'ynig'a qo'ygandek ikki kun osh berishni gardanimg'a qo'ydilar. Undan qarasangiz, xotun «aka» janjal qilub, bir kun «xotin oshi»ni bo'ying'a qo'ydi. Shunaqangi qilub Aminjon boyni nevaralari uch kun osh berdilar, kafangado bo'ldilar.

D a v r o n b e k. O'zingiz tuppa-tuzukkina tushunadurg'on odam ekansiz, nima qilub ularning so'ziga aldandingiz? To'yni o'z o'ylaganingizcha qila olmadingizmi?

E g a m b e r d i. Ey, mulla aka, man-ku man, ularning gapurg'on gapig'a siz bo'lsangiz ham aldanar edingiz. Qo'ynimni puch yong'oqqa shunday to'lg'azdilarki, bor-yo'g'imdan ayrilgandan keyin ko'zim moshdek ochildi.

D a v r o n b e k. Bobolarimizning «o'tgan ishga o'kinma», «keyingi pushmon joningga dushman» degan hikmatli so'zlari bor. Endi nima bo'lsa bo'lib o'tmushdur. Asosiy maqsadg'a keling. Munda kelmoqdan maqsadingiz nima? Hovlingiz xatlangan ekan, endi nima qilmoqchi bo'lasiz?

E g a m b e r d i. Mulla aka, nima qilmoqchi bo'lar edim. Man bir aravakash odam munaqangi ishlarga aqlim yetadi deysizmi? Miyasini yegan ahmoq bo'lmasam, «barakallachi»larning so'zig'a kirub, shu holga tusharmidim. Endi bu xususda maslahatni o'zingiz berasiz. Shul to'y to'g'risida mahallamizdagi Orifjon boydan veksel berib, pul qarz olg'on edim. Vaqtida to'lolmadim. Besh-olti kun bo'ldi, hovlimni, uy asboblarni, xotunimni mollarigacha sudya-pristuv olub kelub xatlab ketdi. Sho'rlik boshim nima qilishimni bilmay sizning qoshingizg'a keldim. Endi sizdan yordam bo'lmasa, mani hech bir jonkuyar, yo'l ko'rsatadurg'on kishim yo'q.

D a v r o n b e k. Hovlingiz o'zi necha sarjin?

E g a m b e r d i. Hovlim qirq sarjinchacha bor.

D a v r o n b e k. Yigirma sarjinni xotiningizni mahri deb ko'rsatmoq mumkin. Onangiz bormi?

E g a m b e r d i. Yetmush yashar bir mushtipar onam ham bor.

D a v r o n b e k. Qolgan yigirma sarjinini onagizning mahri deb ko'rsatiladur. Boshqa xatlang'on mollaringizning ham xotiningizning moli deb ko'rsatmoq mumkin. Boy sizdan hech narsa ololmaydur.

E g a m b e r d i. Jon mulla aka, bu ishlarni nima bo'lsa ham o'zingiz to'g'rilaysiz, munaqa narsalarg'a mening aqlim yetmaydi.

D a v r o n b e k. Siz bo'lmasa soat uchda keling, yaxshilab men sizga ariza yozib beraman. Shul ariza bilan hovlingiz sotilishdan to'xtaladur.

E g a m b e r d i. Xudo xayr bersun, mandan qaytmasa bola-chaqalaringizdan qaytsun. Manga o'xshagan yo'lda qolg'on odamlarga sizdek o'qig'on-bilg'on kishilar dastgirlik qilmasa kim qiladur? Advokatlikam oson ish emas. Manga o'xshag'on g'arib-benavolarga rahnamolik qilmog'ingiz kerak, (*o'rnidan turib*) bo'lmasa soat uchda kelaymi? (*keta turub.*) Albatta soat uchda kelaman. Jon mulla aka, arizani juda yaxshilab yozib berasiz (*chiqib ketar*).

D a v r o n b e k. (*Abdujabborni chaqirub*). Bir istakon choy olib kel, choyim ham sovib qoldi.

A b d u j a b b o r (*istakonda choy olub kelub qo'yadi*). Xo'jayin hech narsa chiqdimi? Bu keladurg'on sirrival-qayrog'lardan loaqal bizning moyanag'a yetadurg'on pul-mul kelsaydi, yaxshi bo'lar edi.

D a v r o n b e k. Ko'p sergap bo'lma, gap degan bitta bo'ladi. Har narsa qilsam ham sani bugun bo'lmasa erta o'zimni hindig'a garov qo'ysam ham oqcha topub beraman. Bor, o'z ishingga bor.

Abdujabbor chiqub ketar.

Mana ko'rasanki bu dunyodan xabarsiz, ilmu maorifdan mahrum, madaniyatdan uzoq yashagan bizning xalqimiz hali qanday qizg'onch, qanday qo'rqinch, qanday tahlikali ekanligi oftobdan ham ravshan ko'rinub turadur. Bir kambag'al arobakash nodonlik soyasida bid'at to'y uchun butun bor-yo'g'idan ayrilub kafangado bo'lgan. Bir necha yildan beri topgan, bolalarni o'qitmak uchun kerak bo'laturg'on oqchasidan ayrilmoq ila barobar bir parcha hovlisi ila mol va ro'zg'oridan ham butun mahrum bo'lub, jaholat va nodonlik yo'lida butun oilasi ila qurbon bo'lg'on. Munday bid'at va isroflarning yo'q bo'lmog'i xalqimizning maorif va madaniyat ila taraqqiy qilmog'iga bog'liqdir. Agarda biz hozirgi ilm va urfon taraqqiy qilub, butun dunyoga nur sohib turg'on bir zamonda eng muhim vaqtlarimizni ana shunday bid'at, quruq o'yin-kulgi, tortish va talashlar birla o'tkarsak, dunyo yuzindan inqiroz olamiga qarab ketmog'imizga shak va shubha yo'qdur. Bunday bid'at va isroflarni oramizdan yo'qotmak uchun yoshlarimiz butun kuch va quvvatlarini ilm va maorif yo'lig'a sarf qilmoq ila barobar tish va tirnoqlari ila butun quvvatlarini bu bid'at ishlarini yo'q qi(l)moq yo'lida tirishmoqlari lozimdur. (Eshik qo'ng'irog'i jing'illar) Abdujabbor, chiqub boq, tag'in qaysi bir bosh og'rig'i keldi...

Abdulla Avloniy. «Toshkent tongi» (Asarlar to'plami).
G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at
nashriyoti 1979-yil.

«NIZOM» HAQIDA

«Turon» truppasi «Nizom»i 1916-yilning noyabrida notarius belgisi bilan tasdiqlangan. Uning umumiy hajmi 73 banddan iborat bo'lib, unda truppada aktyor, rejissor va boshqa kasb egasi tarzida «Turon» jamiyati a'zosi bo'lishlikning huquqiy asos

va vazifalari, ishlash shartlari muttasil bayon qilinganki, bular truppani professional ijodiy jamoa tarzida muhim faoliyat ko'rsatishiga qaratilganligini ko'rsatadi.

IKKI TADQIQOTCHI SHARHI

...maxsus teatr ta'limi, umuman, savodxonlik o'zbek teatr san'atida professionalizmni, teatrga esa tomoshabinning savodli munosabatini o'rnatishda yetakchi kuch ekanligini, o'zbek sahnasining birlamchi makoni, «Turon teatri»ni tashkil etish rejasi tug'ilgan kezdayoq, uning yozma «Nizom»ida ham umumiy, ham maxsus ta'lim yangi teatr san'atini barpo etishda yetakchi kuch bo'lishi ta'kidlangan edi.

Bu ta'lim talqin san'ati — aktyorlik va rejissorlikni kasb sifatida tanlaganlarida ijodga ongli munosabatni, tomoshabin, ayniqsa, yosh avlodda teatrga savodli munosabatni shakllantirishi kerak edi... «Turon» teatrining «Nizom»i nafaqat teatr ta'limi, ayni vaqtda yoshlarning umumiy savodini oshirish ishiga o'zining ma'naviy, ham moddiy jihatdan hissa qo'shishni maqsad qilib oladi...

*Toshpo'lat Tursunov san'atshunoslik doktori, professor.
«O'zbekistonda teatr ta'limining ilk qadamlari»
«Teatr» jurnali, 2001-yil, 3-son.*

«Nizom»da professional teatr ijodiy va tashkiliy xususiyatlarining eng oddiy detallaridan tortib, murakkab jarayonlarigacha barcha-barcha jihatlari to'liq aks etgan. «Turon» «Nizom»ini hozirgi professional teatrlarning shunday hujjatlari bilan solishtirganda ham 1916-yilda belgilangan qonun-qoidalar qat'iyroq va jiddiyroq ekanini anglash mumkin. Demoqchimizki, «Turon» truppasi garchi 1916-yil noyabrida o'ziga xos professional truppa ekanini rasmiy qayd ettirgan bo'lsa-da, aslida 1914-yildayoq qat'iy ijodiy qonun-qoida va tartib-intizomda ish yurituvchi mustahkam negizdagi ijodiy jamoa edi.

*Shuhrat Rizayev, «Jadid dramasi»,
1997-yil, 70-bet.*

Quyida «Nizom»ning muqaddima qismi chop etildi.

TOSHKENT SHAHRIDAGI «TURON» MUSULMON DRAMA SAN'ATI HAVASKORLARI JAMIYATINING NIZOMIDAN PARCHA

1. Toshkent shahrida «Turon» nomli musulmon drama san'ati havaskorlari jamiyati tashkil etiladi, maqsadlari quyidagicha:

- a) aholi o'rtasida sahna ishlari va hayriyaga jiddiy munosabatni rivojlantirish;
- b) xalq uchun spektakl ko'rsatish, unga sog'lom tomosha berish;
- d) Turkiston o'lkasi hududida yashovchi muhtoj ahli muslimning moddiy va ma'naviy ahvolini yaxshilash uchun moddiy yordam berish.

2. Ko'zda tutilgan maqsadlarni amalga oshirish uchun, Jamiyat kechalar, konsertlar, spektakllar va boshqa ommaviy tomoshalarni o'tkazish huquqiga ega. O'z nomiga klub va muzika kurslari ochadi, o'z kutubxona va qiroat xonasiga ega bo'ladi. O'z nomiga boshlang'ich maktablarni ochish va saqlash, muhtojlarga, jumladan, o'quvchilarga yordam

puli berish, o'rta va oliy maktablarda o'qishni davom ettirish uchun stipendiya to'lash, shuningdek, davlatnikimi, xususiy, jamiyatnikimi, qanday tizimda bo'lishidan qat'i nazar mavjud xayriya va ma'rifat muassasalarini moddiy quvvatlash.

3. Mavjud xayriya va ma'rifat muassasalari, davlat, xususiy va jamiyatnikimi, baribir «Turon» Jamiyati spektakllar, konsertlar va boshqa xalq sayllarini tashkil qilish bilan bog'liq xarajatdan tashqari sof foydaning 20 foizi ushlab qolinadi, bu summa mazkur Nizomning 42-moddasida ko'rsatilgan sarfni qoplash uchun ishlatiladi.

4. Jamiyat Toshkent shahridagi «Turon» nomli musulmonlar drama san'ati havaskorlari Jamiyati» deb yozilgan o'z muhriga egadir.

(T.Tursunov arxividan)

ABDURAUF FITRAT

(1886—1938)

Abdurauf Fitrat Buxoro shahrida savdogar Abdurahimboy oilasida tavallud topgan. Buxorodagi Mirarab madrasasida, so'ng 1909—1913-yillari Istanbul dorilfununida tahsil ko'rgan. Keyinroq Samarqandga kelib M. Behbudiy bilan hamkorlik qiladi, «Hurriyat» gazetasida muharrir bo'lib ishlaydi. 1923—24-yillari Fitrat Moskvadagi Sharq tillari institutida ishlaydi, unga professor unvoni beriladi.

Fitratning ko'p qirrali ijodiy merosida dramaturgiya alohida o'ringa ega. Uning dramatik shaklda yozilgan «Hindistonda bir farangi ila buxorolik bir mudarrisning munozarasi» degan birinchi asari 1913-yili M. Behbudiy so'z boshisi bilan alohida kitob tarzida chop etiladi. A. Fitrat teatrga tarbiya minbari sifatida qarab 1914-yillari Buxoroda havaskorlik ishlarini yo'lga qo'yishda qatnashadi, o'zi hatto rollar o'ynaydi. M. Uyg'ur bilan hamkorlikda bo'lib, 1919—1924-yillari «Temur sag'anasi», «Chin sevis», «Hind ixtilochilari», «Abo Muslim» pyesalarini yaratdi. 1924-yili uning «Abulfayzxon», «Shaytonning tangriga isyoni», 1926-yili «Arslon» dramatik asarlari nashr etiladi.

MANNON UYG'UR ABDURAUF FITRAT HAQIDA

«M. Uyg'urning guvohlik berishicha, — deb yozadi M. Rahmonov, — Fitrat «Karl Marks» va «Namuna» truppasiga, so'ng Samarqandda davlat truppasiga tez-tez kelib turgan. Teatrda o'ynalgan spektakllarning barchasini o'zi kuzatib borgan. Ayniqsa, u aktyorlar bilan suhbatlashishni sevar, Abror Hidoyatovni, Ma'suma Qoriyevani juda e'zozlardi. A. Hidoyatovni qaysi bir turk aktyoriga o'xshatib, iste'dodiga yuksak baho berardi. 1921-yilda G'. Zafariyning «Halima»si o'ynalganda gazetaga taqriz yozadi, o'zbek teatrida yangi — «opera» janrining tug'ilishini chin qalbdan tabriklaydi. Fitratning teatr bilan aloqalari to'g'risida M. Uyg'ur quyidagilarni hikoya qiladi: «U vaqtda hali yosh dramaturglar tug'ilmagan bir paytda Fitratning teatr bilan hamkorligi bizni quvontirardi. Fitrat biz uchun juda katta obro'ga ega shaxs edi. Klassik adabiyotimiz, Turkiston tarixi, Sharq xalqlari haqida juda qiziqarli suhbatlar o'tkazar, nihoyatda kuchli xotiraga eta bo'lgan. Qaysi bir klassik shoir ustida gap borsa, uning she'rlarini aytib, ma'nisini sharhlab berardi».

*Mamajon Rahmonov «Fitrat dramaturgiyasi
va uning sahna tarixi», «San'at» jurnali,
1991-yil, 3-son.*

ABDURAUF FITRAT DRAMATURGIYASI HAQIDA

Fitrat merosida dramaturgiya ham son, ham salmoq jihatidan katta o'rin tutadi. Manbalar guvohlik berishicha, Fitrat, taxminan, o'n beshga yaqin drama yozgan... Ular orasida drama ham, komediya, tragediya va hatto opera librettosi ham bor. Biroq bu ulkan dramatik merosning yarmidan ko'pi nashr etilmagani bois, bizning kunlarimizgacha saqlanmagan (yoxud hozirgacha topilmagan).

Fitrat dramaturgiyasi mavzu, qahramon va muammolar jihatidan rang-barangdir.

Buxoro xonligidagi dehqonlar hayoti va qismati tasvirlangan «Arslon», imonsiz kishilar fosh etilgan «Ro'zalar» kabi ayrim dramatik asarlarini hisobga olmaganda, Fitratning sahnada qo'yishga mo'ljallangan aksar pyesalarini bir umumiy ruh, umumiy yo'nalish birlashtirib turadi. Mana bu ruh va yo'nalishni birlashtirib turuvchi muammo va g'oyalar Vatan ozodligi uchun kurash va mustaqillik, qahramonlik, kuch va zo'ravonlikka qarshi is'yon, adolatsiz toj-taxtning barbod bo'lishi, erk va Istiqlolni ulug'lash.

«Chin sevish» va «Hind ixtilochilari»da Hindistonning mard farzandlari Vatanni ingliz bosqinchilaridan ozod qiltsh uchun kurash olib boradilar. Fitrat Hind materialli asosida Turkiston dardini badiiy gavdalandiradi.

Baxtiyor Nazarov, «Abdurauf Fitrat», «XX asr o'zbek adabiyoti tarixi», «O'qituvchi» nashriyoti, 1999-yil, 130—131-betlar.

FITRAT ASARLARI HAQIDA CHO'L PON SHARHI

Adib Fitratning sodda, lekin qiymatli bir asari bo'lg'on «Arslon»da Tursunoy kichkina bir ro'lni o'ynar edi. Tursunoyning qudrati va quvvati o'sha kichkina ro'lni ham ulkanlar qatoriga chihardi, bir ko'rinib o'taturg'on Zaynabni bir umr unutilmas tasvirga aylantirdi... u Zaynabda so'z ohangi (intonatsiya) bilan harakat (движение)dan birlashgan ajoyib, go'zal, yangi va asil o'yinlar beradi. U o'yinlar rejissor ko'rsatgan sahna chiziqlar ichida Tursunoyning o'z ijodlari, o'zi yaratgan badi'yalar edi. Unda Zaynabning bir so'zi bor, oddiy so'z, xotin-qizning turmushidagi mayda, lekin xarakterli so'zlaridan: — «Boyingiz ham qursin! Tutruqsiz! Kunda xotin olib nima qilar ekan!» Bu so'zni Tursunoy o'ynagan Zaynabning og'zidan bir marta eshitgan kishi yana qayta-qayta eshitmak istaydi va bundan so'nggi u so'zni aytaturg'on Tursunoyning butkul yo'qlikka ketganini o'ylasa, chinakam alam va hasratlar ichida qoladi. Tursunoy u so'zga juda g'alati bir so'z ohangi berib gapirgach, o'sha gapning o'lchovi bilan yerga o'ltirib qolardi. Bu albatta uning «vazn» va cholg'u quvvatini ko'rsatadi... Tursunoy yengil par kabi bir uchib o'tdi. To'zg'on pardan hech narsa qolmaydi. Ammo uning yaratg'on ro'llari sahnamizni bir yilgina bo'lsa ham yaxshi yoritdi, nurlantirdi.

«Yer yuzi» jurnalining 1928-yil. 11-sonida bosilgan Tursunoy sahnada» maqolasidan. Cho'lpon, «Adabiyot nadir», «Cho'lpon» nashriyoti, 1994-yil, 126—127-betlar.

«CHIN SEVISH» HAQIDA

Yaqinda o'zbek sahnasi ulug' va ulug'ligi qadar yuksak va go'zal bir tomosha (pyesa) ko'rdi.

Men o'zum iqror qilarg'a teyishmankim, uning o'zini va o'ynalishini tegishincha tanqid va yo taqriz qiluvni men bajara olmayman. Biroq bu yo'li va to'g'rida yozmoqlik vazifasi menga tushkanlikdan ko'b chuqur bo'lmag'on qarashimni yozib ketamen.

Voqea Hindistondadir. Hindiston o'zgarishchilaridan bo'lg'on Karimbaxshxonning o'qimishli va go'zal qizi Zulayhog'a ikki kishi birdan oshiqdir, biri o'zgarishchi, yurtchi shoir Nuriddinxon. Ikkinchisi — egri yurakli, anglizparast — Rahmatulloxon. Qizning otasi o'zgarishchi va hindning buyuk shoiri bo'lgan Nuriddinni suyar va qizini unga bermak

istar, qizning onasi esa, uydan, armondan ko'ra kiyim va qiyofatka ko'z solg'onlig'idan yomon kiyinguvchi va darvesh kabi yurguvchi Nuriddinga emas, yaxshi kiyinuvchi va soddalarni alday oluvchi Rahmatulloxonga bermakchi.

Cho'lpon. «Adabiyot nadir», 73-bet.

Nuriddinning ta'sirida Zulayho ham ixtilochiga aylanadi. 5-ko'rinishda Karimbaxshxonning uyida majlis chog'ida politsiyachilar bostirib keladi, otishmada Nuriddin nobud bo'ladi, shunda Zulayho Rahmatulloning sotqinligini anglaydi, politsiyachilar, do'stiga xiyonat qilgan bizga ham el bo'lmas, deya Rahmatulloni ham otib tashlaydilar.

«Chin sevish» peysasi ilk bor 1920-yili M. Uyg'ur tomonidan sahnaga qo'yilgan, Nuriddin va Zulayho rollarini M. Uyg'ur va M. Qoriyeva ijro etganlar.

Ushbu pyesaning birinchi pardasidan lavhalar berildi.

CHIN SEVISH

Birinchi pardadan parcha

Erta bilan. Uchmoq ko'rinishli bir boqcha. O'rtada uzun bir masa (stol), masaning tegrasida o'runduqlar qo'yilgan. Og'och taginda qo'yilgan bir o'rundiqqa Zulayho qizil ipakli bir ko'ylak

bilan o'tirgan, qo'linda kichkina bir bitik (kitob).

Z u l a y h o. Ko'p qiziq hollari bor shu Nuriddinning!.. Nadir tangrim, boyoqish yigit tushunchadan ayrilmaydir. O'ylaydir, o'ylaydir!.. Nechun o'ylaydir?.. Boshqalar kabi nechun kulib o'ynamaydir? Dardi nima?.. Nima istaydir? Bularni tangridan boshqa kim bilardi?

Onam esli bir xotindir. Bir kishini ko'rdimi, yuragingda yashirin butun tushunchalaring onglab olar. Biroq Nuriddinga kelgach, odamdag'i shoshib qoldi. Onamning aytishiga qaraganda, Nuriddin bir kishini sevgan emish. Shuning xayoliga berilgan emish. Kimni? Mana shunisini onam dag'i anglayolmay qolmish...

Yigit biznikiga keladir... Nechun? Marhum otasining qalin o'rtog'i bo'lgan dadamni ko'rmak uchun kelaturg'andir?! Biroq, otamga salom berib, onamning qo'lini o'pgandan keyin bir yerda o'tiradir... O'tiradir... O'tiradir. Otam; «Qalaysan, o'g'lim?» degach, kuch bilan «Tangriga shukur», deya oladir. Onam bu holni ko'rib; «o'g'lim Nuriddin, biroz gapirsang-chi, nechun muncha qayg'urib turasan?» dedimi ish bitdi. Ikki ko'zi ikki buloq kabi anjillab yosh chiqaradir. So'ngkim bizga bildirmoq uchun devorga qaraydir. Yog'lig'ini chiqarib, ko'zlarini artgandan keyin ota, onamning qo'llarini o'pib, chiqib ketadir...

Bu holdan onamning yuragi erib qoladir. Otamga qarab mungli bir tovush bilan ; «Bechora yigit, dardi yomon», dedimi, otam yig'lar (*kitobni yuragiga bosib*). Oh, Nuriddin, kimga aytсам buni, sen yig'lar ekansan, kim kulsin? Yo'q, yanglishasan, xon!.. Sen yig'lar ekan, butun dunyo yig'lar...

Uzoqdan, og'ochlar orasidan bir kishining kelganini ko'rib, kitobni masaga qo'yar. Birozdan so'ng Rahmatulloxon ovro'pocha kiyingan holda kelar. Zulayhoga tugal bir qulliq qilgandan so'ng kelib ko'rishar.

R a h m a t u l l o x o n. Xonim, qanday bir yaxshi holingiz bor...

Z u l a y h o. Shundaymi?

R a h m a t u l l o x o n. Uchmoq kabi bir boqchada, yashil yaproqlarning ingichka ko'lkalari ostinda yaproqlardan o'tib tushgan quyosh yorug'i kabi o'tirishingiz dunyodagi eng yaxshi ko'rinishlarning birinchisidir. Shuncha gul tuslari bilan, bulbul o'qishlariga boqmay, kitob mutolaasiga berilishingizni ko'rganlar, turishingizni tasvir etmak uchun tangridan shoirlik istaylar.

Z u l a y h o. Ha... yanami shoirligingiz tutdi, xon.

R a h m a t u l l o x o n. Kechirasiz, sizning shu turuvingizni tasvir etib, butun dunyo kishilariga bildirsa olmoq uchun shoir bo'lishim kerak emish, shoir bo'lg'onim uchun tangriga shukur qilaman.

Z u l a y h o. Ko'p yaxshi, shoirlik buyuk hunardir.

R a h m a t u l l o x o n. Biroq, shoirlarning-da eng buyugi o'z she'rlarini siz kabilarga o'qita olgani bo'lsa kerak.

Z u l a y h o. Chin shoirlarning bulbul o'qishlari kabi yurakdan qo'pg'on she'rlarini kim o'qimas?!

R a h m a t u l l o x o n. Shu erta bilan sizning quyoshdan burun chiqib, shu boqchada o'tirishingizni ko'rgan gullar, og'ochlar va yaproqlarning har biri dag'i bir shoir bo'lgan va har birining yuragidan turli she'rlar qo'pg'o'n bo'lsa kerak. Biroq ishonamankim, bularning she'rlarini o'zingizdan boshqa kimsa anglamagandir.

Z u l a y h o. Biror muhim xizmatmi bor?

Zulayhoning bo'yla munosabatsiz so'zidan Raqmatulloning kayfi qochgan
kabi bo'lsa ham yana eski yo'lda yuritmoqchi bo'lur.

R a h m a t u l l o x o n. Bilasizki, erta bilan boqqa gul termoq uchun kellarlar.

Z u l a y h o. Afv etasiz, xon sohib, otamni ko'rarga kelgan bo'lsangiz, uydadirlar.

R a h m a t u l l o x o n (*o'zini yig'ishtirib*). Bormi? Men ham u kishini ko'rmoqchi edim.

Z u l a y h o. Buyuring, Zaynabga bildiring, xabar bersin.

R a h m a t u l l o x o n. Bosh ustina. Hay, xonim! (*Uyga kirib ketar.*)

Z u l a y h o (*Rahmatulloning ketidan qaragandan keyin*). Qiziq ishlari bor shu yigitlarning. Sovuqmi, sovuq! Nuriddinning bu kitobi, mana shunday yigitlarning sovuq ishlariga kulmak uchun yozilgan emish. To'g'ridir, bular go'zal kiyinmak, yaxshi gapurmoq uchun ko'p tirishalar. Lekin bu ishlarining birortasi ham yaxshi bir tushuncha uchun emas. Bo'yovg'a aldanur qizlardan birini aldamoq uchundir. Shu kitobdagi hikoyatda shunday bir ishni ko'rsatadir. Mana shunday maymun qiliqli bir yigit ongsiz bir qizni yolg'on so'zlari bilan ovlab olgandan keyin uni qo'yib, boshqasiga tuzoq qurgan emish.

Zaynab bir sufra o'rtusini olib kelar. Zulayhoga salom berar. Kitobni masadan olib, o'rta yoyg'ondan so'ng yana
kitobni joyiga qo'yar.

Z a y n a b.. Samovar qaynadi, xon sohib choyni boqchada ichmoqchi...

Z u l a y h o. Kelgan mehmonni ko'rdingmi, momo?!

Z a y n a b.. Rahmatulloxonni?

Z u l a y h o. Ha.

Z a y n a b. Ko'rdim. Xon sohib bilan-da ko'rishdi. (*Ketar.*)

Z u l a y h o. (o'zi.) Demak, bu choy ziyorati uning uchun... (*Zaynab choy asbobini kelturar.*)

Z u l a y h o. Momo, sen boshqa narsalarni keltur, men bunlarni tuzatayin.

Zaynab kelturganlarini qo'yib ketar. Zulayho istakanlarni tuzib turar.
Zaynab samovarni keturib qo'ya berar...

«ABULFAYZXON» HAQIDA

Pyesada akasini o'ldirtirib taxtga chiqqan va keyin «Podshohlik qon bilan sug'arilaturg'an bir og'ochdir» degan aqidaga amal qilib safdoshlarini qatag'on qilib, oxiri o'zi shu qilmishlarining qurboniga aylangan Abulfayzxonning fojiali tarixi hikoya qilingan.

Asar ilk bor 1926-yili rejissor Kamol I tomonidan sahnaga qo'yilgan. Kamol I Abulfayzxon, A. Sulton Nodirshoh, B. Bahodirov Rahimbiy, Hojiqurbon Nazarov Xayol rollarini o'ynagan.

1990-yili Qashqadaryo (rejissor B. Nazarov, Abulfayzxon — H. Amirqulov, B. Rahimov, Nodirshoh — O. Beganjiyev), 1994-yili Milliy akademik drama teatr (rejissor M. Azimov, Abulfayzxon — E. Komilov)larida sahnalashtirilgan.

ASARNING SO'NGGI IKKI SAHNAVIY TALQINI HAQIDA MUTAXASSISLAR SHARXI

Hamza nomidagi o'zbek davlat akademik drama teatrining «Abulfayzxon» spektaklining premyerasi teatr san'atimizda e'tiborga arzigulik voqeadir... «Abulfayzxon» tarixiy fojia bo'lib, undagi dramatik voqealarni Turkistonda XVIII asrda bo'lib o'tgan voqelik bilan chog'ishtirsak, Fitrat asarining ilmiy va ijodiy ildizlari nihoyatda puxta ekanini, tarix va san'at uyg'unlashib ketganini ko'ramiz. Xullas, spektaklni sahnalashtiruvchi rejissor Marat Azimov va ijrochilar har qancha izlansalar arziydigan pyesaga duch keldilar.

Rejissor Fitrat pyesasiga nisbatan juda erkin va ijodiy munosabat bilan yondashgan. Pyesaning hajmi ancha-muncha qisqartirilgan, bir necha obrazlar tushirib qoldirilgan. Rejissor Fitrat pyesasi asosida o'z badiiy tasavvurini amalga oshirgan. Spektakldagi voqealarning bir-biriga bog'lanishlari, kompozitsiyasi ham pyesadan farqlanadi. Spektaklning jihoziy bezalishi ham, musiqiy yechimlari ham rejissorning badiiy rejasiga asoslangan. Rejissuradagi ayni shu fazilat spektakl haqida jiddiy fikr yuritishga, ayrim muammolar yuzasidan bahslashishga undaydi. Gap shundaki, uzoq vaqtlardan beri otaxon teatrimizda jiddiy mulohazalar uyg'otadigan spektakllar unut bo'layozgan edi. Shekspirona voqealarga, murakkab serqirra obrazlarga boy «Abulfayzxon» pyesasini rejissorning o'z dastxatini namoyon qilish istagi bilan sahnalashtirilishi teatr san'atimizning faol izlanishlarining belgisidir...

*Toir Islomov, «Abulfayzxon va boshqalar»
«Guliston» jurnali, 1994-yil, 3-son.*

Fitrat uchun XVIII asr Buxorosida yuz bergan voqealar shunchaki ma'lumot uchun emas, ma'rifat uchun ham kerak edi. U zulm va zo'rlik el-yurt uchun faqat moddiy talafot,

jismoniy azob-uqubat emas, o'nglab bo'lmas ma'naviy jarohat, keltirishini ko'rsatib berdi. Shu tariqa adib inqilobiy voqealardan uzoq tuyulgan Abulfayzxon fojiasini zamonasiga xizmat ettira oldi. Uningcha, kishilar taqdiriga ijtimoiy turmushga daxldor har qanday ish ming o'lchab bir kesilishi lozim. Inson manfaatiga doir har qanday xatti-harakat insoniy qonunlar, vositalar asosida amalga oshmog'i kerak.

Chiroqlar o'chadi. Sahnadan dardli, hazin «Cho'li iroq» taraladi. Navoiy she'ri bilan aytiladigan mashhur qo'shiq yangraydi. Kuy tinadi. Xonandalar g'oyib bo'ladilar. Sahnaga yorishib, shaxmat taxtasiga engashib, Ulfat Xo'jasaro bilan Mir Vafo va Qozi Nizom ko'zga tashlanadilar. Shu tariqa dastlabki sahnadanoq voqealarning qaynoq joyiga tushasiz.

«Abulfayzxon» dramasi Qashqadaryo viloyat teatrida qo'yilishi madaniy hayotimizda hodisadir. Gap faqat jur'atda, asarning mamlakatimizda boshlangan qayta qurish tufayli birinchi bo'lib sahnalashtirilganidagina emas. Gap tarixni idrok etishda, mumtoz adiblarimizdan bo'lgan Fitrat ijodini anglashda. O'tmish bilan bugunning ko'rinmas iplarini topishda, ko'rsatishda hamdir. Binobarin, asarni sahnaga qo'ygan iste'dodli rejissor B. Nazarov va ijodiy jamoa xizmati tahsinga loyiqdir.

*Begali Qosimov, filologiya fanlari doktori,
«Inson fojialari» «O'zbekiston adabiyoti
va san'ati» gazetasi, 1990-yil, 6-aprel.*

Quyida «Abulfayzxon» pyesasining beshinchi pardasidan lavha berildi.

ABULFAYZXON

Beshinchi parda

R a h i m b i y. Otaliq amak, meni qutlamaysiz?

I b r o h i m b i y. Sizni nega qutli ekan, jiyanim?

R a h i m b i y. Dushmaningizni o'ldurdim. (*O'turar.*)

I b r o h i m b i y. Siz o'ldurmaganda, o'zi o'lmasmi edi?

R a h i m b i y. Shunday ekan, siz nega unga yog'iqib shuncha urushdingiz?

I b r o h i m b i y. U elga yomonlik qildi, yurtni taladi, hukumat ishlariga qaramadi. Kecha-kunduz chog'ir ichib yotdi. Men uning shul ishlarig'a qarshi bo'lub urushdim.

R a h i m b i y. Men nima qildim?!

I b r o h i m b i y. Siz bu ishlarni o'zingiz uchun qilasiz-ku, chog'i!

R a h i m b i y. Qaydan bildingiz?!

I b r o h i m b i y. Rahmatlik otangizning Nodirshoh etagiga yopishqonini bilar edim. Siz ham Nodirshohga bordingiz. Uning qo'shunini kelturdingiz. Abulfayzxonni o'ldurgandan so'ngra butun ishni o'z qo'lingizga olib turubsiz.

R a h i m b i y. Abdumo'min to'rani xon ko'targanimizdan xabaringiz yo'qmi, amak?

I b r o h i m b i y. Abdumo'min to'ra o'n besh yashar bir bola. Uni xon ko'tardingiz nima, ko'tarmadingiz nima!

R a h i m b i y. Siz bo'lg'onda, nima qilar edingiz?!

I b r o h i m b i y. Men bo'lg'onda, Abulfayzxonni tushurgach, qurultoy chaqirar edim. Yangi xon bilan uning otalig'ini el boshliqlarining kengashlari bilan belgilar edim.

R a h i m b i y. Mana, el boshliqlaridan birtasi — siz. Elingiz kenagas! Buxoroning tubchak, buyuk bir eli. Kelingiz, bunday ma'nosiz so'zlarni qo'yingiz, birgalashib, kengashib ishlaylik. Abdumo'minxonning hukumatini biriktiraylik.

I b r o h i m b i y. Men juda yaxshi bilaman, siz shu kun erta Abdumo'minni ham otasining oraqasig'a yuborib, taxtini olarsiz. Jiyanim, men Abulfayzxon bilan urushdim, chunki ul haqsizlik qilg'on edi. Siz bu kun undan ortuq haqsizlik qila turubsiz. Ko'zum bo'lsa edi, ertadan boshlab, siz bilan ham urushar edim. Nima qilaykim, ko'zim yo'q. Hay, siz-ku Buxoro taxtini olarsiz, Abdumo'minni o'ldurarsiz. Balkim menim ham o'ldurarsiz. Biroq shuni bilib qo'yingizkim, bu taxt sizning bolalaringizg'a yuqmag'usidir.

Oxun bilan Qozi Nizom salom berib kelarlar.

R a h i m b i y. Marhamat qilsunlar. (*Ibrohimbiyni ko'rsatib.*) Otaliqni tonimadingizmi?

O x u n. (*Ibroqimbiyga qaragandan so'ng*). Kenagas otaliqmi? Ko'rushaylik-ey... *Ikkalasi borib ko'rushgach, o'tururlar.*

Q o z i N i z o m. (*Ibrohimbiyga*). Otaliq, xudoga shukur qilingiz. Bekning g'ayratlari bilan dushmanlaringiz yo'qoldilar. Emdi qolg'on umringizni shu kishining ko'lagasinda tinchgina o'tkararsiz.

Ibrohimbiy javob bermaydir.

R a h i m b i y. Bir-ikki shar'iy masala bor. Shuni so'ramoq uchun sizlarni chaqirdim.

O x u n. Marhamat qiling, taqsir!

R a h i m b i y. Shul to'rt-besh kunlik janjalimizda Abulfayzxon bilan yana bir necha kishi o'ldilar...

O x u n. Ha, taqsir...

R a h i m b i y. Bunlarning o'lumiga men sabab bo'ldim. Shuning shariatda hukmi nima bo'lsa?

O x u n. Taqsir, ho taqsir, masalan, «bolvoi om»da o'lganlarning qotili hech kim bo'lmaydir. Unlar bolvoi omga sabab bo'ldilar, o'zlari o'ldilar, shariatning hukmi shudir, taqsir.

Q o z i N i z o m. Abulfayzxon hukumat ishlarini bajara olmadi. Shuning uchun hukumatni boshqa kishiga topshurmog'i kerak bo'ldi. Buni qilmag'ach, jazosini ko'rdi.

R a h i m b i y. Bizning oramizda bir so'z bor: «Chingizxon avlodidan bo'lmag'on kishi xon bo'la olmaydur», deyilar. Bu to'g'rinda shariatning hukmi nima bo'lsa?

O x u n. Shariatda bunday bir narsa yo'qdir. Kimning qo'lindan ish kelsa, shul xon bo'la beradir.

R a h i m b i y. Shul eski masala to'g'risinda rivoyat (fatvo) berasizmi, taqsir?

Q o z i N i z o m. Albatta, beramiz.

R a h i m b i y. Erta shuni yozib kelturingiz!

O x u n. Xo'b bo'lubdir.

I b r o h i m b i y. Rahmatlik Rajabxon bilan birlashib, Abulfayzxonga qarshi urushg'animizda, shunday kengashgan edikkim, Buxorog'a borib kirsak, butun mullolarni bir madrasag'a solib, o't qo'yamiz-da, hammasini yondiramiz. Elimizni buzub, rasvo qilg'an shunlar. Bunlar dinigizni tuzatamiz, deb dunyomizni murdor qildilar.

Q o z i N i z o m. Nima qildiq biz?!

I b r o h i m b i y. Siz Qozi Nizom emasmi?

Q o z i N i z o m. Ha, men Qozi Nizom.

I b r o h i m b i y. Tuno kun Abulfayzxonni «soyayi xudo» deb oyoqlarini o'pmag'on edingizmi? Abulfayzxon xotunlar bilan ichishib yotg'on bir kechaning ertasinda, uning oldig'a kelib, «Bu kecha tushimda payg'ambarni ko'rdim, sizni so'rab yubordilar», — deb, chopon kiyganingizni unutdingizmi? Tuno kun sizga chopon bergan soyayi xudoning o'limiga bu kun fatvo berasiz, hech uyolmaysizmi? Tushingizda Abulfayzxonni so'rag'an payg'ambar, yana bir yo'la tushingizga kirib, uni so'rasalar, nima deysiz? Bunlar oz emish kabi Chingizxonning yasog'ini ham yo'q qilmoqchi bo'lasizmi?

Manbalar:

1. *A. Fitrat*. «Chin sevisht» G'afur. G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1996-y.
2. *M. Rahmonov*. «Hamza nomidagi o'zbek Davlat akademik drama teatri tarixi». G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti 2001-y.
3. *Ahmad Aliyev*. «Fitrat dramaturgiyasi», «Nafosat», 1994-yil, 5—6-sonlar.
4. *D. Rahmatullayeva*. «Sohibqiron haqidagi dastlabki sahna asari», «Teatr» jurnali, 2001-yil, 6-son.

HAMZA HAKIMZODA NIYOZIY (1889—1929)

O'zbek adabiyotining asoschilaridan biri, atoqli dramaturg, teatr tashkilotchisi, Hamza Hakimzoda Niyoziy Qo'qon shahrida tabib oilasida tug'ilgan. Avval eski maktabda, so'ng madrasada tahsil ko'rgan. Fors, arab, rus tillarini o'rganib, 14—15 yoshlaridan «Nihoniy» taxallusi ostida she'rlar yoza boshlaydi. Toshkentda tez-tez bo'lib, atoqli ma'rifatparvarlardan Munavvar qori Abdurashidxon, Abdulla Avloniy kabi adib va ziyolilar bilan do'stlashadi. Jadidchilik harakatining taraqqiyparvarlik mohiyatini chuqur anglab, o'zi maktablar ochadi va o'quv qo'llanmalari yaratib, o'sha davr matbuotida turli maqolalar bilan chiqib, xalqni ilm-ma'rifatga da'vat etadi.

Hamza Hakimzoda xalqning ma'naviy takomilida teatr san'atining nechog'li katta ahamiyatga ega ekanini ma'rifatparvarlar orasida eng birinchilardan bo'lib sezdi va bu sohada matonat bilan faoliyat ko'rsatdi. 1915-yili u Qo'qonda havaskorlik truppasi tashkil etib, uning birinchi pardasini o'zining «Zaharli hayot» pyesasi bilan ochdi. 1918-yili «Farg'ona sayyor truppasi»ni tashkil etadi, respublikada madaniy-oqartuv ishlarini yo'lga qo'yish bo'yicha xizmat safarlarida bo'lib, Andijon, Xorazm, Xo'jayli teatr truppalari tashkil etish va jonlashtirishda o'z hissasini qo'shdi.

Hamza Hakimzoda dramaturgiya sohasida boy meros qoldirgan. «Zaharli hayot» pyesasidan so'ng «Nurmuhammad domlaning kufr xatosi», «Muxtoriyat yoki avtonomiya», 1918-yildan boshlab «Boy ila xazmatchi», «Kim to'g'ri?», «Tuhmatchilar jazosi», «Farg'ona fojialari» tetralogiyasi, «Loshmon fojialari» trilogiyasi va 1920-yillar davomida «Paranji sirlaridan bir lavha», «Maysaraning ishi» (1926) asarlarini yaratdi.

Hamza o'z asarlarini o'zi sahnalashtiruvchi va ba'zida o'zi rollar ijro etuvchi rejissor va aktyor ham edi. «Boy ila xizmatchi», «Tuhmatchilar jazosi» kabi pyesalarni o'zi sahnalashtirib, ularda ijrochilikka Muhiddin qori Yoqubov, Mariya Kuznetsova kabi aktyorlarni jalb etib, aktyorlarning to'ng'ich bo'g'inini yetishtirishga muhim hissa qo'shdi. Hamzaga 1926-yili «O'zbekiston xalq yozuvchisi» unvoni beriladi. Madaniy-oqartuv ishlarini yo'lga qo'yish maqsadida u Shohimardonga boradi va 1929-yilning 18- martida o'sha yerda fojiali halok bo'ladi.

HAMZA HAQIDA IKKI ALLOMA SHARXI

U Behbudiy, A. Avloniy, Fitrat, A. Qodiriy, Cho'lpon bilan birga XX asr o'zbek adabiyotining tug'ilishi va rivojiga salmoqli ulush qo'sha olgan betakror ijodkordir...

Hamza dramalari muhim ijtimoiy-siyosiy va axloqiy masalalarga bag'ishlangan. Ular dramatik keskinligi, fojiaiy ruhi va qahramonlik pafosi, epik ko'lam, obrazlarning yorqin va sahnabopligi bilan ajralib turadi. Hamza, o'zi ayni paytda rejissor va aktyor bo'lganligi uchun ham tomoshabop, qiziqarli sujetli dramalar yarata oldi...

Hamza komediyalari, dramalari va umuman, ijodida o'zbek milliy tafakkurining yorqin namunasini ko'rish mumkin. Milliylik, milliy o'ziga xoslik, bir so'z bilan aytganda, milliy joziba har bir xalqning badiiy adabiyotining boshqa xalqlar adabiyotidan ajratib turuvchi va jahonning son-sanoqsiz adabiyotlari davrasida teng huquqli bir a'zo sifatida yashashiga kafil bo'luvchi bosh omildir.

Haqiqiy yozuvchi — chin talant sohibida u mansub xalqning ham, adabiyotining ham milliy xususiyatlari, belgilari aks etadi. Jumladan, Hamzada o'zbek xalqining qalbi, yuragi,

uning ruhi, xarakteri, psixologiyasi, tili, dard-armoni mujassamlashgandir. Shuning uchun ham uning asarlarida o'zbek xalqining milliy o'ziga xosligi tiniq, ravshan aks etdi. Uning asarlarida XX asr boshidagi o'zbek xalqi hayotining, turmushining ko'pgina manzaralarini, shu davrdagi uning kayfiyatini, ruhini, intilishlarini, ilg'or harakatlari va ayni chog'da psixologiyasidagi illatlarini aniq ko'rish, bilish mumkin.

Salohiddin Mamajonov, «XX asr o'zbek adabiyoti tarixi», «O'qituvchi» nashriyoti, 1999-yil, 104—109—110-betlar.

O'ttizinchi yillarning oxiri teatrga Hamza dramaturgiyasining yana kirib kelishi bilan qayd etildi. «Boy ila xizmatchi» asarining benihoya muvaffaqiyatli sahnalashtirilishi madaniyatimiz tarixida «Hamlet»dan so'ng erishilgan teatrning eng zalvarli yutuqlaridan deb baholandi. Boshqacha aytganda, u rejissor va aktyorlar badiiy kamolotining dalili bo'ldi. Bu o'zbek sahnasida realizmning uzil-kesil qaror topishini ko'rsatdi. «Boy ila xizmatchi» tomoshabinning eng sevikli spektakli bo'lib qoldi. Spektakl 1939-yildan to 1982-yilgacha 867 marta o'ynaldi.

Mamajon Rahmonov, «Hamza nomidagi O'zbek Davlat akademik drama teatri tarixi», 145-bet.

HAMZA PYESALARIDAN NAMUNALAR

«Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari» Hamzaning jadidchilik ruhida yozilgan pyesasi bo'lib, unda Maryamxon va Mahmudxon degan ikki yoshning bir-biriga yetisha olmay, jaholat qurboniga aylanishlari haqida hikoya qilingan.

Pyesa birinchi bor 1915-yili muallifning o'zi boshchiligida Qo'qon havaskorlari ijrosida o'ynalgan.

1976-yili «Yosh gvardiya» (Abror Hidoyatov nomli) teatrida B. Ixtiyorov rejissorligida (Maryamxon — A. Begmatova, Mahmudxon — M. Rajabov) sahnalashtirilgan. Yana Qarshi «Muloqot» studiyasi (rejissor A. Abdunazarov) va qator viloyat teatrlarida sahnaga qo'yilgan.

Quyida asardan lavhalar berildi.

ZAHARLI HAYOT YOXUD ISHQ QURBONLARI

...M a h m u d x o n. Oh, jaholat, maorifsiz davlat! (*Xatni olib, ochib qarab, turib borib, zvonok berib, yana kelib o'tirar. Eshikdan mulozim kelur, Mahmudxon anga qarab.*) Birorta erkak odam kelsa, meni yo'q degin. (*Xo'p, deb ketar. Mahmudxon hamon tizzasiga urib.*) Ey, johil otalar, johila onalar. Men orzu-havasni nima qilay? Orzu-havas o'zimning istaganimdan boshqa nimarsa emas.

Biroz sukut qilib turar. Bu orada Maryamxonim kelib, eshikni qiya qilib qarab turar. Mahmudxon xabarsiz.

Men orzu-havasni nima qilay, suyganim bo'lmagandan keyin menga ming orzu — bir qora chaqa, balki menga zahar o'lim! (*Bir ozgina to'xtab.*) Men boy qizini nima qilay? Ha,

o'zimni endigina jaholatdan qutqazgan vaqtda yana bir johilaga, ro'dapoga umrdosh bo'lamanmi? Menga hayot kerak. Hayot uchun eng ko'nglim istamish maqsad kerak, u maqsad esa (*bosh qimirlatib*) Maryamxonimdan boshqa emas, boshqa emas.

Maslakda, fikrda, ilmda eng birinchi hayotdosh bo'lib turgan Maryamxonimdek haqiqiy bir ko'nglim jononasi turganda, menga dunyoning har bir orzusini, har biri pari kabi boylar qizini havas qilmoq harom! Harom! Oh, aning menga shirin-shirin yozmish maktublari. (*Yugurib turib stol g'aladonidan bir dona maktubni kelturib ochib.*) Mana-mana buni yozmish, maktublariga qara, birinchisi bu (*birinchi maktubni o'qir*): «G'unchai muhabbatim, suyukli Mahmudxon! Men Sizga naqadar muhabbatni da'vosindan yozmayki, vaqtingiz musonda o'lmasin uchun so'zni qishartub, maqsadgagina qalam yurutdim. Durust, men faqira eski maktabdagina tahsil etdim, lekin har bir millat va insoniyat hayot masalalarin Sizning marhamatingiz va ma'naviy yordamingiz orqali tanidim... Ikkinchi muddao, afandim, emdi tezdin ijti hod etingizki, ikkovimiz elimizni, zulmatda qolgan bu millatni, Siz quyoshi bo'lganda, men mohtobi bo'lib, qorong'u vatanni yoritaylik. Siz-da, erlarimizning holindan, men mazluma oilalarimizning holindan gazetalarga yozishib, bir-birimizni ogohlantiraylik. Garchi Siz tijoratda bo'lsangiz-da, chin maqsudingiz bo'lgan qizlar maktabi ochaylik: men ma'naviy, Siz moddiy xizmatda bo'ling, chin yashaylik, kelajakdagi avlodlarimizni mozorimizga borib, erlari Sizga, qizlari bizning qabrimiz uzasina, oq, qizil gullar sochib ruhlarimiz olqishlarlik darajada bir xizmatlarni maydonga qo'yaylik...»

(*Mahmudxon tizzasiga qo'lin urib.*) Oh, mana bu maktub qanday laziz hayot beradi. Men qaysi vijdonim bila mundin yuzimni o'girayin. Bu maktubni har biri menga ming boy qizidan suyuklimasmi?.. (*Mahmudxon birinchi maktubni qo'yinga solib, ikkinchi maktubni ochib ko'rib, cho'chib turib.*) Maryamxonim kutmakchi ekan, men to'xtab qolibman-ku! (*Xatlarni qo'yniga oshiqib solib, orqasiga qaramoq barobar, Maryamxonim eshikni ochib, boqib turar. Mahmudxon yugurib borib salom ila qo'lin o'pib.*) Buyuring, xonim! (*Olib kelib, kursiga o'tqazur-da.*) Xonim, men chiqib, eshikni kishi qo'yib poylatib kelay.

M a r y a m x o n i m (*Mahmudxon qo'lindan o'pib*). Afandim, mening kelganimga uzoq vaqt bo'ldi, tez qaytaman.

M a h m u d x o n (*kitoblarni ko'rsatib*). Oh, shirin hayot, chin yo'ldosh bunday har bir jihatdan komil, fozil inson bo'lsa. Afsus faqiri bechoramen. (*Yurib turar.*)

Mahmudxon kelur.

M a h m u d x o n (*kursiga taklif qilib*). Nechuk, xonim, taklifsizgina tashrif etdingiz?

M a r y a m x o n i m (*o'tirib*). Hech taklifga ehtiyojsiz, muhabbatmi, boshqami. Yaqinlardan beri qo'rqinchlik bir tush ko'raman. Xavflanib, bir fursat qildim-da, ko'rgim keldi. Aziyat ko'rmasangiz hech gap yo'q.

M a h m u d x o n (*turib*). Bosh ustina, xonim. Na aziyat, marhamat emasmi?! Tushuning, meningcha, e'tibori yo'q, lekin... (*Sukut.*)

M a r y a m x o n i m (*qo'rqibroq*). Afandim! Sukut etdingizmi?!

M a h m u d x o n (*ro'molchasini olib, ko'z yoshin artib*). Xonim... Ikkimiza bir uqubat borg'a-da o'xshaydi!

M a r y a m x o n i m (*cho'chib, Mahmudxon qo'lini tutib, oshiqib*). Nima, nima? Uqubat!

M a h m u d x o n (*qo'lini tutib*). Qani til, oni Sizga aytmakka, jonim!

M a r y a m x o n i m (*hamon yalinib*). Men eshitib turgan so'zlarimdagina emas, dedim-ku! Ko'rgan tushlarimdan-da xavflangan edim. Ayting, nima xabar ekan?! Nima so'z?!

M a h m u d x o n. Endi o'zim ham aytmogga majburman, lekin ko'nglim bo'lmaydi.

M a r y a m x o n i m (*yig'lamsirab*). Yo'q, ayting!

M a h m u d x o n. Men kecha bir kishini otamga yuborgan edim. Ul kishi so'zicha, otam qabul qilmagan emish. Mayli endi ul qabul qilmasa, qiyinlik bir tarafda ekan, iloji oson edi. Endi Sizning tarafda bir mushkul borki, har bir narsadan u masala og'ir!

M a r y a m x o n i m. Xayr, afandim, nima ekan?

M a h m u d x o n. Sizning ota-onangiz hazrat eshonga nazr qilmish ekanlar (*Maryam cho'chir*). Ehtimol shu oylar orasinda to'y bo'lur emish. (*Maryam yana cho'chib tushar, manglayin tutar*). Endi men esa, bu to'g'rida ko'p og'ir o'yga qoldim. (*To'xtar*.)

M a r y a m x o n i m (*birozdan keyin*). Afandim, men sizsiz dunyoda bir kun turmog'imdan menga o'lim yaxshimasmi! Men (*yig'lab*) hech bir vaqt qabul qilmasdan, qo'limdan kelgan qadar o'zimni ul zolim qo'lidan qutqaza olurman. Jonim, gap Sizda. Sizda o'z va'dangizda qaror etsangiz, albatta, men jon boricha harakatda bo'lurman. (*Yig'lar*.)

M a h m u d x o n. Jonim, men sizdan-da ortiq darajada dunyoda sizsiz tura olmam. Bugun sizdan ajralmoq ma'lum bo'lur ekan, bu kunning o'zidagina o'zimni halok etarmen. Jonim, menga Sizsiz hayot zahar. Mendan amin bo'lingizki, bugundan boshlab men harakatda bo'lurmen. Siz-da, albatta, u tarafdin mone bo'lib tursangiz kifoya.

M a r y a m x o n i m (*Mahmudxon qo'lin tutib, yaqinroq kelib*). Juda bo'lmas esa, bir boshqa mamlakatga qochmoq mumkin emasmi?

M a h m u d x o n. Albatta mumkin, jonim, ish bo'lmagach noiloj qilamiz. (*Bu orada «Xo'jayin keldilar» degan ovoz kelur. Mahmudxon sachrab turib*.) Endi (*Maryam turar*) aybga buyurmaysiz, xabarsiz kelganingiz vaqtsiz bo'ldi.

M a r y a m x o n i m (*Mahmudxon qo'lin tutib, ko'ksini qo'yib*). Yana meni faqir deb tashlamangiz, jonim. Men o'zimcha faqir bo'lmadim.

M a h m u d x o n. Oh, jonim! Menga o't yoqmangiz! Men u vijdotsizdan emas. (*Qo'lin olib o'par*.)

M a r y a m x o n i m (*paranjisini yopinib*). Meni unutmang! Menga uvol qilmang. (*Yig'lar*.)

M a h m u d x o n. Jonim, hech unutmasman! Siz xotirjam. (*Peshonasin silar*.)

M a r y a m x o n i m (*eshik ostina borib*). Jonim, men har doim umidda turaman. Avvalgi marhamat, va'dadagina bo'ling, dunyoga aldanmang...

M a h m u d x o n (*qo'lini o'pib*). Jonim. Siz unutsangiz ham, billoki, men hargiz unutmasman.

Birgalashib chiqar. Parda tushar.

«BOY ILA XIZMATCHI»DRAMASI HAQIDA

«Boy ila xizmatchi» dramasi 1918-yili yozilgan bo'lib, o'sha yili Hamza tomonidan «Farg'ona sayyor truppassi»da, 1920-yili M. Uyg'ur rejissorligida «Namuna» teatrida sahnalashtirilgan.

Asarning 1939-yili akademik drama teatrida sahnalashtirilishi (rejissor Ye. Bobojonov) uning sahnaviy tarixida yirik bosqichga aylandi.

YETIM BOBOJONOV (1904-1956)

Etim BOBOJONOV Moskva teatr studiyasi (1924-1927 y.) tahsil ko'rgan aktyor va rejissyor, Hamza nomli akademik teatrdagi K.Yashinning "Tor-mor" (1934), "Sobir Rahimov" (1950), Shillerning "Makr va muhabbat" (1936), Yangiyo'l teatrida (1943-1946), "Toshsovet" (1946-1948y) teatrlarida badiiy rahbar sifatida faoliyat ko'rsatgan va S.Abdulla va T.Jalilovning

"Tohir va Zuhra", Hamid Olimjonning "Muqanna" kabi asarlarini sahnaga qo'ygan yirik rejissyor va teatr arbobi bo'lgan. Uning Hamza nomli akademik teatrdagi qo'yilgan Hamzaning "Boy ila xizmatchi" (1939) spektakli milliy teatr rivojida alohida ahamiyat kasb etadi.

Y. BOBOJONOV REJISSURASI HAQIDA T.TURSUNOV SHARXI

Yetim Bobojonov rejissurasining kuchli sifatlaridan biri asarning talqini jarayonida uning mazmun va badiiy ko'rinishini takomillashtira olish layoqati bilan mualliflarga, obrazlarning sahna qiyofasini yarata olishda aktyorlarga aniq ko'rsatma berish, tashabbusli izlanishlarga safarbar qila olish layoqatida ko'rinadi. Har ikki holatda u quruq maslahat bilan emas, balki ish, namuna bilan muallifni ham, ijrochilarni ham o'ziga jalb etar, fikrlariga ishotira olardi. U rollarning ijrosida muqallid, spektakllarda mazmun bayoni yo'lini ems, ijrochi hatti harakatidan jonli qiyofalarning hayotiyligini, xilma-xilligini, betakrorligini axtarar edi. Yetim Bobojonov rejissurasining sehri shunda...

Spektaklda ishqibozlik, sevgi muhabbat tarazu vazifasini o'taydi. Jamila, G'ofir, Gulbahor, Solixboy, Qodirqul, Xolmat, Xonzoda, Poshshoyimdan tortibdomla imomu qozi ellikboshigacha sevgi mojarosigaaloqador. Shu mojaro asnosida ularning kimligi aniqlanadi, siru asrori yuzaga chiqadi, qiyofalari tabiatlari namoyon bo'ladi. Ana shu masalaga rejissyor katta e'tibor beradi. U xilma-xil personajlar tabiatiga mos qiyofalar topishga ijrochilarni teatr jamoasining yillar davomida ijrochilik yuzasidan olib borgan tajribalari-yu o'zligini ochib bera oladigan sifatlarini namoyish etib, talqinlar bobida bosib o'tilgan davrga yakun yasadi.

*Toshpo'lat Tursunov "Kashf etilmagan olam"
"Teatr" jurnali 2004 y. 1-son.*

ABROR HIDOYATOV G'OFIR ROLIDA

Har jihatdan sof, beg'ubor, ishonuvchan, sodda xizmatkor G'ofir obrazining zahmatkash xalqqa xos optimizm bilan sug'orilganligi Abror Hidoyatovga yoqib tushdi va u bu qahramonni ma'sumlik va shu bilan birga oliyjanoblik kayfiyatida gavdalantirdi. Bu «ulkan bola» zulm va haqsizlik haqidagi har qanday fikrdan ongsiz ravishda o'zini chetga tortib yuradi. U o'ziga kulib boqqan oilaviy baxt gashtini surib yashashni istaydi. G'ofir — Hidoyatovda bunday istak qanchalik kuchaysa, u hayotga qanchalik beparvo qarasa, shunchalik shiddat bilan baxtsizliklar va shuncha sho'r savdolar yopirilib kelaveradi.

G'ofir — Hidoyatovning yuzlari asabiy titraydi, vujudi qaltiraydi, ko'zlari katta-katta ochilib ketadi.

Endi ko'z o'ngimizda sodda, kamtarin, bo'shang ezilgan xizmatkor emas, balki o'z haq-huquqi, erkini, sevgi-sadoqatini himoya qilishga qodir bo'lgan jasur inson gavdalanadi. G'ofir boyning homiylari tomonidan xotini evaziga taqdim etilgan bir siqim pulni yirtib-yirtib, g'azab va nafrat bilan ularning basharasiga otadi.

*Aleksandr Deych. «Abror Hidoyatov». G'afur G'ulom
nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti,
1985-yil, 120—121-betlar.*

SORA ESHONTO'RAYEVA JAMILA ROLI HAQIDA

— ...«Boy ila xizmatchi» biz aktyorlar uchun katta maktab rolini o'ynaydi. Ayniqsa, sevikli aktyorimiz Obid Jalilov Solihboy rolini juda yaxshi o'ynardi. Obid aka o'sha og'ir hayotni ko'rgani uchun ham yaxshi o'ynardi. Boyni har tomonlama ko'p qirrali obraz darajasiga yetkazgan edi. G'ofir rolini birinchi marta Abror akam o'ynaganlar, keyinchalik Shukur Burhonov. Ana shu partnyorlarning mahorati, o'ziga talabchanligi Jamilaning yaxshi chiqishiga yordam bergan, degim keladi.

— Sora opa, siz Jamilani 26 yil davomida deyarli besh yuz marta ijro etgan bo'lsangiz, har gal tomoshabinni yig'latgansiz. Bu rolni o'ynaganingizda o'zingiz ham yig'larmidingiz?

— Bo'lmasam-chi, yig'lab-yig'lab ho'ng bo'lardim. Jamilani o'ynagan kunim alla vaqtgacha o'zimga kelolmay xo'rsinib-xo'rsinib qo'yardim. Menga Jamilaning toza qalbi, chin muhabbati, sadoqati yoqardi. Va men uning shu xislatlarini xuddi o'zimga ifodalashga urinardim. Axir, o'zingiz o'ylang, mol-mulki oshib-toshib yotgan, qo'sha-qo'sha xotinlari bo'lgan boy bir kambag'al bechoraning — endi kun ko'ra boshlagan xizmatkorining xotinini zo'rlik bilan tortib olsa-ya! Bunday adolatsizlikdan faryod qilmay, o'rtanmay bo'ladimi?! Bechora Jamila o'z yoriga vafo qilish uchun o'limdan boshqa chora topolmaydi. Osmon yiroq, yer qattiq. Uning ohi-zorini eshitadigan kimsa yo'q. G'ofirjon esa uzoq Sibir surgunida...

Men mana shu savdolar xuddi o'z boshimga tushgandek — yonib o'ynardim. Jamilaga achinardim. Jamilaga hamdardlik qilardim. Jamilaning nomidan o'sha nohaqliklarga ming la'natlar o'qirdim. Ha, Jamilaning kiyimlarini kiyishim bilan yuragim oh chekib, o'rtanarli larzaga kelardi.

*San'at Mahmudova, «Bir yurakning yuz jasorati».
G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va
san'at nashriyoti, 1989-yil, 62-bet.*

O. XO'JAYEV VA I.PO'LATOV OBID JALILOVNING SOLIHBOYI HAQIDA

“Boy ila xizmatchi”da Solixboyni Obid aka Jalilov o'ynaydi. Bu aktyor To'la Xo'jayevning yangi taxririda ham shu rolni olib chiqdi. O. Jalilov bu rolni qanday o'ynaganligi haqida turli qarashlar mavjud. Ammo barcha fikrlar jamlanganida shu xulosa yorqinlashadiki, artist Jalilov Solixboy rolini o'ynaganida bosh yo'naltiruvchi kuch fikr va tafakkur bo'lgan. Ana shu spektaklda u eng intellektual aktyorlardan biri bo'lib ko'rindi.

Hammaning medasiga tekkan go'l, dushman obrazi bo'lib emas, u barcha ko'p qirrali jonli inson ekanligini ko'rsata olgan. Bu haqda gapirishimning sababi bor – Obid akadan keyin Solixboy obrazini o'ynash oson emas. Talqin borasidan men u kishi bilan baholashmoqchi emasman. Men ham ko'p qirrali xarakterga ega bo'lgan ijtimoiy sinfiy qiyofasi, niyatlari ifodalangan Solixboyni o'ynash niyatim. Lekin xuddi Obid Jalilovning o'ziga o'xshatib o'ynash mening qo'limdan kelmaydi. Chunki biz turli o'ynalishdagi aktyorlarmiz.

*Olim Xo'jayev. Tafakkur teatri
"O'zbekiston madaniyati" 1968 y. 3 sentyabr.*

Solihboy siymosinig tabiatida nutqning badiiy ifoda usullari kam uchraydi. (Jamilaga "mening oltinlarim shunday zabardastki, yerga kirsang qulog'ingdan, osmonga chiqsang oyog'ingdan tortib qo'ynimga olmaday qilib solib qo'yadi" kabi iborasidan tashqari, "cho'risi bo'lma, guli bo'l" kabi so'zlar "ishq"ni izhor qilish vaqtidagina qo'llaniladi.)

Uning nutqiy tabiati ko'proq voqea yoki hodisaga o'z munosabatini soda, oddiy so'zlar vositasi bilan ifodalashda ko'rinadi. Siymo shunday puxta yaratilganki, hech qanday "qanoatli so'zlar"ga hojat qolmaydi. Bu esa tabiiyki, siymosining badiiy qimmatini yana bir daraja yuqori ko'targan.

Obid Jalilov Solihboy tabiatiga, nutqiga o'ziga xos "rang" berishiga intilar ekan, u nutqining nihoyatda soda va oddiy bo'lishini ta'minlaydi. Lekin bu so'zning sarmazmun va harakatchan ifodalanishiga putur yetkazadi degan gap emas, aksincha undagi soddalik va tabiiylik siymosining badiiy qiymatini bo'rttirishga xizmat ettirgan. Shuning uchun ham artiet ma'lum bir jumlaning harakat uchun eng qudratli qurol sifatida tanlab oladi-da, uni yana ham charxlab, maqsad qulfini ochish uchun "raqibiga" aqrab otadi.

*I.Po'latov. "Sahna nutqi".
"O'qituvchi" nashriyoti 1994 yil. 68-bet*

ZAYNAB SADRIYEVA POSHSHOYIM ROLI USTIDA QANDAY ISHLAGANI HAQIDA

Abror, G'ofirni sen o'ynaysan — dedi Yetim aka. Keyin qolgan rollarni taqsimladi: Jamila — Sora Eshonto'rayeva, Solihboy — Obid Jalilov, Hoji ona — Mariya Kuznetsova, Xolmat — Lutfulla Narzullayev, Xonzoda — Xolida Xo'jayeva, Gulbahor — Shoxida Ma'zumova...

Men hamkasblaringa havas bilan tikilib, yuragim orziqqancha o'tirardim. Yetim aka menga yalt etib qaradi-da: — Zaynab, sen Poshshoyimni o'ynaysan, — dedi. Sapchib tushdim. Yosh edim-da. Shunday ajoyib asarda ishtirok etish! Quvonch va hayajondan terimga sig'mas edim. Hayajonga tushushimning boisi shundaki, asosiy rollarni ijro etuvchilarning deyarli hammasi nom qozongan yetuk san'atkorlar. Abror Hidoyatov esa o'sha paytdayoq o'zbek sahnasining yulduzi bo'lib tanilgan edi. Men san'atga umid bilan qadam qo'ygan bir havaskor aktrisa edim... Yetim aka ikkinchi ko'rinishda Xonzoda bilan mening — Poshshaoyimning dahanaki jangi epizodini ko'p martalab mashq qildirdi. Yodingizda bo'lsa, mazkur ko'rinishda Xonzoda — Xolida Xo'jayeva to'satdan yer tepinib: «Maston! Chilim, yer yutkir Maston!», deb baqiradi. Yetim aka bu epizodni shunday talqin qilardi: — Zaynab, eshit, Xonzodaning bu do'q, bu o'shqirishi, Mastonga emas,

kundoshi Poshshoyimga — senga qaratilgan. Tabiatan tebsa-tebranmas, boqibeg'am Poshshoyim javob berishga shoshilmaydi, ichida qon yutib tursa hamki, kundoshiga shod-xurram ko'rinishga urinadi, bu narsani unutma! Mastonga do'q urayotganida ko'zi Poshshoyimga yeb yuborgudek qadalgan Xonzoda uning soxta beg'amligidan battar jizg'anak bo'lishi kerak... «Kulma, Maston! Huv o'sha ajin bosgan qarimsiq yuzlaringga zindalak chiqsin!» — bu Mastonga aytilgan odatdagi qarg'ish emas, mamnun qiyofadagi kundoshiga qaratilgan zaharli o'q, tushundingmi? Tushungan bo'lsang, ana shu mantiqqa asosan ish tutishing kerak.

Xolidaxonim shu qadar obrazga kirib, uning sehriga shu qadar berilib ketardiki, men rosti, ba'zan partnyorimning artist ekanini unutib qo'yardim. Bir kuni yuziga bexosdan tikilib hayron qolganman. Yupqa lablari makr va g'azabdan shu qadar chimirilganki, lab o'rnida ingichka chiziq chizib qo'yilgandek tuyulardi. Uchishga shaylangan qarg'aning qanotidek qoshlari gapirgan sari peshonaning yarmigacha borib keladi. Ko'zlarida qahr, hasad, rashk yonadi. Shunday mahorat egasi bilan basma-bas, hatto undan balandroq kelib aytishim kerak edi.

«Hoy, Maston o'lgur, chilimni olib kel! Sen nimangga kekkayasan, Maston!». Bir qaraganda bu gapni aytish osonga o'xshaydi. Biroq qarshingda Xonzoda timsolida Xolida Xo'jayevadek tajribali partnyor turganda bu vazifani eplash mahol. Shuning uchun dastlabki repetitsiyalarda holatga kirolmay rosa qiynaldim.

*Zaynab Sadriyeva, «Shukrona». Marva
Jaloliddinova yozib olgan. «Guliston»
jurnali, 1979-yil, 8-son.*

MARIYA KUZNETSOVA HOJI ONA ROLIDA

Hoji ona — Kuznetsova sahnaga birinchi bor kirib kelishidayoq biz uni boy xonadonida dahshatli kuch ekanini his etamiz. Sahnada ortida Hoji onaning dag'al, erkaknamo ovozi eshitiladi. Uning tovushini eshitgan oila a'zolari tashvish va qo'rquv ichida sarosimaga tushib qoladilar. Sahnada boshida tugun — dasturxon, qo'lida aso, qarashlari sovuq va dahshatli shariat peshvosi Hoji onaning ulkan, vazmin gavdasi paydo bo'ladi... Sahnada chuqur sukunatda. Faqat Hoji onaning do'rillagan tovushigina yangraydi. Hamma hayajon va qo'rquv ichida tikiladi: Hoji ona o'zi yo'qligida kim nima ish qilganligini, buyurgan ishlarining natijalarini surishtiradi-da, odatdagidek norozi bo'ladi: «Nega hammang ish qilmay, bekor o'tiribsanlar? Sulaymon o'lib, devlar qutilibdi-da? Maston! Chiqargan paxtalarini, chivilgan g'o'zalarini ko'rsat! Rahima, sen juvarlarni tuyib qo'ydingmi? G'ofir o'lgur qani? Nimaga haligacha qoplar bo'shatilmabdi? O'tinlar yorilmabdi?»... Ana shu kartinadanoq Kuznetsova Hoji onaning zolimligini, atrofidagilar ustidan bo'lgan hukmini ochib beradi.

*Teshaboy Bayandiyev, san'atshunoslik fanlari doktori
«Mariya Kuznetsova», «Toshkent». Badiiy adabiyot
nashriyoti, 1965-yil, 42—43-betlar*

(Ikkinchi pardadan parcha)

G' o f i r (*zaharxanda qilib*). Qozi pochcha, sarupolar muborak.

Q o z i. Qulluq, o'g'lim, qulluq!

G' o f i r (*qoziga*). Lekin boy bu choponni katta otasi o'lganda tobutiga yopgan edi, endi sizning ustringizga yopibdida

Q o z i (*asabiy*). Nimalar deydi beadab!

G' o f i r. Sarupo qulluq bo'lsin, domla imom?

I m o m (*o'ng'aysizlanib*). Qulluq, qulluq, G'ofirjon!

G' o f i r. Ellikboshi, paranjingiz muborak!

H a s a n. Paranj emas! Chopon bu, jinni bo'lganmi?

G' o f i r. Axir dallol deganda paranj bo'ladi-da, choponni yigit kishi kiyadi!

X o l m a t (*o'zicha*). Balli, azamat, bopla!

H a s a n. Tilingni tiy, ahmoq! Bilasanmi kimlar bilan gaplashyapsan!

G' o f i r. Bilaman, biringiz qozi, biringiz domla, biringiz amaldor, biz bo'lsak, devorning kovagida yotgan bir g'arib.

Q o z i. Siz aralashmay turing, ellikboshi, johilsiz. To'mtoq gapirib ishning pachavasini chiqardingiz! G'ofir o'tir o'g'lim, o'tir!

G' o f i r. Eshitaveraman!

I m o m. Biz sening foydangni gapiramiz!

G' o f i r. Eski og'iz, yangi gap!

Q o z i. Eshitasanmi, yo'qmi?

G' o f i r. Gapiring, bu quloqlar dunyodagi bor haqoratlarga, bor qarg'ishlarga o'rgangan, gapiravering!

Q o z i. Yana o'sha gap. Sen bir kambag'al musulmonsan, o'z joningga jabr qilma, sartopo falakatlarga duchor bo'lma, deymiz. Axir shu boy otang tufayli ro'shnolik ko'rding. Endi sening vazifang shu boyning har bir amr-u farmonlariga shikastlik bilan qoyim turmoq! Quloq qoqmoq! Boyni hurmat qil! Men ham bir kibriyo nazar eshonman. Mening gapimni qaytarma! Xullas so'z, boy sening xotiningni yaxshi ko'rib qopti.

G' o f i r. Agarda boyda muhabbat paydo bo'lgan bo'lsa, boy chin odam ekan.

X o l m a t (*o'zicha*). Voy hom kalla-ey, sen hali uni hayvon deb yurgan edingmi?

Q o z i. Gap shuki, boy ishq-muhabbat yo'lida halok bo'lishi mumkin.

G' o f i r. Pul-mol yo'lida halok bo'lgandan ko'ra, ishq-muhabbat yo'lida qalok bo'lish kishiga katta baxt!

I m o m. Boyga rahming kelmaydimi?

G' o f i r (*qizib*). Maqsad nima, maqsad?!!

Q o z i. Axir sen, xotiningni boychalik yaxshi ko'rmaysan, Senga nomi xotin bo'lsa bo'ldi-da.

G' o f i r (*qaynab*). Maqsad!!!

Q o z i. Maqsad, xotiningni qo'y, deymiz.

X o l m a t (*o'zicha*). Mana qo'y, deb tumshug'iga solmaysanmi, siynitalogni!

G' o f i r. Qozi domla! Shu so'zlarim qulog'ingizga o'qdek quyilib, qo'rg'oshindek o'rnashsin! Xotinimning ixtiyori o'zida! Boyga tegmoqchi ekan tegaveradi! Lekin mendan nima istaysiz, mendan? Meni nega qiynaysiz? Nechun o'rtangan, lag'cha cho'g' bo'lib

yongan yuragimni tirnaysiz?! Bu qo'lansa qorinlaringizni yorsa, shu qovoq kallalaringizni kovlasa, bu go'rday qorong'i yuraklaringizni chiroq yoqib qidirsas, ishq-muhabbatdan qilcha nishon topilmaydi-yu, yana sizlar ishq muhabbat deb lop-qop urasiz! Fatvolar yasaysiz! Shumi insof, shumi kambag'alga shafqat?

D o m l a. Boy bermasa, ochingdan o'lasan!

G' o f i r. Ochlikdan sillam qurib, iligim puchaygan chog'imda ham sizlarga yalinmayman! Axir, bu ko'zlardan oqqan jigar qonlari, beva-bechora, yetim-yesirlarning ohu zorlari ko'nglingizni yumshatmaydimi? Qachongacha kimxob choponlar, yog'lik palovlar uchun boylarga zulm pichog'ini qayrab berasiz! Axir, bu duolar, rivoyatlar niqobiga yashiringan zulmdan, jafolardan biz sho'ring qurg'urlar kimga dod deymiz? Kimga? Bu g'urbatxonada notavon yig'laganlarning, afsus-nadomat chekkanlarning, dodu faryodini kim tinglaydi, kim?! Gapiring shariat peshvolari!!!

Q o z i. Shariatga til tegizma!

I m o m. Taqsir, shariatgagina emas, bu gapning tagi poshsholikka ham borib yetadi! Kulli shay'in yarjiu illa aslihiy.

Q o z i. Ayni hikmat so'zlaysiz! (*G'ofirga.*) Hozirgi inoding ayni hamoqat!

X o l m a t (*o'zicha*). Bo'lmasa hali surma ichgan itdek ovozi bo'g'ilib, imomatga o'ta olmay qoladilar. (*Imomga*) Charchamaysiz, domlapochcha, faqat quruq qoshiq og'iz yirtadi, xolos! Satqai gapingiz ketsin, bu gadoga. Bunga o'xshagan mingta sarpoyoqdan sizlar uchun boyga o'xshagan bitta qo'l tayoq yaxshi!

H a s a n. Sen boy bilan o'ynashma!

I m o m. O'ynashmagin arbob bilan, arbob urar har bob bilan. Peshanada bitganini ko'rasan. Qolu balo.

Q o z i (*G'ofirning yoniga kelib, kulimsirab*). Endi seni ham kuyunganingcha bor-a, mug'ombir-ey... (*kulib*) Ustasi farang ekansan-da! Axir, bu G'ofir ham hiyla-nayrangni xo'jayinidan ta'lim olganda... Buning muddaosi bo'lak!

I m o m. Ha-ha, endi bildim... Tuzik-tuzik... Payt kelganida bir narsalik bo'b qolaylik der ekan-da, buning ham bilgani-bilgan!

Q o z i. Qani qo'lingni ber, o'g'lim. (*Qo'lini ushlab yeng ichida pul tutqazib.*) Mana, ushla! Ol! To'yda sarf bo'lgan xarajatlar boyning bo'yniga! Yeb ketarga ming so'm, bunga ikki martaba to'y qilasan hali! Qulluq qil boyga!

I m o m. Ol, ol endi! Qulluq qil boyga!

G' o f i r (*xushsiz suratday qotadi va titroq tovush bilan*). Rahmat... Qulluq... (*ko'z yoshini artadi*) Barakalla!

H a s a n. Xo'sh gapir bu ham ozmi! G'ofir (*Hasanning ko'ziga tikiladi, birdan achchiq qiyqiriq bilan pichog'ini shartta sug'irib, Hasanning oldiga tashlaydi*) Hasan aka! Uring shu pichoqni jafokash ko'ragimga! Uring, o'ldiring! (*Yaktaklarni pora-pora qilar.*) Duo qilaman xudo xayringizni bersin! Bola-chaqangizning orzu-qavasini ko'ring, Hasan aka!

X o l m a t. Hoy, G'ofir, turey, tentak! (*O'rnidan turg'azib.*) Qitiq parimga tegma! Pichoqni shu Hasan akang uradimi? Chumchuq pir etsa, yuragi shir etadi-yu, buning!

H a s a n. Bu jinni bo'lganmi?

G' o f i r. Axir, kishi deganni shuncha xo'rlaysizmi? Men ham odam, menda ham yurak bor, nomus bor, jon bor!

I m o m. Qozi domla, siz ham ko'p ziqnalik qilmang! Ketsa boydan ketipdi, uzating o'sha besh yuzni ham ... (*Pulni berib.*) Mana, ol, bir ming besh yuz bo'ldi? Endi haddingdan oshma! Xafa bo'lamiz! Izzatingni bil!

G' o f i r. Men hali hasratimni, dardimni kelib-kelib odamgarchilikni, diyonatni, nomusni tuproq bilan teng qilgan sizday razil, xotinfurush, qo'shmachilar oldida shunchalik past tushdimmi? (*Ularda kuchli hayajon.*) Men nomusini, xotinini bozorga olib chiqqan savdogarmi?! Yo'q yanglishasiz, shariat peshvolari, agar bunchalik pul uchun o'lgan ekansizlar, bu pullarni o'zaro bo'lib olib, cho'ntaklaringizga uringizda, (*qoziga*) siz qizingizni, (*domlaga*) siz xotiningizni, (*Hasanga*) siz singlingizni boyga qo'shib beringiz!

Q o z i. O, badbaxt kofir!

I m o m. O, la'nati murtad!

H a s a n. O,...! Tavba qildim de! Kofir bo'lding!

G' o f i r. Shular uchun musulmon bo'ladigan bo'lsam, bo'lmadim!

Q o z i. Toshbo'ron qilish kerak!

G' o f i r. Oho! Oho! Qalay ekansiz? Pichoqni avval o'zingga ur, og'rimasa birovga ur.

B o y (*g'azab bilan kirib*). Hoy it, nechun shariat panohlarni haqorat qilding?

G' o f i r. Boy ota, men xotinfurushlarni haqorat qildim xolos!

Q o z i. Hoy, itfe'l, qadr bilmas! (*Boyga.*) Boy, shunday muazzam sallalarimiz bilan dargohingizda bir yalangoyoqdan haqorat eshitib keta beramizmi?

B o y. Jim (*G'ofirga.*) gapni kalta qil, xotiningni qo'yanmi, yo'qmi?

G' o f i r (*zaharli*). Qo'ysam nima qilasiz, boy?!

B o y. Olaman!..

G' o f i r. Ha-ha, boy! Avval uydagilarning hisobini qiling! Nima qilasiz savdo-sotiqni ko'paytirib!

B o y. Bu nima deganing, tagi past!

G' o f i r. Boy! Bozoringiz hali ham chaqqon! Yangi mol olsangiz xaridorlar oyog'ingizning ostidan chiqadi-a, o'zingiz ikki qo'lingizni yana burningizga tiqib qolaverasiz. Axir, boy qachongacha xotin olib xotin sotasiz? Qachongacha qo'shmachilik qilasiz?

X o l m a t. E, xumpar, menga sha'ma qilyaptimi?

B o y. Xolmat, chidolmayman, Xolmat! Xolmat! Boltani keltir! Ushla bu badbaxtni! Ushla! (*Xolmat G'ofirga tashlanarkan, mahkam ushlar.*)

B o y. Xolmat ur!

X o l m a t. Ursam qo'limdan chiqib ketadi, aka! O'zlaring uringlar! Boy, (*Betlay olmay.*) Hasan, sen bor! Hoy, bittang mirshabga bor! (*Hasan kelar tepki yeb qochar.*)

X o l m a t (*G'ofirning qulog'iga*). Men seni uraman, sen ko'kragimga sekin kalla qil, xumpar! (*Sekin uradi.*)

B o y. Xolmat! Polvonligingni ko'rsat deyman!

X o l m a t. Hozir xo'jayin! Qo'lini qayirib olay! Mana senga, mana senga (*uradi*).

G' o f i r. Xolmatning ko'kragiga kalla qilar. Xolmat yolg'ondan hushidan ketar.

G' o f i r. Hoy bo'rilar! So'zlaringdan qayt! Bo'lmasa hokimingga bormayman, mingboshingga yalinmayman, xalqqa arz qilaman, xalqqa! Butun fisqu fasodlaringni, qilgan buzuqchilik, poraxo'rlik, nohaq qon to'kkanlaringni, mening xotinimni tortib olmoqchi bo'lganlaringni aytib, dod deyman, boshimga odam to'plab, g'avg'o ko'taraman, sharmandalaringni chiharaman! (*Ketadi*).

«MAYSARANING ISHI» HAQIDA

Mazkur asar birinchi marta 1939-yili o'sha davrda Toshkentda yangi ochilgan komediya teatrida Mirshohid Miroqilov rejissorligida sahnaga qo'yilgan. Maysara rolini Mariya Kuznetsova, Maryam Yoqubova, Mullado'st rolini Soyib Xo'jayevlar ijro etgan. Shundan so'ng pyesa deyarli barcha viloyat teatrlarida qo'yilgan.

1988-yili hozirgi Abror Hidoyatov nomli teatrdan B. Yo'ldoshev tomonidan sahnalashtirilgan «Maysaraning ishi» teatrimiz tarixida muhim voqeaga aylandi. Spektakl Respublikamizda va Olma-Otada o'tkazilgan. O'rta Osiyo va Qozog'iston teatrlari «Navro'z — 88» teatr festivallarida oliy mukofotga sazovor bo'ldi. Maysara rolini N. Toshkenboyeva, Mullado'st rolini T. Normatov o'ynaganlar.

BAHODIR YO'LDOSHEV

O'zbekiston xalq artisti Bahodir Yo'ldoshev o'zbek milliy rejissurasiga xos eng yaxshi an'analarni davom ettirib, rivojlantirib kelgan ijodkorlardan biridir.

U 1945 yili Kattaqo'rg'on shahrida tug'ilgan. 1970 yili Toshkent Davlat san'at institute rejissorlik bo'limini tugatadi va 1971-1984 yillari Milliy akademik drama teatri, 1984 yildan A. Hidoyatov nomidagi drama teatrida rejissor va bosh rejissor sifatida faoliyat ko'rsatadi.

B. Yo'ldoshev "Abu Ali ibn Sino", "Zebuniso", "Nodirabegim", "Iskandar" kabi tarixiy spektakllarimi, "Qora kamar", "Ziyofat" singari yaqin o'tmishga qaratilgan spektakllari bo'ladimi, ularning har biri ifoda shakli va g'oyaviy mohiyatiga ko'ra o'ziga xos va betakrordir. Hamza hakimzoda va Said Ahmad asarlari bo'yicha yaratilgan "Maysaraning ishi", "Kelinlar qo'zg'oloni" — ikki komediyasi bir janrning ikki xil ajoyib namunasidir.

OLMA-OTA FESTIVALI TAASSUROTULARIDAN

...«Maysaraning ishi» spektakli hammani shaydo qilib qo'ydi. Bunga spektaklning ochiq maydonda ko'rsatilishi, xalq tomoshasi ruhida ishlanishi sabab bo'ldi.

Olma-Ota bolalar teatri maydoni. Zinalarda, atrofda keksa-yu, yosh, bola-chaqa g'ij-g'ij. Karnay-surnay ovozini eshitib, to'rt tarafdin odam kelgani-kelgan. Maydonning ikki tomonida baland dor va simdor, o'rtada to'rtta yog'ochga o'rnatilgan Qozi, Mullaro'zi, Hidoyatxon va Mullado'stning qo'g'irchoq tasvirlari, yig'ma yengil pardalar. Tomoshani dorboz va masxarabozlar boshlab beradilar. Maydonga oddiy kiyingan qizlar, Cho'pon va uning sevgilisi Oyxon bilan mayin o'ynab chiqishadi. So'ng Maysara paydo bo'ladi. U ikki yoshning yo'lida to'g'anoq bo'lgan Qozi, Mullaro'zi, Xidoyatxonlarga qarshi o'zicha kurash boshlaydi: Maysara, masxarabozlar tusiga kirib olgan erkaklar, ruhi tetik, jasur qiz-juvonlar yordamida Oyxonga ishqibozlik qilgan benomus shariat peshvolarining sharmandasini chiqaradi. Rejissor Bahodir Yo'ldoshev va ijrochilar Qozi, Mullaro'zi, Hidoyatxonning botinini fosh qiladilar. Shu maqsadda badihaga keng o'rin berilgan. Artistlar zavq-shavq bilan berilib, yo'l-yo'lakay so'z va harakat topib, goh ruscha, goh qozoqcha so'zlab, ayni chog'da kinoyali o'ynaydilarki, natijada, tomoshabinlar Maysara va do'stlarining tantanasidan zavqlanib, ularga qo'shib o'yinga tushib ketadilar...

Muhsin Qodirov va Saida Larina.
«Navro'z chechaklari», «Sovet o'zbekistoni san'ati»
jurnali, 1988-yil, 8-son.

Ozarbayjon Mambetov — xalq artisti, Qozog'iston teatr arboblari soyuzining raisi.

Birinchi anjumanda o'zbek hamkasblarimiz g'oliblikni qo'lga kiritgani O'zbekistonda teatr harakati faolligidan dalolat beradi. Men ko'plab o'zbek hamkasblarim: Nabi Rahimov, Zikir Muhammadjonov, Yoqub Ahmedovlar bilan og'a-iniman, sizlarning teatringizni yaxshi bilaman. Fursatdan foydalanib «Navro'z» g'olibi — «Yosh gvardiya» teatri kollektivini, iste'dodli rejissor Bahodir Yo'ldoshevni erishilgan yutuq bilan chin yurakdan tabriklayman.

Taymuraz Chxaidze — Gruziya xalq artisti, festival jurisi raisi.

...Spektakllar haqida gap borarkan, men, avvalo, o'zbek birodarlarimiz olib kelishgan «Maysaraning ishi»ni alohida ta'kidlashni istar edim. Zo'r ish! Unda qadimiy o'zbek xalq teatrining an'analari shundoq balqib turibdi.

*J. Anvarovning festival ishtirokchilari bilan olib
borgan suhbatidan. «Sovet O'zbekistoni
san'ati» jurnali, 1988-yil, 8-son.*

BURUNGI QOZILAR YOXUD MAYSARANING ISHI

Birinchi pardadan parcha

...C h o' p o n. Oh, amma! Bu qanday qayg'ularki, o'lim uyqusidan boshqa yupotuchisi yo'qdir. G'urbatda ota-onadin ayrilish ustiga suyuq yordan ayrilish o'limdan ming marta qattiqroqdir. Ayta ko'rgilki, bundayin balolardan qutulmoq uchun kim-kimlarning qaynoq qonlaridan tashna yuraklarni qondirmoq kerak?

M a y s a r a. O'g'lim, bu ishlarning poyoni odam o'ldirmoq bilan saranjom topmas, hiyla bilan bajarishda anjom topadur.

C h o' p o n. Amma, biz bu yurtga musofir bo'lsak, bizning tadbirimizning ko'magi bu ishlarni bajo qilmaydir. Bir yo'l bordirki, u ham bo'lsa bu kun ertadan qolmay qochmoq yoki qasdlarni olmoq, bildirmay bo'g'izlaridan qon qusdirmoqdir.

M a y s a r a. Cho'pon! Sen kuch va bozuga ishonganchali qahramondirsan. Lekin tiriklikning bunday ishlarini tadbir bilan saranjom topilishiga bo'z bolalik qilursan. Qochsak nomardlikdir, kishi o'ldirsak jinoyatdur. Tursak, ikki boshdan tilagimiz, nomusimiz barbod bo'lur. Bir ish qilish kerakki, dushmanlarni o'z-o'zlaricha o'linga mahkum etaylik. Oyxonni sog'lom qo'lda qoldirib, yurt-elga nomusimiz bilan salomat ketaylik. O'g'lim, sher yigitni odam o'ldirmas, nomus o'ldirur. Biz bir ish qilaylikki, sharmandalarni yer yuziga doston qilib ketaylik!...

Ikkinchi pardadan

...M u l l a r o' z i (*kirib*). Ha, Mullado'stmat! Nima deb g'urunglayapsiz?

M u l l a d o' s t. Ey, assalom alaykum! A'lam domla, keling (*Borib ko'rishib.*) Keling-a!

M u l l a r o' z i (*o'tirib*). Xo'sh, nimadan shikoyat qilib turibsiz? Bir oyog' go'rda, birisi to'rda bo'lib qopti-ku!

Mullado'st. Ey, taqsiri birodar, qag'da bir oyog'im deysiz, ikkaviyam baravar go'ristonga yo'rg'a chiqarib qoldi-yu, loaqal birovsiyam bo'saki, nikoh choyshapini bosolmay ketayotibdi-da. (*Mullaro'zi kular.*) Ilohimki, duo qiling, bu dunyoda bo'lmaganga yarasha oxiratdayam ishkal bo'lmasin. Xudo urganni payg'ambar hassasi bilan turtadi, deganday, u yerda ham arvoh urib, jin qoqmasa edi. Oblohuma sallialo, uchinchi dunyo qayda deysiz... (*Mullaro'zi qotib kular.*) Kulasiz, kulasiz, yog' kundaday g'ijillagan boyvuchcha xotinni olvolib bizning ahvolimizga kulasiz-da! Ey omon bo'l.

Mullaro'zi. Yo'q endi, ahvolingizga hamda qiziq gaplaringizga kulamiz-da, axir. Hozir bu boyvuchchangiz ham me'daga zig'ir yog'dek tegib turibdi.

Mullado'st. Sizlarni, ha endi nima deymiz? Xudoyim ilm berib, martabalarangizni baland qilib, iqbollaringizni sartaroshning qayrog'idek silliq, chaqqon qilib qo'yipti. Hammaning nodirayi davron, oshiptayi zamon qizlari sizniki bo'lmay kimlarniki bo'lsin? Haftada birini qo'yib, ikkini olaverasizlar... Bizga loaqal, yo'lakka to'ngak bo'lgan paytava qulog'iyam tegmaydi. Agar sizning yaqinda olgan mohpaykaringiz menda bo'lsa, har soat yuzining kulchasidan to'qson to'qqiz aylanardim-a! Xudoyimning qulog'i bilan bizdaqa kambag'allar og'zining orasiga Jabroyil degan beso'nahay qanotlarini to'sib olgan-da! Bo'lmasam nahot bir kam qirq yildan beri xotin so'rashni qilaverib, og'zimiz xalta bo'b ketdi-yu, bir alvastigayam uchramasak-a! O'rgulib qo'ydim!

Mullaro'zi (*qattiq kulib*). Qo'ying, xafa bo'lmang axir, qozi domlagayam shunaqa payt-paytida yig'lab qo'ysangiz bo'lmaydimi?

Mullado'st. Qo'ying, o'sha qozi domlangizga ham oshiqning hammasi pukkasiga tushadi. Xudo solmagan quloqni qozisi soladimi! O'zlari bo'lsa to'qson beshni jeva qilib, ikkam yuzni beva qildilar. Birorta sarqitni ol mana munisini, deb qo'yish anqoga jiyan!

Mullaro'zi. Ey, hay, hay, siz qiziqmisiz, gunohkor bo'ldingiz!

Mullado'st. Ey-ha!

Mullaro'zi. Qozi domladan ayrilgan haramni rasmiy fuqaro u yoqda tursin, boylar, katta eshonlar, hatto bir yurtning hokimi ololmaydi-yu!

Mullado'st (*chetga*). Hammasi, otboqarlargacha katta-yu...

Mullaro'zi. Sizga yo'l bo'lsin! Ko'rasizmi, Haqnazar yasavulboshining qizini nikohlariga olganlariga bir hafta bo'lgani yo'q edi. Ozgina bir beodobligiga qahrlari kelib, o'n bir yildan beri uyida tul umr o'tkazyapti. Shunday olamni titratgan yasovulboshi bir og'iz bir narsa demaydi.

Mullado'st (*chetga*). Bay, bay, g'o'r ketdi degin hm... (*Mullaro'ziga*). Qozi domla ham ko'rnamak ekanlar-a, nimaning beodobligi bor ekan?

Mullaro'zi. Ey, uni surishtirib nima qilasiz! Ulug' odamlarga bir gap ozlik, ikki gap ko'plik qiladi. Qozi domlaning oldilarida aksripti-da, chuchkiribdi. Darrov eshikka chiqmaysanmi? Katta odamlarning qoshida aksa urib bo'ladimi? Xon bo'lsa o'limga buyurardi, tag'inam qozi domla shariatning adolat minbarida o'tirganlari hamda o'zlari ko'p silayi rahm egasi bo'lganlaridan tashlab qo'ydilar.

Mullado'st. Endi bu aksa degan besaranjomning qozi-pozingiz bilan aslo ishi yo'q. Bir kelib qolgandan keyin hayvonga o'xshagan dumi, odamga o'xshagan yoqasi yo'qki, mahkam siqib eshikka opchiqsang. Umas, bumas, xudoning irodasi-da. Ishqilib, g'o'r ketibdi-da, attang! (*Chetga*). Menda bo'lsin, bir chuchkursi, ming tasadduq derdim.

Mullaro'zi. Kattalarning dargohidan mardud bo'lib, bir quvilgan xotinlar erga borganda, erkaklarning kun ko'rish amri mahol, amri mahol.

M u l l a d o' s t. Obbo, hali shunaqa deng, endi bizning haligi gapimiz, qozi domlaning qo'ygan xotinlaridan umid qilishda emasdi-ku, mana bu halala-palalalardan birortasi tegib qolsa devdik-da!

M u l l a r o' z i. Ha, mana mundoq deng, bo'lib qolar. Sabr qilsangiz, g'o'radan halvo yesiz.

M u l l a d o' s t. Sabrning avjiga o'ttiz ming chiqib tushdik-ki, go'rga borib yer bag'irlashdan boshqasiga ko'zimiz yetmay qoldi.

M u l l a r o' z i. Qozi domla bizga va'da qildilarki, bizning esimizga solinglar, endigi kelgan halalami yoki birorta tul xotin kelib qolsa, shu Mullado'stga olib beraylik. Ammo mening bir shartim bor. Agar shu shartimni bajo qilsangiz, bir olifta, tannoz, sohibjamol bir xotin bor. Darrov qozi domlaga ma'qul qilaman-u, olaman beraman.

M u l l a d o' s t. Voy qullug'-ey, ilohiy ikki dunyongiz charaqlab ketaversin-da. Qani, shartingizni tezroq ayting. Bir kecha o'sha mavzui panosi bilan bo'lgan jon sizga qurbon bo'lib ketsin. (*Xursandlik*).

Manbalar:

1. *Hamza*. Mukammal asarlar. «Fan». 1980-yil, 2—3-tomlar.
2. *Sirojiddin Ahmedov*. «Asri taraqqiy darg'asi», «San'at» jurnali, 1990-yil, 1-son.
3. *Naim Karimov*. «Hamza va jadidchilik». «Guliston» jurnali, 1994-yil, 5-son.

G'ULOM ZAFARIY

(1889—1938)

O'zbek musiqali drama san'atining asoschilaridan shoir va dramaturg G'ulom Zafariy 1889-yili Toshkentning Beshyog'och dahasiga qarashli Kattabog' mahallasida tavallud topgan. Eski maktab, so'ng rus xususiy maktabi va Ko'kaldosh madrasasida tahsil ko'rgan.

G'ulom Zafariy hayot yo'lining katta qismi teatr bilan bog'liq: 1914-yili «Turon» truppasida aktyor sifatida ishlaydi va muallimlik bilan shug'ullanadi, uning birinchi «Baxtsiz shogird» pyesasi ham shu yili yoziladi. 1919-yildan M. Uyg'ur boshliq «K. Marks» truppasida artist, adabiy emakdosh va rejissor bo'lib ishlaydi, 1926-yili Samarqandda san'at muzeyida xizmat qiladi, 1937-yili «xalq dushmani» deb ayblanib, qamoqqa olinadi va 1944-yili surgunda vafot etadi.

G'ulom Zafariy o'zbek musiqa merosini chuqur bilgani holda 1920—1930-yillarda «Sharq kuylari va cholg'ulari», «Muzika muammosi», «O'zbek musiqasi to'g'risida» maqolalarini e'lon qilgan. «Baxtsiz shogird»dan so'ng «Bahor», «Yorqinoy», «Rahimli o'qituvchi», «Erk bolalari» musiqiy pyesalarini yaratadi. «Halima» (1920) shu izlanishlarning yuqori cho'qqisi tarzida dunyoga keldi. Undagi musiqiy ifodalarni muallif Shorahim Shoumarov va Mulla To'ychi hofiz yordamida pyesaga moslashtirdi. Asarni ilk bor M. Uyg'ur sahnalashtirgan bo'lib, unda Ne'mat va Halima rollarini A. Hidoyatov va M. Qoriyeva ijro etganlar.

G'ULOM ZAFARIY VA UNING «HALIMA» ASARI HAQIDA SHARHLAR

G'ulom Zafariy XX asr boshida jadidchilik — ma'rifatparvarlik harakatida faol qatnashadi, adabiyot, dramaturgiya, teatr san'ati sohasida faol ijodiy ish olib boradi. 1914-yilda «Turon» truppasiga havaskor aktyor bo'lib kiradi... G'ulom Zafariyning «Halima» musiqali dramasi o'sha davr madaniy hayotida katta voqea bo'lgan edi. Dastlab bu musiqali drama opera deb atalardi. Olim, adib, dramaturg Abdurauf Fitrat G'ulom Zafariyning o'zbek teatridagi o'rnini nihoyat to'g'ri belgilab, zo'r muvaffaqiyat bilan o'tgan «Halima» musiqali drama-operasini tomosha qilib, o'z taassurotlarini «Ishtirokiyun» gazetasining 1920-yil 29-sentabr sonida quyidagicha yozgan edi: «O'z hayotimizdan olinib, o'zbek kuylarida opera yaratmoq haligacha bo'lmagan edi. Shuning uchun bu kecha bir sinov bo'ldi. O'z kuylarimiz, o'z cholg'ularimiz bilan opera qo'ya olurmi?, «Halima»ni ko'rgandan so'ng unga javob olur edik. G'ulom Zafariyda yozuvchilarimizda topilmagan yangi xosiyat bor. G'ulom milliy musiqalarimizni yaxshi biladi». G'ulom Zafariy ijodi va uning «Halima» asari haqida bundan oshirib baho berish mushkul.

*Mamajon Rahmonov, «Ma'rifat qurboni»,
«Teatr» jurnali, 2000-yil, 3-son.*

“HALIMA” HAQIDA TOSHPO'LAT TURSUNOV SHARXI

G'ulom Zafariy faoliyati faqatgina taqdirlashga loyiq merosgina bo'lmay, avvalo, o'zbek teatrinig jonli hayoti, uning tug'ilish davri jarayoninig ajralmas muhim bo'lagi bo'lib, “Halima” asari esa birinchi o'zbek musiqali dramasigina emas, bir vaqtda teatrga tomoshabin mehrini orttirgan, aloqasini mustahkamlagan, o'zbek teatr sahnasi, unga

yigirmanchi yillarda qadam qo'ygan ijrochilar uchun ijro maktabi, Hamza nomli teatrning o'sha kezlari talqinida hayotiylik uchun izlanishlarida beqiyos ahamiyat kasb etadi.

“Halima” asari eng muhim jumboq — musiqali drama o'zbek teatri uchun qonuniy xolmi, bordi-yu javob ijobiy bo'lsa, uning yaratish yo'llari qanday bo'ladi, degan savolga javob beradi... bu muxim muammoni “Halima” musiqali dramasi hal etdi. Gap bu yerda prinsipial masalalar ustida boradi. Zotan, ko'pincha janr e'tibori bilan “Halima”ni musiqali drama ekaniga mensimayroq qarash xollari ham bor. Bunday qarash keyinchalik paydo bo'lgan xulosa chunonchi, “Halima” maxsus yuzilgan musiqaning emas, balki xalq musiqasining hisobiga vujudga kelgan asar. Lekin o'sha davrda bundan boshqa yo'lning o'zi yo'q edi va o'zbek musiqali drama janri yigirmanchi, hatto o'ttizinchi yillarda ham shu yo'ldan bordi. Demak, o'zbek musiqali dramasi shakllanish yo'lini “Halima” asari belgilab bergan. Bu masalaning birinchi tomoni, ikkinchisi “Halima” o'sha yo'l bilan bo'lsa ham tugal musiqali drama asari edi. Muhimi shu. G'ulom Zafariy pyesa musiqasini bilimdonlik, did bilan tabdil yo'lida shakllantirdi. Yana bir gap. G'ulom Zafariy o'zbek xalq klassik merosining kuchli tomoni, undagi teran muhokama va emotsional kayfiyat vujud etuvchi dramatism, tug'yon, teatral elementlarni amalda birinchi bo'lib sezdi va teatr janriga olib kirdi.

Toshpo'lat Tursunov. G'ulom Zafariy va teatr.
“Sovet O'zbekistoni san'ati” j-li. 1979 yil. 4-son

...Muzaffar Muhamedovning guvohlik berishicha «Halima» «dastlab bittagina maktab daftarchasiga yozilgan uch ko'rinishli insenirovkaga o'xshagan kichkinagina asar bo'lib, ikki-uchtagina ashulasi bor edi». Shu bois pyesani maromiga yetkazishda Uyg'urning qanchalik hissasi borligini anglab olish qiyin emas. Buning ustiga bu yerda gap milliy teatr uchun mutlaqo yangi bo'lgan janr — muzikali drama ustida boradi.

«Halima»ning sujeti va ayniqsa, ikki yoshning sotsial tengsizlik oqibatida fojiali halok bo'lishi Uyg'urni o'ziga rom qilib oldi. Shuning uchun ham G'ulom Zafariy bilan bajonidil asar ustida ishlashga kirishdi. Ushbu jarayonda dramaturg bilan rejissor o'rtasida eng samimiy, ijodiy hamkorlik hukm surdi. M. Muhamedov: «Bu asar ish jarayonida Uyg'urning maslahati, taklifi, qo'shimchalari bilan kundan-kunga ulg'ayib, kengayib bordi», deganida tamomila haqli edi. Xullas, «kichik maktab daftarchasiga» xomaki asardan besh ko'rinishli drama vujudga keldi.

«Halima»ning yaratilishi, Uyg'ur ijodida, qolaversa butun o'zbek teatri tarixida teatr bilan dramaturg o'rtasidagi ijodiy hamkorlikning eng dastlabki namunasi bo'ldi. Eng muhimi, bu hamkorlik teatrimizning samarali an'anasini boshlab berdi.

Erkin Ismoilov, «Mannon Uyg'ur». G'afur G'ulom
nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti,
1983-yil, 104-bet.

MUZAFFAR MUHAMMEDOV **(1902-1995)**

Moskva teatr studiyasida tahsil ko'rgan, turli yillarda o'zbek davlat musiqa, Alisher Navoiy nomidagi opera va balet, Muqimiy nomidagi musiqali teatrlarda faoliyat ko'rsatib K.Yashin va T.Jalilovning "Gulsara", "Nurxon", Xurshid va T.Sodiqovning "Layli va Majnun", S.Abdulla va T.Sodiqovning "Layli va Majnun", S/Abdulla va T.Jalilovning "Tohir va Zuhra", "Alpomish" kabi asarlarini sahnaga qo'ygan atoqli rejissorlardan biri edi.

1928-1930 yillarda Andijon teatrida bosh rejissor sifatida ishlab o'sha yillari adabiy emakdosh K.Yashin, musiqa rahbari T.Jalilov. L.Sarimsoqova, H.Nosirova, M.Azizova, A.Ismatov singari aktyorlar bilan qizg'in izlanishlar olib brogan. Quyida M.Muhammedovning G'.Zafariyning "Halima" asari ustidagi izlanishlari haqida ikki san'atkor esdaliklari beriladi.

«HALIMA» ANDIJON TEATRIDA: HALIMA NOSIROVA **HALIMA ROLI USTIDA QANDAY ISHLAGANI HAQIDA**

«Halima» dramasi ustida repetitsiyalar ham boshlanib ketdi. Men Halimaning yurak dardlarini ifodalaydigan ashulalarini bor vujudim bilan berilib aytardim. Muzika va so'zlar meni bolalik xotiralarim tomon, tug'ilib o'sgan qishlog'im tomon beixtiyor eltar, Hojar opamning qo'ng'iroqday yangroq ovozi, jilg'alarining mayin shildirashi, onamning mungli ashulalari va dutorning dilrabo sadolari Halimaning o'lim oldidagi ashulasi bilan qo'shilib ketib, yurakni o'rtaydigan, asablarni qaqshatuvchi yagona ohang kashf etardi... Adashguday bo'lsam, Muzaffar Muhamedov muloyimlik va ehtiyotkorlik bilan ogohlantiradi. Men uning ko'nglidagisini darrov tushunaman, yo'lga tushib olaman. Yangi spektaklni rejissorimiz ham, aktyorlar, muzikantlar ham zo'r zavq-shavq bilan tayyorlashar edi. Hammamiz ham shu spektakl bilan yashar edik. Halima rolini tayyorlashimda menga Halima rolining birinchi ijrochisi Mahsuma Qoriyeva ko'p jihatdan ko'maklashdi. Keyin eski shaharga tushib, u yerdagi tanish xotin-qizlar bilan suhbatlashdim, ularning hikoyalari ham eski turmush yo'sini va eski urf-odatlarini xayolan tasavvur qilishimga yordam berdi. Bizning «Halima» postanovkamiz hamma vaqt zo'r muvaffaqiyat bilan o'tar edi. Men bu spektaklda Halima rolini besh yuz martadan ortiq ijro etdim, hamma vaqt tomoshabinning olqishiga sazovor bo'ldim. Yaqin o'tmishimiz haqida haqqoniy hikoya qiluvchi, xalqimizning sevimli muzikasi bilan yo'g'rilgan spektakl tomoshabinlarga shunday ma'qul bo'lib qolgan ediki, ulardan ko'pchiligi uni takror-takror ko'rardi. Pyesa O'zbekistondagi barcha teatrlarda qo'yildi, u o'n yildan ortiq sahnadan tushmadi.

*Halima Nosirova. «Men o'zbek qiziman»,
115—116-betlar.*

LUTFIXONIM SARIMSOQOVA **ONA ROLINI QANDAY O'YNAGANI HAQIDA**

Teatrimiz G'ulom Zafariyning «Halima» pyesasini sahnalashtirdi. Bu asarda Ne'matning onasi obrazini yaratdim. Mana shu ona roli menga muvaffaqiyat bag'ishladi. Ilk namoyish kutganimizdan ham ziyoda bo'ldi. Oxirgi pardada Ne'mat o'lgach, onasi uning jasadi ustida ko'z yosh to'kib o'tirar ekan, parda asta-sekin yopilardi. Odatdagidek, Ne'mat «o'ldi». Ko'nglim buzilib, a'zoyi badanimni titroq bosdi, marsiya aytib, faryod

urdim. Hamma bu marsiyaga mahliyo bo'lib, pardani yopish hech kimning xayoliga kelmabdi. Men bu marsiyani artist bo'lib emas, ona bo'lib aytdim o'sha paytda. Yurak bag'rim farzand dog'i bilan ezilib ketgandi. Xuddi shu kuni, spektakl boshlanay deb turgan paytda, teatr hovlisida edim. Notanish bir mo'ysafid kirib, «Lutfiga aytinglar, bolasi shifoxonada qazo qildi», degan xunuk xabarni aytib qoldi. Yuragim tilka-pora bo'lib ketgandi, o'shanda. Bu mudhish hodisani na rejissor Muzaffar Muhamedovga, na turmush o'rtog'im Muhammadjon Tojizodaga aytmay, sahnaga chiqib ketdim, chunki dublorim yo'q edi. Sahnada rolni ijro etdim emas, o'zimning shaxsiy dardlarimni tomoshabinlar bilan o'rtoqlashdim.

«O'zbekiston adabiyot va san'ati»
gazetasi, 1983-yil, 6-may soni.

...«Halima» asari chop etilmagan. Uning 1929-yili Andijon teatrida sahnalashtirilgan va hozirda Hamza nomidagi san'atshunoslik institutida saqlanuvchi nusxasidan ikki sahna chop etildi.

«HALIMA» Birinchi parda

Sahna. Halimaning otasini bog'i bo'lib, har tomonda gullar ochilgan. Ko'm-ko'k mevalar daraxti, bog'ning maysazor joyida skameyka qo'yilgan.

Erta tong vaqti, bulbullar va turli qushlar sayragan, ko'rkam bir manzara. Tong otib kelar oldida yoki boloxonasimon shiypun. Shiypunda Halima uxlab yotgan bo'ladi. Shiypun oldida hovuz bo'ladi. Hovuz atrofi gullarga bezangan va serdaraxt ko'rkam bir joy. Muzika «Navo» kuyi chaladi, uzoqdan Ne'matning ovozi. Muzika «Iroq» kuyi chaladi, parda ochiladi. «Iroq»...

N e' m a t — Kel, ey tongning shamoli uyqudan dildorimni uyg'ot,

Qadrdon do'stiga boqmas vafosiz yorimni uyg'ot,

G'arib bulbulni sayratgan guli-gulzorimni uyg'ot,

Ko'ngilga fitnalar solgan alamlik torimni uyg'ot,

Ko'ngilni o'zga band etgan sahar setorimni uyg'ot,

Avj. — Ko'zimda uyqu yo'q tunlar yurib jononni izlarman.

Farog'at qolmadi tanda tilak armonni izlarman

Sulaymon taxtiga mingan ulug' xoqonni izlarman.

Muhabbat mulkiga kirgan aziz sultonni izlarman,

Judolik kuyini chalgan ko'ngil ozorini uyg'ot.

E... Jonim Halima seni bir ko'rsam edi yuragimdagi sevgi hasratlarimni aytib olgan bo'lur edim. Kecha Ortiqboy dadangning oldiga odam yuborib seni so'rabdi. Dadang «xo'p» deganday qilib javob beribdi.

Muzika:

«Omon-omon» ashulasi:

Ne'matning ashulasi:

E, gullar ochilmanglar
Bulbullar sayramanglar, omon-omon,
To'xtang qushlar uchmanglar, omon-omon-e.
Suvlar oqmang jildirab, omon-omon.
Yiltirab qaramanglar,
Guvullamang, e o'rmonlar.
Dardimni qo'zg'atmanglar, omon-omon
Dardimni qo'zg'atmanglar,
Ko'nglimni ko'p buzanglar —
Sirli ovozlaring bilan, omon-omon,
Ohu navo tuzanglar.

(Uzoqdan muzika «Chorgoh» avji eshitiladi).

Bog'dan kelur cholg'u sasi
Qo'zg'alur dil qayg'usi, omon-omon.
Kim uning cholg'uchisi.
Yaxshilab chol cholg'uchi
Barakat qo'lingning kuchi, omon-omon.
Sevgilim hasratini
Aytib olay cholg'uchi, omon-omon.
Aytib olay cholg'uchi.

Ne'mat bog'dan chiqib keta boshlaydi. Birozdan so'ng Halima boq'qa chiqib, sochini o'rib, skameykaga o'tirib «Qanchalar» ashulasini aytadi.

Muzika. «Qanchalar» (Halima)

Qanchalar qon yig'lasam, holimni so'rmas hech kim,
Rahm etib ko'zimdagi yoshimni bilmas hech kim,
Yo'lda yotsam yastanib menga egilmas hech kim,
Ko'ksimni ming pora qilsam menga boqmas hech kim,
Yoridin payxam olib, men sari kelmas hech kim.
Bilmadim bu dardimni kimlarga izhor aylasam,
Dardi yo'qlar ichra qoldim bilmam endi naylasam,
Ishqi dardi dilga sig'mas endi qayga joylasam,
Telba Majnun ko'nglimni qay band birlan bog'lasam,
Men kabi mazlum bo'lib yig'lab ezilmas hech kim.

Halimaning onasi chiqadi.

R o k i y a — Halima, Halima, Halima-yu... Choyingni ich!

H a l i m a — Hozir deb javob berib, daraxt, gullarga termulib o'ltirib, ashula aytadi.

Muzika chaladi.

«Bahor o'ldi» (Halima)

Bahor o'ldi ochildi gullar har yonda,
Bulbullar sayrashurlar u yon, bu yonda.

Tog' ustida qo'zilar ma'rab o'tlashurlar
Tog'dan toshga echkilar sakrab o'ynashurlar.
Tog'dan pastga tushadir tiniq suv jildirab
Ko'l ichida suv to'la turadi (jildirab) mil-millab.
Har yon bezangan bezanmish turli o't bilan yashnashib,
Bilmam ko'nglim ochilmas hech bir o'yin-kulgi bilan.

Shu payt Ortiqboy yuborgan sovchilar — dasturxonchi Xoljon xola bilan boyning singlisi Norxonim ko'chadan kirib kelishadi. (*Bog'ni*) eshigidan boq'qa haraydilar. Xoljon xola Norxonimga Halimani ko'rsatib maqtaydi. (*Halimani orqasidan ko'rishadi.*)

X o l j o n — Kelin qilsang arzigudek, qarang orqasi to'la soch, husni bo'lsa undan yaxshi.

Xoljon xola, Rokiya, Rokiya deb chaqiradi.

R o k i y a — Voy nechuk shamol uchirdi, hoy Halima, ko'rishadi. Supaga ko'rpacha solib o'tqizadi. Fotiha o'qilgach dasturxon yozmoqchi bo'lib harakat qiladi. (*Xoljon xola «qo'y bolam ovora bo'lma!», — deydi.*)

X o l j o n — Rokiya, qo'y bolam dasturxonga ovora bo'lma!

R o k i y a — Voy aylanay, kelib yuribsizlarmi, Qutlug' uydan quruq chiqma, (*Samovar qaynab, non ushatadi.*)

X o l j o n — Aylanay Rokiya, qulchilikka keldim. Juda yaxshi joy, yegani oldida, yemagani ketida, bir qo'li moyda bo'ladi, bersang shunday joyga berasan.

N o r x o n i m — (*so'zga aralashib*) Akam ham obro'lik odam, o'zlari esa endi 65 yoshga kirdilar.

R o k i y a — Hali qizim yosh, endi 16 yoshga kirdi: otasi bor, akasi bor, otasi biladi.

X o l j o n — (*Fotiha o'qib turishadi. Rokiyaga*) Bo'sh kelma, eringni qo'lga ol, orqa-voshlarini silab ko'ndir, qizing borsa yayrab, yashnaydigan joy. (*Chiqib ketishadi. Halima shu payt daraxt panasida yashirinib turgan bo'lib, xotinlarning so'zlarini eshitib oladi. Halimani onasi bog'dan chaqiradi. Halima uyga kiradi. Shu vaqt bog' orqasidan Ne'matning ashulasi eshitiladi.*)

Muzika

«Sayra bulbul» kuyi:

N e ' m a t — Sayra bulbul, chaqir mening go'zal yorim yor-yor,
Bir yo'l to'yib ko'rsam yuzing yo'q armonim yor-yor.
Chiq yolg'izim, chiq yonimga ko'rsat yuzing yor-yor,
Bu dardimga davo topsang o'ygin o'zing yor-yor.
Chiqmaysanmi yo'llaringga qarab qoldim yor-yor,
Ayriliqning azobiga ko'p qiynaldim yor-yor.

Birga-birga yurgan choq'larin, yoshlik davrlarini eslab so'zlanadi.

Muzika:

«Qizg'on malagim» kuyi

Qizg'on malagim chidolmam endi

Ayriliqqa hech tuzolmam endi
Tinmay oqadir yosh ko'zlarimdan,
Sensiz dunyoda turolmam endi.
E — sevgiligim, go'zal Halima
Bir kelib chiqsang edi yonima.
Ko'nglimdagi dardlarimni aytsam
Rahming kelardi bu yosh jonima!

Halima uyg'onib, sekin shiypondan tushadi. Muzika chalinadi.

H a l i m a — Ne'mat akajon, xush, kelibsiz

Kimlar ila so'zlashib turibsiz,

Kim bor edi oldingizda, ayting?

Nega yolg'iz so'zlab o'ltirursiz?

N e' m a t — Men yolg'iz emasman, e go'zal yor,

Ko'nglimda hamisha suvrating bor.

Kelding o'zing ham ko'nglim yoridi,

Kel oldima so'zlashaylik biroz

Bir so'z meni bul yerga keltirdi.

Ikkisi skameykaga o'ltiradi.

H a l i m a — Ul qanday so'z ekan. Sizni bu yerga keltirgan?

N e' m a t — Aytmay desam yuragim yonadi, aytsam tilim kuyadi.

H a l i m a — Ayting tezroq, yuragimga o't solmang u qanday so'z ekan, hozir oyim chaqirib qoladilar.

N e' m a t — Oh... Jonim Halima, yoshlikdagi birga o'ynab yurgandagi sening so'zlaring hech mening yodimdan ketmaydi: kecha zolim Ortiqboy dadangning oldiga kishi yuborgan ekan, dadang «xo'p» degandek javob beribdi.

H a l i m a — Ne'mat akajon, qo'ying, bu so'zlarni eshitgandan ko'ra quloqlarim sitilsin! U qari cholg'a borgandan ko'ra qora yerga borganim yaxshiroq.

N e' m a t — Oh... Jonim Halima men kambag'al bo'lsam, seni otangdan so'ratsam otang «yo'q» deb javob beribdi, nima qilay hech ilojim yo'q.

Halimani onasi chaqirib qoladi.

R o k i y a — Halima, Halima-yu, Halima!

H a l i m a — Ne'mat aka, yoshlikdagi bergan so'zim chin, sizdan o'zgani demayman. So'zim — so'z! — deb (*Ne'matdan uzoqlashadi. Halima onasiga*) Hozir (*deb javob beradi.*) Ne'mat qo'lidagi gulni Halimaga otadi. Halima hidlab qoladi.

Parda tushadi

Ikkinchi parda

Kechki payt. Ikki xonadan iborat Muslim akaning uyi. Muslim aka, Rokiya, Zokir, Halima osh yeb o'ltirgan bo'ladilar. Muslim aka bozorning savdo-sotiqdari yomonligidan va qarzdor bo'lib (3—4 yuz so'm) qolgani, bankdan qarz muhlati tugab qolganidan shikoyat qilib so'zlab o'ltiradi. Halima oshni tuzuk yemaydi, oyisidan so'rab, ikkinchi uyga kirib ketadi. Rokiya

esa qizining tobi bo'lmay yurganini aytadi. Osh yig'ilib, choy ichib o'ltiradilar.

R o k i y a — Otasi shaxtingiz pastroqmi?

M u s l i m — Nima deysan xotin, kecha Ortiqboy qizingni so'rab oldimga odam yuborgan ekan.

R o k i y a — Bu yerga ham bugun sovchilar kelishgan edi, Norxonim bilan Xoljon xolalarim, otasi biladi dedim. Yana ertaga kelmoqchi bo'lib ketdi.

M u s l i m — To'xta, men so'zimni bitiray, bugun yana keldi. Ortiqboy aytibdiki, «yeb ketarga besh yuz so'm pul beraman» deydi. «Xo'p» deb qo'ydim, shu hafta, payshanba kuni to'y yubormoqchi bo'ldi. Nikoh ham kechikmasa kerak. (*Halima xushidan ketadi*).

R o k i y a — Voy o'liy, uni nima balo qildingiz? Qizim yosh bo'lsa, boy bir qari kishi bo'lsa, o'z tengiga bermasdan bir cholga bersak xafa bo'larmikan. Munaqa erga berish ko'nglingizda bor ekan Rahim aka, «O'g'limga bersin» deb kishi qo'yib yuribdi, unga bersak yaxshi bo'lasmidi: o'z tengi edi.

M u s l i m — Yaxshi aytasan: o'zi tengiku-ya... Ammo Rahim aka o'lguday kambag'al. Bir yamoqchi, unga qiz bersak, qiz uzataman deb qarzdor bo'lib qolarmikanmiz deb hali o'zingga aytdim-ku, bozorning mazasi yo'q, 3—4 yuz so'm qarzim bor, do'konda bo'lsa yetarlik mol yo'q, fabrikantlar oqchasini so'rab qolsa, nimani beraman. Tangri ko'rsatmasin veksellarni natariusga berib qo'ysa, unda do'kon pechatlanib, hovli-joylar sotilib ketadi, shuning uchun Ortiqboyning yuborgan odamiga — xo'p dedimki, agarda va'dasicha besh yuz so'm bersa, qarzlarimdan qutulib olarmikanman deb, yana o'zing bilasan.

R o k i y a — O'zingiz bilasiz otasi, men bir aytdim-da.

Z o k i r — Ota shu qilgan ishingiz menga hech ma'qul emas. Ortiqboy juda qari kishi. Albatta, singlim uvol bo'ladi, men bu qilgan ishlaringizga sira unamayman.

M u s l i m — Jim tur, seni aqling nimaga yeta qoldiki, menga kengash berasan. O'zingdan katta bir ish qilgandan keyin, bir narsani bilmay qilmaydi.

Z o k i r — Bilib qilgan ishingiz shumi? Yoshgina qizingizni oqchasiga uchib yetmishga kirgan cholga berasiz. Yo'q, siz bersangiz ham men qarshi turaman. Nima bu, qizning o'zidan so'rash yo'q, pul deb odam o'z bolasini ham sotadimi? Pul o'lsin, pul! Pul muhabbati kirish bilan farzand muhabbati ko'nglingizdan chiqdi. Yo'q! Pul deb butun bir jonni ko'z oldimda qul qilib sotishlikka yo'l qo'ymayman.

M u s l i m — Nima deydi bu ahmoq. Astofurulloh. (*Rokiyaga*) Kel xotin, tezroq to'yning harakatini qil, bundoq bemaza so'zlarga quloq solma!

Z o k i r — Yana qaytarib aytaman, ukam ham odam, molga o'xshash sotilmaydi. U yosh, o'z tengi bilan o'ynamoq, kulmoq istaydi. Cho'rilar o'xshab tutilib bir cholga berilmaydi, zamonimiz «haq» haqga berganlar uchun, xudoga shukur, cho'rilik, qullik asrlari o'tib ketgan. Zo'rlab olishga Ortiq boyning haqqi yo'q.

M u s l i m — (*Achchig'i chiqadi*) Hoy bola, sen menga qarshi so'zlaysan! (*Qo'lini ko'tarib urmoqchi bo'ladi. Rokiya o'rtaga tushadi.*)

R o k i y a — (*Muslimga*) Hoy, sizga nima bo'ldi? (*Zokirga*) Nega otangning jahlini chiqarasan, tur, ishingga chiq.

Z o k i r — (*Chiqa boshlab*) Chiqaman, ota chiqaman, lekin qo'limdan kelgan ishni qilib, bechora singlimni Ortiqboyning changalidan qutqazib olishga urinaman. Pul zo'r kelsa... Ortiqboyning o'zi bilan boshqacha gaplashaman.

M u s l i m — (*Rokiyaga*) Qo'y buning tomoni bo'lma! Bu bola o'zlikdan oshib ketibdi, yaxshilab tuzatib qo'yay.

Z o k i r — (*Chiqadi*) o'ldirsangiz ham so'zimdanda qaytmayman.

M u s l i m — To'xta-to'xta oqpadar, to'xta! (*Quvlab orqasidan chiqadi. Orqada ovoz. Rokiya ham dodlab chiqadi.*)

Halimaning yotoqxonasi, yig'lab o'tirgani ko'rinadi.

H a l i m a — Oh! Otalar, nega muncha shafqatsiz bo'lar ekan, bu qanday zulm! Hech chidolmayman... Ne'mat! Nega mendan xabar olmaysan, yo mendan umidingni uzdingmi? Esingdan chiqardingmi? Yaxshi, sen esingdan chiqarsang ham men esimdanda chiqarmayman. U sening kecha bog'dagi qo'rquv ila javdirab tikilib qarashlaring, meni ovutmoq uchun sekin jilmayib turib: «to... gavdamda jonim bor sening uchun tirishaman» deb turgan chog'ing ko'z oldimda, ul chog'da so'zlagan so'zing qulog'imdan aslo ketmaydi. Bilmadimki, undan beri sening holing nima kechdi ekan bilmadim, qanday kunlar kechirasan, e... zolim ota, birgina yosh qizingga achinmadingmi.

Muzika

«Bormayman dedi» kuyi (Halima).

Ne uchun tangrim meni sevgi o'tiga tashlading
Sevdirib avval meni endi ko'zimni yoshlading.
Ko'nglimda jo aylading ko'rgan kunimdan dardini
Endi qiynagaysan meni boshimga solib hajrini.
Oh yondim, ey meni oromijonim, tashlama,
Asragil yo saqlagil, yo qilg'il oson dardimi.

Seni sevgan edim. Yana sevaman, umidim chirog'ini so'ndirma! Oh... bilmayman... balki sen meni unutmading! (*Ma'yus*)

Muzika:

«Rizo» kuyi (Halima).

Meni yondirdi, kuydirdi muhabbat o'tlari do'stlar,
Oshib ketdi samolardan fig'onim dudlari do'stlar.

Avj:

Tilaymankim vafosiz yor kelib holimga ko'z solsin,
Bu dardimga davo qilsin va yokim jonimni olsin!
Kecha-kunduz nigorimni yetishmoq orzusi erdi,
Raqib do'stni uyg'otdi. Jafo toshimni irg'itdi.
Gunohim ne edi yorim, dushmanlar uylari kuysin,

Xarob o'lsin, uyi kuysin meni yorimdan ajratdi.

(*Ovozi chiqmas darajada ichidan yig'lagani ko'zidan ko'rinib turadi.*) Yo'q, bo'lmaydi!.. Qanday chidab bo'ladi, o'z otang o'z sevgilingdan ajratib, otang qatori bir cholg'a xuddi bir quldek, bir cho'ridek sotib yuborsa. Akam bechora ham yolg'izlik qilib qolayotibdi. Undan ham umid yo'q, endi meni kim qutqaradi, kim yordam beradi, hech kim!

III-parda

Sahna. Ikki bo'lak uy, biri eskiroq bo'lib, Ne'mat yotur, to'rda ko'cha eshigi bir tomonda uy eshigi, ikkinchisi o'rtacha boy uyi. To'rda Halimaning o'zi ish tikib o'ltiradi, parda ko'tarilganda Ne'mat boshini ko'tarib, yarim turib holsizlik ila o'qir. Musiqa.

“Ko'cha bog'i” kuyi

Jonim meni ko'rarga zor aylading?

Rahm aylamay ko'p intizor aylading.

Go'zal yorim boqqin menga achingil,

G'arib sevgichingga ozor aylading.

AVJ

So'yla: mendan seni kim qildi yiroq,

Chidolmayman aslo, kelgil tezroq.

Qizg'on, ahvolimga o'zing kelib boq,

Ko'z yoshimni qator-qator aylading.

Ko'nglim gulshanida yolg'iz bir gulim,

Sensiz sayray olmas dardli bulbulim.

E, muloyim, yumshoq latif sunbulim,

Qiyinab, ezib, jondan bezor aylading!

Halima, rahmsiz, Halima! Meni ko`p qiynamasangchi, yurak-bag`rim yonadi, endi bu ayriliqqa aslo chidamim yo`q. seni mendan ayirmoqchi bo`lganlarning uylari kuysin, yo`q bo`lsin (yig`laydi, onasi Oynisa kiradi).

Oynisa — O`g`lim, tuzukmisan, nega yig`laysan?

Ne`mat — Hech yig`laganim yo`q, onajon.

Oynisa — Ne`matjon, aylansun onang, kechadan berlu hech narsa yemading, ho`rda qilib beraymi?

N e`m a t — O`zingiz bilasiz, baribir ko`nglim hech narsa tortmaydi.

Oynisa — Achchiqqina qilib qatiqlab beraymi, zora ichsang, bolam? (chiqadi)

N e`m a t — (yolg`iz) Oh... Bechora ona! Bilmaydiki, mening bu kasalim qanday kasal... Oh... Halima! Halima! (Rahim aka bilan Zokirjon kiradi)

Rahim — (orqada) Mana shunaqa bo`lib boyvachcha, bechora bolam karaxt bo`llib yotibdi.

Zokir — (kirib so`rashdi) Ne`matjon uka, qalaysan? Nima bo`ldi?

Ne`mat — Shukur, o`zing qalaysan? Uy ichlaring omonmi?

Rahim — (chetga) Bu bola bechoraning o`zi nima ahvolda yotibdi-yu... Zokirjonning uy ichlarini so`radi... Esi hushi Halimada...

Ne`mat — Qanday qilib. Bedormonman... Ko`nglim g`ash, hech narsa sig`maydi.

Z o k i r — Rahim aka, dori-darmonning ilojini qildingizmi?

Rahim — Pichoq bozordagi domla-tabib ko`rib ketdi. Kasali yengil tuzalib qoladi, dedi.

Z o k i r — E... tabiblarga ishonmang, ular johil hech narsani bilmaydi, yahshisi shuki, doktorga ko`rsating...

Rahim — Doktorga ko`rsatay dedim yo`lini bilmayman undan keyin xalqumi bulg`anib qolmasin deyman.

Z o k i r — E, Rahim aka! Xotin-xalajning gapiga kirib bolaga jabr qilasizmi? Unday hurofot gaplarga quloq solmang! Dardini doctor biladi. Axir necha yil shu ilmni o`qigan.

Rahim — Doktorga juda ko`p pul berish kerak bo`ladi, biz qayerdan topdik uni? Zo`rg`a kunimni ko`rayotgan bir kambag`al bo`lsam...

Z o k i r — Mening bir oshna doktorim bor, shuni habar olay, bo`lsa o`zim olib kelaman. Tabibga ishonmang. Dorisini ichirmang, menga ruhsat bering. Ne`matjon uka, men ketay.

Rahim — Dasturhon ham solmadik, quruq ketayapsiz.

Z o k i r — Ne`matjon tuzalغانidan keyin (chiqadi).

Ne`mat — Hamma yomon yigit desa ham Zokirjon juda yahshi yigit. Hech bir mulla, hech bir domla aytmaydigan haq gaplarni shu aytdi. (Bir oz ham) Halimani yahshi ko`rganimni ham biladi, Ortiqboyga berdirmaddan, menga berdirishga ham mayili bor... Lekin qanday qilsin, shuncha odam orasida bu ham yolg`izlik qiladi... Oh...

Rahmat — (kirib) Aka-aka, o`rtoqlaringiz kelib, sizni ko`ramiz deydilar.

Ne`mat — Qayerdalar?

Rahmat — Eshikda turishibdi.

Ne`mat — Chiqib ayting kirsinlar. (Rahmat chiqadi, Hokim bilan Bo`riboy o`rtoqlari kirishdi)

Bo`riboy — Uh... Uh... Ko`rpa- yastuq qilib yotibdi-ku?

Hokim — E... Ne`matjon o`rtoq, senga nima bo`ldi?

Bo`riboy — Chinakamiga yotib olding shekilli.

Ne`mat — Kelinglar, o`rtoqlar, kelinglar! Shunaqa, chindan tobim qochib qoldi.

Hokim — (peshonasini ushlab) Ancha isitmang ham bor.

Bo`riboy — Rangingni ham oldirib qo`yibsan-a...

Ne`mat — Qanday qilay? Yuragim siqiladi, zix bo`ladi, o`sha borib a`zoyi-badanimga urayapti...

Hokim — Zix bo`lgan bo`lsang ko`cha-ko`yga chiq... Tamosha qil, yayra... nima bu yotish?

Bo`riboy — Ha deb yotabersang, ko`chaga chiqmaganingdan keyin albatta yuraging siqiladi-da...

Hokim — O`rtoqlar bilan ertaga Chirchiq bo`yiga chiqmoqchimiz, qishloq bolalarini bir-ikkita miltigi` bor ekan, ov qilmoqchimiz, undan keyin baliq ov ham qilamiz. Seni ham olib chiqaylik deymiz, nima deysan?

Bo'riboy — Hada, seni ham olib chiqamiz. G'amu g'ashtlaringdan nariroq, hammasi yotaberganniki.

Hokim — Nima deysan?

Ne'mat — Mayli, ertagacha darmonga kirib qolsam borarman.

Bo'riboy — Ha, shunday deign, ertaga erta bilan. Biz otliq, aravalik bo'lib dutor, tamburimizni olib kelamizu seni olib ketamiz. Endi bizga javob ber o'rtoq.

Ne'mat — O'tirmaysizlarmi? Buncha shoshildinglar!

(Joylaridan turadilar)

Bo'riboy — Boshqa o'rtoqlarga ham habar qilmoqchi edik, ertaga ho'p gaplashamiz, hayr endi o'rtoq.

Hokim — Ertagacha darmonga kirib qol, hayr. (Fotiha qilib chiqmoqchi bo'larlar, Ne'mat Bo'riboyini imlab chaqiradi)

Ne'mat — Bo'riboy o'rtoq yaqinroq kel senga so'zim bor.

Bo'riboy — (hokimga) Hokim, sen chiqib tur, men hozir chiqaman, nima so'zing bor, o'rtoqjonaytgin.

Ne'mat — Endi ochib so'zlamasam bo'lmas... Uf... Muslim akaning qizi Halimani chin ko'nglimdan sevaman, mana o'zingga belgili Ortiqboyga bermoqchi emishlar shu so'zni eshitib hafalikdan mana shu holga tushib qoldim. Endi aytadigan so'zim shuki, otamga tushuntirib so'zlasang Muslim akadan bir iloj qilib qizni so'rab olib bermasa – mendan ajraydi...

Bo'riboy — E, hali gap bunday degay? Shunday darding bor ekan nimaga burunroq aytmadig, yigitchilikda oshna-og'ayni bakor kelmasa, qay vaqt bakor keladi? Seni qarayu... Xo'p bo'libdir, men otang bilan shu kunning o'zidayoq gaplashib, ishni to'g'irlayman, sen o'zingni siqaberma, ertaga biz bilan Chirchiq bo'yiga chiqader.

Ne'mat — Bo'lmasa, sen ilgari otam bilan bir gaplashib javob ol!

Bo'riboy — E, uni darrov to'g'irlaymiz. Hotirjam bo'l, hayr, ertaga ertalab kelamiz, o'shanda haligi gapingni javobini ham aytaman, hayr. (chiqar)

Ne'mat — (yolg'iz) Nimaga ekan? Ko'nglim hech bir ishonmaydi, meni sevgan, meni degan, ko'nglini, butun borlig'ini menga bergan qizni uch-to'rt yuz so'm pulni ortiqcha sarf qilib, alvastiday bir cholga olib ketadi, qani insof? Uh... (yig'laydi)

(Bir ozdan so`ng musiqa)

III-Bayot kuyini chaladi

Oh nechuk zor yig`layman, kuydirdi bu hijron meni,
Naylayin bir kelmasa ko`rmakkaul janon meni.

AVJ

E, tabibim, xoziqim bir yo`l kelib holimni ko`r,
Kelmasang qon yig`latar ko`nglimda zo`r armon meni.

Daromad

Qolmadi hech toqatim qurdi ko`zimning yoshlari,
Dunyoga sharmanda qildi oh ila afg`on meni.

Jismi jonim yondi, kuydi ham kabob bo`ldi jigar
Hech bir inson demas ko`rganda xar inson meni.

(Ne`matning onasi kosada suyuq osh olib kiradi)

Oynisa — Bolam, achchiqqina qilib, qatiqlab keldim, ich zora bir oz ko`tarilsang.

Ne`mat — Rahmat qayerda?

Oynisa — Kochada o`ynab yuribdi.

Ne`mat — Menga chaqiring.

(Onasi chiqadi. Ne`mat qalam-qog`oz olib, Halimaga hat yozadi)

Halima “Sharob” kuyida kuylaydi

Sevdigim zulm aylasa kuydirma ko`p qizg`on meni
Injitib ko`p qiynama yo`q toqatim qizg`on meni.

Sen yor desang sevdigim bir boq menga, e, yolg`izim,

Haddan oshdi kulfatim kuydirma ko`p qizg`on meni.

Kuydi bag`rim, e, meni oramu jonim tashlama!

Asragil yo saqlagil qaytarsa yuz qizg`on meni.

E tabibim, xoqizim sevgilim, kel, dilbarim,

Qayg`udan o`lgum agar kelmas ersang qizg`on meni.

G`.Zafariy

Rahmat — (kiradi) Aka, meni chaqirdingizmi?

Ne`mat — Mana bu hatni, yuqori ko`chadagi Muslim akaning uyini ko`rgansan shu uyga borib hech kimga ko`rsatmay shu hatni Halima opangga berasan.

Rahmat — Xo`p, akajon, hech kimga ko`rsatmay Halima opamlarga beraman (Rahmat chiqadi).

Sahnaning ikkinchi bo`lagi – Halima o`ltirgan uy, Halima uyida qiyiqchaga bayt tikib o`ltiradi va qiyiqchadagi baytni kuyga olib o`qiydi. Bayt:

H a l i m a — Oh, jonim, Ne`matjon, qanday kun bu? Bir-birimiz bilan topishadigan kun bormikin?

(Shu vaqt Rahmat kiradi)

Rahmat — Halima opa, Halima opa, mana bu hatni sizga akam berib yubordilar.

H a l i m a — Sening bu yerga kirganingizni hech kim ko`rgani yo`qmi?

Rahmat — Yo`q, ko`rgani yo`q.

H a l i m a — Bo`lmasa tezroq ketkin, hech kim bilmasin. (Rahmat chiqar) Halima hatni o`qiydi: “Halima, jonim, Halima, ikkimizning qovushmog`imiz nasib bo`lmadi, men sening ishqingda o`lim to`shagida yotibman. Seni sevguvchi Ne`mat”. Oh, zolimlar, zolim otam o`z qizingni, o`z tengiga bermay, boyning puliga qiziqib sotmoqchimisan!? Bechora Ne`mat, oh, Ne`matjon! (Yig`laydi)

M u s l i m — Rokiya, Rokiya! To`y hozirligini ko`rdingmi?

R o k i y a — Voy o`lmasam, buncha shoshilmasangiz!

H a l i m a — Ah... (deb o`zini tashlaydi)

Parda tushadi

3-pardaning oldidan – sahnaning oldida bir necha qalandarlar ko`rsatiladi, boy, pristav, tabiblar chiqadilar. Ne`matning haqida va tabib orqali ne`matni zaharlab o`ldirmoqchi bo`ladilar. Musiqa “Azm” kuyida

Qalandarlar — Chin sevguvchi ma'shuqiga doday,
Jonni qurbon qilmasmi doday.
Jonni qurbon qilmasmi doday.
Bir boqishga yorini doday,
Jonimni olsin demasmi.
Jonimni olsin demasmi.
Tortib olsa yorin raqib doday,
Oshiqning joni kuymasmi doday.
Oshiqning joni kuymasmi doday.
O`tlik fig`on ila butun doday,
Alamini ohi yoqmasmi doday.
Alamini ohi yoqmasmi doday.

(Ortiq boy kirar, qalandarlar boshlig`i to`htab qo`lini ko`tarar)

Boshliq — Omin

Hamma — (Qo`lini ko`tarib)

Boshliq — Ilohi shu boy akamning umrlari uzun bo`lsin, rizqlari fuzun bo`lsin.

Hamma — Omin, yo rabbano ilohi omin.

Boshliq — Davlat qushi boshlarida barqaror. Ilohi dushmanlari xoru zor bo`lsin.

Hamma — Omin, ilohi omni.

Boshliq — Ilohi boy akamga qasd qilganlar pasd bo`lsin. Oldin qo`ygan qadamlari qaytmas bo`lsin, umrlari uzun bo`lsin, rizqlari fuzun bo`lsin!

Hamma — Omin, yo rabbano omin.

Boshliq — Ollohu akbar (Fotiha tortar va boyning yelkasini uqalar) Ilohi Shohimardon pirim kamaringizdan mahkam bog`lasunlar.

Qalandarlar — Ilohi, Shohi Bahovuddin pirim tilagingizga yetkuzsinlar, omin.

Hamma — Ilohi omin-omin (Fotiha tortib, qoʻl qovushtirib turarlar, boy aqcha chiqarib berar, duo qilib chiqa turib).

Boshliq — Oshiqlarni kuydirgano...

Hamma — Oshiqlarni kuydirgan.

Boshliq — Maʼshuqlarning ishq oʻtiyo...

(Chiqadilar)

Hamma — Maʼshuqlarning ishq oʻti...

(Ortiqboy birovni koʻrib ikki bukilib taʼzim qiladi)

Ortiqboy — Assalomu alaykum.

Boy — Qulluq taqsir. Davlatlari koʻlankasida,

Pristav — Nima bay toʻy qachan boʻladi, bor yuk keldi, bir aytdi yuk, e adam yahshisi yoʻqmi bor?

Boy — Taqsir hali toʻy boʻlgani yoʻq, sizni aytmay toʻy qilarmidik taqsir.

Pristav — Yarchimu nikoh nega boʻldimi yuk?

Boy — E taqsir men shu ketishda sizga borayotir edim. Bu bizni olaturgan qizning bir akasi bor oti Zokir degan, oʻzi jadid, gazeta oʻqiydi. Bu tomondan mana shu akasi qarshi emish, ikkinchi tomondan esa mana bu qoʻshnisi Rahim yamoqchining oʻgʻli Neʼmat degani yahshi koʻrar ekan. Mana shulardan ajratib olishga biror yoʻl koʻrsatarmikansiz deb maslahat qilmoqchi edim. Taqsir, endi buning iloji nima boʻlar ekan?

Pristav — E, Boy, bu ish oson...

Boy — Ilohi salomat boʻlinglar, taqsir bir ilojini qilmasangiz el, halq orasida juda sharmanda boʻlib obroʻ bir chaqa boʻladida (yonini kavlab pul chiqarib beradi). Jon taqsir, endi siz toʻgʻirlamasangiz hech boʻlmaydi.

Pristav — (qoʻliga olib, oʻynab) Ha, Boy, hiylasin topdim. Kechasi yamoqchi mahallasida bir yomon odam bittasi soqol bachcha talash keldi, bittasi, bittasi odam oʻldirdi.

Boy — Ha... ha, u Sharif qimorbozni soʻydi.

Pristav — Ha, ana shunga qizni yahshi koʻrdi, yigitni sherik qilamiz.

Boy — E, sadaqangiz bo'lay. Taqsirjon, bormisiz, ana shu balodan qutuldim bo'ladi, chunki qizning akasi yahshi ko'rganiga beraman deb, unamay turibdi, bo'lmasa akasining ishi oson taqsir.

Pristav — Bo'ldi men kazir starshina yuboradi, protokol keldi. Uni tyurma qiladi ish tamom.

Boy — Taqsir, u yigit kasal emish, u qanday bo'ladi?

Pristav — Kasal bo'lsa u turma keladi (boy yelkasiga uradi). Odam yahshisi bormi (gerdayib), hayr boy men ketdi – shu ish keladi (qo'l berib chiqa boshlaydi).

Boy — Shunday bo'lsin hayr-hayr, qulluq taqsir (pristav chiqar, tabib ko'rinadi, tabib kirib)

Tabib — Assalomu alaykum, ha janobi boy, yo'l bo'lsin (kulgi)

Boy — (kulgi) Ishlar qalay?

Tabib — Ishlar yahshi, boy, men kecha dori bergan edim mazmuni ichirmaganga o'hshaydilar, bo'lmasa haligacha saranjom bo'lgan bo'lar edi.

Boy — Nega... yoki sezganlarmi?

Tabib — Yo'g'e boy, undog' emas, hali Ne'matning otasi bordi. Zokir gazet, doktordan dori keltirib bergan emish, buni eshitib otasini koyib berdim, mening dorimni ichiring deb tayinlab yubordim, yana tinchimay o'zim ketidan borayotibman, agar ichirmagan bo'lsa, ikkinchi dorini beraman. Bu bo'lsa undan ham kuchlik. Agarda bir qatrasini ichsa til tortmay o'ladi.

Boy — Puxtami, o'tkir dorimi?

Tabib — Xotirjam bo'ling taqsir. Tajribadan o'tgan, juda ko'p tajribadan o'tgan, mening dorimni ichib o'lganlardan hijolat bo'lib go'ristondan o'tgani ham uyalaman.

Sahna ikki honadan iborat bo'lib, birinchi xona Ne'matning uyi. Ne'mat kasal, juda holsiz yotadi. Ikkinchi uy Halimaning uyida xotinlar Halimaning sochini o'rib, ba'zilari Halimani kiyadigan kiyimni tayyorlamoqdalar.

(Ne'matning uyi. Otasi bilan onasi g'amgin. Sukutda).

Rahim — (og'lining tepasida) O'glim, nega dardingni aytmaysan, bolam nima qilay, bir bechora bo'lsam, darding og'ir, uying kuygur Ortiqboy bolamni qanday kunlarga solding! (tabib eshik qoqadi, Rahim aka xotiniga) Xotin chetga o't.

Tabib — (tabib kiradi-da, Ne'matning tomirini ushlab) E, sadaqayi odam keting-e... dori ichirmay bolani nobud qilibsiz, men yana yahshi dori keltirdim (deb, dorini o'zi ichiradi) dori nihoyatda zaharli bo'ladi (fotixa qilib) Hudo shifo bersin (deb chiqadi).

Rahim — (Rahim aka yonini kavlab tabibga pul uzatadi) Taqsir oz bo'lsa ham ko'p ko'rarlar.

Tabib — E... qo'ying, qo'ying, darkori yo'q... (deb oladi, tabib, otasi chiqadilar) Ne'matning onasi kirib, otasidan tabib nima deydi (deb so'raydi. Ne'matning holi yomonlashib, o'zgaradi. Sahna orqasidan Halimanikiga to'yin qoplarda donlarni olib o'tib ketishlari ko'rinib turadi. Sunray tovushi eshitiladi. Ne'matning ukasi Rahmat ham shu yerda bolalar orasida o'ynab yurgan bo'ladi, Rahmat chopib uyiga kirib)

Rahmat — Aka, aka Halima opamga to'y keldi.

Oynisa — (Rahmatga) Tur yo'qol, ko'chaga chiq!

Ne'mat — Oh, Halima! (deya qiynalish harakati bilan, azob bilan Halimaning ruhi ko'rinadi) Kel-kel, jonim, senga to'y keldimi? (kinoya bilan) Meni to'yga aytgani keldingmi? Sen Ortiqboyga borasanmi? (Halimaning ruhi keta boshlaydi, ota-onasi hayajonda) Halima ketma-ketma! Kel, ikkimiz birga qochamiz. Meni tashlama! Oh ketdingmi? (azob bilan o'zini tashlab o'ladi. Yig'i-sig'i bo'lib, Rahmatni holasiga yuboradi, bir-ikki xotin qo'shnilar kirishadi, otasi mahallani xabar qilay deb chiqadi).

(Halimani boshqa uyga olib chiqib kiyintirishadi. Olib chiqishganda nikoh so'rog'i bo'ladi. Halimaning atrofida Xoljon dasturhonchi va bir-ikki yosh xotinlar bo'ladi)

Domla — Qizim Halima, o'z otingizni...

Ovoz — Qaytaring...

Domla — Yana so'roq...

Xoljon — (zo'rlaydi) Ha de, ha de. (Halima jim, Xoljon xolaning o'zisekin ha deydi)

Ovoz — Ha degan o'zimi?

Ovoz — Xotinlar ha o'zi. (Erkaklar Xoljon xolaga pul uzatadi)

(Sahna orqasidan qo'shnilardan biri)

Ovoz — Hoy, aylanay, Rokiya! Ne'matjon kasal edi o'libdiyu bechora. (Halimaning oldidagi xotinlar chiqib bir-ikki yoshlar qolgan bo'lib, Halima Ne'matning o'lganini eshitib, oh... yig'laydi. Ne'matning uyida, ko'pchilik, yig'i-sig'i)

IV PARDA

Sahna Ortiqboyning uyi, hovli-sahni va yo`lak ko`rinib turadi. Parda ochilish oldida to`y-hashamning harakati bo`lib, bolalar o`ynab yurgan bo`ladi. Sunray ovozi eshitiladi. O`rtaga olov yoqiladi – childirma bilan yor-yor —eshik oldida kuylaydi.

YOR-YOR

Kuyib yonib o`rtangan parvonaman yor-yor,
Bul yor uchun jonimni qurbon qilay yor-yor.

Yor-yor aytib eshikdan qizlar keldi yor-yor,
Kelin salom qildilar qizlar yor-yor.

Hay-hay o`lanjon o`lan-o`lan ko`pdir yor-yor,
Har bir so`zi – gavhar yagonadir yor-yor.

Bulbulsifat har gavhar navo qilay yor-yor,
Majnun kabi o`zini shaydo qilay yor-yor.

Tilla anjom keltirdilar yor-yor,
Yor-yor aytishib o`ynashib barcha qizlar yor-yor.

Hay-hay o`lan jon o`lan jonon ko`pdir yor-yor,
Har bir so`zi gavhar – yagonadir yor-yor.

Haq do`stiga dunyoda jaf o`pdir yor-yor,
Oshiq'larga olamda balo ko`pdir yor-yor.

So`zlatilur so`zla kel olar uchun yor-yor,
Yig`la ko`zim, yig`la alar uchun yor-yor.

Hay-hay o`lan jon o`lanjon ko`pdir yor-yor,
Har bir so`zi gavhar – yagonadir yor-yor.

(Xoljon xola palak oldida “assalomu alaykum kelin salom avvali hudoyimga salom”
deb olov atrofida aylantiradi)

Musiqi – Andijon samasi

O`yinchi qizlar o`yinga tushadilar. O`yin tugagach Xoljon xola kuyovni kelin
tushadigan xonaga olib kira turib, kuyov tomonlarni chaqiradi.

Xoljon — Assalomu alaykum kuyov salom. Qani, hoy kuyov yasovullari, kel.
(yonidagi xotin alik salom. Bir ozdan so`ng kelin bilan kelin tomon ham uyga kiradilar.
Qoida bo`yicha tortishmachoq bo`ladi, keyin palakni ko`tarib ikki tomonga yo`l ochiladi.
Kuyov qizning o`ng oyog`ini bosib, ko`tarib keta turib yiqiladi, kelin bilan kelinni
go`shangaga o`tqazib, fотиha qilib, sochiqni sochadi, kuyov maqtovi).

Xoljon — Aylanay boy, pochchajon qalliq muborak bo`lsin. O`rgilay Norxonim kelin
muborak bo`lsin. Aylanay Rokiyabonu kuyov muborak bo`lsin. O`rgilay otin qizim qalliq
muborak bo`lsin.

(Kuyov pul chiqaradi. So`ng kuyov bilan kelinni yarashtiradilar,
yarash-yarashdan so`ng)

Ortiqboy — (Bir-ikki sekin yo`talgan bo`lib) Halimajon, jonidan yaqinroq o`ltiring,
endi u gadoni uniting!

H a l i m a — (Sekin Ortiqboyga qaraydi-da, juda qo`rqib) Dod!.. (deb qichqiradi)
(Hamma xotinlar qo`rqib yugurganicha go`shanga atrofiga yig`iladilar)

Ortiqboy — Xoljon, men mehmonxonaga chiqa qolay buguncha!

Xoljon — (Xoljon xola Ortiqboyni olib chiqib keta turib) Peshonangiz buncha sho`r
bo`lmasa!

R o k i y a — Hoy, Halima, Halima, nima bo`ldi qizim?

H a l i m a — Oyi,oyijon, meni qutqaring!

R o k i y a — NIma, qani,qani?!

H a l i m a — Yonimdagi devdan qutqaring, onajon!

X o l j o n — Bolam, unday dema ul seni erring Ortiqboyku!

H a l i m a — Oh... (deb, o`zini tashlab hushidan ketadi, |qizga suv berishadi. Halima bir oz o`ziga kelgach boshqa xotinlar ikkinchi uyga chiqib ketadilar)

(Xoljon xola ham tinchlanib chiqib ketadi)

H a l i m a — Onajon, meni bir oz o`z holimga qo`ying. (onasi ham chiqib ketadi, xotinlar uhlab qoladilar) Men bul devga hotin bo`lmayman, vafodorumning oldiga borishim kerak. (Qo`rquv bilan hayajonda turib ro`molini boshidan olmoqchi bo`lib turganda, Ne`matning ruhi ko`rinadi) Kel-kel, keldingmi! Meni ko`rgani keldingmi?

Musiqa “Kel-kel” chalinadi

Meni tashlab, ey malagim, ketding qayon, kel-kel,

Qizg`anmasdan tutqunlikda qoldiribon, kel-kel.

E go`zalim, birga qochibon ketaylik, kel-kel,

O`ynab ikkimiz, kulishibon, bir yuraylik, kel-kel.

Ketma-ketma, bir oz to`xta, nozing kimga, kel-kel,

Kel, hasratim sekin aytay qulog`ingga, kel-kel.

Ketma-ketma, bir oz to`xta, oshiqmagin, kel-kel,

Oh, ketdingmi, meni tashlab g`amxonaga, kel-kel.

2-xil varianti: sekin boqqa chiqib hovuzga tashlab o`ladi.

Bir ozdan so`ng bir-ikki xotinlar uyg`onib go`shangaga qarab — Halimani ko`rib, dod soladilar. Hammalari uyg`onib kiradilar. Onasi yig`laydi.

(T.Tursunov arxividan)

XURSHID (1892—1960)

Shoir, tarjimon, atoqli dramaturg, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi (1940) Xurshid (Shamsiddin Sharafiddinov) 1892-yili Toshkentning Sebzor dahasi Shokirguzar mahallasining bog'bon oilasida tavallud topgan. Eski maktab va madrasada tahsil ko'radi, 1910-yili bir boyga prikazchik bo'lib Andijonga ketadi va 1918-yilga qadar o'sha boyniing do'konida xizmat qiladi.

Xurshid adabiyotga shoir sifatida kirib keldi. 1920-yili u o'zbek Davlat namuna teatriga suflyor bo'lib ishga keladi va shu davrdan uning ijodiy hayoti teatr bilan bog'lanib qoladi, 1933—1948-yillari Alisher Navoiy nomidagi opera va balet teatrida adabiy emakdosh, umrining oxirgi yillari O'zbekiston Fanlar akademiyasi til va adabiyot institutida ilmiy xodim bo'lib ishlaydi, 1960-yili u vafot etadi.

Xurshid musiqiy drama janrining asoschilaridan biri sifatida o'zbek teatrining shakllanishiga munosib hissa qo'shgan.

Turli yillarda U. Hojibekovning «Layli va Majnun», «Arshin mol-olon», H. Jovidning «Iblis», «Shayx San'on», I. Mamatqulizodaning «O'liklar», F. Shillerning «Qaroqchilar», «Makr va muhabbat» kabi o'ttizga yaqin pyesalarni o'zbek tiliga tarjima qildi, «Yomon o'rtoq», «Juvonbozlik qurboni», «Kichik askar», «Oybonu», «Siyovush» singari original pyesalar yaratdi.

Xurshidning dramaturglik iste'dodi «Farhod va Shirin» (1922), «Layli va Majnun» (1923) musiqali dramalarida yaqqol namoyon bo'ldi. Ular Navoiyning mashhur dostonlari, xalq ertak va afsonalarini atroflicha o'rganish asosida dunyoga kelgan pyesalar bo'lib, o'zbek dramasi janrini rivojlantirishda bosqichli voqealarga aylandi.

XURSHID HAQIDA XOTIRALAR

1919-yilning navbahori edi. Men «Rohat bog'cha»da bir necha do'stlarim bilan tambur chertib o'tirar edim. Oramizda Xurshid ham bor edi. Ana shu o'tirishda Xurshid o'zining yangi sahna asar ustida ish olib borayotgani haqida so'zladi. Bu asar mashhur Farhod va Shirin haqidaligini ham aytdi.

So'ngra, ayrim joylarini o'qib berdi va birgalikda musiqali sahna asarini yaratish haqida iltimos qildi. Buningdek, yangilik meni qiziqtirib qo'ydi, rozilik berdim. Ochig'ini aytgan-da, rozilik berishga berdim-ku, biroq keyin, ish boshlaganimizdan so'ng afsuslangan paytlarim ham bo'ldi. Chunki, Xurshid siqib suvimni olardi. Bizning yarim yilcha umrimiz tamburda kuy chalish, maqomlardan ijro etish va eng yaxshilarini tanlash bilan o'tdi. Ayrim kunlarda Xurshidning kuy saralashidan, «injiqliklari»dan siqilib, yuragim tars yorilib ketay derdi. Arazlashgan vaqtlarimiz ham bo'lgan. Axir o'zingiz o'ylab ko'ring, 20—25 har xil kuylardan, ashulalardan chalib yoki aytib bersam-da, lekin ayrim paytlarda bulardan birontasi to'g'ri kelmasa. Bari bir oradan bir-ikki kun o'tgach, biz yana uchrashib, boshlagan ishimizni davom ettiraverdik. Kezi kelganda shuni ham aytib qo'ya qolay. Xurshidning o'zi ham dutorni yaxshigina chertardi, shirin va ta'sirli xirgoyi qilardi, xalq kuylarini, asriy musiqiy merosni durustgina bilardi.

*Shorahim Shoumarov, O'zbekistonda xizmat
ko'rsatgan san'at arbobi, sozanda,
xonanda, bastakor.*

Xurshid To'ychi hofiz, Shorahim aka singari yuksak sozanda va atoqli xonanda-qo'shiqchilar davrasiga juda yaqin va ular bilan hamsuhbat, ulfat bo'lganligi sababli olti maqom va xalq qo'shiqlarini mukammal bilar edi. Shu tufayli u o'zining bosilib tarqatilgan asarlaridagi hamma qo'shiqlarga ma'lum kuy nomini aniq qayd etganki, bu teatrlar uchun musiqaviy qo'llanma bo'lgan, desak mubolag'a bo'lmaydi. Xurshid asaridagi qo'shiqlarni chiroyli va mayin xirgoyi bilan kompozitorning notasiga o'tkazar, artistlarga kuylashni o'rgatar edi. Xurshidning o'zbek opera san'atini yaratishdagi xizmatlari anchagina bor, uning librettolari asosida, ijodiy kuchlar hamkorligida teatr dastlab, «Layli va Majnun» (1940), keyinchalik «Farhod va Shirin»ni (1957) to'la opera asosida sahnaga qo'ydi.

Muzaffar Muhammedov, O'zbekiston xalq artisti, rejissor.
Xotiralar B. Nasriddinovning «Xurshid»
(118—122-betlar) kitobidan olindi.

XURSHID ASARLARINING SAHNAVIY TALQINLARI HAQIDA

«Farhod va Shirin» asari O'zbek davlat namuna teatrida 1923-yili M. Uyg'ur tomonidan qo'yilgan. Farhod rolini Abror Hidoyatov, Shirin rolini Ma'suma Qoriyeva ijro etganlar. 1928-yili Andijon teatrida qo'yilgan «Farhod va Shirin» (Farhod — Muhiddin Qoriyoqubov, Shirin — Tamaraxonim) mazkur asar sahnaviy talqinining dastlabki muhim bosqichlaridan biri bo'ldi.

Xurshid ijodining tadqiqotchisi Bahriddin Nasriddinovning guvohlik berishicha, spektaklning 1937-yili yangi nusxasi musiqali drama rivoji tarixida yirik voqeaga aylandi. Unda Shirin rolini o'ynagan Halima Nosirova shunday eslagan: «Men endi haqiqiy Shirinni tasavvur qilaman. Bu go'zallik va baxt-saodatni unga Farhod olib borgan. U Shiringa shaffofday tiniq va sof, nafis va ehtirosli, tog'day yuksak muhabbatini olib borib bag'ishlaydi. Sabo yelining muattar hidlarini, yaproq yozayotgan kurtakning go'zalligini, uzoq mamlakatlardagi ajoyib-g'aroyib tog' chechaklarining atrini — bularning barchasini unga Farhod olib borgan. Shu sababli ham Farhod halok bo'lgach, kunduz tunga, butun olam qorong'u zulmatga aylanadi-yu, quyoshday charog'on Shirin ham beg'ubor kunduzning yorqin va hayotbaxsh nurlarini o'zida mujassamlantirib, olamdan ko'z yumadi, uning uchun zulmatda yashashning hech qanday ma'nosi qolmaydi!

Muzikani aytmaysizmi! Muzika ikki ajoyib qalbning go'zalligi va muhabbati, umid-armonlari va baxt-saodati to'g'risida kuylaydi. Mana, tovushlar dag'allashadi, undagi qattiq zarblar allaqanday shumlik va sho'rishdan xabar beradi, quyosh yuzini qora bulut to'sadi: ko'z oldimda zolim, bag'ritosh Xisrav gavdalanadi, uning vajohatidan qayg'u-kulfat va o'lim yog'ilib turadi... Muzika «O'lim! O'lim!» deb og'ir hansiraydi, bo'g'iq tovushlar:» O'lim! O'lim!» deb mash'um sado beradi. Go'yo o'lim butun dahshati ila bostirib kelayotganday, bir sho'rish bo'lishi muqarrarday tuyuladi...

A'zoyi badan junjikib, yelkadan sovuq bir narsa urib o'tganday tuyuladi: zal yaldoday qorong'i bo'lib ketganu, allaqayerda butun mahluqotu mavjudotni majaqlab tashlaydigan yeldirimdan darak berib, chaqmoq chaqadi!

Hammamizga tanish bo'lgan «Farhod va Shirin» o'zgarib ketgan, hammamiz ularni umrimizda birinchi marta ko'rayotganday edik.

Farhod rolini Karim Zokirov bilan Boborahim Mirzayev, Xisravni Qori Yoqubov tayyorlar, Shopur roli Abdulla Ahmedovga, Yosuman — Lutfixonim Sarimsoqovaga

topshirilgandi. Shirinni men tayyorlar edim. Spektaklni E. I. Yungvald Xilkevich postanovka qildi.

Biz birinchi operamizni jon-dilimizdan sevar edik, chunki u juda ko'p yangilik olib kelgandi; bu opera biz dastlab ishg'ol qilgan kattakon yangi marra bo'ldi. Birinchi spektakldan keyin ko'nglimiz qanchalik sevinch-quvonchlarga to'lib-toshganini, qalbimizdagi ulkan iftixor tuyg'ularini aytib ado qilolmasdik».

Halima Nosirova, «Men o'zbek qiziman»,
229—230-betlar.

Farhod do'sti Shopur bilan Mehinbonu va uning jiyani Shirin yurtiga kelarkan, tog' qoyasida ariq qaziyotgan kishilarga duch keladi.

Farhod «Hunarni asrabon netkumdir oxir, olib tufroqqami ketkumdir oxir», deya ishga kirishadi, yillar davomida yuzlab qullar bitirolmagan arig'u qasrni bir necha kun ichida tiklaydi. Quyida Farhod va Shirinning shu qasr qarshisidagi uchrashuv sahnasi berildi.

«FARHOD VA SHIRIN»

S h i r i n. Keling, ey mardi davron xush kelibsiz,

Biz aytmadan bu xil xizmat qilibsiz.

Na siz o'xshab jahonda bir kishiga,

Na o'xshaydir ishingiz el ishiga.

Q i z l a r. Bu ishkim ko'p kishilar erdi ojiz,

Bajargansiz, ajab, bu ishni yolg'iz.

Hunarkim bunda siz ijod etibsiz,

Bu qo'rqinch tog'ni bog' obod etibsiz.

Agar yuzlarcha yil uzringiz aytsam,

Emasdir mumkin uzringiz tugatsam.

Muzika

F a r h o d. Ey pari jonimga rohat berding ovozing bilan,

So'zlaring qutqordi men mahzunni ranju qayg'udan.

Tushdi o't jonimga, ey ra'no yuzing ko'rmay hanuz,

Yo dilim qon aylagan afsunli dilbar senmisan?

S h i r i n. Shukurkim hosil bo'libdur menga barcha muddao,

Kim asir o'lmish manga shunday bahodir ko'hkan.

Q i z l a r. Ey botir, barno yigit, baxting bo'libdir rahnamo,

Ko'rmagandir sen kabi baxtli yigit bu anjuman.

S h i r i n. Maqsading ayt, bu kabi ishlar emasdir besabab.

F a r h o d. Marhamat qilsang yuzing bir ko'rmak orzusidaman.

Shirin Mehinbonu ishorati bilan yuzini ochadi. Farhod ko'rib zavqlanadi. Muzika.

F a r h o d. Oh nachuk tole'ki sevgi bo'ldi rahnamo,
Uchradi ul ko'zguda bir yo'l ko'ringan dilrabo.
S h i r i n. Qancha shahzoda yigitlar tutdilar mendan umid,
Boqmadim ularga, bo'ldi senga ko'nglim oshno.

F a r h o d.
Sen go'zal dilbarga yetmakka qo'yib umrim garov,
Shukurkim bo'ldi muyassar menga barcha muddao.
Shopur. Shod bo'l ey do'stim, yorishti qop-qorong'u tunlaring.
I s h c h i l a r. Chin yurakla ish qilib, hojatlaring bo'ldi ravo.
M e h i n b o n u. Keling sozandalar, raqqosalar siz,
Bu sodiq ishchilarga bazm beringiz.
Biz aylaylik kezib ishni tamosho,
Qani, qanday hunarlar bo'ldi barpo.

Mehinbonu, Shirin, Farhod, Shopur, ishboshi ketadilar. Bu yerda bazm boshlanadi.
Ular qaytib kelgach, bazm tugaydi. Farhod bilan Shirin oldinda borar edilar.
M e h i n b o n u. Bu yerga kelgil, ey jonimga payvand,
Hazin jonim jamoling birla xursand.

Shirinni bir chekkaga tortib, yashirin so'zlaydi.

Bu oshiqvash yigitkim chekti ko'p ranj,
Eru roz xizmatiga qarshi yuz ganj.
Unga taklif qilsak mehmonlik.
Ham etsak ko'nglin ovlab mehribonlik.
S h i r i n. Muborakdir bu haqda harna fikring,
Erurman ojiz aytmaklikka shukring.

Farhodga yaqin kelib.
Aziz mehmon, malol kelmasa sizga,
Qadam ranj aylagaysiz saroyimga.
F a r h o d. Boshim bilan yurib borgayman albat,
Menga ostonangiz o'lmak saodat,
O'g'lon lutf etsa, biz ham tong-la yetdik.
M e h i n b o n u. Qani, Shirin, chaqir qizlarni, ketdik.

Mehinbonu, Shirin, qizlar ketadi.
Muzika.
F a r h o d. Topdi bu dam xasta tan go'yoki darmon mujdasin.

Parda

«Layli va Majnun» asari Mannon Uyg'ur tomonidan 1924-yili sahnalashtirilgan bo'lib, unda bosh rollarni A. Hidoyatov va M. Qoriyeva ijro etganlar.

«Farhod va Shirin»da 50 dan ortiq rejissor «o'z ijodiy faoliyatlarini namoyish qildi». «Yuzga yaqin Farhod va saksondan ortiq Shirin obrazini yaratgan artistlarning ro'yxati bor», deydi. «Xurshid» kitobi (180-bet)ning muallifi B. Nasriddinov.

Ular orasida Shahodat Rahimova, Mahmudjon G'ofurov, Farog'at Rahmatova, E'tibor Jalilova, Murodjon Ahmedov, Mashrab Yunusov, Aysar Ibrohimov, Qamara Burnasheva, Hafiza Ibrohimova, Mukarrama Azizova singari o'nlab yuqori iste'dodli san'atkorlarni uchratish mumkin.

B.NASRIDDINOV SHARXI

O'zbek davlat musiqali teatr sahnasida qo'yilgan "Layli va Majnun" spektaklining rejissyori iste'dodli sanatkori Muzaffar Muxamedov bo'lib, u o'zining katta rejissyorlik mahorati bilan tomoshabinlarga manzur bo'la oladigan va ularning didiga mos kela oladigan ajoyib sahna polotnosini yaratgan edi. Bu spektakldagi bosh rollarni musiqa teatrining sarkardalari Muxiddin Qori Yoqubov, Xalima Nosirova, Boboraxim Mirzayev, Lutfixonim Sarimsoqova, Karim Zokirov va boshqalar ijro etgan edilarki, ular yaratgan Layli, Majnun, Omir, Navfal kabi obrazlar o'zbek musiqali teatri sahnasida yaratilgan eng yaxshi obrazlardan bo'lib qoldi.

*Baxriddin Nasriddinov. Xurshid
G. G'ulom nomidagi Adabiyot va
san'at nashriyoti 1975 y. 198 b.*

LAYLI VA MAJNUN Birinchii pardadan parcha

Q a y s. Ey baxtim, ajab zabun emishsan,
G'am loyiga sarnigun emishsan.
Bir nozli sanamga bo'lding oshiq,
Ishq ichra senga emas muvofiq.
Sen qancha niyoz etarsan og'oz,
Yuz qatla u dilbar aylagay noz.
Qo'ydi meni ko'rdi xayfi ehson.

Layli yolg'iz qaytadi. Qaysning yoniga keladi.

L a y l i. Ey turfa yigit, na holating bor?
Qanday g'am ila malolating bor?
Kim shodliging yo'q o'zgalardek,
Obodlig'ing yo'q o'zgalardek.
Bu damki esib nasimi navro'z,
Gul atrini qildi majlis afro'z.
Ishrat chog'i mehnating na, ya'ni
Bu dard ila hasrating ne, ya'ni,
Bu g'am senga qaydan o'ldi paydo?
Kim qildi seni o'ziga shaydo?

Q a y s. Ey jonima hasrat o'ti solg'on,
Bir boqmoq ila dilimni olg'on!

Zulf ochmoq ila olib qarorim,
Qilding qaro ro'z ro'zg'orim.
Qilg'onni yashirmog'ing na erdi?
Jonimni ki o'rtading bas erdi,
Tonmoq bu sifat kerakmas erdi.
Bilmaska olib o'zingni yona,
Bu nav'i so'rar labing fasona.
O't uzra na erdi kuymog'ing yog',
Kuyganga na erdi qo'ymog'ing dog'?

Muzika

- Q a y s. Ko'ngilni bu zamon, ey oy, xayoling muhtalo qilmish,
Ko'zimdan uyquni ham boshdan aqlimni judo qilmish.
Vafosizlik muhabbat ahli oridir, xusho ulkim,
Hayoti naqdini bir qotil oldida fido qilmish.
- L a y l i. Visol istar esang qochma balolardinki qilmishlar —
Niyoz ahli vafo, har necha noz ahli jafo qilmish.
- Q a y s. Maktabda ko'rib yuzingni bir bor,
G'am domig'a bo'lmisham giriftor.
Ishqing meni qildi zoru xasta,
Hijroning ila ko'ngil shikasta.
Bir ozgina vaqt yil o'ldi sensiz,
Darding meni qildi zoru ojiz.
- L a y l i. Balli menga, qiz boshim bilan man,
Yashirin tutaman sirimni eldan.
Er holing ila yo'qotding o'zni,
Boqtirding o'zingga barcha ko'zni.
- Q a y s. Xalq ichra turub boqardi dildor,
Qasddan junun aylaganman izhor.
- L a y l i. Qo'ygil so'z o'yinlaringni, qil bas,
Tokay sening foydangga hal o'lmas?
Ishqing yuragimda sendan ortiq,
Yoding menga hamdami muvofiq.
Har qancha bu yo'lda cheksam ozor,
Sendan bo'lak o'lmagay menga yor.

Beshinchi pardadan

- M a j n u n. Ey jonima ka'bai muqaddas,
Uzringni tilim ado qilolmas.
Ka'bamni qilib xarob har dam,
Soldim senga iztirob har dam,
Mehrimni ko'ngilga aylading yor,
Qilding beshigimga qo'lni tumor.
Bu nav' tilak bilan ki nigoh,
Zulm aylasa senga charxi kin xoh,

Qul yang'lig' o'g'ullig'ingni qilsam,
O'g'ul kabi qullig'ingni qilsam,
Lekin tunu kun judolig' etdim,
Bilmaslig'u bevafolig' etdim,
Bechora men endi naylagayman,
Dardimga ne chora aylagayman?!
Ka'bam ona, senga yolvorurman,
Afv aylamaging umid qilurman.

Onasining qabriga tashlanadi. Muzika.

Hijron tunin jafosila jon bo'ldi beqaror,
Bo'ldi sirim butun jahon ahliga oshkor,
El etdi ta'nalar bilan ozorim ixtiyor,
Motam jafolar bilan ko'nglim o'ldi tor-mor,
Yo'q bag'rima qiluvchi davolar bilan mador.
Bitdi firoq jabrini tortmoqqa toqatim,
G'am birla mahv o'ldi qarorim halovatim,
Oxir egildi g'am yuki ostida qomatim.
Ammo yor o'zga bazmi bilan mastu baxtiyor.

O'zini tashlaydi. Muzika.

L a y l i. Qaro ko'zim kelu mardumlig' emdi fan qilg'il
Ko'zim qarosig'a mardum kabi vatan qilg'il.
Yuzing guliga ko'ngil ravzasin yasa gulshan,
Qading niholiga jon gulshanin chaman qilg'il.
Takovaringga bag'ir qonidin xino bog'la,
Itingga g'amzada jon rishtasin rasan qilg'il.
Yuzida terni ko'rub o'lsam, ey rafiq meni,
Gulob ila yuvgil, bargidin kafan qilg'il.

Layli parishon holda kiradi. Har tarafga qarab, Majnunni ko'rib, yoniga keladi.

Ey xasta, tanimda totli bir ruh,
Ey g'am, qo'lida asiru majruh,
Mushtoqi jamol eding hamisha.
Muhtoji visol eding hamisha,
To'xtat biroz oh ila fig'oning,
Men Layliman orzuyi joning.

M a j n u n. Sen Layli emassan, ey parivash,
Qo'y, aylama ko'nglimni yana g'ash,
Layli uki ahdini sindirmas,
Ag'yor ila ayshu bazm qurmas.
Sen Ibn Salom ila ko'ngil bir,
Aylab meni haydading-ku oxir.

L a y l i. Ikkimiz otasining rizosi,
Qildi bizi qayg'u mubtalosi.

Navfalga sening otang qilib zo'r,
Ibn Salom ila menga bir go'r.
Yozmish esa bizga bo'yla taqdir,
Hech kim bera olmas oni tag'yir.
Navfaldan xalos o'lub esang shod,
Men Ibn Salom qulidan ozod,
Qaysim, quvon endi.
M a j n u n. Layli sendan,
 Qanday umid aylayin, yetimman.
 Yo'q menga ko'mak beruvchi dilgoh
L a y l i. Qayda ota-onang?
M a j n u n. O'ldilar.
L a y l i. Oh!
 Balki menga hazil etib gapirding?
M a j n u n. Yolg'on deganim ko'ribmi erding?
 Budir — bu ota-onam mozori,
 Hukm etdi ajal bularga xori.
L a y l i. Ming dod, falak, jafolaringdan,
 Tokaygacha zulmu jabr etarsan,
 Tut, bos, charxing ila ez vujudim,
 Ko'klarga ko'tar keraksa dudim.
M a j n u n. Layli!
 L a y l i.
 Ey tangri, qani adolating, oh!
 Ishq ahliga shulmi shafqating, oh!
 Yorimning ota-onasi o'lmish,
 Go'yo bu musibat menga bo'lmish.
M a j n u n. Layli, qo'y, ey Layli, yig'lama bas,
 Faryodlar endi foyda bermas.
L a y l i. Bug'doy kabi qovrilibman, ey voh!

 Yiqiladi, o'ladi. Majnun o'zini yqo'otib hayron bo'ladi.
Layli, nima hol bu: Layli, Layli,
Solmish senga g'orat o'lim xayli.

 Ko'tarib ikki qabr o'rtasiga eltib qo'yadi.
Ey sham nechun yuzni yashirding,
Ayriliq o'tin bag'rimga urding?
G'am jomini sunganida olam,
Sipqorg'on edim sen ila men ham.

Muzika

Oh kim hayronman, ul sarvi xiromonimdin judo,
Ko'zlarim giryondir, ul gulbargi — xandondin judo.
Bo'lsa yuz, ming jonim ol, ey hajr, lekin qilmag'il,

Yorni mendan judo yoxud meni ondin judo.
Xajr o'limdin achchig' ermish, emdi ey davron, meni
Aytmagil jondin judo, qilg'uvchi jonondin judo.

Manbalar:

1. *Xurshid*. Tanlangan asarlar, «Fan» nashriyoti. Toshkent. 1967-yil.
2. *B. Nasriddinov*. «Xurshid». G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1975-yil.

ABDULLA QODIRIY (1894—1938)

Abdulla Qodiriy (Jo'lqunboy) 1894-yili Toshkentning Kamolon mavzesi, Eshonguzar mahallasida o'rtahol dehqon oilasida tavallud topgan. Eski o'zbek maktabi va rus tuzem maktabida o'qigan, keyinroq Moskvada Adabiyot institutida (1923—1926) tahsil olgan.

A. Qodiriy avvalo, o'zbek romanchiligining asoschilaridan biri sifatida shuhrat qozondi. Ayniqsa, uning «O'tkan kunlar», «Mehrobdan chayon» romanlari xalqimiz orasida keng tarqalgani ma'lum.

Dramaturgiya A. Qodiriyning adabiy merosida uncha katta o'ringa ega emas... U birinchi «Baxtsiz kuyov» pyesasini 1915-yili chop ettiradi va shu yili «Turon» truppasida sahnalashtiriladi. Shundan so'ng, o'sha davr sahna arboblari bilan ijodiy muloqotda bo'lib, teatr va kino san'ati jarayonini doimiy ravishda kuzatib boradi, yana «Hech kim bilmasun», «Uchqun» sahna asarlarini yaratadi, tatarchadan «Erim qaytdi», N. V. Gogolning «Uylanish» komediyalarini o'zbek tiliga tarjima qiladi.

A. Qodiriy yaratgan «Azob bog'chasida yig'i-sig'i kechasi», «Eski shahar teatr havaskorlariga», «Bizda teatru ishining borishi» kabi feleton va maqolalari 1920-yillar o'zbek teatri hayotini o'rganishda muhim ahamiyatga egadir.

Buyuk adib begunoh ayblanib, 1937-yili qamoqqa olinadi va 1938-yili otib tashlanadi. Istiqloq davridagina uning nomi va ijodi to'la oqlandi va madaniyatimizning eng mo'tabar siymolari qatoridan o'rin oldi. Prezidentimiz Farmoni bilan 1991-yili Abdulla Qodiriyga Alisher Navoiy nomidagi Davlat mukofoti va keyinroq «Buyuk xizmatlari uchun» ordeni berildi.

ABDULLA QODIRIY TEATR SAN'ATI HAQIDA **Teatr — ulug'lar maktabi**

Yoshlarimizning tarbiya joyi maktab bo'lsa, zo'r mezmonlik — teatrdir.

Yozuvchilikda bir qonun bor: hammadan ilgari ma'no, undan so'ng shu ma'noni — fikrni ifoda qilish uchun so'z qurish, so'z emas — san'atkorona, ya'ni shundoq so'zki, aytmoqchi bo'lgan fikringizni ifodasi uchungina maxsus yaratilgan bo'lib, yasama bo'lmasin!

Teatru turmushdagi va ortiqcha yerlarni ko'z oldimizga mahkum etib ko'rsatuvchi bir oynadir.

Komediya degan nima to'g'ri kelsa, shundan kula bermak emas, balki o'zining tub shartiga muvofiq etib kulmak...

Hajviy tanqid avomning ruhiga yaqin va uning his etgan, ammo ifoda qila olmagan masalalariga tarjimondir. Xulosa: hajviy tanqidning tabiatidagi kulgililik unsuri avomning mahbubi, tag'in to'g'risi uning o'z ijodidir.

Uslub degan narsa til bilishga bog'liq bo'lgan va har bir yozuvchining tilining xarakteri kabi bo'lib tanilgan bir xususiyatdir.

«BAXTSIZ KUYOV» ASARI VA UNING ILK SAHNAVIY TALQINI HAQIDA

Bu pyesaning bosilib chiqishi Toshkent havaskorlari bilan bir qatorda rus teatr tanqidchilarining ham diqqatini jalb qildi. Chunonchi, Gr. Adresov «Baxtsiz kuyov» to'g'risidagi taqrizda quyidagilarni yozgandi: Yaqinda bizga hisobot uchun Abdulla Qodiriyning yangi dramasi «Baxtsiz kuyov» yuborildi. Sujet Turkiston musulmonlarining hozirgi hayotidan olingan. Sahnada yana o'sha mahalliy aholining ko'pchiligini qiziqtirgan «To'y» ko'rinishidagi isrofgarchilik masalasi ilgari surilgan. Drama so'zlashuv tili bilan yozilgan va qiziqish bilan o'qiladi. Yaqin kunlarda uning birinchi postanovkasi tayyorlanadi.

Truppa bu asarni 1915-yil 4-noyabrda «Qishlik Xiva» teatrni binosida sahnaga qo'ydi. Uni yosh o'zbek havaskor rejissorlaridan Nizomiddin Xo'jayev (1885—1942) sahnalashtirdi. Spektaklda rejissor pyesa g'oyasidan kelib chiqib, Turkiston sharoitida boylar bilan kambag'allar o'rtasidagi ijtimoiy tengsizlik, mehnatkash xalqning og'ir ahvoli va uning fojialarini tasvirlab, boylar va amaldorlarning insofsizlik va shafqatsizliklarini ko'rsatib beradi. Asarning bosh qahramoni Solih nomli yetim yigit. Amakisining maslahati bilan katta qarz hisobiga dabdabali to'y qiladi va garovga qo'yilgan hovli-joyidan mahrum bo'lishi oldidan o'zini o'ldiradi.

Abdulla Avloniy Fayziboy rolini o'ynab, o'z qizining baxt-saodatidan pulni yuqori qo'ygan nokas tipni ishonarli yaratib bergan. Sudxo'r boy rovida o'ynagan Poshshaxo'jayev, sud pristavi rolini o'ynagan Sulaymon Xo'jayev ham tomoshabinning g'azabiga sazovor bo'ladigan obrazlar yaratib, asarning ijtimoiy mavzusini kuchaytirishga ma'lum darajada hissa qo'shganlar. Shu jihatdan, Sulaymon Xo'jayev yaratgan rus chinovnigi obrazi juda xarakterlidir. Pristav — S. Xo'jayev Yevropa kiyimida, pensne taqqan, bilagiga hasa ilib olgan, qo'lida katta papka bilan sahnaga kirib keladi. Avvalo, qoniga belanib yotgan ikki jasadga ko'zi tushib, hurkib ketib, chekina boshlaydi. «Muttaham bu kishi boydan qarzini bermay o'lgan», deb boy qulog'iga nimalarnidir shipshitadi va uyni u yog' — bu yog'iga yurib, narsalarni ko'zdan kechirar ekan, Solih jasadini tepib o'tadi, ruschalab g'udurlaydi va uyni, ro'zg'or ashyolarini xatlay boshlaydi.

*Mamajon Rahmonov, «Hamza» nomidagi
O'zbek Davlat akademik drama teatri.*

ABDULLA QODIRIY «OTABEKNI O'ZIM O'YNAYMAN» DEGANI HAQIDA N.KARIMOV SHARHI

A. Qodiriyning «Ravot qashqirlari» filmi katta maroq bilan tomosha qilgani va filmni chuqur tahlil etuvchi taqriz bilan matbuotda chiqqani bejiz emas. O'zbek kinosining qaldirg'ochlaridan biri uning yaqin birodari va ko'pgina masalalar bo'yicha maslakdoshi Sulaymon Xo'jayev tavallud topgan Kamolon mahallasidan bir-ikki chaqirim narida Eshonguzar mahallasi joylashgan bo'lib, unda buyuk adib Abdulla Qodiriy istiqomat qilar edi. Bu ikki siymo o'rtasidagi do'stlik ularning bolalik chog'ida boshlangan...

«Ravot qashqirlari»ning Toshkent ekranlariga chiqqaniga yarim yil bo'lgan, adibning bolalik o'rtog'i o'zbek madaniyati uchun yangi bir sohaga chaqmoq singari yonib kirmoqda edi. Abdulla Qodiriy bu filmni tomosha qilib, undagi o'zbek artistlari, birinchi navbatda,

Sulaymon Xo'jayevning ijrosidan mamnun bo'lgan va o'z taqrizida bunday so'zlarni aytgan edi: «Bundagi mas'ul rollarni havaskor bo'laturib ham ado qilgan o'zbek artistlarimiz o'zlariga yaxshi umid bog'latdilar...»

Abdulla Qodiriy yaqin orada o'zbek kinosining malakali kadrlar hisobiga o'sishiga ishonch hosil qilib, «O'tkan kunlar»ning ekranlashtirilishini orzu qiladi. Bu asarni g'oyat sevgan Sulaymon Xo'jayev hiyla keyin rejissorlik san'atini egallay boshlaganida, — o'zi uni ekran tiliga ko'chirmoqchi bo'ldi. Har ikki do'stning niyatiga ko'ra bu yaratilajak filmda Otabek rolini adibning o'zi ijro etishi lozim edi. Afsuski, bu xayrli niyat zamona zayli bilan amalga oshmay qoldi.

*Naim Karimov. «O'zbek kinosining qaldirg'ochi»,
«Nafosat» jurnali, 1992-yil, 2-son.*

Quyida pyesaning ikkinchi pardasi chop etildi.

BAXTSIZ KUYOV

Ikkinchi parda

Fayziboyning mehmonxonasi. So'lda kiradurg'on eshik, o'ngda ikki daricha, mehmonxona ostig'a namat, sahnaning uch tarafi rasmiy ko'rpacha, bir qozuqda qo'l chochiq, bir tokchada bir patnus non. Yana bir patnusda tarelkalarda shirinlik mevalar ustiga dasturxon yopilg'on. Yana bir tokchada to'rt dona to'n (to'yda beriladurg'on). Birozdan so'ng mahalla

domla imomi bilan Fayziboy kirar.

D o m l a i m o m. Ho, ho, ish katta-ku. Nima gap, man ham aytdim, bir gap bor-ku Fayzboynikida, deb. (*Tokchadagi to'nlarga qarab*) To'y bo'ladurg'onga o'xshaydi, tokchada to'nlar.

F a y z i b o y. Qani, yuqoriga o'lturung taqsir, gaplashurmiz. (*To'rga o'ltiralarlar.*)

D o m l a i m o m. Omin, Ollo ziyoda qilsun, Olloh akbar. (*Fotiha o'qurlar.*) Qani, gapuring!

F a y z i b o y. Ojizag'a Abdulrahimboy ellikboshisi bilan fotihaga kelmakchi. Yana olug'-solug' qilinsa ham ehtimol, shul sababdan sizni chaqirub keldumki, yurt ko'rg'onsiz, yurtdagi olug'-solug'larga tushunib qolgansiz. Mani tarafimdan gaplashsangiz, deb.

D o m l a i m o m. He-he-he, juda yaxshi bo'lubdur, xudo ziyoda qilsun. Abdulrahimning o'g'lini kuyov qildingizmi?

F a y z i b o y. Yo'q, o'lib ketqon akasini o'g'lini.

D o m l a i m o m. Tuzuk, tuzuk. Sobirboyni o'g'li Solihnimi?

F a y z i b o y. Shundoq, taqsir.

D o m l a i m o m. Yaxshi qilubsiz, mehnatkash, yetimlikda qattiqchilikni ko'p ko'rg'on yigit.

Shu vaqtda Abdulrahim ila ellikboshi kirurlar, salom berishub. Domla imom, Fayziboy o'rinlaridan turub, kelganlar bilan ko'rishurlar. Fayziboy mehmonlarga to'rdan joy ko'rsatub

o'tqazur.

A b d u l r a h i m (*domla imomga*). Taqsir, bir fотиha o'qub qo'ying.

D o m l a i m o m. (*qo'lini ko'tarib*). Omin, to'y ustiga to'ylar bo'lsun, Olloh akbar. (*Hammalari fотиha o'qurlar*).

F a y z i b o y (*o'rnidan turub*). Xush kelubsiz, mehmonlar.

Hammalari. Xushvaqt bo'ling, bale, rahmat. (*Fayziboy mehmonlar oldig'a dasturxon solib, tokchadagi patnuslarni keltirub qo'yar, yana samovar patnisni, piyolalarni keltirub qo'yub, samovar kelturmoqqa chiqib ketar.*)

D o m l a i m o m (*nonlarni sindirub qo'yub*). Qani, mehmonlar, nonga marhamat qilinglar. (*Hammalari non tanovul qilurlar. Abdulrahimg'a qarab*). Juda yaxshi g'ayrat qilubsiz, eshitib, ziyodda xursand bo'ldim.

A b d u l r a h i m. Shundoq bo'ldi, taqsir, man g'ayrat qilmasam, Solihni hech kimi yo'q, bir yoqda hovlisi buzulib ketmoqda. Xotun olib bersam, uyig'a qarab, hovlisini buzmasdan o'ltirar, deb o'yladim.

D o m l a i m o m. Shundoq, ko'p savobga doxildor bo'lubsiz. (*Fayziboy samovar olib kirib qo'yib, choy quymoqqa boshlar. Pardani oxirig'acha o'lturg'onlarga oz-oz choy quyub berub turar.*) Ellikboshi, bir fотиha qilib qo'ysak, yaxshi bo'lur edi. (*Fayziboyg'a qarab*) Siz nima deysiz?

E l l i k b o s h i. Juda yaxshi bo'ladi.

F a y z i b o y. O'zlaringiz bilasiz.

D o m l a i m o m. Qani bo'lmasa, qo'lingizni ko'taringlar. (*Hammalari qo'llarini fотihaga ochurlar.*) Omin olloh! Har ikkisini umrini uzoq qilib, qo'sha-qaritsun, serfarzand-serdavlat qilsun, Ollohu akbar!

E l l i k b o s h i. So'zim shulki, sovchigarchilik olug'-solug' so'ylashmasa, chunki kuyov bo'lmish yigit, o'zingizga ma'lum, yetim ham kambag'al, yana olug'-solug' shariati yo'q gap. Olug'-solug' qilinsa, kuyovdan ko'p oqcha olinsa, qarzdor bo'lub qolsa, yaxshi emas, deyman. Keraklik narsalarga ozroqqina oqcha olub nikohlab bersangiz, shariatdagi ish bo'lur edi.

F a y z i b o y. Olug'-solug' bo'lmasa, to'y-to'y bo'ladimi?! Mani ham boshimda bir qizim bor. Orzu-havaslik dunyo. Yaxshilab orzu-havas qilsam degan niyatim-da bor. (*Domlaga qarab*). Taqsir, bu kishini aytganlaridek qilsangiz, xalqqa kulgi bo'lasiz. Olug'-solug' qilinmasa bo'lmaydur. (*Ellikboshiga qarab.*) Olug'-solug' yurtni rasmi, buni qilmang, demoqingiz ayb gap.

E l l i k b o s h i. Man shariat mustafo bo'yicha ish tutilsa, deb edim. Gunoh o'tgan bo'lsa, afv etasizlar. Olug'-solug' so'zlashulsa, so'ylashulsin. (*Abdulrahimga*) Abdulrahim aka, siz nima deysiz?

A b d u l r a h i m. O'zlaringizdan gap qoladimi? Solihga juda ham og'ir bo'ladurg'on bo'lmasun.

F a y z i b o y (*domlaga*). Taqsir, qani olug'-solug'ni yurtda xo'b ko'rgansiz ham eshitgansiz, so'ylang.

D o m l a i m o m. Bo'lmasa, sovchigarchilik birla katta to'yni bir qilub so'ylaymiz-da, chunki yengilroq bo'latur.

F a y z i b o y. Yo'q, boshqa-boshqa so'yilansun.

D o m l a i m o m. Hammasini bir qilaveramiz. Osonroq bo'latur. (*Abdulahim va ellikboshig'a qarab.*) Man so'ylay, sizlar yaxshilab tinglab turinglar, har ikki to'yda besh yuz so'm pul, o'n besh qo'y, bir ot, to'rt botmon bug'doy, to'rt botmon birinj, kajobada mayiz, turshak, o'n yoshuk har xil qandu shirinlik, yigirma quyum halvo, uch ming dona kichik non, ikki ming dona o'rta non, katta qozonda nisholda, qizlariga o'n besh oyoq kiyim, kimxob, duxoba, shohi, atlas, movit, chidakon, chit va boshqalar, har biridan ko'ylak, kamzul, mazkurlarga loyiq qimmatbaho ro'mollar, yana uch dona paranji shohi, duxoba, adras, uch dona kavush, maxsi, qavm-qarindoshlarig'a, o'zlarig'a, zaifalarig'a bosh-oyoq kiyim.

E l l i k b o s h i. Yo'q, domla, juda oshirub gapirdingiz. Yigitning holi o'zingizga ma'lum, jabr bo'laturg'on bo'lmasun.

F a y z i b o y (*domlaga qarab*). Juda kam aytdingiz, man munga rozi emasman. Yurt urfi qayda, bu qayda? Ho, ho, yana necha narsalarni qoldurdingiz. (*Ellikboshiga.*) Yana sizni oshirub yubordingiz, degan so'zlaringizga hayronman.

D o m l a i m o m (*ellikboshiga*). O'zingizning xabaringiz bor. Ahmadboy o'g'illarig'a qanday to'y qilub, xotun olub berdilar. Bu ul odamning to'yini uyqunidek ham emas-ku.

E l l i k b o s h i. Undoq isrofchi boylarni qo'yabersangiz-chi, taqsir, hollari o'zingizga ma'lum. Har kimdan qarzdor bo'lub turub, qo'llaridagi burovni oqchasini to'y-tomoshaga isrof qilub, puldorni pulini topib berolmay, sinib, mulk-ashyodan ajralub qolg'onlarini ko'rmadingizmi? Olarni to'yini to'y demang, oxiri aza-ku, taqsir.

A b d u l r a h i m (*Fayziboyga*). Kamayturing. Solihni bilasiz, hech nimasi yo'q, yetim. Bundaqangi oshuqcha olaman, demang.

F a y z i b o y. Hali man munga ko'nmayman, domla, juda ham kam aytub qo'yidilar.

D o m l a i m o m (*Fayziboyga*). Mayli kam bo'lsa ham, chunki kuyovingiz yetim yigit, shuning uchun ortiqcha aytmadim. (*Abdulahimga*) Sizlardan bu pul va boshqa narsalarni olg'ani bilan o'zig'a sarf qilatur, hamyonga solatur, deb o'ylamang.

F a y z i b o y. Men sizlarg'a nom-banom tushuntiray, so'ragan g'allalar to'yni oshig'a ham, nonig'a ham ketatur. Qo'y va otlar so'yulub yog'-go'shti oshga ketatur. Buni ichida charlar, yuz ko'rsatlari ham bor. Pulga mis asbob, ikki dona palak, ikki dona gul ko'rpa, sakkiz dona dorpo'sh, qizimg'a bo'yin tumor, qo'ltuqtumor, tillaqosh, ziraklar... Shundan boshqa mayda-chuyda narsalar bilan tamomlanatur. Nonlar bo'lsa, to'yg'a kelg'anlarg'a tarqatilatur. Halvo, boshqa narsalar ham. Endi tushundingizlarmi, mang'a mundan nima qolatur?

E l l i k b o s h i. Men sizdan so'rayin mis asboblar, keraklik narsalar, munga ko'p ketganda bir yuz so'm ketatur. Palak, gulko'rpa, dorpo'sh, bo'yintumor, qo'ltuq tumor, tillaqoshlardan nima foyda chiqatur, ular nimaga kerak?

Fayziboy. Palak, gulko'rpa, dorpo'shlar to'yda uyning ziynati, tumor, tillaqoshlarni qizimiz taqatur.

E l l i k b o s h i. Uyda bularga boshqa ziynat qurub qolibdurmu? Qizingizg'a shang'irshung'ur qilib teva misollik tumor taqqondan nima foyda? Men bularni hammasini bilaman, besh-olti kundan so'ng sanduqda yotatur. Olarni sanduq huzurini ko'radur. Uyig'a

arzimaydurg'on narsalarg'a kuyov bechoradan xo'p aqcha olub, ko'chadagilarg'a osh, non berub, isrof qilsangiz, yana keragi yo'q palak-halak, tumor-pumorlarga pul isrof qilsangiz, kuyovingiz bechora qarzdor bo'lub qolsa, g'am-anduhini qizingiz birla tortadur. Shariatga muvofiq to'y qilsangiz, kuyovingiz beqarz bo'lsa, qizingiz, bohuzur, beg'am umrguzaronlik qiladi.

Fayziboy. Hali ham man patir ushatar, sovchigarchilik so'raganim yo'q. Bundan ortuq shariatdagi to'y qandoq bo'ladi?

Ellikboshi. Shariat mustafoda shundoqki, kuyov tarafidan qizg'a mahr tayinlamoq, so'ngra bir kosa suv bilan nikohlamoq. Muhammad alayhissalom: «Yigitdan pul olg'il, palak, gulko'rpa, dorpush, tumor, qo'ltiq tumor qilg'il, yigit qarzdor bo'lub qolsa ham mayli» deyдилarmu?! Hozirda biz, turkistonliklardan boshqa jumla musulmonlar, xususan, Makka, Madina, istambullilar, yuqorida aytganimdek qilib, qiz erga beradurlar. Bizlardek isrof qilmaydilar, (*domlaga qarab*) taqdir, siz ham tolibi ilmsiz, xudo va rasulimizni buyruqlari shundoq emasmu? Va bu kishini so'raganlari shariatdan tashqari emasmu?

Domla imom. Har joyni musulmonlarini bir rasmi bo'ladi. Bizlarga ham shundoq qilmoq rasmdur.

Ellikboshi. Har joyni musulmonlarini rasmlari emas. Boshqa viloyat musulmonlari shariatga muvofiq rasm bilan qiladurlar, ammo bizlar shariatga teskari, johiliyat zamonidan qolgan bid'at ila qilamiz.

Fayziboy. Agarda bizlar shariatga muvofiq qizimizni erga bersak, xalq bizni ayb qilub kuladilar. Munga nima deysiz? Bizni xalqga kulgu bo'lganimiz yaxshimi?

Ellikboshi. Xalq! Xalq shariatni masxara qiladilarmi? Siz mani aytganimni qila bering, xalq sizdan kulsa, shariat buyrug'ini qildim, desangiz, hech kim hech nima demaydur. Agar ayb qilsa, gunohkor bo'ladir.

Fayziboy. Mundoy so'zni uzub-ulaydurg'on ekansiz, juda mani garang qildingiz. Endi bo'ldi. Bo'ldi, domla imomni aytganlarini bersalaringiz, mana, bo'lmasa, o'zlaringiz bilasiz. Man yurtni tashlab, qiz erga berolmayman. Endi gapni ko'p cho'zmang, ming gapurganingizda zarracha manga ta'sir qilmaydur.

Ellikboshi. Xayr, xayr, mendan o'tg'on bo'lsa, afv etursiz. Man sizga va kuyovingizga qarindosh emasman. Shunchaki, shundoq bid'atlar bo'lmasa edi, deb so'zni uzaytirdum. Jabr qilsangiz kuyovingizga qilursiz, gunohi bo'yniing'izga, manga nima foyda, nima zarar? (*Yerga qarab sukut qilur.*)

Domla imom (*Abdurahimg'a qarab*). Siz xo'b deyavering, mundaqangi deb o'lturmang. To'yga ketgan oqchani xudo o'zi yetkazur. Qarzdor bo'lsa bo'lar. «Qarz uzilar, xotun yonga qolar» degan so'z bor. Ellikboshi qayoqdagi bo'lmag'on so'zlarni gapurub, sizni sustlanturub qo'yдилar. Ul kishini so'zini qo'yabering.

Ellikboshi. Xayr, bo'lmasa bilganlaringizni qilinglar.

Domla imom. Qo'linglarni ko'taringlar. (*Hammalari fotihaga qo'l ochurlar. Domla ichida uzoq duo qilur.*) Omin Ollohu akbar, barakalla. (*Abdurahim Fayziboyga qarab*). Endi muborak bo'lsun.

Abdulahim. Qulluq.

Fayziboy. Qulluq. (*Abdurahimga qarab.*) To'yni ushbu tayin bo'lgandan keyin kam yuborsangiz, hech ko'nmayman. So'ylashilganni batamom yuborursiz.

Abdulahim. Xotirjam bo'ling, bir nima qilurmiz.

E l i k b o s h i (*o'rnidan turib*). Endi menga javob, ketaman. (*Eshikka qarab yurar.*)

F a y z i b o y. O'ltira turing, osh tayyor.

E l l i k b o s h i. Bale, rahmat, yegandek bo'ldim. (*Hammalari o'rinlaridan turarlar.*)

F a y z i b o y. Sizlar o'lturibsizlar-de.

D o m l a i m o m. Yo'q, bizlar ham ketarmiz.

F a y z i b o y. To'xtanglar bo'lmasa (*chakmon turgan tokchadan chakmonlarni olub, domlag'a, Abdulrahimg'a kiyguzarlar. Ellikboshiga navbat kelganda, kiymas*). Sabab, kiymaymiz? Bo yoki gapimg'a xafa bo'ldingizmi?

E l l i k b o s h i. Yo'q. To'n kiymayman deb ahd qilg'onman.

Fayziboy. To'ynikini kiyganingizda yajshi bo'lar edi. Chunki to'yniki tabburuk edi. (*Abdulrahimga qarab.*) Ertaga xotunlar bilan bamaslahat to'yini xabarini bararman.

Abdulrahim. Xo'b, xo'b (*Hammalari chiqib ketarlar. Fayziboy sahnada*).

Fayziboy. Xar, xayr. (*Qolur.*)

Parda

Manbalar:

1. *Shuhrat Rizayev*. «Jadid dramasi».
2. *Sobir Mirvaliyev*. «O'zbek adiblari», «Yozuvchi» nashriyoti, 2000 yil.
3. *Sirojiddin Ahmedov*. «Abdulla Qodiriy va teatr» «San'at» 1984 yil 5-son.

CHO'LPON (1897—1938)

Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon 1897-yili Andijonning Qatortarak mahallasida tavallud topgan. Cho'lponning otasi Sulaymonqul Mulla Muhammad Yunus hunarmandlik, dehqonchilik bilan shug'ullangan bo'lib, o'qimishli kishi edi.

Cho'lpon dastlab Andijonda eski o'zbek va rus-tuzem maktabida, so'ng Toshkentda madrasada tahsil ko'radi. U 16 yoshidan ijod qila boshlagan, birinchi «Boy» degan pyesasini 1914-yili yozgan.

Cho'lpon otashnafas shoir, yozuvchi bo'lish bilan bir qatorda yirik dramaturg, teatr munaqqidi va tarjimon sifatida tanildi. 1921-yili M. Uyg'ur boshchiligidagi «O'zbek Davlat namuna teatri»ga mudir bo'lgach, uning ijodiy hayoti butkul teatr san'ati bilan bog'lanib qoladi. Uning «Yorqinoy», «Halil farang» kabi pyesalari turli teatr truppalarida sahnaga qo'yiladi. 1924—27-yillar davomida Cho'lpon Moskvada ochilgan O'zbek teatr studiyasida murabbiylik qiladi. Shu truppa uchun «Yana uylanaman» pyesasini yozadi, «Yorqinoy» dramasini qayta ishlaydi va «Hujum» (V. Yan hamkorligida), «Mushtumzo'r» («Zamona xotini»), «O'rtoq Qarshiboyev» kabi pyesalar yaratadi.

Teatr repertuarlarini rus va g'arb mumtoz pyesalari bilan boyitish Cho'lponning diqqat markazida bo'lib keldi. V. Shekspirning «Hamlet», N. Gogolning «Revizor», K. Gossining «Malikai Turandot», K. Goldoning «Ikki boyga bir malay», J. Molyerning «Xasis» singari pyesalari Cho'lpon tarjimasida sahna yuzini ko'radi.

U 1920-yillar davomida teatr tanqidchiligi sohasida A. Fitratning «Chin sevish», «Abo muslim», X. Jovidning «Iblis», «Shayh San'on», G'. Zafariyning «Halima» asarlarining sahnaviy talqinlari haqida taqrizlar, «Meyerxold teatri», «Moskvadagi dramstudiyamiz», «Tursunoy sahnada» kabi maqolalari bilan matbuotda chiqadi.

Buyuk millatparvar Cho'lpon asossiz ravishda qoralanib, 1937-yili qamoqqa olinadi va 1938-yili otib yuboriladi. Uning nomi va ijodi istiqlol davrida to'la oqlandi, Respublikamiz Prezidentining Farmoni bilan 1991-yili unga Alisher Navoiy nomidagi davlat mukofoti va keyinroq «Buyuk xizmatlari uchun» ordeni berildi.

CHO'LPON AKTYOR HAQIDA

...Aktyorga ahamiyat berish, demak so'zga ahamiyat berish demakdir. Aktyor, teatr san'atining aktyori har qanday tarkibli (konstruktiv) sahnada ham so'zlaydi, gapiradi, chiroyli so'z chiroyli qilib gapirilsa, tomoshabinga ta'siri bo'lmay iloji yo'q...

...go'zal va ustalarcha o'ynag'on aktyor go'zal va ustalarcha gapirishni ham bilsin. Shunday bo'lg'onda o'yun bilan so'z birlashib tomoshani to'latadi...

...Samimiylik, rolni anglab o'ynashlik, sahnada erkin bo'lishlik kerak... Bizning sahnamizda ba'zi bir artistlarimiz juda siqilib, tortinib o'ynaydilar. Sahnada erkin bo'lsa, u eng kerakli narsadir.

...sahnada kechirma (перживание) bilan o'ynash yo'sini bor. Bizning ko'pgina aktyorlarimiz bu yo'singa o'zlarini yaqin keltirmaslikka tirishib «yo'q, men kechirma bilan o'ynamayman!» desalar-da, ularga uncha ishonolmayman. Yolg'iz texnika bilan o'ynash uchun juda zo'r san'atkor bo'lish kerak. Aktyor o'z roliga qiziqib o'ynasa, biroz

kechirmaga o'tmay iloji yo'q. Faqat hunar shundaki, aql poyloqchisi hamma vaqt poylab tursin va aktyorga uning sahnada ekanini, butun bu narsalar bir o'yundan iborat ekanini, sahna chegaralaridan chiqish yaramaganini doim eslatib tursin.

Cho'lpon. «Adabiyot nadir», 82 va 142-betlar.

CHO'LPON HAQIDA IKKI ALLOMA SHARHI

...Cho'lpon haqiqiy baynalmilalchi edi. Ayni chog'da baynalmilalchilik unga buyuk millatparast bo'lishga xalaqit bergan emas. Aksincha, Cho'lpon tabiatidagi bu ikki jihat bir-birini taqozo etgan, bir-biriga tayangan, bir-birini to'ldirgan. Cho'lpon o'z xalqini juda sevar edi, chunki uning bugunini ham, o'tmishini ham juda yaxshi bilar edi. Cho'lpon dunyodagi bironta xalqni kamsitmagan holda o'zbek xalqini boy tarix yaratgan, dunyoga buyuk san'atkorlar, shoirlar, olimlar, mutafakkirlar yetkazib bergan xalq deb bilardi. Ba'zi bir ovro'palik kaltafahm va befarosat odamlar o'zbeklarni «osiyolik» deb tahqirlagan, ularni yarim yovvoyi tarzda hayot kechiradigan madaniyatsiz nodonlar deb chuvvos solgan, «mayda millat» deb pastga urgan bir sharoitda Cho'lpon bu xalqning mislsiz madaniyati, juda boy ruhiyati, bukilmas e'tiqodi va pok iymoni, mazmundor tarixi uchun iftixor qildi va bu iftixorni ko'pgina asarlarida, shu jumladan, tanqidiy, maqolalarida baralla aytishdan cho'chimadi. Tabiiyki, Cho'lponning otashin millatparvarligi uni millat istiqboli uchun qayg'urishga undardi, shuning uchun millat badanidagi hali o'chmagan kishan izlari haqida fig'on qilardi, tog'lari ko'klarga salom bergan zo'r o'lka boshiga ko'lanka tashlab turgan qora bulutlardan nafratlanar, na ohi, na faryodi bor sustlashgan yuraklarni erk uchun, insoniy qadr-qimmat uchun kurashga chorlardi. Bir zamonlar Pushkin o'z sozi bilan odamlar qalbida ezgulik tuyg'ularini uyg'otganidek, Cho'lpon ham ezilganlar va tahqirlanganlar yuragida erkka ishtiyoq tuyg'ularini uyg'otdi. U maqolalarida xalq qalbida milliy iftixor tuyg'ularini uyg'otishga alohida e'tibor berdi, bu yo'lda har bir imkoniyatdan foydalanishga harakat qildi. Negaki, milliy iftixor tuyg'usidan mahrum odam esa insoniy qadr-qimmat uchun kurashmaydi.

*Ozod Sharafiddinov, O'zbekiston qahramoni.
«Adabiyot yashasa — millat yashar...» Cho'lpon.
«Adabiyot nadir» adabiy-tanqidiy maqolalar
majmui, 1994-yil, 21—22-betlar.*

...Cho'lpon teran va nozik musiqiy tuyg'uga ega shaxs edi. U tuyg'u shoiri edi, shuning uchun she'rlari musiqiydir. V. Yanning xotirlashicha, Cho'lpon o'zbek qo'shiqchilarinigina emas, balki boshqa turkiy xalqlar ashulalarini ham ijro eta olar edi va u borganda Cho'lpon Sharq xalqlari qo'shiqlarini aytib beradi. Cho'lpon yaxshi dutor chala bilgan. Sharq va Yevropa musiqa asboblari ham yaxshi bilgan. «Ukraina xalq bandurachilari» maqolasida banduraning mandalinadan farqi xususida banduraning «ovozi nozik, ta'sirli va yoqimlidir» deydi.

Cho'lpon ichki tuyg'u bilan kelajakda boshiga yog'iladigan navbatdagi tuhmatlarni his qilgan edi. Uning teatr, umuman adabiyot va san'at sohasida milliy an'analarni rivojlantirish kerak, xalq ijodi, klassik musiqa, o'tmish adabiyoti bugungi o'zbek

madaniyatini rivojlantirishda asosiy omildir, degan e'tiqodi va urinishlarini millatchilik deb talqin qilishdi.

*Salohiddin Mamajonov. «Cho'lpon va teatr»,
«Nafosat» jurnali, 1992-yil, 1—2-sonlar.*

K. YASHIN CHO'LPON HAQIDA

... Men Cho'lpon akani ham (Hamza qatori – S.T.) ustoz sifatida tan oldim. Xizmatini qildim. U bilan uch yil Moskvada, Toshkentda Samarqandda uchrashdim, hamsuxbat bo'ldim.

Halima Nosirova bilan turmush qurib, yashay boshlaganimizda esa, devor-darmiyon qo'shnichilik qildik. Bir-birimiz bilan totuv va yaxshi munosabatda yashadik... Biroq men, ochiq aytaman: “Cho'lpon mening ustozim bo'ladi deb aytilgan emasman. Chunki bu mening uchun havfli edi... Atrofimda fikri buzuvchi, ig'vogar shaxslar yo'q emas edi...”

Cho'lpon – katta g'oyali ulug' shoir, chinakam san'atkor shoir, otaxon shoir. Cho'lpon akaning juda o'tkir, shirin, ommaga yoqadigan boy tili bor edi. Ayni shu xislatlar Hamzaga ham xos edi. Bu ikkalasining tili juda xalqchil.”

*Akademik Yashin bilan M. Sa'diy suxbati.
Cho'lpon, Hamza mening taqdirim
“O'zbekiston adabiyoti va san'ati”
1995 y. 18 avgust. 33-son.*

CHO'LPONNING «YORQINOY» DRAMASI VA UNING SAHNAVIY TALQINI

Asar ilk bor 1920-yili M. Uyg'ur tomonidan sahnaga qo'yilgan. Muallif asarni keyinroq qayta ishlagan va uni M. Uyg'ur 1927-yili qayta sahnalashtirgan. Bosh rollarni Z. Hidoyatova (Yorqinoy), O. Jalilov (Po'lat), Sh. Najmiddinov (O'lmas Botir), T. Saidazimova (Qumri) ijro etganlar.

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, rejissor Nosir Otaboyev tomonidan Milliy akademik drama teatrida qo'yilishi (1994) asarning istiqlol davrida yaratilgan ilk talqini bo'ldi.

«YORQINOY» HAQIDA MATBUOT SHARHI

Xarakterli tomoni shundaki, sahnaga qo'yuvchi va teatr jamoasi dramaning asosiy mazmuniga zarar yetkazmagan holda, uning deyarli barcha personajlarini saqlab konfliktning mohiyatini to'la berib, voqea-hodisalarni qisqartirmasdan yangi spektakl yaratishga muvaffaq bo'lganlar. Bu katta ijodiy mehnat samarasidir. Rejissor «Yorqinoy»ni sahnalashtirishda ikki muhim narsani nazarga oldi va ularga jiddiy urg'u berdi. Birinchisi asarning «afsonaviy tomosha» ekanligi, ikkinchisi esa hozirgi zamon uchun saboq bo'ladigan jihatlaridir.

Cho'lponning o'zi e'tirof etishicha, bu asarning yozilishiga sabab kampir onaning «Totli va boy tili bilan ertak (cho'pchak) aytib» berishi bo'lgan. Shu sababdan ham butun spektakl mohiyatidan, personajlar xarakteridan va qilmishlaridan, voqea-hodisalarning tabiatidan xalq ijodining ruhi sezilib turadi. Binobarin, spektaklda romantizm ustunlik qiladi. Adolat va haqiqat uchun kurash, chin sevgini muhofaza qilib, mehr-oqibat ko'rsatish, nohaqlikni keskin fosh etish romantizm qobig'iga o'rab aks ettiriladi.

Po'lat — Yo. Sa'diyev endi itoatkor bog'bon emas, isyonkor, qalbi qasos o'ti bilan to'lgan dovyurak inson. Yo. Sa'diyev qahramonining bu fazilatlarini, ayniqsa, O'lmas Botir bilan bo'lgan to'qnashuvlarda yaqqol ochib beradi. Qahramoni ongidagi keskin o'zgarishlar, uning mardligi, jur'ati, iste'dodli aktyorimiz talqinida haqqoniy ifoda etib beriladi. Po'lat — Yo. Sa'diyev mamlakatni titratgan, xonning o'ng qo'li bo'lgan raqibiga qarshi qilich ko'tarib kelgan O'lmas Botirni mag'lubiyatga uchratishida uni ma'naviy jihatdan taslim qilishida, haqiqat, isbot unga juda qo'l keladi. Dakang xo'rozday xovliqib kelib, «vit» etib qochgan bedanaday bo'lib qolgan O'lmas Botirning asosiy xususiyatlari ham shu sahnada aktyor G'. Hojiyev talqinida o'z aksini topgan. Ha, Po'lat — Yo. Sa'diyevda or-nomus, vijdon, imon juda kuchli.

Artist Z. Ashurova boy qizining g'ururini ham, muhabbati borasidagi samimiylilik va ichki lirik tuyg'ularini ham jamuljam qilib tomoshabinlarga yetkaza olgan. Qahramonning ruhiy kechinmalari vaziyatga, sharoitga qarab kechirgan holatlari yaqqol ko'rinadi. Po'lat bilan munosabatida mehr-oqibat qaynab tohsa, Kal (O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist H. Nurmatov) bilan esa kinoya, kesatqlar avj oldirilsa, Nishobsoy begiga (O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist P. Nosirov) nisbatan g'azab o'tlari favvoradek otilib chiqadi. Qahramondagi bu xususiyatlarni Z. Ashurova mahorat bilan bera olgan. Ayniqsa, uning iste'dodi bek bilan bo'lgan munosabatda ko'zga yaqqol tashlanadi. Kal tomonidan aldanib, Bekning qafasiga tushib qolgan Yorqinoyning taqdiri qil ustida turadi. U o'zining nomusini saqlash uchun barcha xiyla-yu nayranglarni ishga solishi tomoshabinlarga haqqoniy va ishonarli qilib yetkazilgan. Aktyor — R. Yarashova ham Yorqinoy obrazini yaratishda jiddiy ishlagan, ayrim muvaffaqiyatlarga erishgan.

*Hafiz Abdusamatov, filologiya fanlari doktori, professor.
«Yong'oq ostidagi xandaq» «O'zbekiston adabiyoti
va san'ati» gazetasi, 1994-yil, 18-mart.*

QUYIDA «YORQINOY» PYESASIDAN LAVHALAR BERILDI

Sakkizinchi majlis
Yorqin yolg'iz

Yorqin (*Yuzini bolishga qoplab jim bo'ladir, birozdan so'ng boshini ko'tarib*). Ko'nglim allanima balolarni sezganday bo'ladir. Onam bo'lsaydi...tizzasiga bosh qo'yib yig'lar edim. (*Yana biroz jim.*) Yo'q, yo'q... Hozir shunday bir dardga yo'liqdimki, buning davosi hech kimda yo'q.

Ko'rmayin bosdim tikanni,
Tortadirmen dardini...

Yo'q, yo'q! Men bu tikanni ko'rib turib bosdim! Yo'q, yo'q! U — tikan emas, gul edi, gul!.. (*Yana yuzini bolishga qoplab tiqadi. Birozdan so'ng qo'lida bir to'plam gul bilan sekingina Po'lat keladir.*)

To'qqizinchi majlis

Yorqin, Po'lat

P o' l a t (*biroz tikilib turg'och, hadiksirab u yoq-bu yoqqa qaraydir*). Bu yerda oyim poshshadan boshqa hech kim yo'q. Mening bu yerda turganimni ko'rsalar, menga ham, oyim poshshaga ham yaxshi bo'lmas. Oyim poshsha uxlab qolganga o'xshaydir, gulni boshiga qo'yayin-da, borib Momoga aytayin, kelib uyg'otib ketsun (*keta boshlaydir*).

Y o r q i n (*sekingina boshini ko'tarib*). Po'lat, men uyg'oq! Hozir mening uchun uyqusizlik kunlari kelganini bilmaysanmi?

P o' l a t (*biroz qovshab olib*). Unday bo'lsa ko'p yaxshi. Mana — gul, marhamat qiling (*uzatadir*). Mening so'ng sovg'am!

Y o r q i n. Gapirma! (*Gulni irg'itadir.*)

P o' l a t (*yiroqdan turib, qaltiragan tovush bilan*). Poshsham, bu gaplar ham so'ngi gapimdir, shu uchun biroz gapirib olmasam bo'lmaydir. Innaykin, gapiraturgan gaplarim sizdan ko'ra o'zim uchun achchiqroq, shunday bo'lsa ham ko'p emas, bir-ikki og'iz. Hozir, mana shu joyda ham ko'p qolishga ko'nglim unamaydir, o'z otimning bulg'anishidan qo'rqmasam ham, siz uchun sira ravo ko'rmayman. Bilamankim, ikkovimizning bu yerda turganimizni ko'rsalar, albatta, bir gap chiqaradurlar.

Y o r q i n. Sen Po'lat, agar ko'ngling to'g'ri bo'lsa, xotin kishi bilan to'g'ri muomala qilishni bilaturgan bir yigit bo'lsang, hech bir gap-so'zdan qo'rqmas eding. Yolg'iz, ko'ngling to'g'ri bo'lsa!

P o' l a t. U to'g'rida meni mendan ko'ra siz o'zingiz yaxshiroq bilasiz.

Y o r q i n. Bo'masa, tinch bo'l. Mayli, ko'rabersinlar. (*Shu choqda bir daraxtning orqasidan Qumrining yolg'iz boshigina ko'rinadir. U xafsirab, hovliqib va achchiqlanib biroz bularga qarab turadir. So'ngra o'zicha pichirlab «xap senimi?» degan ishoratni qiladir-da, darrov yo'qoladir. Bular sezmay qoladirlar.*) Men ham sen bilan ko'p so'zlashmak istayman, bilamankim, ikkovimizning sevgimiz ham umidsiz sevgidir. Ammo, men seni ko'z oldimda ko'rib yursam ham tinchib yurar edim. Kecha, sen menga «Ketaman» deding, bu kun «so'ng sovg'am» deb gul berding, mana shular nima uchun edi, menga tushuntirib ber!

P o' l a t. Tushuntirishning keragi yo'q, o'sha gaplarning o'zi bildirib turadir: men ketaman. Shu hafta ichida bu dargohdan butkul ketaman.

Y o r q i n. Qayerga?

P o' l a t. Unisini, lekin hozir aytolmayman. U — mening o'z ishim, siz bilmasangiz ham bo'ladir. Lekin, bir vaqt kelar, bilib ham qolarsiz.

Y o r q i n. Ehtimolkim, shu sevgi sabablidir?

P o' l a t. Yo'q, aslo?

Y o r q i n. Men senga «qol» deb yalinmayman, bu — ortiqcha bo'lur. Sendan yolg'iz so'raymangina: qolabilasanmi, shuning iloji bormi?

P o' l a t. Sira yo'q!

Y o r q i n. Mening qo'limdan kelaturgan ishlar bilan iloji bo'lsa-chi?

P o' l a t. Juda yaxshi bo'lar edi. Lekin, uning iloji hech kimning qo'lidan kelmaydir!

Y o r q i n. Bo'lmasa, men ham borsam bo'ladirmi?

P o' l a t. Yo'q, aslo!

Y o r q i n. Ketaturgan yo'ling uchun qilich kerakmi?

P o' l a t. Qilichlar kerak?

P o' l a t. Qilichni beray.

P o' l a t. Qulluq, qilichlar topaman!

Y o r q i n. Unday bo'lsa yo'lingda o'lim qo'rqinchi bor ekan-da?

P o' l a t. O'lim emas, o'limlar qo'rqinchi bor.

Y o r q i n. O'lim qonlimidir?

P o' l a t. Uni... Uni... (*biroz jim, so'ngra birdan*). Uni, poshsham, el biladir! (*Shu chog'da orqadan Qumrining «Ana, ana» degan tovushi keladir, bular qo'rqib qaraydilar. Oldida Qumri bo'lgani holda qo'lida qilich bilan Botir kiradir. Ungacha Yorqin qo'lga qalqonini olib o'rnidan turgandir.*)

O'ninchi majlis

Yorqin, Po'lat, Qumri, O'lmas botir.

B o t i r (*tashqaridan baqirib kelar*). Hoy beorlar, benomuslar! (*Tez kirib kelib, bir to'xtab oladir-da, so'ng birdan Po'latga hamla qilib*). Benomus, ko'rnamak!

Y o r q i n (*tezgina qalqon ushlab oraga kiradir*). Ota, munda nomus masalasi yo'q! Bu yerda nomus oq, pok, begunoh!

B o t i r (*biroz bo'shashib orqaga qaytadir, so'ngra tinch va past ovoz bilan Yorqinga*). Sen, qizim, bu yerda yarim kechada bog'bon bilan yolg'iz qolibsani, nomus masalasi bo'lmaydirmi? Meni aldamoqchi bo'lasan, benomus qiz! (*Qiziqibroq*.) Agar men seni qilich o'yiniga o'rgatib, o'zimdani usta qilmagan bo'lsam, hozir chopib o'ldirar edim! Yo'q, seni jallodning qo'lga topshirib «maydoni siyosat»da parchalantiraymi?!

Y o r q i n, Haq yo'lda o'ldirmak istasangiz, men, qalqonni yerga tashlab (*tashlaydir*), bo'ynimni tutib beraman! (*Bo'ynini egib turadir*.)

B o t i r. Otang nohaq yerga bir qatra qon to'kkan emas. Bundan keyin ham to'kmaydir! Ammo, (*Po'latni ko'rsatib*) mana bu ko'rnamakning qoni to'kilsa, aslo nohaqlik bo'lmaydir! (*Po'lat hayajonli, lekin jim*) Ayt yaxshilik bilan, nima to'g'rida gaplashib turib edingiz?

Y o r q i n, Uni ayta olmayman, lekin nomus masalasi emas.

B o t i r. Menga ayta olmaganingdan keyin qanday masala bo'lar edi, behayo? Aytib ber yaxshilik bilan: nima to'g'rida gaplashib turib edingiz?

Y o r q i n, Nomusdan boshqa bir...

B o t i r. Sen jim tur! Ana u benomusning o'zi gapirsin! Gapir, deyman, senga behayo!

P o' l a t (*oldinroq kelib, dadil, lekin bemalol*). Men kimman?

B o t i r (*ko'rmas*). Kimligingni o'zing bilasanmi?

P o' l a t. Siz bilmasangiz qaydan bilayin?

B o t i r. Tug'ilganingdan beri mening xizmatimni qilib kelib, mening non-namagimni yeb kelib, hali ham o'zingni tanimadingmi?

P o' l a t. Sizning umrlik xizmatkoringizman; bog'boningizman, deb tanisam, shu chinakam taniganim bo'ladirmi?

B o t i r (*birdan g'azablanib, baqirib*). Benomus, bo'lmasa «qizimning o'ynashi» deb tanitaymi seni? (*Yorqin besaranjon*.)

P o' l a t (*mardona*). Qiz bilan o'ynashish emas, to'g'ri o'yin-kulishning o'zi ham ko'ngilga sig'maydir. Botir, ayting, men kimman?

B o t i r. Sen non-namagiga tupurgan bir nonko'rsan! Yana nima kerak?

P o' l a t (*qaltirabroq*). Botir, pardani ochish zamoni kelganga o'xshaydir: (*ko'ziga qarab olib*) Mening otam kim?

B o t i r (*bir quri shoshib, rangi o'chib qoladir, so'ngra o'zini to'xtatib olib, bemalol*). Otang bir qishloqi!

P o' l a t. Qani o'sha qishloqi? Nimaga men sizning dargohingizda, sizning non-tuzingizga qarab qolganman?

B o t i r. O'zini boqolmagan bir qishloqi seni biti bilan boqsinmi? O'zi boqolmagandan keyin menga berib ketgan-da! Otang, seni, «Botirning qizi bilan o'ynashsin, Botirning el-xalq oldida yerga qaratsun!» deb qoldirgan edimi? (*Qizib.*) Qani, ayt, benomus, gapir!

P o' l a t. Botir, siz gapni boshqa yoqqa burmang, bari bir ish xunuk bo'ladir. O'sha otam qani? Nimaga menga ko'rsatmaysiz?

B o t i r. Otangni men qaydan bilay? Yegali ovqat topolmay ochidan o'lib ketgandir. Men senga kam otalik qildimmi? Nonko'r? (*Yana qizib*) Men senga «qizimga o'ynash bo'll!» deb otalik qildimmi? A?

P o' l a t (*qaltirab, Botirning ko'ziga qarab olib*). Uyalmaymaysizmi? Uyalmaymaysizmi? Astag'furulloh... (*Bir-ikki qadam orqasiga qaytadir.*)

B o t i r. Men kimning ona qo'ynidagi qizi bilan o'ynashibmankim, uyalsam?

P o' l a t (*yugurib kelib*). U... yong'oqning tagidagi xandaq kimning go'ri? Ayting, kimning go'ri? (*Botir cho'chib orqasiga jiladir, lekin, o'zi jim, Po'lat borgan sari unliqib.*) Bir xandaqda necha kishining boshi bor? (*Qo'ynidan bir ro'molchada mayda suyaklar olib tashlab*). Mana bu suyaklar kimniki? Nimaga bular yong'oq tagidagi xandaqda chirib ketgan? (*Baqirish*) Kimniki deyman? Ariza berganlar qani? (*Yerdan suyaklarni olib Yorqinning oldiga tashlaydir.*) Mana shular emasmi, ariza berganlar? Mening otam, akam, tog'am, yana boshqa qancha qavmu qarindoshlarim shu bir hovuch suyakning ichida emasmi? Gapiring! Gapiring! Nimaga damingiz chiqmay ketdi? (*Botirning qilichi qo'lidan tushib ketadir, rangi oppoq oqaradir, kasal odamday bo'shashib, holsiz turib qoladur.*)

Y o r q i n (*qaltirab*). Ota! Ota deyman! Bu nima gap? Bu nima? Bu qanday gap? (*Botir jim*) Po'lat, sen aytib ber: bu nima gap? Men o'laman, men chiday olmayman. Bu qanday sir?

P o' l a t (*o'zini bosib olib, bo'shashibroq*). Bu sirlarning tagini otangizdan so'rang. Ota-ona, qavmu qarindoshlarini bir umr ko'rmagan, ularning shirin gaplarini eshitmagan, o'zlarini ko'rish o'rniga, bir xalta chirigan suyaklarga ega bo'lgan kishi, o'sha suyaklarni chiritgan dargohda tura olmaydur. Amakingizga qizini bermagani uchun xonavayron bo'lgan bir qishloqi, o'sha qishloqini «haq» degani uchun yer bilan yakson qilingan qishloq... yana mendek baxti qaro o'g'lini shu dargohga bir umrlik qul qilib beribdir! Men shu to'rt og'iz gapni sizga aytib qo'yib, shu dargohdan butkul bosh olib ketmoqchi edim (*Qumrini ko'rsatib*). Ana u tentak, jinni qizni gapi bilan otangiz bizni gunohkor qildi, «nonko'r» dedi, «o'ynash» dedi, «benomus, behayo» dedi, har narsa dedi. Agar bu sirni ochib yubormasam mening boshim ham shu suyaklarning bittasi bo'lar edi. Oyposhsha menga «non-tuz» berdi, deb otangizdan halollik so'ramayman. Nimaga desangiz, har bir tishlagan nonim ota-onalarimning bir burda eti, har bir qatra tatigan tuzim ularning ko'z yoshlari, balki, qonlari bo'lgan ekan. Bu dargohda gunohi yo'q, menga chinakam singil bo'lib, balki, onamday shafqatli qaragan siz edingiz. Shu uchun sizdan so'raymankim, o'sha shafqat va marhamatlaringizni halol qilsangiz! (*Hamma jim.*)

B o t i r (*og'ir*). Po'lat, senga nima deyishni bilmayman... Menga muncha qattiq da'volaring bor ekan. O'zimga xilvat qilib turib aytsang bo'lasmidi?

P o' l a t. Qizingiz bilan mendan gumoningiz bor ekan, shu tentak qizning gapi bilan bizga anvoyi haqoratlarni irg'itmasdan, qizingiz bilan xilvatda gaplashib, gap olsangiz bo'lasmidi?

B o t i r. Bo'lar ish bo'ldi, endi bu sirni shu joyga ko'maylik... «Ketaman, chiqaman» degan gaplaringni tashla! Sen shu yerdan chiqding sir yoyiladir va men sharmanda bo'laman. Men bir sharmanda bo'lganimdan keyin sening bilan boshqacha gaplashib qolamiz!..

P o' l a t. Butun bir qishloqni jindek bir narsa uchun yer bilan yakson qilgan kishi, «sir yoyilishi»dan qo'rqadirmi? Shuncha ko'mganlar yetmaganday, endi bu haqiqatni ham yerga ko'maylikmi? Siz bilan qandaqasiga gaplashsam gaplashaberman. Men uchun endi hech bir qo'rqish degan narsa qolmaydi! (*Yorqinga.*) Bu jallod otadan emas, siz shafqatli singildan halollik so'rayman? Halollang, singlim!.. (*Yugurib chiqadir, orqasidan Yorqin ham «Po'lat, meni ham olib ket!» deb yuguradi, qolganlar toshday qotgan.*)

Parada tushadir

Manbalar:

1. *Cho'lpon*. Asarlar. 1-jild. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1994-yil.
2. *Sirojiddin Ahmedov*. «Mashaqqatli davr farzandi». «Sovet O'zbekistoni san'ati» jurnali, 1988-yil, 1-son.
3. *Naim Karimov*. «Cho'lpon va teatr». «Teatr» jurnali, 1999-yil, 7—8-son.

MANNON UYG'UR (1897—1955)

Mannon Uyg'ur (Abdumannon Majidov) Toshkentning Degrez mahallasida bozor oqsoqoli Majid aka oilasida tug'ilgan. Usuli jadid maktabida, so'ng Ahmadxo'ja madrasasida tahsil ko'rgan.

Mannon Uyg'ur o'z mehnat faoliyatini 1916-yili «Turon» truppasida aktyor sifatida boshlaydi; truppa 1917-yili tarqalib ketgach, 1918-yili Abror Hidoyatov, Fatxulla Umarov, Ma'suma Qoriyeva, Muzaffar Muhamedov kabi iste'dodli yoshlar tarkibida uni qayta tashkil etadi. 1921-yili unga «O'zbek davlat namuna teatri» nomi beriladi. Shu teatrning bir guruh aktyorlari Mannon Uyg'ur boshchiligidagi 1924—1927-yillari Moskvada o'zbek teatr studiyasida tahsil ko'radilar. 1927-yili shu studiyachilar ishtirokida qayta tuzilgan teatrga 1929-yili Hamza nomi beriladi. Mannon Uyg'ur ushbu jamoada umrining oxiriga qadar rejissor sifatida faoliyat ko'rsatadi.

Mannon Uyg'ur teatr tarixidan, avvalo, buyuk rejissor, yirik teatr arbobi sifatida o'rin olgan. Atrofiga Cho'lpon, Fitrat, G'. Zafariy, Xurshid kabi dramaturglarni jalb etib, milliy ruh, yuksak badiiy tafakkur tamoyillariga asoslangan dramaturgiya va teatrni barpo etishda bosh-qosh bo'ldi, iste'dodli aktyorlarni yetishtirishda ularga murabbiylik qildi. 2001-yili Prezidentimiz Farmoni bilan Mannon Uyg'urga «Ulug' xizmatlari uchun» ordeni berildi.

Mannon Uyg'ur dramaturgiya sohasida ham qalam tebratib, «Turkiston tabibi», «Fanniy uyi», «O'n ikki soatlik hokimiyat» pyesalarini yaratdi. Bu pyesalar 1920-yillari ko'p martalab sahnaga qo'yilgan. Lekin ular («*Turkiston tabibi*»dan tashqari) nashr etilmagan.

MANNON UYG'UR HAQIDA XOTIRALAR **MANNON UYG'UR YOQQAN CHIROQ...**

Tarixning guvohlik berishicha, teatr san'ati buyuk iste'dodlar, buyuk shaxslar ijodi va izlanishlariga bog'liq holda shakllanadi, taraqqiyot yo'llari belgilanadi. Shu ma'noda Hamza nomidagi teatrning maydonga kelishi va tez sur'atlar bilan rivojlanishi Mannon Uyg'urning tinib-tinchimas faoliyati, badiiy-estetik qarashlari va ijodiy izlanishlari bilan aloqadordir. Uning badiiy rahbarligida sayqal topgan bu san'at koshonasi xalqimiz madaniy va ma'naviy boyligining noyob xazinasiga aylangan.

Uyg'ur teatrining shuhrati faqat o'zbek aktyorlik va rejissorlik san'atining barkamolligi, o'zbek dramaturgiyasining nodir asarlarini yuksak saviyada sahnalashtirishdagina emas, dunyo klassiklari — Shekspir, Molyer, Shiller, Goldoni, Gogol asarlarini sahnalashtirishdagi katta yutuqlarida ham yaqqol namoyon bo'lgan. Bu o'zbek teatrini XX asrning birinchi yarmidayoq jahonning eng ilg'or teatrlari qatoriga qo'shgan edi.

*Mamajon Rahmonov. «Teatr» jurnali,
1999-y. 1-2-sonlar.*

TEATR SAN'ATINING SARDORI EDI

«Hamza» teatriga birinchi qadam bosganimdagi spektakllardan olgan taassurotlarimni hali-hanuz unutmayman. Abror Hidoyatov, Sora Eshonto'rayeva, Shukur Burhonov, Olim Xo'jayev, Obid Jalilov, Nabi Rahimov, Hikmat Latipov, Qudrat Xo'jayev kabi iste'dodlar

Og'a qo'lida tarbiyalanib voyaga yetgan edilar. Shundan ham uni qanday ulug' san'atkor ekanligini bilib olish mumkin. Og'aning ular bilan ijod qilishlarini ko'rganimda ko'z oldimda yangi bir olam keng, zalvorli ko'rinar edi. Bularning ijodi esa san'at ummoni edi. Shuning uchun «Hamza» teatri o'zbek teatr san'atining zabardast, atoqli aktyorlar avlodining voyaga yetishlarida yetakchi bo'ldi. Yuragim, butun vujudim bilan sahnaga kirishib, o'zimning ajoyib hayot kechirganimni sezar edim. Yonlarida o'tirib, ustozning maktabini jiddiy o'rganaman, deb sira o'ylamaganman.

«Hamlet» spektaklini ko'rganimda uning so'zlari, jumllalarining murakkabligiga qaramay — hammasiga tushundim. Repetitsiya jarayonida Og'a: ««Mantiqqa e'tibor bering», «Mantiq nima?», «o'sha ushlaydigan» so'zlarni boshqacha bo'rttirib gapir», — degan so'zlarni eslab qoldim, lekin keyin qarasam, mantiqiy tahlil haqida gapirgan ekanlar, aktyorlar shuni e'tiborga olib, jumlaning tub ma'nosini tomoshabinga yetkazib berganlar. Spektakldagi ayrim monolog va sahnalar qayta ishlanar edi. Men shularning guvohi bo'lganman. Yana repetitsiyada burro, lo'nda, tushunarli gapirishni talab etganlar. «Umuman, so'z mahorati va madaniyatiga doim e'tibor qilar edilar». Yana bir talab — so'zning tagida qanday ma'no bor? Nima demoqchisan? Demak: sahna nutqining uchta asosiy elementlari: aniq, burro, ravon gapirish, diksiya, talaffuz ustida tinimsiz ishlash. Mantiqiy tahlil, jumladagi asosiy ma'noni va juda murakkab, nihoyatda kerakli bo'lgan so'zning tagidagi ma'noni ocha bilish. Og'a: «Bu oddiy so'z emas, tagida boshqa ma'no bo'lishi mumkin», — deganlarini keyin tushundim (*ayniqsa, Hamlet, Otello, Yago monologlarida*), so'zning tagida boshqa ma'no bo'lishi mumkin, o'ylab ko'r-da, tasavvur qil.

Lola Xo'jayeva. «Teatr» jurnali 2000-yil, 6-son.

...«Turkiston tabibi» Uyg'ur ijodining tadqiqotchisi Erkin Ismoilovning ta'kidicha birinchi marta 1918-yilning 18-aprelida, so'ng bir necha bor qo'yilgan. Asar 2000-yili M. Uyg'ur nomidagi San'at institutida Ma'murjon Umarov tomonidan sahnalashtiriladi va unda Niyozali va Eshimqul rollarini talabalardan M. Abduqodirov va Sh. Nuraliyevlar ijro etishdi.

Pyesa «Jahon adabiyoti» jurnalining 1997-yil 7-sonida chop etildi.

Pyesada Niyozali degan soxta tabib va uning xo'rlashlariga chidolmay undan o'ch olgan shogird Eshimqul haqida hikoya qilingan.

MANNON UYG'UR ESHIMQUL ROLIDA

Uyg'urning ijrochilik san'atidan bahramand bo'lgan kishilar uning beqiyos so'z ustasi bo'lganini bir ovozdan ta'kidlab o'tadilar. Uyg'ur — aktyor sahnada har bir so'zini dona-dona qilib, chertib-chertib gapirgan. U hatto tez gapirgan chog'ida ham bironta so'z tomoshabin nazaridan chetda qolmagan. O'sha davrda sahnada nutq, talaffuz borasida Uyg'urga teng kela oladigan aktyor yo'q edi.

Uyg'ur ijrosida Eshimqul sahnada xushchaqchaq, chaqqon va hazilkash bo'lib ko'rinsa-da, aslida unga tomoshabinning rahmi keladi. Chunki u bir zum tinib-tinchimasa-da, har qadamda kamsitiladi. Garchi Uyg'ur Eshimqulning «Ovqatni o'ldim-o'ldim deganda, qulog'imga o'lchab non beradi. Demaydiki, bu ham bir musulmon odamning farzandi. Bechorani ertadan-kechgacha ishlatsam, tuzukkina ovqat bermagim kerak,

demaydi», — degan hasratini yarim hazil qabilida aytsa ham, lekin uning soʻz ohanglarida qanchadan-qancha alam, xoʻrlik borligini tomoshabin sezib turadi.

Uygʻur Eshimqulning tashqi xatti-harakatlarini dinamik rivojda tasvirlaydi. Spektakl avvalida tashqi yurish-turishlarga uncha zeb bermaydigan Eshimqul tabibdan qasos olish payti kelganda sahnada yugurib-yeladi, qalbaki dorilarni tezkorlik va chaqqonlik bilan qogʻozlarga oʻraydi, oʻz ishidan mamnun boʻlib, sakrab-sakrab sahnani aylanadi.

Spektakl oxirida mijozlari Niyozalidan oʻch olib, uni kaltaklashar ekan, Eshimqul — Uygʻur voqeani shunchaki kuzatib turmasdan, chapak chalib oʻzida yoʻq quvonadi, kaltaklayotganlarga dalda berib, ular atrofiga gir aylanib yugurib yuradi. Eshimqulning chapagiga zaldagilar ham qoʻshilib ketadilar. Eshimqulning Niyozali ustidan tantana qilib, oʻch olishini tomoshabinlar yolgʻiz tabib ustidan emas, balki zulmat va jaholat ustidan qilingan gʻalaba deb olqishlaydilar.

*Erkin Ismoilov. «Mannon Uygʻur». Gʻafur Gʻulom
nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyoti.
1983-yil, 48—50-betlar.*

TURKISTON TABIBI

Sahna Turkiston tabiblarining muolajaxona — «goʻshaxona»larini tasvir etar. Sahnaning yuqorisida poʻstak solinib, bir yostuq, bir bolish qoʻyulub, yostuq tomonga yaqin yerda bir xontaxta qoʻyulub, ustida bir necha eski tib kitoblari, bir oynak ham katta kir salla, xontaxta yonida eski bir-ikki roʻmol ichida dorular. Eshimqul esa uning tuban tomonidan (hovoncha)da

yanchib turgan holda parda ochilur.

E s h i m q u l (*peshonasini artib*). Uh, juda charchadim-de, qonnimda hech nima qolmadi. Bu qurumsoq hakim boʻsa odamning oʻlishiga qaramasdan ertadan-kechgacha ishlatadi, ovqatni mazasi yoʻq, ovqatni oʻldim-oʻldim deganda qulogʻiga oʻlchab non beradi, demaydiki, bu ham bir musulmon odamning farzandi, bechorani ertadan-kechgacha ishlatam, tuzukkina ovqat bermagim kerak, demaydi. (*Uy tarafiga.*) Hay, oʻlgina, eshon-hakim! (*Sukut.*) Hoy, kishilar bir parcha non bilan ertadan-kechgacha (*hovoncha yanchur*) choʻyanni choʻyanga urushga mandek (*koʻkragini kerur*) Rustam oʻgʻli Rustambek boʻlmasa, boshqa rasmana odamlarning qoʻlini tomiri choʻzulub, xuddi (*bilaklarin koʻkragiga yopishturub, qoʻlining uchin tubangʻa qaratib, boshin ichga olib*) yumronqozuqdek mushshayib qolur. Endi bu xizmatlarni qoʻyavering-a, kelayluk Eshon hakimga. Eshon hakimning taʼriflarini qilib beraymi? Oʻzi juda ezma, baloni ham bilmaydi, oldiga bir kasal kelsa, miyasini qoqub qoʻligʻa beradi. Kecha bir shoʻring qurgʻurning tishi nihoyatda ogʻrib, bunni bila nafas olib keluvdi. Oldigʻa yaqin oʻtquzub soʻradiki, qating ogʻriydi? (*Uy tarafiga*) Hay oʻlgin-a, idroksiz, bechora ogʻzini shamol kirmasun deb roʻmol ila oʻrab oʻtiribdir-ku, yana soʻraydiki qating ogʻriydi? U bechora gʻuldurlab roʻmol ila aralash shishim ogʻriydi degandek, javob berdi, hakim boʻlsa, a! Shishim ogʻriydi? Man haligacha shish degan joyni eshitganim yoʻq, deb xoʻmrayibvordi. Bechora Eshon hakim mani boqmasmukinlar deb xafa boʻlub yerga qaradi. Man dedimki, «Taqsir (*uy tarafga*) hay sadqai taqsir ket, qurumsoq bu kishi tishim ogʻrivotti devottilar», — desam, hamon haromzada man sanda soʻravotganim yoʻq, «Tishi ogʻrigʻonini qayoqdan bilding?» deb momaqaldiruqdek baqirib yubordi. Man oʻrganganim uchun oʻzimni toʻxtatib qoldim, ammo kasal bechora gurs etib (*yiqilur*) yiqilib tushdi. Man yana dedimki: «Taqsir, bu

kishining tishi og'rimasa ro'mol ila og'zini o'ramasdi!». Undan keyin janobi eshon hakim biroz pasayub, «Tishing og'riydimi?» deb so'radi...

E s h i m q u l. Olib keldim, taqsir.

N i y o z a l i. Qani ko'ray-chi? (*Olib qarab, chetga.*) o'zim aytganday o'rusning dorusini hammasi oq bo'ladi. (*Xona tarafig'a borib, dorularni bir-biriga aralashtirur.*)

E s h i m q u l (*chetga*). Ish o'ngidan keldi. Borsam, yurak og'ritadurg'on doru ila qichitadurg'on dorudan bor ekan, olib keldim. Qo'l bering, yonimda ham ozroq olib qoldim (*fikr*). Qani, sinab boqay-chi, qanaqa ekan. (*Yonidan chiqarib yalar, biroz o'tub qichinmoqg'a boshlar, Niyozali kelib po'stak ustida o'turub kitob ko'rur. Birdan ko'zi Eshimqulg'a tushub.*)

N i y o z a l i. Naga qichinasan, nima qildi, ishingni qil!

E s h i m q u l. Hech narsa, taqsir (*chetga*) juda yaxshi-ku (*qichinur*).

N i y o z a l i (*Qorni ochu yostuq orasini qarab*). Haromzoda, bu yerdagi nonni biri qani?

E s h i m q u l (*qichinub*). Taqsir, ko'rganim yo'q.

N i y o z a l i. Beri kel!

E s h i m q u l. Ko'rganim yo'q, taqsir. (*Qichinib borur.*)

N i y o z a l i. Naga qichinasan? (*Qulog'idan cho'zar, shu chog'da eshikdan qishloqi qiyofasida bir kishi kirur.*)

H a m d a m b o y. Assalomu alaykum!

N i y o z a l i. Vaalaykum assalom! Xush keling!

Hamdamboy. Taqsir, uch-to'rt kundan beri boshim qattig' og'riydi.

E s h i m q u l (*chetga*). Damingizni chiqarmang, maydon ochildi.

N i y o z a l i. Xo'b (*Eshimqul olib kelgan dorudan ikki qog'ozg'a o'rab*), bittasini uyga borib hozir iching, bittasini yotar vaqtda ichasiz.

Hamdamboy. Xo'b, taqsir. (*Aqcha chiqarib berib chiqur*).

E s h i m q u l (*chetga*). Juda yaxshi bo'ldi-da, xudo xohlasa, hozir qo'tur echkidek qichinub keladi.

N i y o z a l i (*bir qog'ozg'a bir narsa o'rab*). Haromzoda, mana bu doruni To'raqulboy bachchaga olib borib ber! Bittasini hozir, bittasini yotur vaqtda ichib yotsun!

E s h i m q u l. Xo'b, taqsir (*chetga*). Yana ish o'ngidan keldi. (*Chiqur.*)

N i y o z a l i (*chetga*). Alhamdulillah, doru jihatidan xo'b tinchidim. Hech kim o'rusning dorusi demaydi. (*Qog'ozlarg'a doru o'rab o'turar.*)

E s h i m q u l (*qichinib kirur.*)

N i y o z a l i. Haromzoda, oborib bermadingmi?!

E s h i m q u l. Taqsir, ko'chaga chiqsam xizmatkori uyiga ketivotgan ekan, undan berib yubordim. (*Qichinur.*)

N i y o z a l i. Bir ishni tuzukkina qilmaysan. Ichaturg'an vaqtlarini kim borib aytadi?

E s h i m q u l. Taqsir, xizmatkoridan hammasini aytib yubordim (*qichinur.*)

N i y o z a l i (*g'azab ila*). Haromzoda iflos, hammomg'a tushsang bo'lmaydimi?

E s h i m q u l (*chetga*). Hoy ahmaq, gap hammomda emas, hozir bilasan.

N i y o z a l i. Haromzoda, doruni yanch! (*Uyga kirib ketur.*)

E s h i m q u l (*hovoncha yanchib, chetga*). Damingizni chiqarmang, ko'chaga chiqib doruni olishdirub xizmatkoridan berib yubordim! Mahmudjon og'ritadurg'on degan edi, rostmi ekan? Sinab boqay-chi. (*Cho'ntagidan qog'oz chiqarib, ichiga qo'lin solib yalab*

birozdan so'ng.) Iyye. Hech narsaning daragi yo'q-ku! (*Qoring'a biroz quloq solib.*) Baraka top, Mahmudjon o'rtoq! (*Xontaxtag'a o'turub.*) Nihoyati bir yalag'onim uchun doruning hammasini ichsa hali-zamon kelib Eshon hakimni objuvozdek dakkam-dukkamga olib do'pposlashini ko'rasiz. (*Shu holda Niyozali kirur.*)

N i y o z a l i (*g'azab ila*). Haromzoda, ko'r bo'lasan-ku!.. Sho'tta o'tirasanmi? (*Qulog'idan cho'zur. Eshimqul og'rinib qornini ushlab bukulur.*) Haromzoda, nima qildi?! Ha-a... mandan so'ramasdan non o'g'urlab yesang shundog' bo'ladi.

E s h i m q u l (*chetga*). Undan emas, ey ahmaq. (*Shu holda qichinub Hamdamboy kirur, Eshimqul kulur.*)

H a m d a m b o y. Taqsir, qanaqa doru bergan edingiz, tamom badanimni g'imirlatib yubordi. (*Qichinur.*)

N i y o z a l i. Qanaqa doru bo'lar edi, bosh og'rig'i dorusi edi. Ha, nima qildi?!

H a m d a m b o y. Nima qildi deysiz!.. (*qichinub.*) Ichgan zamon badanimg'a nina qadalg'ondek bo'ldi.

E s h i m q u l (*chetga*). Juvoldo'z qadaldi desang ham ishonaman...

N i y o z a l i. Ichganingda boshqa bir narsa aralashib ketgandir. (*Shu chog'da To'raqul kirur, qornini ushlagan holda, Niyozali hayron qolur.*)

H a m d a m b o y. Yo'q... Dorungizning o'zini qaynoq choy ila aralashturub ichdim.

T o' r a q u l. Bergan dorungiz qanaqa edi?

N i y o z a l i. Ko'krak og'rig'ining dorusi edi, u dorudan hech qayerda topilmaydi.

T o' r a q u l. Xuddi o'zingiz yuborg'an doruni ichdim. (*Qornini ushlar.*)

H a m d a m b o y. Men ham xuddi o'zingizning dorungizni ichdim.

N i y o z a l i. Ey, ahmaq, yolg'onchi qishloqi!.. (Bir shapaloq urub. To'raqulga.) Ey... san ham ahmaq ekansan!..

T o' r a q u l. (Hamdamga). Ur, ahmaqni... (O'zi boshlab urur.)

E s h i m q u l. Urabering-a, qo'lingdan o'rgulay, boybachcha.

Parda tushar.

UYG'UN (1905—1990)

Atoqli shoir va dramaturg Uyg'un (Rahmatulla Otaqo'ziyev) Qozog'iston Respublikasi Jambul viloyatining Marki qishlog'ida xizmatchi oilasida tavallud topgan. Toshkent pedagogika bilim yurti, Samarqanddagi pedagogika akademiyasida tahsil ko'rgan. O'z ijodini 1920-yillarning o'rtasida shoir sifatida boshlagan. 1952—1954-yillari u O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi sifatida ishlaydi, o'zbek adabiyoti va san'ati oldidagi xizmatlari uchun O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi (1956), O'zbekiston xalq shoiri (1965) unvonlariga sazavor bo'lgan.

Dramaturgiyaga Uyg'un I. Sulton bilan birga yozilgan «Alisher Navoiy» (ilk varianti 1941-yili yaratilgan) dramasi bilan kirib keldi. Asar ustida davomli izlanishlar olib borilib, 1945-yili hozirgi «Milliy akademik drama teatr»da sahnaga qo'yiladi. Mazkur teatr Uyg'unning dramaturglik faoliyatida muhim o'rin tutdi. Uning deyarli barcha dramatik asarlari dastlab shu teatrdan qo'yilgan. Bular «Hayot qo'shig'i» (1947), «Hurriyat» (1958), «Shubha» (1961), «Qotil» (1965), «Parvoz» (1971), «Abu Rayqon Beruniy» (1973), «Abu Ali ibn Sino» (1980), «Zebunniso» (1983) kabi asarlardir. Uning dastlab Muqimiy nomli musiqali teatrdan yaratilgan «Oltin ko'l» (1949) musiqali dramasi uzoq yillar davomida viloyat teatrlari repertuaridan mustahkam o'rin olib keldi.

Uyg'un tarjimachilik sohasida ham samarali faoliyat ko'rsatgan. A. P. Chexovning «Oq charloq» («Chayka»), Shekspirning «Yuliy Sezar» pyesalari Uyg'un tarjimasida kitobxon va tomoshabinlarga taqdim etilgan.

UYG'UN HAQIDA XOTIRALAR **«MALIKUL KALOM»**

Uyg'un dramaturg sifatida yigirmadan ortiq sahna asarlari yaratgan, biz ba'zan hazillashib «Piyrimiz-Shekspiyrimiz» deymiz... O'zbekistonda Uyg'un kitoblari va she'rlari kirmagan bironta xonadon yo'q. 30-yillarda ulug' Alisher Navoiyning «Chor devon»i lotin alifbosida nashr etilishida bosh muharrir bo'lgan. U vaqtda bu katta jasorat va bilim talab etardi. Mir Alisher Navoiyga mensimaslik bilan qaralganda, bu «feodallar adabiyoti» deyilganda Uyg'un keskin fikr aytib, xato qarashlardan adabiyotimizni himoya qilgani yoshi katta qalamkashlarga, olimu muallimlarimizga ma'lum. Bu hali ularning yodidan ko'tarilgan bo'lmasa kerak!

Malikul kalom Uyg'un (uni shunday atardik) ko'p yillar davomida Yozuvchilar uyushmasi rahbariyati va raisi lavozimida xizmat qildi.

*Mirmuhsin, O'zbekiston xalq yozuvchisi. «Malikul kalom»,
«O'zbekiston adabiyoti va san'ati» gazetasi,
1995-yil, 15-dekabr, 48-son.*

«ALISHER NAVOIY» SPEKTAKLINING YARATILISHI HAQIDA

Hozirgi kunda ijodiy hamkorlik, teatr bilan dramaturgning hamkorligi degan tushuncha ostida qanday ma'no borligini bilmayman. Fikrimcha, «ijodiy hamkorlik» bu ikki chinakam mutafakkir kuch, san'atkor bilan adibning haqiqiy teran mazmunli fikrdoshligidir. Aytaylik, Og'a, Yetim aka, Sayfi qori aka, Obid Jalilov kabi yirik san'atkorlarning har biri juda katta

bilimga ega bo'lgan, yuksak tafakkurli olim san'atkor edi. Shuning uchun ham ular bilan suhbatlashgan, bahslashgan, fikrlashgan dramaturg bilardiki, bu suhbat ikki ulkan tafakkurning to'qnashuvidan iborat. Ana shuning uchun dramaturglarda san'atkorlarga nisbatan e'tiqod juda yuksak edi. O'z navbatida, san'atkorlar ham dramaturglarga yuksak ehtirom ko'rsatib, o'z fikrlarini xayrxohona, oshkora va to'la-to'kis bayon qilardi. Ana shu o'zaro ishonch tufayli bu muhokamalar chinakamiga teran hamkorlik tusini olardi.

«Alisher Navoiy» pyesasining yaratilishida ham ana shu chinakam hamkorlik o'z sharofatini ko'rsatdi. Bu xayrli ishning bir qanotida Uyg'un va Izzat Sulton kabi ikki yirik adib, ikkinchi tomonda esa Og'a boshliq ulkan san'atkorlar turardi.

Nazira Aliyeva, O'zbekiston xalq artisti.
«San'at mening hayotim»,
1975-yil, 255-bet.

...«Alisher Navoiy» dramasi ilk bor M. Uyg'un (rejissor N. Aliyeva) tomonidan akademik teatrdan sahnalashtirilgan bo'lib, premyerasi 1945-yil 1 aprelda o'tgan. Bosh rollarni A. Hidoyatov (Navoiy), S. Eshonto'rayeva (Guli), L. Narzullayev, ba'zida Sh. Burhonov, A. Ismatov (Husayn Boyqaro), O. Jalilov (Majdiddin), S. Tabibullayev (Mansur) o'ynaganlar. Asar 1948-yili qayta tiklanadi, bu safar Navoiy roliga O. Xo'jayev chiqadi.

Asar ko'pgina viloyat teatrlarida qo'yilgan, Buyuk shoir obrazini Mashrab Yunusov, Yahyoxon Mamatxonov singari qator san'atkorlar yaratganlar: 1991-yili akademik drama teatrida Turg'un Azizov rejissorligida asarning yangi nusxasi sahna yuzini ko'rdi. Navoiy rolini Z. Muhammadjonov, Yo. Ahmedov va M. Muhammadkarimov (yoshligi), Husayn Boyqaro rolini T. Azizov ijro etganlar.

«Alisher Navoiy» spektakli «O'zbek teatrshunosligi» adabiyotida keng yoritilgan. Uni o'zbek tilini bilmaydigan kishilar ham mamnunlik bilan qabul qilganlar. Shu ma'noda ozarbayjonlik san'atshunos J. Safarov va teatrshunos alloma Ya. Feldmanning taassurot va sharhlari e'tiborli.

Y.MIRZO SHARXI

Eng quvonchlisi shundaki «Alisher Navoiy» spektakli yigirma yil davomida bir necha aktyorlarimiz uchun ijod maktabi, imtixon spektakli xizmatini o'tadi. Bu safar birinchi o'ynalishidan qatnashayotgan Sayfi Olimov (Jomiy) To'g'on Shukurov (shayxulislom), Muhammad Umarxo'jayev (Turdivoy), Sharif Qayumov (Abdulmalik)lar bilan bir qatoorda Ne'mat Qosimov (Xusayn Boyqaro), Rixsi Ibroximova (Guli), To'lqin Tojiyev (Mansur), Turg'un Azizov (usta Jaloliddin) kabi talantli yoshlarimiz katta ansamblga yaxshi qo'shila oldilar.

Bosh qahramon va olti yuzinchi marta xalq nazariga tushayotgan Alisher Navoiy obrazini bu safar Olim Xo'jayev katta kuch sarflab, butun mahoratini jamlab monument obrazini jonlantira oldi.

Bu ulug' siymo obrazi Olim Xo'jayevga kamolot shahodatnomasini tutqazdi, bu obraz unga shuxrat tojini kiygazdi.

Uch soat davomida tomoshabin zo'r iztiroblar, qaynoq tuyg'ular girdobida yashaydi. Adolatning haqsizlik ustidan, poklikni bo'xton istidan, nurning zulmat ustidan, aqlning jaholat ustidan g'alaba qozonishi muqarrarligiga yana bir bor ishonch xosil qiladilar.

"...Gullarga ko'milib ketgan sevimli qahramonimiz (Olim Xo'jayev) qarshisida davrimizning ulkan shoiri G'afur G'ulom chiqib, she'ri, tashakkurini izhor qilganida, zaldagilar nazarida go'yo Navoiy orzulari ushalganligi, uning avlodi baxtiyor kunlarga musharraf bo'lganligini sezib asrlar osha "labbay" o'z farzandlarini olqishlagani kelganday bo'ldi...

*Y. Mirzayev. "Olti yuz marta olqish olgan spektakl".
"O'zbekiston madaniyati" 1966 yil*

«ZAL MISOLI QAYNAB TURDI»

Yomg'urli Bokudan so'ng, meni osmonida quyosh charaqlab turgan Toshkent bag'riga oldi. Men bu go'zal shahar bag'rida O'zbek do'stlarim qalblarining haroratini sezib turardim...

Hamza nomli o'zbek davlat akademik drama teatrida «Hamlet» spektaklini zo'r qiziqish bilan tomosha qildim. Shundan so'ng ana shu mo'tabar teatr sahnasida Uyg'un va Izzat Sultonning «Alisher Navoiy» spektaklini ko'rdim. Bu spektaklning mualliflariga har qancha tahsin va ofarin o'qilsa ozlik qiladi deb o'ylayman. Yaqinda bu spektakl 600 marta o'ynaldi. O'sha kuni tomosha jarayonida o'zbek san'atkorlarining ijodiy muvaffaqiyatlari yana bir bor namoyish qilindi. Bunday emotsional, tarovatli va g'oyatda teran spektakl yaratish har qanday teatrga ham nasib bo'lavermaydi. Men zalda ana shu spektaklni bir necha marta tomosha qilgan kishilarni uchratdim. Ular go'yo birinchi marta ko'rayotgandek zavqlanishardi. Zal misoli qaynab turdi, dengiz yanglig' mavjlandi...

Men ko'pdan buyon bunchalik zavqli spektakl ko'rmagandim. Kishini undagi poetik kuch g'oyat hayratda qoldiradi. Uning g'oyat barkamollik baxsh etishida Alisher Navoiy rolini katta mahorat bilan ijro etgan xalq artisti Olim Xo'jayevning zo'r hissasi bor. U o'z obrazini ulug' shoir va ma'rifatparvar, insonparvar va nozik qalb egasi sifatida talqin etadi, xalqqa bo'lgan mehr-muhabbatini ustalik bilan ifodalaydi. Biz spektakl boshidayoq undagi kuchli ehtirosni sezamiz va beixtiyor sevib qolamiz. Spektakldagi Navoiy dono, oliyjanob va mutafakkir siymodir. U o'z ma'naviy olami bilan davrdagi barcha kishilardan yuksak turgan dahodir.

*Jobir Safarov. «San'at sehri». «O'zbekiston
madaniyati» gazetasi, 1966-y, 1-may, 34-son.*

UCH NAVOIY TA'RIFI

Hidoyatov bu rolni repetitsiya qilib, qiyomiga yetkazayotgan paytda bunday deb yozgan edi: «Bu mening hayotimda juda og'ir ijodiy ish bo'ldi. Yashirmayman, juda og'ir va murakkab rol. Chunki Navoiy obrazi xalqimizning eng sevimli qahramonidir. U haqda qadim zamonlardan beri afsonalar, rivoyatlar, naql-qissalar to'qilgan. Navoiy xalqimizning jon-joniga kirib ketgan...» Chindan ham bu rolni ijro etuvchi artist qalbida pinhoni qo'rquv va ijodiy andisha yashardi. U ko'proq obrazning beixtiyor tashqi qiyofasini ko'rsatishga berilib ketish, she'rlarni deklomatsiya qilib yuborish kabi moyillik vahimasidan cho'chir edi... Artist Navoiyning qalbiga boqdi, ichki dunyosini ko'roldi, fikr-maqсадlarini tushuna

oldi, tuyg'ularni his qildi, idrok etdi. Uning o'yini zamonaviy realistik spektakl prinsiplariga to'la muvofiqdir. Romantik kayfiyat, romantik parvoz hamma vaqt psixologik tiyranlik bilan chamcharchas bog'lanib, bir-birini to'ldirib boradi. Shu sababli Abror Hidoyatovning yaratgan Navoiy obrazi talqinini Romantik-psixologik yechim deb nomlamog'imiz mumkin...

...Olim Xo'jayev shoir va mutafakkir fojiasini o'ynaydi. Ana shu belgi-sifatlar orqali biz Navoiy shaxsining juda ham boy qirralarini ko'rib olishga muyassar bo'lamiz. Shu sababli bu aktyor talqinini Lirik-poetik yoki Lirik-falsafiy yechim deb aytmog'imiz mumkin...

Abror va Olim akalar yaratgan obraz yashayotgan vaqtda O'zbekiston xalq artisti Razzoq Hamroyevning ijodiy politrasi jahonga mashhur bo'lgan yana bir Alisher Navoiy obrazi bizni quvontirdi. Bu O'zbekiston xalq artisti Razzoq Hamroyevning ijodiy politrasidan shakllangan ekran obrazi bo'ldi. 1947-yilda ekranga chiqqan rejissor Komil Yormatovning «Alisher Navoiy» filmida obraz taraqqiyoti asta-sekin ochila boradi. Hamroyev ijrochiligidagi kuchli tomon shundan iboratki, u Navoiyning ruhiy olamini boyitadi, xarakterini kamol toptiradi. Yoshlik g'ururini donishmandlik, ishonch va sabru toqat egallay boshlaydi. Bu kartinani kim ko'rgan bo'lsa, artistning ifodali boqishlarini, qalb sho'lasidan ravshan yongan issiq yolqinli ziyoni xotirlaydi. U qarashlarda Navoiy hayotining nozik tomonlarigacha namoyon bo'ladi...

*Yakov Feldman, san'atshunoslik fanlari nomzodi,
«Olti Alisher Navoiy». «O'zbekiston madaniyati»
gazetasi, 1866-yil, 9-fevral.*

ALISHER NAVOIY

Birinchi parda, birinchi ko'rinishdan parcha

N a v o i y. Ko'zimning nuri kel, toza Gulim kel!

Ko'ngul bog'ida sayroq bulbulim kel!

G u l i. Ko'rib gulzor ichida sizni yolg'iz

So'roqsiz, indamay, men behayo qiz,

Kechirgaysiz, kelishga jur'at etdim,

N a v o i y. Ko'ngil armoni kel! Maqsadga yetdim.

Nechuk bezovtasan! Barvaqt turibsan?

G u l i. Sahar chog'i turib, shirin g'azaldin

Eshitmak odatim bo'lgan azaldin.

N a v o i y. Quloq soldingmi?

G u l i. Yolg'iz men emas, gul.

Samo, yer, koinot, oftoda bulbul —

Butun jonlik va jonsiz tingladi jim

G'azaldan bu kabi zavq olmagan kim?

G'azalkim, so'zlagay mehru vafodin.

G'azalkim, so'zlagay ishqdin, safodin.

G'azaldin, bu kabi zavq olmagan kim?

N a v o i y. Ko'ngil ilhomchisi sensan, azizim.
 Bularning barchasi senga bitilgon.
 G u l i. Xudo bilsin, so'zingiz, balki yolg'on.
 N a v o i y. Nechuk? Xo'sh?
 G u l i. So'nggi chog'da kamnomasiz.
 G'arib, bechora men — yer, siz — samosiz.
 N a v o i y. Yoningda bo'lmoq orzum erta-yu kech.
 Faqat, naylay, ilojin topmadim hech,
 Ariq qazmoqdamiz, cho'llarda ish ko'p.
 Rabot, u madrasa, yo'llarda ish ko'p.
 Yumush, der, yerdagi har zarra tuproq,
 Yumush, der, bog'dagi har toza tuproq.
 G u l i. Kimiki bo'lsa inson, bo'lsa odam
 Haloyiqning g'amin yeydur damo-dam.
 N a v o i y. Vafodorim, shuning-chun kamnomaman.
 Olur vaqtimni bu ishlar tamoman.
 G u l i. Alisher! Chindanam shersiz. Buyuk sher!
 Ulug' ishlarni qilmoq istagan er.
 Bo'lur sherday jasur, qaytmas izidan,
 Qilich kelganda ham qaytmas so'zidan.
 Faqat ko'pdur, esiz, ko'p dushmaningiz.
 N a v o i y. Yengur zulmatni nur, albatta, shaksiz.
 G u l i. Biroq, hozircha zulmatning kuchi ko'p,
 Haqiqat nurini so'ndirguvchi ko'p.
 Kecha ko'rgan edim, men bir yomon tush.
 U tushni eslasam boshdan uchar xush...
 N a v o i y. Nechuk tush?
 G u l i. So'rmangiz.
 N a v o i y. So'zla, azizim!
 G u l i. Tilim bormaydi hech, qalbim to'la bim...
 Yotibsiz yerda siz, qo'l-bo'yin bog'liq
 Va sizni qurshamish bir to'p pichog'liq.
 Yozib, men sochlarimni yig'lar erdim.
 Jafo tig'i-la bag'rim tig'lar erdim.
 Cho'chib uyg'ondimu, bildim banogoh
 Tush erkan. Shul mahaldin nola-yu oh.
 Ezar bag'rimni qattiq, o'rtanur dil,
 Misoli o'tga tushkan bir uziq qil...

Navoiy Gulining so'zlaridan qattiq ta'sirlanadi. Ammo ta'sirlanganini yashirishga
 tirishib, Gulini ovuta boshlaydi.

N a v o i y. Gulim, behudaga bezovta bo'lma,
 O'zingni qiynama, g'amlarga to'lma.
 Dadil bo'lsang vahmning rangi so'lg'ay,
 Ishon, odatda tushning aksi bo'lg'ay.

Meni shersiz deding, yovlar quyondur,
Quyonlarning ishi senga ayondur.
G u l i. Durust, shersiz... faqat... zanjirband sher...
N a v o i y (g'oyat ta'sirlanib og'ir)
Ajab, zanjirband, sher-yengaman, der.
G u l i. Esiz, men sizni ranjitdim...
N a v o i y. Yo'q, aslo!
G u l i. Jahannam o'tlari qarshimda paydo.
Ko'ngulda borini aytdim, nechora.
Yashirsam, aytmasam dil pora-pora...
N a v o i y. Yetar, bas! Chekma g'am! Ko'nglingni shod et!
Sevishgan, baxtiyor kunlarni yod et!
Meni devonani zanjirband qil,
Qaro zulfingni bo'ynimga kamand qil.
Visoli oshiq uchun kundur u, tonggi.
Jafokash ayriliq tundur qorong'i.
G u l i. Meni tun qo'ynida qoldirmang aslo,
G'ami hijron ila toldirmang aslo.
N a v o i y. Qilib, to'y, so'ng bo'lurmiz birga doim,
Seni ko'p ko'rmasin menga xudoyim.
Meni devona qilgan nozanin hur,
Malak siymo, parivash, ko'zlari nur,
Yuzi gul, la'li xandon, tishlari dur,
Nasib etsin xudoyim menga...

Uchinchi parda, oltinchi ko'rinishdan

Navoiyning hovlisi...

N a v o i y. Salom, do'stlar!
J o m i y. Alisher!
N a v o i y. Salom, ustod!
A b u l m a l i k. Pirim! (*Ko'rishadilar.*)

Jomiy yoshini artadi. Fotiha o'qiladi.

N a v o i y. Azizlar, sizlarni sog'intirib qo'yganim uchun uzr so'rayman! Ammo ayb menda emas. Shahanshoh orqamdan maktub qo'ndirib, Balhda uzoqroq turib adolat o'rnatishimni, so'ngra mamlakatimizning boshqa shaharlariga ham o'tib kelmog'imni iltimos qilgan edilar. Balhdin Mashhadga, undan bo'lak shaharlarga o'tdim. Qishloqlarda bo'ldim. O, qanday mehnatsevar xalqimiz bor, faqat yo'llarda ko'zga tashlanuvchi qovjiragan dalalar, qaqragan qishloqlar ko'ngillarni g'amgin qiladi... Qishloq ahllariga ariqlar chiqarib, xalqni suvga ma'mur qilmoqchi bo'lganimizni aytdim. Ko'zlari sevinch yoshlariga to'ldi, haqqimga duo qildilar. Pirim, shu sof ko'z yoshlar hurmati, ariq qazish

ishlarini kuchaytiramiz. Hozir barcha imkoniyat mavjud. Mamlakat tinchidi, shohni zulm yo'liga boshlamoqchi bo'lgan fitnachi o'rgimchak yanchildi. (*Hamma jim.*) Nechun jimsiz? Tashvishli ko'rinasiz?

J o m i y (*og'ir*). Alisher, baxtga qarshi hali o'rgimchak hayot.

N a v o i y. Nechuk? Majiddin hayotmi? Shoh ko'z oldimda jallodga buyurgan edi-ku!

J o m i y. Makr-hiyla qarshisida shohlar ham bo'yin egadi, Alisher.

N a v o i y (*hayajonda*). Darvish Ali qayerda?

J o m i y. Zindonda.

Navoiy fojiani anglay boshlaydi. Uning yuzlarini g'azab va g'amginlik qoplaydi.
Og'ir jimlik.

N a v o i y. Makr-hiyla... Aldash... Yashashning naqadar yaramas usullari. Makr-hiyla ojizlarga qurol, olchoqlarga qalqon, yuzsizlikning niqobi! (*Pauza.*)

Niqobi igna sanchar yorlardin,

Munofiq qalbaki dildorlardin,

Yashirmay nayza sanchar yovlar ortiq!..

Emish xo'rlik, haqorat, hiyla tortiq

Sadoqatlar bilan qilgan ishimga,

Zarur deb, ezgu deb bilgan ishimga.

S o h i b d o r o. Hayosiz bilmagay hech vaqt vafoni,

Vafoga almashur shohlar jafoni!

N a v o i y. Qo'ying, mayli, alar bilguncha qilsun!

Zulm chahmoqlari, mayli chaqilsun,

Yovuzlik dengizi, mayli qutursun,

Hasad to'lqunlari qirg'oqqa ursun,

Muqarrar, oqibat bizningcha bo'lg'ay.

Adolat nurlari olamga to'lg'ay.

Pauza

Uyg'unning akademik teatrda qo'yilib (1966-yil, rejissor Sh. Qayumov), so'ng deyarli barcha viloyat teatrlari repertuaridan o'rin olgan «Parvona» komediyasi o'zining tarbiyaviy qimmatini va ayni zamonda xushchaqchaqligi bilan tomoshabinlar orasida alohida e'tibor topdi. Unda kurortga borib, O'tkuriy bilan tanishib, so'ng turmushga chiqqan Nazokatning afsus-nad

omatlari va O'tkuriyning lo'ttibozliklari hajv ostiga olingan.

Quyida O'tkuriy rolini o'ynagan O'zbekiston xalq artisti Obid Yunusovning xotirasi va pye-

sadan lavha berildi.

Bahoni avvalo xalq beradi. Yaratgan obrazlarim esa menga farzanddek gap. Ba'zi xotiralar bilan bo'lishishim mumkin. 1966-yilda «Parvona» spektakli premyerasini Farg'ona vodiysi bo'ylab o'n to'rt marta qo'yganmiz. Toshkentda birinchi qo'yilishi ham katta voqea bo'lgan. Spektakldan so'ng otam (Yunus Rajabiy — S. T.) yelkamga ikki marta qattiq qisib: «Balli o'g'lim, balli, faqat Jo'ra akangga (Jo'ra Tojiyev Abror rolida) aytib

qo'ygin: «haromi» degan so'zni ishlatmasin, xo'pmi?» deganlari qulog'im ostidan ketmaydi. Shuni ta'kidlab qo'yay, Toshxo'ja Xo'jayev juda mohir rejissor edi. Voqeani tushuntirsa bas, o'ynab ketaverar edik, «Parvona»ni haqiqiy spektakl qilgan ham mana shu insondir. Shu yerda takrorlagim keladi. Men komik aktyor emasman, dramatik, tragik rollar qalbimga yaqinroq.

Gulnora Muhammadiyorovanning san'atkor bilan suhbat.

«Teatr» jurnali, 2002-yil, 4-son.

PARVONA

Birinchi pardadan parcha

N a z o k a t. Bir kun kech payt dengiz sohilini yolg'iz aylanib yurgan edim, qarshimdan chiqib qoldi. Ko'zim ko'ziga tushdi-yu, yuragim birdan jig' etib ketdi. Shoshganimdan o'zimni yo'qotdim, nima qilishimni bilmay, beixtiyor qizarib iljaydim. U ham kuldi. «Tanishaylik, yaxshi qiz... Yolg'izga o'xshaysiz... Musofirchilik yomon... Kishi zerikadi», dedi-yu tanishdik. O'shandan keyin har kun uchrashadigan bo'ldik. Bora-bora unga maftun bo'lib qoldim. Yursam, xayolimda, tursam o'yimda, kechalari tushimga kiradigan bo'ldi. Va'dalashgan vaqtdan biror soat kechiksa, jonim halqumimga kelib, iztirobga tushadigan bo'lib qoldim. Odobli, suhbat shirin, dilkash... Xushchaqchaq.

Yu l d u z (*kulib*). Jigardan urgani aniqqa o'xshaydi.

N a z o k a t. Aniq! Goh dengiz sohilini kezib, goh qirg'oqda o'tirib, kumush to'lqinlarning raqsini tomosha qilib, shundoq shirin suhbat boshlardi, ajoyib g'azallar, she'rlar o'qirdiki, simob bo'lib erib ketardim.

Yu l d u z. Shoirligi ham bormi?

N a z o k a t. Ham shoir, ham olim.

Yu l d u z. Murodjon yodingizga tushmadimi?

N a z o k a t. Tushdi. O'yladim. Ko'p o'yladim. Boshda, unashib qo'yilgan yigitim bor, meni tinch qo'ying, demoqchi bo'ldim, ammo deyo'lmadim. So'zini tinglasam sehlranib, ko'ziga boqsam ixtiyorimni oldirib qo'yardim.

Yu l d u z. Nima balo, ko'zida mehrgiyosi bor ekanmi?

N a z o k a t. Ha! Mehrgiyosi bor.

Yu l d u z. Sevgisini izhor qildimi?

N a z o k a t. Necha marta! Qasamyod qilib aytdi. Axtarganimni endi topdim, endi sizsiz menga baxt ham, hayot ham yo'q, dedi...

A d o l a t. To'g'ri, sevib tegish kerak. Ko'ngilning xohishiga rioya qilish lozim. Ammo shu bilan birga sinash, sevgan kishingning ahdu e'tiqodi, xulqu atvorini aniq bilish ham zarur. Quruq ko'ngilning xohishiga bo'ysunib bir ko'rishda, bir marta kinoga birga borishda yoki istirohat bog'ida bir marta tansa tushish bilan oshiqi beqaror bo'lib, surishtirmasdan darrov turmush qurganlar, keyin o'tdek kuyib, bir oy o'tmasdan qon yig'lab ajralishganlar ko'p.

N a z o k a t. Ular xirsu havas bandalari. Men sevgi haqida gapirayotibman. Nima, mening sevgimga shubhangiz bormi?

A d o l a t. Senikiga shubham yo'q. Ammo uniki qandoq, bilmayman! Chunki u menga notanish odam!

N a z o k a t. Mening sevgimga qandoq ishonsangiz, uning sevgisiga ham shundoq ishoning. Uzoq sudralgan, surishtirish natijasida maydonga kelgan muhabbat muhabbat emas, bir ko'rishdayoq jazillagan, qalbga otash tashlagan, qonlarga larza solgan muhabbatgina muhabbat! Uni kovlab, paysalga solib, sovitib yurish kerak emas.

A d o l a t. Bilasanmi, parvona gul deb o'zini chiroqqa urarmish-u, kuyib halok bo'larmish. Parvonaga o'xshama, deymen!

N a z o k a t. Yo'q, o'sha parvonaniki to'g'ri. Agar haqiqiy oshiq bo'lsang, yona bilishing kerak!

A d o l a t. Men parvonaning ishq yo'lida qurbon bo'lishini emas, balki aldanishi, nohaq va noo'rin bo'lishi haqida gapiryapman. Men baxtli bo'lishingni istayman...

Uchinchi pardadan parcha

N a z o k a t. U kuni tasodifan uchrashib qoluvdik.

O' t k i r. Tasodifan ham uchrashmang! Sizni deb yor-u birodarlarimdan ayrildim, deganda Murodni ko'zda tutasizmi?

N a z o k a t. Faqat ugina emas...

O' t k i r. Agar pushaymon bo'lsangiz...

N a z o k a t (*shoshib*). Pushaymon emasman!

O' t k i r. Agar pushaymon bo'lsangiz hali ham borib undan uzr so'rashingiz, bo'yniga osilishingiz mumkin! Faqat...

N a z o k a t (*iltijo bilan*). Pushaymon emasman, deyapman-ku!

O' t k i r (*quloq solmay*). Faqat, u uzringizni qabul qilarmikin? Xushtordan xushtorga, erdan erga ko'chib yuradigan beqaror sharmanda kimga kerak, demaydimi? Siz endi Murod uchun yerda yotgan po'choq, sovigan osh, it tekkan qovunsiz!

N a z o k a t. Oh, bunaqa haqoratlar, bunaqa azoblardan ko'ra o'ldirib qo'ya qolganingiz yaxshi emasmi? (*Yig'laydi.*)

O' t k i r (*parvo qilmay*). Meni deb qavmi qarindoshdan ayrilgan emish! Tavba! Yo'q, siz emas, sizni deb qavm qarindoshdan judo bo'lgan men bo'laman! Sizning qarindoshlaringiz eshikdan haydasa, teshikdan kiradigan kalamushlar shu yerda, shu shaharda! Menikilar esa uzoqda, yuz ko'rmas bo'lib qoldilar.

N a z o k a t. Opam sho'rlikni uydan haydadik.

O' t k i r. O'zi ketdi!

N a z o k a t. Ketishga majbur qildik... Akam esa ko'chadan eshik ochib oldi.

O' t k i r. Baribir chiqib turibdi-ku!

N a z o k a t. Ahyon-ahyonda... qo'rqa-pisa... xuddi begonalardek.

O' t k i r. Ha, bo'lmasa men ketay. Qavmi qarindoshingiz, yor-u birodarlaringiz bilan qorong'ida topishing, qo'shmozor bo'ling!

N a z o k a t. Bo'lar-bo'lmasga ketaman deysiz, ketaman deb qo'rqitasiz...

O' t k i r. Qandoq qilay, gapimga kirmasangiz, so'zlarimga tushunmasangiz! Sizdaqa miyasi aynigan, betayin, hardamxayol ovsar, noshud ayolni birinchi ko'rishim!

N a z o k a t (*g'amgin*). Ha, har narsa deyishingiz mumkin. Ayb o'zimda... Tilim qisiq... Dardim ichimda. Hech kimga dod deyolmayman. Sezayapman, bundan keyin, borgan sari, ko'zingizga xunuk ko'rinaveradiganga o'xshayman... Nazarimda, toshqinga, selga tushib qoldim... Qachon borib, qayerga, qaysi toshga uradi, bilmayman...

Uyg'un, Asarlar. 3—4-tomlar. G'afur G'ulom
nomidagi Adabiyot va san'at
nashriyoti, 1977-yil.

SOBIR ABDULLA

(1905—1972)

Atoqli shoir va dramaturg Sobir Abdulla Qo'qon shahrida xizmatchi oilasida tug'ilgan. Eski va yangi maktablarda tahsil ko'rgan, mehnat faoliyatini 1925-yili «Yangi Farg'ona» gazetasida jurnalist sifatida boshlagan. Uning «Muxbirga hujum» degan birinchi pyesasi va ilk she'rlari shu gazetada bosilib chiqqan.

Sobir Abdullaning dramaturglik faoliyati 1931—1936-yillari Andijon viloyat musiqali drama va komediya teatrida adabiy emakdosh sifatida ishlagan davrda avj ola boshlaydi. Shu yerda u bastakor To'xtasin Jalilov bilan ijodiy hamkorlik qiladi va bu hamkorlik dramaturgning butun ijodiy faoliyati davomida yangi-yangi asarlar yaratilishiga sabab bo'ladi.

Sobir Abdulla Andijon teatridan so'ng Toshkentda O'zbek davlat filarmoniyasi, Muqimiy nomli musiqali teatrdagi adabiy emakdosh, gazeta jurnallarda jurnalist sifatida ishlaydi.

Sobir Abdulla o'n beshdan ortiq pyesa yaratgan: «Bog'bon qiz» (1930), «Qashqar tutquni» — «Oyxon» (1934), «Tohir va Zuhra» (1939), «Mard oila» (1941), «Qurbon Umarov» (1941, Chustiy bilan hamkorlikda), «Davron ota» (1942, K.Yashin bilan birgalikda), «Orzu» (1949), «Alpomish» (1949), «Muqimiy» (1953), «Gul va Navro'z» (1966), «Iste'dod» kabi musiqali dramalar shular jumlasidandir. Ayniqsa, T. Jalilov musiqasi bilan dunyoga chiqqan «Tohir va Zuhra», «Alpomish», «Muqimiy» va «Gul va Navro'z» asarlari musiqali drama janrining yetuk namunalari bo'lib, o'n yillar davomida o'zbek teatri sahnasini bezab keldi. Sobir Abdulla o'zbek teatrida rivojlantirishdagi xizmatlari uchun O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi unvoni bilan taqdirlangan.

Sobir Abdullaning «Tohir va Zuhra», «Alpomish» va «Gul va Navro'z» musiqali dramalari (T. Jalilov musiqasi bilan) musiqali drama rejissorlari va aktyorlari ijodiy kamolotida alohida bosqichga aylangan.

Sobir Abdulla qahramonlari shoirona tabiati, oddiy va samimiyligi, ayni paytda o'z yo'lida qat'iy turishi, oromsizligi, taqdirlarining murakkabligi, musiqiy jihatdan yuqori ovoz pardalarida aytishga qulayligi bilan aktyor va rejissorlarni o'ziga maftun etib olgan edi. Tohir va Zuhra, Alpomish va Barchin, Gul va Navro'z poytaxt teatrlari aktyorlari qatori Mukarrama Azizova, Muhiddin Mansurov, Habiba Oxunova (Namangan), Mashrab Yunusov, Aysar Ibrohimov, Qamara Burnasheva, Aziza Aminova, Ma'rifat Ubaydullayeva (Andijon), Jalolxon Oxunov, Hafiza Ibrohimova, Murodjon Ahmedov (Farg'ona), Vahobjon Fayozov, Sultonposhsha Rahimova (Xorazm) va boshqa o'nlab yuqori ovozli san'atkorlar talqinida o'n yillar davomida tomoshabinlarni o'ziga rom etib, sevgi-sadoqat tuyg'ularini tarannum etib keldi.

«Tohir va Zuhra» birinchi bor 1939-yili Farg'ona (rejissor Mamadali Haydarov), 1941-yili esa Muqimiy nomidagi respublika musiqali teatr (rejissor A. Azimov)larda sahnalashtirilgan. 1945-yili rejissor Nabi G'aniyev tomonidan yaratilgan «Tohir va Zuhra» badiiy filmi dunyo ekranlarini aylanib chiqdi.

SOBIR ABDULLA ASARLARINING SAHNAVIY

TALQINLARI HAQIDA

Sobir Abdulla asarlarining ilk va namunali sahnaviy talqinlari Muqimiy nomli musiqali teatr bilan bog'liq. «Tohir va Zuhra», masalan, bir necha bo'g'in san'atkorlar kamolotida badiiy dasturulamal bo'lib xizmat qildi. Uning ilk talqinida M. Uzoqov, J. Sultonov, J. G'iyosov, M. Yunusov (Tohir), T. Ja'farova, Sh. Rahimova, keyinroq E. Jalilova, F. Rahmatova(Zuhra), R. Boltayev (Boboxon), A. Ismatov (Qora Botir), Q. Ahmedov (Sardor) kabi aktyorlar ishtirok etgan edilar.

ZUHRA ROLI TA'RIFI

T. Ja'farova va Sh. Rahimova Zuhra timsolida ajib uyg'unlik bunyod etgan edilar. Agar T. Ja'farova o'z qahramonida dadillik, jur'atkorlik alomatlarini ustuvor tarzda namoyon etgan bo'lsa, Sh. Rahimova diqqat-e'tiborini uning ruhiy olamiga, nozik dil og'riqlariga qaratgan edi. Rahimovanning nozik ko'ngil Zuhra Tohir boshiga yopirilib kelayotgan balo-qazodan larzaga tushgan holatda daryo yoqasiga yaqinlashadi. Yalinish va iltijolar Boboxon ko'nglini yumshatolmasligini u biladi, bo'lar-bo'lmasga qat'iyati sinadigan, g'animlarini kechiradigan otalardan emas. Holdan toygan, najotsiz Zuhra — Rahimova otasi poyiga o'zini tashlaydi, bu yashashlikdan nafi yo'q bir qizning misoli so'nggi talpinishi edi.

«Suv kelar», «Ayirganlar» ariyalari Sh. Rahimova ijrosida qahramon dard-alamlarini ajib shoirona ifodasiga aylangan edi.

Marfua Hamidova. «O'zbek musiqali dramasi aktyorlik san'ati» (rus tilida). «Fan» nashriyoti, 1987-yil, 77—78-betlar.

...Tursunxon Ja'farovanning eslashicha, u Namangan teatrida Zuhrani faqat malika, Boboxonning yolg'iz farzandi, Tohirni jon-dilidan sevgan qiz va bu pok muhabbati yo'lida qurbon bo'lgan ma'shuqa sifatida ko'rsatgan edi. Muqimiy nomli teatr rejissori Abduvahob Azimov esa, spektaklni faqat pok sevgi fojiasi emas, balki ijtimoiy tengsizlik hukmron bo'lgan davrdagi kishilar fojiasi sifatida talqin qiladi... Daryo qirg'og'i... Tohirning daryoga oqizilishini eshitgan xalq bu yerga to'plangan. G'ala-g'ovur. Shu payt motam libosidagi Zuhra — Ja'farova otasi Boboxon oyog'iga yiqilib, ko'zida yosh, qalbida alam bilan uni insofga chaqiradi. Yalinib-yolvorib, xonning etaklarini o'pib, o'ziga Tohirdan bo'lak yor munosib emasligini uqdirmoqchi bo'ladi. Xon — A. Boltayevning keskin rad javobi, istexzoli sovuq kulgisi Zuhra — Ja'farovani biroz xushiga keltiradi... U Tohir tomon intiladi... O'zini daryoga tashlamoqchi bo'lganda soqchilar yo'lini to'sadi. Shu onda Zuhra «Ayirganlar» radifli ariyasi T. Ja'farova ijrosida chuqur drammatizm bilan yangraydi. Ariyaning birinchi qismidagi g'amgin sadolar asta-sekin boshqacha, isyonkorlik ohanglari bilan almashiladi. Aktrisa ariyaning birinchi qismida Zuhra cheksiz qayg'usini, iztirobini ifodalasa, keyingi qismida uning kuchli irodasini, pok muhabbatini himoya qilishga qodir qiz sifatida gavdalantiradi.

Salomat Abdullayeva. «Tursunxon Ja'farova». G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1974-y, 27—28-betlar.

R.HAMROYEV MUQIMIY ROLI HAQIDA M.ISROILOV SHARXI

Razzoq Hamroyev monolog, g'azal o'qishning ustasi bo'lgan. U kishining talaffuzi toza bo'lib, so'zlarni aniq, ravon, jarangli ovoz bilan aytganlar. Muqimiyning sevgilisi Obidaxon obrazi esa O'zbekiston xalq artisti E'tibor Jalilovanning extirosli ijrosi tufayli o'ziga xos joziba kasb etgandi.

Muqimiy – R. Hamroyev ichki monologni o'qishdan oldin qattiq iztirobli sahnalarni boshidan kechiradi. U aslzoda shoir xoji Muxsinning shum niyatini tushinib yetadi. Muxsinning maqsadi – dodhoga laganbardorlik qilib, uni Obidaxonga uylantirish va shu yo'l bilan Muqimiydan o'ch olish.

Obidaxon faryodi Hamroyev – Muqimiyning ko'nglini vayron etib yuboradi. U qattiq iztirobda Obidaxonga yaqinlashadi, uni yupatmoqchi bo'ladi.

Azizim, yig'lamang, to men hayotmen,
Judo qilmoqchi bo'lganlarga yotmen.

Muqimiy – Hamroyev Obidaxon – Jalilovanning ko'zlariga tikiladi, uning qalbida kechayotgan og'ir dramani chuqur idrok etadi, uni qiynoq o'tiga solgan Muxsinga, dodhoga bo'lgan nafrati yanada alanga oladi. Muqimiyning qarori qat'iy – “to tirik ekanmen meni sizdan hech kim judo qilmaydi” deydi. Psixologik jimlik jarayonida– Muqimiy kulis tomonga ikki-uch qadam tashlaydi. Ko'z oldida Muxsin, dodho paydo bo'ladi, ularga nisbatan g'azabnok ko'zlaridan o't chaqnaydi, shundan keyin “judo qilmoqchi bo'lganlarga yotmen” so'zini ikkala qo'lini musht qilib g'azab bilan aytadi. Muqimiyning ushbu so'zlaridan Obidaxon – E. Jalilova qattiq hayajonga tushadi. Muqimiydek himoyachisi borligi uning qalbini to'lqinlantiradi.

Muqimiy – Hamroyev Obidaxonga kelajakda g'amlari unut bo'lib, orzulari ushalishiga umid bog'laydi. Obidaxon Muqimiyning ushbu niyatlari amalga oshishini chin ko'ngildan istaydi. Obidaxon – E. Jalilova ko'zlari jiqqa yoshga to'ladi. Obidaxonning ichki tug'yoni, dard-alami, ko'z yoshlari Hamroyev – Muqimiyning qiynoq o'tiga tashlaydi.

Men R. Hamroyev bilan uzoq yillar davomida birga ijod qildim “Muqimiy” musiqali dramasida shoir Zavqiy obrazini yaratdim, shuning uchun ham ulug' aktyorning Muqimiy obrazi ustida astoydil qunt bilan mehnat qilganligining, ijodiy izlanishlarining guvohi bo'lganman.

Mahkam Isroilov, professor. Razzoq Hamroyev Muqimiy siymosida “Teatr” jurnali 2003 y. 6-son.

MAHMUDJON G'OFUROV TOHIR ROLIDA

«Tohirni birinchi bo'lib o'ynamadi, «Men-men» degan ashulachilardan keyin uchinchi bo'lib o'ynadi. Xalq Tohir deb Mahmudjonni tanidi. Mahmudjon baquvvat ovozi bor ashulachigina emas, maktab ko'rgan aktyor, artist, sahna yarashadigan o'ktam yigit, sahna uchun tug'ilgan, xalqning baxti» (Halima Nosirova).

1941-yili teatr O'zbekiston davlat musiqali drama va komediya teatri sifatida qayta tashkil etilib, postanovkaga yangi original «Tohir va Zuhra» musiqali ertak-dostoni olinadi.

Tohir rolini birinchi bo'lib S. G'iyosov va M. Yunusov ijro etgan bu spektaklda M. G'ofurov Tohirning o'rtog'i Qodir rolini o'ynar edi. Oradan ko'p vaqt o'tmay bu rol Mahmudjon G'ofurovga topshiriladi va u chin Tohir sifatida xalq orasida shuhrat topadi, ayniqsa, yoshlarning ruhiga chuqur kira boshlaydi. Urush davrining og'ir sharoitiga qaramay, Mahmudjon G'ofurov ijrosidagi Tohir obrazini tomosha qilish har bir yigit-qiz uchun faxr va ko'rolmaganlar uchun armon edi. Mazkur satrlarning muallifi ham o'sha davr yigit-qizlarining ketidan teatrning eshigigacha ergashib borgan, artistning kelajakdagi muxlisi sifatida hodisalarga guvoh.

«Tohir va Zuhra» ertak-dostoni ijrochilari, jumladan, Mahmudjon G'ofurov talqini dovrug'ining sabablarini aniqlar ekanmiz, uning ildizi xalqning madaniy va ma'naviy ehtiyojining o'ziga xos alomatlariga borib taqalganiga shohid bo'lamiz. Zero, bu ehtiyojda dostonchilik — ko'tarinki poklik, odamiylik, muhabbat va sadoqat mayli kuchli seziladi.

Toshpo'lat Tursunov. «Shuhratli oshiq qahramon».
«San'at» jurnali, 1990-yil, 2-son.

TOHIR VA ZUHRA (Ikkinchi pardadan parcha)

Z u h r a — Nima bo'ldi...Xo'sh, ustoz...

Yoki biror tashvish bormi.

N o z i m — Bor...Bor oz...

Z u h r a — Ulug' ustoz, bo'lsa agar bemalol

Ayting, qanday voqealar yuz berdi.

Yo Tohirga biror zahmat yetdimi...

Yo...yo...

N o z i m — Tohir omon, hech bir shikast yetgan yo'q.

Yo bosh olib, biror yerga ketgan yo'q.

Himoyasiz... Lekin bu, sendan lozim.

Tushungandirsan...

Z u h r a — Tushundim, ustozim.

Ayting ustoz, sirni mendan yashirmang,

To'lib, toshgan qayg'um battar toshirmang.

Tohir qalay...

N o z i m — Adolatdan dars oldi,

Elin yoqlab, u, amalda qo'zg'aldi,

G'azab oshdi, to'lqinlandi hayajon

Tohir bunday bo'lmagandir hech qachon.

Zuhra barmog'ini tishlab, xayolga botadi, uzoqlarga ko'z yugurtiradi
so'zsizlikdan keyin Nozim davom etadi.

Umidim shu, Tohirni sen saqlaysan,

Shuncha bergan tarbiyamni oqlaysan.

Shu yo'l bilan sinalar sof muhabbat.

Z u h r a — Tohirjon bor — men bor bunda...

N o z i m — Ko'p rahmat.

Himoyangga olib Tohirni,
Kechikmasdan, xonga bir xat yoz,
Yozganda ham qattiqroq tur.
Z u h r a — Xo'p, ustoz.

Nozim tisarilib, bog'dan chiqqa boshlaydi. Zuhra Nozimni kuzatib,
shiyponda xat yoza boshlaydi.

«Jon ota, so'rovim shu: Tohirim himoya qiling,
Ikkimiz muhabbatimiz xo'rlamang rioya qiling.
Ajratishni qasd qilib, kirsiz sizga shum Botir:
Ajratishga hech imkon yo'qligin hikoya qiling.
Qilsangiz undan judo — Zuhraning hayoti tamom
Shafqat-u muruvvatdan boshimizga soya qiling».
Ariya

Tongda, e bulbul, judolik sirrini ovoza qil,
Zulmdan so'z och, tikanlardan shikoyat toza qil,
Bu yurak-bag'rimga qonli g'unchani andoza qil,
Gulga arzingni, uning bargiga yoza-yoza qil,
Ishq tangriga ko'nglim torini sheroza qil.
Yor agar kelsa qorong'i qishlarim yoz etgali,
Ko'rsatib yuz, bu hazin ko'nglim sarafroz etgali,
Ko'rsatib qaddin, bukulgan qomatim g'oz etgali
Dastalan gullar, bezan yo'lga poyondoz etgali,
Bog'bon, tur uyqudan, gul shoxidan darvoza qil.
Tongda, e bulbul, judolik sirrini ovoza qil.

Qamar shoshib kirib, salom beradi.

Q a m a r — Tohir aka kelmoqdalar, malikam...
Z u h r a — Hamma qizlar peshvoziga bo'lsin jam.
Tohirjonning qadri jonimdan qimmat,
Kutib oling ham ko'rsating ko'p hurmat!

Qamar chiqadi, qizlar yo'l ustiga tizila boshlaydilar.

Q i z l a r x o r i: —Xush kelibsiz, g'uncha bag'ri qon-u gulzor
intizor,
Savti shahnoz o'rgilib, yo'l uzra gulyor intizor.
Q a m a r — Gul tabassum qilmadi, sizsiz bu lablar kulmadi.
Q i z l a r x o r i — Keng chaman har doimo Zuhram uchun tor,
intizor.

Tohir kiradi.

T o h i r (ruboi) — Har qachon ham, iltifotingga sazovor o'lmisham,

Shul sababdan naqd jon ila xaridor o'lmisham.
Ko'rsatib adl-u muruvvat begunoh bir nechaga,
Taxt-u toj oldida andoqkim, gunohkor o'lmisham.
Tohirim kelmaydi deb, qahr etma, e jon Zuhrajon,
Bir guruh dardli, alamlarga men yor o'lmisham.

Q i z l a r x o r i — Kelmading gul sayriga, o'zni nigoron etdi gul,
Betomoshabin qolib, o'z bag'rini qon etdi gul.
E chamanning bulbuli, gulshanga kir, gul sayriga,
Zeb berib, orolanib, husnini chandon etdi gul.

T o h i r — E tasanno, bog' aro orolanibsiz muncha ham,
Gulni hayron qoldirib, zebolanibsiz muncha ham.
Cho'g' bo'lib, mash'al bo'lib, ham toblanib, ham kuydirib,
Sof ishq bo'stonida ra'nolanibsiz muncha ham,
Husn ham, qomatda ham barnolanibsiz muncha ham.

Z u h r a — Uch kun deganda kelmading,
Yolg'izligimni bilmading,
Yoki nazarga ilmading,
Yor, muncha zor etding meni.
O'tdi oradan olti kun,
Ko'ksimda g'amlardan tugun,
Ayniqsa, ko'p kutdim bukun,
Yor, muncha zor etding meni,

Zuhra ishorasi bilan qizlar tarqaladilar.

T o h i r — Yo'l bermaslar noinsoflar,
Qadam qo'ysam gulzoringga.

Z u h r a — Men o'ylabman: sen kelmading,
Rahming kelmay men yoringga.

T o h i r — Arzga keldim, quloq solgin,
Qahr etmasdan men zoringga.

Z u h r a — Voqeadan xabarim bor, Tohirjon,
Ziddingga ish qilmoqda u har qachon.
Qora Botir qilgan bo'lsa shikoyat:
U ishingdan g'azablanib xon g'oyat,
Bu dargohdan seni mahrum etmoqchi.

(Yozgan xatini berib.)

O'qib ko'rgin. Otamga men yozdim xat.

T o h i r — (*Xatni ko'zdan kechirib*)

Sendan shuni kutgan edim. Ko'p rahmat.

(Qaytarib beradi.)

Z u h r a — Elparvarsiz, oq ko'ngilsiz, hushyorsiz...
T o h i r — Hamki ustoz bilan siz borsiz.
Z u h r a — Qarsak uradi, Qamar kiradi.
Z u h r a — (*duet*)
Otmagay tong bog' aro azming xiromon bo'lmasa,
Bulbuli shaydolari gul uzra nolon bo'lmasa.
T o h i r — Qaydan ishq o'tiga ursin o'zni u parvonalar,
Parpirab, bag'rini yoquvchi sham'i jonon bo'lmasa.
I k k i s i — Ne qilay bu tanni, kuymas bo'lsa ishqing o'tida.
Ne qilay bu jonni ham, yo'lingda qurbon bo'lmasa.

Zuhra qizil gul hadya qiladi, Tohir gulni o'pib,

T o h i r — Gar vafo bo'lmasa, vasl begumon bo'lmas edi,
Bo'lmasa ishq ishidan bexabar-u bedardlar,
Oshiq ahlining bu yanglig' dili qon bo'lmas edi.
Degil, e g'uncha labim: gohi meni yo'qlamasang,
Bulbuling — Tohirga gulshan oshiyon bo'lmas edi.
Ahd-u paymonlar agar bo'lmasa, Zuhram, orada,
Sening mehning mening bu jismima jon bo'lmas edi...

NOSIR OTABOYEV

Nosur Otaboyev 1983 yili Farg'ona shahrida tavallud topgan. 1960-65 yillari Toshkent Davlat san'at instituti rejissorlik bo'limida tahsil ko'rgan. Samarqand teatrida Ch.Aytmatov asari bho'yicha "Sarvqomat dilbarim" diplom spektaklini yaratadi, qator yillar Hamza nomli akademik teatrdan ishlab Shekspirning "Veronalik ikki yigit", F.Musajonovning "Oq kabutar" kabi asarlarni sahnaga qo'yadi. Farg'ona teatrida bosh rejissor sifatida ishlab (1970-1986 yillar) yaratgan "Revizor", "Baxtli gadolar", "Parvoz", "O'tgan kunlar" singari o'nlab spektakllar uning ijodiy hayotida alohida davr ochgan. 1986 yildan Muqimiy nomli musiqali teatrdan bosh rejissor, hozirda ommaviy tomoshalar rejissori sifatida faoliyat ko'rsatib keladi.

«GUL VA NAVRO'Z»

Muqimiy nomidagi teatr san'atkorlari o'z muxlislariga Lutfiyning «Gul va Navro'z» dostoni asosida ishlangan muzikali dramani havola etdilar. Sevgi va sadoqat, mardlik va jasorat, insonparvarlik kabi oliyjanob xislatlarni tarannum etuvchi bu asar oltmishinchi yillar avvalida dunyoga kelgan edi. Pyesani Sobir Abdulla va Muzaffar Muhamedov, musiqasini To'xtasin Jalilov va Georgiy Mushellar yaratgan edilar.

Nazarimda teatr, sahnalashtiruvchi rejissor (O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi Nosir Otaboyev) bu asarni tanlaganlarida, faqat katta sevgi haqida asar yaratishni o'ylagan emaslar, aksincha, chuqurroq va kengroq maqsadlarni ko'zlaganlar...

Rejissor Gul va Navro'zni xalqdan ajratib ideallashtirmaydi, aksincha, ularni barcha hollarda birlashtirishga, hamohang qilishga intiladi. Gul va Navro'z xalq bilan tirik, og'ir paytlarda unga tayanadi, undan madad oladi, uning yordamida g'alaba qiladi. Xuddi shu

narsa ijobiy qahramonlarni soxtalikdan asragan, intilishlari tiniq va me'yorida jaranglashini ta'minlagan.

Spektaklda Gul va Navro'z obrazlarini Mehri Bekjonova bilan Turg'un Beknazarovlar ijro etganlar. Mo'jizalar yaratuvchi buyuk xislatlar ular ijrosida o'zining hayotiy ifodasini topgan. Zero, ularning qahramonlari to'siqlarni yengishda mo'jizalarga emas, o'z kuchi va imkoniyatlariga tayanadilar, sabr-toqat va bukilmas irodani ishga soladilar. Ayniqsa, ikkala aktyor ijrosidagi «Osmon kerakmas», «Gulyuz», «Xor bo'lmasun», «Tor etmagin sen ham», «Guli zorima ayting», «Turnalar», «Bir bo'sa uzat» radifli ashulalari xalq ohanglariga hamohang bo'lib ketganligi tufayli tomoshabinga kuchli ta'sir etadi.

O'zbekiston xalq artisti Mahmudjon G'ofurov Xuroson obrazini yaratgan. U yaratgan obraz tashqaridan qaragan tomoshabinga hech ham salbiy ko'rinmaydi. Ijroning qiymati shundaki, u faqat ertakona shoh bo'lib qolmay, qaysidir xislatlari bilan bugungi kunimizning ko'rinishlarini eslatganday bo'ladi.

Yorqin obrazlardan biri, albatta, Rustam Ma'diyev ijrosidagi Baxman, o'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Sobirjon Rahimjonov ijrosidagi arab sultoni Arbulzarq, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Sur'at Po'latov va Fayzulla Ahmedovlar ijro etgan xabash qabilasining boshlig'i Nuqus obrazlari ham jonli chiqqan.

Hamidjon Ikromov, san'atshunoslik nomzodi «Lutfiy qahramonlarining sahnaviy talqinlari haqida». «Yosh leninchi» gazetasi, 1989-yil, 10-oktabr.

...Muqimiy nomli teatrdan 1950-yili o'zining shoirona nafosati bilan uzoq yillar tomoshabinlar ardog'ida bo'lib kelgan «Alpomish» musiqali dramasi sahnalashtirildi. Bosh rollarda M. G'ofurov (Alpomish) F. Rahmatova, E. Jalilova (Barchin) A. Boltayev (Inoq), A. Ismatov (Ulton) kabi san'atkorlar chiqdilar.

«ALPOMISH» SPEKTAKLI HAQIDA SHARHLAR

Navro'z chog'i edi.

Mana, elat oqsoqoli Boysarining ovuli. Ovul o'z ko'rki va salobati bilan alohida ko'zga tashlanadi. Ko'klam fasli. Olisda yuksak tog'lar, sho'x daryo va jilg'alar. Sahnada egri-bugri tog' yo'li. Bir tomonda o'tovlar. Bu osoyishta o'lkaga Inoq, Ko'kaldosh, Surdov va boshqalar bostirib kirib, xalqning tinchligini buzadilar. Bosqinchilarning bu yerga kelishidan maqsad, Boysari elatini ham o'ziga qaram qilishdan, butun yaylov, ekin, chorva, ulov va boshqa narsalarni o'ziga tobe qilish haqidagi xon farmonini bildirishdan iborat edi. Ammo ular bu farmonga qarshi javob olib qaytib ketadilar. Tong paytida, sokinlikni buzib, otlar dupuri eshitiladi. Birozdan so'ng darvish niqobida charx urib, Inoq — Boltayev kirib keladi. U o'zini tanitmaslik uchun qalandar (devona) qiyofasiga kirib oladi.

...Elatda navro'z bayrami. Yasangan, qurollangan yigit-qizlar lola terib, o'ynab-kuylash uchun qirga chiqishgan. Tabiat, bahor ne'matidan bahramand bo'lib, go'zal libos kiygan. Yigitlar lola terish uchun uzoq-uzoqlarga ketganlar. Sahnada qizlar kuylashib, raqsga tushmoqdalar. Qizlardan nariroqda Barchin qilich va o'q-yoyini daraxt shoxiga ilib, o'zi og'ir xayolga cho'mib o'tiribdi. Yigitlar quchoq-quchoq lola ko'tarib kirib qizlarga tortiq qiladilar va kuylab, raqs boshlaydilar. Shu payt Ulton chiqib keladi. U Barchinning qo'lini qayirib ko'ksiga bosmoqchi bo'lganda, Juma yetib kelib, uning yoqasidan tutadi. Darrov hozir bo'lgan yigit-qizlar Ultonni bog'lab tashlaydilar.

FAROG'AT RAHMATOVA XOTIRASIDAN

...«Alpomish»ni Muzaffar ota birinchi sahnalashtirganda men M. G'ofurov bilan birga o'ynadim. Ultonni Asad Ismatov o'ynardi.

Bir voqea esimda. Ulton sahnasida rekvizitorlar mening kamarimga xanjar qistirib qo'yardi. Ulton meni qilich bilan uradigan sahnada, men orqadan xanjarni sug'urib, mana bunday qilib, uni yaralardim va yarasini ushlab egilganida, yonidagi may to'la ko'zacha bilan urib o'ldirardim. Bir kuni rekvizitorlar xanjarni kamarga mahkam qilib bog'lab qo'yibdi. Xash-pash deb xanjarni olgunimcha Asad aka qilichini ko'tarib kelib qoldi va qo'lini shunday tashlaganida o'tmas qilich bo'lsa ham burnim va peshonam o'rtasini archib, pastga tushirib qo'ydi. Qon oqyapti. Sahna davom etyapti, men qo'lim bilan berkitib, bir balo qilib, uni «o'ldirdim». Bir payt Alpomish — Mahmudjon G'ofurov kelib (u bilan ko'rishishim kerak) meni ko'rib qo'rqib ketdi-yu, orqasiga tislandi-da, «pardani yopinglar» deb qichqirdi. Men pardani yopishga qo'ymadim, chunki voqea sahna oldida bajarilayotgan edi-da. Baribir, o'ynab chiqib ketdim. Barcha tomoshabinlar oyoqqa turib, Ultonni so'kib qichqirishardi.

*Keldivoy Umrzoqov. «Yuksalish o'z qo'limizda».
«San'at» jurnali, 1990-yil, 2-son.*

ALPOMISH

(Birinchi pardadan parcha)

...Boysari (*g'azab bilan o'rtaga chiqadi*).

Dag'dag'aga usta ekan xoningiz,
Tinch elatga hasad bilan tashlab ko'z!
«Bizga bering ulovingiz, doningiz!.. »
Shu ham gapmi?! Ana do'g-u, ana so'z!..
Bunday so'zlar bizga aslo botmaydi,
Egri so'zga egri kaltak, deganlar!

A l p o m i s h. Xon farmoni qildi meni darg'azab!

Bo'ysunmaymiz, to'g'rilikcha tezroq qayt!

U l t o n. Qaytib borib, Toychaxonga shuni ayt,

Qildirmaymiz yurtimiz oyoq osti.

Mana, javob lo'ndasi, gapning rosti!

A l p o m i s h. Zo'rlik bilan yov qullikka ko'ndirolmas!

J u m a n. Qahr-u g'azab olovini so'ndirolmas!

I n o q. Xon xatiga javob shum?

X a l q. Javob shu!

K o' k a l d o v. Hozir asir qilib, bog'lay hammangni!

Ol dovlarim!..

A l p o m i s h. Bizlar sevmaymiz jangni,

Ammo, yurtni yot qadamdan saqlaymiz!

K o' k a l d o v. Tut dovlarim!

Q o r a j o n (*hijolat chekib*). Qaysi birin bog'laymiz?

K e n j a d o v. Ulug' alpim, o'ylab bir ish qilaylik!

Zo'rligimiz o'rnida pesh qilaylik!

K o' k a l d o v (*baqiradi*). Bog'la, dedim, bog'la!

Alpomish ishora qiladi, yigitlar qo'llarini tutadilar, kulgi boshlanadi. Qorajon iztirobda, Surdov qo'rquvdan chekinadi, kulgi tobora avj oladi. Alpomish Boysari qo'lidagi farmonni olib, orqasiga yoza boshlaydi. Boysari Ko'kaldov ro'parasiga chiqadi.

B o y s a r i. Ho, Ko'kaldov! Elchiliging unutma,

Ko'p haddingdan oshma, qing'ir yo'l tutma!

Bular seni bog'lashmadi! Qil qulluq!

Chunki, odat. Elchi uchun o'lim yo'q!

A l p o m i s h (*o'rtaga chiqadi*).

Xon xatiga javob tayyor! Ho, elchi!

Bosib o'pkang, biroz yaqinroq kel-chi!

(*Yaqin keladi, o'qiydi.*)

Javob yozdik farmoningga, ey, Toychaxon,

Deb ekansan «qilichimdan titrar jahon!»

Avval o'zing kimligingga qarab boq-chi,

Tinch ellarni qaqshatuvchi shum qaroqchi!

Biz o'zbeklar do'stlar uchun jon beramiz,

Och bo'lsang kel, iltimos qil, don beramiz.

Dushmanlarga el g'azabi haddan yomon,

Kim qasd qilsa, bu elatdan qaytmas omon!

Har bir yigit, har bir qiz bu yurtga posbon,

Bir do'q bilan yengarman deb, qilma gumon!

Bu elatni qo'riqlovchi farzandlar bor.

Bosqinchiga har doimo javob tayyor!

B o y s a r i (*Ko'kaldovga beradi*).

Toychang buni tumor qilib osib olsin,

So'ngra biroz o'pkasini bosib olsin!..

Ko'kaldov xatni olib, zarda bilan chiqa boshlaydi, orqasidan Qoradov va Surdovlar chiqadilar, xalq jim, orqada otliqlar sharpasi uzoqlashadi.

Sobir Abdulla. Tanlangan asarlar. G'afur G'ulom nomidagi
Adabiyot va san'at nashriyoti, 1956-yil.

ABDULLA QAHHOR

(1907—1968)

Abdulla Qahhor Qo'qon shahrida temirchi oilasida tavallud topgan. O'rta maktab ta'limini Qo'qonda oladi, O'rta Osiyo davlat dorilfununida tahsil ko'radi (1930), ijodini 1924-yili hikoya, falyetonlar yozishdan boshlaydi.

Abdulla Qahhor «Sarob», «Qo'shchinor chiroqlari», «Sinchalak» singari ko'plab roman, hikoyalar muallifi, yirik nasr ustasi bo'lgani holda benazir komediyana-avis, hajvchi dramaturg sifatida o'zbek teatri taraqqiyotida muhim o'rin tutgan dramaturg ham edi. 1949-yili uning «Yangi yer» deb atalgan birinchi dramatik asari yaratilgan. Asar «Shohi so'zana» nomi bilan dastlab Leningrad Katta drama teatrida, so'ng ko'pgina sobiq ittifoq teatrlarida sahnaga qo'yiladi va davlat mukofotiga sazovor bo'ladi.

Keyinroq uning keskin munozara va shov-shuvlarga sabab bo'lgan yirik hajviy komediyalari paydo bo'ladi. «Og'riq tishlar» (1954), «Tobutdan tovush» («So'nggi nusxalar») (1962) shunday komediyalardir. Bularda sho'ro jamiyatida ildiz ota boshlagan poraxo'rlik, axloqsizlik illatlari hajv ostiga olinadi, o'z mehnati bilan halol kun ko'ruvchi kishilarning dardli kechinmalari ifoda etiladi. 1967-yili «Ayajonlarim» komediyasi dunyoga keladi. Bu yumorga boy, mayin, xushchaqchaq komediyada kekxa avlod vakillari obrazlari samimiylilik bilan yaratilgan.

Abdulla Qahhor asarlariga xos o'tkir til ifodaviyligi uning tarjimalarida ham o'z ifodasini topgan. N. V. Gogolning «Revizor», «Uylanish» komediyalari uning tarjimasida o'n yillar davomida sahnani bezab keldi.

Abdulla Qahhor 1968-yilning 25-may kuni Moskvada vafot etdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni bilan Abdulla Qahhor «Buyuk xizmatlari uchun» ordeni bilan taqdirlangan.

A. QAHHOR HAQIDA XOTIRA VA SHARHLAR.

«AKTYORLARGA ASAR YOZISHNI SHU KISHI BOSHLADILAR»

«Aleksandr Ginzburg, Toshxo'ja Xo'jayev va Abdulla Qahhor o'tirishibdi, odatda, teatrning kunduzgi ishi soat 11 da boshlanib, 14 da tugashi kerak. Lekin soat 15 bo'layaptiki, javob bo'lmayapti, sababi ovqatlanish sahnasi chiqmayapti (gap «Shohi so'zana» spektakli ustida bormoqda), hammaning boshi qotgan. Mavlon rolida — Obid Jalilov, Qo'ziyev — Nabi Rahimov, Saltanat — Ikroma Boltayeva, rais — Lutfilla Nazrullayev, partkom — Sharif Qayumov, Hafiza — Yayra Abdullayeva, men Dehqonboy rolida edim. To'satdan Nazrullayev: «Qorin piyozni po'sti bo'lib ketdi-yu» deb yubordi. Yayra hazillashib o'rta- ga laganni qo'ydi-da: «Olinglar, chuchvarani yenglar», — dedi. Lutfilla aka «menga doktorlar xamir ovqat yema deb buyurgan» dedi-da, o'rnidan turib ketdi. Nabi aka uning jig'iga tegish uchun: «Qani qatig'dan sol, dedi-yu, laganga qo'l uzatdi. Og'zini so'lagi kelgan Nazrullayev «Qatig'iyam bor ekanmi?» deb u yoqdan-bu yoqqa yura boshladi. Men «Ko'kpiyoz sep degandim, Nazrullayev: «Ko'kpiyoz zo'r bo'ladi» deb qo'ydi. Shu topda Yayra «Murch sepaveraymi?» deb so'radi. Kimdir «ke, yana yarim kilo semirsam semiraqolay» deb davraga qo'shilgan edi, gurr kulgi ko'tarildi. Zalda o'tirganlar bizning bu «etud»imizni kuzatib turishgan ekan. Zavqlari kelib ketib «Stop!» deb

yuborishdi. Ertasiga Abdulla Qahhor shu improvizatsiya asosida nihoyatda go'zal sahna yaratib keldilar. Abdulla Qahhorning hamma pyesalari: «Shohi so'zana», «Tobutdan tovush», «Og'riq tishlar», «Ayajonlarim» bizning kollektivimizda pishib yetilgan, desam mubolag'a bo'lmaydi... Abdulla Qahhor bizning teatrimizda bir necha yil adabiy emakdosh bo'lib ishlaganlar. U kishining dramaturglar bilan tengma-teng yangi asarlar ustida ter to'kislari, pyesalarni, tarjima asarlarni tahrir qilganliklari, rejissor bilan stol atrofida o'tirib olib, sahnabop so'zlarni qidirib topish-u aktyorlarning so'z talaffuziga qanchalik e'tibor berishlari hamon ko'z o'ngimda turibdi... Dramaturgiya qoidalarini bilibgina qolmay, sahnaning ikir-chikirlarigacha bilib olishga harakat etdilar chog'i, o'zbek adabiyotida aktyorlarga moslab asar yozishni shu kishi boshladilar deb bilamiz. U kishining pyesasi o'qilgandayoq qaysi aktyor qaysi rolni ijro etishi lozimligini bilib turardik...

«Obrazlar o'z kasb-koridan kelib chiqib gapiradi. Rol xarakterini personaj gaplaridan aniqlab olish mumkin. «Tobutdan tovush» asaridagi Suxsurov obrazini, o'zi aytadigan so'zlaridan aniqlab olganman, — deydi shu rolni ijro etgan O'zbekiston xalq artisti Sa'dixon Tabibullayev, — Men qayerim qichishini oldindan bilib qashlab qo'yaman», «Sen shohida yursang, men bargida yuraman», yana «Men mushukman, meni orqamni payg'ambarlar silagan, osmondan tashlab yuborsalar oyog'im bilan tushaman». Suxsurovning poraxo'rliги haqida personaj shunday deydi: «U shaytondan yetti kun oldin tug'ilgan. Jonini olgani kelgan Azroildan ham pora so'raydi». Aktyor ijro etishi lozim bo'lgan obrazni rassom kabi ko'z oldimizga keltirib qo'yardilar.

Zikir Muhammadjonov «Abdulla Qahhor zamondoshlari xotirasida». Toshkent, G'. G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1987-yil, 149—150-betlar.

1962-yilning oxirida «Tobutdan tovush» asari qo'yildi (postanovkachi A. Ginzburg, rej. A. Turdiyev). Bosh rollarda S. Tabibullayev (Suxsurov), I. Boltayeva, S. Karimova (Netayxon), Q. Xo'jayev (Qori), Z. Muhammadjonov (Obidjon), J. Tojiyev (Shobarot) chiqdilar. Spektakl haqida Ozod Sharafiddinov matbuotda uni qat'iy himoya qilishga qaratilgan taqrizi bilan chiqdi.

«G'AZABLI QAHQAHA»

«Tobutdan tovush»ning g'oyaviy mazmunini poraxo'rlikni qoralashdangina iborat deb tushunish uncha to'g'ri bo'lmas edi. Asarning mazmuni ancha keng. Unda yozuvchi poraxo'rlik muqarrar ravishda boshqa jinoyatlar bilan birlashib ketishini ham ochadi, chirik axloqni qoralab, insonning pok va oliyjanob bo'lishi kerakligi haqida ideyalarni olg'a suradi. Bu g'oyalar asarda katta mahorat bilan yaratilgan qator satirik tiplarda mujassamlashgan.

«Tobutdan tovush» qo'yilgan kuni teatr zalida bir lahza ham kulgi to'xtamaydi. Avtor bizni poraxo'rning pora evaziga tiklangan dang'illama uchastkasiga olib kiradi. Poraxo'r va uning atrofidagi chirkin muhit bilan tanishtiradi. Ular odamlar nazarida uyasiga quyosh nuri tushgan ko'rshapalakdek talvasaga tushib qolishadi. Ularning talvasasidan, dovdirashlaridan, chinakam hayot shamolida sarg'aygan nimjon yaproqdek chirpirak bo'lib uchishidan g'azablanib, nafratli qahqaha bilan kulamiz. Bu qahqahada g'azab va nafrat, ijirg'anish va qoralash bor. Spektakl davomida tomoshabin faqat kuzatuvchi bo'lib qolmaydi, balki sahnada bo'layotgan hodisalarga avtor va teatr kollektivi bilan hamnafas

bo'lib, poraxo'rlik va meshchanlikni g'azab bilan qoralovchi, rad etuvchi sudyaga aylanadi. Zalning g'azabli qahqahasi o'tmishning hamon yashab kelayotgan «razil merosi»ni sharmandalik doriga tortuvchi qat'iy hukmga aylanadi.

O. Sharafiddinov «G'azabli qahqaha».
«O'zbekiston madaniyati», 1962-yil, 5-dekabr.

«HAM QUVONDIM, HAM TASHVISHLANDIM»

Menga Qori roli topshirilar ekan, ham quvondim, ham biroz tashvishlandim. Quvonchim shundan iborat ediki, sevimli dramaturg Abdulla Qahhor asarida birinchi o'ynashim edi. «Tobutdan tovush» spektaklidan oldin qo'yilgan «Shohi so'zana» bilan «Og'riq tishlar»da menga rol tegmadi. Mazkur komediyalardagi boy hayotiy kuzatuvlar va faktlar, zargarona ishlangan, jonli va obrazli til, bir-biridan o'tkir, pishiq xarakterlarga mahliyo bo'lib, ijrochilarga havas va rashk bilan boqqan edim. Shunday bo'lgach, Qori roli tekkach, albatta quvonaman-da! Tashvishga bois esa shu ediki, bu rol Nabi Rahimovga ham berilgan bo'lib, istay-istamay u bilan ijodiy musobaqa qilishim, tortishib ko'rishim zarur edi. Aktyorlar orasida menga qo'shilib tashvishlanayotganlar ham, qani nima karomat ko'rsatarkin, deydigan hangama talablar ham yo'q emas edi. Xullas, men o'zimni imtihonga tayyorlanayotgan talabaday his qilardim...

Premyeradan bag'oyat xursand bo'lgan Abdulla Qahhor o'z chorbog'ida ziyofat qilib berdi. O'shanda dramaturg teatr sha'niga, aktyorlar sha'niga juda ko'p iliq so'zlar aytgandi. «Men sizlar tufayli dramaturg bo'ldim, sahnada yurishni o'rgatdingiz. Hammangiz ustozimsiz. Shuning uchun Hamza teatri ostonasini o'pishga tayyorman» degani yodimda. Gap orasida mening yelkamga qoqib shunday degan edi: «Qori obrazini bunchalik mahorat bilan ijro etarsiz, deb sira xayolimga keltirmagan edim. Salomat bo'ling, Quadratjon bopladingiz».

Quadrat Xo'jayev, «Go'zallik shaydosiman»,
1976-yil. 115—118-betlar.

SO'NGGI NUSXALAR

To'rtinchi ko'rinish

(Parcha)

N e t a y x o n. Xudo quruq tuhmatdan saqlagin! Xudoyo tuhmatchilarning jazosini bergin! Shobarotning bo'yni uzilsin!

S u x s u r o v. Ayb Shobarotda emas, bu ahmoq idoradagi g'alamislarga uzun kosov bo'lib yuripti!

O b i d j o n. Idoradagi g'alamislar siz bilan nimani talashadi?

S u x s u r o v. Iye, g'o'r ekansiz-ku! Nimani talashar edi, o'rin talashadi! Amal talashadi!

O b i d j o n. Hammasi amal talashsa, bir-birining go'shtini yer edi. Amalparastlik amalparastlarni birlashtirmaydi, aksincha... rostini aytsam xafa bo'lmaysizmi?

S u x s u r o v. Marhamat, men rost gapning gadosiman!

O b i d j o n *(kulimsirab)*. Necha pul oylik olasiz?

S u x s u r o v. Nima edi?.. Bir yuz o'n so'm...

O b i d j o n (*kulib*). Boshqa birov bir yuz o'n so'm oylik olib mana bunaqa, kamida ellik ming so'mlik imorat solsa, siz nima der edingiz?

N e t a y x o n (*shoshib*). Voy, zayomdan yutganmiz!

S u x s u r o v. Men indamas edim, qo'limdan kelsa bitta qo'yni yetaklab qulluq bo'lsinga borar edim!

N e t a y x o n. Qandoq qilamiz, omad ekan-da, omad kelsa, yutuq ketingdan quvlab yurarkan. «Pobeda»miz ham yangi edi, yaqinda lotoreyadan «Volga» yutib oldik.

O b i d j o n. «Volga»laring ham bormi, men ko'rmabman... Yutuq yaxshi narsa. Yutuqqa chiqqan pul barakali bo'ladi, deyishadi. To'g'ri bo'lsa kerak, birovlarining yutug'ini ortig'iga sotib oladigan odamlar bor emish.

S u x s u r o v (*zaharxanda qilib*). Gapni qayirib kelishingizdan «uncha-muncha pora olasan» demoqchisiz, shekilli...

N e t a y x o n. Voy o'liptimi!

O b i d j o n. Iye, Nusrat aka, siz pora nima, poraxo'r (*pisanda qilib*) qandoq mahluq ekanini bilmaysiz-da, bilganingizda bu gapni og'zingizga olmas edingiz!

S u x s u r o v. To'g'ri...

O b i d j o n (*uning ko'ziga qarab*). Hech bir jinoyatni poraxo'rlikka teng ko'rib bo'lmaydi o'g'ri kechasi yo'lingizni to'sib, cho'ntagingizga qo'l soladi, pulingizni oladi, oladi-yu, qochadi ketadi. Poraxo'r kuppa-kunduz kuni, yana hukumat idorasida o'tirib cho'ntagingizga qo'l soladi, pulingizni oladi, pulingizni oladi-yu, qochib ketmaydi, jinoyatiga sizni sherik qiladi.

S u x s u r o v (*uning qarashiga tob berolmaydi*). Dunyoda shunaqa odamlar ham bor deng...

O b i d j o n. Yo'q, dunyoda vijdotsiz odam yo'q!

S u x s u r o v. To'g'ri, bo'lmasa kerak!

O b i d j o n. Hamma gap shundaki, birov vijdonining gapiga kiradi, birov kirmaydi, birov vijdonining ko'zini ko'r, qulog'ini kar qilishga muhtoj bo'ladi.

N e t a y x o n. Nusrat akang shunchalik qilgandan keyin sen ham gapni qopiyasi bilan gapirsang bo'lardi.

O b i d j o n. Biror nojo'ya gap gapirib qo'ydimmi?

N e t a y x o n. Yo'q, hammasi jo'yalik. Lekin qonun chiqib turganda poradan gapirib o'tirishing chakki!

O b i d j o n (*kesatib*). Nega! Nusrat aka poraxo'r emas-ku!

N e t a y x o n. Ozroq pora olsa nima bo'пти!.. Pul shirin! Pul o'lgurning tishi bo'lsa o'zini yeb qo'yar edi!

O b i d j o n. To'g'ri, tishi bo'lmagani uchun ba'zi birovlarining aqlini yalab, vijdonini so'rib yuripti-da!

N e t a y x o n (*alam qilib*). Zahar! Hali ham zaharliging qolmapti-da! Seni chaqqan ilon til tortmay o'ladi! (*Jahl bilan o'rnidan turadi, uyiga kirib ketadi.*)

Uchinchi parda, beshinchi ko'rinishdan

O b i d j o n. Bolaligingizda ham arzanda edingiz... Erga tegib ham shuncha yildan beri baliqsiz ko'l, kiyiksiz cho'lman deng? Bola ham ko'rmabsiz?

N e t a y x o n. Nima qilamiz bolani! Har bir bola xotin kishini betiga o'ntadan ajin tushiradi! Jon o'zimning jonim! (*Birdan.*) Nima deb jig'imga tegishni bilmaysan-a? O'gay shu ekan-da!

O b i d j o n. O'gay degan so'z allaqachon o'lib ketgan, urush yillari, undan keyin ham hech qayerda eshitmaganman. Bu so'z o'lganini bilardimu qayerda ko'milganini bilmas edim. Endi bilsam sizning ko'ksingizga ko'milgan ekan!

N e t a y x o n. Nima qipti mening ko'ksimga!..

O b i d j o n. O'gay deyapsiz-ku! Kim kimga o'gaylik qilyapti? Men oyna olib yuzingizga tutdim, basharangizni ko'ring, burningizni artib oling deyapman. Siz-chi, uchastka berib, meni irib-chirib ketgan hayotingizga qopqoq qilmoqchisiz-ku! Shumi o'gaylik qilmaganingiz?

N e t a y x o n (*shovqin solib*). Menga nima qipti! O'zing irib ket! O'zing chirib ket!...

O b i d j o n. Men sizdan bir narsani so'ramoqchi edim: otingiz Ozodaxon edi, nima bo'lib Netayxonga aylanib qoldingiz? Bu otni sizga kim qo'ydi?

N e t a y x o n (*jerkib-jerkib*). Hamma qo'ygan! Mahalla qo'ygan! Shu mahallaga ko'chib kelganimizdan buyon hamma meni Netayxon deydi.

O b i d j o n. Shundaymi?

N e t a y x o n. Netayxon degan mashhur xotin o'tgan ekan.

O b i d j o n. Netayxon nimasi bilan mashhur bo'lgan ekan?

N e t a y x o n (*jahl bilan*). Bilmayman!

O b i d j o n. Hech qayerda ishlamay, dugonalarangizdan ayrilib topgan martabangiz shu bo'ldimi. Bilmasangiz bilib qo'ying, Netayxon burun zamonda islovatda irib-chirib, yurtga qo'lansa hid taratgan bir fohisha o'tgan!

N e t a y x o n. Voy! (*baqirib.*) Shunaqa gaplarni aytgani uyalmaysanmi! (*Yig'laydi.*)

O b i d j o n. Yig'lamang, kovush oyog'ingizni siqayotgan bo'lsa, yechib qo'ying.

N e t a y x o n. Ishing bo'lmasin! (*Birdan.*) Yo'qol! Diydoring qursin, (*kovushni yechib tufisini kiyib oladi*)

O b i d j o n. Xo'p! Hojar kelsin ketaman.

N e t a y x o n. Ko'chaga chiqib kut!

O b i d j o n. Ayta qoling, qayoqqa ketdi?

N e t a y x o n (*g'azab bilan*). Chakana qilgani ketdi!

O b i d j o n (*o'zini arang bosib*). Iye, o'zingiz ulgurji qilib, unga chakana o'rgatibsiz-da...

1967-yilning 3-iyunida «Ayajonlarim» (rejissor Toshxo'ja Xo'jayev) komediyasining premyerasi o'tkazildi. Bosh rollarni T. Sultonova, Q. Xo'jayeva (Bo'ston), I. Boltayeva (Shakar), G'. A'zamov (Ashuraliyev), T. Saidqosimov, O. Yunusov (Karimjon) I. Aliyeva, S. Norboyeva (Umida) kabi aktyorlar ijro etdilar.

TOSHXON SULTONOVA BO'STON ROLIDA

Bo'ston xola notinch, uning fikr-zikri o'g'li Karimjon aytgan gap bilan qorishib ketgan: «Endi bu hovlining baland imoratlar yonida turishi xunuk. Uning o'rniga barcha sharoiti mavjud bo'lgan ajoyib uyda turarmishman». Bo'ston xola shularni o'ylab jig'ibiyron bo'ladi.

«Yo'q, bekorlarni aytibsan. Men eski bo'lsa ham dadang joyini hech qachon tashlab ketolmayman...» deb ko'zlariga yosh oladi. «Ayajonlarim» komediyasida o'z harakati bilan odamlarni goh kuldirib, goh hayajonlantiradigan obrazlardan biri Bo'ston xola rolini Toshxon Sultonova mohirona ijro etdi. Bu rolning har tomonlama yetuk chiqqanligining sababi sahnada o'z ijrosini topa olganligida bo'ldi.

Adiba Nosirova. «Ta'zim va tahsin». «O'zbekiston madaniyati» gazetasi, 1970-yil, 13-yanvar

ZAMIRA HIDOYATOVANING «ONALARI»

Ba'zilar «ona, kampir, qaynona rollarini sahnada o'ynash juda oson, aytadigan so'zini, luqmasini aytishda adashmasa bo'ldi, u yog'ini amallab eplab ketaveradi artist, chunki ayol san'atkor o'zini o'zi o'ynaydi-da», deb yengil-yelpi mulohaza ham yuritadilar. Unday emas! Yarim umri bolalari davrasida o'tadigan, uning ustiga to'y-hashamlardan, ma'rakalardan qolmaydigan Zamira Hidoyatova onaning shu muhitni unutgan holda oqshom teatrqa kelib, sahnada yo Bo'ston, yo Hamrobibi, yo Kabanixa, yo Hoji ona timsolida chiqib, xatti-harakatlari bilan ishontirishi, e'tiborni o'z sehriga tortishi amallab eplab ketadigan ish emas! Bu ijod! Bu kashfiyot, bu zavqli mehnat tashvishi va samarasi! Bunga iste'dod, bir holatdan ikkinchi holatga o'tish, o'ta bilish, ishontirish mo'jizakorligi kerak. Buning ustiga artistning o'z jozibasi, qalbni ohanrabodek tortib olishi, tomoshabin ixtiyorini tizginlab qo'ya bilish san'atini egallashi ham lozim. Qolaversa, talqin qilayotgan obrazni tarixan, ma'nau o'rganmog'i, o'zlashtirmog'i farz va qarz.

Agar biz Zamira Hidoyatova yaratgan Ona obrazlari gallereyasini ko'zdan kechirsak, bir-biriga sira o'xshamagan o'zbek onaxonlarini xotirada olib qolamiz. Tashqi qiyofalari, kiyinishlari qanchalik o'xshamaganidek, bu obrazlarning yaratishda xarakterlari, so'zlash intonatsiyalari, yurish-turishlari, imo-ishoralari ham takrorlanmas, o'xshamasdir. Bu ona obrazlarining biri mehr uyg'otsa, biri nafratlantiradi, biri kuldursa, biri yig'latadi. Umuman, inson tuyg'ulari, jilosi rang-barang shakllarda ko'rinadi. Chunki u sahnada rol o'ynamaydi, balki qahramon timsoli bo'lib yashaydi.

Yong'in Mirzo. «Sahnamiz momosi». «O'zbekiston madaniyati» gazetasi 1979-yil, 23-yanvar.

AYAJONLARIM

Ikkinchi ko'rinish

B o ' s t o n. Xudoga ming qatla shukur, tortgan azoblarim, Karimjonning mehnatlari bekor ketmadi. Mana, o'g'ilginam o'qishini bitirib kelyapti. Sizning ham peshonangiz yorug' ekan, quda! Ammo lekin bor bisotim ketib, o'g'lim qarzdor-abgor bo'lsa ham to'yni katta qilaman! Dushmanim ko'p!

T o ' t i n i s o. Sizda dushman nima qiladi quda!

B o ' s t o n. Undoq demang! Sizning ham dushmanlaringiz ko'p! O'n bir mahalladan odam aytaman!

T o ' t i n i s o. Qishloqda o'n bir mahalla yo'q-ku, quda!

B o ' s t o n. Shunaqami, qachonlar yettita edi, hali ham o'n bitta bo'lgani yo'qmi? Xo'p, mayli. Yetti qop guruch damlataman!

T o ' t i n i s o. Uch qop!

B o' s t o n. Mayli to'rt qop bo'la qolsin!.. Bu Mukarramxon-u, Halimaxon-u, Tamaraxon-u... hammasini mashinada oldirib kelaman! Hammasini chakkasiga o'z qo'lim bilan pul qistiraman!.. (*Birdan*) Odam sig'ishmaydi, quda, devorni buzamiz!

T o' t i n i s o. Buzmasak bo'lmaydi, hozir hamma to'y qilganda devorini buzyapti!

B o' s t o n (*lippasidan pul olib beradi*). Siz guzarga chiqing, handalak, meva-cheva oling! Yo'q, guzarga o'zim chiqaman, siz borib Xayrixonni olib keling! Ishdan javob so'rasin!

T o' t i n i s o. Voy, quda, qo'ya turing, qiz narsa... ishdan kelib ko'rgani kirar!

B o' s t o n. Bunaqa eskicha gaplarni qo'ying! Hozirgi zamonda qiz bilan yigit ko'chalarda qo'l ushlab yuradi, rayonga futbol ko'rgani boradi! Hech aybi yo'q!

T o' t i n i s o. Shuni aytaman-da, qo'l ushlab yurgan, loaqal xat yozishgan bo'lsa ham mayli edi!

B o' s t o n. Hamma ayb sizda! Mening o'g'lim-ku indamas, siz Xayriga aytib xat yozdirsangiz bo'lmasmidi!

T o' t i n i s o. Voy, Xayri nega xat yozar ekan, Karimjon yozishi kerak, bulbulning ham erkagi sayraydi!

B o' s t o n. Karimjon sayraydigan bulbul emas, shuning uchun o'zim sayrab yuribman-da! Xo'p mayli, guzarga o'zim chiqa qolay. Siz xamir qiling, patir yopamiz. Un oshxonada (*chiqadi*)...

T o' t i n i s o. ...Mehmon ketdimi?

K a r i m j o n. Yo'q, yuvinyapti...

B o' s t o n. Iye, nega yuvinadi, falokatini birovning uyiga tashlab ketadimi?

K a r i m j o n. Falokati yo'q, sharofatli qiz!

B o' s t o n. Shunaqami... Falokati ham boshini yesin, sharofati ham! Sharofatli qiz bir yigitning ketidan ergashib yuradimi? Bundan tashqari, oladigan odamning sho'ri, tug'mas xotin chiqadi, aftidan shundoqqina ko'rinib turibdi.

K a r i m j o n. Ayajon, birovning bolasi to'g'risida shunaqa gaplarni aytgani qandoq tilingiz boradi? Shu ham sizday bir mehribon onaning farzandi-ku! Birov mening to'g'rimda shunaqa gaplarni aytsa, siz nima der edingiz?

B o' s t o n. Bunga o'zing javob qilasan! Javob qilolmaysanmi?.. Men bir nima deyotganim yo'q, nihoyati, «birovning uyida yuvinmasin», dedim. Shuni ham aytganim yo'q!.. (*Birdan.*) Hoy, menga qara, bu qizni muncha yalab qolding? Oralaringda bir gap bormi?

K a r i m j o n (*botinolmay*). Bo'lsa-chi?

B o' s t o n. Bo'lsa u dunyo, bu dunyo rozi emasman! (*Yig'laydi.*) Men senga oq sut berganman... Shunaqa ekan-da, doktor bo'lgandan keyin ona kerak emas, ona roziligi bir pul ekan-da!

K a r i m j o n. Xo'p, bunga rozi bo'lmasangiz boshqasi...

B o' s t o n. Menga boshqasi ham kerak emas! Menga Xayrixon kerak!

K a r i m j o n. Aya, bunaqa gap yo'q edi-ku!

B o' s t o n. Nega bo'lmas ekan, To'tiniso ikkovimiz oyma-oyiga besh oydan beri gaplashib yuribmiz! Xayrini yaqinda ko'ndirdik! Yig'lay berib onasining esi ketdi! Men ham yig'ladim! It azobida ko'ndirdik!

K a r i m j o n. Xayrixon menga «tegaman» dedimi?

B o' s t o n. Qiz narsa «tegaman» deydimi, «bir gap bo'lar» dedi. Ko'ngli senda!

K a r i m j o n. Xo'p, Xayrini ko'nglini bilibsiz, mening ko'nglimni qachon bilasiz?

B o' s t o n (*do'q qilib*). Nima, Xayriga ko'ngling yo'qmi? Shundoq qizga-ya? (*Entika-entika*.) Husn desang tortib qo'ygan suratday! Soch desang taqimiga tushadi! Sochmisan soch! Pazandamisan pazanda! Mehmon kutishda onasini yo'lda qoldiradi! Butun qishloqqa bitta o'zi dori bersa ham kekkaymaydi, kattani katta, kichikni kichik o'rnida ko'radi! Mahallada to'y-ma'raka bo'lsa hamisha xizmatda! (*Yig'lamsirab*.) Umrin mehnatda o'tgan, qarigan chog'imda shunday kelin xizmatimni qilmasa, dunyoga keldim nima bo'ldi-yu, kelmadim nima bo'ldi...

K a r i m j o n. Ayajon, Umidaxon ham xizmatingizni qiladi-da, nega qilmas ekan?

B o' s t o n (*vahima ichida*). A?

K a r i m j o n. Yo'q, shunaqa qizlar ham qaynonaning xizmatini qiladi, demoqchiman!

B o' s t o n. Buning doktor bo'lib, bolalarning qorniga quloq soladimi, mening xizmatimni qiladimi?

K a r i m j o n. Xayrixon ham ishlaydi, ishlab butun qishloqqa dori beradi deyapsiz-ku!

B o' s t o n. Xayrini kelin qilsam, uch kunga qolmay ishdan chiqarib olaman!

K a r i m j o n. Ishdan chiqarib olasiz, uyda o'tirib bitta o'zingizga dori beradimi? Shuning o'zi bo'ladimi?

B o' s t o n. Men podadan oldin chang chiqarmayman!

Umida kiradi.

B o' s t o n. Voy mehmon, uyingizda suv yo'qmidi?

U m i d a. Bor, ayajon bor! (*Yanglishganini bilib*.) Voy... kechirasiz.

B o' s t o n. Iye, hech narsadan hech narsa yo'q, meni «ayajon» degani uyalmaysizmi? (*Karimjonga*.) Aya deyapti-ku!

K a r i m j o n. Kechirim so'radi-ku.

T o' t i n i s o (*kiradi*). Quda, oshni suza qoling!

B o' s t o n. Darrov suzing! Shoshmang, Xayrixon kelsin! Yo'q, mayli, unga olib qo'yamiz. O'zim suzaman. Mehmon qolmasin. Siz choy damlang...

Manbalar:

1. «Abdulla Qahhor». Asarlar G'. G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1988-yil, 4-jild.
2. *Matyoqub Qo'shjonov*. «Abdulla Qahhor mahorati». G'. G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1982-yil.
3. *Sarvinov Qodirova*. «Abdulla Qahhor va teatr». «Sovet O'zbekistoni san'ati» jurnali, 1989-yil, 5-son.

MAQSUD SHAYXZODA

(1908—1967)

Maqsud Shayxzoda Ozorbayjonning Oqdosh shahrida tavallud topgan. Bokudagi dorulmuallim (pedagogika bilim yurti)da o'qigan, Abdulla Shayx, Husain Jovid kabi mashhur shoirlardan ta'lim ko'rgan. 1928-yili Toshkentga ko'chib kelgach, u «Sharq haqiqati», «Qizil O'zbekiston» gazeta tahririyatlarida, Til va adabiyot institutida ishlaydi. 1938-yildan umrining oxirigacha Nizomiy nomidagi pedagogika universitetida dars beradi. 1952-yili sentabr oyida u asossiz ayblanib, qamoqqa olinadi, 1954-yilning o'rtalarida oqlanib, qamoqdan ozod qilinadi.

Maqsud Shayxzodaning ko'p qirrali ilmiy va badiiy ijodi istiqlol davrida to'laligicha o'z qadr-qimmatini topdi. Respublikamiz Prezidentining Farmoni bilan unga 2001-yili «Buyuk xizmatlari uchun» ordeni berildi.

Maqsud Shayxzoda dramaturg sifatida dastlab 1944-yili yozilgan «Jaloliddin» asari bilan tanildi. «Mirzo Ulug'bek» asarida buyuk alloma hayotining so'nggi ikki yillik hayoti misolida ilm-fan, ma'rifat olamining jaholat, mutaassibona beboshlik bilan to'qshuvi ifoda etilgan.

Maqsud Shayxzoda asarlarining badiiy yetukligi akademik teatrimizda Shukur Burhonov (Jaloliddin, Mirzo Ulug'bek), Turg'un Azizov (Ulug'bek), Samarqand teatrida Ta'naberdi Qurbonov (Ulug'bek) kabi aktyorlar uchun mahobatli obrazlar yaratish imkonini berdi.

MAQSUD SHAYXZODA

VA UNING ASARLARI HAQIDA SHARHLAR

SHUKUR BURHONOV: «KATTA DO'STIM, USTOZIM EDI»

Bir kuni Shayx aka kelib qoldilar. U kishining biznikiga qadam ranjida qilishlari xonadonimizda bamisoli bayram bo'lardi.

Hamma yoqda urushning dahshatli oqibatlari. Shunday paytda jangda qurol bilan jang qilganidek, adabiyot va san'at ham, biz aktyorlar ham jang qildik. Shu boisdan Shayx akaning «Jaloliddin Manguberdi»ni yozib, sahnada qo'ydirishi ham o'z navbatida fashizmga qarshi o'ziga xos jang edi... O'sha kuni Shayx aka aytgan gap hamon yodimda: «Shukurjon, xalqimizga oz bo'lsa-da, ma'naviy madad bo'lsin, deb moziydan mavzu tanlab, shu dramani yozdim. Jaloliddin Manguberdi haqida. Asarni yozish davomida rollarni kimlar o'ynashini ham o'yladim. Jaloliddin siz uchun». Bu xushxabarni quvona-quvona Usmon ota bilan Mannon og'aga yetkazdim. Usmon otaning topshirig'i bilan o'sha paytda yozuvchilar sovetining raisi Hamid Olimjon ham tanishib chiqib, ma'qulladi! O'shanda teatrimizda dramani shoirning o'zi hayajon bilan o'qib bergani esimda. Shayxzodaday shoir, O'tmishimizning katta bilimdon olimi, qomisul a'lamning teatrimizda bo'lishi artistlarimiz uchun bamisoli kashfiyot bo'lgan bo'lsa, «Jaloliddin Manguberdi» artistlarimiz tomonidan katta topilmaday qabul qilindi...

Asarni sahnaga qo'yishda Shayx aka bevosita ishtirok etdi. Deyarli har kuni repetitsiyaga kelar, rejissorning deganlariga quloq solar. Ayni paytda bizga, ya'ni rollarda chiquvchi artistlarga maslahatlar berar edi. Ko'pincha repetitsiyadan keyin Shayx aka bilan qaytardik. Yo'lda ketar ekanmiz sahna asarlari qanday bo'lishi, saviyasi, aktyorlik

mahorati, til madaniyati haqida suhbatlashdik. Har bir suhbatda Shayx aka katta san'atkor, mashhur dramaturg, faylasuf, shoir, ayni chog'da oliyjanob inson sifatida namoyon bo'la borardi.

Kamtarlik bo'lmasa ham bir gapni aytib o'tay, kishilar o'rtasida «Mirzo Ulug'bek» haqida so'z ketganda Shayx domla: «Mirzo Ulug'bek»ni spektakl qilgan Shukur Burhonov!» degan ekanlar. Yaxshi gapning ham, yomon gapning ham, qanoti bor, deyishadi. Bu gap menga ham yetib keldi. Shayxzodadek zukko, har gapni ming o'ylab, chamalab aytadigan kishining bu so'zlarini o'zim uchun bir majburiyat, deb bildim. Mirzo Ulug'bek bo'lib sahnaga chiqqanimda, keyinchalik uni kinofilmda o'ynaganimda har gal shu qahramonim uchun butun aktyorlik mahoratimni ishga soldim, shayxona o'ynashga harakat qildim! Shayx akaning yana bir asar — Abu Rayhon Beruniy haqida tarixiy-she'riy drama yozayotganidan xabardor edim. Bir kuni: «Shukurjon, Mirzo Ulug'bek bo'lib jahonni kezib chiqdingiz, endi boshqa bir alloma — Beruniy bo'lib, yana bir bor ming-millionlab xalqimizning, san'at shaydolarini shodon etasiz-da» deb qoldi. Afsuski katta do'stim va ustozim bu asarni tugata olmadi. Men hayotda Shay'zoda domladan ko'p qarzdorman. Shayx og'aning biz san'atkorlar, xususan, yosh aktyorlarning betinim izlanishlar, mehnat va yana mehnat qilish, o'z ustida muntazam ishlash orqaligina mahorat cho'qqilarini egallash, talaffuzdek ehtiyotkorlik borasidagi fikr-mulohazalari, yonib-kuyishi va hokazolar, san'atkor borki, bularning barisi buyuk bir maktabdir.

Malik Murodov, filologiya fanlari doktori, professor.

«Ikki do'st», «Toshkent oqshomi» gazetasi,

1988-yil, 31-oktabr.

«JALOLIDDIN» SPEKTAKLI HAQIDA

Spektakl premyerasi 1944-yilning 24-dekabrida o'tdi. Zalga odam sig'masdi, oldingi qatorda Usmon Yusupov boshliq hukumat rahbarlari, Oybek, G'afur G'ulom, Komil Yashin va boshqa madaniyat namoyondalari o'tirardilar. Tarixiy materiallarni saralash, sahna talqinini topish, dramatik harakatni izchil rivojlantirish, voqealarni bir-biriga puxta bog'langan holda ifodalashda rejissor Uyg'ur yaxshi samaralarga erishgandi. Qahramonona — romantik, mahobatli spektakl yaratilgan, xalqning vatanparvarlik ruhi keng miqyosda tasvirlangan edi. Ijrochilar zavq bilan vatan himoyasida xalq kurashini yuksak dramatik ruhda ifodalagan edilar...

Sh. Burhonov ijrosida Jaloliddin tarixiy jihatdan g'oyat haqqoniy, badiiy jihatdan behad ta'sirli gavdalandirilganligi bilan birinchi spektakldayoq shuhrat qozondi. U o'z qiyofasi, harakatlari va butun siymosi bilan buyuk inson, sarkarda, otashin vatanparvar sifatida ko'rinadi. Aktyordagi kuchli ehtiros, romantik ko'tarinkilik, psixologik teranlik hayratga solardi...

Mamajon Rahmonov «Madhiyaday yangragan edi»,

«Teatr» jurnali, 2000-yil, 1-son.

ZIKIR MUHAMMADJONOV TEMUR MALIK ROLINI QANDAY OLGANI HAQIDA

«Jaloliddin» pyesasida Temur Malik obrazini ustoz qiyomiga yetkazib ijro etgandilar. Men Temur Malik sahnasini har spektaklda tomosha qilardim. O'zlari kuzatganlarmi yo rolga odam tayyorlamoqchi bo'lganmilar, harqalay kunduzgi spektakldan keyin ketib

qolmasligimni aytdilar. Sababini bilishga juda oshiqardim. Spektakldan so'ng «Men bilan yur, yigit» dedilar. Ustoz ko'pincha yayov yurardilar. Beshyog'och tomonga yo'l boshladilar. Biroz yurganimizdan keyin gap boshladilar: «Yigit, mana teatrga kelganingga besh yilcha bo'ldi, ba'zi kichik rollarni ijro etyapsan. Senda artistlikka imkoniyat bor. Aslida shu sohada o'qisang bo'lardi (shu gap sababli 1945-yili Toshkentda ochilgan Teatr va rassomchilik san'ati institutiga kirib o'qiganman). Bu juda katta ilm. Eng muhimi, sahnada bekorga hech narsa qilma, hech narsa aytma. Aytadigan gapiyning ma'nosi bo'lsin. Fikring avvalo yuragingda pishib yetilsin. Agar gapiy yurakdan chiqmas ekan tomoshabinni ishontirolmaysan...» «To'qqizinchi yanvar» ko'chasiga burildik. Abror aka miyig'ida kulib: «Seni ko'p ushlaymayman, bir narsa beraman olib ketasan», — dedilar. Abror aka kitoblari orasidan yangiligicha saqlangan, mashinkada ko'chirilgan Temur Malik rolini qo'limga tutqazdilar. «Shuni senga beraman, menda qo'lyozmasi bor. Sen bilan shu rolni ishlaymiz, tayyor bo'lgandan keyin Og'aga ko'rsatamiz». Rolni qo'limga arang oldim. Abror Hidoyatovdek buyuk aktyor ijro etgan rolni o'ynash u yoqda tursin, o'z oldimga keltirsam, hayajonlanardim. Ustoz har kuni shu yerga kelib ishlashni aytdilar. Men tortinganimdan «Yo'q» dedim. Shunda ustoz har kuni soat 10 da teatrdagi ko'rishishga va'da qildilar. U kishi avval Temur Malikka xarakteristika berdilar: «Temur Malik — haqiqiy vatanparvar. Mard, jangovar odam». Men ishlash davomida ustoz aytgan hamma topshiriqlarni bajarishga harakat qildim. Temur Malik Chingizxon bilan (bu rolni Amin Turdiyev ijro etgan) gaplashganda, menda sentimentallik sezilib turardi. Shuni yo'qotishga ko'p harakat etdim. Balki bu rolni chiqara olmagandirman. Ammo ustoz ishonchidan so'ng menda jiddiy rollar ijro etishga jur'at paydo bo'ldi. Shu rolni ijro etgan kunim go'yo poloponini uchurma qilayotgan qushga madadkor bo'lib turganlari esimda. Abror Hidoyatov haqiqiy inson va aktyor edi.

*Zikir Muhammadjonov. «O'lmas siymoga salom»,
«O'zbekiston adabiyot va san'ati» gazetasi,
1988-yil, 4-noyabr, 45-son.*

SHOHIDAXON MA'ZUMOVA SULTONBEGIM ROLI HAQIDA

...M. Leviyevning «Jaloliddin»ga yozgan musiqalaridan biri «Uchayotgan laylaklar, onamga salom denglar» degan qo'shiqqa tushirilgan bo'lib, uni yosh aktyor Habib Sa'diyev to'qayzorda jangchilar to'planib o'tirgan joyda aytardi. Sa'diyev hozirgi TYuZdagi aktyor Xayrulla va Hamza nomli teatrdagi aktyor Yodgorlarning otasi. Har gal kuyni repetitsiyada eshitishni orziqib kutardim. Har gal to'liqlanganimdan ko'zimga yosh kelardi. Bir kun tasodifan Og'aning ham ko'ziga yosh kelganini ko'rdim. Uyg'ur Og'aning ko'ziga yosh olganini birinchi marta ko'rganim uchunmi, baralla yig'lab yubordim. Bir vaqt qarasam Temur Malikni o'ynayotgan Abror aka va Chingizxon rolini o'ynayotgan Amin Turdiyev ham yig'lab turibdi.

...Sahnada G'ani A'zamov, Mirshohid Miroqilov, To'g'on Shukurov va boshqalar Chingizxon va uning o'g'illari obrazida qo'g'irchoq ko'tarib chiqardilar. «Jo'ji keldi, jo'ji keldi, jo'ji bilan bo'ji keldi», — deb ashula aytib hammani kuldirar edi. Spektakldagi masxaralanayotgan Chingizxonning bir necha o'g'illari va nuyonlari basharalarini ko'rib xalq g'azabga kelardi. Bularning hammasi kishida dushmanga nafratni kuchaytirardi. Agar

qarilarning ko'nglida armon bo'lsa, faqat o'ch olish armonigina qolgan bo'lishi mumkin, xolos. Asardagi ommaviy sahnalar ana shu taxlitda qayta ishlanib, voqea dinamikasi keskinlashtirildi.

Xorazmshohning qizi Sultonbegim esa jasur vatanparvar qiz darajasiga ko'tarildi. U akasining ijozati bilan jangga kiradi.

Erkak kiyimini kiyib olgan qiz — Sultonbegim jang maydonidan qochgan o'z eri amir Badriddinni qo'lga tushirib, hibsga oladi...

*Shohidaxon Ma'zumova. «Sahna sururi». G'afur G'ulom
nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti,
1982-yil, 94-bet.*

JALOLIDDIN

To'rtinchi pardadan parcha

Asir tiz cho'kadi. Yorug'da yuzi ko'rinadi. Bu — Badriddin. Uning bir qo'lida
sug'urilgan qilich, ikkinchi qo'lida kafan.

B a d r i d d i n. Hech qasdim yo'q, shu qilich yodgoringiz,
Shu kafanim, o'ldiring ixtiyoringiz!
Asir bo'lib tushuvdim mo'g'ulga nogoh,
Chunki yarador edim haq-u, nohaq.

S u l t o n b e g i m. Yo'q, qapingiz yolg'ondir to'g'risini ayting,
Men bilaman, siz emas Amir Badriddin!
Boqing menman, unutmoq shuncha tez, e voh!
Siz Badriddin emassiz, siz Badriddin shoh!

N a s a v i y. Xiyonat deb atalar siz qilgan gunoh!

B a d r i d d i n (*Sultonbegimga*).
Eslagin sevgimizni, visol chog'larin,
Samarqandning oydindagi gulzor bog'larin!

S u l t o n b e g i m. Qani va'dang, vafodor bo'lgayman deding,
Ma'shuqaning qalbimi najot umiding?

B a d r i d d i n. Oliyhimmat deydilar sevgi dargohin,
U yerda afv etarlar oshiq gunohin!

J a l o l i d d i n. (*Badriddinga*).
Vatan, sevgi, sadoqat nazaringda hech,
O'ylaganing toj bo'ldi sening erta-yu kech!
Sotding Temur Malikni ko'rib dasisa,
So'yla, nedur xoinning jazosi, so'yla!

Badriddin andishada. Xudoychilar kiradilar.

X u d o y c h i. Xorazmshoh shu onda,
Qal'ayi «Sar-jahon»da
Yashirincha omonda
Kuyovning ahvolidan
Xabar olgach u, shu dam
Tartib bo'ldi shu farmon:

Amirga amin-u amon,
Bo'shatilsin tez kuyov,
Qal'a borsin, u darrov!

Farmonni Jaloliddinga beradi. Badriddin xursand. U xudoychiga bir xaltacha oltin tashlaydi.

B a d r i d d i n. Ehson ollo, oliy himmat shohimizga ofarin!
Soqchilar uni uzr bilan bo'shatmoqchi bo'ladilar.

J a l o l i d d i n. (*Qat'iy*)
Madomiki, shoh jangdan qochar ovora,
Farmoni ham soqutdir, bu bir xatpora.
(*Farmonni yirtib tashlaydi*).

B a d r i d d i n. Shahanshohning amriga bu isyonkorlik,
Bu islomda fitnadur, oqu padarlik!

N a s a v i y. Shomoniylar butiga cho'qingan «islom»!

J a l o l i d d i n. Chirik farmon yirtilar. Yirtidi, vassalom!
(*Xudoychiga*).

Shunday najotkor ekan hazrati sulton,
Nega qilar xoinga najotni ehson!
Asoratda yurarkan haramxonasi,
Unga kimdur o'lkaning bir begonasi?!
Yo'qdur mendan boshqa sohibi farmon.
Ogoh bo'lgan azmimdan darbadar sulton!
(*Xudoychilar ketadi*).

N a s a v i y. Na kun ko'rgan, na kecha shunday dahshatni,
Qurt yer ekan ichidan keksa daraxtni!
Afsus buyuk bir davlat bo'lsa-da Xorazm,
Taxt nishlari bo'ldilar beg'ayrat, beazm.

J a l o l i d d i n. Buyur singlim hukmingni, buyur shu mahal —
Ijro qilay hukmingni men ham behayal!

S u l t o n b e g i m. U ishqidin aynidi, aynidim undan,
Uning yuzin unutdim men o'sha kundan!
Shu qalbaki sevgi uchun toptoldi ko'nglim,
Shu xo'rlangan sevgim der: habisga o'lim!
(*Chodirdan chiqadi*)

J a l o l i d d i n. Ammo ablah tulkinining yana aybi bor:
Yurtfurushlik uchun u o'lsin ikki bor —
Ikki marta o'ldirgin bu jallod tez.
Avval o'qqa mixlagin, so'ngra boshin kes?

B a d r i d d i n. Musulmonlar qo'ymanglar, men shohga domod!

J a l o l i d d i n. Kallasini aylantir, ko'rsin el, diyor,
Bilsinlarki, xoinga shu oqibat bor!

B a d r i d d i n. Tavba qildim, valiahd, umrimni ayang.
Bu bir xato, jaholat, ma'murman diltang.

(Jallodlar Badriddinni olib chiqadilar)

Jaloliddin. Qo'rqqoq o'lur har lahza, mard faqat bir gal,
Soya yanglig' yuradi biz bilan ajal.
Undan qochsang quvadi, quvsang qochadi,
Yalinmoqning, ajabo, bormi hojati?

Nasaviy. Koshki hech tug'ilmasa xoinlar deymen!

Jaloliddin. Tug'ilsa ham bari bir qirib haydayman!
Ko'rganmisan. Nasaviy, Amudaryoda,
Ba'zan sohil bo'yida yotgan bir xoda —
Tegishadi suvlarning sarkash labiga.
Shunda o'sha xodani sekin, ohista
Qimirlatib sudraydi — to'lqinlar usta.
Tegib-tegib tashlagach suvning bag'riga.
Polvon daryo ortadi uni sag'riga —
Bo'g'ib, ezib girdobda o'ynatar toshlar,
Xorazm dengiziga muttasil boshlar!
Men ham Amudaryoman — o'jar, qasoskor,
Yo'llarimda har to'g'on bo'lur tor-mor,
Farmonim shu: dam olsun biroz lashkarlar,
Yangi hujum amrida kutsin xabarlar!

«HAMMAMIZNI HAYRATGA SOLDI»

Avji qish chillasida Shukur Burhonov menga: «Bugun kechqurun domla Shayxzodanikiga boramiz», — deb qoldi. Ammo sababini aytmadi. Domla meni har ko'rganlarida, ozorbayjon tilida: «Bolam nega biznikiga kelmaysan, Sakinaxonim sen ila orzusida», derdi. «Rahmat domla, yaxshi kunlaringizda, albatta boramiz», — deb qo'ya qolardim. O'sha so'zlar esimga tushib, ehtimol, bizni mehmonga aytgandir, deb o'yladim ichimda.

Xullas, to'rt kishi — Shukur Burhonov, Olim Xo'jayev, Sa'dixon Tabibullayev va men qo'ltiqdashib bordik. Domla Shayxzodaning o'zi qarshi olib, iliq so'rashdi. Dasturxon yozildi. Sakinaxonimning qish chillasida tok bargiga qiyma o'rab pishirilgan do'lmasidan tanovul qildik. Dasturxon yig'ishtirilgach, domla: «Mana endi asar o'qisak bo'ladi», — dedi. Shunda kelishimizdan maqsad asar o'qish ekanini angladim.

«Mirzo Ulug'bek» tragediyasi o'qildi. Asarni domlaning o'zlari o'qidilar. Ana o'shanda men Shayxzoda zamon shoiri, foziligina emas, she'rning har so'zini, so'zinigina emas, har bir tinish belgisini, urg'usini, tinimini, ritm va ohangini o'rniga qo'yib chiroyli qilib o'qiydigan mohir suhandon ekanini ko'rib qoyil qoldim. Asar hammamizga ortiq darajada manzur bo'ldi. Ko'lamining kengligi, falsafasining teranligi, dramatik kolliziyalarning o'tkirligi, xarakterlarning murakkabligi, tilining go'zalligi bilan asar hammamizni hayratga soldi, asir qildi.

A.O.GINZBURG

(1916-1973)

Aleksandr Osipovich Ginzburg iste'dodi turli mavzu va yo'nalishlarda keng namoyon bo'lgan ijodkor edi. O'zi insenirovka qilib yaratgan R.Tagorninig "Ganga daryosining qizi" (1956), M.Dibning "Jazoir mening vatanim" (1957) kabi spektakllari Hamza nomli akademik drama teatri hayotiga sharq mavzusini olib kirish bilan e'tibor topgan bo'lsa, Shekspirning "Romeo va Julyetta" (1951), "Yuliy Sezar" (1958) kabi spektakllari g'arb klassikasi namunalari tarzida jamoa ijodiy hayotida muhim o'rin tutdi. A.Ginzburg A.Qahhor pyesalari asosidagi "Og'riq tishlar" (1954), "Tobutdan tovush" (1962) singari spektakllari hajviy komediya asarlarini teatr ijodida ma'lum yo'nalishga aylanishini belgillab berdi. Uning M.Shayxzodaning "Mirzo Ulug'bek" asari ustidagi izlanishlari ham ajoyib natija bergan.

I.SULTON SHARXI

Postanovkachi ortiqcha mayday detallardan va yuzaki dinamikadan qochib obrazlarni mumkin qadar chuqurroq va yorqinroq ochishga intiladi. Personajlar sahnada ko'p harakat qilmaydilar, balki ko'p o'ylaydilar, ijrochilarning iste'dodi voqealar ta'siriga emas, personajlarning ichki dunyosini ochishga qaratilgan. Bu xususiyatlar tragediya avtorining asariga xos faksafiy chuqurlik bilan uzviy bog'liq bo'lib, asarning emosional haroratiga harorat qo'shadi.

Izzat Sultonov. Tarix va zamonaviylik.
"Qizil O'zbekiston" gazetasi 1962 yil 23 yanvar

ULUG'BEK SIYMOSI HAQIDA T.ISLOMOV VA H.IKROMOV SHARHLARI

Ulug'bek — Burhonovda voqealar rivojlana borgani sayin, ma'nodor boqishlarida so'lg'inlik alomatlari, og'ir o'yga cho'mish daqiqalarida ruhiy ezilish, gap ohanglarida afsuslanish belgilari sezila boradi. Sahnada ro'y berayotgan voqealar girdobida Ulug'bek — Burhonovning ana shunday holati hayotiy mantiqqa ega va ishonarli kechadi. Tarix nuqtayi nazaridan ham Ulug'bek — Burhonovdagi kayfiyat haqqoniydir, binobarin, Ulug'bek umrining so'ngiga kelib reaksiyadan yengilgan, orzu-umidlari parchalangan edi.

Bizningcha Ulug'bek — Burhonovning spektaklning boshidan to oxiriga qadar harakati uchun xarakterli bo'lgan xislat qahramonning ko'z o'ngida ro'y beradigan har bir hodisa va voqeaga darhol, faol hissiy munosabatini namoyon qilishidir. Boshqacha aytsak, Burhonovning qahramoni jo'shqin tabiatli insondir. Ulug'bek — Burhonov ba'zi voqealar munosabati bilan, masalan, Feruza haqidagi ig'voni eshitgach, jiddiy mushohadaga berilsa-da, lekin bu mushohada zamirida hissiyot jo'sh urib turganini, tomirida qon jo'sh urayotganligini sezish qiyin emas. Burhonov Ulug'bek qiyofasida birinchi galda hech bir narsaga befarq qaray olmaydigan, tabiatan faol inson obrazini yaratdi. Bu jo'shqin qalbli inson xoh shoh holatida bo'lsin, xoh ayolning hayotdagi haq-huquqi haqida falsafiy fikr yurituvchi donishmand holatida bo'lsin, xoh sevgining o'z qonuniyatlari borligini tan oluvchi oshiq holatida bo'lsin, va nihoyat, xoh samoviy mavjudodlar haqida mulohaza yurituvchi olim qiyofasida bo'lsin, baribir, hammasida ham uning tabiatiga xos bo'lgan hissiy faollik sezilib turadi.

Toir Islomov. «Tarix va sahna», 126—127-betlar.

Turg'un Azizov Ulug'bek obrazini oldingi (1969-yil) sahnalashtirishda ham ijro etgan. O'shanda ulug' san'atkor Shukur Burhonov an'anasiga hurmat bilan qaragani, uning yutuqlarini ijodiy o'rganishga intilgani e'tirof etilgandi. Bu talqinda esa oldingi sahnalashtirishdagi umumiy ruhiyatni saqlab qolgan holda qahramonning jo'shqin, shiddatli xarakterini ko'proq ichki-psixologik vositalar bilan berishga intilgan. Shu bois uning qahramoni yuksak aql-zakovat egasi sifatida adolat va shafqat, razolat va xoinlik haqida mushohada qiladi. Qora kuchlarga qarshi tengsiz kurashda sillasi qurib borarkan, Samarqand taxtidagi qirq yillik umrini qayta idrok etishga, yo'l qo'ygan xatosi nimada ekanini anglashga zo'r berib intiladi. Mohiyat zamiriga intilarkan, taxt qudratiga qarama-qarshi o'laroq, bukib bo'lmas yana bir qudrat — xalq qudratini yorqin his etadi. O'zi bilan o'sha qudrat orasidagi fojeiy ayrilish — tubsiz jarlik borligini tushunadi. Xalq bilan bir bo'lmay turib saodat yaratib bo'lmasligi haqidagi xulosaga keladi.

Turg'un Azizov obraz rivojidagi ana shu yo'nalishni yuzaga keltirish uchun, Ulug'bek qatnashadigan hisobsiz sahnalarni rejissor sifatida yaxshi tahlil va aktyor sifatida rang-barang talqin qilganini e'tirof etish kerak. Masalan, ba'zi sahnalarning o'rni almashgani natijasida spektakldagi mantiqiy rivoj uzluksizligi yuzaga kelgan. Shuningdek, oxirgi — qatl sahnasi Samarqand yaqinidagi bog'dan rasadxona poygagiga ko'chirilgan va ayrim maishiy ko'rinishlardan holilangan, bu narsa spektaklning fojiaaviy jarangiga ijobiy ta'sir etish bilan birga, favqulodda kuchli ruhiy-emotsional ta'sir kuchi kasb etgan. Sahna nihoyasi sharqona ishlangan bo'lib, tengsiz qotillik tomoshabin qalbini larzaga soladi, tomoqlariga allanimalar tiqilib, ko'zlarida yosh qalqiydi... Bu bilan spektakl tugamaydi. Rejissor yana bir, sanoqli daqiqalar davom etadigan so'zsiz sahna kiritgan va spektakl o'sha bilan yakunlangan. Abbos tomonidan chavaqlangan Ulug'bek o'lim bilan olisha-olisha rasadxona zinapoyalarida yuqoriga — yulduzlar tomon ko'tarilaveradi... Sahna aylanadi. Rasadxona qirrasining shunday poyiga qo'yilgan Samarqand taxtida padarkush o'g'ilning razil qiyofasi namoyon. Uning yuzida bezovtalik va taxlika alomatlar... Taxt ortidagi rasadxona devorlari esa ko'kka tomon bo'y cho'zgan, uning uchi musaffo falakka, charog'on porlab turgan yulduzlarga tutashib ketgan. Ular orasida Ulug'bekning jonsiz jussasi behol qo'llari pastga tomon osilib qolgan...

*Hamidjon Ikromov, «Uchinchi talqin», «O'zbekiston
adabiyoti va san'ati» gazetasi, 1990-yil, 13-aprel.*

NABI RAHIMOV BOBO KAYFIY ROLIDA

Bobo Kayfiy — Nabi Rahimov sahnada paydo bo'lishi bilan hazin-hayajonli tragediya jonlanib ketadi. U har safar qo'lida asov, yelkasida xurjun, mayning taftidan shirakayf ko'rinadi. Nabi Rahimovning qahramoni ko'cha-ko'yda zikr tushib, izg'ib yuradigan tovlamachi firibgarlardan emas, aksincha, uning mastligi zulm va xurofotga qarshi o'ziga xos isyondir. Tomoshabin buni dastlabki uchrashuvdayoq anglaydi. Bobo Kayfiy — Nabi Rahimov odamlar orasida latifago'ylik qilishni xush ko'radi, rivoyatlar aytadi, hammaga kulgu ulashib, o'z rizqini terib yuradi. Bordi-yu, qallob, daydi darveshlarga ko'zi tushib qolgudek bo'lsa, to'satdan jazavaga tushib, darhol ularni kalaka qilishni boshlaydi. Bunday holatlarni aktyor keskin harakatlar, o'tkir so'z o'yinlari orqali qiyomiga yetkazib

tasvirlaydi. Bobo Kayfiy hech kimdan hayiqmaydi, qo'rqmaydi, negaki uning yo'qotadigan narsasi yo'q. Dimog'dor amaldorlarni, kalvak ruhoniylarni, har xil tovlamachi chala mullalarni tap tortmasdan zaharxanda so'zlari bilan sharmanda qiladi. Hatto, hukmdor oldida ham sira o'zini yo'qotmaydi. Bobo Kayfiy — Nabi Rahimov podsho Ulug'bek (Sh. Burhonov) poyiga tiz cho'kib hasrat qilmaydi, balki bu olim qarshisida tavoze va quvlik bilan dardini to'kib soladi. Bu dard bilvosita uning rostmana kesatig'larida istehzoli pichinglarida, nozik ishoralar hamda oshkora qahqahasida namoyon bo'ladi. Tomoshabin Bobo Kayfiy — Nabi Rahimovning so'zamolligidan, dono va zukkolidan, mard va mag'rurligidan zavqlanadi, muttaham, kazzoblarni fosh qiluvchi masxara va sho'xliklaridan qah-qah otib kuladi. Biroq dunyo hasratlarini ko'ziga qamab, yelkasiga ortgan bu qoq suyak devonaning qahqahasi tomoshabinda nafaqat kulgu qo'zg'aydi, balki qachonlardir afsonaga aylangan buyuk allomalar qismatiga sherik bo'lgan «Devonalar» fojiasi sari yetaklaydi. Shuning uchun ham Bobo Kayfiy obrazini bevosita Nabi Rahimov yaratgan komik qahramon sirasiga qo'shish to'g'ri bo'lmaydi. San'atkorning bu rolda partnyorlar bilan munosabatida, so'z ohanglari va xatti-harakatlarida atayin tomoshabinni kuldirishga zo'r berish, jo'n yumor yoki bachkanalik sezilmaydi. Aktyor barcha ifodali sahna vositalarini, so'z o'yini, mimika, plastika va hokazolarni erkin improvizatsiya asosida rivojlantirib, avvalo, obrazning ruhiy kechinmalarini, iztirobini yuzaga chiqarishga sarflaydi. Lo'nda qilib aytganda, uning ijrosi zaharxanda satira, chapdast improvizatsiya hamda shiddatli psixologik hamlalar bilan qurollangan. Shularga asoslanib Bobo Kayfiy talqinini Nabi Rahimov yaratgan psixologik obrazlar sirasiga kiritish mumkin.

*Omonulla Rizayev, san'atshunoslik nomzodi, «Nabi Rahimov»,
G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at
nashriyoti, 1997-yil, 51—52-betlar.*

ZAYNAB SADRIYVA GAVHARSHODBEGIM ROLIDA

Gavharshod — Zaynab Sadriyeva sahnada ko'p ko'rinmaydi-yu, biroq saltanatdagi muhit, taxt talashish, saroy kishilarining, shu jumladan, ona bo'lmish Gavharshod ichki dunyosining naqadar jirkanchligini, qabihligini yaqqol ochib beradi. Yoshi o'tgan bo'lsa-da, hamon davlatni boshqarish orzusida yonishi va bu yo'lda hech nimadan qaytmasligi shu qadar haqqoniy ko'rsatilganki, u sahnaga chiqdi deguncha tomoshabin nafratini qo'zg'aydi. Kichik bu obraz bilan aktrisa qattiqqo'l, bag'ritosh shaddod malikaning jirkanch basharasini ko'rsatibgina qolmay, tomoshabin qarshisida o'sha davr ruhini jonlantiradi.

She'riy dramalarda obraz aktrisaga sahna sirining yana bir qirrasini ochdi. U avvalo she'r musiqiyligidan bahra olib, piching otish, tom ma'nosi bilan dahanaki jang qilish nimaligini tushundi. Ortiqcha harakat qilmasdan, bir og'iz so'z bilan yonidagilarni o'tirg'izib-turg'izishga qodirligini, jaholatning beshafqatligini ko'rsatadi. Ba'zida imo-ishora, sukut yoki kesatig' bilan voqeani jonlantirish hammaning ham qo'lidan kelmaydi.

*Marva Jaloliddinova, «Zaynab Sadriyeva».
G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va
san'at nashriyoti, 1987-yil, 88-bet.*

MIRZO ULUG'BEK

Uchinchi parda, ikkinchi ko'rinishdan parcha

G a v h a r s h o d. Siz o'g'limsiz, ammo meni yaxshi bilmaysiz,
Chunki sizni bolalikda Temurbek olib,
Samarqandga keltirgandi, u chog'dan sizga
Murabbiya bo'lgan edi Saroy Mulk xonim.

U l u g' b e k. Menda shoyad topilarkan yaxshi mayllar,
Barisiga bois o'sha xonim rahmatlik!

G a v h a r s h o d. Yaxshi mayl... Yaxshi mayl!.. Mirzo, saltanat —
Yaxshilikni dastur qilsa qulaydi tezdin
Taxtni saqlash lozim ekan, shaddodlik kerak!
Bu sir emas. Ota-bobo udumi-ku bu.
Istaymanki, farzandlarim sulton bo'lsa ham,
Xohishimga itoatkor, qaram bo'lsinlar,
Kelinlarim kaniz kabi tursin xizmatda.
Tarbiyamda bahra topgan nabiralarim
Shu axloqda o'sib-unda. Misol, o'g'lingiz,
Ko'z cho'g'idek asrab boqdim Abdulatifni.
Dono, jasur, oliyjanob, fahmli, zakiy,
Diyonatli, mo'min, mute, asl musulmon,
Shu talabni eslatgani keldim Hirotdan,
Ha shularga odatlangan Gavharshodbegim.

U l u g' b e k. Ha, chindan ham sizni yaxshi bilmas ekanman,
Onalikning haqi, ammo, bor bo'ynimizda.
Biroq, hurmat — ko'r-ko'rona itoat emas,
Taajjubki, sizda shuncha zakovat bor-u,
Boshqa hamma xotinlarni pastga urasiz,
Axir siz ham ayollarning vakilasi-ku.
Jannatmakon otamizning sizga ixlosmand —
Bo'lganidan foydalanib, hamisha, har on
Siz Hirotda erk va ongni siqdingiz yomon.
Tarbiyangiz ko'rib olgan nabiralar-chi,
Qarang, ular bir-biriga qanday g'arazkor!
Abdulatif, Alo bilan Bobir — uch qardosh
Bir-biriga lashkar tortib savashdi yovuz.
Abgor bo'ldi qancha shahar va inson, xazina.
Uchovi ham nabirangiz, dastparvardangiz.
Birin qo'zg'ab, birin qoqib, birin erkalab.
Nuqul janjal chiqardingiz o'rtalarida,
Yo'q, bu axloq, bu tarbiya, bu odat-udum
Samarqandda o'rnashiga yo'l qo'yolmayman.
O'g'lingizman va o'paman qo'llaringizni,
Tiz cho'kmakka omodaman huzuringizda.
Ammo, shu yurt sultoniman, hukmdoriman,
Bu o'lkaning taqdiroti menga havola.

Aralashmang bu davlatning ishlariga siz,
Hamma tadbir, buyruqlarga o'zim javobgar.
Siz — malika, biling, emas hokima!

G a v h a r s h o d. Bunday javob eshitgani kelganmidim men,
Sahrolarni, daryolarni o'tib mehmonga?

U l u g' b e k. Javob achchiq, lekin ochiq. Ayni haqiqat.
Eh, sizsiz ham badxohlarim kam emas edi,
Endi ona qo'lidan ham zarba olaymi?
Xafa bo'lmang. Lekin, shoyad arazlasangiz,
Yana deyman: mamlakatning hayot-mamoti
Menga barcha azizlardan yanada aziz.

G a v h a r s h o d. Ulug' Mirzo, bu saltanat Temurbekniki,
Unga voris Shohruh Mirzo, otangiz,
Otangizdan keyin Temur xonadonida
Yoshi ulug', fikri to'lug' men — volidangiz.
Nabiralar o'z o'rtada urushsa, mayli!
Bu ularga jangovarlik mashqidir, xolos,
Men ularni bir-biriga ko'z qilib qo'ydim,
Toki chiqsa buyrug' imdan bironta farzand,
Ikkinchisi unga qarshi otlanib darhol,
Odobini bergay uning... Bu yo'l yomonmi?

U l u g' b e k. Esiz mashqlar, esiz odob bermak usuli,
Qizishtirib ulardagi kekni va nafsni.
Qancha-qancha qirg'inlarga bo'ldingiz bois,
Bular bari menga faqat andisha bo'ldi.

G a v h a r s h o d. Shahzodalar savashlarda, jang-u jadalda,
Puxta bo'lib sardorlikni egallaydilar.
Siz bo'lsangiz xushtor bo'lib hisob-kitobga
Boy berdingiz qo'ldan hatto hushyorlikni.
Aslzoda va mo'tabar odamlar emas.
Har xil tuban toifalar sizga ma'qulroq.
Eshitdimki, eng ishongan mahramingiz deb,
Olim, fozil deb maqtagan dastyoringiz
Ali Qushchi degan bitta noasl ekan?
Kim ekan u? Shu dargohda qullardan chiqqan.
Lochinlarni boqib yurgan qushbozning o'g'li.
Laqabini ko'rmaysizmi? «Qushchi» Yo pirim!
Mahramingiz — «Qushchi», shuncha qovushmagan nom
Turkiston-u Xurosonda hech bir xonzoda
Sizga manzur bo'lmabdi-yu, ammo negadir
Bog'bon qizi sizni butkul qilgan oshufta!
Koshki, tagli zotli bir qiz bo'lsa edi-ya!

U l u g' b e k (*Xanda bilan*).

Ha, siz aytgan odamlarning pastdir nasabi,
Aqlari juda baland, lekin, mansabi...

G a v h a r s h o d. Asli yo'qdan har balo ham chiqsa ehtimol.
U l u g' b e k. Qanday balo?
G a v h a r s h o d. Yo xiyonat, yo pastkashlik!
U l u g' b e k. Bu shartmikin?
G a v h a r s h o d. Yo'q, shart emas, ammo bor gaplar.
 Bu dargohga kirgan bilan hamon duv-duv gap:
 Firuza-yu Abbos, tag'in Abbos, Firuza...
 Nega, axir bu ikki nom aytilar birga?
 Men aytmoqchi emas edim sizga shu sirni.
 Balki mendan oldin bundan o'zingiz voqif,
 Savolingiz javobidan gapirdim, xolos.
U l u g' b e k (*o'z-o'ziga*). Tag'in ig'vo, tag'in fasod, oh muttahamlar!
 (*Gavharshodga*). Bu uydirma gap, volida, ishonmang shunga!
G a v h a r s h o d. Har hodla men bu gaplarni tilimga ortib
 Keltirganim yo'q Hirotdan! Bu ko'p xunuk gap!
 Shunday, o'g'lim, uy egasi hushin yo'qotsa,
 O'g'rilarga o'sha ko'ra ochiq guliston.
 Namoz vaqti bo'lib qoldi. Borayin endi.

Beshinchi parda, ikkinchi ko'rinishdan

Samarqand. Go'ri Amir. Temurning maqbarasi. Ulug'bek kirib keladi, orqasida
 mash'al ko'targan ikki mahram.

U l u g' b e k (*Mahramlarga*).
 Siz mash'alni shunga tikib eshikda kuting!

 Mahramlar chiqadi
Shu — qirq yillik andishaga alamli yakun.
Ketib qoldi zamonadan diyonat, rostlik.
Mudhish bir jar yoqasida turmush mamlakat.
Zulmatli tun qo'nayotir yurtning ufqiga.
Bobo Temur omonating saqlayolmadik.
Avlodlaring chiqib qoldi g'oyat noqobil.
Temuriylar manglayiga bitilgan shumi?
Tomirimda garchi yurar Temurning qoni,
Ammo menda Temurbekning shaddodligi yo'q,
Men hech qanday tahlikadan hayiqmayman, yo'q.
Men o'limni hokim emas qul, deb sanayman.
Uni falak ovchisining ko'ppagi deyman.
Turkistonda garchi menga teng keladigan
Mergan yo'g'u, ammo urush ta'bimga yoqmas.
Jang, ma'raka, odam qirish, safarda yurish.
Barakatning bog'larini kesib kuydirish —

Sening sevgan nabirangga, iztirob.
Bobo Temur, bu jumboqqa o'zing ber javob:
Shohlar burji yashatmoqmi yoki o'limmi?
Quvvat nima? Muruvvatmi yoki zulmmi?

Ulug'bek qabrga engashib chuqur xayolga botadi. Birdan Temur tobuti qarsillab ochilgani eshitiladi. Sag'anani tutun bosib, mash'al o'chadi. Shu paytda sahnaning orqa pardasida soyalar qo'ynida bir balandlikda Amir Temurning mujassam qomati paydo bo'ladi. Uning

qiyofasi haybatli. Qo'lida uzun qilichini havoda o'ynatib, qahqaha urib yuboradi.

Temur arvohi. Urho-urho! Yog'i, qochdi, yo olloh, urho!
Yer yuzida buzilganga o'xshar intizom.
Avlodimdan sohibqiron chiqolgan kim bor?
Eh, janglarning dag'dag'asi, gashti qolmabdi.
Maydonlarda issiq qonning bug'i ko'rinmas.
Men to'ldirgan ummonlarning savlati qani?
Qani o'sha quturuvchi yoldor dengizlar?
Ummonlarning o'rnida men hovuz ko'raman.
Bir hovuzki, kaftimga ham qiladi kamlik,
Qon purkagan sipohlarning tuyoq izidan
Sanqib yurar bugungi kun anqov sarbozlar
Men oltmish yil ot belidan tushmadim, toki,
Ilal-abad avlodlarim bo'lsin jahongir.
Har kun besh bor aytar edim: butun yer yuzi
Torlik qilar: sig'dirolmas ikki podshohni.
Ammo, bugun ko'ramanki, ellik shohga ham
Kenglik qilar, ortib qolar shu latta Dunyo.
Osmonda bitta tangri, yerda bir sulton.
Aks holda to'polonlar lobid, muhaqqaq.
Shahrisabzlik Temurbekning vahimasidan
Qaltirardi yetti iqlim tog'u toshlari.
Samarqandda bir yo'talsam, buning zarbidan
Yorilardi xalifayi Bag'dodning o'ti,
Isfahonda zilziladek qimirlardi yer,
Bir na'ramdan qular edi shohlarning toji,
Poytaxtinga oqar edi dunyoning boji...
... Ulug'bekni men ko'rgandek bo'laman hozir.
O'g'lim, sening irodangni yeb qo'ydi kitob.
Sipohiylik rasmlarin qilmayin pisand,
Yulduzlarning qo'shiniga bo'lding farmondor.
Osmoniy o'lkalarni olmoqchi bo'lib,
Yerdagi naqd diyoringni boy berding qo'ldan.

Beshinchi parda, beshinchi ko'rinishdan

U l u g' b e k. Sabr et, jonim! Irodaning farzandi umid,
Tundan keyin tong otmasdan qolganmidi hech.
Anov tog'lar orqasidagi, bulut sirtida
Koinotning yosh kelini mohtob o'rmlar,
Garchi uni ko'rmaymiz, u bizlarni ko'rar.

F i r u z a. Ustoz, ketish qancha og'ir, ammo siz bilan
To dunyoning chekkasiga borsam roziman.
Lekin ayting: fikringizcha yana bir karra
Samarqandni ko'rmak bizga bo'lurmi nasib?

U l u g' b e k. Sizlar beshak ko'rarsizlar. Men-chi, mabodo,
Umrim vafo qilsa, men ham ko'rarman albat.
Bu o'g'rilar saltanati ko'p uzoq bormas.
Ammo shoyad Samarqandni men ko'rmasam-da,
Samarqandning shahri meni albatta ko'rar.

O t a M u r o d. Chunki sizni vijdoni bor el yaxshi ko'rar.

F i r u z a. Nima degan, siz ko'raysiz, sizni u ko'rar.

U l u g' b e k. Ya'ni tirik qaytolmasam Samarqandga men,
Bu shaharda ko'milg'usi tanim har holda.
O'z o'g'lini nahot chetda qo'ysa Samarqand?
Nahot, qirq yil mehnatimning evaziga men
O'z shahrimdan ikki gazlik yer ololmasam...
Eh, shu g'amgin tashvishlarni qo'ygin, azizim,
Men umrimda ko'p sarguzasht, ko'p odam ko'rdim,
Xoqonlarga hamkasb bo'ldim, janglarda yurdim,
Gohi tunda musofirlar libosin kiyib,
Shaharlarni, qishloqlarni birma-bir kezdim.
Qirda, dashtda ovchilikning gashtini sezdim,
Tanilmasdan o'g'rilarga goho yo'liqdim,
Ko'kni aniq ko'rmoq uchun tog'larga chiqdim.
Ba'zan ovul to'ylarida o'yinga tushdim,
«Manman» degan pahlavonlar bilan kurashdim.
Bular senga qiziq-qiziq qissa emasmi?
Men bularni senga bir-bir aytib beraman,
Inshoolloh, uzoq safar manzillarida.
Yigitali, ot-egarni yaxshilab taxla!
Yo'l qorong'i... Biz tundayoq dovondan oshib
Shahrisabzga yetmog'imiz lozim saharda.

Maqsud Shayxzoda, Asarlar.
G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot
va san'at nashriyoti, 1972-yil, III-jild.

HAMID OLIMJON

(1909—1944)

Atoqli shoir va dramaturg Hamid Olimjon 1909-yil 12-dekabrda Jizzax shahrida tavallud topgan. Boshlang'ich maktabni tugatgach, Samarqand pedagogika bilim yurtida, so'ng pedakademiya (1926—1931) tahsil ko'rgan. U 1939-yildan umrining oxirigacha O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasiga rahbarlik qilgan.

O'zbekiston Fanlar akademiyasining muxbir a'zosi (1943) Hamid Olimjon qator ilmiy maqolalari bilan ko'ringan olim, xassos shoir bo'lish bilan bir qatorda dramaturgiya sohasida ham samarali qalam tebratgan. 1942-yili N. Pogodin, Uyg'un, S. Abdullalar bilan hamkorlikda «O'zbekiston qilichi» pyesasini yaratdi. Vafotidan uch oycha avval «Jannat» degan dramasi yozib tugatdi. 1944-yili yozilgan «Muqanna» asari uning dramaturglik faoliyatida eng yirik namuna bo'lib qoldi.

«Muqanna» o'zbek xalqining arab bosqinchilariga qarshi ozodlik kurashi tarixidan olingan bo'lib, Ikkinchi jahon urushi yillarida fashizmga qarshi vatanparvarlik harakatini kuchaytirishda katta tarbiyaviy ahamiyat kasb etdi. Asar o'sha yili hozirgi Milliy akademik drama teatrida M. Uyg'ur va S. Mixoels tomonidan sahnaga qo'yildi. Bosh rollarni Abror Hidoyatov (Muqanna), Sora Eshonto'rayeva (Guloyin), Shukur Burhonov (Said battol), Obid Jalilov (Jaloyir)lar o'ynaganlar.

Asarning musiqali drama varianti (Yu. Rajabiy, G. Mushel musiqasi) o'sha yilning yozida Yangiyo'ldagi musiqali teatrdagi Yetim Bobojonov talqinida sahnaga qo'yilgan. Muqanna roliga Sattor Yarashev, Guloyin roliga Farog'at Rahmatova va Said battol roliga Abdurauf Boltayev chiqqanlar.

HAMID OLIMJON VA UNING «MUQANNA» ASARI HAQIDA SHARHLAR

«Muqanna» vatanparvarlik dramasi H. Olimjonning urush yillaridagi eng kuchli asaridir, drama O'zbekistonning XVIII asr arab bosqinchilari tomonidan zabt etilishi davridan olib yozilgan. Xalq dohiysi Muqanna va o'ziga xos Janna D'ark — qahramon Guloyin — bu Hamid Olimjonning ulkan yutug'idir.

Aleksandr Fadeyev.

O'zbek sahnasi so'nggi vaqtgacha xalqimiz o'tmishining tarixiy qahramonlik mavzuiga bag'ishlangan monumental spektakllarga ega emas edi. Hamid Olimjonning yaqinda Hamza nomli O'zbek akademik drama teatri tomonidan sahnaga qo'yilgan «Muqanna» dramasi keng jamoatchilik e'tiborini jalb etayotganining sababi ham ana shundadir.

...O'zbek shoiri Hamid Olimjon Movarounnahr xalqlari dohiysi Muqannaning yorqin, ishontirarli monumental obrazini yaratdi. Unda xalqning ma'naviy qudrati, qahramonligi, ozodlikni sevishi kabi oliyjanob fazilatlarini mujassamlashtirdi. Pyesa voqealari boshdan-oyoq fojeiy bo'lishiga qaramay, insonni g'alabaga, jasorat ko'rsatishga ilhomlantiruvchi muqaddas kurash nafasi bilan yo'g'rilgan. Bu bilan birga pyesada Hamid Olimjon ijodiyotiga xos lirizm ancha o'rin olgandir...

Muqanna (O'zbekiston xalq artisti Abror Hidoyatov) birinchi sahnaga chiqishidanoq tomoshabinning diqqatini butunlay o'ziga tortib oladi. O'zbek teatrining ulug' arbobi Abror

Hidoyatov mana bir necha yildirkim, Otello rolini mislsiz mahorat bilan o'ynab keladi. Muqanna roli esa, uning yangi ijodiy muvaffaqiyatidir.

Komil Yashin, Mehnat qahramoni, akademik. Komil Yashin asarlari majmui, 3-tom, 85—86-betlar.

RAUF BOLTAYEV SAID BATTOL ROLIDA

Bu asarni Toshsovet teatri sahnasida Ye. Bobojonov (Yu. Rajabiy musiqasi) sahnalashtirar ekan, arab bosqinchilarining zo'ravonliklari, ularga qarshi bosh ko'targan xalqning ozodlik uchun olib borgan kurashi o'rtasidagi konfliktga juda katta e'tibor beradi.

«Men bu rolni ijro etar ekanman Said battolning zolimligiga, makkorligiga, takabburligiga va qattiqqo'lligiga e'tibor bergan edim», — deydi aktyor. «Muqanna» pyesasini sahnaga qo'yish paytida Yetim Bobojonov aktyorlar bilan qanday ishlaganligini M. Fattoxov quyidagicha hikoya qiladi.

«Ustoz» (Ye. Bobojonov) dastlab ijodiy kollektivga pyesani o'qib berdi. Pyesa avtori — Hamid Olimjon ham birga edi. Qisqa mulohazalardan so'ng Yetim aka har bir aktyorga taxminan rol taqsimlab berdi. Pyesa ikkinchi marta rollarga bo'linib, ijrochilar ishtirokida o'qildi. Ya'ni shunda asardagi personajlar ustida har tomonlama chuqur fikr yuritish imkoni tug'ildi.

Rol o'ynovchi aktyorlar bilan pyesani tahlil qilganimizda asar yuzasidan bo'lgan fikrlar yana ham oydinlashdi. Masalan, pyesaning dastlabki ikki ko'rinishini olaylik.

Voqea arab lashkarboshchisi Said battol joylashib olgan uyda o'tadi. Said battol sarosimada. U xalq qahramoni Muqannaning bosqinchilarga qarshi bosh ko'targanini eshitib g'azablanadi. Xalq Muqanna rahbarligida qonxo'r bosqinchilarga qarshi bosh ko'targanini eshitib g'azablanadi. Xalq Muqanna rahbarligida qonxo'r bosqinchi Said battoldan o'ch olishga qo'zg'aladi. Xalq Muqannaga ergashadi va butun kuchini Vatan ozodligiga safarbar etadi.

Yetim aka Said battol rolini Abdurauf Boltayevga bera turib, bu rolning xarakterli tomonlari haqida quyidagilarni tushuntiradi:

«Said battol nihoyatda qaysar, munofiq, badjahl, xotinboz, mansabparast, bezori, lashkarboshilikni sotib olgan bir badbashara... Siz bu obraz ustida yana ham ko'proq fikr yuriting, kelgusi mashg'ulotda bu haqda menga aytib berasiz».

Abdurauf Boltayev Yetim akaning gapiga binoan navbatdagi mashg'ulotga tayyorlanib keldi va qotil Said battol haqidagi fikrlarini aytib berdi. Rejissorimiz Said battol haqidagi mulohazalaridan qanoat hosil qildi.

«Endi, — dedi Yetim aka, A. Boltayev, Said battolning tiliga alohida ahamiyat bering».

Turob Jo'rayev. «Abdurauf Boltayev». G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1982-yil, 48—49-betlar.

MUQANNA

(4-parda, 7-ko'rinishdan parcha)

M u q a n n a. Ko'p joylarni u zabt etgan bequrol,
Poshnasiga arzimaydi ming Battol.
Urushlarning o'ti yonar qonida,

Eng tanlagan boshkesarlar yonida.
Bizga qarshi uning o'zi kelibdi,
Orqasida ming-ming lashkar turibdi.
Ayt-chi, to'xtab bo'ladimi shu damda?
To'xtadingmi? Qolding dog'u alamda.
Foyda yo'q bizga jangdan to'xtashdan!
To'xtamasga hujumni amr etaman.
Har daqiqa bizning uchun g'animat,
To'xtashlikni yoqtirmaydi bu san'at.
To'xtashlikdan gapirma hech bir menga,
(*Qurollarni ko'rsatadi.*)

Ana qurol, kerak bo'lsa ol senga.

B o g' i y. Bor-yo'g'ini topshirmoqda xaloyiq,
Pichoq, xanjar, so'nggi sovut, hatto mix.
Hunarmandlar yasamoqda qilichlar,
Bolta, tesha keltirmoqda behunar.

M u q a n n a. Bundan so'ngra ravshan bo'lsinkim senga,
Qurolimiz ko'pligidan biz jangga
Kirganimiz yo'q, vatanni qutqarish
Bizning uchun qurolsiz ham majbur ish!
Chumoliga yerni teshgan qurolmas,
Sherga kuch va dahshat bergan qurolmas.
G'azab o'zi bizni arslon qiladi,
G'azabi zo'r o'zni sher deb biladi.
O'q tugasa, tosh otamiz dushmanga.
Tosh tugasa, bosh otamiz dushmanga,
Qilich sinsa, bolta bilan uramiz,
Bolta sinsa, tayoq bilan qiramiz;
Tayoq sinsa, tirnoq bilan tirnaymiz,
Ko'ragidan tishlab olib qiynaymiz.
Hamma narsa tugaganda, qonimiz
Oqa-oqa paydo bo'lar biz dengiz,
Qonimizga dushmanni g'arq etamiz,
Yovni yengib, so'ng maqsadga yetamiz!
Jinoyatdir shunday paytda turmoq tek,
Qurollarni oling, jangga chiqaylik!

Qurollarni oladilar. Muqanna o'z qilichini yalang'ochlaydi. Chiqadilar. Birozdan so'ng
sahnaga Guloyin kiradi. Hamma yog'i qon, qo'lida qilich.

G u l o y i n. Bir qultum suv... ichimda o't yonadi,

Uning orqasidan sovut-qalqon kiygan Battol kirib keladi, qo'lida qilich.
Guloyin sachrab orqasiga qaraydi.

G u l o y i n. Qaydan paydo bo'lding, xoin, ko'zinga!
B a t t o l. To o'ldirmay kelolmayman o'zinga.
G u l o y i n. Kecha-kunduz o't ichida yuraman,
Ne uchunkim, seni yomon ko'raman.
Ko'r asoni yo'qotadi bir marta,
O'ldirsam chiqmayman hech alamdand.

Battol qilichini to'g'rilab hujum qilmoqchi bo'ladi.

B a t t o l. Azroildek jon olmoqqa kelganman.

Battol va Guloyin qilich solishadilar. Fero'z birdan orqadan kirib, o'zini Guloyin ustiga tashlaydi.

F e r o' z. Sen o'lmasang. Muqanna hech o'lmaydi.
G u l o y i n. O, seni ham ko'rar kun bor ekan-ku,
Biring tulki, biring zaharli ilon,
Biring bo'ri, biring la'nati chayon.
F e r o' z. Qon ichmakka bunda keldim shu zamon.

Guloyin Fero'zni ag'darib tashlaydi. Qilich solib o'ldiradi. Battolga yuz o'girar ekan, Battol uning ko'kragiga qilich sanchadi. U yiqiladi. Chopganicha Muqanna kirib keladi.

M u q a n n a. Adolat xo'p tashna bo'ldi qoningga.
B a t t o l. Mening o'zim chang solaman joningga,
Oqizoldim qator-qator yoshingni.
Uzib olib ketolaman boshingni.
Qul bo'lishni istamading, endi san
Bir chuqurga ko'milasan bekafan,
Qul bo'ladi ham xalqing, ham vataning,
Qul bo'ladi urug'-avloding saning.
So'ng bo'ladi bir niqobdor qilgan jang.
M u q a n n a. Mana, sening bir umrluk nasibang.

Qilich solib o'ldiradi. Tashqaridan odamlar kirib, Battol bilan Fero'zning jasadini olib chiqadilar. Muqanna Guloyin tepasiga kelib tiz cho'kadi. Guloyin azob chekib, fig'on tortadi.

G u l o y i n (o'z -o'zicha).
Kecha-kunduz o't ichida yuraman,
Ne uchunkim, seni yomon ko'raman.
M u q a n n a. Guloyinim, yurak bag'rim, malagim.

Guloyin unga qarab talpinadi.

G u l o y i n. Izlay-izlay oxir topgan tilagim,
Men o'laman, sen qolasan dunyoda.
M u q a n n a. Qilma, jonim, alamimni ziyoda,
Sensiz menga dunyo ko'p tor bo'ladi.
G u l o y i n. Men o'laman, dunyo gulga to'ladi.
M u q a n n a. Bu dunyoning guli yolg'iz sen o'zing,
Koinotga jon beradi har so'zing,
Butun borliq yorug' olar ko'zingdan,
Osmonda oy to'lishadi yuzingdan.
Sen ketganda bog' bulbulsiz qoladi,
Bog' bulbulsiz, chaman gulsiz qoladi.
G u l o y i n. Ko'zim ochding, men dunyoni keng ko'rdim,
O'zimni har odamlarga teng ko'rdim,
Sening bilan birga yozdim qanot ham,
Ko'zlarimga go'zal bo'ldi hayot ham.
Bir necha kun qavas bilan yashadim,
Qatto erkin nafas bilan yashadim.
Armonim shu: ko'rolmadim elni shod,
Ko'rolmadim vatanni yovdan ozod.
Tez to'kildi mening bir kosa qonim,
Yuragimda qoldi barcha armonim.
Bitta qo'ymay yovlarning ko'zini o'y,
Otam bilan onamga salom deb qo'y!
Xayr endi, yolg'iz qolib omon bo'l...

O'ladi. Muqanna yig'laydi. Uning yuzidan o'padi.

M u q a n n a. Guloyinim, yurak bag'rim, ko'zing och,
Butun jahon senga mushtoq, nazar soch.
Ko'pni ko'rib ado bo'lgan bu olam,
Sendan bugun ajratolmas sira ham.
O'lmak uchun sen tug'ilgan emassan,
Zax tuproqning bag'riga sen uvolsan.
Nahotki sen bir umrga ko'z yumsang,
Nahotki sen, og'ir uyquga cho'msang
Va nahotki sening toza gul taning
Bukun bo'lsa qora tuproq bilan teng.
O'ringdan tur, ey sen mening hayotim,
O'ringdan tur, uchar bo'lsam qanotim.
Ajralmasman aslo sendan bir umr,
To bor ekan tanimda jon, ko'zda nur.
Sen bo'larsan har doimo yonimda,
Tirik bo'lsam saqlanarsan jonimda.

Muqannna boshi yerda ekan, uning tepasiga qurol-aslaha olib kelgan aholi, jangdan chiqqan oq ko'ylaklilar to'planishib qoladilar. Muqanna sekin boshini ko'tarib yoshini artadi. Ularga boqadi. Hammaning boshi egilgan. So'ngra Muqanna yana egilib Guloyinni qo'liga

ko'taradi.

Qani jangga, jangga chiqing arslonlar,
Jangga chiqing, ey aziz qahramonlar!
Guloyinning qilichi qo'limizda,
Bu muqaddas qasosi dilimizda.
Bir parcha o't, bu tunganmas alanga
Chaqiradi sizlarni so'nggi jangga!

Hamma chiqadi.

*Hamid Olimjon. Asarlar. 3-tom. G'afir G'ulom
nomidagi Adabiyot va san'at
nashriyoti, 1971-y.*

KOMIL YASHIN

(1909—1997)

Atoqli dramaturg va jamoat arbobi Komil Yashin (Komil Nu'monov) Andijon shahrida Nu'mon Jumaboy o'g'li oilasida tug'ilgan. 6 yoshida eski maktabga beriladi, yangi maktabning 7-sinfini tugatgach, Sankt-Peterburgdagi o'rmon xo'jaligi instituti tayyorlov kursida va so'ng institutda ikki yil o'qiydi, shaharning rutubatli ob-havosi sog'ligiga to'g'ri kelmagach, o'z shahri Andijonga qaytadi, maktabda o'qituvchilik bilan shug'ullanadi. 1928—1930-yillari Andijon, so'ng O'zbek davlat musiqa teatrlarida adabiy emakdosh, keyinroq O'zbekiston xalq komissarlari qoshidagi san'at ishlari boshqarmasida boshliq (1948—1949), O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi (1958—1980) kabi vazifalarda xizmat qiladi.

K. Yashin adabiyotga juda erta kirib kelgan edi. Birinchi havaskorlik «Sarang» pyesasini 14—15 yoshida yozgan. So'ng «Teng — tengi bilan», «Lolaxon» (1927) bir pardali asarlarini yaratadi. 1929-yili atoqli rejissor Muzaffar Muhamedov boshchiligida Andijonda yirik ijodiy jamoa uyushgan bo'lib, shu yerda yaratilgan «Ikki kommunist» pyesasidan so'ng o'z hayotini teatr bilan bog'lashga ahd qiladi.

K. Yashin dramaturgiyada ikki yo'nalishda ijod qilgan: «Yondiramiz» (1931), «Nomus va muhabbat» (1935), «Hamza» (1940, A. Umariy bilan), «O'lim bosqinchilarga» (1942), «Oftobxon» (1944), «General Sobir Rahimov» (1949), «Buxoro» (1974) kabi pyesalar sof drama janrida yozilgan bo'lsa, «O'rtoqlar» (1930), «Ichkarida» — «Gulsara» (1933—1935), «Nurxon» (1940), «Ravshan va Zulxumor» (1957) singari asarlar musiqali drama janriga oiddir. «Bo'ron» (1939), «Ulug' Kanal» (1941), «Dilorom» (1958), «Hamza» (1961) operalari uchun librettolar, «Asal», «Hamza» filmlari uchun ssenariylar yaratadi.

K. Yashin yirik teatr nazariyachilaridan biri edi. U 21 yoshida «Meyerxold va uning nazariyalari» (1930) maqolasida o'sha davrda keng shuhrat topgan rejissor V. Meyerxold ijodiy uslubini tahlil etib, ijodiy erkinlik muammosini olg'a surgan edi. «O'zbek opera-baletini yaratish yo'lida» (1934), «Dramaturgiyaning yetakchiligi va aktyor ustaligi» (1935), «Muqanna» dramasi haqida» (1943) singari o'nlab maqolalari o'zbek teatrini o'rganishda muhim manba hisoblanadi.

O'zbek teatri va dramaturgiyasini rivojlantirishdagi xizmatlari uchun K. Yashin O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, O'zbekiston xalq yozuvchisi unvonlariga sazovor bo'ldi, 1974-yili unga Mehnat Qahramoni unvoni berildi.

KOMIL YASHIN O'ZI HAQIDA

Men qanday ishlayman? Ijodiy ishlarimni qanday planlashtiraman?

Necha yildirki, adabiy mehnat, ijod bilan shug'ullanaman, ammo hamon boshlagan paytimdagi odatimga sodiqman: avvalgidek qo'lda yozaman, keyin qo'lyozmani 4—5-marta qayta ko'chiraman, kimgadir uni ko'rsatishdan avval, mashinkadan chiqqan nusxani ham qayta-qayta tuzataman.

Bloknot, yon daftarcham hamisha yonimda men bilan. Boshqacha bo'lishini tasavvur ham qilolmayman, chunki mamlakat bo'ylab, uning sarhadlari osha ko'p marta kezishlarga, turli yosh, xarakter va kasbdagi ajoyib kishilar bilan uchrashishlarga to'g'ri keladi. Odamlar suhbatini sinchkovlik bilan kuzatmoq lozim. Axir keksa bir kishining gapi yosh yigitnikiga o'xshamaydi yoki bir kampir suhbatini yosh qiznikidan keskin farq qiladi. Ular gapining

o'ziga xos uslubini bera bilish kerak, e'tirof etishim kerakki, personajlarning birontasi ham avtor tilidan gapirmaydi, dehqon ham, amir ham, soldat ham o'z tilidan gapiradi.

«O'zbekiston madaniyati» gazetasi,
1973-yil, 22-may.

RAZZOQ HAMROYEV **(1910-1981)**

O'zbekiston xalq artisti Razzoq hamroyev Namanganda 15 yil ishlab 1946 yil Muqimiy nomidagi O'zbek davlat musiqali teatrga rejissor va aktyor sifatida ishga o'tdi. Rejissorlik yillarida musiqa rahbari, kompozitor To'xtasin Jalilov (1896-1966) va boshqa ijodkorlar bilan birgalikda Muqimiy nomli teatrnı Respublikada musiqali drama san'atining markaziga aylantirdilar. U.Uyg'un va M.Leviyevning "Oltin ko'l" (1949), K.Yashin, T.Jalilovning "Muqimiy" (M.Uyg'ur bilan hamkorlikda, 1953), H.G'ulom, M.Leviyevlarning "Toshbolta oshiq" (1961), H.Razzoqov, K.Jabborov, S.Hayitboyevlarning "Nodira" (1963), S.Jamol, S.Jalil, D.Soatqulovlarning "Guli siyoh" singari o'nlab yoqori saviyali spektakllar yaratdiki, ular repertuerda davomli yashb xalq dilida qoldi. Dramaturg Hamid G'ulomning bir necha asari, ayniqsa "Toshbolta oshiq" komediyasi R.Hamroyev talqinida alohida shov-shuli muvaffaqiyat qozongan.

RAZZOQ HAMROYEV: **«TERAN TAFAKKURLI IJODKOR EDI»**

Men hamkorlik qilgan ustozlar orasida hurmatli dramaturg va adibimiz K. Yashinning ba'zi ajoyib xususiyatlari haqida gapirmasam bo'lmas. Men bir hikoyani eshitganman. Buyuk Gogol o'zining mashhur «Revizor» komediyasini yaratganda, komediya qahramoni Xlestokovning bitta monologini 20-marta qayta-qayta yozib, so'ng bir nusxasida to'xtagan ekan. Komil aka ana, shunaqa, qilgan ishlaridan darrov qanoatlanib qolmaydigan, bir necha bor turli nusxada ishlab ko'rishdan zerikmaydigan, zahmatkash va teran tafakkurli ijodkordir.

Yashin domla agar asarlari ikki oy sahnada repetitsiya (mashq) qilinsa, vaqt topib shu oltmishta repetitsiyada ham qatnashadi. Ish jarayonida rejissorga, aktyorga o'z maslahatlari bilan ko'maklashishdan tashqari asar ustida ishni davom ettiradi, aktyorning ijrosidan so'ng ba'zi so'zlarni tahrir qilish, hatto butun bir sahnani qaytadan yozib chiqishdek ishlarni uddalaydi. Bu bilan pyesa sayqallanadi, sahnalar ta'sirchanlik kasb etadi. K. Yashindek ustozning mehnatga, ijodga bo'lgan bu munosabati teatrdagi san'atkorlarni mahorat bilan, samarador ijod etishga safarbar etadi.

Razzoq Hamroyev, «Hayotim mazmuni»
1979-yil, 124—125-betlar.

«BUXORO» SPEKTAKLIDA YOQUB AHMEDOV FOZILXO'JA ROLIDA

Folizxo'ja timsolida zulmat ichida o'ziga noma'lum bo'lgan ziyoga, ammo mavjud, hammani o'z yog'dusi bilan baxtiyor eta oluvchi nurga intiluvchi, butun borlig'ini shu yo'lga tikkan va oxiri shunga erishuvchi ajoyib inson obrazi gavdalangan.

Beqasam to'n kiygan, surma rang shohi salla o'ragan, xushqomat bu yigitning muazzin azoni tingach, tong chog'ida minoralar qarshisidagi holatini unutish qiyin. Ham g'urur, ham o'kinch, ham iztirobi bir-biriga qo'shilib ketadi bu yerda. Shodiya bilan birinchi uchrashuvi ikki yoshning katta sevgisidan hikoya qiladi. Fozilxo'ja — Ahmedov uchun eng qimmatli fazilat shundaki, unda shaxsiy drama ijtimoiy burch tuyg'usi bilan qorishgan holda ko'rinadi. Zotan, sevgi xo'rliqi, inson erki shubhasiz ijtimoiy erkinlikka bog'liqdir. Fozilxo'janing shaxsiy dardi undagi shu e'tiqodni kuchaytiradi va uning amirlik saltanatiga bo'lgan muxolifligini oshirib boradi. Demak, Fozilxo'ja faqat erkinlik haqida so'z ochuvchi, o'zining shaxsiy dard, tashvishidan mahrum kishi emas, balki unda ham bir inson tabiatiga xos shaxsiy manfaatdorlik tuyg'usi ham bor. Yoqub Ahmedov ko'rsatgan obrazning hayotiyliigi shundadir.

*Sotimboy Tursunboyev. «Ajoyib inson obrazi».
«O'zbekiston madaniyati». 1975-yil, 15-iyul.*

S.ESHONTO'RAYEVA OYXONBIBI OBRAZI HAQIDA E.UMAROV SHARXI

Oyxonbibining o'g'li Fozilxo'ja murakkab chalkash xayollar girdobida qoladi. Najot yo'lini topolmay chakkasiga to'pponcha qadaydi, iztirob chekadi. Chunki u tanlagan yo'l g'oyat xatarli, u o'lim bilan olishmoqda. Shu vaqt o'g'li oldiga ona — Sora Eshonto'rayeva kirib keladi: «... Bas qil, bas! Tur o'rningdan... Qaddingni rost tut. Xudoga ming qatla shukur qilaman. Qo'rqq, xudbin, yuzi qora zolim o'g'il emas, qalbi pok, aqli raso, sher-yurak o'g'il tuqqan onaman. Sen qachonki qaddingni buksang, zolimlar oldida bosh egsang, orqaga qaytsang, qo'rqsang, amirdan rahm-shafqat tilasang, ana shunda seni men duoibad qilaman».

O'limga ham tik boruvchi bu ona obrazi aktrisa uchun juda qo'l kelgan. Dramatik material kuchli bo'lsa, ijrochi uchun ham katta imkoniyat tug'iladi. Bu real imkoniyatdan aktrisa unumli foydalangan. Ona va farzand o'rtasidagi dialogni kuzatar ekanmiz, S. Eshonto'rayeva yaratgan xarakter — jonli, poetik, mardonavor ayol qiyofasiga havas bilan boqamiz. Ana shunday jasur, sofdil ayollar buyuk farzandlar tarbiyalashlariga ishonch hosil qilamiz.

*Erkin Umarov, falsafa fanlari doktori. «Kashfiyot»,
«O'zbekiston madaniyati»,
1975-yil, 15-iyul.*

N.RAHIMOVNING QUSHBEGI ROLI HAQIDA O.RIZAYEV SHARXI

Urganji Nabi Rahimovning favqullodda katta yutug'idir. Nega deganda, aktyor uzoq yillik ijodiy biografiyasida ko'plab salbiy qahramonlar xarakterini yaratgan bo'lsa-da, Qushbegi Urganjini ularning hech biriga qiyoslab bo'lmaydi. Shu paytgacha aktyor salbiy qahramon qiyofasini ko'proq izchil xatti-harakatlarda chizishga intilgan bo'lsa, Urganji bunday chizg'ilardan butkul yiroq. Aktyor go'yo kinokamera ro'parasida turgandek, uning

ijrosida biron bir ortiqcha harakat, tashqi sarosimalik, yuzaki ifoda ko'rinmaydi. Harakatlar o'ta tejamli, obrazning mohiyati, asosan, ichki holatlarda ifoda qilinadi... Urganji — Nabi Rahimov yovuzlik, mustabidlik, shafqatsizlik timsoli sifatida gavdalanadi. U sahnada har gal ajal sharpasidek, to'satdan paydo bo'ladi. Uning qadami yetgan joyda albatta oh-nola, qiy-chuv, dod-faryod ko'tariladi... Urganji — Nabi Rahimov sirtdan sokin ko'rinsa-da, uning ruhida kechayotgan shiddatli ruhiy kechinmalarni aslo inkor qilish mumkin emas. Tomoshabinlarning unga la'nat toshini yog'dirishi ham shundan. Bu ham aktyorning kuchli ruhiy ta'sir eta olganligining mahsulidir.

*Omonulla Rizayev. «Nabi Rahimov». G'afur G'ulom
nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti,
1997-yil, 65-bet.*

«NURXON» SPEKTAKLI

Asar dastlab 1942-yili sahnalashtirilgan. Rejissorlar: A. Azimov, I. Donatov; bosh rollarda o'ynaganlar: Sh. Rahimova, T. Ja'farova, keyinroq, E. Jalilova, F. Rahmatova (Nurxon) M. G'ofurov, A. Abdurahmonov (Haydar), L. Sarimsoqova (Kimyo), A. Azimov, A. Ismatov, A. Yusupov (Hoji) kabilar.

«NURXON» SPEKTAKLI HAQIDA M.QODIROV SHARHI

Postanovkachi rejissor Razzoq Hamroyev barcha komponentlar — so'z, muzika, tasvir, raqsni bir-birini uzviy bog'lashga, obrazlarni murakkabroq talqin etishga intildi.

Yaqinda esa «Nurxon» muzikali dramasiyning yana bir postanovkasini ko'rdik... Nurxon roliga yosh aktrisa Naima Ishoqova (Po'latova — S. T.) chiqdi. U dastlabki sahnadayoq qahramonini beg'ubor latofat, mehr-muhabbatga limmo-lim, odob va hayo mahbubi qilib gavdalantiradi. Eng muhimi shundaki, aktrisa Nurxon obrazini yaratishda o'zidan oldin mavjud bo'lgan muhabbatni tantanavor yoxud melodramatik ruhda tasvir etuvchi uslubdan voz kechib, hayotiy oddiy vositalardan foydalanishni ma'qul ko'rgan. Ikkinchi tomondan, ijrochi Nurxon rolidagi so'z bilan vokal qismlarining bir-biriga uzviy, organik bog'lanib ketishi ustida ham xiyla bosh qotirgan ko'rinadi. Bu, o'z navbatida, teatrning bosh rejissori Razzoq Hamroyevning yoshlar bilan jiddiy ish boshlaganidan dalolat beradi...

Lutfixonim Sarimsoqova yaratgan Kimyoda o'zbek ayollarining eng yaxshi fazilatlari mujassamlashgan. Uning ko'zlaridan nur, tilidan bol tomib turadi. Ochiq ko'ngil, mehr-u vafoli, serandisha. Umri Hojining qo'lida jabr-u sitam, azob-uqubat-la o'tgan bo'lsa-da, mana shu fazilatlarni yo'qotmagan va yaxshi kunlarga umid bilan yashagan Kimyo — Sarimsoqovaning sabr-bardoshiga qoyil qolasan, kishi. Aktrisa o'z qahramonining, xususan, qizi Nurxonga bo'lgan ulkan onalik mehrini tomoshabinlarni bag'oyat ta'sirlantiradigan, o'rni-o'rni bilan esa larzaga soladigan darajada ifoda etadi. Boshqacha aytganda, L. Sarimsoqova bu gal obraz dramatismini yanada kuchaytirdi.

*Muhsin Qodirov. «Mehr va sehr». G'afur G'ulom
nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti,
1980-yil, 72—73-betlar.*

M.Isroyilov o'zi ijro etgan Mamat roli haqida

Men Muqimiy nomidagi musiqali teatrning aktyori sifatida uzoq yillar Mamat rolini ijro etib keldim. Kimyo – Ayaning monologi davomida har gal o'zimni igna ustida turgandek xis qilardim.

Ayaning har bir so'zi bombadek portlar, ichki monolog borgan sari shiddatli tus olar edi. “Qani, mard bo'lsang kel. Onagni ham o'ldir! Pichog'ingni senga sut bergan shu ko'krakka sanch!” Ana shu so'zni gapirganda, ta'bir joiz bo'lsa “yoriladi”, yuqori pardali so'zlaydi, uning ich-ichidan “sanch” so'zini uch marta takrorlaydi. Har takrorlaganda bu so'z bir-biridan kuchli, alamli, dard bilan aytilardi. Men – Mamat o'zimni og'ir ichki kechinmada, ichimni it tirnayotgandek, butun vujudim qaqshab, qaltirab, jahannam azobida yonayotgandek xis etardim. Chunki onamning, asar ishtirokchilarining, tomoshabinlarning, xullas, butun olam nigohi menga qaratilgan edi. Kimyoning “Pichog'ingni senga sut bergan shu ko'krakka sanch!” so'zi men – Mamatga shunday kuch bila ta'sir etardiki, men onajon bas, deb butun gavdam bilan onaning oyog'iga yiqilganimni har gal sezmay qolar edim... Ushbu sahnadagi ona monologini Aya shu qadar jo'shib, ta'sirli aytar ediki, sahnadagilar ham, tomoshabinlar ham ho'ngrab yig'labyuborganlarining guvohi bo'lganman.

*Mahkam Isroilov, O'zbekistoda xizmat ko'rsatgan
yoshlar murabbiysi. Bir monolog ijrosi xususida
“Teatr” jurnali 2003 y. 5 son.*

NURXON

Birinchi pardadan parcha

Qo'shiq aytib, gul terib yurgan Haydarni nogahon Norqo'zining chaqirgan ovozi sergaklantiradi. Norqo'zi Haydar kabi xushovoz yigit, o'yinchi, qo'shiqchi qizlarni topib, teatr maktabiga olib ketish uchun kelganini aytadi. Huzurxo'ja Nurxon dugonalari bilan kelayot-

ganidan darak beradi. So'ng gap Hojining qizi — Nurxonga ko'chadi.

N o r q o' z i. Huzurxo'ja, Nurxonni judayam qo'shiqchi deyishadi, rostmi shu gap, uka?

H u z u r x o' j a. Qo'shiqchi bo'lganda qanday... Bulbul lol-u, qumri sharmanda.

H a y d a r (*kirib*). Nurxonmi? O'ziyam shunday oq ko'ngil, zakki ta'b (*xo'rsinadi*), bechora...

N o r q o' z i. O'-ho', jigaringni qoq o'rtasini urgan deyman, uka?

Kulgi.

H a y d a r. O'zi-chi, borib turgan otincha-da, Navoiyning, Muqimiyning g'azallarini qo'shiqqa solib aytadi.

H u z u r x o' j a. O'zim ham qo'shiqlarni Nurxondan o'rganganman de qo'y-da.

H a y d a r. Juda tarbiyali qiz. Otasiga emas, onasiga o'xshaydi...

N o r q o' z i. Hali ovozi bor, yaxshi g'azalxon dedingmi? O'zing bilasan, sozanda ahlining ko'ngli yarimta bo'ladi, uka, bir o'ktamlik qilasan. Tanburim bilan gul tagida

bekinib o'tiraman. Kelinimning qo'shig'ini bir eshittirasan, ha-de uka, haqqinga bir duo qilaman, to'ppa-to'g'ri yorijoning bilan bebiliska murodi-maqsadinga etaverasan-da!

H a y d a r (*kulib*). Xo'p, xo'p, Norqo'zi aka, tanim bilan.

N o r q o' z i. O'lma, tanti yigit. Ma, tanburni olib qo'y. Men hovliga o'tib, qo'limdagi narsalarni tashlab, yana kelaman. Qani yur.

Huzurxo'ja va Norqo'zi ketadilar. Haydar ularni kuzatadi. Qumri kirib uzum uzadi.

Yalla-o'yin qizib turgan paytda Hoji bilan Mamat bostirib kirishadi. Hoji qizining ashulasiga bir zum quloq soladi. Kimdir Hojini ko'rib qoladi. O'yin-kulgi birdan kesiladi.

Hamma jim bo'ladi.

H o j i. To'xtamang. To'xtamang! Chaling, chaling, qizim!!

Nurxon bosh egib, titragan holda jim turadi.

X a l c h a (*qulog'iga*). Ayb menda emas, Kimyoda...

N o z i k. O'z ko'zim bilan ko'rdim, tag'in bu xo'ja avlodi-ya.

H o j i. Xo'sh, endi rozimisiz... aylanay xotin?

K i m y o. Nimaga, otasi, nimaga?

H o j i. Haligiday, sizni tomog'ingizdan g'ippa silab qo'ysam?.

K i m y o. Otasi, axir...

Z e b i. Aylanay Hoji shunchaki o'ynab-kulib o'tirishgan edi.

H o j i (*toshday qotib qolgan Nurxonga borib*). Ovozim bor deb ashulaga zo'r beribsiz-da, oppoq qizim. Men sizning ovozingizni hech eshitganim yo'q edi. Mamatxon dutorni keltiring.

Mamatxon dutorni keltirib beradi.

Qani, qizim buni oling-chi? Qani chaling, ashula qiling!

Nurxon dutorni ixtiyorsiz oladi.

N u r x o n (*iztirob ichida*). Otajon... Axir, o'rtoqlarim shu yerda, onam xolam, otajon...

H o j i. Bilaman, o'tiring, chaling, eshitay.

Nurxon chaladi.

Tuzukroq chaling, Oppoq qizim. (*Birdan bo'g'iq*) sindiring!

N u r x o n. Otajon, axir bu birovniki! (*Bag'riga bosadi.*)

H o j i. So'z qaytarmang, sindiring! (*Qo'lidan olib Toshga uradi! Chetga o'tib dutorni uloqtiradi.*)

N u r x o n. Ilohim tug'ilmay o'lay. (*Orqaga o'tib yig'lab, onasining bag'riga tashlanadi.*)

H a y d a r (*qaynab*). Hoji ota! Biroz andisha qiling! Bu sho'ring qurgurlarning aybi nima? Aybi qon-u zardobga to'lgan ko'nglini bo'shatay, bahrim ochilsin deb, o'z bog'iga chiqib o'ynab-kulganimi?!

H o j i. Ko'zimga qadalib olib, qo'lingizni to'lg'ab gapirmang! Yurak o'ynog'i dardim bor. Qoyil. Boplabsiz uka, qandingizni uring, o'g'il bola! Odam to'plabsiz, bog'imni obod qilibsiz. Bu yaxshiligingiz sira yodimdan chiqmaydi uka!

H a y d a r. Ko'rib turibman, jaholatingiz avjga mingan! Ko'nglingiz bo'riday uzilib turibdi.

H o j i. Bunaqangi shamolda turgan shamdek yonaversangiz, ha-pa deguncha tugaysiz inim, birovlarni himoya qilish qo'lingizdan kelmaydi. Axir bu mening qizim. Sizga begona... aralashmang!

H a y d a r. Men ochiq ayta qolay: Nurxon menga begona emas! U mening jonimga teng. U men uchun, umr, hayot, baxt!

H o j i. Nima, nima?! Qaytaring!

H a y d a r. Biz bir-birimizga ko'ngil berganmiz. Bizning ahd-u paymonimiz qattiq.

H o j i. Ahd-u paymon?! Ha-ha-ha! Biz-a?! Siz?!

H a y d a r. Uni bog'imdagi qizil gul singari avaylab parvarish qilaman!

H o j i. Bog'imdagi? Sizning bog'ingizdagimi? Xo-xo-xo!!

H a y d a r. Kulmang!! Hech kim bizni bir-birimizdan judo qilolmaydi.

H o j i. Shunaqami? (*Birdan g'azabnok Haydarning ko'ziga tikilib.*) Zamon yoqlaydi. To'g'ri, lekin men yoqlamayman! Pa-r-cha-lab tashlayman.

N o r q o' z i (*Huzurxo'janing qo'lidan chiqib*). Hojim, qovuningiz sob bo'lsa ham, haligacha kapangiz buzilmaydi. Bola-chaqani munchalik mutab tashlamang. Yoshlarning maqsadlari yo'liga g'ov bo'lmang!

Hoji yalt etib Norqo'ziga qaraydi.

Dutorni sindir deganingiz nimasi? Yoshlar kulsin-o'ynasin. Murod-maqsadiga yetsin!

H o j i (*yoqasiga tupurib*). E, joni-ponim chiqib ketdi-ya! Siz ham shu yerdamidingiz? Po'stinga tushgan burgaday ko'rinmay ketuvdingiz. Bergan maslahatlaringizga jon-u dilim-la xursandman. Huzurxo'ja!

H u z u r x o' j a. Nima deysiz, Hoji ota?

H o j i. Aravani qo'shing.

H u z u r x o' j a. Xo'p, Hoji ota!

H o j i. Mamatxon, bularni uyiga jo'nat. Andak xafa qilib qo'ydik. Xudo xohlasa yaxshilab xursand qilamiz. Xo'pmi, o'g'lim. (*ketmoqchi bo'ladi.*)

H a y d a r. Hoji ota, mana bu ayol meni tuz berib parvarish qilgan onam bo'ladi. Onamga, Nurxonga azob bera ko'rmang! Agar ularga qo'l ko'tarsangiz...

X o j i (*so'zini kesib*). Hamma gapingiz shumi? Xo'p, xayr. (*Orqaga o'tib.*) Mamatxon tezroq! (*Ketadi.*)

N o r q o' z i. Hojim, to'xtang! Hojim! (*Ketadi.*)

M a m a t. Qani, aravaga chiqinglar! (*Ketmoqchi bo'ladi.*)

H a y d a r (*yo'lini to'sib*). Mamatxon, bu qanday gap axir?

M a m a t. Nima qilay, Haydarjon aka? Otamni fe'lini bilasiz-ku! Qani aravaga chiqinglar. (*Ketadi.*)

N u r x o n. Otajon! (*Yig'laydi.*)

K i m y o. Yig'lama qizim. Bechora qizimning sevinchi ichiga tushdi.

X a l c h a. Iloyim, kelmay o'lay. Ko'p gapirdim. Ishning xudo urgani shu-da. Qani, yura qol. Nozikxon!

Ketadilar.

N u r x o n. Onajon hozir... (*Boshida paranji, ko'chaga chiqadi. Yana tez qaytib kiradi.*) H a y d a r aka!

H a y d a r. Qo'rqma otangni qahridan, men senga yorman...

Har qachon sen «Haydar» desang, yoningda borman.

N u r x o n. Bog' ichida yayrab, kulib holing so'rolmadim.

H a y d a r. Parvonadek boshingdan, Nur o'rgilolmadim.

Shirin qo'shiqlaringga, jonim, to'yolmadim.

Ikkovi. Yorim yuzingni ko'rgani mushtoq-u zorman.

H a y d a r. Sindir qafasni, yirt pardani, oromijonim ul

Ko'nglim mehmonu, jismimda jonim ul...

Kel navbahorim bo'lgil-u, jon-u jahonim ul.

Orqadan: Nurxon!

N u r x o n. Hozir...

H a y d a r. Qo'rqma otangni qahridan, men senga yorman...

I k k o v i. Husni jamoling ko'rgali mushtoq-u zorman.

K i m y o (*chiqib*). Mana men, nima deysiz otasi?

H o j i. Qizingiz qani?

K i m y o. Shu yerda.

H o j i (*zaharxanda bilan*). Yaqinroq keling aylanay. Qizingizga hozir bildir ko'rmang. Indinga to'y qilib qo'ydim. Ha, harakatingizni qiling, oyim, tuzukmi?

K i m y o. A? To'y? Kimga?

H o j i. So'rab nima qilasiz. (*Tugunni tashlab.*) Mana, kiyim-kechakni tezdan tiktiring. Men qizimni yomon odamga berarmidim...

K i m y o. Kimga axir?

H o j i. To'raxo'ja sarkorga.

K i m y o. Voy sho'rim, o'shanga qiz beramizmi?!

H o j i. G'ing deya ko'rmang! Men javob berib yubordim.

K i m y o. Jon otasi, qizimga rahm qiling.

Yosh narsani sil qilib, ajalidan besh kun burun o'ldirmang!

H o j i. Ovozimgizni ko'tarmang, jim... eshtiladi?!

K i m y o. Meni nega sizlaysiz, axir?

H o j i. Sizni yaxshi ko'raman-da, xotin. Axir, sizdan boshqa kimim bor?

K i m y o. Kelib-kelib shu buzuq Sarkorga qizimni beramanmi?

Axir u suygulik emas, kuygilik bo'ladi!..

H o j i. Bersam nima bo'pti?! O'z qizim! Yig'lang! Sizni yig'lashga yaratgan xudo!!

K i m y o. Yetti uxlab tushimga kirmagan kunlarni ko'radimi endi sho'rlik qizim...

H o j i. Jim!!! Gap shu: Sarkor zoti ulug', dunyo ko'rgan, pokiza odam... Ha, qizimni Haydarga o'xshagan diyonati yo'qlarga beraymi? Oxiratimni kuydiraymi? Bu dunyoda o'zimni sharmanda qilaymi? Gap bitta, indinga to'y, bu haqda birovga og'iz ocha ko'rmang! Shu kundan boshlab xotinim kasal deb, gap tarqataman, agar biror narsa payqab qolsam, ertaga xotinim o'ldi, deb ovoza qilish ham qo'limdan keladi! Uqdingizmi, aylanay xotin! Men ketdim (*ketadi*).

K i m y o. Sho'rlik qizim... (*ezilib kuylaydi*)

To'rt devor qo'ynida yo'qdir yuragi qon men kabi,

Qilmishi faryod-u o'z holiga hayron men kabi.

Yor tutib bu dunyoda, yorning vafosin ko'rmagan.
 Dunyoga kelganligiga pushaymon men kabi.
 Soch yulib, nola qilib. Aylay yoqamni poralar.
 Yo'q jahon ahlida bir zor-u parishon men kabi.
 Zolim urning dastidan chekdim hamisha qayg'ular.
 Kim bu g'am zindoni ichra bo'ldi vayron men kabi?
 N u r x o n (*kirib*). Oyijon, yig'layapsiz?
 K i m y o. Hech bolam...
 N u r x o n. Axir nega berkitasiz? Ko'zlaringiz qizarib, qovoqlaringiz ko'karib qopti, oyijon?!
 K i m y o. Shunday, o'zim, bolam...
 N u r x o n. Hech jahonda, bekordan-bekorga yig'lar emishmi kishi?
 K i m y o. Qo'y so'rama, qizim, otang fe'lini bilasan-u, sizlab turib jonimni oladi.
 N u r x o n. Otamni fe'li qursin. Xafa bo'lmang oyijon. (*O'padi.*)
 K i m y o. Qizim (*tikilib*). Qizim!..
 N u r x o n. Boshqa bir gap borga o'xshaydi, onajon, mendan yashirasiz. Yashirmang ayting!
 K i m y o. Aylanay qizim meni qarg'ama!
 N u r x o n. Axir aytingiz nima gap?
 K i m y o. Otang seni kuyovga bermoqchi? To'raxo'ja Sarkorga...
 N u r x o n (*Chaqmoq tekkanday*). A? Onajon!! Hazon bo'lmay, onajon!
 K i m y o. Ilojim qancha, boshimni qaysi toshga uray qizim?!
 X a l c h a (*kirib*). Shayton yig'ingni qo'y qizim, beaql bo'lma! (*Kimyoga*) Darrov yetkazibsiz-da, kelinposhsha!
 K i m y o. Siz ham yuragimni timdalamang aylanay Xalcha!
 X a l c h a. Dadang senga yomonlikni ravo ko'rmaydi. Bilaman, sen o'sha Haydarni yaxshi ko'rasan, o'shanga tegib, nima orzu havas ko'rarding.
 N u r x o n. Uning davlatini boshimga tortamanmi?
 Men Sarkorga tegmayman, boshimga nima kulfat kelsa roziman!..

«RAVSHAN VA ZULXUMOR» FARG'ONA TEATRI SAHNASIDA

Asar dastlab Muqimiy nomli musiqali teatrdan 1957-yilda sahnalashtirilgan. Rejissorlar: Z. Qobulov, M. Mirtolipov. Bosh rollarda: Ravshan — M. G'ofurov, A. Abdurahmonov, S. Po'latov: Zulxumor — Sh. Rahimova, E. Jalilova, F. Rahmatova...

«Ravshan va Zulxumor» asari qator viloyat teatrlarida ham sahnaga qo'yilgan. Quyida Farg'ona musiqali drama va komediya teatri spektakli haqida T. Tursunov sharhi berildi.

Murodjon Ahmedov faqat Ravshan obrazining badiiy siymosini yarata olganligi bilangina emas, balki ijodiy ufqining kengligi, badiiy tadbirlarining anchagina siqiq va ifodaliligi, va ayniqsa, ariya tovushining obrazlilik bilan diqqat va ibratga sazovordir. Obraz talqinidagi dramatik va vokal ifodalarni bir-biriga singdirish bu artist ijodida katta o'rin tutadi. Ayniqsa, ariyalar artist og'zidan aytilishi lozim bo'lgan ashuladek emas, balki obrazning faqatgina quruq so'z bilan yetkazib bo'lmaydigan ichki kechinmalarini ochib berishga qodir birdan-bir omil singari uchib chiqadi. Shuning uchun ham barcha ariyalar qahramonning yangi-yangi tomonlarini ochishga aktiv yordam berish bilan birga, o'ziga xos latofat va nafislikka ega. Fikrimizning isboti uchun «Yor aylanay qalpoq tikkan

qo'lingdan» ariyasining aytilish san'atini ko'rsatishning o'zi kifoya. Bu ariya muzikasi bejiz obrazning leytmotivi bo'lmaganidek, artist tomonidan aytilishi bilan Ravshanning Zulxumorga nisbatan zo'r hurmat va muhabbatini, cheksiz sadoqatini g'oyat nozik ifodalab beradi. Umuman, artist ijodida ariya san'ati yaxshi rivojlangan.

Hafiza Ibrohimova ham Zulxumor obrazini yaratishda kattagina ijodiy yutuqlarga erishgan. U gavdalantirgan Zulxumor obrazidagi jasurlik va oqila qizlarga xos noziklikning o'z o'rnida sezilib turishi artistning qobiliyatidan darak berib turibdi. Biroq, artist ijodida obraz talqinining izchilligiga e'tibor yetishmaydi. Shuning uchun ham «Qumrining murodi» spektaklida bo'lganidek, bu spektaklda ham obraz rivojining sustligi, dramatik va hayajonli holatlarning bo'shligi sezilib turadi. H. Ibrohimova jarangdor va yoqimli ovozini takomillashtirish ustida yanada jiddiyroq ish olib borsa, yaxshi bo'lur edi.

O'zbekiston xalq artisti Yahyo Mamatxonov talqin etgan Go'ro'g'li obrazi tugallik va originallik jihatidan kishini o'ziga tortadi. Artist Go'ro'g'lini sodda, kamtarin va xushchaqchaq qilib ko'rsatadi. Afsonaviy qahramonlarning obrazini yaratishda ba'zi san'atkorlarimizga odat bo'lib qolgan dabdaba va yasama g'urur tadbirlaridan artistning tamomila voz kechishi ayniqsa kishini quvontiradi.

Toshpo'lat Tursunov. «Manzur spektakl».
«O'zbekiston madaniyati» gazetasi,
1958-yil, 20-avgust.

RAVSHAN VA ZULXUMOR

Beshinchi ko'rinishdan parcha

Zindon. Oyoq-qo'lga kishan urilgan, soch-soqollari o'sib ketgan Ravshan o'y surib o'tiradi.

Oqqiz. Menga bir qara, cho'g'day yonib turibman, ko'zimga hech narsa, hech narsa ko'rinmaydi, faqat sen-sen...

Sening husning mening aqlim oladi,
Suratlaring bir xayolga soladi.
Jahon moli darkor emas Oqqizga,
Yonginamda o'zing bo'lsang bo'ladi.
Kel, Ravshanim, yor bo'la qol o'zimga.

Noz-ishva bilan.

Imo bilan qoshim qoqdim, sezmading,
Kokilimga gavhar taqdim, sezmading,
Chaqmoq bo'lib ko'kda oqdim, sezmading,
Kel, Ravshanim, yor bo'la qol o'zimga.

R a v s h a n. Yorim bor.

O q q i z (*yopishib*). Yoring o'zim...

R a v s h a n. Zulxumor!..

O q q i z (*ilonday qahri kelib*). Shundaymi hali? Bo'lmasa eshit, men zo'ravonman. Ajaldan ham qo'rqinchliman. Meni ko'rganda do'zaxning rangi o'chadi, quyosh dengizga botadi, tog'lar tagidan ko'chib, osmon yerga ag'dariladi. Jallod mendan hunar o'rganadi. Ha, sen hali tirik jonsan-ku, bordi-yu, soya bo'lganingda ham ustingdan tuproq tortib

yuborishga qodirman. O'ylab javob ber. Xo'p desang, bir qoshiq qoningni otamdan so'rab olaman. Seni men erim deyman, toj-u taxtni senga tutaman, o'zing xon bo'lasan. Yaxshi o'yla, lekin javobini hozir berma. Yo'q, yo'q, javobini butun yurt oldida, el oldida, otam oldida berasan, yaxshi qol, yigit!

Chiqib ketadi. Yer ostidan do'p-do'p tovush keladi. Birozdan keyin Ersak chiqadi, u tevarakka olazarak qarab, metinni yerga qo'yadi.

E r s a k. Uh...

Tersakning ovozi. Gapir, o'zidan chiqibmizmi?

E r s a k. Hayronman.

Ushbu damdin o'zga damni dam dema,

Boshing eson — bu davlatni kam dema,

Aytgan yerdan teshib chiqdik, og'ayni,

Ravshanxonni qutqazamiz, g'am yema!

T e r s a k n i n g o v o z i. Bo'g'ilib ketdim, bo'ldim!

E r s a k. O'n sakkiz kun deganda arang teshib chiqdim-a. Ersak, senga rahmat, Tersakka hech nima yo'q. Tersak, qani, suyunchisiga zog'oradan uzat.

T e r s a k (*boshini ko'tarib*). Uh, xayriyat-ey, jonzot yo'q... O'zidan chiqibmiz shekilli, o'lma, Tersak botir, ma, ol. (*Zog'ora beradi.*) hali malika bizga so'na-suqsurdan cho'lon qilib beradi, qo'llaridan sharob ham ichamiz.

E r s a k. Senga aytmadimmi, tishimning kovagida saqlab yurgan hunarimdan birini ishlataman deb, mana ishlatdim, qoyilmisan?

T e r s a k. Qoyilman, qoyil. Hoy, shuncha hunarni tishingning kavagiga qanday joylagansan-a, do'stim?

E r s a k. Hayroningman. E, shoshma, yana bitta antiqa hunarim bor, ha, do'ppi tor kelib qolsa, uniyam ishlatamiz, xudo xohlasa-yu, xohlamasa...

T e r s a k. Ishqilib, mana bu tilla boshdan ajralib qolmaylik-da, do'stim.

E r s a k. Zulxumor oyimning qasridan zindonga to'ppa-to'g'ri yo'l ochildi, bor, xabar qil, kelaversin.

T e r s a k. Zindonbonni nima qildik?

E r s a k. Qo'yaver, uni o'zim epini qilaman.

T e r s a k. Ketadi. Sharpa, Ersak bekinadi. Zindonbon kirib u yoq-bu yoqqa nazar soladi. Birovning yo'talgani eshitaladi.

Z i n d o n b o n (*cho'chib*). Kimsan?! Gapir, deyman!

E r s a k. G'ing deding o'lasan (*Bo'g'ziga xanjar qadaydi.*)

Z i n d o n b o n. Meni o'ldirma! Qaydan paydo bo'lib qolding?!

E r s a k. Bu yoqqa yur, xumpar! Jim yotsang, senga o'lim yo'q.

Chuqurga sudraydi, birozdan so'ng alam, dard bilan yongan Zulxumor ko'rinadi.

Z u l x u m o r. Bu balo zindon-kishanga muftalo yor, bormisan?

Ayriliq dardida zoru benavo yor, bormisan?

Jon-u jismimga tushib o't, men yugurdim etkali

Izlaring gardin ko'zimga to'tiyo yor, bormisan?

Xor-zor o'lsin, yiqilsin bag'ritosh, zolim falak,
Ikkimizni angladi motamsapo, yor, bormisan?
(R e c h i t a t i v). Vaqtim bo'lmay hatto zulfim o'rgali,

Tani joning omonligin so'rgali —
Baxti qaro yoring keldi ko'rgali,
Zindon ichra jonim to'ram, bormisan?
R a v s h a n. Sen omonat, menga yo'qdir yorliging,
Mening uchun bekor intizorliging,
Yigirma kun umrim qoldi, erga teg,
Menga ma'lum ishqda vafodorliging.

Z u l x u m o r. Mening uchun o'lib ketsang bayakbor,
Sening uchun o'lasmikan Zulxumor.
Bir xotinning eri bitta bo'lmasmi,
Mening erim Ravshan dean bir shunqor.
Zindon ichra jonim to'ram, bormisan?

R a v s h a n. Qora zulfing och belingga tushibdir,
Bu alamdanda aqli hushing uchibdir.
Jafo kishanlari ruhing quchibdir,
Zulxumorim, jonim, qo'zim, bormisan?

Z u l x u m o r. Ravshanjon!

Ravshan uni bag'riga oladi. Zulxumor to'lib-to'lib yig'laydi.

R a v s h a n. Bas, jonginam, bas! Sen bu ajal zindoniga qanday qilib yo'l topding?
Zulxumor. Muhabbating yo'l boshladi.

R a v s h a n. Seni kimsa ko'rmadimi?

Z u l x u m o r. Senga tushgan pok ishqim zolimlar ko'zini ko'r qildi, Ravshanim,
Ersak bilan Tersak botirlar bog'imdan chuqur qazishib, zindonga yo'l ochib berdilar.

R a v s h a n. Qani ular?!

Z u l x u m o r. Ular shu yerda, tevarakka ko'z-quloq bo'lib turishibdi.

R a v s h a n. Bor bo'lsin azamatlar, ey, koshki edi Go'ro'g'li bobom, Hasan otamlar
mening bu holimdan xabardor bo'lsalar...

Z u l x u m o r. Xabar beraylik bo'lmasa.

R a v s h a n. Chambilbel uch oylik yo'l, yana yigirma kundan keyin otang meni dorga
tortadi.

Z u l x u m o r. Mening xabarchim bor, bir kunda Chambilbelda bo'ladi. Go'ro'g'li
bobongga xat yozaylik. Tersak botir, keltir maynani.

T e r s a k. (*maynani keltirib*) Mana maynaxon!

Z u l x u m o r. Tezroq kelsin o'zbek erlari,
Yo'lga chiqsin qirq na'ravor sherlari!

Xatni maynaning bo'yniga bog'laydi, o'padi.
Oqar ko'zdan qonli yoshim.
Ming savdoga qoldi boshim.
Arzim eshit, mayna qushim,

Bor, Chambilning xoni kelsin.
Bek Ravshanning joni kelsin!

Maynani havoga uchirib yuboradi, orqasidan qarab qoladilar.
E r s a k (*sekin Ravshanning yoniga kelib*).

Salom senga, arslon yurak bek Ravshan.
R a v s h a n. G'arib holim so'rding, o'zing ayt, kimsan?
Z u l x u m o r. Bu Ersak botir, bu Tersak mard!
R a v s h a n. Do'stlarim.
E r s a k. Mana egov, tez uzaylik kishanni!
R a v s h a n. Mushkul ish.
Z u l x u m o r. Uzing.

Kishanga egov soladilar.

Tersak. Salom yo'llar senga onang mehribon.
E r s a k. Ravshan deb, kecha-kunduz yig'lar qon.
R a v s h a n. G'amguzorim onajonim sog' bormi?
Z u l x u m o r. Farzand dog'-u dardidan zo'r dog' bormi?
R a v s h a n. U faqat bir ona emas — oftob.
T e r s a k. Xon shu kunlarda yurtini qovurib tashladi.
E r s a k. Aynoq botir sen uchun kurashib, xonning yozgi saroyiga kuni kecha o't
qo'ydi.
R a v s h a n. Bor bo'lsin Aynoq botir!
I k k o v i. Uzilmayapti-ku?
T e r s a k. Bu la'natini do'zax temiridan yasaganmi?
E r s a k. Hayroningman.
T e r s a k. Ko'sadov!
Z u l x u m o r. A?!
R a v s h a n. Qoch, Zulxumorjon!
Z u l x u m o r. Yo'q!
R a v s h a n. Qoch, azizim. Ko'sa ko'rmasin seni. Ketinglar, Xayr!
T e r s a k. Attang. Ish chala qoldi. Mayli, biz yana kelamiz. Xayr.

Komil Yashin. Tanlangan asarlar II-tom.
O'zbekiston Davlat badiiy adabiyot
nashriyoti, 1958-yil.

UMARJON ISMOILOV

(1906-1981)

Umarjon Ismoilov taniqli adib, shoir va dramaturglarimizdan biri. U Qozog'iston respublikasi Avliyootaga qarashli Marki qishlog'ida tug'ilgan. 1919 yili Marki shahrida havaskorlik jamoasida aktyor sifatida ishtirok etadi. 1920 yili Toshkentga kelib ishchi-dehqon yoshlar maktabida, uni tugatgach, O'rta Osiyo Davlat universitetida taxsil ko'rdi. Uning mehnat faoliyati respublikamiz maorif va madaniyat muassasalari bilan bog'liq holda kechgan.

U. Ismoilov O'zbek Davlat akademik drama teatrida qo'yilgan "Paxta shumg'iyalari" (1930 y. hejissyorlar F. Umarov, I. Ilyalov) va "Rustam" (1934, rej. S. Olimov) degan ikki asari bilan darhol dramaturg sifatida e'tirof etiladi. Keyinroq u "Obi hayot", "Donishmand qiz", "Uch qahramon" va "Zafar" dramalarini yozadi. "Zafar" asari kompozitor Hamid Raximov musiqasi bilan opera sifatida Samarqand opera va balet teatrida qo'yilgan.

"Paxta shumg'iyalari" asari dramatik to'qnashuvning keskinligi, obrazlarni ancha puxta ishlanganligi bilan e'tibor topdi. Spektaklda A. Hidoyatov (Omon) T. Sultonova (Oybuvi), Z. Hidoyatova, M. Kuznetsova (Qunduz), O. Jalilov (Yo'ldosh) singari atoqli aktyorlar ishtirok etgan.

"Rustam" dramasi tomoshabinlar orasida katta shov-shuvga sabab bo'lgan edi. Unda mardikorga olingan o'zbek yigitlarining rus o'rmonzorida qarag'ay kesib mashaqqatli hayot kechirishi, o'z yurtiga kelib endi mahalliy boylar zulmi ostida ezilishi va oxiri adolatsizlikka qarshi bosh ko'tarib chiqishi haqida hikoya qilingan. Tomoshabin diqqatini o'ziga tortgan narsa bosh qahramon Rustamni Xamro kabi islavatxona gumashtalarining qo'lga tushib shu jirkanch maskanda o'z singlisi bilan uchrashuvi va uning voqea yo'nalishidan bir qadar uzilib qolgan tumtaroq monologlari edi.

Hamza nomli akademik teatrdan bu rolni ikki buyuk aktyor galma-galdan, ba'zida bir spektaklda biri ilk pardalarda, ikkinchisi oxirgi sahnalarida chiqqanlar. Bular Abror Hidoyatov va Shukur Burhonov edi. Sh. Burhonov A. Hidoyatovning U. Ismoilovning ikki asarida ijro etgan ikki roli haqida teatrshunos S. Ahmedov bilan o'tgan suhbatda o'z taassurotlarini quyidagicha bayon etgan edi.

SHUKUR BURXONOV USTOZI HAQIDA

...Ko'pgina spektakllarda Abror akaga dublyor sifatida ishtirok etmaganman. Shulardan biri Umarjon Ismoilovning "Rustam" asari edi. Bu spektaklda Rustamni ustoz bilan bir ajoyib ijodiy vaziyatda o'ynaganmiz. Men bir rolni Abror Hidoyatov bilan o'ynashga erishganimdan mamnun edim. O'sha spektakldan keyin qattiqqo'l ustoz meni chaqirib, birinchi bor qutladi: "Balli, uka" degan so'zlari meni ruhan yuksaltirdi. Abror akening bu muomalasidan keyin rollaringa yanada ishonch va mas'uliyat bilan yondoshadigan bo'ldim.

Abror aka Rustam obrazini ajoyib tarzda yaratgan. U obraz xarakteridagi dramatik asosdan kelib chiqqan holda, xalq qasoskorining bo'rtma, yorqin obrazini gavdalantiradi. Uning Rustamni haqqoniy qasoskor, o'ziga o'xshash kambag'allarga qo'shilib revolyusion kurashning aktiv qatnashchisiga aylangan romantik tip edi. Bu obrazni u romantik planda yaratdi.

Ustoz yaratgan har bir obraz kamida biron tomoni, biron qirrasi bilan tomoshabin xotirasida oʻrnashib qolardi. Bir voqea xotiramda: “Paxta shungʻiyalari” oʻynalmoqda edi. Abror aka bu spektaklda Omon rolida. Omonning ixtexzo, kesatq bilan aytadigan soʻzlari bor. Ukasiga kinoyali nazar tashlab, ikki qoʻlini koʻkragiga qovushtirib, “Xoy, ulugʻ, bilmabmiz, maʼzur tuting!” deb sahnadan chiqib ketadi. Shu oddiy lavhani tomoshabinlar guldiros qarsaklar bilan olqishlashardi. Chunki Abror aka yaratgan Omon dalada, bozor-oʻcharda, toʻy-maʼrakada, choyxonada uchrab yurgan odamlarimizga juda oʻxshash, koʻzga yaqin boʻlib qolgan edi.

*Sirojiddin Axmedov aktyor bilan
olib borgan suxbat. “Oʻzbekiston adabiyoti
va sanʼati” 1981 y. 24 aprel. 4-son.*

“Rustam” asari viloyat teatrlarida ham qoʻyilib, unda bosh rolni ijro etgan Asad Ismatov, Abbos Bakirov (Andijon), Sulaymon Qosimov, Soli Ahmedov (Fargʻona), Razzoq Hamroyev (Namangan), Zanjirali Mirzatoyev (Qoʻqon) singari aktyorlar faoliyatida sezilarli iz qoldirgan.

QUYIDA “RUSTAM” ASARIDAN RUSTAMNING QIMMAT BILAN UCHRASHUVI LAVHASI VA PUL MONOLOGI BERILDI

RUSTAM: Siz bu yerga qanday kelib qolgansiz?

Men oʻzim kelganim yoʻq, nahotki men oʻzim kelsam? Meni sotib olib kelishdi, buvimga elakdan koʻylak, lozimlik, ikki pud un olib berib kelishdi, eshitmaganmisiz?

Shaftoli shoxi larzon, omon yor,
Fargʻonada qiz arzon, omon yor,
Bahosini soʻrasang, omon yor,
Qalami koʻylak, boʻz ishton, omon yor.

Kelganimdan beri, yashshamagur kal xoʻrozning qoʻlida tepki yeb umrim oʻtib ketutti, akam boʻlsa mundogʻ holga solib qoʻyarmidi?

RUSTAM: Akangiz qayda?

QIMMAT: Akam vayanida oʻlib ketti, bittasi oʻq tegib oʻlgan deydi, bittasi qashqirlar yeb ketgan deydi, bittasi oʻzi oʻzini oʻldirgan deydi. Yana bittasi nima balo, nima balo, hech anigʻini bilib boʻlmaydi.

RUSTAM: Bilib boʻlmaydi?.. *(tikilib qoladi)*.

QIMMAT: Akam yoshligida, men juda kichkinaligimda, mana shunchaligimda, turmushimiz ogʻir boʻlganligi uchun bizni tashlab ketib qolgan ekan, dadam, oh oʻgʻlim, deb oʻlib ketdi.

RUSTAM: Dadangizni otlari nima edi?

QIMMAT: Oti, ... Qurbonboy edi.

Yigit choʻchib tushadi.

RUSTAM: Qurbonboy? Oʻgʻli nima ish qilar edi?

QIMMAT: Oʻgʻlimi?

RUSTAM: Ha, o'g'li!

QIMMAT: O'gli ham mana shu shohilarni g'alati qilib to'qir ekan, o'zi ham xuddi sizga o'xshagan chiroyli paxlavon yigit ekan.

RUSTAM: O'shal paxlavon yigitning oti nima ekan?

QIMMAT: O'shal paxlavon yigitning oti, ot, ot, xo'kiz, cho'chqa, nima muncha so'rayverdingiz?

RUSTAM: Ayting, kim?!

QIMMAT: Rustamjon!

Rustam boshini ushlab, o'tirib qoldi.

Ha, nima bo'ldi? Marg'ilondagi akamni bilasizmi? Bilsangiz ham – endi men yo'qlikka otilgan qizman, bir umr gunohga bosilgan izman.

(Qiz Rustamga zehn soladi.)

RUSTAM

Eh...

Men oy nurini o'g'irlasam,
Oy kun nurini o'g'ilagan ekan,
Dunyodagi bor ishning butun hammasi,
Bir-biriga bog'langan bir urug' ekan.
Bu o'yinlar, kulgilar zardoblar bilan
Sharoblarga qo'shilib suzilar ekan.
Gunohlarni to'ldirib kosalar bilan
Kayfi safo yo'lida ichilar ekan.
Garchi o'g'ri bo'lsa ham mana shu odam,
Bir otaning ko'zini oq-qorasidir,
Garchi shu qiz foxisha bo'lsa, albatta –
Bir odamning singlisi yoki qizidir.
To'g'ri-to'g'ri bu yer ham, u yer ham, qo'zim,
Hammasi ham bir qafas, bir go'r, bir zindon,
Shu qafasning ichida yo o'lish kerak,
Yo sindirib qafasni saqlash kerak jon!

(O'ylab)

Sening qora amirkon shahlo ko'zlaring,
Oq shohidek kelishgan nafis yuzlaring,
Anor donalaridek shirin so'zlaring
Yuragimning tagiga zahar soldilar,
Yuragimda cho'g' bo'lib yotgan olovni,
Yolqinlatib, qulf urib, ko'kka ko'tarib,
Lavasini jahonga sochib soldilar.
Mening ko'nglim muhabbat uchun yaralmay,
Qayg'u hasratlar uchun yaralgan ekan,
Avlodimning ichida qaysi bittasi,

Qayg'u degan nasldan taralgan ekan?!
Menga endi bitta do'st topib berdilar,
Faqatgina do'st emas, xotinim bo'ldi,
Bir ko'krakdan sut emgan qon-qarindoshim,
Quchog'imda ko'z suzib buraldi, kuldi.
Men singlimni bag'ringa bosib quchoqlab,
Mastlik ila ko'ksimda og'ushlar qildim,
Ko'kragini mijig'lab, labini tishlab,
Ayshi ishrat otiga suvora qildim!

QIMMAT

Ayting, yigit, sizning ham g'amingiz bormi?
Shunday kuchli, chiroyli, pahlavon yigit
G'am qilsangiz, endi biz o'lib qo'ya qolaylik?
Yoki, yoki men sizga yoqmay qoldimmi?
Men sizni yaxshi ko'raman, jonim, jonginam!

(Suyaladi)

RUSTAM

Xudo sizni shu qadar go'zal qilsayu,
Yana uni sevmasdan, ayting, bo'ladimi?
Hali g'uncha ochilib yetmagan bir gul,
Dunyo ko'rmay bemahal, ayting, so'ladimi?

Qimmat tikilib qoladi.

Xudo o'zi siz uchun xusn berganda,
Shu xusnning pul bo'lishini u ham bilgandir?
Balki xudoning o'zi shu umid bilan
Sizni chiroylilar chiroyligi qilgandir?
O'zingizni o'zingiz bilmasangiz siz,
Boshqalarni, albatta, bila olmaysiz,
Hamma sizni sevadi, ammo o'zini
Sizdan ko'ra yaxshiroq ko'radi, singlim!

Qimmat yig'laydi.

RUSTAM

Qichqirmang, bo'ldi?
Men sizni ajratib olib ketaymi?

QIMMAT

Sizmi? O'smoqchilamang?!
Meni boshingizga urasizmi?
Men endi gunohkor bo'lib ketganman,
Dunyodan o'lmayin tirik o'tganman.

(Yig'lab)

Otim o'chsin, dunyoda benomu nishon,
O'lib ketay sharmanda-sharmisor bo'lmay,
To'ng'iz tekkan idishday harom-harish
Bo'ldim endi men xazon, kuz hali kelmay?

RUSTAM

Bu yurgan odamlarning gunohi
Sening gunohingdan kam emas, Qimmatxon
singlim!!!

QIMMAT

(Ko'zlari olayib)

Qimmatxon singlim? Yo'q, yo'q! men sizga singil bo'lolmayman, qani guvoh?!

RUSTAM: Qurbonboy!

QIMMAT: Qurbonboy, Qurbonboy! Voy sho'rim, siz, siz ham Qurbonboy o'g'limi?

(Yerga tikiladi)

RUSTAM: Shunday, Qurbonboy o'g'li. *(Boshini ushlaydi)*

QIMMAT: *(Telbalanib)* Aka? Yo'q, yo'q! Siz, siz o'sha! O'sha! *(Qattiq kulib)* Ha!
Ha! Ha! Ha!

RUSTAM

Kosani to'ldiring, ayting alyorni,
Shu pulning, shu qulning sog'ligi uchun,
Aysh qilib o'ltirgan yigitlar bilan,
Maylisga qizlarning borligi uchun.
Ichaylik shu pulning salobatiga,
Pul ko'p zo'r, azamat, paxlavon bir kuch,
Agar pul bo'lmasa butun dunyoda
Odam yo'q, turmush yo'q, xatto yashash puch.
Pul bo'lsa, pul berib bazm olasan,
Pul bo'lsa, pul berib imon olasan,
Pul bo'lsa, pul berib vijdon olasan,
Pul bo'lsa, pul berib qur'on olasan!
Bazm pul, vijdon pul, xotinlar ham pul,
Shariat, qoshi ko'z, shirin so'z ham pul,
Jonlar pul, tanlar pul, ko'kraklar ham pul
Xattoki muhabbat, yuraklar ham pul.
Bilmadim, xudoning o'zi dunyoni
Yaratsa, pulni ham o'ylaganmidi?
Shu pulning o'zidan kuchli ekanin,
Xudoning o'zi ham bilganmi edi?
Pul bo'lsa, pul uchun tizni cho'ksalar,
Pul bo'lsa, pul uchun yerni o'psalar,
Pul bo'lsa, pul uchun odamni so'yib,
Qonidan ko'chaga suvlar sepsalar.

Ayting-chi, kim kuchli –
xudomi yo pul?!!
Minglarni darbadar, sargardon qilgan,
Ayting-chi, bu jonlar, qizlarmi yo tul?
Bir marta ochilmay gul kabi so'lgan,
Ichaylik qo'zini qo'ydan ajratib,
Bolani otadan ajratgan uchun,
Ichaylik singilni ona qo'ynidan,
Ajratib fahshlarga irg'itgan uchun,
Ichaylik og'aga singilni qo'shib,
Singilni sharmanda qilgani uchun,
Begunoh beaql, ma'sumjonlarning
Qo'lma-qo'l gul kabi yurgani uchun.
Ichaylik, ichaylik, bu aroqlarni,
Kosani to'ldirib suzing, poshshaxon,
Qattiqroq qichqiring, alyor bo'lsin deb,
Ichamiz kosada, mayli, bo'lsin qon!!
(*Qo'lidagi pilni sochadi*).

*Manbalar 1. Umarjon Ismoilov Tanlangan asarlar. G. G'ulom
nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. T-1975 y. 2. M. Rahmonov Hamza
nomidagi O'zbek davlat akademik drama teatri.*

BAHROM RAHMONOV

(1915—1961)

«Yurak sirlari» komediyasi bilan teatr tarixida ma'lum iz qoldirgan Bahrom Rahmonov asli huquqshunos; Toshkentda tug'ilib o'rta maktabni bitirgach, Toshkent yuridik institutida tahsil ko'rgan, so'ng Turkiston harbiy okrugida prokuror muovini, Respublika tashqi ishlar vazirligida bo'lim mudiri lavozimlarida ishlagan. B. Rahmonov qalami o'tkir jurnalist ham edi. Qator yillar «Qizil O'zbekiston» gazetasi va ba'zi jurnallarda mas'ul lavozimlarda, qator yillar O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasida rais, san'atshunoslik ilmiy-tadqiqot institutida rahbar lavozimlarida xizmat qilgan.

B. Rahmonov «Yurak sirlari» komediyasidan tashqari «Surmaxon», «Bir to'y mojarosi» (I. O'ktamov bilan hamkorlikda), «So'nggi nusxalar», «Qilmish-qidirmish», «Bahor arafasi», «Mardlar qissasi» pyesalarini yozgan.

«Yurak sirlari» asari rejissor T. Xo'jayev tomonidan sahnalashtirilgan bo'lib, asarda idrok etilgan oilaviy mashmashalar hozirgi kunda kishida uncha munozarali fikr uyg'otolmasligi mumkin. Lekin dramaturgiya va teatrdagi oila masalasi keskin qo'yilmaydigan 1950-yillarda qo'ydi-chiqdi, oila buzilishining o'zi sho'ro voqeligini soxtalashtirish ma'nosida qabul etilardi. «Figuram buzilmasin» deb tug'ishni istamovchi, kiyinish, o'yin-kulgi gadosi Surmaxonning eri Ilhom tomonidan tashlab ketilishi, yozuvchi Sattor Ilhomga rashk qilib vrach xotini Sanobardan ajrashuvi pyesa asosini belgilovchi bosh voqealardan edi.

Akademik teatr aktyorlari — Shohida Ma'zumova (Surmaxon) Olim Xo'jayev (Sattor) Xolida Xo'jayeva (Sanobar) shu qadar yorqin obrazlar yaratdilar, shu hol spektaklning butun 1950-yillar davomida anshlag bilan ko'rsatilishiga sabab bo'ldi. Pyesa viloyat va boshqa xorij teatrlarida sahnaga qo'yildi.

TOSH XO'JA XO'JAYEV (1922-1975)

Toshxo'ja Xo'jayevning har bir spektakli teatrimiz hayotida yirik voqeaga aylanar edi. Uning «Oybek» romani asosida o'zi insenirovka qilib yaratgan «Qutlug' qon» (1954), qayta qo'yilgan «Boy ila xizmatchi» (1958), Ch.Aytmatovning «Sarvqomat dilbarim» (1964), M.Kaorunning «O'g'rlangan umr» (1965), Rablesning «O'limdan kuchli» (1967), A.Qahhorning «Ayajonlarim» (1967), E.Vohidovning «Oltin Devor» (1970) kabi spektakllari Hamza nomli akademik drama teatri ijodida yirik bosqichlarga aylandi va ular Sh.Burxonov, S.Eshonto'rayeva singari keksa bo'g'in vakillari qatori san'at institutida tahsil ko'rib kelgan Ya.Abdullayeva, I.Aliyeva, T.Azizov, R.Ibrohimova kabi yosh san'atkorlar iste'dodini keng namoyon etdi.

A.SAYFUDDINOV USTOZI HAQIDA

Toshxo'ja Xo'jayev milliy rejissorlik san'atining rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shib, uni jahon darajasiga ko'tara olgan ijodkordir. Shu bilan birga, u teatr oila maktabining tamal toshini qo'ygan, uning shakllanib, kamol topishi yo'lida fidoyilik ko'rsatgan bilimdon ustozlardan biridir... Biz Toshxo'ja Xo'jayevning ijod yo'liga nazar tashlar ekanmiz, bir san'atkor va mohir pedagogning qisqa umrida shu qadar ulkan va barakali ijod qilinganiga hayron qolamiz. U yuzlab san'atkorlarni tarbiyalab, voyaga yetkazdi, nazariy jihatdan puxta qator maqolalar yozdi, turli anjumanlarda sahna muammolariga oid nutq

so'zladi, sahna nazariyachisi K.S.Stanislavskiy asarlarini tarjima qildi, rejissorlik sohasida katta muvaffaqiyatlarga erishdi.

Abdurahim Sayfuddinov, O'zbekistonda xizmat
ko'rsatgan madaniyat xodimi.
Mangu lahzalar sardori. "Guliston", 1994 yil 1-son

“YURAK SIRLARI” HAQIDA H.ABDUSAMATOV SHARXI

B.Rahimovning “Yurak sirlari” asari T.Xo'jayev talqinida g'oyoviy ohangining favqulotda yangiligi bilan keskin munozaralarga sabab bo'ldi.

1954 yil yanvarda “Qizil O'zbekiston” (Hozirgi “O'zbekiston ovozi”) gazetasida dabdurustdan bir do'stimiz “Yurak sirlarining xatosi nimada?” degan maqolasi bilan chiqib qoldi. Achinarlisi shundaki, taqrizchi asarning birorta ijobiy tomonini ko'ra olmasdan, uni balchiqqa bulg'ab tashlaydi, komediyaning voqealari va qahramonlari soxta, tirik emas, degan aybni qo'yadi. U Surmaxon “o'ydirma” obraz, Sattor “tipik obraz” emas, komediyaning butun konflikti, temetik “o'tkirligi va kuliminasion cho'qqisi ana shu noto'g'ri munosabat asosida qurilgan” degan xulosaga keladi. Spektaklni sahnadan olib tashlash kerak, degan fikrni oldinga suradi... Shukurki muhokamada notiqalar birin-ketin so'zga chiqishib deyarli hammalari spektaklni, ma'ruzadagi muhokamalarni maqullashadi... Xalq artisti O.Xo'jayev, hozir tarix fanlari doktori Abdunabitev, mashhur teatrshunos M.Grigorev va boshqalarning xolis fikrlari mening ruhimni ko'tardi... O.Xo'jayev va ayniqsa T.Xo'jayevning prinsipiialligiga va jur'atiga qoyil qolgan edim. Ular o'zlarining xalqini, spektakl ijobiy bahoga sazovor ekanligini isbotlash uchun barcha bilim va imkoniyatlarini ishga soldilar.

Hafiz Abdusamatov. “Yurak sirlarining sirlari”.
“Teatr” 2005 yil 5-son

Q.XOJAYEV ILHOM OBRAZI HAQIDA

...Ilhom — ijodimdagi birinchi ijobiy qahramon edi. Shu sababdan ham bu rol ustida ishlashim og'ir kechdi, kerakli xatti-harakat, qiyofa, ohang hadeganda topilavermadi, ko'p o'ylash, izlanishga to'g'ri keldi... «Yurak sirlari» spektaklida aktyorning yuragini jazillatadigan, toshbag'ir tomoshabinni ham mumdek eritadigan ko'pgina alomat lavhalar mavjud edi. Uchinchi parda, masalan, boshdan-oyoq ana shunday insonning qalb torlarini chertadigan uchrashuvlar, do'stlik, muhabbat va sadoqat haqidagi shirin suhbatlar umuman, ezguliklar, ya'ni dramaturg tili bilan aytganda, yurak sirlari bilan to'qilgandi. Aktyorlarning, shu jumladan, mening ham mazkur spektaklda zo'r ilhom bilan astoydil berilib o'ynashimning boisi ham shunda.

«Yurak sirlari» tomoshabinlarni ham kuldirar, ham yig'latar, oila va burch jumboqlari ustida bosh qotirishga majbur qilar, uning boshiga go'zallik va ezgulik nurini sochar edi. Shuning uchun ham spektakl uzoq umr ko'rdi.

Qudrat Xo'jayev, O'zbekiston xalq artisti.
«Go'zallik shaydosiman», 1976-yil, 98-bet.

ZAYNAB SADRIYEVA ONA ROLIDA

...Husn-jamoli, qomati, go'zal talaffuzi sevgi qahramonlari rolini bemalol o'ynashga da'vat etib tursa-da, Zaynabxon o'z ijodining debochasidanoq lirik plandagi yo'nalishdan o'zini tutib, nozik rollarni emas, fojiaviy, ayanchli yoki ibratli, yoki kulgiga boy xarakterli

rollarni o'ynashni lozim ko'rdi. Oqila aktrisa to'g'ri ijodiy yo'l tanladi. Rejissorlar ham san'atkorning bu fazilatini darrov payqab olishdi. Dramaturg Bahrom Rahmonov «Yurak sirlari»ning elga yoyilib ketishiga oq ko'ngil, mehribon qaynona Xosiyat xola obrazini samimiy o'ynagan Zaynab Sadriyevaning xizmati singdi. Siz bu obraz bilan Abdulla Qahhorning «Og'riq tishlar»idagi sutpurush savdogar, bag'ritosh qaynona obrazini taqqoslab ko'ring-chi! Ikki qalb egasini mohirlik bilan ko'rsata oldi u. «Shohi so'zana»dagi Xolniso kampir bilan «Momaqalldiroq»dagi ig'vogar xotin Peklushani artist qanday talqin etganini bir-biriga xayolan solishtirib ko'ring-chi. Shunda siz bu kamtarin, tinib-tinchimas aktrisaning qalbi inson xarakterlarini chizib tasvirlaydigan san'at bo'yoqlariga boy xazina ekanligiga ishonch hosil qilasiz. Aktrisaning tasvirlash, ifodalash, jonlantirish kuchiga maftun bo'lib, bu san'atkorning o'yinini kanda qilolmaysiz.

*Yong'in Mirzo. «Rollar va yo'llar»
O'zbekiston madaniyati» gazetasi,
1967-yil, 26-dekabr, 102-son.*

YURAK SIRLARI

(Birinchi parda, birinchi ko'rinishdan parcha)

Qo'lida sumka bilan Sanobar kiradi.

S a n o b a r. Salom, Sattor aka!

S a t t o r (*kinoyali.*) Keling, azizim!

S a n o b a r. Ish chiqib qolib, biroz kechikdim. (*Kulib*) Kechirasiz-da endi. (*Oshxona tomonga kiradi.*)

S a t t o r. Bu yangi gap emas-ku. Spravkasini ham tayyorlab kelibdi-da. (*Sanobar oshxonadan chiqadi.*)

S a n o b a r. Ha, bir bemorning ahvoli bugun juda og'irlashib qolgan edi, oshig'ich chora ko'rishga to'g'ri keldi. Konsilium o'tkazdik. Nevropotologlardan doktor Akramov, terapevtlardan men bo'ldim. Undan tashqari klinikadan ikki professor ham taklif qilindi.

S a t t o r. Yurak masalasidami?

S a n o b a r. Ha, yurak porogi.

S a t t o r. U yurak kasalining sizning yuragingizga ham daxli bormi?

S a n o b a r. Tushunmadim, Sattor aka, ochiqroq ayting.

S a t t o r. Har ikki yurak bir-biriga hamdardmi deyapman!

S a n o b a r. Bu nima deganingiz? Bemorning yuragi bilan mening yuragim o'rtasida qanday aloqa bo'lishi mumkin?

S a t t o r. Har kuni ishdan keyin eringizga telefonda qo'ng'iroq berib, o'zingiz konsultatsiya-yu konsiliumlarda yurganingizdan keyin nega aloqasi bo'lmasin?!

S a n o b a r. Axir bu xizmat-ku. Men vrachman. Bemorning hayoti tahlika ostida qolganda, unga tez yordam ko'rsatmagan vrach, vrachmi? Burchimni bajarmaymanmi?

S a t t o r. Burchingizni har safar ham Ilhom akaxoningiz bilan birga ado etasiz-a?

S a n o b a r. Nima deyapsiz, yana o'sha tuhmatmi?

S a t t o r. Yo'q, tuhmat emas, oyimcha! Tuhmat tuhmatlikdan chiqib haqiqatga aylandi. Qachongacha meni kalaka qilib yurasiz?

S a n o b a r. Sattor aka!

Eshik taqillaydi.

S a t t o r. Bo'ldi! Keyin gaplashamiz. Marhamat!

Sanobar ichkariga kirib ketadi, qo'lida portfel, Hassa bilan Ilhom kiradi.

I l h o m. Salom, Sattor.

S a t t o r (*sovuq*). Salom, hizrni yo'qlasam ham bo'lur ekan.

I l h o m. Kechirasan. Surmaxon yoki oyim shu yerda emasmi?

S a t t o r. Kelib-ketishdi.

I l h o m. Uyda hech kim yo'q. Eshik qulf. Kalitni ham tashlab ketishmadimi?

S a t t o r. Yo'q.

I l h o m. Telefonigizda bir gaplashib olay, maylimi?

S a t t o r. Marhamat!

I l h o m (*stol oldiga borib, telefonda nomer tera boshlaydi. Gudokni kutar ekan, stolda turgan suratni beixtiyor olib tomosha qila boshlaydi*). Sharifaxon? Salom! Ha, men Ilhom akangizman. Kechirasiz, Surmaxon sizlarnikida emasmi? (*Trubkani qo'yadi. Parishon*). Jonga tegdi bunday turmush! (*Kresloga o'tiradi.*) Ishdan charchab kelsang-u, uyingga kirolmasang, bu nima degan gap? Onasi is chiqqan joydan qolmasa, bolasi sartarosh-u moshinachinikidan beri kelmasa, mening boshim g'alvadan chiqmasa, bunaqa xotinning boridan-yo'g'i yaxshi! (*Qo'lidagi suratni ko'zdan kechirayotib*). Barvaqtroq uylanib qo'ygan ekanmiz, oshna.

S a t t o r (*chetga*). Ana sir ochildi. O'z-og'zidan ilindi. (*Ilhomga.*) Ilhomjon, agar yanglishmasam, Surmaxonni yaxshi ko'rib, oshiqi beqaror bo'lib olgan eding, shekilli?

I l h o m. To'g'ri aytasan, ayb o'zimda, meditsina fanlari kandidati unvonini olish uchun Leningradda dissertatsiya yoqlab qaytganimdan keyin, Surmaxonni ko'rib mahliyo bo'lib qolgan edim. Sinashta bo'lmay uylanib qo'yib, endi dardimga davo topolmay sarsonman. Husn bir dunyo-yu, xulqi atvori boshqa bir dunyo ekan. O'zim er emas, pulim er. Ma'lumoti ham oltinchi sinf hajmida. O'qi desa, ko'nmaydi. Ishga kir desam, unamaydi, janjal bo'lsa, oltmish arava, boshimda tegirmon toshi aylanmagan kunni ko'rishga zorman. (*Chiqib ketmoqchi bo'ladi*). Endi komendantni topib, eshikni buzdirib, ochdirar ekanman.

S a t t o r. Ilhomjon, agar surat kerak bo'lsa, Sanobarga aytay, orqasiga yozib bersin.

I l h o m. E, kechir og'ayni (*Suratni beradi.*) Parishonlik qursin. (*Ketadi.*)

S a t t o r. Masala ravshan. Xotin me'dasiga tegibdi. Sanobarga osilib yurganining sababi ham shu. Bu sochi uzun, aqli qisqa ham meni... (*Sanobar ichkari xonadan chiqadi.*)

S a n o b a r. Sochi uchun qiz aqli uzun yigit bilan o'z taqdirini bog'lab, bir yostiqqa bosh qo'ygan ekan, u faqat vafo to'g'risida o'ylaydi.

S a t t o r. Sizga o'xshab-a?

S a n o b a r. Ha, menga o'xshab.

S a t t o r. So'nggi vaqtlarda tilni juda uzun qo'yadigan bo'lib qoldingiz-a?

S a n o b a r. Siz mening izzat-nafsimga tegib, muhabbatimni hadeb tahqirlayversangiz, indamaymi, gapirmaymi?! Nohaqq gaplaringizga gap qaytarmaymi?

S a t t o r. Albatta, yurishni eplagan odam, gapni ham eplaydi-da.

S a n o b a r. Axir gunohim nima?

S a t t o r. Hali bilib turib, bilmaslikka ham oladigan bo'ldingizmi?

S a n o b a r. Dissertatsiya ustida ishlayotganimni yaxshi bilasiz. Axir, nazariy bilimni tajribadan ajratib bilmaydi-ku! Ishimning muvaffaqiyatli chiqishi uchun kutubxona, klinika, laboratoriyalarda tez-tez bo'lib turishim kerak. Agar men sizning o'jarligingiz yoki rashkingiz to'g'risida dissertatsiya yozganimda, tun-u kun uyda o'tirgan bo'lardim.

S a t t o r. Endi bunaqa bahona topildimi?

S a n o b a r. Menga ishonchingiz shu darajaga borib yetgan bo'lsa, surishtiring, aniqlang, kimlar bilan qayerda bo'lganimni aytib beray, yuzlashtiring.

S a t t o r. Endi bir kamim ko'chama-ko'cha yurib, xotinimni ko'rdingmi, kim bilan bo'ldi, nima qildi, deb surishtirib yurish qoldimi?!

S a n o b a r. Bo'lar-bo'lmas mish-mishlarga ishonib, xo'rlayverasizmi? Bekordan-bekorga tuhmat qilishga uyalmaysizmi?

S a t t o r. Attang, attang! Afsuski, sizga o'xshagan olimlar, kishilarning yuragini oynaday ko'rsatadigan apparat ishlab chiqarganda, shu apparatning oldiga o'tkazib, yuragingizni ko'rsatib, o'sha zang bosgan qismini shartta uzib oldingizga qo'yib qo'yardim. Undan keyin tushingizni suvga aytardingiz!...

S a n o b a r. Men ham o'shanday apparat yo'qligiga afsuslanaman, chunki, siz tuhmatchi ekanligingizni ochiq-oydin ko'rib olardingiz.

S a t t o r. Endi ish tilyog'lamalikka o'tdimi? Shuncha yillik muhabbat ustiga tuproq tashlab ko'mib yubordingiz!

S a n o b a r. Yo'q, ko'mib yuborayotgan men emas, siz!

S a t t o r. Qachongacha hunar ko'rsatasiz?

S a n o b a r. Sattor aka, haqorat qilmang! Bu tuhmat!

S a t t o r. Tuhmat! Ilhom akangiz qo'ng'iroq berganlaridan keyin kasalxonaga borib, na sizni, na Ilhom akangizni topolmay kelganlar, o'lgani yo'q-ku!

S a n o b a r. Surmaxonni g'iybatdan boshqa g'ami bormi?

S a t t o r. Nima, haqiqatni gapirsa, g'iybat bo'larkanmi?

S a n o b a r. Ko'zingizni xira bosibdi. Oq bilan qorani taniyolmay qolibsiz. Meni haqorat qilyapsiz, bu adolatdan emas.

S a t t o r. Bizning gapimiz adolatsiz-u, qo'ng'iroq oyimlarning qilmishlari adolatli ekan-da?!

S a n o b a r. Sattor aka, siz o'rinsiz rashk qilasiz, gap faqat rashkdagina emas. Yo'q, hamma balo sizning xotin-qizlarga ishonmasligingizda, bizlarga nisbatan eskicha qarashingizda!

S a t t o r. Hali, meni fikri buzuq ham dersiz!

S a n o b a r. Sizning ra'yingizga qarasam, qosh-qovog'ingizga termilib uyda o'tirishim, ostona xatlab ko'chaga chiqmasligim, qisqasi, jamiyatdan chetda qolishim kerak. Yo'q, Sattor aka, butunlay yanglishasiz. Axir bu, xotin-qizlarga boy-feodallarcha munosabatda bo'lishning o'zi-ku?

S a t t o r. Hali boy, feodal nomini ham orttirdikmi?! Bo'ldi. Bu uyda yo feodal tursin, yo siz turing!..

S a n o b a r. Hali shundaymi?

S a t t o r. Ha, shunday!

S a n o b a r. Kunda bo'ladigan haqoratga toqat qolmadi. Jonim halqumimga keldi. Ketaman. Ketishga majburman.

S a t t o r. Aybingizni bo'yningizga olganingiz uchun rahmat!

S a n o b a r. Aybim yo'q. Tuhmatdan voz kecharsiz, xato yo'ldan qaytarsiz hali, bolani yetim qilmassiz, deb o'ylagan edim.

S a t t o r. Yo'q, qaror qat'iy! Ikkalovi ikki xonaga kirib ketadi. Xosiyat chiqadi.

X o s i y a t. Qizim, Sattor, kelinglar, ovqat tayyor.

Sattorning ovozi. To'ydim! Sanobar kichik chamadon ko'tarib chiqadi.

X o s i y a t. Voy, nima bo'ldi?

S a n o b a r. Oyijon, ketmasam bo'lmaydi.

X o s i y a t. Qizim, qo'ying, hali jahlidan tushib qolar. O'zim tushuntiraman, ketmang, jon bolam.

S a n o b a r (*ichkariga kiradi*).

Ichkaridan Sattor chiqadi.

S a t t o r (*Sanobarga eshittirib*). Shuncha vaqtdan beri ZAGSga borishga xavfsalasizlik qilganim ham durust bo'lgan ekan. Sudga yugur, gazetaga e'lon ber, xullasi qo'ydi-chiqdi mashmashasidan xolisman. Sizning ham to'rt tomoningiz qibla, oyimcha!

X o s i y a t. Nima qilding, battol!

S a t t o r. Masalani ko'ndalangiga hal qildim.

X o s i y a t. Masalani ko'ndalangiga qal qilishing qurib ketsin. To'xtab tur hali, shunday pushaymon bo'lasan-ki...

S a t t o r. Nimaga pushaymon bo'lar ekanman?

X o s i y a t. Sanobardek xotindan ajralganingga!..

S a t t o r. Hali onasi o'pmagan qizga uylanib, hammalaringizni hayratda qoldirmasam, Battol emasman! (*Ichkariga kiradi*.)

X o s i y a t. Xotinini xor qilgan kishiga onasi o'pmagan qiz o'ylashib tegadi! (*Kitoblar ko'tarib Sanobar chiqadi*.) Jon bolam, qoling, Sanobarxon, ketmang.

S a n o b a r. Men hozircha shu kitoblar-u, mana bu chamadonchani olib ketaman. Mashina yuborsam, u-bularimni berib yuborasiz. Rahmat, sizga oyijon! Xayr, oyijon, xayr! (*Chiqib ketadi*.)

X o s i y a t. (*Yesankirab eshik tomonga yuguradi*). Sanobarxon! Sanobarxon deyman! Sanobarxon!

Ichkaridan Sattor chiqadi.

S a t t o r. Sanobar! Sanobar! Oyi, rostdan ketib qoldimi?

Manbalar:

Bahrom Rahmonov. Pyesalar. O'zbekiston badiiy adabiyot nashriyoti, 1957-yil. Maqsud Qoriyev. «Kamolot yoshida edi» «Teatr» jurnali, 2001-y., 3-son.

IZZAT SULTON

(1910-2003)

O'zbekiston Fanlar Akademiyasining akademigi Izzat Sulton zamondoshlar xotirasida adabiyotshunos olim, va bir qator pyesalar muallifi sifatida o'rin olgan.

U Qirg'iziston respublikasi O'sh shahrida hunarmand oilasida tavallud topgan. Erta ota-onasidan ayrilib bolalar uyida tarbiya topadi. 1924 yili Toshkentga kelib "Namuna" maktabi, so'ng ta'lim-tarbiya texnikumida o'qiydi. U 1930 yili O'rta Osiyo Davlat universitetiga o'qishga kiradi, keyin, 1934 yili Til va adabiyot institutida aspiranturada taxsil ko'radi. 1943-1948 yillari davlat raxbarlik lavozimida, so'ng A. Navoiy nomidagi til va adabiyot institutida faoliyat kechiradi.

I. Sulton dramaturgiyaga "Burgutning parvozi" (1939) asari bilan kirib kelgan. Uning shoir Uyg'un bilan hamkorlikda yaratilgan "Alisher Navoiy" (1940-1945) dramasi teatr tarixida yirik voqea bo'ldi.

Milliy teatrdan sahnalashtirilgan "Imon" (1960, rej. A. Qobulov), "Noma'lum kishi" (1963, rej. A. Ginzburg, T. Xo'jayev) "Ko'rmayin bosdim tikanni" (1974, rej. R. Xamidov) "Istehkom" (1979 rej. R. Xamidov), Abdulla Qodiriyning "O'tgan kunlar" va ilk bor Respublika yosh tomoshabinlar teatrida qo'yilgan "Ibn Sinoning yoshligi" asarlari uning ijodiy faoliyatida yirik bosqichlarga aylandi.

I. Sulton yaratgan badiiy obrazlar ko'plab akyorlar ijodida chuqur iz qoldirgan. Xususan "Imon" dramasi Komilov obrazi Olim Xo'jayev uchun yangi ijodiy marraga aylandi.

Atoqli san'atkor bu rolni bir maqolasida o'zining Hamlet, Karl Moordek eng sevimli qahramonlari sirasiga qo'shgan edi.

OLIM XO'JAYEV KOMILOV OBRAZI HAQIDA

...Men Moor va Komilov obrazlari ustida ish olib borganimda Hamlet roliga o'ynashni ham davom ettirdim. Bu rollarning bir vaqtda galma-galdan o'ynash esa meni ko'p narsaga o'rgatdi. Ayniqsa "qanday o'ynash" emas, balki "nimani o'ynash" kerakligi haqida fikr yuritishga, izlanishga o'rgatdi meni...

Yo'ldosh Komilovning iztirobi cheksiz: uning o'g'li Orif katta jinoyat qildi – birovning ilmiy ishini o'zlashtirib, o'ziniki qilib dissertasiya yoqladi. Mehnat bilan elda hurmat qozongan Komilovlar oilasiga adolat, or-nomus, poklik uchun oyoqqa turdilar. Agar biz Komilovning ko'zida, ovozi, intonasiyalarida, harakatlarida Hamlet va Karl Moordagiga o'xshamagan fikr jo'shqinligini, e'tiqod jasoratini, maqsadga intilish kuchini ko'rar ekanmiz, bu albatta rejissyor to'g'ri talqinining natijasidir, bu mening sahnada birga hamfikrlashgan partnyorlarim o'yinlarining aniq, to'g'ri yechilishi oqibatidir. Men eski dunyoning odil hayotga to'sqinlik qilayotgan, yo'limizda uchraydigan har qanday to'sqinliklar bo'lmasligi uchun kurashadigan obrazga kelib yetdim. Hamletdagi hardamhayollik, Moorning yovuzlik bilan "umuman" kurashi orqada qolib, konkret fikriy kurashchi Komilovga yetib keldim.

*Olim Xo'jayev Tafakkur teatri.
"O'zbekiston madaniyati" 1968 y. 3 sentyabr. 70 son*

SPEKTAKL HAQIDA IKKI ALLOMA SHARXI

Xalqqa vijdonan xizmat qilish, halollik va vijdoniy poklikni madh etish, hayotimizda hali ham uchrab turadigan ta'magirlik, xudbinlik, xaromxo'rlik, vijdotsizlikka, shu sarqit qoniga singib ketgan individualist va meshchanlarga qarshi kurash dramaning g'oyaviy asosidir... "Imon"ning afzalligi shundaki, unda konflikt keskin kurash jarayonida ochila boradi, bu esa tomoshabinning qalbi va ongiga oziq beruvchi o'tkir dramatismni vujudga keltiradi. Qahramonlarning xarakteri ham kurash jarayonida yorqin psixologik tusga kirib boradi... Ular (rejissyorlar Q. Xo'jayev, A. Qobulov – S.T.) dramaning g'oyaviy mazmunini to'g'ri tushungan, ijobiy va salbiy kuchni bo'rttirib ko'rsata oladigan, nozik psixologik kechinmalarni ro'yi-rost ifoda qiluvchi mizanstsenalar yaratgan.

Professor Yo'ldosh Komilov rolini atoqli artist Olim Xo'jayev bajaradi. Sahnada intelligensiya vakillarining ko'pgina obrazlarini yaratgan Xo'jayev bu gal ham yorqin, esda qoladigan obraz yaratgan. Uning ijrosidagi samimiylilik va tabiiylilik kishini maftun etadi.

*Ozod Sharafiddinov, Sulaymon Azimov. Vijdon qo'shig'i
"Qizil O'zbekiston" 1960 y. 28 iyun 149 son.*

Quyida asardan Komilov va Sanjarov sahnasi berildi.

SANJAROV: O'g'lingdan qo'lyozmani talab etma. Yopiq qozon yopig'icha qolsin.

KOMILOV: Endi meni ham jinoyat yo'liga tortmoqchimisan. O'g'limni jinoyatchi qilganing yetmasmidi?

SANJAROV: Men tufayli o'g'ling kandidat bo'lib oldi, doktor bo'ladigan bo'lib turibdi. Men senga yaxshilik qildim.

KOMILOV: Ayyorlik qilma. Sen mendan qasos olish uchun mening o'g'limni jinoyat yo'liga tortgansan.

SANJAROV: Qirq yillik do'stimda mening nima qasosim bo'lishi mumkin?

KOMILOV: Sen endi do'stlikni tilga olma, ablax.

SANJAROV: Haddingdan oshma!

KOMILOV: Yo'q men bugun haddimdan oshaman, toshaman. Ha, sen meni birinchi martaba do'stim deb ataganingda men buni quvonch bilan qabul etgan edim. Yosh qalb uchun "do'stingman" degan so'zdan ham jozibaliroq narsa bo'lishi mumkinmi? Ammo o'sha vaqtdayoq biz, sening maktabdosh do'stlaring yaxshi bilar edikki, sen do'sting uchun o'zingni na o'tga, na suvga urasan, faqat bir masalada sen bir kunda yuz marta ham o'tga, ham suvga urishga tayyorsan. Pul masalasida. Ha, pul masalasida. Ko'p o'tmay sen pul topishning yashirin, ammo samarali yo'llarini o'rganding. Men sendan sovudim.

SANJAROV: Men ham senga yopishib olganim yo'q edi.

KOMILOV: Men o'sha vaqtdayoq sendan tamom yuz o'girishim, hech tortinmasdan senga "yo'qol" deyishim kerak edi. Afsuski demadim, ko'ngilchanlik qildim... Yillar o'tdi...

Ha, o'sha yillari ham sen do'sting Komilovni unutmading. To'rt yillik urush va buning ustiga senga o'xshashlarning haromxo'rliги natijasida dosent yarim och, yarim yupun edi. U xatto leksiylarni ham qayerdandir orttirgan birgina shinelini yechmasdan turib o'ir edi. Faqat auditoriyaning sovuqligi uchun emas, balki shineli tagida obro'liron kostyumi yo'qligi uchun ham dosent Komilov shunday qilishga majbur edi. O'shand sen

dosent Komilovga marhamatlar qilib, katta sovg'alar bilan uning uyiga kelding va u seni o'z uyidan xaydab chiqardi. Bu – Komilovning eng baxtiyor kunlaridan biri edi. Ne uchun men ana shu dosent Komilovligimda qolmadim...

Sen mening tilimni qisib qo'yish yo'lini topolmay xunob eding. Nihoyat bunga imkon tug'ildi. Marhum professorning qimmatli qo'lyozmasi qo'lingga tushdi. Sen bu qo'lyozmani o'zingniki qilolmasdinig. Chunki sening qo'lingdan bunday ish kelmasligi hammaga ayon, sen sharmanda bo'lar eding. Ammo qalloblikka o'rgangan ko'ngling endi senga tinchlik bermaydi. Sen yusupovning qo'l yozmasidan ham o'zing uchun manfaat chiqarish yo'lini axtarasan. Shunday qilib, ham mening uyimda o'zingga sodiq qo'l topasan, ham kezi kelganda o'glimning jinoyatini menga pesh qilib, tilimni qisish imkoniyatiga ega bo'lganingga ichingdan quvonib yurasan... Bugun o'glimning sirini ochishdan maqsading ham bizni o'z yo'lingga solish edi...

SANJAROV: Yo'ldosh meni qo'yatur, o'g'lingni o'yla. O'g'lingga shafqat qil. (Hammaga) Buncha endi fanatik bo'lmasanglar! Axir, odammisizlar o'zinglar! Nahotki sizlarda shafqat yo'q?

OZODA: Akamning shafqat talab etishga haqi yo'q.

KOMILOV: Orif qilmishiga yarasha jazo tortishi lozim.

SANJAROV: (qattiq tashvishda) Hoy, Yo'ldosh, bu nima zolimlik? O'g'ling nima qiptiki, sen unga munchalik qahr qilasan? Orif birovning ishini o'ziniki qilgan bo'lsa, nima bo'пти? Dunyoda birovning haqini yemagan kim bor? ... Hayotda doimo birov birovning haqini yeydi. Birovning haqqini yeyishdan hazar qilsang, hayotdan qonib lazzatlana olmaysan kishi. Hayotning, butun tabiatning qonuni shu. Hayot – bir dengiz. Agar dengizda nahagga o'xshash katta baliqlar kichik baliqlarni yeb turmasa, baliq ko'payib ketib, dengiz qurib qoladi.

KOMILOV: A-a! Ana endi sen umringda birinchi martaba niqobingni tashlading, nahang!

Manbalar:

Izzat Sulton. Asarlar. Birinchi tom. G. G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. T. 1972y. Sobir Mirvaliyev O'zbek adiblari "Yozuvchi" nashriyoti 2000 y.

TUROB TO'LA

(1918—1990)

Atoqli shoir va dramaturg Turob To'la Qozog'iston Respublikasi Chimkent viloyatining Turbat qishlog'ida dehqon oilasida tug'ilgan.

1934—1935-yillari A. Loxutiy nomidagi Toshkent teatr texnikumida o'qiydi. So'ng Toshkent pedagogika institutining kechki bo'limida tahsil ko'radi, ayni paytda gazeta va jurnal tahririyatlarida ishlaydi. Aktyorlik kasbini davom ettirish nasib etmaydi. Lekin san'atdan uzoqlashmaydi. Uzoq yillar davomida Respublika San'at ishlari boshqarmasining boshlig'i, Milliy akademik teatr rahbari, «O'zbekfilm», O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasida mas'ul lavozimlarda ishlaydi.

Turob To'la adabiyotga shoir sifatida kirib kelgan, 1939-yili uning birinchi she'riy to'plami chop etilgan. Uning ijodida dramaturgiya alohida o'ringa ega. 1965-yili uning sahnaviy varianti asosida Muqimiy nomli musiqali teatrdan Ch. Aytmatovning «Momo yer» (rejissor A. Rahimov, bastakor I. Akbarov) asari sahnaga qo'yilgan. Ch. Aytmatov asariga xos falsafiy teranlik ohangi T. To'laning Muqimiy nomli teatr bilan olib borgan keyingi izlanishlarida ham o'z aksini topdi. «Qari qiz» (1965, rejissor R. Hamroyev), «Qizbuloq» (1968, rejissor A. Rahimov) shunday musiqiy dramalar edi. 1980-yili uning shoira Nodirabegimning fojiali qismatiga bag'ishlangan «Quvvai qahqaha» tarixiy dramasi yaratilgan. Bulardan tashqari «Oygul va Baxtiyor», «Suyuk momo» pyesalari, Oybekning «Qutlug' qon» romaniga opera librettolarini yozgan.

Turob To'la kinodramaturg sifatida «Maftuningman» (1958), «Furqat» (1960) «Marg'ilonlik qiz», «Talang», «Shashmaqom», «Qahr» singari kinofilmlar ssenariylari muallifi hisoblanadi.

Turob To'la «Toshkent nahori», «Oltin sandiq», «Shirmonoy», «Uch dugona», «Sanam, hech bormi insofing» singari o'nlab qo'shiqlari bilan tanilgan qo'shiqchi shoir edi. Nozikta'b teatrshunos — tahlilchi ekanligi teatr spektakllari muhokamalarida aytilgan samimiy, o'tkir mulohazalari qatori vaqtli matbuotda e'lon qilingan maqola, taqriz va san'atkorlar haqidagi ijodiy portretlarida o'z aksini topgan. Unga O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, O'zbekiston xalq yozuvchisi unvonlari berilgan.

SAID AHMAD:

«AJIB BIR ISHTIYOQ BILAN GAPLASHARDIK»

Taqdirni qarangki, Turob artist, men rassom bo'lmoqchi edim. Turob Loxutiy nomidagi teatr texnikumida, men tasviriy san'at bilim yurtida o'qiy boshladik. Turobdan artist, mendan rassom chiqmadi.

Ikkalamiz yana adabiyot ko'chasida uchrashdik. O'sha kezlari Yozuvchilar soyuzida bo'ladigan turli ijodiy bahslarga kelib, bir chekkada katta shoirlarning so'zlarini eshitardik. Biz uchun G'afur G'ulom, Oybek, Hamid Olimjonlar payg'ambar bo'lib tuyulardi. Goh Turobning yotog'ida, goh biznikida tong otguncha she'r to'g'risida, hikoya to'g'risida ajib bir ishtiyoq bilan gaplashardik. Mana shu havas, mana shu ishtiyoq qirq besh yildirki, hali bizni tark etmadi. Haligacha yozganlarimizni bir-birimizga o'qib berishga shoshamiz.

*Said Ahmad, O'zbekiston qahramoni shoirning
oltin sandig'i. Turob To'la. Asarlar
birinchi jildi, 1978-yil, 3-bet.*

Turob To'la asarlari, xususan, «Qizbuloq» Hamza Umarov (Gung), M. G'ofurov (Shayx) M. Ixtiyorova (Oqmaral), N. Po'latova (Zebo), S. Po'latov (Armon) kabi aktyorlar ijodiy taqdirida chuqur iz qoldirgan.

SPEKTAKL HAQIDA IKKI SHARX

Iste'dodli shoir Turob To'la dramaturgiyaga o'z mavzui, o'z dardi, o'z yo'li bilan dadil kirib keldi. Uning yaqinda Muqimiy nomidagi respublika muzikali drama va komediya teatrida sahnalashtirilgan «Qizbuloq» fojiasi shundan dalolat beradi. Fojiadagi voqealar garchi yigirmanchi yillarda kechsa-da, zamondoshlarimizga manzur formada aks ettirilgan. Dramaturg har qaysi obrazda ma'lum bir xarakterni yaratish bilan birga uni muhim ijtimoiy mavzuni ifoda qiluvchi katta umumlashma darajasiga ko'tarishni o'ylaydi... Voqealar hayajonli va ko'tarinki romantik ruhda aks ettiriladi.

*Muhsin Qodirov, san'atshunoslik fanlari doktori, professor.
«Sehr va mehr». 1980-yil, 96—97-betlar.*

«Qizbuloq» — falsafiy mezoni katta, ko'lami keng asardir. Uning zamirini hayot, insoniy qismatlar haqidagi falsafiy fikr va mushohadalar fojiasi, insoniy idealning g'ayriinsoniy ideal ustidan g'alabasi tashkil etadi... Spektaklning eng yaxshi sahnalarida rejissor Abdurashid Rahimov, rassom To'lqin Shorahimov, kompozitor Ikrom Akbarov va ijrochilarning izlanishlari bir-biri bilan shunday o'zaro birlik, mushtaraklik topganki, bu hol «Qizbuloq» asarining poetik ruhiga tamoman mos kelgan. Bu o'rinda spektaklning muqaddima va final sahnasi epizodlarining talqini yorqin misol bo'la oladi.

Butun sahnani yuksak qoya obrazini eslatuvchi tepalik qoplab olgan. Yagona farzandidan judo bo'lgan Ummat ota — Anvar Yusupov, (Mashrab Yunusov) nola bilan o'z qizi jasadini ko'targan holda tog' cho'qqisida paydo bo'ladi. Qoya sadhini qora kiyingan, boshlari egik xotin-qizlar, yosh va keksalar to'ldirib turishibdi. Orkestr xonasidan ko'tarilgan sokin va mungli ohang Ummat ota faryodlarini asta-sekin ko'mib ketib, yurakdan boshlanuvchi xorga ulanadi...

*S. Tursunboyev. «E'tiqod fojiasi». «O'zbekiston madaniyati»
gazetasi, 1968-yil, 16-aprel, 31-son.*

«NODIRA» ASARINING YARATILISH TARIXI HAQIDA

Turob To'la yetmishinchi yillarning boshidayoq «Nodira» pyesasini yozib tugatdi va o'qish uchun teatrga topshirdi. Shu zaylda uning teatr bilan hamkorligi boshlandi. Avtor pyesaning tugallangan adabiy variantini matbuotda e'lon qildi. Postanovka jarayonida

aslidan xiyla farqlanuvchi sahna varianti yuzaga keldi: janr va qurilish nuqtayi nazaridan tarixiy fojia yo'li bilan bitilgan pyesa sahnada dramatik poemaga aylandi va tomoshabinga taqdim etildi. «Nodira» pyesasi va spektakli teatr hayotimizda ijobiy xarakterdagi voqeadir. Turob To'la chorak asrdan beri teatr va kinodramaturgiya janrida qalam tebratib, respublikamizning peshqadam dramaturglaridan biriga aylandi. Uning «Qari qiz», «Qizbuloq» muzikali dramalari, «Furqat» kinossenariysi, Oybekning «Qutlug' qon» romani asosida «Zulmatdan ziyo» operasining librettosi teatr san'atimizda salmoqli o'rin tutadi. «Nodira» har jihatdan shu asarlarning davomi va eng yetugi.

Mamajon Rahmonov, akademik, Toshpo'lat Tursunov,
san'atshunoslik doktori, professor. «Nodira»,
«Sovet O'zbekistoni san'ati» jurnali,
1980-yil, 10-son.

«NODIRABEGIM»

Turob To'laning pyesasida shoira Mohlarbegim — Nodira hayotining so'nggi damlari haqida hikoya qilingan. Nodirabegimning hokimiyat ishiga aralashuvi shuhratparast saroy mulozimlariga yoqmaydi. Sotqin mulozim Haqqul irodasiz Madalixonning ishonchiga kirib, uni Nodirabegimga qarshi qayraydi, Nasrulloxon bilan pinhoniy aloqa bog'lab, qo'shinlarining Qo'qonga bostirib kelishiga yo'l ochib beradi. Tarixda bo'lganidek, asar Nodira va uning yaqinlarining Nasrullo tomonidan qatag'on qilinishi bilan tugaydi.

«Nodirabegim» asari 1980-yili O'zbek Davlat akademik drama teatrida rejissor B. Yo'ldoshev tomonidan sahnaga qo'yildi. Bosh rollarda Ya. Abdullayeva, G. Jamilova (Nodira), O. Yunusov (Madalixon), T. Azizov, Q. Abdurahimov (Nasrulloxon), T. Yusupova (Uvaysiy) chiqqanlar. Asarning musiqali nusxasi 1996-yili Muqimiy nomli musiqa teatrida (rejissor B. Yo'ldoshev, bastakor F. Alimov) qo'yilgan, Nodira va Nasrulloxon rollarida Z. Boyxonova, R. Ma'diyev chiqqanlar.

YAYRA ABDULLAYEVA NODIRA ROLIDA

Nodirabegim — buyuk insonparvar, mutafakkir shoira, malika, mehribon, mushfiq ona ham! Yayraxon ijrosida Nodirabegimning serqirra faoliyati, odamiylik fazilatlari spektakl davomida dinamik tarzda, voqealar silsilasiga va xarakteriga monand, sahnama-sahna namoyon bo'la boradi. Yayraxonim bu fazilatlarga mahorat bilan hayotiy jilo beradi. Chunonchi, Nodirabegim — ijodkor. Shoira ijodni va ijodkorlarni yuksak qadrlaydi. Uning Uvaysiy, Xoziq, Mahmur, Gulxaniy va Olima otinlar bilan bo'lgan iliq, mehrparvar munosabati, ularga bo'lgan ehtiromi, samimiy g'amxo'rligi, qator sahnalarda Nodirabegim shaxsiyatiga xos fazilatlar bo'rtib turadi.

Nodirabegim qudratli iroda, shijoat va jasorat sohibasi. Unga xos bunday savlat va salobat Amir Nasrullo bilan uchrashuv kartinasida o'zining yorqin ifodasini topgan. Nodirabegim o'z farzandlariga ham, shuningdek, el-ulus farzandlariga ham mehribon, munis ona. Bunday nodir insoniy xislatlar Nodirabegimning farzandlari bilan bo'lgan munosabatlarida zamon, tarixiy sharoit va siyosat taqozosi bilan ular orasida vujudga

kelgan ziddiyatlar borasida chekkan aziyat va iztiroblarida ayon ko'zga tashlanadi, najot yo'lini axtaradi, topolmaydi.

*Muhsin Zokirov, Yong'in Mirzo. «Ona yuragida mehr va nafrat»
«O'zbekiston madaniyati», 1980-yil, 27-iyun.*

NODIRABEGIM

(Amir va Nodirabegim uchrashuvi sahnasidan)

N o d i r a b e g i m. Saltanatga nojins bir zaifaning

Bunday jur'atiga hayron bo'lmassiz.

Xalqi, vatanini bilgan har inson,

Boshida falokat buluti turib,

Mening ahvolimni anglasa lozim!

Uzoq muhokama qildim albatta.

Amir idrokiga, halolligiga

Tayandim albatta hammadan avval.

Yashirinib chiqdim, maxfiy, O'rdadan.

Na O'rda biladi, na shahar buni.

A m i r (*Miyg'ida kulib.*)

Tasavvurimda ham shunday edingiz!

N o d i r a b e g i m. Xudo xayringizni bersin, olampanoh,

Hali O'ratepa, Xo'jand, Shahrisabzning —

Sovigani yo'q-ku kultepalari.

Toshkent, Farg'onaning, Xo'jand, Turkistonning

Bir yillik xirojin bag'ishladik-ku.

Xutbaga kirdi-ku nomingiz, axir.

Tag'in nima kerak amirimizga?!

A m i r. Ma'dalining boshi, sizning so'zingiz!

Islom tuprog'ini oyoq osti qilgan

Osiy bandalarni, gunohkorlarni,

Uni makruh qilgan, haddidan oshgan,

Kufr ishlar bilan mashg'ul Ma'dalining,

Islom peshvolari, ulamolarning

Oyog'idan osib masxara qilgan

Davlat nayrangbozi, dajjol Ma'dalining

Uning volidayi muhtaramasi,

Movarounnahr g'azal mulkining —

Sitoraligiga tengsiz da'vogar —

Hokimoyimning qattiq adabini

Bergani kelganman, agar bilsalar!...

Endi avvalgidek yo'ldan qaytish yo'q!

Bergan va'dasini, qilgan shartimizni

Buzdi Buxoroga yetmasimdanoq.

N o d i r a b e g i m. Bunga el-u yurtning nima daxli bor?

Masjid, madrasalar, takya, guzarlar,

San'at saroylari bo'lmoqda vayron.
Tutdek to'kilmoqda xalqning mehnati.
Yer-u suv, bog'-rog', toliblar rizqi.
Avvalgi suhbatga qaytaylik, amir,
O'sha shart shart bo'lib qolsin, vassalom!

A m i r. Bu yo'ldan qaytish yo'q, Nodirabegim!

Ertaga kiramiz tong otardayoq.

Tartib o'rnatamiz avvali oxir.

N o d i r a b e g i m. Qadam bilan balki, qilich bilanmas...

Xayri ehson emas, insof so'rab keldi

Qo'qon malikasi sizdan, shahanshoh.

Insof va shafqat!

Nahotki, ittifoq birikkan qo'llar

Qilichlar yumishin qilolmasalar?!

A m i r. Qilich bas keladi faqat Ma'daliga!

Uning tiliga ham, kallasiga ham!

N o d i r a b e g i m. Tangri yorlaqasin, ketingiz bundan!

Razil kishilarda aql bo'lmaydi.

Imon ham bo'lmaydi, bu sizga ayon.

Ammo siz aqlli, dono odamsiz.

Haligi palidlar so'ziga kirmang.

Panoh topmoqdalar sizdan xoinlar,

Mal'un fitnachilar, xiyonatkorlar!

A m i r. Movarounnahr, Nodirabegim (*istehzo bilan*).

Ikki hokimlikka torlik qiladi.

Ma'dali Nasrullo bosh chanog'ida

Sharob sipqormoqqa qasam ichibdi.

Men ham qasamni qabul qildim, ya'ni,

Farg'onada shunday bo'ron tursinki,

Qo'qondan qolmagay nomi nishon ham!

Ana undan keyin Ma'dalixonga

Na chanoq, na sharob kerak bo'ladi!

N o d i r a b e g i m. Jahl-jaholatga salavot, amir!

Mamlakatimiz busiz ham notinch.

Ingliz Afg'onda o'rnashib oldi.

O'rinburx yo'qotdi halovatini.

Sakkiz yilda tuqqan lashkarboshingiz

Biznikiga o'xshab qarqunoq chiqdi.

Buxoro bu tahlid, Qo'qon bu tahlid,

Xiva — biyobonda adashgan qo'zi.

Shu tahlid ittifoq bo'lgunimizcha

Yeb bitirishadi bitta-bittalab.

A m i r. Movarounnahr tuprog'i uzra,

Buxoroyi Sharif Qo'qon xonligini

Tag-tugi bilan inkor etadi.

Qo'qon kasofati Afg'on sho'rishini
Bizning boshimizga solmog'i aniq...
Nima bitishdingiz Qora taka bilan?
N o d i r a b e g i m. Mirza Sarkor mening o'g'lim.
A m i r (*so'zini bo'ladi.*)
 Farruh-chi?
 Hoji Farruh tarso?
N o d i r a b e g i m. U ham!
A m i r (o'shqiradi).
 U kofir!
 Musulmon yurtini buzgan musofir!
N o d i r a b e g i m. Ular mamlakatning asil o'g'illari!
 Qo'qon istiqboli ular qo'lida.
 Oxirgi talabim, mehmon bo'lib keling,
 Darvozamiz ochiq poyonдоз bilan.
 Bunday zo'ravonlik tashriflarini biz ham
 Tan olmaymiz xuddi sizning singari!..
 Endi so'nggi so'zim: o'g'limni bering!
A m i r (*biroz o'ylab qoladi.*)
 Beraman va lekin bitta shart bilan!
 Hokima bo'lasiz Qo'qonga...
N o d i r a b e g i m (*birdan unga tikiladi, o'zini haqoratlangan sezib.*)
Keting!
A m i r. Haj va'da qilaman bo'lmasa!
N o d i r a b e g i m. Keting!
A m i r. Malikushshuaro, saltanatimda!
N o d i r a b e g i m. O'g'limni ko'rsating!
A m i r. Erta Qo'qonda,
 O'rdada qurilgan dorda ko'rasiz!
 Menga kerak emas malika boshi,
 Egib kelgan boshga o'tmaydi qilich.
N o d i r a b e g i m. Keting.

Chapak chaladi. Parvonachi kiradi.
A m i r. Malikani kuzatib qo'ying!

Nodirabegim chiqib ketadi.

Turob To'la. Tanlangan asarlar. Ikkinchi tom.
G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at
nashriyoti. 1972-yil.

HAMID G'ULOM (1919-2005)

Atoqli shoir va dramaturg Hamid G'ulom Toshkentda tug'ilgan, o'rta maktabni bitirgach, O'rta Osiyo industrial instituti va Nizomiy nomidagi pedagogika instituti (1938—1941)da tahsil olgan «Литературная газета»ning O'zbekistondagi maxsus muhbiri, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining kotibi (1958—1971), «Sharq yulduzi» jurnalining bosh muharriri va G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyotining direktori lavozimlarida ishlagan.

Hamid G'ulom nasr va nazm sohasi qatori dramaturgiyada ham barakali ijod qilgan. Uning musiqali drama rivojiga qo'shgan hissasi alohidadir.

1959-yili Muqimiy nomli musiqali teatrdagi uning Razzoq Hamroyev talqinida «Farg'ona hikoyasi» asari qo'yiladi.

Shundan so'ng «Tashbolta oshiq» (1961, M. Leviyev musiqasi, rejissor R. Hamroyev), «O'g'il uylantirish» (1964, Yu. Rajabiy, S. Yudakov, B. Zeydman musiqasi, rejissor R. Hamroyev), «Ajab savdolar» (1969, M. Leviyev musiqasi, rejissor R. Hamroyev), «Muhabbat navosi» (Sh. Shohimardonova musiqasi, rejissor R. Boboxonov) kabi pyesalari shu teatrdagi paydo bo'lib, so'ng ko'plab viloyat teatrlari repertuariga kiritildi.

Soyib Xo'jayev, Rauf Boltayev, Tursunxon Ja'farova, Razzoq Hamroyev, Hamza Umarov, Baxtiyor Ixtiyorov, Sur'at Po'latov, Naima Po'latova, Mahkam Isroilov, Omina Fayozova va yana viloyat teatrlarida ko'plab aktyorlar H. G'ulom asarlarida o'ziga xos ajoyib-g'aroyib obrazlar yaratganlar.

Hamid G'ulomning tarjimon sifatida ham teatrdagi o'z o'rnini bor. Lope de Vega ning «Qo'zibuloq qishlog'i», V. Shekspirning «O'n ikkinchi kecha», A. S. Pushkinning «Tosh mehmon» asarlari uning tarjimasida o'quvchi va tomoshabinlarning mulkiga aylandi.

Hamid G'ulomga O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, O'zbekiston xalq yozuvchisi unvonlari berilgan, Istiqlol davrida u «El-yurt xurmati» ordeni bilan taqdirlandi.

HAMID G'ULOM «TASHBOLTA OSHIQ» ASARINING YARATILISHI HAQIDA

Bilasizmi, uzoq mulohazalar va kutilmagan turtki tufayli asarni ikki haftada yozib tugatdim. Razzoq Hamroyev bilan Manas Liviyevgaga o'qib bersam, ular ma'qul topishib, ertaga teatrdagi kollektiv o'rtasida o'qib berasiz, deb taklif qilishdi. Asar Soyib akaga maxsus atalganini bilgan ikki ulkan san'atkor fikrimga qo'shilib, bu haqda aktyorning o'ziga gapirmadi. Pyesani zalda o'qiyapman. Soyib aka eng orqada chetda o'tirardi. Birdan o'rnidan turib yugurib keldi-da, birinchi qatorda o'tirganlardan birining stulini tortib olib, «Turing, bu asar menga atab yozilgan ekan, birinchi qatorda o'tirib eshitishim kerak», deydi beixtiyor. Razzoq aka ham, Manas aka ham kulib yubordi. «Demak, nihoyat, bosh rol ham ijro etadigan bo'libsiz-da, tabriklaymiz!» deyishdi ular. Pyesani o'qib bo'lishim bilan hamma birday Soyib akani qutlardiki...

*Yu. Berdiyev «Sovet O'zbekistoni»
gazetasi, 1998-yil, 28-yanvar.*

BARKAMOL HAMKORLIK

Dramaturgiyaga nozik did egasi Hamid G'ulom juda ehtiyotkorlik bilan, kattakon yozuvchi bo'lgandan keyingina kirib keldi. U birinchi ishni dramaturgiyaning qiyin turi komediyadan boshladi, yana satirik komediyadan. Hamid G'ulomning tili boy, shirali.

Personajning xarakteriga mos, individual, faqat shu personajga munosib iboralar topadi. Dramaturgning fazilati darhol rejissorlarni ham, aktyorni ham o'ziga jalb etadi. H. G'ulom pyesada unaqa katta konflikt bermagan, kichik, ammo hayotiy bir voqeani kengaytiradi. Bu dramaturgning mahorati, albatta. Ammo rejissor va ijrochi aktyor uchun ancha qiyin, chunki tomoshabinni tezda hayratga soladigan tuguncha yo'q. Avtor g'oyasini to'g'ri talqin va chiroyli yechimlar bilan, xarakterlarni to'laqonli ifodasi bilan, ularning to'qnashuvlardagi kutilmagan mizanssenalar bilan spektakl nafosatini oshirmoq lozim bo'ladi...

Bizning H. G'ulom bilan hamkorligimiz barakali, serhosil, samarador bo'ldi. Bu ajoyib ijodkor o'zbek dramaturgiyasida o'ziga xos komedograf bo'lib qoldi. Uning «O'g'il uylantirish», «Toshbolta-oshiq», «Ajab savdolar» kabi asarlarini o'n yillab sahnamizdan tushmay, xalqimiz meriga sazovor bo'lib kelishi bejiz emas, albatta.

*Razzoq Hamroyev, O'zbekiston xalq artisti.
«Hayotim mazmuni», 1979-yil, 158—159-betlar.*

TURSUNOY JA'FAROVA «TOSHBOLTA OSHIQ» HAQIDA

- Soyib aka bilan ko'p spektakllarga partnyor bo'lganmisiz?
- Ha, lekin eng muvaffaqiyatli chiqqani — «Toshbolta oshiq».
- Soyib aka spektakl davomida, o'zidan qo'shib yuboraverar ekan...
- Voy nimasini aytasiz. Pyesada yo'q gaplarni qo'shib yuboraverardilar. Men adashib ketishimga sal qolardi deng. Parda yopilganida ancha ta'na qilardim.
- Spektaklning qaysi joylariga qo'shganlar?
- Men sizga aytsam, machit sahnasi bor-ku, ana shu yerida Toshbolta xayol suradigan, orzu qiladigan yerlari bor. «Sattor bolasi, sattori» deb qo'shaveradilar. Sattor kimligini bilasizmi? Soyib akaning o'g'illari.
- Tomoshaning boshida «Rahmatli xotinim Qumri o'ldi» degan so'zlar bor. Mabodo Soyib akaning umr yo'ldoshlari spektakl ko'rgani kelgan bo'lsa, hech ham «Xotinim o'ldi» demasdilar. Boshqa gaplarni aytib amallardilar.
- Yillar o'taverar ekan-da, Tursunxon opa. «Toshbolta oshiq» o'z vaqtida juda ham mashhur edi, yanglishmasam...
- Siz so'ramang, men aytmay. Gastrolida 20—30 kun faqat «Toshbolta oshiq» o'ynalardi. Hatto kuniga uch marttadan ham sahnaga chiqqan paytlarimiz bo'lgan. Charchamas ham edik. Tomoshabin doim tirband edi.
- Sizning asl ismingizni unutib qo'yishgani ham rostmi?
- Unutishganini bilmadim-ku, lekin qayerga borsam «Risolat pari keldi» deyishardi.
- Negadir spektakl televideniye orqali namoyish etilmaydi...
- Yozib olishmagan. Soyib aka qancha yelib-yugurmadi. «Yozib olinglar. Bizam pishib qoldik. Bizdan ham yodgorlik qolsin», deb kirmagan eshiklari qolmagan. Baribir yozishmadi, lekin plastinkasi bor.
- «Toshbolta oshiq» sahnada qo'yilyaptimi o'zi?
- Ha, o'ynalyapti. Toshboltani Husan Sharipov ijro etyapti.
- Soyib akadan farqi bormi?
- Bor, ancha farq qiladi.
- Hozir Risolat pari kim?

— Mariyam Ixtiyorova bilan Naima Po'latova.

*Temur Ubaydullayev. «Toshkent oqshomi»
gazetasi, 1988-yil, 13-avgust.*

«YETTI YUZ MARTA...»

Toshbolta obrazi Soyib Xo'jayev ijodiy faoliyatidagi eng yirik obrazlaridan biridir. Aktyor o'n yil mobaynida mazkur rolni yetti yuz marta ijro etdi. Ushbu satrlar muallifining o'zi «Toshbolta oshiq» spektaklini teatr sahnasida olti marta ko'rib, radio orqali o'n besh marta eshitgan. Toshbolta sarguzashtlarini ko'rmagan, eshitmagan odam respublikamizda kamdan-kam topilsa kerak. U xalq orasida shu qadar shuhrat qozongan. Shu tafayli bo'lsa kerak, aktyorni ham ba'zan Toshbolta deb ataydigan bo'lib qolishgan.

«Toshbolta oshiq» spektaklining keng tanilishida artistlardan Tursunxon Ja'farova (Risalat), Rixsi Shokirov (Solih), Razzoq Hamroyev (Medi) va boshqalarning ham xizmati katta.

Soyib Xo'jayevning tomoshabinlarga bu qadar yoqib qolganining sababi nimada? Bunga sabab avvalo shuki, har spektakl S. Xo'jayev uchun premyera, u bir marta topilgan harakat, ohang, mizanssenaga mahkam yopishib, ko'r-ko'rona takrorlayveradigan aktyorlardan emas. U har safar spektaklga ilhom va zavq bilan, yangi detallar bilan kelib, rolda xuddi birinchi marta chiqayotganday o'zgacha berilib o'ynaydi. Mana shu ijodkorlik, zavq, ilhom tomoshabinlargagina emas, balki ijrochilarga ham o'z ta'sirini ko'rsatib, ularni ham mahorat ko'rsatishga undaydi.

Ikkinchidan, Toshbolta hayotda har kun ko'rib yuradigan oddiy kishilarimizdan biri, ba'zan laqma, ba'zan urushqoq bo'lsa-da, aslida soddadil, odamoxun, samimiy kishi sifatida gavdalanitirilgani tufayli ham ko'pchilikka manzur bo'ldi. Toshbolta obrazining keng tanilishiga yana bir bois S. Xo'jayev ijrosi, umuman, spektakldagi mubolag'a — grotesk uslubidir. Uyalish, shodlik, qayg'u, qo'rquv, qahr kabi tuyg'u va holatlar aktyor tomonidan bo'rttiriladi. Masalan, uyalishni aktyor quyidagicha tasvirlaydi: gavdasini larzon qilib, boshini ilkis o'ngga buradi (ba'zan yuzini panjalari bilan bekitib oladi), tovushsiz lazzatlanib kuladi va barmoqlari bilan tizzalarini nog'ora qilib chertadi...

*Muhsin Qodirov. «Soyib Xo'jayev», G'afur G'ulom
nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti
1973-yil, 42—43-betlar.*

TOSHBOLTA OSHIQ

Birinchi pardadan parcha

Muhammadsolihning eshigi. Tol tagi. Risolatning ko'yida yurgan Toshbolta shu yerda, betoqat. Kirishga iloj topolmay turibdi.

T o s h b o l t a. Bir ko'rdim-u, tinchim yovvoyi kabutarday uchdi-ketdi... Qumridan keyin uylanmaslikka ahd qilganimda bunaqa nozanin yo'liqadi deb o'ylamovdim...

(*Eshikdan mo'ralaydi, haholab kuladi.*) Ayni payti... Hovli o'rtasida tanho yuribdilar... Voy-vuy, baq-baqalaringdan akang aylansin! (*Qiy tonglaydi, xirgoyi qiladi*):

Quralay ko'z, quralay,
Tuynugingdan mo'ralay.
Sen yallo aytganingda
Ohangiga yo'rg'alay...

Karomatni yo'qlab kelayotgan Teshavoy dadasini bu ahvolda ko'rib hayron bo'ladi, bir nafas kuzatadi. Toshbolta o'g'lini ko'rib qoladi.

T o s h b o l t a: Iya-ha, mulla Teshavoy... O'zlarimi?

T e s h a v o y. Ha, o'zim... Bu yerda nima qilib yuribsiz, dada?

T o s h b o l t a (*o'shqiradi*). Bola degan dadasini surishtirmaydi! Seni qara-yu!

O'zing nima qilib yuribsan? Bu dargohda?

T e s h a v o y. Men shundoq aylanib...

T o s h b o l t a (*yana o'shqiradi*). Qani, jo'na!

T e s h a v o y (*o'smoqchilab*). Bu uyning ohanrabosi bormi deyman-a, dada?

T o s h b o l t a. Ha, ohanrabosi bor! Qani tuyog'ingni shaqillatib qol!

T e s h a v o y. Xo'p-xo'p... Taajjub... (*Ketadi.*)

T o s h b o l t a. «Taajjub» deydi-ya... Tentak! (*Eshikka yaqin boradi, chaqiradi.*)
Muhammadsolih aka, ho, Muhammadsolih aka...

R i s o l a t (*tovushiga jozibali ohang berib*). Kim ekanlar chaqirayotgan.

T o s h b o l t a. Menman... Ha, nimaydi? Obbo, shoshgandan otimni ham yo'qotib qo'ydim... Men haligi Toshboltangiz bo'laman... Taqsim Muhammadsolih uydamlar?

R i s o l a t (*eshikni ochib yuboradi, Toshbolta cho'chidi*). Toshbolta aka?

T o s h b o l t a (*tomog'ini qirib, yo'talib kirib keladi*). Iya-ha, Risolat parimilar? Assalomu alaykum! Hay-hay, o'zlari ekanlar-da, voy-vo'... Sihat-salamatliklari? Mol-hollari?... O'zi ham deyman-a... Qalay zerikmay o'tiribdilarmi?..

R i s o l a t (*noz-karashma bilan, amirkon kovushning uchida tovus yurish qiladi*). Zerikkanim bilan nima, siz kelib xabar olarmidingiz?

T o s h b o l t a. Iya-ha... Gapni tag-zamindan indallo oldingiz-ku! (*Risolatni boshdan-oyoq ko'zdan kechiradi*). Bu deyman, Risolat pari, eringiz, haligi oti nimaydi?..

R i s o l a t. Hayriddin...

T o s h b o l t a. Ha... Hayriddin suyuq, sizdek husnda yagona, fahm-farosatda oliyjanob xotinni taloq qilgan ekan-da-a?

R i s o l a t. Ilojim qancha. Toshbolta aka... (*Ko'ziga yosh oladi*) Yigirma yillik umrim bekorga o'tdi. Bola ko'rmadik. Ayb Hayriddinda. Ayb erkaklarda bo'ladi. Mana, siz... Siz raso yigitsiz!

T o s h b o l t a. A, labbay?... (*Kiftini kerib, o'ziga oro beradi*) Bizning palagimiz toza. Hayriddinning otasi piyanista bo'lgan, o'zi ham qattiq otsa kerak?

R i s o l a t. O'lsin, erta-yu kech ichadi.

T o s h b o l t a. Ana, aytmovdimmi! Mijozi sovuq. Aroq ichaverib me'dasi javharlimon bo'lib ketgan.

R i s o l a t (*haholab kuladi*). Voy, sizni qarang, shunaqa gaplarni ham bilar ekansiz-da-a...

T o s h b o l t a. Devor bo'lmasa, ko'chani ham ko'raveraman. Hali meni kim deb yuribsiz. Risolat pari?

R i s o l a t. Voy, o'lmasam, sizga ko'rpacha ham yozmabman.

T o s h b o l t a. Hojati yo'q, urinmang...

Risolat yangi ko'rpacha tashlaydi, dasturxon yozadi. Samovardan obdastada issiq suv olib, dastsho'y bilan Toshboltaning qo'liga quyadi.

R i s o l a t. Keling, quyvoray.

T o s h b o l t a (*qo'li kuyadi*). Voy-voy-voy, issiq suv jon kirgizadi-ya!

R i s o l a t. Nechuk uyingizda issiq suv yo'qmi?

T o s h b o l t a (*qo'lini artib, ayvonga chiqadi*). Issiq suv qayoqda! Xudo rahmat qilgur Qumridan keyingi turmushim: it yotish, mirza turish! (*Ko'ziga yosh oladi*.)

R i s o l a t. Qo'ying, xafa bo'lmang! (*Choy quyib Toshboltaga uzatadi*.)

T o s h b o l t a (*choyni xo'plab ichadi*). Biram xushbo'y choy bo'pti-yu, ammo ro'zayi ramazonda qandoq bo'larkin-a? (*U yoq-buyoqqa alanglaydi*.)

R i s o l a t. Domla hali kelmaydilar, ichavering. Aytganday, men sizga elektr plitkada andakkina qiyma mastava qaynatib qo'yuvdim.

T o s h b o l t a. Obbo siz-ey, bekorga urinibsiz-da!...

Risolat uyga kirib ketadi. Toshbolta karavotdan egilib, gul uzib hidlaydi.

Oh... mana bu rohat, mana bu farog'at! Biz ham yuribmiz-da, eshak aravada shara-bara yig'ib. Xo'rozqand! Chaynamay shiming! Mana ip! To'nog'ich, igna, surnay! Kep qoling! Op qoling!... (*Kuladi*.)

R i s o l a t (*chinni kosada mastava keltiradi*). O'zingizcha nimalar deyapsiz, Toshbolta aka?

T o s h b o l t a. Tirikchilik tashvishlari... Qo'yavering! (*Mastavadan xo'playdi*.) Xay-xay-y, bu dunyoning taomi bo'mapti. Ana maza-yu, mana maza! Qo'lingiz dard ko'rmasin-ey!

R i s o l a t. Juda maqtab yubordingiz... Lekin o'zim ham domladan yashirib faqat sizga pishirganman...

T o s h b o l t a. A, labbay? (*Taajjublanadi*.) Nega o'zingiz ichmaysiz?

R i s o l a t. Ishtaham yo'q... Siz ichsangiz — men ichkandek...

T o s h b o l t a. Voy-bo', chindanmi?

R i s o l a t. Shu vaqtgacha sezmadangizmi?

T o s h b o l t a. A, labbay? Yana bir indallo gapiring!

R i s o l a t. Boring-e, odamni yerga qaratasiz?..

T o s h b o l t a. Voy-bo', ana shunaqa odoblaringizga borman-da! Xuddi Qumrinisamning o'zginasisiz-a! Rahmatlik ham mening boshimda parvona edi... Ishdan tolib qaytsam, o'tqazgani joy topolmasdi!.. Teshavoyini tug'ishda qiynalib o'ldi sho'rlik... Mana, yigirma ikki yil bo'ldi, bevaman. (*Ko'ziga yosh oladi, artmoqchi bo'lib, cho'ntagidan ro'molcha oladi*.)

R i s o l a t (*achinib*). Namuncha isqirt ro'molchangiz?...

T o s h b o l t a. Yolg'izlik qursin!...

R i s o l a t. Bu yoqqa bering!

T o s h b o l t a (yashiradi). Meni uyaltirmang, pari, ko'chada keta turib ariq-pariqda chayib olardim-da!...

Risolat ro'molchani olib, jomga soladi, samovar jo'mragidan suv oqizib yuvadi va gul shoxiga iladi. O'ychan. Yigirma ikki yil g'amda o'tdi.

R i s o l a t (*kuladi*). Qo'ying, g'amdan gapirmang, andak yozilishaylik! *Risolat ashula aytadi. Toshbolta g'amini asta-sekin unutib, qo'shilishadi, o'yinga tushadi.*

Quralay ko'z, quralay
Tuynugingdan mo'ralay.
Sen yallo aytganingda
Ohangiga yo'rg'alay.
Payvasta qosh, qalam qosh,
Kela qol, bitdi bardosh
Begonalar sezmasin,
Faqat sen menga sirdosh.
Men senga yetolmayman,
Bahringdan o'tolmayman,
Yaqiningga qo'ymaysan,
Olislab ketolmayman.
Tolingdagi oq to'rg'ay
Kuylamasa ne bo'lg'ay.
Ikkalamiz quvnasak,
Mahalla-ko'ylar to'lg'ay.

T o s h b o l t a. Shunaqa deng, ikkalamiz quvonsak, mahalla-ko'ylar to'lg'ay deng?

R i s o l a t (*qiyqirib kuladi*). Yo, ishonmaysizmi?

T o s h b o l t a (*esini yo'qotib qo'yib, Risolatning bilagidan ushlaydi*). Ishonaman, pari, xudo ursin ishonaman!... Ammo lekin bu ustingizdagi... Marg'ilonning sakkiz tepkili xonatlasi shu bo'lsa kerak-da-a?

R i s o l a t (*Tosboltaning qo'liga uradi*). Oling qo'lingizni!.. Mening maqsadim boshqa, Toshbolta aka! Men avvalambor, Karomatga ona bo'lishim kerak. Sizni ortiqcha hurmat qilishimning vaji bu yoqda.

T o s h b o l t a (*hayron*). Ya'ni, masalan?.. Indallo gapiring!

R i s o l a t. Karomat sevimli kelingiz bo'ladi!...

Ko'chadan Muhammadsolihning ovozi eshitiladi.

Voy o'lmasam, akam!...

Dasturxonni shoshib yig'ishtiradi, uyga qochib kirgan bo'ladi. Muhammadsolih yasama yo'taladi.

T o s h b o l t a (*qo'l qovushtiradi*). Assalomu alaykum, taqsir!

Muhammadsolih. Vaalaykum assalom, mulla Toshbolta! Qani, o'tiring.

Omin, parvardigori olam jami mo'minlarga insof-u diyonat, iqboli sharofat ato etsin, Ollohu akbar! (*Uyga qichqiradi*). Risol, he, Risol, chiroq olib chiq!

Risolat endi tamom boshqa qiyofada: katta doka ro'molga o'ralib, o'zini sipo tutib, chiroq ko'tarib chiqadi.

Menga ber!... Ha, darvoqe, Karomat uydami?

R i s o l a t. Boshi og'rib, yotib qoldi...

Muhammadsolih. Bosh og'rig'ining davosi uyqu, vallohu a'lam, orom olsin. Sen uyga kir. Bizning, mulla Toshbolta bilan muhim maslahatimiz bor...

Risolat oyoq uchida orqasi bilan yurib, uyga kirib ketadi.

*Hamid G'ulom. Tanlangan asarlar. G'afur G'ulom
nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.
1972-yil, 3-tom.*

«MUQIMIY» TEATRINING «MUHABBAT NAVOSI» SPEKTAKLI HAQIDA

Bu yerda asosiy qahramonlarning aql-idroki, ma'naviy dunyosi bilan birgalikda g'oyat boy va kuchli his-tuyg'ular olami ham katta o'rin olgan. Bundan tashqari, asarning o'zi chuqur dramatism bilan sug'orilgan, unda lirik sahnalar ham ko'p. Bularning bari bastakor Shohida Shohimardonovaga uyg'ur xalq kuylari, maqomlari asosida musiqa bastalashga qulaylik yaratgan. Shuning uchun pyesa bilan musiqa, so'z bilan kuy bir tanu bir jon bo'lib bir-biriga kirishib ketgan. Marhum rejissor Rustam Boboxonov «Muhabbat navosi» musikali dramasini sahnalashtirishga alohida e'tibor bergan. Rassom Anatoliy Slugin yuksak did va bilimdonlik bilan badiiy bezak va kiyimlar ishlagan.

Omonnisaxon Bekjonova ijrosida tashqi ko'rinishi, ya'ni barnoligi, iffati, nazokati, zakovati, odobi, xullas, butun jozibasi bilan tomoshabinni o'ziga tortadi. Voqealar jarayonida esa uning qalbi ochiladi. U shoh bilan fuqaroga bir xilda inson sifatida qaraydi. Omonnisaxondagi bu oliyjanob xislat butun spektakl davomida ko'zga tashlanib turadi.

...Abdurashidxon dramaturgiyamiz va sahnemiz uchun yangi obraz. Garchi u aktyor R. Ma'diyev ijrosida shoirtabiat, ezgulik va go'zallikni ardoqlovchi, uni tarannum etuvchi inson sifatida hal etilsa ham, ko'proq xalqparvar hukmdor tarzida gavdalanadi.

Yaqin vaqtgacha shayx, domla, qozi, xullas din va shariat peshvolarining obrazi sahnada ko'pincha hajviy yo'sinda talqin qilinardi... F. Ahmedov talqinida Eshon o'z obro' mavqei bilan hammaning, jumladan, hukmdorning ham izzat-ikromiga, ishonchiga erishgan shaxs tarzida ifodalangan. Eshonga hamma — ahli mo'min najotkor sifatida qaraydi, u ham jamoat oldida o'zini shu asnoda tutadi...

*Frunze Jo'rayev, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi.
«Muhabbat navosi», «O'zbekiston adabiyoti va san'ati» gazetasi,
1990-yil, 14-sentabr.*

SAID AHMAD

(1920)

1976-yilning 14 iyuni hozirgi Milliy akademik drama teatri jamoasi, va shu jumladan, atoqli adib Said Ahmad uchun unutilmas kun bo'ldi. Boisi keyinroq teatr muxlislarining dilidan o'rin olgan «Kelinlar qo'zg'aloni» asari shu kuni dunyo yuzini ko'rgan edi.

Nasr ustasi Said Ahmad katta hayot yo'lini bosib o'tgach, dramaturgiyaga kelgan. U Toshkentda, Samarqand darbozasi mavzeida tug'ilgan. Avval tasviriy san'at bilim yurtida, so'ngra Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika institutida tahsil oladi. Dastlab «Mushtum» jurnalida faoliyat ko'rsatadi. Keyin Respublika radiokomiteti, «Qizil O'zbekiston», «Sharq yulduzi» kabi gazeta va jurnallar tahririyatlarida jurnalist sifatida faoliyat yuritadi. Ko'plab hikoya, ocherklar chop ettirib, 1950—1960-yillari «Qadrdon dalalar» (1949), «Hukm» (1958), «Ufq» (1964) kabi yirik romanlar yaratadi.

Said Ahmadning nasriy asarlari sahnaboblik belgilariga juda boy. 1974-yili «Ufq» romani inssenirovka qilinib (inssenirovka muallifi O. Abdurazzoqov), M. Uyg'ur nomidagi san'at institutida diplom spektakli tarzida yaratiladi va o'sha yili Surxondaryo viloyat teatri repertuaridan o'rin oladi. «Ufq» 1995-yili Milliy akademik drama teatrida sahnalashtirildi.

1985-yili «Kuyov» komediyasi yaratilib, o'sha yili akademik teatrdan rejissor R. Hamidov tomonidan sahnaga qo'yiladi. Mazkur spektaklda Kuyov roli atoqli san'atkor G'ani A'zamovning so'nggi yirik ijodiy ishlaridan biri bo'lib qoldi. «Farmonbibi arazladi» pyesasi «Kelinlar qo'zg'aloni»ning davomi bo'lib, B. Yo'ldoshev rejissorligida Abror Hidoyatov nomidagi drama teatrida sahnaga qo'yiladi.

Said Ahmad kichik hajmli hajviy va yumoristik asarlar ustasi sifatida 1897—80-yillari «Lampa shisha», «Xanka va Tanka» singari o'nlab ichakuzdi teleminiatiyuralari bilan teletomoshabinlar hurmatini qozondi.

Said Ahmad «Buyuk xizmatlari uchun», «Do'stlik» ordenlari va «O'zbekiston qahramoni» degan faxrli unvon bilan taqdirlangan.

Said Ahmad asarlariga, ayniqsa, hikoyalariga xos bo'lgan mayin yumor, nozik qochirimlar ilk bor Bahodir Yo'ldoshev tomonidan sahnaga qo'yilgan «Kelinlar qo'zg'aloni»da to'kis jamuljam bo'ldi. Shuning natijasida Farmonbibi yetti o'g'il ko'rib, uylantirib, kelinlari-yu nabiralarini bir hovlida, o'z qaramog'ida ushlab turishi, kenja kelinining «chatoq» chiqib, qaynona qiliqlarini «tomosha»ga aylantirib, oxiri undan har bir oila alohida yashashiga roziligini olishi haqidagi oddiygina beg'ubor hikoya respublikamizdagina emas, shuningdek, qator mamlakatlarda ko'pdan-ko'p san'atkorlar ijodiy hayotida chuqur iz qoldirdi, yirik asarga aylandi.

Akademik teatr spektaklida birinchi bo'lib Farmonbibi rolini mahorat bilan o'ynagan atoqli san'atkor Zaynab Sadriyeva asarning A. Hidoyatov nomidagi teatrdan qayta ishlangan nusxasi (1987-yil 16-oktabr)da ham shu rolni umrining oxirigacha ijro etdi. Asarni 1988-yili B. Yo'ldoshev Laos milliy teatrida sahnalashtirdi. Asar qozoq, qirg'iz, turkman, tojik, ozarbayjon, xitoy, AQSH teatrlarida, ya'ni dunyoning o'ttizdan ortiq teatrida sahna yuzini ko'rdi.

«Kelinlar qo'zg'aloni» asari asosida rejissor M. Afzalov tomonidan badiiy film yaratildi. Katta shov-shuvga sabab bo'lgan bu film 1986-yilda AQSHda o'tkazilgan ko'rikda Amerikaning 26 ta shtatida namoyish etildi.

SAID AHMAD «KELINLAR QO'ZG'ALONI»NING YARATILISH TARIXI HAQIDA

O'zi asli dramaturg bo'lish, pyesa yozish xayolimda ham yo'q edi... Bir kuni qiziq voqea bo'ldi... Hamza nomidagi akademik drama teatrining o'sha vaqtdagi direktori Olim Xo'jayev uyga telefon qilib, «Bir kelsanglar» deb, spektaklga taklif qildi. Saidaxon bilan bordik. Bir diqqinafas tomosha qo'yilayotgan ekan. Nazarimda tomoshabin ham chidayolmay, qochib chiqib ketadigan darajada... Noiloj, ikki soat o'tirishga majbur bo'ldik. Tomosha tugagach, Olim aka kelib, «Mana ko'rdingiz, ahvolimiz shu! Sizning asarlaringizni o'qiganman. Endi teatrimizga ham yordam bermasangiz bo'lmaydi» dedilar.

Hayron bo'lib qoldim: «Axir dramaturg bo'lmasam, qanaqa qilib yordam berishim mumkin!» «Qo'lingizdan keladi» dedi u kishi. Keyin uning yoniga rejissor Bahodir Yo'ldoshev keldi. Uyam oyoq tirab turib oldi. «Bitta komediya kerak, uch kunda xabar qilasiz» dedi. Men «Xo'p, o'ylab ko'ray», dedim-da, o'sha kezlari «Saodat» jurnalida bosilgan bir hajviy hikoyamni olib borib berdim. Kechqurun uyga qaytsam, Bahodir Yo'ldoshev eshigim tagida turibdi. Qo'lida jurnal. «Shuni pyesa qilib berasiz» dedi. Shundan keyin, o'zim ham qiziqib ketdim shekilli, kechasi bilan o'tirib bir pardasini yozib tashladim. Ertasiga olib borsam, «E, zo'r-ku! Buyog'iniyam yozing!» dedi Bahodir. Qiziqib ketib kechasi yana bir pardasini yozdim. Uyam ma'qul bo'ldi. Endi... uchinchi pardasiga kelganda hech ish yurishmay qoldi. Ilgari pyesa yozib yurmaganman. Boshim qotdi. Bir yarim oy teatrdan qochib yurdim. Goh Andijonga ketib qolaman, goh Farg'onaga... Teatrdagilar bo'lsa bu yoqda qidirib yurishibdi. Bari bir topib olishdi. «Ha, qayerlarda yuribsiz? Davomi qani?» so'radi Bahodir. «Kelmayapti» deb qo'ya qoldim. «Yo'q, yo'q, unaqasi ketmaydi. Ko'pchilik maslahat bilan qilamiz», — dedi Bahodir.

Xullasi kalom, repetitsiyani boshlab yuborishdi. Ish bitdi, deb suyunib yursam, yo'q, komissiyasi ham bo'larkan. Qabul paytida o'sha uchinchi pardani sira qabul qilmadi-da! Xunob bo'p ketdim. Bilasan, Bahodirning o'rtog'i bor, Georgiy Brim degan. Ja zo'r teatr rassomi. O'sha ikkovi pichirlashib o'tirishdi, o'tirishdi-da, bir qarorga kelishdi. «Yangi gap qo'shmaymiz, oldingi sahnalarni qaytaramiz» dedi Bahodir. «Qanaqasiga» desam, «O'sha Farmonbibining ertalab — kechqurun bolalaridan pul olish sahnasini uning o'ziga ko'rsatamiz. O'g'illari kelinlar bo'lib chiqishadi» dedi. O'ylab ko'rsam ma'qul. O'sha zahoti ijro etishdi. Nihoyatda kulgili manzara paydo bo'ldi.

*E. Usmonov, «Farmonbibi jaqon kezadi»,
«San'at» jurnali, 1990-yil, 10-son.*

FARMONBIBI HAQIDA MOSKVALIK ALLOMA SHARHI

O'zbek truppasining keksa artistlaridan biri Zaynab Sadriyeva Farmonbibi rolini shunday mahorat bilan ijro etadiki, natijada, avtorning eng bo'rttirma tavakkali ham batamom tabiiy bo'lib chiqadi. Maosh olingan kuni o'g'illar va barcha kelinlar oxirgi tiyinlarigacha onalariga topshiradilar. Farmonbibi o'zini ulug'vor tutadi, uning yuzlari chiroyli va shiddatli, so'zlari qat'iy, harakatlari ishonarli va hokimona. Qaysi burchakda nima sodir bo'layotganini u payqab oladi.

Avtor ham, aktrisa ham bizni butun situatsiyani boshdan-oyoq kuzatishga va natijada, biz kutgandan kura mutlaqo boshqa tomonga qarashga majbur qiladi. Uy bekasining komik holatlarini, o'z axloqiga ishonchini yashirmagan holda uning ustidan ayovsizlarcha kuladi,

dafʼatan kampirning harakatlarida maqtovgʻa sazovor, ijobiy tomonlar mavjudligini payqaydilar.

Bu kuchli xarakterning qashshoqlik sabablari, xalq tushunchasidagi axloqiylik, goʻzallik, insonning fazilatlariga haqidagi tushunchalariga qattiq ishonch, asrlar davomida saqlanib kelgan bu tuygʻularni mustahkam saqlash uchun harakatdan iboratdir.

*Q. Rudnitskiy «Talantlar hamkorligi», «Pravda»,
1977-yil, 29-aprel, «Oʻzbekiston madaniyati»
gazetasi, 1977-yil, 4-may.*

«TOPDINGIZ, YOʻQOTMANG!»

Farmonbibini — Z. Sadriyevaning yuzi hamisha jiddiy, lekin farzandlari oldiga qoʻyayotgan talablari nechogʻli kulgili ekaniga oʻzining ham aqli yetib turganini fahmlaysiz. Uning farzandlarini izmiga solib mamnun jilmayishi, koʻzlarida yosh bolalarnikidek begʻubor quvlikning paydo boʻlishida aks etib turadi. Uni ortiqcha qattiqqoʻllikda ham ayblab boʻlmaydi. Chunki ona juda dilkash, ulugʻvor bir siymo sifatida paydo boʻladi...

— Spektakl ustida kollektivimiz bir jon, bir tan boʻlib ishladi, — deydi Zaynab opa, — komik obrazlarni yaratishga hammamiz ham tashna edik. Asar kelgach, obrazlarini hayotiy chiqarishga jon-jahdimiz bilan kirishib ketdik. Asarning tili, xushchaqchaqligi barchamizga maʼqul tushdi.

Maosh keltirish kuni kartinasini repetitsiya qilayotgan paytimizda turli sohada ishlaydigan oʻgʻillar va kelinlar oʻzlarini ona oldida qanday tutishlari bir necha variantda koʻp martalab takrorlandi. Bir sidra Zaynab opa — Farmonbibini bolalarga doʻq-poʻpisa qilib pul undirib koʻrdi. Yaxshi chiqmadi. Keyin yalinish variantini mashq qilib koʻrishdi. Bu ham boʻlmadi. Befarqlik, sovuqqonlik munosabati ham koʻngildagiday chiqmadi. Oxiri hazil-mutoyibaga oʻtildi. Shunda qidirilgan holat, kerakli munosabat, toʻgʻri vaziyat topildi. Ham ibora, ham holat oʻrniga qoʻyilgan paytda «Topdingiz, yoʻqotmang, mahkam ushlang!» deb yuborardi postanovkachi rejissor Bahodir Yoʻldoshev sevinganidan. Xullas obraz uni ishontirardi, hayotiy qilib yaratishning turgan-bitgani mehnatga, tinimsiz izlanishlarga bogʻliq.

*Marva Jaloliddinova «Sanʼatkor gavhari»,
«Oʻzbekiston madaniyati» gazetasi,
1979-yil, 13-fevral, 13-son.*

KELINLAR QOʻZGʻALONI

Ikkinchi pardadan parcha

S o t t i. Egilib salom bering!

(Eraklarning hammasi hang-mang boʻlib qarab turishipti. Lutfi Boʻstonning qulogʻiga shivirlaydi).

L u t f i. Hozir bir ishkal boʻladi.

B oʻ s t o n. Shu desangiz, kenja ovsin boʻsh kelmaydiganga oʻxshaydi.

L u t f i. Shundoq qilsin. Bizlarga ham shu bahona yoʻl ochiladi.

B a h o r a t. Kichkina demang bizni, koʻtarib uramiz sizni, deganlari shu ekan-da.

F a r m o n. Hoy, bola, o'lamana-qolama, shuni olmasam o'zimni o'ldiraman, deb topgan xotining shumi? Yo'qot buningni? Agar qo'yvorma ekansa, otagingni arvochini o'rta solama.

T o' x t a. Oyi, hozir xotin qo'yish taqiqlangan.

F a r m o n. Sen qo'ymasang, men qo'yaman.

T o' x t a. ZAGSdan sizmi yo men o'tganmanmi? Meni qo'yadigan xotinim yo'q.

F a r m o n (*o'rnidan turib ketadi*). Ko'rdilaringmi, buniyam burnidan ip o'tkazib olgan. (*Birpasta hammayoq to's-to'polon bo'lib ketadi. Mahkam onasini joyiga o'tqazadi.*)

M a h k a m. Axir, onajon, nima qilasiz yoshlarning ishiga aralashib, bilganicha yashayvermaydimi?

F a r m o n. Bu uy ham bir hukumat. Ha, bir mamlakat. O'z poshshosi, o'z qonuni bor.

L u t f i. (*Sottini ko'rsatib*). O'z shpioni ham bor.

S o t t i. Eshitdingizmi? Eshitdingizmi? Eriga tvorog qilib bersam ham yoqmayman.

F a r m o n. Voy, sen o'lgurning ham tiling chiqib qopti-ku. Manavini kelganiga o'n kun bo'lmay boshqa kelinlarimni ham yo'ldan urdi.

Voy-dod, voydod...

S o t t i. Voy, oyimni o'ldirib qo'yasizlar...

A s q a r. O'zingizni bosib oling. Hoy, Hakimjon, uspakoyushi doringdan ber. (*Hakim zakvonidan tabletka olib onasining kaftiga qo'yadi. Kampir dorini yutadi.*)

K o m i l. (*Nigorani yetaklab chetga olib chiqadi*). Jon singlim, ikki-uch kun kampirning aytganlarini qilib turing. Keyin buyog'ini bir balo qilarmiz. Bunaqada bo'lmaydi. Ikki qo'chqorning boshi bir qozonda qaynamas, deb bekorga aytmagan ekanlar. Bir hafta, bir hafta. Nima desalar shuni qiling.

N i g o r a. Ikki kun.

K o m i l. Savdolashmang, o'n kun. Bo'ptimi?

H a k i m. Keling, keling...

N i g o r a (*o'ylanib*). Mayli, uch kun.

K o m i l. Mana bo'ldi, oyijon. O'zinglar gaplashishni bilmaysizlar. Kelin hali yosh. Unga ro'zg'or tutish, yangi uyda yangicha muomala qilishni o'rgatishimiz kerak. Mana o'zim o'rgatdim, tushuntirdim. (*Nigoraga imo qiladi*).

S o t t i. Shu o'g'lingiz boshqacha-da.

N i g o r a. (*Farmon bibining oldiga kelib, egilib salom beradi*). Meni kechiring, oyijon, yoshlik qilibman. (*Hamma baravar chapak chalib yuboradi*)...

Uchinchi pardadan

A s q a r. Biz onajonimizni juda yaxshi ko'ramiz. Keksa odam, dillari og'rimasin, deb qattiq gapirmaymiz. Uyimizning ahvolini qarang, kelin, bu uyni buzish mumkin emasmish. Oyimni tarbiyalash u yoqda tursin, hatto mana bu uyni buzib, o'rniga yangisini qurolmaymiz. Bu uyga hammamizning kindik qonimiz to'kilgan emish. Uyimizning devorlarida dadamiz rahmatlikning panjalarini izi qolganmish. Oyimizdan berkitgan pulga yangi uyning loyihasini chizdirib qo'yganmiz. Tayyor bo'lganiga bir hafta bo'ldi... Shu haqda oyim bilan ochiqchasiga gaplashmoqchi bo'lgandim, foydasi bo'lmadi. Endi o'zlaring bilganlaringni qilinglar.

N i g o r a. Sizlar hurmat qilamiz deb, qul bo'lib yuribsizlar-ku. Asqar aka, bu militsiya polkovnigining gapi emas. Siz qanchalab jinoyatchilarni to'g'ri yo'lga solib yuborgansiz. Oyimga nima bo'пти, tuzatish mumkin.

A s q a r. Qo'lingizdan kelsa, marhamat, tuzating.

N i g o r a. Menga qo'yib bersanglar, ertagayoq oyimlarni boshqacha qilib qo'yardim.

H a k i m. Siz bu ishni qilsangiz yarashadi. Hali oyim bo'yningizga minganicha yo'q. Yana uch kun jim turib bersangiz, mulla mingan velosapeddek yuvosh bo'lib qolasiz.

M a ' m u r. E, bo'lmagan gapni qo'yinglar. Konkret gaplardan gapiringlar. Aka, aka, sizning kallangiz Gosplandek aniq ishlaydi. Bir ishlating. Mana mundoq qilib barmog'ingizni peshonangizga tirab, bir o'ylang. Jami suv qo'shilmagan gaplar sizdan chiqadi.

M a h k a m. Hammamiz bir mulohaza qilib olaylik. Demak, oyim erkimizni qo'limizdan olib qo'yganlar. Demak, erkimizni qo'lga olish uchun kurashishimiz kerak. Ana, endi maqsadimiz aniq bo'ldi. Har sohani o'z ministrligi bor. Oyimga o'xshagan kampirlarning ministrligi qayerda? Yo'q.

H a m m a. To'g'ri, yo'q.

M a h k a m. To'g'ri, yo'q. Demak, oyimlarning ustlaridan hech qayerga shikoyat qilib bo'lmaydi. Kiyim g'ijim bo'lsa, dazmollaymiz. Uyimiz buzilsa, remont qilib bo'lmasa, rahmatlik dadamiz Azim sherni chaqirib, «bu kampiringizni tarbiya qilib bering» deyolmasak.

Demak, biz faqatgina u kishining onglariga ta'sir qilib, qayta tarbiyalashimiz kerak.

H a m m a. Vo...

O' r i n b o y. Shoshma, shoshma, o'ylab-o'ylab shu gapni topdingmi? Oyim hozir necha yoshga kirdilar?

H a m m a. 75 ga.

O' r i n b o y. Ha, balli, 75 yoshga kirgan bo'lsalar, u kishini tarbiyalash uchun yana 25-yil vaqt kerak. Ana unda nima bo'ladi? Ana unda 100 ga kiradilar. O'ylab-o'ylab topgan gapini qarang-a? Bari-bir hech ish chiqmaydi. Tarqalinglar. (*Hamma u yoqdan-bu yoqqa o'ylanib yuradi*).

N i g o r a. (*birdan*). Topdim!

H a m m a. A? Nima?

N i g o r a. Shoshmanglar, bu nihoyatda maxfiy bo'lishi kerak. Yuringlar, ichkarida gaplashamiz.

Chiroq o'chib biroz pauzadan keyin yonadi.

Said Ahmad. Tanlangan asarlar. 2-tom. «Sharq»
nashriyoti matbaa konserni. 200-y.

SHUKRULLO
(1921)

Taniqli shoir va dramaturg Shukrullo (Shukrullo Yusupov) Toshkentda tug'ilgan. Toshkent pedagogika bilim yurtida, Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika institutida tahsil ko'rgan, Toshkent davlat universiteti qoshidagi aspiranturada o'qigan. Bir muddat maktabda o'qituvchilik qilib, so'ng turli gazeta va jurnallarda, badiiy adabiyot nashriyotida ishlagan.

Shukrullo dramaturgiyaga «Xatarli yo'l» pyesasi bilan kirib keldi. Ushbu pyesa 1964-yili rejissor Sh. Qayumov tomonidan Hamza nomidagi O'zbek Davlat akademik teatrida sahnaga qo'yilgan. Akademik teatrdagi uning yana «Tabassum o'g'rilari» (1971-yil. rejissor X. Appanov), «O'g'rini qaroqchi urdi» (1985-yil. rejissor R. Hamidov) pyesalari sahna yuzini ko'radi. 1999-yili Muqimiy nomidagi O'zbek Davlat musiqali teatri uning «To'ydin keyin tomosha» (rejissor N. Otaboyev) komediyasini sahnalashtiradi.

Shukrullo tarjimachilik sohasida ham samarali ijod qilgan. Xususan, K. Gossining «Baxtsiz gadolar» pyesasi uning tarjimasida qator teatrlar repertuaridan o'rin oldi. Oltmish yoshga to'lishi munosabati bilan 1981-yili Shukrulloga O'zbekiston xalq shoiri unvoni berildi. Shoirning «Kafansiz ko'milganlar» asari Alisher Navoiy nomidagi Davlat mukofotiga sazovor bo'ldi.

SHUKRULLO DRAMATURGIYASIGA SHARHLAR. «TO'YDAN KEYIN TOMOSHA» VA BOSHQALAR HAQIDA

Shukrullo dramaturgiyada ham yigirma yildan buyon qalam tebratadi. Yaqinda yangi — to'rtinchi sahna asari «O'g'rini qaroqchi urdi» komediyasiga nuqta qo'ydi. Muhimi, u dramada ham shoirligiga sodiq. Asarlarida odatda g'oya shoirona ochiq fikrlar shalolasi singari qo'yiladi, yaxshi va ravon o'qiladi. Ko'tariladigan mavzular ham avtorga bir umr orom bermaydigan odamiylik bilan razillik, sadoqat bilan xiyonat, yaxshilik bilan hasad, ayniqsa, ko'p falokatlarining bosh sababchisi — loqaydlik singari hayot ziddiyatlaridir.

Nafs va shuhrat gadolari Shukrulloning asosiy yovlari. Hamma pyesalarida ularga qarshi qahramonlarga qo'shilib, avvalo, avtorning o'zi kurashadiki, personajlar siymosida Shukrullo taalluqli xislat yoki xatti-harakatlarni ilg'ab olish qiyin emas. Shuningdek, Shukrullo pyesalarining hammasini bir tugunga birlashtiradigan yetakchi mavzu mavjud. U, odamlarni illatdan xoli qilish istagidir.

Shukrullo tasavvuridagi olam yomonlarni sig'dirmaydi. Shuning uchun hayotda ularni yaxshilar qatorida ko'rgan avtor illatni undiradigan zaminni axtaradi.

Shukrullo pyesalarini qunt bilan o'qir ekanmiz, ikki nuqta, ikki xulosa e'tiborimizni o'ziga tortaveradi: kasbga nafsni qondirish va shuhrat manbayi qabilida yondoshish va loqaydlik. Barcha falokatning bosh sababchisi shular deb uqtirmoqchi bo'ladi, avtor...

Shukrullo «To'ydin keyin tomosha» komediyasida turmushimizda, xalqning odat, rasm va rusmlarida uchraydigan illatlar xususida so'z yuritadi. Bu yerdagi illatlardan avtor mayin tabassum bilan kulib, o'quvchini jiddiy savolga tutadi. Chunki gap har bir xonadonda bo'ladigan to'y va uni orzu-havas deb tushunish ustida ketadi. Komediya otasiz o'g'il orzu-havas ko'rish niyatida uni uylantirgan Nazirabibining qarzgaga botib, to'ydin keyingi tomoshasi va qo'shnisi Chamandaxon va Fozilxo'jalarning to'y oldi sarguzashtlari hikoya qilinadi. Hazil-huzul bilan har bir xonadonda ming-minglab pul odat, rasm va orzu-havas niqobi ostida o'rinsiz havoga sovrilgani adabiyotimiz, xususan, dramaturgiyada asrimizning boshidayoq, qalamkashlar e'tiborini tortgan ediki, shoir o'sha mavzuni va o'sha rasm-rusm oqibatlarini yana takror qalamga oladi...

Loqaydlik... Bu shunday ofat, shunday baloki, odamni ipsiz bog'laydi, pichoqsiz so'yadi, ovozsiz to'pponcha bilan otdi, deb aybsiz aybdor qilib qo'yadi. Uyingizga o't tushsa, suv sepmay, ko'rib ko'rmaslikka solib ketadi. «O'tni sen qo'yganing yo'qmi, o'chiraman deb g'alvasiga sherik bo'lma. O'zingni bil, o'zga bilan ishing bo'lmasin...»

Mana sizga loqaydlik falsafasi. Ularning loqaydligi zamirida o'ta xudbinlik yotadi. Xudbinligi tufayli ular hamisha hamma masalada faqat o'z manfaatini ko'zlab, o'z huzur-halovatinigina o'ylaydi.

Hamza nomli O'zbek Davlat akademik drama teatrining Shukrullo pyesasi asosida sahnalashtirgan «Tabassum o'g'rilari» spektaklida shu xildagi loqayd shaxs tipi yaratiladi. Diyorov rolida O'zbekiston xalq artisti Maxsum Yusupov personajning aynan o'zi bo'lib o'ynaydi. Diyorov loqaydlik, xudbinlik odatlariga ko'ra konflikt rivojining qaysi o'rnida qanday holatda bo'lishi kerak bo'lsa, artist xuddi o'shanday munosabatda ko'rinadi. Artistning har bir xatti-harakati, har bir intonatsiyasi, mimikasida loqayd shaxs xarakterining yangi-yangi qirralari ko'rinadi.

Abbosov — Respublikada xizmat ko'rsatgan artist Turg'un Azizov bu loqaydlikdan foydalanib, o'zining mansabparastligini, shuhratparastligini ishga solib yuboradi.

Shu munosabat bilan Abbosov va Diyorovda hamda bulardagi marazga qarshi kurashchilarda (Qosimov — To'ychi Oripov, Yorqin — Hojiakbar Nurmatov, Jalol — Respublikada xizmat ko'rsatgan artist Turg'un Xonto'rayev, Guljahon — Dilorom Ibrohimova) yuz beradigan ruhiy kechinmalar sahnada hayotdagiday tabiiy, har bir xarakter xatti-harakatining o'ziga xos hosilalari sifatida ta'sirlidir.

*Bahodir G'ulomov. «Loqaydlik balosi»,
«O'zbekiston madaniyati» gazetasi, 1971-yil, 12-oktabr.*

SHOGIRD USTOZ HAQIDA

O'zbekistonning ozodligini orzu qilgan va shu yo'lda qatag'onga uchrab qamalib chiqqan, qamoqdan keyin ham ozodlik yo'lida tinmay kurashgan ustoz Shukrullo ozodlik arafasida chindan ham milliy qahramonga aylandi. Bu yo'lda tinmay kurashdi va kurashayotganlarning boshini siladi. Turli yig'inlarda qatnashib, ozodlik haqida otashin nutqlar ham so'zladi. Bizni ham mana shu his-tuyg'u birlashtiradi, desam yanglishmayman. Esni tanib, oq-qoraning farqiga bora boshlagan lahzalaringdan e'tiboran orzu-armoning birgina ozodlikni ko'rish bo'lib qoladi. Bu yo'lda bir emas, bir necha bor men ham qatag'onga uchradim. Millatchi deb ishlardan haydaldim. Shukrullo aka goh oshkora, goh pinhona og'ir damlarda boshimni silardi.

Shukrullo akaning uyiga qadam qo'ygan kezlarim, albatta, biror mehmonning ustidan chiqaman. Mehmonlar O'zbekistonning turli yerlaridan kelishadi. Turli yumush — iltimoslar bilan. Ustoz ham erinmay, zarur yerga kirib, mehmonlarning yumushlarini bitirib beradi. Qancha yordam bo'lsa, u zot faqat beminnat qiladilar.

Ustoz Shukrulloning bir paytlar «Javohirlar sandig'i» asarini tashnalik bilan o'qiganman. Shuningdek, she'rlarini hozir ham havas bilan o'qiyman. Keyinchalik «Kafansiz ko'milganlar» asarini o'qib chiqqanimdan keyin bir necha kun iztiroblar orasida bo'g'ilib qolib, ovqat emay qo'yganman. «Kafansiz ko'milganlar» juda katta qalbning

cheksiz iztiroblari, qayg'u-hasratlari, dard-u alamlari samarasi edi va bu haqda o'sha kezlar katta maqola ham yozganman.

*O'ktam Hakimali. «Iymon gulshani»,
«Guliston» jurnali, 2000-yil, 3-son.*

TO'YDAN KEYIN TOMOSHA

(To'rtinchi sahnadan parcha)

C h a m a n d a x o n. E, qurib ketsin.

F o z i l x o' j a. Dono xotinsan-da. Xalqning gapi bor:

O'ylamay ish qilgan og'rimay o'lar.

Nima bilan xursand bo'lsang, xotinjon,

O'shani qilamiz. Agar xo'p desang,

Odamlardan biroz qisqartirarmiz.

(Ro'yxatni qo'liga olib qisqartira boshlaydi.)

Agar rozi bo'lsang, qarindosh-urug',

Oshna-og'aynidan ellik-oltmishta,

Juda ham chiroyli to'y bo'lar ekan.

Daha-dahalardan odam aytmaymiz.

O'zing aytganingdek, ko'rpalikdan ham

Biroz qisqartirsam.

C h a m a n d a x o n. Mayli dedim-ku.

F o z i l x o' j a. Hozirgi zamonda bunday o'ylasam,

Dashshu, kachkilning ham hech keragi yo'q.

Xo'p... Bular ham ketsin.

(Shartta-shartta o'chira boshlaydi.)

C h a m a n d a x o n. Bunisi qolsin

F o z i l x o' j a. Mayli, xo'p bu qolsin, rostdan ham xotin,

Salla, kimxob to'nning hech keragi yo'q.

Buni ham o'chirdim. Bu ham zarurmas,

Mana buni qara, bu ham kerakmas.

C h a m a n d a x o n *(vahimaga tushib)*. To'xtang, menga qarang, hay nima qoldi?

F o z i l x o' j a. Qarz bo'lmay, qiynalmay, to'y bo'lsin deding,

Holimizga qarab, cho'tga solyapman.

C h a m a n d a x o n. Holimizga emish... Menga bering-e.

(Ro'yxatni qo'lidan tortib oladi, ko'zdan kechiradi.)

Voy, nimasi qoldi?

F o z i l x o' j a. Garnitur qoldi,

Kiyim-kechak qoldi. Kerakligini

Hammasin qoldirdim. Bundan tashqari,

Qancha pul ketadi to'yning o'ziga.

C h a m a n d a x o n. Ey bo'ldi, qo'ying-e, shuncha o'chirib,

Dumi yo'q tovuqdek bo'lib qoldi-ku.

(Eshikdan qo'lida bir o'ram narsa ko'targan Adolat xola kiradi.)

A d o l a t x o l a. Hay, to'ylar muborak, kuyov muborak.
(*Qo'lidagi narsani yerga qo'yib, fотиha tortadi.*)
Omin, oxiri ham xayrli bo'lsin,
Jiyanim umridan baraka topsin,
Mana, Mamasodiq berib yubordi.

F o z i l x o' j a (*Hayron bo'lib*). Qaysi Mamasodiq?

A d o l a t x o l a. Qaysi bo'lardi?
Voy aylanay domla, hazilingizdan,
Kecha konyaklarni tashlab ketdi-ku.

F o z i l x o' j a. Nima?

A d o l a t x o l a. Jiyanimdan aylanib ketay.
Juda sizdan xursand, xudo xohlasa,
Ishi to'g'rilansa, yana qiladi.

F o z i l x o' j a (*Xotiniga*).
Ichkilikni qudang yuborgan desam,
Hali qudang shumi? Mamasodiqmi?

Chamandaxon hazilmi-chinligiga tushunolmay hayron. Adolat xolaga kesatiq qiladi.

Mening jiyanim deng?

A d o l a t x o l a. Ha, o'zirniki.
O'zinga o'xshagan sodda, oq ko'ngil,
Agar boshqalardek quv bo'lganida,
Bir savob ish uchun qo'lga tushmasdi.

F o z i l x o' j a. Uning soddaligin gap-so'zidan ham,
Qilgan ishidan ham o'zim sezgandim.

A d o l a t x o l a. Ha, buning ishi ham o'zi pirlik ish,
Aylanay, hammaga to'g'ri kelmaydi.
Shu safar g'alvadan omon qutulsa,
Boshqa ishga o't, deb o'zim ham aytdim.
Qancha qaytarig'-u mushkulkushod-u
O'qitdim aylanay, hech kor qilmadi.
Hafsalam pir bo'ldi kuf-sufidan ham.
Madad so'rab keldim, oxiri sizdan,
Umidimiz sizdan, quruq qo'ymaymiz.

Ko'cha eshigidan ikki yelkasiga ikkita qop ortgan Mamasodiq kiradi. Chamandaxon qo'li bilan Mamasodiqqa nimanidir ishora qiladi. Terlab-pishib ketgan Mamasodiq ikki qop junni yerga tashlaydi.

M a m a s o d i q. Voy-voy, junidan ham mana qutuldik,
Serjun-serjun qo'yni topgunimcha ham
Rosa o'lib bo'ldim, o'n beshta qo'ydan
Zo'rg'a bir to'shakli jun chiqarsam-a.

F o z i l x o' j a (*Kinoya bilan*).

Qani, keling, keling, qani marhamat,
Ey, ming-ming hasanot qadamlariga.
M a m a s o d i q. Sizni ko'rganimdan juda xursandman.
F o z i l x o' j a (*Chamandaxonga*).
Darrov dasturxonni tuzukroq qiling,
Darrov uyga oling, quda bolani.
M a m a s o d i q. Nima dedingiz, hazilingizmi,
Qanaqangi quda?
F o z i l x o' j a. Yaxshi bilaman (*Xotiniga*)
Qudamiz emasmi?
C h a m a n d a x o n
Qanaqa quda?
M a m a s o d i q. Mamasodiqman-ku.
A d o l a t x o l a. Mening jiyanim.
F o z i l x o' j a. Sizlarni tanidim, ammo meni-chi,
Kim deb o'yladinglar?

Adolat xola bilan Mamasodiq hayron. Ikkalasi birgalikda:

Siznimi?
F o z i l x o' j a. Meni!
Meni poraxo'r deb o'yladinglarmi?
M a m a s o d i q. Qanaqangi pora?
A d o l a t x o l a. Ko'ngilga olmang,
Aylanay bizlardan to'yga — to'yona.
F o z i l x o' j a (*Xotiniga*). Hozir qaytarib ber hamma narsasin.
A d o l a t x o l a. Sizga nima bo'ldi? Bizdan cho'chimang,
Aslo pora emas, yaqin odammiz.
M a m a s o d i q. Faqat savob uchun, xolisanlillo.
F o z i l x o' j a. Menga ham qildingmi savob ishingni,
Hozir hammang jo'na, ko'zimdan yo'qol!
C h a m a n d a x o n. Birovni mushkulin oson qilsangiz,
Xursand bo'lganidan o'z qo'li bilan
Biror sovg'a-salom, bir narsa qilsa,
Hay, buning nimasi pora bo'ladi?
F o z i l x o' j a. Ovozingni o'chir. Hamma narsasin
Hozir qaytarib ber, ko'zim oldida.
M a m a s o d i q. Endi mening ishim nima bo'ladi?
F o z i l x o' j a. Nima bo'lar edi, ishdan bo'shaysan,
Savdo sohasiga qadam bosmaysan.
M a m a s o d i q. Axir, bola-chaqa, bu yoqda to'yim...
F o z i l x o' j a. Sudda eshitasan qolgan gaplarni. (*Xotiniga*).
Narsasin olib chiq, senga aytyapman.

Xotinini qo'lidan ushlab boshlab ketadi. Xolida kiradi.

A d o l a t x o l a (*Mamasodiqqa*). Shu ishingdan bo'sha degan edim-ku!
M a m a s o d i q. Bo'shasam, to'ylarim nima bo'lardi?
A d o l a t x o l a. Ey, sen ham to'yingni evida qilsang...

Chamandaxon bilan Fozilxo'ja yashikda konyak, mayda-chuydalarni ko'tarib
chiqadilar.

F o z i l x o' j a. Qani hammasini ko'tar, ko'rinma!
M a m a s o d i q (*Baland kelib*). Hali gap shundaymi?
A d o l a t x o l a. Juda tez ketmang!
F o z i l x o' j a. Bo'ldi, qo'llaringdan kelganini qil!
M a m a s o d i q. Agar gap shu bo'lsa, hali oldinga
Yalinib borasan!
F o z i l x o' j a. Bo'ldi, jo'nanglar,
Agar harom qo'shib sendek to'y qilsam,
Qilmaganim bo'lsin.
M a m a s o d i q. Ha, katta ketmang.
A d o l a t x o l a. Birov sovitibdi bularni bizdan,
Hozir janjallashma, bo'ldi yuraber.

Eshikdan Nazirbibi kiradi.

F o z i l x o' j a (*Xotiniga*). Ne kunlarga qo'yding, bizlar uchun bu,
Axir isnodmasmi?!
C h a m a n d a x o n. Menda nima ayb?
F o z i l x o' j a. Aybing yo'q, ayb faqat manmanligingda.

Gapga Nazirbibi aralashadi.

N a z i r b i b i. Qizim yeb qirga ketar, o'g'lim teb go'rga,
Jon-jon o'zimizning jonimiz, qo'shni.
F o z i l x o' j a. Bunaqa gaplarni menga gapirmang!
N a z i r b i b i. Sizga gapirmasam, kimga aytaman?
C h a m a n d a x o n. O'ziga yeng bo'lmas, birovlariga en
Qayoqdan bo'lardi!
N a z i r b i b i. Menga kesatmang!
F o z i l x o' j a. Bila turib yana gapirasiz-a.
To'ydan keyin bunday tomoshalarning
Kimga keragi bor!
N a z i r b i b i. Bizlarda ayb yo'q,
Hamma ayb sizlarda, qonun chiqaring.
F o z i l x o' j a. Yuridik tomondan bu butun xato!
N a z i r b i b i. Nega xato bo'lsin, juda ham to'g'ri.
Axir paranjidan qanday qutuldik?

Bir vaqt cho'ri bo'lgan xotinlarning ham
 Huquqi erkakka teng qilindi-ku!
 Axir qanday qilib? Nahotki endi
 Bundan qutulishning yo'li bo'lmasa?
 F o z i l x o' j a. Dekret chiqar deng?
 X o l i d a. Eng to'g'ri yo'l shu.
 Ba'zi boyvachchalar bilan tenglashish,
 Isrofgarchiliklar jonga tegdi-ku.
 C h a m a n d a x o n. Men ham bellashmasdim, qonun chiqarsa.
 F o z i l x o' j a (*Xotiniga*). Bularning janjali, qo'ydi-chiqdilar,
 Hovli sotishacha ish kelishligi,
 Nahot, o'zi senga ibrat bo'lmasa!
 N a z i r b i b i. O'z boshiga tushmay hech kim bilmaydi.
 Qanday to'y qilasiz, hali ko'ramiz.
 Yuring, kelinposhsha.
 (*Xolidani boshlab ketadi*).
 F o z i l x o' j a. Ko'ramanmish-a.
 Qarshi kurashaman, bunday qo'ymayman!
 C h a m a n d a x o n. Qanday kurashasiz?
 F o z i l x o' j a. Bitta yo'li bor:
 Quruq manmanlig-u soxta yo'l bilan
 Obro' orttirishmas, halol mehnati,
 Insonlarga bo'lgan shafqati bilan
 Hurmat topishlikni o'ylasak, faqat,
 Bu haqiqiy obro', bu chin insonlik.
 Faqat chorasi shu, boshqa iloj yo'q.
 C h a m a n d a x o n. Koshki edi hamma ham sizdek tushunsa.
 F o z i l x o' j a. Hamma xalqlarning ham o'z odati bor,
 Men ham qarshimasman odatimizga,
 Ammo sixiylikni o'z evi bilan
 Kerakli narsaga, o'rinli qilsak,
 Buncha mojarolar bo'lib o'tmasdi.
 Mana bular kabi janjal qilmasdan,
 Umr kechirishning o'zi ham bir to'y.
 Buni tushunish-chun sen va bizlarga
 Qo'shnilar hayoti kattakon ibrat.
 Ana shundagina to'ylar muborak,
 Kuyovlar muborak desa bo'ladi.
 C h a m a n d a x o n. Kuyovlar muborak, to'ylar muborak!

Parda.

RAMZ BOBOJON

(1921)

Atoqli shoir va dramaturg Ramz Bobojon Toshkentda xizmatchi oilasida tug'ilgan. Ta'lim-tarbiya texnikumida, so'ng Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika instituti til va adabiyot fakultetida tahsil ko'rgan. Respublika radiosida, «Qizil O'zbekiston» gazeta tahririyatlarida ishlagan. R. Bobojon qator poema va she'riy to'plamlar bilan, shoir sifatida tanilgach, dramaturgiyaga «Tog'a-jiyanlar» pyesasi bilan kirib keldi. Asar 1959-yili Hamza nomidagi akademik teatrdan A. Turdiyev rejissorligida sahnaga qo'yiladi. 1964-yili «Lo'lilar» lirik komediyasini yaratadi va o'sha yili Moskvadagi «Romen» lo'lilar teatrida «Lo'lini aldab bo'lmaydi» nomi bilan sahna yuzini ko'radi. Mazkur asar «Zuhraning maktublari» nomida 1965-yili Muqimiy nomidagi musiqali teatrdan ham qo'yiladi. 1960-yillari uning yana «Ins-u jins yoki tirik murdalar», «Shikoyatga hojat yo'q» pyesalari yaratiladi.

1990-yili Muqimiy nomli musiqa teatrida «Yusuf va Zulayho» musiqali dramasi qo'yilishi (rejissor R. Boboxonov, bastakor F. Alimov) R. Bobojonning dramaturglik faoliyatida sezilarli voqeaga aylandi. Asar asosida besh seriyali telefilm ham yaratilgan.

R. Bobojon A. S. Pushkin, M. Yu. Lermontov asarlaridan o'zbek tiliga ko'plab tarjimalar qilgan. «Arvohlar» pyesasini tarjima qilib, u birinchi bo'lib G. Ibsen ijodiga o'quvchilar e'tiborini jalb etdi.

O'zbekiston xalq shoiri Ramz Bobojon Istiqlol yillari «Shuhrat» medali va «El-yurt hurmati» ordeni bilan taqdirlangan.

RAMZ BOBOJON ASARLARI HAQIDA MATBUOT SHARHI «TOG'A-JIYANLAR»

Mazmuni:

Mehmonxo'jayev tajribali quruvchi rahbar bo'lsa-da, laganbardorlar ta'siridan qutulolmaydi, havozadan yiqilib mayib bo'lgach, kim do'st, kim dushman ekanini anglaydi. Lo'ttiboz va laganbardor Bo'riboyni uyidan haydab chiqaradi, Dilbarning loyihasi haqiqiy ekanini tan olib, yo'l qo'ygan xatolari uchun jamoa oldida uzr so'raydi.

Asar ilk bor 1959-yili rejissor T. Xo'jayev ko'magida A. Turdiyev tomonidan Hamza nomli akademik teatrdan qo'yilgan. Bosh rollarda L. Nazrullayev (Mahmonxo'jayev) S. Karimova (Dilbar) G'. A'zamov (Soqijon) S. Tabibullayev (Boqi) Z. Muhammadjonov (Jo'ra Sodiqovich) N. Rahimov (Bo'riboy) chiqqanlar.

«Tog'a-jiyanlar» asari 1999-yili A. Hidoyatov nomidagi teatrdan rejissor B. Yo'ldoshev talqinida qayta sahna yuzini ko'rgan.

ASARNING 1959-YILGI SAHNAVIY TALQINI HAQIDA O. SHARAFIDDINOV SHARHI

Mana, premyera kuni ham yetib keldi. Parda ochilib, voqea boshlanishi bilanoq, tomosha zalini to'ldirib o'tirgan tomoshabinlar o'rtasidagi xushchaqchaq kulgi, ma'qullash ovozlari eshitila boshladi. Quvnoq kulgi spektaklning oxirigacha to'xtamaydi.

Tomoshabinlarning bunday aktivligi — spektaklning ularga manzur bo'lganini ko'rsatuvchi eng yaxshi belgi. Ha, Ramz Bobojonning «Tog'a-jiyanlar» komediyasi katta imtihondan muvaffaqiyatli o'tdi, yangi bir dramaturg tug'ildi.

Yosh dramaturg o'z asari uchun kuchli dramatik asos topa olgan. Asardagi dramatism qurilish injeneri Jo'ra Sodiqovich, arxitektor Dilbarxon va qurilish boshlig'i Mehmonxo'jayev o'rtasidagi munosabatdan kelib chiqadi.

Jamoatchilik ta'sirida Mehmonxo'jayevdagi illatlar asta-sekin yo'qola boradi va pirovardida u yana quruvchilar safiga qaytadi. Dramaturg shu konfliktini rivojlantira borib, qahramonlar xarakterini, ayniqsa, Mehmonxo'jayev xarakterini yaxshi ochishga muvaffaq bo'la olgan. Salbiy qahramonlarning qilmishlarini fosh qilishda haqiqiy komediyaga xos original priyomlar topgan. Bu ayniqsa, komediyaning uchinchi ko'rinishiga taalluqli. Pensioner Fozil ota yangi bitgan uylardan biriga ko'chib kiradi va bu uylarning qanaqa ekanini ko'rsatib qo'yish uchun Mehmonxo'jayev boshliq qurilish boshqarmasi xodimlarini mehmonga chaqiradi. Shu uyni qurgan Mehmonxo'jayev suvoqlarning ko'chib ketganini, bo'yoqlarning notekis chaplanganini, pollarning qing'ir-qiyshiqqligini ko'rib rosa sharmanda bo'ladi.

Tomoshabin sekretar qizning poshnasi pol yorug'iga tiqilib qolganini, Bo'riboyning kastumiga devorning oqi yopishganini ko'rib rosa kuladi. Tutun tortmaydigan mo'rini tuzataman deb, hamma mehmonlarning usti-boshi qopqora qurum bo'ladi. Ayniqsa, Fozil ota pechkasining qora kuyasi Mehmonxo'jayevning aftiga qalin chaplanadi. Bularning hammasidan tomoshabin zavqlanib kuladi, kuladigina emas, kulgisi bilan qurilish ishlaridagi mana shunday kamchiliklarni, «qo'ldan ketguncha, egasiga yetguncha» qabilida ish ko'ruvchilarni sharmanda qiladi.

Umuman, pyesadagi komizm puxta asosga ega. Bu komizm yuqoridagi kabi situatsiyalar orqaligina emas, ayrim komik xarakterlar orqali ham kuchaytiriladi. Bu jihatdan pyesadagi bo'yoqchi Soqijon bilan suvoqchi Boqijon obrazlari diqqatga sazovordir. Ularning qilmishlari, so'zlari, voqealarga ishtiroki tomoshabinda katta kulgu tug'diradi.

«Tog'a-jiyanlar» spektaklida biz yana bir bor «Hamza» teatrining chinakam talantlarga boy ijodiy kollektiv ekanligiga amin bo'ldik. Komediya bosh rolni — Mehmonxo'jayev rolini o'ynagan O'zbekiston xalq artisti L. Nazrullayev obrazning takrorlanmas xususiyatlari, individual qiyofasi orqali tomoshabinga yetkazishga muvaffaq bo'lgan. Artist xalqdan ajralgan, manmanlikka berilgan, lekin o'zini xalqqa mehribon qilib ko'rsatishga urinuvchi burokrat boshliq uchun juda xarakterli detallar, harakatlar topa olgan.

Mehmonxo'jayevning oldiga ko'pdan beri ko'rishmagan qadrdoni keksa usta Fozil ota keladi. Mehmonxo'jayev u bilan biroz suhbatlashadi. Fozil ota ketishga qo'zg'alarkan, unga murojaat qiladi: «Qani, bir choy qilib beray, otaxon». Shu so'zlarni aytar ekan, artist soatiga qaraydi. Uning intonatsiyasidan, soatiga qarashidan, «Tezroq keta qolsang-chi, rosa vaqtni olding-ku» degan ma'no anglashilib turadi. Bunga o'xshash muvaffaqiyatli topilgan detallar L. Nazrullayev ijrosida ko'p uchraydi.

O'zbekiston xalq artisti Nabi Rahimov ijrosida ekspeditor Bo'riboy obrazi ham juda jonli chiqqan. Bu obrazni talqin qilishda aktyor, ayniqsa mimikadan va intonatsiyadan juda ustalik bilan foydalanadi. Bo'riboyning laganbardorligi, shilqimligi, muttahamligi aktyorning har bir qarashida, har bir qilig'ida, har bir imosida sezilib turadi.

Soqijon va Boqijon rollarini ijro etgan O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist G'. A'zamov va O'zbekiston xalq artisti S. Tabibullayevning komik qobiliyatlari juda zavqlantirdi. Xususan, G'. A'zamov o'z ijodiy manerasiga sodiq qolgan holda, bu spektaklda ham yorqin komizm bilan ajralib turadigan obraz yarata olgan.

Ozod Sharafiddinov. «Dramaturgning tug'ilishi»,
«O'zbekiston madaniyati» gazetasi, 1960-yil.

TOG'A-JIYANLAR

Beshinchi ko'rinish

Kabinet. Eshik-elik yopiq. Mehmonxo'jayev Bo'riboyni iskanjaga olib turibdi.

M e h m o n x o' j a y e v (*Bo'riboyga gazetani ko'rsatib.*) Bu nima? Reportajmi?

B o' r i b o y. Yo'q, felyeton.

M e h m o n x o' j a y e v. Ovozing o'chsin. Mana endi devor ham, tosh ham menga qarshi qo'l ko'tarayotibdi. Hali ko'rsatgan karomating shumi? Men seni chaqqon yigit deb yursam, aldangan ekanman.

B o' r i b o y. Bu masalada har qancha so'ksangiz, urishsangiz haqlisiz. Nima qilay, uydagi so'z bozorga to'g'ri kelmay qoldi.

M e h m o n x o' j a y e v. To'g'risini aytaver, qosh qo'yaman deb, ko'z chiqarding.

B o' r i b o y. Ha, shunday bo'ldi. Ammo yo'li bor.

M e h m o n x o' j a y e v. Yo'li qursin shunaqa bo'lsa!

B o' r i b o y. Sizga aytsam, mening qo'limda shunday hujjatlar borki, sizga qarshi qo'l ko'targanlar qulluq qiladi. Felyetonda keltirilgan fakt, raqamlar yolg'on, tuhmat.

M e h m o n x o' j a y e v. O'chir ovozingni, dog'uli... Gazeta yolg'onni yozadimi! Buni sen qilgansan, sen! Endi javobini ham o'zing berasan.

B o' r i b o y. Non ursin, tilim kesilsin, xo'jayin, yolg'on, tuhmat. Ishonmasangiz men sizga ko'rsataman, hisob-kitob joyida, g'ishti g'ishtiga to'g'ri.

M e h m o n x o' j a y e v. Bo'lmasa, havodan olib yozibdi-da, shundaymi?

B o' r i b o y. Umuman shunday. Lekin muxbirning qo'ltig'iga suv purkaganlar bor.

M e h m o n x o' j a y e v. Yana shu Dilbar bilan Jo'ra ma'nosidami?

B o' r i b o y. Ha, bo'lmasa kim? Dilbar nonko'rlik qilayotibdi, Jo'ra stolingizga ko'z olaytirayotibdi, xo'jayin.

M e h m o n x o' j a y e v. O'zimdan chiqqan baloga, qayta boray davoga.

B o' r i b o y. Ha, balli, ana endi o'zingizga keldingiz, xo'jayin. Holvani hokim yeb, kaltakni yetim yeyishiga sal qoldi. Men-ku, urishingizga ham, so'kishingizga ham ko'nikib qolganman. Ammo ana ularga ehtiyot bo'ling.

M e h m o n x o' j a y e v. Tiss...

D i l b a r (*Kiradi*). Yaxshimisiz, tog'a?

M e h m o n x o' j a y e v (*kesatib*). So'raganingizdan beri durustmiz.

D i l b a r. Kesatmasangiz ham bo'ladi.

M e h m o n x o' j a y e v. Sirkangiz suv ko'tarmaydigan bo'lib qolibdi, Dilbarxon.

D i l b a r. O'rinsiz gapga kimning toqati bor deysiz.

M e h m o n x o' j a y e v. O'lmagan tog'angizning joni ekan.

Dilbar. Bilmadim. Ishqilib shunday bo'lib chiqsin. Sizga tikan kirsa, mening ham jonim achiydi.

Mehmonxo'jayev. Qilar ishni qilib qo'yib...

Dilbar. Bu nima deganingiz, nima qilib qo'yibman. Felyetonga bo'lsa mening...

Bo'riboy. Yov qochsa, botir ko'payar...

Mehmonxo'jayev. Yo'q, men hali qochganim yo'q... Zo'r kelsa, osmon qo'lingizda bo'lsa, tashlab yuborarsiz.

Dilbar (*achchiq bilan*). O'zingizni bosing, keyin gaplashamiz.

Mehmonxo'jayev. Yo'q, haqiqat yuzaga chiqmaguncha o'zimni bosolmayman.

Dilbar. Tog'a, haqiqat deysiz, ikkinchi qavat, chap qanotdagi xonalarni ko'rdingizmi?

Mehmonxo'jayev. Ko'rdim, ha, nima bo'bdi?

Dilbar. Bu yerda ham loyihadan chekinish alomatlari sezilib qolayotibdi.

Mehmonxo'jayev. Yana loyiha, yana janjal. Ishlatgani qo'yanlarmi, yo'qmi?.. Ammo maslahat ma'nosida shuni aytib qo'yayki, Jo'ra Sodiqovichdan uzoqlash, badnom bo'lasan, Dilbar.

Bo'riboy (*kesatib*). Ha, shunday qiling, dono qiz. Fozil ota bir qo'lida g'isht ko'tarib Jo'ra Sodiqovich bilan kiradi. Mehmonxo'jayev sir boy bermaydi.

Mehmonxo'jayev (*Fozil otaga*). Keling, ishlaringiz qalay?

Fozil ota. Yomon emas, mana, ikkinchi korpus ham qaddini ko'tarib qoldi. Men hozir Jo'ravoyga arz qilib kelayotgan edim.

Mehmonxo'jayev. Yana arzmi.

Fozil ota. Ha, arz.

Bo'riboy. Menga ruxsatmi?

Mehmonxo'jayev. Hozir, sabr qil.

Bo'riboy. Xo'p, xo'p.

Mehmonxo'jayev. Qani, usta, nima deyayotgan edingiz?

Fozil ota. Yangamning oshini shirin qilgan akamning masallig'i deydi. Ustamardikorning ishi g'isht, yog'och, loy bilan bitadi, o'g'lim. Mana bu g'ishtni qarang. (*Ko'rsatadi*.) Bu nima? Xom g'ishtning o'lsa o'ligi ortiq.

Bo'riboy. Shunchalik emas, usta, rangida ham, narxida ham farqi bor.

Fozil ota. Narxida bo'lsa bordir, munaqangi g'ishtni umrimda ishlatmayman. Mening odatim: g'ishtni suvga tashlayman. Bir ko'pik chiqsa ham irg'itib yuboraman, chunki chala, xom, qurilishga yaramaydi. (*Qo'lidagi g'ishtni ko'rsatib*.) Bundan nainki ko'pik chiqsin, suvga tushsa bo'lka nonday ivib, qaytib chiqmaydi. (*G'ishtni qo'li bilan sindiradi*.) Yetmish yashar chol g'isht sindirganini eshitganmisiz? Bu nima degan gap?!

Bo'riboy. G'ishtning sifati uchun men aybdormanmi?

Jo'ra Sodiqovich. Zavoddan chiqibdi deb qabul qilaverish kerakmi? Bu g'isht brak, axir.

Mehmonxo'jayev. Ko'z-quloq bo'lib tursang bo'lmaydimi, Bo'riboy.

Bo'riboy. Nima qiladi, shuvoqning tagida qolib ketadi-ku.

Jo'ra Sodiqovich. Biz tovuqxona emas, odamlarga uy-joy qurayotibmiz, o'rtoq Bozorboyev.

Bo'riboy (*chetga o'tib*). Jonimga tegdi. (*Chiqib ketmoqchi bo'ladi*.)

Jo'ra Sodiqovich. To'xtang, Bo'riboy, men hozir sizga shuvoqning tagida qolib ketgan g'ishtlarni ko'rsataman. Pensionerlar uyi bizga ochiq tajriba bo'lishi kerak. (Mehmonxo'jayevga.) Erta o'tib indinga partbyuroda felyetonni muhokama qilamiz. (Bo'riboyga). Siz ham bo'lishingiz kerak. Tayyorlaning.

Bo'riboy. Bajonidil. Reviziyaga tayyorman.

Mehmonxo'jayev. Har qancha muhokama qilsangiz qilingg-u, Jo'ra Sodiqovich, lekin felyetonda keltirilgan faktlar yolg'on! Mana, Bo'riboy aytsin.

Bo'riboy. Aksari yolg'on.

Jo'ra Sodiqovich. Demak, rosti ham bormi?

Mehmonxo'jayev. Mening adresimga aytilgan gaplar tuhmat. Isbotlash ma'nosida men sizlarga ko'rsataman.

Jo'ra Sodiqovich. Yana dard ustiga chipqon bo'lmasin.

Mehmonxo'jayev. Tilim qisiq joyi yo'q. Kvartal planini bajardim-mi, bajardim. Men qurgan uylarda odamlar yashayaptimi, yashayapti!

Jo'ra Sodiqovich. To'g'ri, bir qaraganda hamma ish joyida, ammo...

Mehmonxo'jayev. Yana ammo, yana ayblash!

Jo'ra Sodiqovich. Sabr qiling. Qurilish-montaj boshqarmamiz ishidagi nuqsonlar uchun siz qatori men ham javobgarman. Men o'zimni quruqqa olib qochayotganim yo'q. Ammo kamchiliklar jiddiy bo'lishiga qaramasdan siz ularni tan olmayotibsiz, o'rtadagi kelishmovchilik ana shunda!

Mehmonxo'jayev. Yana takrorlash ma'nosida aytamanki, yolg'on! Tuhmat! Ko'rolmaslik! Buni men Mehmonxo'jayevning tagiga suv quyish, stoliga ko'z olaytirish ma'nosida tushunaman.

Jo'ra Sodiqovich. Hamma balo ana shunda, hadiksirashda, do'stlikni, samimiylilikni tushunmaslikda!

Mehmonxo'jayev. Endi gap ketmaydi. Ishning tepasiga boramiz, qurilishga chiqamiz. O'sha yerda ko'ramiz, Jo'ra Sodiqovich, siz nima qildingizu, men nima qildim... Siz ham, Dilbarxon ham qancha e'tirozingiz bo'lsa o'sha yerda aytasiz. Qani, ketdik!

Sahna birpas bo'sh qoladi. Boqijon bilan Soqijon kiradi.

Boqijon. Omonatni qayerga qo'yamiz. Soqi sumbat, Asalxon ko'rinmaydi!

Soqijon. Mana bu stol ustiga, Boqi beg'am.

Boqijon. Xo'sh, kechirimni kimdan so'raymiz, xo'jayin yo'q-ku?

Soqijon. Yo'q bo'lsa, o'ziga qiyin.

Boqijon. Jumbog'ing ham qurmasin, odamni xijolat qilib qo'yding. Har qalay Mehmonxo'jayev ilgari shunchalik emas edi.

Soqijon. Ilgari shunchalik bo'lmasa ham keyingi paytda burni pod'yomniy kranday ko'tarilib qolgan edi-da, nimasini yashirasan.

Boqijon. Shunday bo'lsa bordur, Soqi sumbat. Laqabing tuya emas edi-ku, ammo bir hazil bilan bir taxta yantoqni shipirib tashlading, shovvoz.

Soqijon. Yantoqni shipirgan bo'lsam, ayni muddao bo'pti-da, Boqi beg'am.

Boqijon. Har holda novda-nihollarga tegmading, hoy to'xta, Soqi sumbat, xo'jayinning ishi endi nima bo'larkin?

Soqijon. Nima bo'lardi. Asfalasofilin.

Boqijon. Ey, nafasingning tagiga o't qalavor. Namuncha sovuq?

S o q i j o n. Keyin, mabodo mendan Mehmonxo'jayevning o'rniga kimni qo'yamiz deb so'rashsa, seni ko'rsataman, Boqi beg'am. Qalay, nafasim issiqmi?

B o q i j o n. Bordi-yu, men seni ko'rsatsam, nima qilarding.

S o q i j o n. Menmi, mana bundoq o'tirib (*Mehmonxo'jayevning stuliga o'tiradi*). Birinchidan, Bo'riboyning dumini tugardim. Ikkinchidan...

Telefon jiringlaydi, har ikkisi cho'chib tushadi. Soqijon o'zini bosib, sekin trubkani oladi.

S o q i j o n. Labbay, Soqijonman. Asalxon yo'q. Boqijon bor.

B o q i j o n. Kim ekan?

S o q i j o n (*Boqijonga*). Sabr qil. Boqi beg'am. (*Trubkaga*). Boqijonmi, chapdast usta, kelishgan yigit. Hali uylanmagan, bu ishda ham kechikkanlardan...

B o q i j o n (*telefonni bosib qo'yadi*). Ey o'l-ey, Soqi sumbat rasvo qilding-ku, hazil ham evi bilan-da. Asalxonning jazmani bo'lsa yaxshi emas, ko'ngliga keladi.

S o q i j o n. Qiz bolaning ovozi, Boqi beg'am, dugonasi bo'lsa kerak.

B o q i j o n. Shu gapingni boya aytmaysanmi, o'zim gaplashardim.

S o q i j o n. Ha, yoqmay ketsin.

B o' r i b o y (*yugurib kiradi*). «Skoraya pomoshch»! Avariya! Xo'jayin havozadan yiqildi! (*Boqijon bilan Soqijon chiqib ketadilar*). Uning o'rnigaJo'ra yiqilsa bo'lmasmidi! (*Telefon qila boshlaydi*), «Skoraya pomoshch». Ha, yo'q. Militsiya? (*Trubkani iladi*). Salomat bo'lsinlar-ey!

Parda.

RUSTAM BOBOXONOV

(1951-1990)

Rustam Boboxonov qisqa umr ko'rib teatrimiz tarixida chuqur iz qoldirgan nodir iste'dod egalaridan edi.

R.Boboxonov Toshkentning Qoratosh mahallasida xizmatchi Abdulla Boboxonov oilasida tug'ilgan. O'rta maktabni tugatgach, Toshkent teatr san'ati institutining rejissorlik fakultetiga o'qishga kiradi. 1976 yil Namangan teatrida "Muhabbat yodgori" (M.Nazarov asari) diplom spektaklini qo'yib institutni muvaffaqiyatli tamomlaydim so'ng Sirdaryo teatrida rejissor bo'lib ishlaydi.

Abror Hidoyatov nomidagi O'zbek davlat drama teatrida faoliyat ko'rsatib "Dabdabali to'y" (Ye. Bo'latov), "Zada bo'lgan payg'ambar" (A.Makoyonov), O'tkir Hoshimov asarlari asosida "Baland dorga osilma", "Sendan ugina, mendan bugina" spektakllarini yaratadi.

Boboxonovning 1986 yildan umrining oxirigacha Muqimiy nomli musiqali teatrdan ishlab yaratgan har bir spektakli bu jamoa hayotida favqulotda yangiligi bilan e'tibor topdi. Bular K.Yashin va T.Jalilovning "Nurxon", O.Yunusovning "Shayton va farishta", R.Togorning "Roka" va R.Bobojonning "Yusuf va Zulayxo" asarlari edi. Mazkur spektakllar tanqidchilik tomonidan tuqori baholandi.

"Yusuf va Zulayxo" haqida M.Rahmon

Sharq xalqining sevimli "Yusuf va Zulayxo" dostoni o'zbek sahnasida yangicha, behad go'zal badiiy talqinini topdi. O'zbekiston Xalq shoiri Ramz Bobojon Durbekning bundan besh asr burun yozgan "Yusuf va Zulayxo" sedan ilhomlanib, dostonnig butunlay yangi,

o'ziga xos nusxasini yaratdi. U "Yusuf va Zulayho"ning dramatic poemasini yaratishda o'z zamonasining ruhi, unig muammolarini asarga olib kirishga harakat qilgan, dostonga yangisha ohang, yangicha sayqal bergan. Durbek dostonidagi diniy talqin va aqidalardan insonparvar g'oyalarni ajratib olib, adolat, halollik g'oyalarini chuqurlashtirgan. Eski mavzuning yangicha talqini yoshlar tarbiyasuda ularning ma'naviy boyishida muhim ahamiyat kasb etishiga ishonch tug'iladi.

Rejissor Rustam Boboxonov asarni mohirona sahnalashtirgan. Ming afsuslar bo'lsinki, bugun u oramizda yo'q. Premyeradan so'ng barchani dog'da qoldirib, bevaqt vafot etdi, teatr san'ati istiqbolli yosh rejissordan judo bo'ldi. "Yusuf va Zulayxo" marhumning eng oxirgi ijod mahsuli edi. Rejissor spektaklda voqealarni, obrazlarni to'xtovsiz rivojlantiradigan dinamika topgan. Spektakl va aktyorlar o'yinida u g'ayritabiiy romantikadan qochgan. Hayot haqiqati yo'lidan borib dramaturg g'oyalarini sahna vositalari bilan boyitishga, chuqurlashtirishga erishgan. Ommaviy sahnalar did bilan yaratilgan.

Spektaklning katta yutug'I Yusuf va Zulayxo obrazlarining sahnada yuksak badiiy ifodalanishidir. Yusuf juda murakkab psixologik obraz. Bu obrazni yosh aktyor Xamida To'xtayev yaratgan. U obraz ustida puxta ishlab, adabiiy manbaani boyitishda o'z iste'dodini namoyish qilgan. Uning Yusufi dostonidagidek nihoyat gozal, kamtar, muhammatiga sadoqatli aqlida ham? Farosatda ham nihoyatda ustun. Unig sahnada yurish-turishi bosiq, xayolchan harakatda kambag'al, lekin ichki fikrda boy. Aktyor o'z qahramonini mashaqqatli yo'llardan olib o'tib, uning olijanobligini ko'rsatishga alohida e'tibor bergan. Ayniqsa, Zulayxoning Misr Aziziga turmushga chiqqanidan keyingi fojiasini ko'rib, hijron azobida o'rtanadi, lekin unig oilasini buzishni, malomatga qolishni istamaydi. Bunga unig yuksak insoniy fazilatlari, xulqi, odobo yo'l qo'ymaydi. Aktyor ham Yusufning ichki tuyg'u-kechinmalarini mana shunday andozada yuksak mahorat bilan talqin qiladi.

Yosh aktrisa Zulayxo Boyxonova ham Zulayho rolini yaratishda katta yutuqlarni qo'lga kiritgan. Sahnada dostonidagi Zulayhoning jonli haykalini o'rnatish darajasiga ko'tarilgan. Unig Zulayhosi boshdan oxirigacha muhabbat shaydosi. U sevgini insonning buyuk fazilati deb biladi. Aktrisaning ismi ham, jismi ham xarakteri ham Zulayxo obrazi uchun yaratilgandek tuyuladi. Hayot fojealari Zulayxo xarakterini tubdan o'zgartirib yuboradi. Ilgarigi umid, shodligi yo'qoladi. Biroq yuragida sevgi o'ti o'chmaydi. Aksincha, yanada zo'r kuchga aylanadi. Aktrisa o'z qahramonina ana shunday kuchli irodaga ega go'zal ayol sifatida gavdalantiradi va tomoshabin mehriga sazovor bo'ladi.

Aziz fojiasidan so'ng Zulayxoning boshi ochiq, o'z sevgilisiga erishish uchun ma'lum sharoit tug'ilgan edi. Lekin bunga Yusufning andishalari yo'l qo'ymaydi. Bundan azoblangan Zulayxo g'azabnok bo'ladi. Endi Yusuf unga shavqatsiz tuyuladi. Alamini yashira olmaydi. Yusufga qo'pollik qilib qo'yganini ham sezmay qoladi. Afsuski, aktrisa mana shu sahnada tashqi ifodani berib, biroz mezondan chiqib ketgan. Zulayxoning bu sahnadagi tug'yoni Sharq ayollariga xos, chuqur iffat bilan, nozik ichki kechinmalarda berilishi kerak. Uning buyuk insoniy muhabbatiga rahna tushmasligi lozim. Iste'dodli aktrisamiz bu sahnadagi izlanishlarini oxiriga yetkazishiga aminmiz.

Mamajon Rahmonov: "Muhabbatim senga havola",
"O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi. 1990 y. 17 avgust.

Manbalar:

Ramz Bobojon. Tanlanma, uchinchi jild. Gʻafur Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyoti 1971-y. E. Nosirov. «Ramz Bobojon». Gʻafur Gʻulom nomidagi Adabiyot va Sanʼat nashriyoti, 1974-y.

ODIL YOQUBOV
(1926)

Atoqli yozuvchi va dramaturg Odil Yoqubov Qozogʻiston Respublikasi, Chimkent viloyat Turkiston tumanining Qarnoq qishlogʻida tavallud topgan. Oʻrta maktabni tugatgach, armiyada xizmat qilib, 1950—1956-yillari Oʻrta Osiyo Davlat universitetining filologiya fakultetida oʻqigan. «Литературная газета»ning Oʻzbekistondagi maxsus muxbiri, «Oʻzbekfilm» kinostudiyasi, Gʻ. Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyoti hamda, «Oʻzbekiston adabiyoti va sanʼati» gazetasida muharrir va bosh muharrir kabi vazifalarda ishlagan. 1989—1996-yillari Oʻzbekiston Yozuvchilar uyushmasining raisi lavozimida xizmat qilgan. Unga Oʻzbekiston xalq yozuvchisi faxriy unvon va «Doʻstlik», «El-yurt hurmati» ordenlari berilgan.

O. Yoqubov ijodida dramaturgiya sezilarli oʻringa ega. U birinchi pyesasini talabalik chogʻida yozgan. «Chin muhabbat» deb ataluvchi bu asar 1955-yili Hamza nomidagi akademik drama teatrida sahnaga qoʻyiladi. Shu asar tufayli O. Yoqubov bilan atoqli rejissor Toshxoʻja Xoʻjayev va otaxon teatr jamoasi orasida samarali hamkorlik boshlanadi. Uning «Aytsam tilim, aytmam dilim» (1957, rejissor T. Xoʻjayev), «Yurak yonmogʻi kerak» (1958, rejissor G. Shermuhamedov), «Olma gullaganda» (1961 rejissor A. Qobulov), pyesalari teatrdan paydo boʻladi.

Amir Temurning 660-yilligi munosabati bilan O. Yoqubov «Avlodlarga vasiyat» pyesasini yaratdi. Asar 1996-yili Jizzax teatrida (rejissor M. Azimov) sahnaga qoʻyildi. 2001-yili Milliy akademik drama teatrida uning «Bir koshona sirlari» (rejissor T. Azizov) pyesasi paydo boʻldi. Shu asari uchun Odil Yoqubov 2001-yilning «eng yaxshi dramaturgi» degan Respublika «Ofarin» mukofotiga sazovor boʻldi.

**«CHIN MUHABBAT» ASARINING YARATILISHI HAQIDA
ZIKIR MUHAMMADJONOV XOTIRASI**

Baʼzida ommaviy sahnalar jonlansin, deb katta artistlarga murojaat qilinadi. «Chin muhabbat» pyesasida zabardast kolxozchilardan bir necha nafarini koʻrsatish zarurati tugʻildi. Bir mahal gavdali artistlar orasidan jikkakkina boʻlib Gʻani Aʼzamov ham chiqib kelyapti. Rejissor: «Siz kerakmassiz» desa, «Meni bulardan nimam kam, men, men bularga qaraganda Arslonsherman», degan edi. Hamma kulib yubordi. Dramaturg Odil Yoqubov ertasiga Arslonsherga atab butun bir sahna yozib keldi. Kolxozdagi «mana man deganlarni yoʻlda qoldiradigani taʼriflandi. Rejissor Toshxoʻja Xoʻjayev rolga qiziqib qolib, personajning tarjimai holini bilish kerak», degan edi. «Bu otasining yolgʻiz oʻgʻli boʻlishi kerak» dedi Gʻ. Aʼzamov. «Chala tugʻilgani uchun uni telpakda katta qilishgan-da», — dedi kimdir. Toʻgʻri, umidli dunyo deganlar, odatda, bunday bolaning otini Arslonsher deb atashadi-ya!? Aʼzamov obrazning tugʻilayotganidan zavqlanib ketib, muallifga taʼzim qilib qoʻygan edi.

Shu ondayoq o'sha ta'riflarni mujassam qilib, yana bir sahna yozdi. Shunday qilib bu obraz sahnada yozilgan, desa bo'ladi.

*Zikir Muhammadjonov, O'zbekiston xalq artisti.
«Rolning kaliti», «Guliston» jurnali, 1994-yil, 4-son.*

«OLMA GULLAGANDA» SPEKTAKLI HAQIDA MATBUOT SHARHI

Dramaturg Odil Yoqubov yaqinda poytaxtimizning mehnatkashlarini o'zining yangi dramasi — «Olma gullaganda» bilan quvontirdi.

Shunisi muhimki, zamonaviylik, hozirgi kun uchun xizmat qilish Odil Yoqubov dramatik ijodining asl mohiyatini tashkil etadi.

Pyesaning bosh ijobiy qahramoni — Mashrabjon jamiyatimizning ilg'or kishisi, guli ekan, Aziz — shaxsiyatparast, o'zi uchun yashaydigan, quruq shuhrat, shon-u shavkat ketidan quvuvchi shaxs. Uning uchun olimlik darajasi, o'z bilimi jamiyatga, xalqqa, Vatanga xizmat qilish uchun emas, mansab-martaba uchun kerak.

Mashrabjon — artist Po'lat Saidqosimov, Aziz — artist To'ychi Oripov ham obraz sifatida to'g'ri tanlangan. Spektakl sahnalari ko'z oldimizdan o'tib borar ekan, biz bir-biriga tamoman zid, qarama-qarshi xarakterni ko'ramiz. Shijoatli, yuragida o'ti bor Mashrabjonning dili zamon nafasi bilan uradi. U o'z maqsadiga erishish yo'lida har qanday g'ovlarga, to'siqlarga qarshi boradi; shaxsiy rohati va manfaatlarini qurbon qilishga tayyor turadi. Qaqramonning xarakteriga oid bo'lgan mana shu tomonlar uning obrazini to'ldirishga, yaqqolroq qilib ko'rsatishga yordam beradi.

Professor Vohidov obrazi — talantli artist Sharif Qayumovning keyingi yillardagi ijodida erishgan katta muvaffaqiyati desa arziydi. Vohidov sahnada paydo bo'lar ekan, bizning ko'z oldimizda artist emas, haqiqiy professor gavdalanadi. Olimlarga xos bo'lgan fazilatlar: parishonlik, suhbat paytida ham asosiy ishni o'ylab o'tirish, soddalik, halollik, beg'arazlik Sh. Qayumov ijrosida to'la ifodalangan. Artist o'z qahramonining xarakterini, ruhiy holatini ochishga zarur bo'lgan harakat va qiliqlarni topgan va o'z o'rnida ishlata olgan.

Ashur mo'ylov — G'ani A'zamov obrazi o'zining haqiqatchiligi, ilg'or, tushunchaliligi, yoqimli komikligi bilan tomoshabinlar xotirasida uzoq saqlanadi.

Yosh rejissor A. Qobulov «Imon» spektaklidagi muvaffaqiyati bilan hammamizni quvontirgan edi. «Olma gullaganda»da ham uning rejissor sifatida o'ziga xos uslubi ko'zga aniq tashlanadi.

*Tursun Sobirov, «Mahorat g'unchasi»,
«O'zbekiston madaniyati» gazetasi,
1961-yil, 22-mart, 23-son.*

«BIR KOSHONA SIRLARI» ASARI HAQIDA

Sarvar tadbirkor Diloraga uylanib, o'zi ham tadbirkorga aylanib katta boylik orttiradi, shohona imorat quradi, qo'sha-qo'sha avtomashinalar oladi. Biroq oilaviy baxt undan yuz o'giradi: rashk qilib ayolini uydan qaydab, undan sud orqali ajrashish, bolalarini o'z nomiga o'tkazib olish yo'lida ko'p aziyat chekadi. Shu orada onasi Mehriniso aya va o'zi hastalikka uchraydi. Mehriniso aya o'g'li dardida kuyuna-kuyuna dunyodan o'tadi. Sarvar qo'shnisi shifokor Darveshali va uning xotini Dilnozalarning mehribonligi

tufayli operatsiyadan tirik chiqadi. Shundan so'ng o'zidan ketgan Dilara va Sarvar insofga kelib tavba-tazarru yo'liga kirgandek bo'ladilar.

Asar Milliy akademik drama teatrida Turg'un Azizov rejissorligida sahnaga qo'yilgan. Asosiy rollarni ijro etgan aktyorlar: Behzod Muhammadkarimov (Sarvar), S. Yunusova, S. Rametova (Dilara), Ya. Abdullayeva, R. Ibrohimova (Mehrino aya), Z. Ashurova, M. Nurmatova (Gulnoza), E. Komilov (Darveshali) A. Abduvoqidov (Bo'rsiq), F. Abdullayev (Imom).

BIR KOSHONA SIRLARI

Birinchi parda

B o' r s i q. Jon xo'jayin. Qattiq gapirmang.

(Bo'rsiq kissasidan sotix telefonini olib teradi).

B o' r s i q *(shivirlab)* o'zlari...

S a r v a r. Bu men akosi, tanidilarmi? Tanigan bo'lsangiz tunov kuni olgan qarzlaringizni qaytarib bering, akosi. Ha, shu bugun. *(Quloq soladi.)* Nima, nima? Kerakli odamlarning og'izlariga tiqqanman? Vaziyat o'zgarib qoldi? Menga qarang akosi. Men vaziyat-paziyatlaringizni bilmayman. Qulog'ingizga quyib qo'ying. O'sha kuni Bo'rsiqvoyning uyida bergan va'dalaringiz, bir diplomat pulni bitta-bitta sanab olganlaringiz — hammasi kinoga olingan. G'iring desangiz, kassetani kerakli joylarga uzataman...

B o' r s i q *(hayratlanib).* Qanaqa kino? Qanaqa kasseta? Hech nima bo'lmagan edi-ku.

S a r v a r. Ishing nima? Bilib qo'y: bu aferistlar shohida yursa, kamina bargida yuraman. O'ziyam ishtonini bulg'ab qo'ydiyov, og'ayning.

(Telefonni Bo'rsiqqa otadi. Bo'rsiq arang tutib oladi.)

B o' r s i q. Shu ishingiz chakki bo'ldi-da, xo'jayin. Kerakli odam edi.

S a r v a r. Kerakli odam emish. Boshda, ishga olayotganda aytgan edim-ku senga, men bunaqa qalang'i-qasang'i aferistlar bilan ishlamayman deb. Basharasi yoqmagan edi uning. Umrida qorni to'ymagan shumshuk mushukka o'xshaydi. Boshqa topshiriqlarim nima bo'lyapti?

B o' r s i q. Qaysi birini aytyapsiz? Agar konvertatsiya bo'lsa, o'pkamni qo'ltiqlab bankma-bank yugurib yuribman, xo'jayin.

S a r v a r. Konvertatsiyani qo'yib tur. O'zim shug'ullanaman. Ko'rib turibman — qo'lingdan kelmaydi. Aytgan edim-ku: men uchun hayot-momot masalasi — farzandlarim taqdiri deb. Bu ish nima bo'lyapti? o'zing aytgan eding-ku, tomog'i teshik sudyani topdim deb.

B o' r s i q. Topgan edim. Ammo-lekin ayollar yili bo'ldi-ku bu yil.

S a r v a r *(hayron).* Ayollar yili bo'lsa nima bo'pti?

B o' r s i q. Nima bo'lardi? Ayollar dastidan teshik-teshikka kirib ketdi-ku erkak zoti. Xotiningiz Diloraxonni tili bir qarich bo'ldi-ku.

S a r v a r. Xotinim emas u. Taloq qilganman uni. Uch taloq. Farzandlarim kerak menga, farzandlarim.

B o' r s i q. Uch taloq tugul ming taloq qilsangiz ham sud ajrim qilmaganmi hali? Qilmagan. Ayollar yilida poraga sotilib, erkaklar foydasiga hal qilasanmi ishni deb, Diloraxon shunaqa o'yin ko'rsatyapti-ki, kiradigan teshik topolmay qopti tomog'i teshik sudya. Sichqonning ini...

S a r v a r (*bo'shashib*). Ming tanga de?

B o' r s i q. Ming tanga emish. Ming dollar deng, xo'jayin. Xotiningiz sudyaga hozir miyangni qatig'ini chiqaraman deb, stulni otgan ekan, sudya bechora stolining tagiga kirib ketibdi. O'xshayaptimi?

S a r v a r. Tushunmadim gapingga.

B o' r s i q. Xotiningizga o'xshayaptimi deyapman. Nimasiga tushunmaysiz?

S a r v a r. Buyog'i nima bo'ladi endi? Shu arzimagan ishning uddasidan chiqolmasang nimaga ishga oldim sen qorinvoyini. Nimaga to'layapman jaraq-jaraq pullarni.

B o' r s i q. Hali oqlaymiz non-tuzingizni. Ammo lekin... Bir qoshiq qonimdan kechsangiz cizga aytadigan bir gapim bor, xo'jayin. Menga qarang, jon og'ayni. Nima qilasz shu xotin bilan ajrashib? Axir insof bilan aytganda sizniyam, meniham odam qilgan shu xotin-ku? Kim edik bizlar? Men o'zingiz aytgan iprindi bir pattachi edim, bozorkom qildi. Siz tachka haydab yurgan bir yigitcha edingiz. Shu xotin sabab, millioner bo'ldingiz. Lekin uyam qanaqa juvon edi? Butun shahar uning super-market do'koniga mol olgani emas, husni-jamolini tomosha qilgani kelardi. Hozir ham ko'chada yursa ne-ne erkaklar qayrilib qaraydi. «Shahzodaning ishqiq baqaga tushibdi», — deganlaridek...

S a r v a r (*shartta yoqasidan oladi*). Nima demoqchisan, shaytonni yo'ldan urgan iblis? Dilor shahzoda sen qurbaqa eding demoqchimisan?

B o' r s i q. Yo'q-yo'q. Siz ham zo'r ekansiz, tachkachidan shu darajaga yetdingiz. Kimsan, Sarvar biznesmen, degan nom chiqardingiz. Mana bunaqa koshonalar qurdingiz.

S a r v a r. Kecha aytdim-ku senga. Mening shaxsiy ishlarimga aralashma deb... Shampaq qani? Jigar kabob, qayda?

B o' r s i q. Jon xo'jayin. Qo'ying shu ichkilikni. Kechasi yuragingiz yomon bo'lib, o'takamni yorib yubordingiz-ku, axir.

S a r v a r. Ichkilikdan emas, farzandlarimni sog'inganimdan darz ketyapti yuragim? Hoy, kim bor? Hamma o'lib qoldimi bu la'nati koshonada?

Ichkaridan «Sho'ttamiz, sho'ttamiz», degan ovozlar eshitaladi, so'ng bir yigit barkashda kabob va shampaq olib chiqadi.

S a r v a r. Ho'y. To'ldirib qo'y. Bu qorinvoyga ham.

B o' r s i q. Yo'q-yo'q. Bilasiz-ku, og'zimga ham olmayman, xo'jayin.

S a r v a r. Bilaman. Bir shoir: otadiganlardan yomonlik chiqmas ekan, otmaydiganlardan chiqar ekan hamma yomonlik, degan ekan. (*Ust-ustiga ikki qadah otadi*.)

B o' r s i q. Oling, olavering. Xizmatkorda zabon yo'q. Boshimizni egib turaveramiz. Ammo... egilgan boshni qilich kesmas, degan ekan bir mashoyix.

S a r v a r (*Hazilomuz*). Qilich xayf sen pattachining ahmoq boshingga. (*Birdan bo'shashib, o'zini kresloga tashlaydi*.) Jon do'stim. Bir balo qil bu ishni. Xohlasang «Mersedesim»ni ol. Istasang «Volgam»ni. Ammo bir balo qilib, to'g'rilab ber, bu ishni. O'g'ilcham meni qamchilab, eshshak qilib minganida, qizalog'im polga cho'kkalab tuya qilib o'ynaganida, mendan baxtiyor inson yo'q edi bu dunyoda. Gapimga ishon, do'stim.

Bo'rsiqvoy. Bo'rsiqqinam. Kechalari tushlarimga kiradi farzandlarim. Ular ham meni yo'qlashar emish. Yo'qlab yig'lashar emish. To'g'risini aytsam, hozirgacha pushaymon qilaman bu xotinning tuzog'iga ilinganimdan. Xotinning marhamati bilan, boyvachcha bo'ldi, degan umrbod o'chmas tamg'ani peshonamga bosib, boyvachcha bo'lish nima kerak edi menga? Undan ko'ra och qornim, tinch qulog'im deb, tachkamni sudrab yuraversam bo'lmasmidi, og'ayni? (*Darvoza qo'ng'irog'i qattiq jiringlaydi. Temir eshikda Dilor a ko'rinadi. U yo'lini to'sgan qorovulni itarib yuborib ichkariga kiradi*).

B o' r s i q (*shivirlab*). Qizni yo'qlasak ham bo'larkan. Ana keldilar, sizni boyvachcha qilgan xonimcha.

D i l o r a (*qorovulga*). Daf bo'l, hezalak. Yo meni tanimadingmi, muttaham?..

Ikkinchi pardadan

D i l o r a. Oyijonim. Oyijonginam. Kimlarga tashlab ketdingiz bizni.

G u l n o z a (*uni quchib*). Qo'ying, o'zingizni bosing, opajon...

I m o m. Sabr qiling, qizim. Insho ollo maassobirin. Inchunin: Ollo sabr qilguvchilar bilan birgadir, deganlar. Sabr qiling, bolam. Endi bizga ruxsat bersalar...

B o' r s i q. Hozir, taqsir, hozir. Xo'jayin Sizga o'z izzati ikromlarini shaxsan izhor qilmoqchilar... Mana, o'zlariyam...

(*Koshona zinasida egnida beqasam to'n, belida belbog' boshida do'ppi, Sarvar chiqadi. Juda ozgan, yuzlari so'liqqan. U shiyponga kelib o'tiradi*).

S a r v a r. Sizga katta rahmat, taqsir.

I m o m. Sizga ham rahmat, uka. Onaizorining ruhini shod etgan farzand, u dunyo, bu dunyo Allohning inoyatiga sazovor bo'lgusidir. Endi bizga ruxsat, ukajon.

S a r v a r. Bir daqiqa sabr qilgaysiz, hazratim. Gunohkor banda, o'lim to'shagida yotganimda bir niyat qilgan edim. Shu niyatimga oq fотиha bersangiz...

I m o m. Jonim bilan inim.

D a r v e s h a l i. Bo'lmasa bizga ruxsat, Sarvarbek.

S a r v a r. Yo'q, sizga ham ruxsat yo'q, do'xtir. Qilgan niyatimning sizga ham daxli bor... Gap shundaki, aziz taqsir, Onaizorim, validam, mehribonim men sabab olamdan o'tdilar, men takabbur banda esam tirik qoldim.

I m o m. Bunday demang, inim. Bu bebaho dunyoda neki ish sodir bo'lsayam bari Allohning irodasidandir, uka.

S a r v a r. Xullas kalom, bu ko'rguliklardan keyin, kamina bu o'tkinchi dunyoning barcha lazzatlaridan voz kechib, Hajga ketishni niyat qildim.

I m o m. Barakallo, uka, barakallo. Ko'p yaxshi ishga bel bog'labsiz. Haj — musulmonchilikning beshta farzidan biridir. Alhamdulillah, Siz ham musulmonsiz. Niyatingizga yeting.

S a r v a r. Tashakkur, hazratim. Toki, muqaddas makonlarimiz Makkai Mukarrama va Madinai Munavvarani ziyorat etsam, dargohi ilohiy va janob payg'ambarimiz qabrini ziyorat qilsam... barcha gunohlarimni yodimga olib tavba-tazarru etsam deyman, taqsir.

I m o m. Ilohi ovmin.

S a r v a r. Siz hazratimdan iltimos: bandai ojizning bul niyatini mahalla aqli va masjidimiz qavmiga yetkuzsangiz...

I m o m. Bajon-u dil, bajon-u dil...

S a r v a r. Yana mahalla ahliga yetkazsangizki, osiy banda shu mahallada istiqomat qilib, kimlargaki ozor bergan bo'lsam, ularning har biridan kechirim so'rayman. Mabodo Hajda biror kori hol yuz berib, qayta ko'rishmoq nasib etmasa...

D i l o r a. Qo'ying bunaqa gaplaringizni. (Yig'lab) undan ko'ra, yaxshi niyat qiling.

S a r v a r. Yana bir niyatim: kecha Haj safariga otlanishdan avval mahalla masjidiga bir million so'm xayri ehson qildim...

I m o m. Olloi taolo o'z dargohida qabul qilg'ay bu ehsoningizni...

S a r v a r. Mahalla kam-ko'stlari va yetim-yesirlari uchun o'n million so'm qoldirdim...

D i l o r a (*sekin*). Muncha ko'p. Besh million ham yetar edi.

S a r v a r (*unga quloq solmay*). Bu pullarning hammasini shu bugun, kechi bilan ertaga manovi Bo'rsiqvoy... mening yordamchim yetkazib beradi sizlarga.

(Muallif qo'lyozmasi
asosida chop etildi).

“BIR KOSHONA SIRLARI” IJROCHILARI HAQIDA T. AZIZOV SHARXI

Asar meni o'zining zamonaviyligi bilan maftun etdi. Odil Yoqubov yetmish yoshida ham insonlarning qalbini yaxshi bilishi meni yana bir marta qoyil qoldirdi. Nazarimda, Odil akam o'zbek yozuvchilari orasida istiqloq davri qahramoni qanday bo'lishi kerak degan savolga birinchi bo'lib javob berganlar...

Sarvarning xotini Dilorom obrazini O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist S. Yunusova va S. Rametova ijro etadilar. Sayyora Yunusovaning aktyorlik ampulasiga bu rol mutlaqo qarama-qarshi edi. Lekin Sayyora o'ziga xos nozik xarakter topa oldi va ta'sirchan obraz yaratdi. Saida Rametova bu rol tashqi qiyofasi va ichki dunyosi bilan ancha yaqin edi. Shuning uchun Saidaxon obraz ustida tinmay mehnat qilib kuchli obraz yaratdi.

Sarvarning onasi Mehriniso obrazini O'zbekiston xalq artistlari Yayraxon Abdullayeva va Rixsixon Ibrohimovalar yaratdilar.

Yayraxon chuqur tragizmi bilan kishini maftun etsa, Rixsixon shirinsuhanligi, mehribonligi, zahmatkashligi bilan tomoshabinga yoqib qoldi.

Sarvarning qo'shnisi mashhur jarroh, qaysar, to'g'riso'z tabib Darveshali obrazini O'zbekiston xalq artisti Erkin Komilov mohirona ijro etdi. Murakkab kuchli xarakter yaratib ko'pchilikni hayratga soldi.

Ikkinchi ijrochi O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Qahramon Abdurahmonov tinimsiz mehnati, zamonaviy fikrlashi tufayli o'ziga tabiatan yaqin bo'lmagan shifokor obrazini ancha yaxshi yaratdi.

Turg'un Azizov. Mening rejissyorlik ishlarim
2003 yil 99-100 betlar.

O'LMAS UMARBEOV

(1934—1994)

O'lmas Umarbekov badiiy ijodi va tashkilotchiligi bilan o'zbek teatri va kino san'ati taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan san'at arboblardan edi. U Toshkentda tavallud topdi, o'rta maktab ta'limini olgach, Toshkent Davlat universitetining filologiya fakultetida tahsil ko'rdi va mehnat faoliyatini 1956-yili Respublika radiosida oddiy muharrirlikdan boshladi. Qariyb o'n yilga yaqin muddat davomida u «O'zbekfilm»ga rahbarlik qildi, 1982-yildan O'zbekiston Madaniyat vazirining muovini, so'ng vaziri, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining raisi (1985) kabi mas'ul lavozimlarda ishladi.

O'lmas Umarbekov o'nlab hikoyalari, qissa va romanlari e'lon qilinib, nasr ustasi sifatida tanilgach, dramaturgiyaga kirib kelgan. 1971-yili hozirgi A. Hidoyatov nomidagi teatrdan sahnalashtirilgan «Oqar suvlar» (rejissor U. Baqoyev) uning ilk pyesalaridan biri bo'ldi. Uning pyesalari dolzarb muammolar haqida bo'lgani uchun darhol teatrlar e'tiborini tortdi. 1974-yili akademik drama teatrida «Komissiya» (rejissor B. Yo'ldoshev) dramasi sahnaga qo'yiladi. O'. Umarbekovning rejissor Rustam Hamidov bilan surunkali hamkorligi ayniqsa barakali bo'ldi. Shu hamkorlik tufayli uning «Qiyomat qarz» (1977), «Shoshma quyosh» (1978), «Kuzning birinchi kuni» (1980), «Arizasiga ko'ra» (1982), «Kurort» (1985) pyesalari yaratilib, akademik teatr repertuaridan o'rin oladi.

«Ikki soldat haqida qissa», «O'zgalarni deb», «Qalin qorlar bag'ridagi uchrashuv» kabi filmlar O'. Umarbekov ssenariysi asosida yaratilgan. Uning vafotidan so'ng chop etilgan romani asosida 1997-yili Muqimiy nomli musiqali teatrdan «Fotima va Zuhra» (rejissor va ssenariy muallifi R. Ma'diyev) spektakli yaratildi. O'. Umarbekovga O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi va O'zbekiston xalq yozuvchisi unvonlari berilgan.

O'LMAS UMARBEOV ASARLARI HAQIDA MATBUOT SHARHLARI.

«KOMISSIYA»

Pyesa va spektaklni diqqat bilan kuzatar ekansiz, rasmiy to'g'rilik va vijdon pokligi, har ikkisi ikki xil olam ekani fikrni chulg'aydi. Masalaning shunday qo'yilishi va idrok etilishining o'zi e'tiborga loyiq emasmi? Endi uning ifoda usuliga kelganimizda, avtor insonning so'zlab bo'lmaydigan muhokamasini, yashashdan maqsadining sharti bo'lgan sifatlarini o'z ko'rinishida bayon etishga qaror qiladi. Vijdon bulg'anch bo'lib umr ko'rishdan kattaroq fojia yo'q. Uni hech qanday mehnat, fidoyilik ham yuvolmaydi. Lekin buni hamma ham his etishni istaydimi? Ana shunday vijdon bulg'anchligi Said Karimovni bir umr qiynaydi... Teatr pyesani odamiylik va baxt haqida bahs, uning mashaqqatlari haqidagi mulohazadek talqin etadi. Bu bahs insonlarning taqdirida, tanho muhokamasida, boshqalar bilan muloqotida o'rta qo'yiladi...

*Toshpo'lat Tursunov, san'atshunoslik doktori, professor.
«O'zbekiston madaniyati» gazetasi,
1974-yil, 30-aprel.*

«KUZNING BIRINCHI KUNI»

Akademik teatrdagi rejissor R. Hamidov xuddi pyesaning o'zidek izoh, ta'kid va bo'rttirishlardan xoli bo'lgan, o'z oddiyligi, samimiyligi bilan diqqatimizni tortuvchi spektakl yaratgan. Sahna o'rtasida ko'ndalang tiklangan yengilgina devor zarur shart-sharoitlarni yaratuvchi vosita o'rnida xizmat qiladi. Sahna aylanishi bilan goh Shokir aka xonadoni, goh Qumri xola, To'laganovlar uylarida zarur stol va stullardan tashqari uy jihozlari ham ko'zga tashlanmaydi. Masalan, To'laganovlar xonadonini kamyob jihoz, qimmatbaho buyumlarga to'ldirib yuborsa ham bo'lardi. Bu albatta mazkur xonadonning yashash tarziga ham mos tushgan bo'lar edi. Lekin rejissor bu yo'lni tanlamaydi, balki avtorga hamohang bo'lib, pyesaning tub mohiyatini ochishga urinadi. Spektaklda kishini mulohazaga tortuvchi, hayajonga soluvchi epizodlar anchagina. Xususan, final sahnasi dramatik keskinligi, ma'nodorligi bilan pyesa mundarijasini yanada boyitgan. Shokir akajasadining e'tiborsiz cho'zilib yotishi, vahimaga tushgan uch yigitning qotib turishi, telefon qo'ng'irog'ining to'xtovsiz, dahshatli jiringlashi, sahna aylanishi bilan otalarning alamli nigohlarining farzandlari nigohiga ro'baro' kelishi — bularning jami xudbinlik, soxtalik va manmanlik ustidan chiqarilgan hukm ma'nosida ta'sir etadi.

Shokir aka obrazini Zikir Muhammadjonovning keyingi davrdagi eng jozibador obrazlari qatoriga qo'ysak bo'ladi. Marg'ilonning oddiy xonadonidan chiqib, hayotini mas'uliyatli va sharaflilik bilan bog'lagan Shokir aka aktyor talqinida hayotga oshiqchilik, serzavqlilik bilan ko'zga tashlanadi. «Qarg'alar uchsa qaraylik Marg'ilonning yo'liga» satrlarini xirgoyi qilar ekan, uzoq o'tmish, yoshlik onlari, Oynisa bilan o'tgan totli damlarini jonlantirib yuboradi.

Yoqub Ahmedov professor To'laganov rolidagi ishbilarmon, omilkor shaxs qiyofasini chizadi. Aktyorning tig'iz harakatlari, tezkor so'z va muomalalari, kayfiyat o'zgarishidagi qovushimlilik — bularning barchasi har bir ishni aniq mo'ljal bilan yeng ichida pishiradigan To'laganov xarakteri uchun organik ravishda singib ketgan.

Pyesada aktyorlar uchun ko'pchilik rollarning ayrim jihatlarinigina ilib olish imkoni berilgan. Ikroma Boltayeva soddadil ishchi, o'z farzandining osoyishtaligini o'ylagan mushtipar ona qiyofasini chizishga uringan bo'lsa, Rixsi Ibrohimova yo'lovchi ayolning voqealarga nisbatan hayajonini nuqul bir gapni takrorlayverishi orqali ifoda etadi. Ramz roli Qahramon Abdurahimovning so'nggi davridagi yirik rolidir. Fojiaga olib keluvchi harakatning bosh sababchisi bo'lmish Ramz asabiy, beandisha shaxs tarzida talqin topgan.

*Sotimboy Tursunboyev. «O'zbekiston madaniyati»
gazetasi, 1981-yil, 13-fevral.*

«SHOSHMA QUYOSH».

SORA ESHONTO'RAYEVA SANOBAR ROLIDA

Garchi Sanobaning 20 va 40 yoshligi bo'lib Shukurjon Safoyeva va Rixsi Ibrohimova chiqsa-da, bari bir 60 yoshli Sanobar — S. Eshonto'rayeva butun voqealarni aqldan, qalbdan o'tkazadi. Har qanday ijrochi uchun bu o'ta murakkab ish. Ammo mohir san'atkor Sora Eshonto'rayeva bunday ulkan ijodiy — psixologik yukni ko'tardigina emas, qahramonning holatlari silsilasini kuchli emotsional bo'yoqlarda, tomoshabinlarni larzaga soladigan darajada ta'sirli qilib ifoda qildi... Sanobar o'z ishi, o'z so'ziga qattiq ishonadigan, o'ylaganini izchil amalga oshiradigan, mehnatkashning boshini silab, ko'ngli qora, jamoat ishiga to'sqinlik qiluvchilarni sira ayamaydigan ajoyib rahbar sifatida

gavdalanadi. Umuman, spektaklda uch ijrochi birga bo'lib, Sanobar xarakterining shakllanish jarayonini, hayot yo'lini va fojiasi halqalarini ishonarli qilib ko'rsata oladilar.

*Muhsin Qodirov, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan
fan arbobi. «O'zbekiston madaniyati» gazetasi,
1981-yil, 20-fevral, 15-son.*

RUSTAM HAMIDOV

O'zbekiston xalq artisti Rustam Hamidov 1990 yillardan e'tiboran "Navro'z", "Mustaqillik" va boshqa yirik sanalarga atalgan teatrlashgan tomoshalar badiiy rahbari va rejissori sifatida maydon san'ati estetik tamoyillariga asos solgan, 1973-1993 yillarda Milliy akademik teatrdan rejissor va bosh rejissor sifatida ishlab, milliy sahna san'ati rivojiga munosib hissa qo'shgan ijodkorlardan biridir.

R.Hamidov 1949 yili Toshkentda tug'ilgan. 1972 yili Toshkent san'at instituti rejissorlik bo'limini tugatgan.

Rejissor ijodining alohida ko'zga tashlanib turuvchi xususiyatlaridan biri aktyor layoqatini ochishda namoyon bo'ldi. Agar "Qiyomat qarz", "Shoshma quyosh", "Kuzning birinchi kuni" spektakllarida Sh.Burxonov, S.Eshonto'rayeva, Z.Muhammadjonov kabi ulkan aktyorlar iste'dodining yangi qirralari namoyon bo'lgan bo'lsa, I.Sultonovning "Ko'rmayin bosdim tikanni", Shekspirning "Koriolan", S.Axmadning "Kuyov" asarlari asosidagi spektakllarida Yayra Abdullayeva, Tesha Mo'minov, G'ani A'zamov va boshqa aktyorlar yangi ijodiy na'munlari bilan ko'rindilar.

«QIYOMAT QARZ» ASARINING YARATILISHI HAQIDA

RUSTAM HAMIDOV SHARHI

«Qiyomat qarz» kichkinagina hikoya edi. Dastlab O'lmas aka uni pyesaga aylantirgan ekan.

O'lmas aka bir kuni meni ko'rib qolib, pyesaning taqdirini so'rab qoldi.

— Xabarim yo'q, — dedim, ancha bo'luvdimi topshirganingizga?

— Bir yarim yilcha bo'luvdi, — dedi adib.

— Men o'qib ko'ray, — dedim. O'qisam yaxshi pyesa. Keyin ijodiy kollektiv bilan birgalikda o'qidik. Aktyorlarga manzur bo'ldi. Hamma bir ovozdan: «Pyesa Shukur aka uchun yozilibdi», — dedi... Ilk repetitsiyani, ishonsangiz, Shukur akaning uyida boshlaganmiz. Shukur aka ish boshladimi, oxiriga yetkazmay qo'ymaydi. Bu yog'idan xotirjamman.

— Sulaymon ota bu Shukur akaning o'zi... Shukur akaning odati juda ajoyib edi, kim nima deb iltimos qilsa, yelib-yugurib yordam beraverardilar. Saylanmagan xalq deputati edilar...

— Nuqul teatrdan chiqib «Rustamjon, yur, bozordan qovun olamiz», derdilar. Shu desangiz bozor oralab ketamiz. Men qovun tanlash bilan ovoraman, u kishining parvosi yo'q. Bozorni obdon aylanib chiqib ketamiz. Men eslataman: «Shukur aka qovun olmaysizmi?» Shukur akaning bo'lsa ko'zi qovun sotayotgan cholda bo'ladi. «Qovun buyoqda» deyman, «Qo'yaver», — qo'l siltaydi u kishi, — anavi cholni ko'rayapsanmi? Ha, balli, soqolini, kiyim-boshini qara. Ana o'sha Sulaymon ota... Shukur aka Sulaymon otani izlab yurgan ekanlar...

SHUKUR BURHONOV SULAYMON OTA ROLIDA MOSKVALIK ALLOMA SHARHI

O'lmas Umarbekovning «Qiyomat qarz» dramasi O'zbekistonning eng talantli, shuhratli aktyorlaridan biri Shukur Burhonov talantining yangi qirrasini ochdi. Shukur Burhonov ijro etgan Sulaymon ota roli artistni epizoddan-epizodga, janrdan-janrga o'tishga majbur qiladi: dramadan komediyaga, komediyadan yana dramaga, ba'zi o'rinlarda voqea tragediyaga nihoyatda yaqin borsa, gohida vodevilga o'tib ketadi. Ushbu murakkabevolutsiyalarni Burhonov hayron qolarli darajada sodda, tabiiy, hech qayerida haqiqatdan chekinmagan holda, xalq xarakteri izmida ijro etadi. Barcha kolleziyalarda — g'am-kulfatda ham, kuchga to'lganda ham pyesaning bosh mavzusiga sodiq qoladi, ya'ni urushda halok bo'lgan, uning qahramoni uchun qutlug' bo'lgan odamni xotirasida saqlab turadi.

K. Rudnitskiy. «Talantlar hamkorligi»,
«Pravda» gazetasi, 1977-yil, 29-aprel.
«O'zbekiston madaniyati» gazetasi,
1977-yil, 4-may.

«Qiyomat qarz» spektakli premyerasi (rejissor R. Hamidov, H. Qo'chqorov) 1976-yil 26-dekabrda o'tgan. Bosh rollarda Sh. Burhonov, T. Oripov, A. Turdiyev, H. Nurmatov, D. Ismoilova kabi aktyorlar chiqqanlar.

Quyida Sulaymon otaning No'monjon bilan uchrashuv sahnasi berildi.

QIYOMAT QARZ

(To'qqizinchi ko'rinishdan parcha)

Sulaymon ota. No'monjon!

Nazarov. Xo'sh? Keling.

Sulaymon ota. Xo'shing nimasi. Meni tanimadingmi?

Nazarov. Kimsiz? Yo'q, tanimadim.

Sulaymon ota. Barakalla!.. O'zim ham tanimaysan deb o'ylovdim.

Men seni tanidim. Darror tanidim? Ko'rdim-u darrov tanidim.

Nazarov. Juda yaxshi. Keling?

Sulaymon ota. Yana keling, deydi-ya! Tavba! Men Sulaymon otang bo'laman.

Nazarov. Sulaymon ota?

Sulaymon ota. Ha! Zarkatlik Sulaymon ota!

Nazarov. Keling, ota keling.

Sulaymon ota. Taniding! Taniding! (*Sulaymon ota qopini tashlab, quchoqlarini yozib Nazarov qarshisiga yura boshlaydi*). Seni topadigan kun ham bor ekan! No'monjon!

O'g'lim! (*Nazarov uyalingqirab o'rnidan turadi. Sulaymon ota uni bag'riga bosib, yig'lab yuboradi.*)

N a z a r o v. O'zingizni bosing, ota. O'zingizni bosing.

S u l a y m o n o t a. Qanday bosay, o'g'lim?! O'ttiz yil kutdim seni. Yo'lingga ko'zlarim to'rt bo'ldi. Ko'rmay o'lib ketamanmi, deb qo'rquvdim, Zebi xolangga o'xshab.

N a z a r o v. Kim u?

S u l a y m o n o t a. Zebi xolangni unutdingmi? Xotinim-da. Har kuni qatnardi-ku oldingga. Quymoq qilib.

N a z a r o v. Ha, esladim, esladim.

S u l a y m o n o t a. Eslamay ham ko'r-chi! Obbo, No'monjon-ey! Qayonlarda seni qidirib yuribman! Sen bo'lsang ikki qadamlik joyda ekansan. Nega jimib ketding. A? Yo xafa bo'luvdingmi?

N a z a r o v. Yo'g'-e, nega xafa bo'lay. (*Sekretarga.*) Siz boravering. (*Sekretar chiqib ketadi.*) Tinchmisiz, ota? O'tiring, o'tiring. (*O'tiradi.*)

S u l a y m o n o t a. Menga nima qilardi? Men tinchman. O'zing qalaysan?

N a z a r o v. Yaxshi. Ko'rib turibsiz.

S u l a y m o n o t a. Ha, ko'rib turibman. Ishlaring yaxshiga o'xshaydi. Katta odam bo'lib ketibsan. Qachon ulgurding-a? Urushdan kela solib, yana o'qishga berilibsan-da, a?

N a z a r o v. Urushda bo'lganim yo'q. Shu yerda kerak ekanman, olib qolishdi.

S u l a y m o n o t a. Shundoq de... Biz bo'lsak... Zebi xolang bilan urushdasan deb yuribmiz... Yaxshi, yaxshi. Demak, o'sha ketganingcha shu yerdasan?

N a z a r o v. Ha, ikki o'g'il, bir qizim bor. Katta o'g'lim institutni bitirdi. U ham menga, onasiga o'xshab doktor bo'ldi. Bultur uylantirdik.

S u l a y m o n o t a. Yaxshi, yaxshi. Kelin qayerlik?

N a z a r o v. Shu yerlik. Birga ishlaymiz.

S u l a y m o n o t a. Yaxshi, yaxshi... Biz bo'lsak... Zebi xolang bian seni kutdik. Ko'zimiz eshikda bo'ldi har kuni. Yaxshi, yaxshi.

N a z a r o v. Xolam qachon qazo qildilar?

S u l a y m o n o t a. Yigirma sakkiz yil bo'ldi.

N a z a r o v. Kasalmidilar?

S u l a y m o n o t a. Kasal? Yo'q... Kasal bizda nima qiladi? Qarilik.

N a z a r o v. Ha, qarilik, o'lim har kishining boshida bor. Choy buyuraymi?

S u l a y m o n o t a. Shunday qilib, bola-chaqalikman, degin, katta o'g'limni uylantirdim, degin.

N a z a r o v. Ha, kichkinasining ham bo'yi yetib qoldi.

S u l a y m o n o t a. Yaxshi, yaxshi. Ishqilib, o'zingdan tinchigan ekansan, o'zingga to'q ekansan... Men bo'lsam, ming xil xayolda yuribman. Kutdim avval, keyin halok bo'lgansan deb o'yladim. Urush bo'lgan joylarda qabringni ham qidirdim... Yana kutdim. Keyin o'lib qolsam nima bo'ladi, deb yana qidirdim... Sen bo'lsang tirik ekansan. Tirik... Menga qara, No'monjon. Nega xabar barmading-a? Zebi xolang seni yaxshi ko'rib qoluvdi. O'zi seni uylantirmoqchi edi...

N a z a r o v. Ishchilik, ota. Keyin har holda... judayam...

S u l a y m o n o t a. Har holda begonamiz demoqchisan?

N a z a r o v. Unchalik emas-ku, lekin...

Nevaralaringizni ko'rasiz. Ikkita qo'y shuncha bo'lib ketadi, deb hech o'ylamagan edim. Obbo, Sulaymon ota-ey, Sulaymon ota-ey...

Telefon trubkani oladi.

Sulaymon ota. To'xta.

Nazarov. Yo'q, yo'q! Uyga bormasangiz bo'lmaydi.

Sulaymon ota. Borolmayman.

Nazarov. Nega?

Sulaymon ota. Hozir ketaman. Ishim bor.

Nazarov. Qanaqa ish. Birga qilamiz!

Sulaymon ota. Yo'q, bu ishni sen qilolmaysan, senga bu ishni topshirib bo'lmaydi, menga qara, shu ikkita qo'y tashlab ketganing rostmi? Menga tashlab ketganmiding?

Nazarov. Ha, hozirgidek esimda turibdi.

Sulaymon ota. Hozirgidek degin. Qo'y esingda turibdi-yu, butun boshli odamni unutibsan-da... Yaxshi... yaxshi... Bilasanmi, hamma qo'y ham ko'payavermaydi. Sening qo'ylaring ko'paymadi. To'rt yuzta qo'yning egasi boshqa odam. Kiyevda u. Har yoz ziyorat qilib kelaman. Uchta inisi bor. Bir-biridan yaxshi yigitlar.

Nazarov. To'xtang, to'xtang! Hozir seniki to'rt yuzta bo'lgan deyotuvdingiz. Endi egasi boshqa odam deysiz. Bu qanday bo'ldi? Mening mollarimni birovga berishga haqqingiz yo'q. Shikoyat qilaman.

Sulaymon ota. Shikoyat? Kimga? Sudgami? Undan nariga bor.

Nazarov. Iyya, qanaqa odamsiz o'zi? Urushga ketayotib, ikkita qo'y berib ketganim rost-ku, axir!

Sulaymon ota. Endi o'zingga kelding. Ikkita qo'y berib ketganing rost. O'ttiz yildan keyin qo'ylaring harom o'ldi, desam ham bo'lardi. Lekin Sulaymon ota g'irrom odam emas. Mana, seni haqing shu. (*Sulaymon ota ikkita yuz so'limkni Nazarovning oldiga tashlaydi.*) Oramiz ochiq endi. Istasang, qishloqqa borib qo'ylaringni olib kel. Hamma biladi. Bo'yniga qizil lenta boylab qo'yganman.

Sulaymon ota keta boshlaydi.

Nazarov. Ota! To'xtang!

Sulaymon ota. Men senga ota emasman. O'sha o'ttiz yil oldin mening oldimdan urushga ketgan yigitga otaman. Bu dunyoda ham, u dunyoda ham. Senga emas. (*Chiqib ketadi. Nazarov xayol surib qoladi.*)

ERKIN VOHIDOV

(1936)

Atoqli shoir, dramaturg, jamoat arbobi Erkin Vohidov 1936-yili Farg'ona viloyat Oltiariq tumanida o'qituvchi oilasida tug'ilgan. Otasi frontda halok bo'lgach, 1945-yili onasi bilan Toshkentga ko'chib kelgan. Toshkent Davlat universiteti filologiya fakultetida tahsil ko'rgach, 1960-yildan «Yosh gvardiya», so'ng G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyotlarida muharrir, bosh muharrir va rahbarlik lavozimlarida ishlagan. Hozirgi kunda u O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Parlamentlararo hamkorlik qo'mitasiga boshchilik qilib keladi. Unga 1995-yili «Buyuk xizmatlari uchun» ordeni va keyinroq O'zbekiston qahramoni unvoni berilgan.

Erkin Vohidov «Nido» (1964), «Palatkada yozilgan doston» (1966), «Yoshlik devoni» (1969) singari doston va she'riy to'plamlari nashr etilib, yirik shoir sifatida tanilgach, dramaturgiyaga kirib keldi. 1970-yili hozirgi Milliy akademik drama teatrida uning «Oltin devor» degan birinchi pyesasi sahnaga qo'yiladi. Shu bo'yi E. Vohidov pyesasini sahnaga qo'ygan rejissor Toshxo'ja Xo'jayev boshliq ijodiy jamoaga bog'lanib qoladi. «Men undagi birorta ham premyerani qoldirmaslikka harakat qilaman, hatto soatlab repetitsiyalarni ham kuzataman» degan edi. Lekin uzoq yillar pyesa yozmay qo'yadi. «Drama yozish uchun nihoyatda katta muhlat, uch-to'rt oy kerak, xotirjamlik ham, — degan edi, — pyesani hech qachon bo'lib-bo'lib yozib bo'lmaydi. Uni yaxlit o'tirib yozish zarur, ishonchim komilki, ana shunday vaqtga muyassar bo'laman». Shunday o'ylangan pyesa 1988-yili «Istambul fojiasi» nomi bilan akademik teatr sahnasidan o'rin oldi. (rejissor N. Otaboyev.)

Bulardan tashqari, ilgari yozilib faqat istiqlool davrida dunyo yuzini ko'rgan «Ikkinchi tumor» tragikomediyasi hamda «Oyjamol» opera librettosi E. Vohidov dramaturgiya ijodini janr nuqtayi nazaridan ham boyib borayotganini ko'rsatadi.

ERKIN VOQIDOV SAN'AT HAQIDA

Yuksak tog' cho'qqisiga chiqib, kenglikka qarasangiz ko'nglingiz allaqanday shukuh bilan to'ladi. San'at men uchun ana shunday yuksaklikdir. Dunyoning mayda-chuyda hoy-u havaslaridan baland ko'tarilishdir.

*E. Vohidovning «San'at» jurnalining 1991-yil
2-sonida chop etilgan dasxati.*

Ijodkor o'zining ijodiy mahsuli bilan xalqni bahramand etadi. Insonning, ayniqsa, ijodkorning ruhiy holati tez-tez o'zgarib turadi. Ba'zida faqat o'zingiz bilan o'zingiz ichki tuyg'ularga berilib tanho qolasiz...

Har bir inson doimo intilishda bo'ladi. Insonning o'zidan qoniqmasligi uni harakatga undaydi. Menda faxrlanishdan ko'ra qoniqtirmaslik holati ko'proq bo'ladi. Ba'zan ko'p ishlarni qilishga ulgurmayotganday his qilaman. Faxrlanish haqida gapiradigan bo'lsam, avvalo, shu yurtga kerak bo'lganimdan, mustaqil yurtimizning poydevorini mustahkamlashga xizmat qiladigan qonunlar ustida ozmi-ko'pmi ishlayotganimdan faxrlanaman. Ijodga kelsak, kam yozish ofat emas, yomon yozish ofat. Xullas, ijodkor hamisha zamonga hamohang ravishda o'z ijodini yangilab turishi, o'zini takrorlashdan yiroq bo'lishi kerak, deb o'ylayman.

«ISTAMBUL FOJIASI» HAQIDA

Shoir va dramaturg Erkin Vohidovning «Istambul fojiasi» pyesasi jiddiy saviyada yozilgan va sahnalashtirilgan. Hamza nomidagi akademiik teatrimiz ko'pdan beri bunday asar qo'ymagan edi. Drama his-tuyg'ularga to'la, jo'shqin, hayajonli, tomoshabinni hayotimiz silsilalariga befarq qaray olmaydigan darajada tutadigan asar!

Bu asar bugungi kunimizning, qayta qurayotgan tuzumimizning oshkoralik bilan hamma narsani halol, samimiy kuylayotgan kunimizning jiddiy mevasi. Dramaturgiya san'ati bu — ko'rib, tasavvur etib, boshdan kechirib, hayajonda o'tiradigan teatr san'ati. Uning qudratini idrok etishimizda teatr san'atkorlari yordamga keladilar. Muallifning hayajonini, dard-alamini, fikr-mulohazalarini bo'lishadilar...

*Turob To'la, «Sovet O'zbekistoni»
gazetasi 1988-yil, 12-may, 109-son.*

«Istanbul fojiasi» faqatgina dramaturgiya janrida emas, umuman 80-yillar o'zbek adabiyotining ham eng yaxshi asarlaridan biri sifatida e'tirof etildi. Asarda hayotimizning muhim jihatlari qalamga olingan, hayot to'zonlari, zamon ziddiyatlari ichida gangib, adashib qolgan kishilar fojiasi ko'rsatilgan, qahramonlarning hayot yo'li, murakkab taqdiri davrning yetakchi tarixiy-ma'naviy muammolari bilan chambarchas aloqada tasvirlanadi. Drama sujeti unchalik murakkab emas. Bir qorindan talashib tushgan aka-uka Jalol va Iskandarlar muhabbat tufayli raqibga aylanadilar, aka-ukasi sevib qolgan qizni yo'ldan uradi, alamiga chiday olmagan uka esa o'zini qo'ygani joy topolmay, ko'ngilli bo'lib frontga jo'naydi. Qismatni qarang-ki, ana shu aka-uka va ular orasidagi ziddiyatga sababchi bo'lgan ayol — Saodat qirq yildan keyin xorijda uchrashib qolishadi.

*Rahmatilla Inog'omov. «Shoirning e'lon qilinmagan
dramasi», «Teatr» jurnali, 2001-yil, 4-son.*

«OLTIN DEVOR»

Komediyada eski devor oralig'idan bir xumcha tilla topib olib, qayerga qo'yarini, nima qilarini bilmay savdoyi bo'lish darajasiga yetgan do'kon qorovuli Mo'min akaning kulgili, ayni chog'da achinarli taqdiri haqida hikoya qilingan.

Asar premyerasi 1970-yilning 20-martida o'tgan. Rejissor Toshxo'ja Xo'jayev; bosh rollarni G'. A'zamov (Mo'min), A. Turdiyev (Abdusalom) S. Karimova, I. Boltayeva (Hurinisa)lar ijro etishgan.

Asar Pokistondagi Al-Hamro teatrida ham sahnalashtirilgan va deyarli barcha viloyat teatrlari repertuaridan o'rin olgan.

Quyida Mo'min obrazi bilan bog'liq lavhalar berildi.

Mo'min. E xudo! Men senga nima yomonlik qildim. Men sendan oltin so'rganmidim! Ol, oltinlaringni. Ber mening xotirjamligimni. Yuragim ezilib ado bo'ldi-ku.

(Oltin solingan xaltachani yerga otadi. So'ng yana vasvasaga tushadi.)

Yerda oltin yotipti. (*Xaltachani olib bag'riga bosadi.*)

Yo'q, buni hech kimga bermayman. Qayerga berkitsam ekan?

(*Oltin solingan xaltachani berkitmoqchi bo'lib joy qidiradi. Ko'rpachaning tagiga qo'ysa, do'ppayib qoladi.*)

Ha, do'ppaymay o'!! (*Qidira-qidira samovarning tagiga yashiradi. O'zicha xotirjam bo'ladi. «Lekin hukumat odamlari topib olishmasmikin» degan xayol bilan ko'chaga chiqib, tashqaridan eshikni taqillatadi. Begona ovoz bilan chaqiradi.*) Mulla Mo'min, xo' mulla Mo'min! (*Tovushga Zuhra ichkaridan yugurib chiqadi. Mo'min gerdayib, o'zicha «Hukumat odami» bo'lib kirib keladi. Zuhra otasining ishini ko'rib qo'rqib ketadi va ichkariga qochadi.*)

Ho'sh, mulla Mo'min, qani oltinlarni topshirib qo'ying. Ha, topshirmaysizmi? Mayli, o'tiravering. O'zimiz topib olamiz. Qani, mahalla faollari kiraversinlar.

(*U yoq-bu yoqni qaragan bo'lib, samovar yoniga keladi. O'zi cho'chib ketadi.*) Voydod, ko'rinyapti. Topib olishadi. Qayerga berkitsam ekan. Ha, suratimning orqasiga berkitaman. (*Devordagi suratning orqasiga oltinlarni berkitadi. Har tomondan qaraydi.*) Eshik tomondan ham ko'rinmas ekan. Xudoga shukur. Endi tinch uxlayman.

Eshik taqillaydi. Mo'min cho'chiydi. Hovliga mahalla oqsoholi kirib keladi.

Mo'min (*sarosimada*). Keling, keling.

O q s o q o l. Keldim, lekin bemovrudroq kelib qoldim, shekilli.

Mo'min (*o'zini yo'qotib*). Ha... shunday....

O q s o q o l (*Fotiqa o'qiydi*). Mulla Mo'min, sog'liging qalay?

Mo'min. Bir navi (*Hadeb surat tomonga qarayveradi*).

O q s o q o l. Muncha suratingga tikilasan? O'zingga ko'zing tegadi.

Qara, bir zamonlar suqsurday yigit ekansan-a.

(*Oqsoqol surat oldiga boradi. Mo'min nima qilishini bilmay voy-voylab titray boshlaydi.*)

O q s o q o l. Nima bo'ldi, tinchlikmi?

Mo'min. Shu qornimga bir narsa to'pday tiqilib qoldi-da...

O q s o q o l. Urush qursin, urush hammamizning sog'ligimizni olib ketdi.

Mo'min. O'tiring, o'tiring. Qimirlamang. Qimirlasangiz yana og'riydi.

O q s o q o l. Mulla Mo'min. Maslahatlik gapim bor. Hammamiz bir mahallaning odamimiz. Uzoqdagi qarindoshdan yaqindagi qo'shni afzal. Kecha mahallaning uch-to'rtta faollari maslahatlashgan edik. Hammamizni fikrimiz bir yerdan chiqib qoldi. To'y qilaman deb mazang qochib qoldi. Xomushsan, odamga qo'shilmaysan. O'zing bilan o'zing gaplashadigan bo'lib qolibsang. Rasm-rusumlarimiz qursin. Bizda to'y qilguncha yo'g'on

cho'zilib, ingichka uziladi. Lekin sen parvo qilma. To'ying boshida o'zimiz turib, chiroyli qilib o'tkazib beramiz. Mana, ozgina pul. To'yona. Mahalladan yordam...

(Mo'min o'z ahvoliga achinib yig'laydi. Oqsoqol yig'ini o'zicha tushinib.) Yig'lama, biz seni yolg'iz qo'ymaymiz...

Jigarim, qaddingni ko'tar, bu ahvolda to'yingga yetolmay qolasan-u. (Chiqadi.)

Mo'min ayvondagi ko'rpachaga cho'ziladi. «Alla» qo'shig'i eshitiladi. U shunchalik horiganki, bir pastda uyquga ketadi. Lekin oltinlar tufayli uyqu ham notinch. Alahsirab o'rnidan turadi.

Mo'min. Xayriyat tushim ekan, tuf, tuf qo'rqib ketdim. (*Oltinni tekshiradi.*) Xayriyat joyida. (*Surat orqasidagi xaltani olib, yostig'i tagiga qo'yadi va yana uyquga ketadi. Buni kuzatib turgan Saidmalikning ishorasi bilan Qilichbek hovli devoridan oshib tushadi. Oltinni olib xuddi shu xildagi xaltani Mo'minning yostig'i tagiga joylab, ko'zdan g'oyib bo'ladi. Birozdan so'ng Mo'min uyg'onib ketadi. Vasvasaga tushib xaltaga yopishadi va yana hushyor tortadi.*)

Mo'min. Ha, sariq shayton, meni sen yana vasvasaga solayapsanmi? Yo'q, gapim, gap. Men seni ertagayoq olib borib topshiraman. Men yurt uchun jonimni ham ayamadim, topib olgan oltinlarimni ayarmidim? Sen baland-baland imoratlar bo'lib qad ko'tarishing kerak. O'sha choyxonaning birida men o'ltiraman. «Ha, choyxonachi, qani, achchiq choydan damlang. Ko'k choy. Starshiy qorovul bo'ldingmi, deysizmi? Ha, starshiy qorovul bo'ldim. Hay, Nodirning o'g'li, kesak otma! Yangi maktabning derazasi sinadi. Bu maktab bobongni oltinlariga solingan «Bor uyga, bor». (*Oltinli xaltaga qarab yana berkitish payiga tushadi.*) Ha, mana shu yerga berkitaman.

Ichkaridan Hurinisa, Nodir, Zuhra chiqib, uning harakatini kuzatishadi.

Hurinisa. Dadasi?! U nima?

Mo'min (*cho'chib*). A?

Hurinisa. Nima, deyaрман. Ayting. Menga aytmasangiz, kimga aytasiz? Axir ne niyatda bir yostiqa bosh qo'rgan xotiningizman.

Mo'min (*hushyor tortib*). Nodir, qizim, bu yoqqa kelinglar. Men eng razil, eng pastkash odamman. Yurtning tuzini ichib, tuzlig'iga tupurgan odamman. Mana bu xaltadagi hammasi oltin.

Nodir. Oltin?

Zuhra. Oltin?

Mo'min. Mana shu devorni buzayotganimizda topdim.

Hurinisa. Ana aytdim-ku, bu odamga devorning jinlari yopishgan, deb.

Mo'min. Men uni topib oldim. Mendan Abdusalom hiylayi nayrang qilib olib ketmoqchi. Yo'q, men buni davlatga topshiraman.

Hurinisa (*shang'illab*). Soppa-sog' yurgan bir kunda jinni bo'lib o'tirsa-ya. O'zim aytdim-a! Devorni buzmag, bir kori-hol bo'lmasin dedim-a. Er degan xotinning gapiga kirs. Endi nima bo'ladi? Xotinning gapiga kirmagan erning ahvoli shu.

Nodir. Bo'ldi, oyi, hamma uxlab yotibdi.

Mo'min. Yo'q, buni men birovga bermayman. Davlatga topshiraman. (*Pauza.*) Xotin beri kel. Bir fikr bor. Yarmini olib qolsak nima deysan. Kim bilib o'tiribdi? Bir kunimizga yaraydi-ku! Qayerga berkitamiz?

Hurinisa. Menga bering, menga.

M o' m i n. Yo'q, oltinni xotin kishiga ishonib bo'ladimi, yo'q.

Hurinisa xaltani tortib oladi. Xaltadan toshlar to'kiladi.

M o' m i n. Tosh, tosh? (*xushidan ketib yiqiladi.*)

N o d i r. Suv, suv olib kelinglar.

H u r i n i s a. Voy-dod arslonimdan ayrilib qoldim.

Erkin Vohidov Saylanma, birinchi jild.
«Sharq» nashriyoti, 2000-yil.

HAYDAR MUHAMMAD

(1936)

Shoir va dramaturg Haydar Muhammad 1936-yilning 1-aprelida Toshkentning Yangiariq mavzesida xizmatchi oilasida tavallud topgan. O'rta maktabni bitirgach, Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika institutining til va adabiyot fakultetida (1960—1965-yillar) tahsil ko'radi. O'zbekiston radiosida muharrir (1965—1976-yillar), Respublika madaniyat ishlari vazirligi repertuar tahririyatida (1976—1980-yillar) mas'ul vazifalarda ishlagan.

1984—2003-yillari davomida O'zbek Davlat Milliy akademik drama teatrida adabiy bo'lim mudiri sifatida xizmat qilib keldi.

Haydar Muhammad Respublika radiosida «Tabassum», «Radio teatr» ruknlarini tashkil etishda qatnashib, o'nlab hajviy hikoyalari yaratilgach, dramaturgiyaga kirib kelgan.

Uning «Toshkentning nozanin malikasi» deb atalgan birinchi pyesasi 1978-yili Muqimiy nomli musiqali teatrdan sahnaga qo'yilgan. Shu o'tgan yillar davomida H. Muhammadning 26 ta bir va ko'p pardali pyesalari sahna yuzini ko'rdi. Milliy akademik teatrdan «Xotinlar gapidan chiqqan hangoma» (1990), «Sab'ai sayyor» (1991), «Jinoyat ustida ushlansin» (1995), «Sehrli tanbur» (2001), Muqimiy nomli musiqali teatrdan «Kuyovlar konkursi» (R. Azizxo'jayev hamkorligida, 1990), «Har kimki vafo qilsa» (1994) kabi asarlari sahnalashtirildi. O'nta pyesasi, «Ipak gilamlar», «Hazilkash shoh» to'plamlari nashr etilgan. Bir qator asarlari badiiy va telefilmlar («Temir erkak», «Xotinlar gapidan chiqqan hangoma») uchun asos bo'lib xizmat qildi.

Haydar Muhammad tarjimasida ozorbayjon dramaturgi Anorning «Zanjir yoki qiyofalar» («Muqimiy» teatri), turkman dramaturgi X. Muxtorning «Nevarali kelin» (Samarqand teatri), boshqird dramaturgi Farid Bagdanovning «Tungi mehmon» (Milliy akademik teatr) pyesalari sahna yuzini ko'rgan.

HAYDAR MUHAMMAD ASARLARI HAQIDA MATBUOT SHARHI

Haydar Muhammad adabiyotimizga qo'shiq bilan kirib keldi. Oz vaqt o'tmay qo'shiq uni musiqali drama sohasiga boshladi. «Toshkentning nozanin malikasi» musiqali dramasi uning kelajagini belgilab berdi. Ijodkor birin- ketin sahna asarlari yarata boshladi.

Bu yosh muallifni sahna san'atining o'ziga xos sir-asrorlarini puxta egallashga undadi. Nihoyat, u katta mavzularga qo'l urishga jur'at etdi. Yaqinda u buyuk olim, mutafakkir shoir Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 500 yilligi munosabati bilan uning murakkab hayoti va ijodi haqida yangi drama yaratdi.

Haydar Muhammad tariximizning bu g'oyat murakkab, ammo faxr etgulik vakili obraziga katta ehtirom va teran muhabbat bilan yondashgan.

*Turob To'la. «Istiqboli aniq dramaturg».
«Toshkent haqiqati», 1983-yil, 13-aprel.*

Muqimiy nomidagi respublika musikal drama va komediya teatrining, shoir Haydar Muhammadning «Toshkentning nozanin malikasi» nomli pyesasi asosida sahnalashtirilgan premyera spektaklini ko'rishga muyassar bo'ldim. Bunda so'z bilan musiqaning bir

ohangda jaranglashi tomoshabinlarning diqqatini o'ziga tortadi — kuldiradi, yig'latadi va hayajonga soladi.

Dramaturgiya sohasiga endigina xayrli qadamini qo'ygan Haydar Muhammad, asarni sahnaga qo'yuvchi rejissor Abdurashid Rahimov, atoqli bastakorimiz Manas Leviyev, keksa va boy tajribaga ega rassomimiz G. A. Vizelning bu spektakl ustida olib borgan ijodiy ishlari shubhasiz teatr jamoatchiligining diqqat-e'tiboriga sazovordir. Ijodkorlarimiz sahnaning bor imkoniyatlaridan foydalanib, shaklni mazmunga bo'ysundirib, voqeani badiiy vositalar bilan aks ettirishga, tomoshabinlarning tuyg'ularini uyg'otishga muyassar bo'lishlari — spektaklning muvaffaqiyatlaridan biridir.

Sud sahnasida Mahmudjon G'ofurov kichkinagina bir epizod rolida chiqadi. Ammo, butun vujudi hayajonga to'lib-toshgan Yozdan Sobitovich tomosha zalidan chiqib, qora kursida o'tirgan o'g'li Mardonning yoniga yurib kelishining o'zi tomoshabinlarni to'lqinlantiradi.

Guvohlardan biri keksa san'atkorimiz Mashrab Yunusov ham qisqagina bir epizod rolida tomoshabinlar ichidan chiqib, guvoh sifatidagina emas, balki unga hech kim emas bir begunoh qizni o'limdan asrab qoluvchi insonparvar sifatida gavgdalanadi. Uning bu oliyjanoblighi tomoshabinlarda chuqur ta'sir qoldiradi.

Talantli artistlarimizdan biri Maryam Ixtiyorovani biz ko'proq lirik va komik rollarda ko'rib quvonardik. U o'zining mayin ovozi bilan tomoshabinlarni hayratda qoldirardi. Bu spektaklda esa uni boshqa bir obrazda — qonunlarni tish-tirnog'i bilan himoya qiluvchi, jamiyatimizni onda-sonda paydo bo'lib qolgan marazlardan tozalovchi, davlatimizning manfaatini ko'z qorachig'iday saqllovchi, shunday zo'r huquqqa ega o'zbek ayoli obrazi qiyofasida ko'ramiz.

*Zinnat Fatxullin. «To'qlikning sho'xligi bu»,
Haydar Muhammad kitobi, 84—85-betlar.*

«UMRNING BIR DOVONI»

Muqimiy nomidagi O'zbek davlat musiqali teatrida yaratilgan yangi spektakl «Boburnoma» qahramonlarini sahnada jonlantiradi. Istiqlol sharofati bilan milliy g'ururimiz uyg'onayotgan, qadriyatlarimiz tiklanayotgan bir davrda ushbu asarni tomoshabinlarga taqdim etilishi ayni muddaodir.

Dramaturg Haydar Muhammad bundan o'n yil muqaddam yozib tugatgan «Umrning bir dovoni» nomli asarini teatrga olib keldi. Asarni sahnalashtirish uchun rejissor Habibulla Apponov, ilmiy maslahatchi teatrshunos olim Muhsin Qodirov taklif qilindi. Lekin dastlabki o'qishdayoq butunlay yangi talqinda boshqa bir asar yaratish haqida mulohaza yuritila boshlandi. Asosiy manba sifatida «Boburnoma» olindi. Rejissor dramaturgbilan hamkorlikda asarning tarkibi, obrazlari, boringki, har bir jumlasini ustida qayta-qayta ishladilar.

Asarning eng muhim xususiyatlaridan biri — uning tarixiy manbalarga tayanib yaratilganligida. Undagi deyarli barcha obrazlar (Orzubek va Qumribekdan tashqari) tarixiy shaxslar bo'lib, «Boburnoma» asosida, ortiqcha bo'yalmasdan, ideallashtirmasdan badiiy jonlantiriladi. Asarning tili ravon, barcha uchun tushunarli, kezi kelganda, aynan «Boburnoma» tilida gapiriladi.

Omonulla Rizayev, «Ajdodlar ruhini shod etib».

Quyida asarlarning Bobur bilan Qutlug Nigor uchrashuv sahnasi berildi.

B o b u r. Assalomu alaykum, onajonim! (*Najot kutib, qalbi to'lib, yoniga kelib, bosh egib turadi.*)

Q u t l u g' N i g o r. Vaalaykum assalom!. Shahzodam. Mullo Boboni ko'rdim. Hammasini aytdi.

B o b u r. Ko'zinga dunyo qorong'u! Ayting-chi, peshonam shunchalik sho'r, qismatim shunchalik og'irmi?

Q u t l u g' N i g o r. Navoiy hazratlari yozmishlar:

Bo'rig'aki, qo'y bo'g'mog'i peshadir,
Cho'bon mehnatidan ne andishadir.

Shahzodam, zamona nosozlig'i, hukmdorlar nopoklig'i dunyoni tutgan bir zamonki, bundan qutulmoqning iloji hech... Lekin 500 yil avval «Nasihatnomai Kaykovus»da: «Noumidlik vaqtida yaxshilikka umidvor bo'!» — deb bitilgan. O'g'lim, oyning o'n beshi qorong'u bo'lsa, o'n beshi yorug'dir.

B o b u r. Yoshi ulug'imiz Shirim tog'oyimning ham kayfiyatlari noxushroq. Toshkandga qaytaman deb og'iz solyaptilar.

Q u t l u g' N i g o r. Tog'oyingiz sarosar yurishlardan ancha toliqqan. Keksalik. Men qolmoqlikni ayturman. Endi qismatingizga kelsak, 20 faslga qadam qo'ydingiz. Ko'p tushkun bo'lmang. Baxt kimga avvali, kimga oxiri. Esingizdami, bolaligingizda ulkan charxpalak yasab, Asxi tepaligida suv chiqazib, bog'-rog' qilurman deganingiz.

B o b u r. Oh, onajonim yoshlik orzularim behisob erdi, Andijonda ham Samarqanddagidek qasrlar qurdirmoqchi edim. Dunyo karvonlari Andijonga kelishini istardim. Andijon yo'llari olam yo'llari bilan beg'araz qo'shilishini niyat qilardim. Orzu-istaklarim kosasini Ahmad Tanbaldek surbet, Shayboniydek g'animlar chil-chil sindiradi deb xayol qilmog'on edim. Endi bormoqqa ne maskan muyassar, turmoqqa ne davlat muqarrar.

Kelingiz Oysha Sultonbegim ham sendan nima ko'rdim quvg'indi Mirzo deb yuz o'girib, egachisi bilan Toshkandda qolib ketdi.

Q u t l u g' N i g o r. O'zi pishmagan osh edi-da. Otangizni ra'yini qaytarolmay yoshligingizda «beshik kerti» qilib qo'ygan edik. Yurak o'z hukmini o'tkazdi. Muhabbat dilda bo'lmog'ini yana bir karra oshkor qildi. O'zingiz ham unga rag'bat qilmadingiz.

B o b u r. Ha, o'zimni ko'p ko'nmakka majbur qildim, lekin...

Jonimdan o'zga yori vafodor topmadim.
Ko'nglimdan o'zga mahrami asror topmadim.

Birdan-bir yupanchim onajonim Siz va qalamdir.

Q u t l u g' N i g o r. Qo'rqamankim izg'irin qaroqchilar bu turmushimizni ham payhon qilmasa deb.

B o b u r. Talonchi va qaroqchilardan zarra vahmim yo'qdir. Ammo Xisravshohdek ko'ngilga tig' urguvchi toj kiygan qaroqchilar qo'rqinchlidir.

Q u t l u g' N i g o r. Parvo ham qilmang, beparvo ham bo'lmang... Shahzodam, bir ov qilib keling, boring. Bahri dilingiz ravshan tortadir. O'zingiz bitgandek. «Xotirni bahor faslida gasht oladir. Ko'z nurini rangin lola-u dasht oladir».

B o b u r. O, mening onajonim, suyangan tog'im. Oqila, tadbirkor murabbiyim. Baxtinga Sizni Tangrim boshingizni omon qilsin. Meni deb siz ham dunyodan rohatlig' ko'rmay o'tyapsiz.

Q u t l u g' N i g o r. Ne qilayki xonlar avlodidan ekanman. Ularning ishi urushmoq-talashmoq, umrim vahm va hayajonda o'tmoqda. Otam Yunusxonning umri ham jangda o'tdi.

Ko'z yoshlari soqolidan oqib tushgan chollarning unsiz nidolari, hali yorining diydoriga to'ymagan kelinchaklarning qaro liboslari yer-u ko'kni larzaga solardi. Umarshayx saroyinda ham shu ahvol kechdi. Qani qudratim bo'lsaydi, urushlarni yo'qotib, onalarning ko'ziga yosh indirmas erdim. (*Birdan «vovaylo», «vovaylo» degan mungli ovoz keladi.*)

B o b u r. Onajonim kimning faryodi bu?

Q u t l u g' N i g o r. Bilmadim, surishtiray-chi?...

Dilbar Muhammadaliyeva.
“Haydar Muhammad”. Abdulla Qodiriy
nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2002-yil.

MAKSIM KARIMOV

(1937—1985)

Iste'dodli jurnalist va dramaturg Maksim Karimov Buxoro shahrida xizmatchi oilasida tavallud topgan. O'rta maktabdan so'ng Buxoro pedagogika institutida tahsil ko'rgan, mehnat faoliyatini jurnalist sifatida boshlagan. «Toshkent oqshomi», «Yosh leninchi» gazetalari tahririyatlarida ishlagan, umrining so'nggi davrida Respublika Madaniyat vazirligi Repertuar hay'atida bosh muharrir bo'lib ishlagan.

Dramaturgiyaga 1966-yili «O'n sakkiz yoshligim» pyesasi bilan kirib kelgan. Asar o'sha yili Y. Oxunboboyev nomidagi Respublika Yosh tomoshabinlar (rejissor E. Masafayev) va «Qalam qoshligim» nomi bilan Muqimiy nomli musiqali teatr (S. Jalil musiqasi, rejissor R. Hamroyevlar)da sahnaga qo'yilgan. Shundan so'ng uning «Diydor», «Insonlikka nomzod», «Jang» pyesalari paydo bo'ladi.

M. Karimov asarlari poytaxt teatrlari qatori ko'pgina viloyat teatrlarida sahnalashtirilgan. Hozirgi A. Hidoyatov nomli teatr (sobiq «Yosh gvardiya») 1968-yili «Diydor» pyesasi bilan o'z pardasini ochgan. Ayniqsa uning «O'n sakkiz yoshligim» asari keng shuhrat topdi.

Maksim Karimov O'zbekiston Madaniyat vazirligi Repertuar bo'limida bosh muharrir sifatida xizmat qilib, respublika teatr san'ati rivojiga munosib hissa qo'shdi. U tashkilotchiligi va ijodi ayni avjiga chiqqan paytda 48 yoshida dunyodan o'tdi.

«O'N SAKKIZ YOSHLIGIM»

(Mazmuni)

Maktabni tugatib oliy o'quv yurtiga imtihon topshirgan Muhabbat o'qishga kiradi, Ravshan kirolmay armiyaga ketadi. Xizmatni tugatib qaytgan Ravshan qurilish muhandisi Akramning Muhabbatga intilishidan rashk qilib qattiq iztirob chekadi, kran ostida qolib mayib ham bo'ladi. Aslida Muhabbat Ravshanga xiyonat qilmagan, hamon uni qattiq sevar edi. Muhabbatning xati, Ravshanning xayol va o'ylari orqali ilk sevgi uchrashuvlari, Muhabbat va Akram orasidagi o'zaro munosabat jonlanib boradi.

Asar ilk bor Oxunboboyev nomidagi yosh tomoshabinlar (1966), «Yosh gvardiya» (1968) teatrlarida Ergash Masafayev rejissorligida qo'yilgan. Bosh rollarda: F. Aminov, T. Rejаметov (Ravshan), Sh. Azizova, A. Begmatova (Muhabbat) o'ynaganlar.

Muqimiy nomli teatrda (1966) «Qalam qoshligim» (bastakor S. Jalil, rejissor R. Hamroyev) nomi bilan qo'yilgan. Bosh rollarda: S. Po'latov, T. Badinov (Ravshan), M. Karimova (Ixtiyorova), M. Isoqova (Po'latova) (Muhabbat), B. Ixtiyorov, Rahimjonov (Akram), T. Mamedov (Shohista) chiqqanlar.

MAKSIM KARIMOV ASARLARI HAQIDA IKKI SHARH

«Qalam qoshligim» Maksim Karimovning birinchi dramatik asari bo'lib, avtorning dramaturgiyaga yangi g'oya, yangi intilishlar bilan kirib kelganini namoyish qildi.

Asar jo'shqin, haroratli va samimiy yozilgan. Unda hayotiy kuzatishlar, inson va jamiyat haqidagi o'y va fikrlar o'z aksini topgan. Unda fikrlar qaynab, tuyg'ular qulf urib turadi. O'zining dastlabki dialogi bilanoq asar o'quvchini o'ziga rom qilib qo'yadi.

Yosh dramaturg o'lmas, dunyoviy mavzuni yangicha, chuqur talqin etishga intilgan. Pyesada sevgi va sadoqat masalasi vijdon va burch, axloq va odob, maslak va grajdanlik masalalari bilan bog'liq holda talqin etiladi.

Asar qahramonlari muhabbat va vijdon pokligi uchun kurash olib boradilar. Dramaturgning talqinicha, muhabbat ikki dilning bir-biriga intilishi, visol orzusigina emas, chin muhabbat — bu qarashlar birligi, hissiyot va tuyg'ular tutashligidan mavjud bo'ladigan misli yo'q insoniy fazilatdir.

*Muhsin Qodirov. «Sehr va mehr».
G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot
va san'at nashriyoti.
1980-y. 92-bet.*

M. Karimovning «Diydor» pyesasi asosida yaratilgan birinchi spektakl yangi soz bilan chalingan nodir kuy bo'ldi. To'g'ri, uning avjlari muallif qalbimizni biz istagancha to'lqinlantiradigan pardaga ko'tarolgan emas, ammo asari ko'ngilga surur baxsh etib, fikrimizni o'yga toldiradigan jihatlarining o'zi, badiiy ifodada yangi yo'llarni izlash — muallifning jiddiy yutuqlaridan dalolat beradi. M. Karimov mavzu va voqealar oqimi bayonida noaniqliklarga yo'l qo'ysa-da, xarakterlarni chizishda qator afzalliklarga erishgan. U o'z qahramonlarining qalbi va ruhiga kirib borishni, sirli va pinhoni kechinmalarni ochishni istaydi. Unga mantiqan xos yo'l va kalitlar izlaydi. Shuning uchun ham M. Karimovning qahramonlari ko'pincha — ma'naviy boy bo'lib chiqadilar... Agar teatrning badiiy rahbari («Yosh gvardiya» teatri — S. T.) Ergash Masafayev M. Karimov ijodida o'ziga yaqinlikni sezib, uni sahnaga olib chiqqan va birinchi pyesasi «O'n sakkiz yoshligim» misolida badiiy tugal spektakl yaratgan bo'lsa, bu ishni u Shirin singari san'atkorlar kuchiga tayanib qildi.

*Toshpo'lat Tursunov. «Yakun va o'ylar». «O'zbekiston
madaniyati» gazetasi, 1969-yil, 31-oktabr, 6-son.*

“INSONLIKKA NOMZOD” HAQIDA J. MAHMUDOV SHARHI

Jo'ra Mahmudov 1942 yili Toshkentning Yunusobod dahasida tavallud topgan. Toshkent Davlat san'at institutining rejissorlik bo'limini tugatib, 1971 yildan turli muddatlarda O'sh o'zbek teatri, Samarqand, Sirdaryo, Respublika yo'sh tomoshabinlar teatrlarida Toshkent radio va televideniesida rejissor va bosh rejissor sifatida ishlab milliy san'atimiz rivojiga munosib hissa qo'shgan ijodkordir.

Yozuvchilar uyushmasining a'zosi, pyesalari qator teatrlarda qo'yilgan va dramaturgiyada jiddiy izlanishlar olib borayotgan qalam sohiblaridan biri. Unga 1992 yili O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi unvoni berilgan.

K. Chapekning “Ona”, O'lmas Umarbekovning “Qiyomat qarz”, X. Sharipovning “Afsona” (Samarqand), A. Qahhorning “Og'riq tishlar”, Molyerning “Soxta oqsuyak”, M. Boboyevning “Qaydasan bolam” (Sirdaryo) kabi o'nlab asarlar Mahmudov talqinida ijodiy jamoalar hayotida bosqichli voqealarga aylangan.

Maksim Karimovning “Samarqand teatrida qo'yilgan “Insonlikka nomzod” asari J. Mahmudov talqinida keskin munozaraliligi bilan e'tibor topdi”. Teatrning 60 yilligiga sovg'a bu spektaklni tomoshabin mamnun bo'lib ko'rmoqda, — deb yozdi gazeta, — mamnunlikning ikki asosi bor: birinchidan asar g'oyatda aktual, shu kunda hammaning

diqqatini tortgan masala atrofida bahs yuritilishi bo'lsa, ikkinchidan, teatr aktyorlarining ijrochilik mahorati, rejissor Jo'ra Mahmudov tomonidan dramaturg maqsaduni aniq ilg'ab olib postanovka uchun eng muhim bo'lgan jihatlarni mahorat bilan ifoda etganidadir.

S.Sirojiddinov "Insonlikka nomzod kim?"
"Lenin yo'li" gazetasi 1978 yil 18 mart 54-son

«O'N SAKKIZ YOSHLIGIM»

(Muhabbatning xati Ravshanning xayolida jonlanuvchi epizodlardan).

M u h a b b a t. ...Siz uni «ablah» dedingiz. Mendan ijozatsiz shunday qildingiz.

R a v s h a n. ...O'sha kecha balki mendan o'tgandir. Bilmadim. Lekin... Sen uch yil ko'rishmagan, bir vaqtlar o'zingga yaqin tutgan odamingga «Ket!» deb aytding.

M u h a b b a t. Agar til hamma vaqt dil aytganini qilganda edi...

R a v s h a n. ...Taqdir meni uch yil sendan mahrum etgandi. Tabassumingga zor edim. Tashna edim. Lekin, menga emas, boshqa bir begonaga olam-olam tabassum hadya etayotganingda ko'rdim seni.

M u h a b b a t. Mendami ayb?

R a v s h a n. Menda. O'sha kecha seni ko'rmasligim kerak edi. Kelmasam bo'larkan.

M u h a b b a t. Yangi yil menga baxt va'da qiluvdi.

R a v s h a n. Menga ham. Biroq... Haligacha men bir narsani yaxshi bilardim: va'dasiga vafo qilmaydigan odamlargina bo'lishi mumkin. Endi bilsam... Ba'zida, hatto yillar ham o'z va'dasiga vafo qilmas ekan.

Qorong'ilashadi.

R a v s h a n n i n g o v o z i. ... O'sha kecha men seni, faqat seni o'yladim. Yuragim faqat sening to'g'ringda qo'shiq aytardi. Shahar ko'chalarini yolg'iz kezib tong ottirdim. Hali, biror yangi yilni ana shunday yolg'iz, ana shunday alamli, ana shunday... ko'chada kutib olmagandim. Ha, kimsasiz ko'chada. Ko'chada-yu, sening xayoling bilan mast. (*Asta-sekin yorisha boshlaydi.*) Ilk va'dalaring yodimga tushdi. Sen faqat o'n sakkiz deb aytishing mumkin bo'lgan so'zlar qulog'im ostida to'xtovsiz jaranglab turdi. Dardimni o'sha, bizga qadrdon Zarafshonga aytay dedim...

M u h a b b a t. Endi hech qachon. Hech qachon men sizning avvalgi Muhabbatingiz bo'la olmayman. Bu yerlarda turolmayman boshqa. Ketaman...

R a v s h a n. Ketma, Muhabbat. Kechirdim.

M u h a b b a t. Kechirdim deysizmi? Siz kechirishingiz mumkin. Ammo men-chi? Odam taniyman, deb sadoqat so'qmog'ida adashgan Muhabbatingiz o'zini o'zi kechira oladimi?! Menimcha muhabbat yurak bilan emas, avvalo vijdon bilan o'lchanadi. Ha, vijdon bilan! (*Barmoqlarini tishlab iztirobda yig'laydi. Mayin kuy*)...

So'nggi sahnadan lavha.

A k r a m. Muhabbatxon, rostini aytaymi? Dunyo deganda men faqat o'zimni tushunaman. Menimcha, siz ham shunday o'ylasangiz kerak... Masalan, deylik, men o'lib ketdim. Men uchun dunyo ham o'ladi-ku, axir?! Mendan keyin nima gaplar bo'ladi, qanday voqealar yuz beradi, kimlar baxtli-yu, kimlar baxtsiz bo'ladi — buning necha pullik ahamiyati bor? Qahramonlik, jasorat, degan gaplar — bular hammasi puch gap. O'z ixtiyori bilan hech kimning o'lgisi kelmaydi. Jon — shirin narsa.

M u h a b b a t. Bunday falsafaga toqatim yo'q. Lekin... faylasufning o'g'lidan nima gap chiqardi, deb majburan eshitdim. Tushunarli... Endi hammasi menga ayon.

A k r a m. Qiziqsiz, Muhabbatxon. Mana, o'zingiz, nega dunyoga kelganingizni bilasizmi?

M u h a b b a t (*piching bilan*). O'zim uchun. Huzur-halovat va kayf-u safo uchun... (*Pauza*) Albatta, urush bo'lsa soldat kerak bo'ladi. Qo'riq yerlarni ochish kerak bo'lsa, yana o'sha komsomol labbay deydi. Uni bu ishga hech kim majbur qilmaydi. Vijdon amrini bajaradi, xolos. Sizdaqalarni ana shu odamlar boqayotganini bilasizmi? Ular hayotni sevmaydi, deb o'ylaysizmi?

A k r a m. Siz-chi? Siz sevmaysizmi?

M u h a b b a t. Sevaman. Hayotni kim ham sevmaydi, deysiz? Lekin hayotni sevishning o'zigina bo'lmaydi. Bu kamlik qiladi. Hayot ham bizni sevishi kerak. Hayot ham bizni sevishi uchun siz bilan men nima ish qildik? Ayting-chi, nima qildik?..

S a d o. Baxtingni yo'qotdingmi?

M u h a b b a t. Topdim, topdim, yuragim!

S a d o. Nega bo'lmasa uni tashlab ketayapsan?

M u h a b b a t. Yo'q, yuragim. Men unga peshvoz chiqayapman. Baxtinga peshvoz chiqayapman....

S a d o. Baxting orqada qoldi axir? (*Oyoq-qo'li butun Ravshan yoritiladi.*) U Muhabbatga talpinmoqda. Sen... Mening izimdan yursang-chi?

M u h a b b a t. Yo'q, yuragim... Haligacha men sening izingdan yurdim. Sening gapingni qildim. Endi sen mening izimdan yur. Qo'rqma, g'aflatda qolmaysan!

Kuchli musiqa. Ravshan ikki qo'lini Muhabbatga cho'zib kuylaydi.

R a v s h a n. Hijroni bor ishqda yonmay bo'lurmi?

Hijron bo'lgan joyda yonmay bo'lurmi?

Sevdim! — degan so'zni aytmay bo'lurmi

O'n sakkiz yoshliga,

Qalam qoshliga...

Yo'linga yana shu diydor yo'liqsa,

Yo'linga shu dildor bir bor yo'liqsa,

Intizor yo'liqsa, zor-zor yo'liqsa,

Nechun jim turasan endi, atayin,

Yuragim, men nima, nima aytayin?

O'n sakkiz yoshliga,

Qalam qoshliga.

Temir yo'lning qo'sh izlari nurli ufqda bir-biri bilan tutashib ketadi.

ABDUQAHHOR IBROHIMOV *(1939)*

Taniqli jurnalist va dramaturg Abduqahhor Ibrohimov Toshkentning Ko'kcha dahasida tavallud topgan. A. Ibrohimov o'rta maktab ta'limini olgach, 1957—1962-yillari Toshkent Davlat universitetining jurnalistika fakultetida o'qigan, keyinroq Moskvadagi Oliy adabiyot kursida malakasini oshirgan. «O'zbekiston madaniyati» gazetasi (1982—1986), so'ng «Guliston» jurnali tahririyatlarida ishlaydi. Respublika Madaniyat vazirligi San'at ishlari boshqarmasida bosh muharrir, 1992—1993-yillari Respublika Prezidenti Devonida mas'ul vazifada ishladi. Hozirda Respublika «Ma'naviyat va ma'rifat» jamoatchilik markazida xizmat qilib keladi. A. Ibrohimovga O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi unvoni berilgan.

A. Ibrohimov birinchi pyesasini 1969-yili yozgan. «Birinchi bo'sa» deb ataluvchi ushbu pyesa 1971-yili «Yosh gvardiya» (hozirgi A. Hidoyatov nomidagi) teatrdan rejissor Ergash Masafayev tomonidan sahnaga qo'yilgan.

A. Ibrohimov o'nga yaqin pyesa yozgan. Ularning bir qismi rus tilida nashr etilib, ba'zilar chet el teatrlari repertuaridan o'rin oldi. Uning pyesalari 1970—80-yillar davomida respublika teatrlari repertuarida yetakchi o'rinni egallagan edi. «Arra», «Zamon o'g'loni», «Bir o'likka bir tirik» (Farg'ona, rejissor N. Otaboyev), «Zo'ldir» (Surxandaryo, rejissor R. Mansurov) qator teatrlarda sahnaga qo'yildi. «Puch» — «Nekrolog» 1989-yili Hamza nomli akademik drama teatrida (rejissor R. Hamidov), «Zo'ldir» musiqali satira sifatida 1985-yili Muqimiy nomli musiqali teatrdan (kompozitor M. Bafoyev, rejissor N. Otaboyev) sahnaga qo'yildi.

ABDUQAHHOR IBROHIMOV ASARLARI HAQIDA IKKI ALLOMA SHARHI

Abduqahhor Ibrohimov asarlarining qimmatini shundaki, u bizning o'zimiz ko'nikkan hayotga yangicha nazar bilan qarashga undaydi, o'z-o'zimizga uncha bino qo'ymaslikka, o'z-o'zimizga haddan ziyod mahliyo bo'lib ketmaslikka chaqiradi. Muallif juda yuksak ijtimoiy idealga ega va hayotda shu idealga mos kelmaydigan har qanday illatni tom ma'nodagi ehtiros bilan fosh etadi. Oqibatda biz o'zimizcha qusur emas, qusurcha deb hisoblagan va shuning uchun ham beparvo, loqayd qarab kelgan illatlarning mohiyatini aniqroq va chuqurroq tasavvur qilamiz. Abduqahhor Ibrohimov komediyalarining hayotiylik, zamonaviy ruhi mana shundadir.

Abduqahhor Ibrohimov har doim kulgili xarakter, kulgili vaziyat yaratish yo'lidan boradi, uning asarlaridagi kulgi shu ikki narsaning uzviy qo'shilishidan hosil bo'ladi. Uning pyesalaridagi konflikt ham xarakterlar mohiyatiga borib taqaladi. Dramaturg asarlaridagi lirizmning, psixologizmning chuqurligi («Birinci bo'sa», «Arra» kabi asarlarida) fojeaviylik bilan komiklikning yonma-yon kelishi («Meni aytdi, demang», «Zo'ldir»), publitsistik («Sochqi») kabi fazilatlar ham uni bu janrning tabiatini chuqur tushunishidan dalolat beradi. Ayni paytda, kulgini kuchaytiruvchi boshqa vositalarga ham keng murojaat etadi: giperbola, grotesk barcha satirik xarakterlar yaratishda faol qatnashadi, anglashilmovchilik asosida kulgi chiqaradi, parodiya, taqlid yo'lidan, personajlarning bir-birini fosh qilishidan, bir-birini maqtashidan, qaytarish — takror vaziyat va xatti-harakatlar, so'zlaridan kulgu tug'diradi...

Salohiddin Mamajonov. «Satirada ijtimoiy ma'no», «Sovet O'zbekistoni san'ati» jurnali, 1982-yil, 10-son.

«Birinci bo'sa» pyesasi ilk bor 1971-yil «Yosh gvardiya» teatrida (rejissor A. Masafayev) qo'yilgan. Unda Meditsina instituti talabalaridan Shokirning Rohatoyga nisbatan samimiy muhabbati va undan ajralishi haqida hikoya qilingan.

Quyida M. Rajabov, M. Ibrohimova yaratgan Shokir va Rohat obrazlari haqida sharh va pyesadan lavhalar bilan tanishasiz.

MUROD RAJABOV SHOKIR ROLIDA

«Yosh gvardiya» teatrining «Birinci bo'sa» spektakli tomoshabinlarga ma'qul tushdi. Asarda ko'tarilgan problema — muhabbatni boshidan, birinchi bo'sadanoq pok saqlash kerak degan g'oya yoshlar qalbini to'lqinlantirdi. Bu spektaklni ko'rgan ayrim yigit-qizlar xursand bo'ldilar, ba'zilar esa o'z xarakterini ko'zguda ko'rgandek yig'ladilar. Spektaklning muvaffaqiyatida bosh rol — Shokir obrazini ijro etgan Murodning xizmati katta. Shokir — Murod dastlab sodda, kishilarga ishonadigan, hayot yo'llarini tep-tekis, ravon deb o'ylovchi yigit edi. Ammo u ilk muhabbati poymol bo'lganini payqagach, asta-sekin o'zgarib boradi. Oqibatda, bugun bu qiz bilan, erta u qiz bilan tanishadigan, muhabbat degan muqaddas tuyg'uning borligiga ishonmaydigan, toshbag'ir, olifta, stilaga qiyofasiga kiradi. Aktyor M. Rajabov Shokirning mana shunday ikki xil xarakterini mukammal ochib bera olgan. Buning uchun u turli hayotiy detallardan ustalik bilan foydalangan. Murodning Shokiriga tomoshabin avval achinadi, so'ngra undan nafratlanadi. Lekin uning bunday yo'lga kirib ketishiga birgina Shokirning o'zi aybdor emasligini Murod ruhiy holatlar, ayrim imo-ishoralar, xatti-harakatlar orqali ochib beradi.

Mamatqul Hazratqulov. «Murodning murodi» «O'zbekiston madaniyati», 1973-yil 28-sentabr.

Yosh yozuvchi uchun birinchi kitobni e'lon qilish qanchalik hayajonli bo'lsa. Aktyor uchun ham birinchi rol ana shunday quvonch va tashvishlarga boy bo'ladi. Malikaning teatrida ijro etgan ilk roli ana shunday quvonch va tashvishlarga boy bo'ladi. Malikaning teatrida ijro etgan ilk roli Abduqahhor Ibrohimovning «Birinci bo'sa» lirik dramasiidagi Rohat obrazidir. Bu obraz tomoshabinni o'ylatadi, insonning taqdiri, hayot murakkabliklari haqida mushohada qilishga da'vat etadi. Rohat oldin ochiq ko'ngil, samimiy edi. Biroq

yengiltaklik odatlari unda o'smirlik paytidayoq yo'q emasdi. (Shokir telefonga kirganida unga gap tashlash sahnasini eslang). Mana shu o'rinda aktrisa o'z qahramonining kelajagi haqida tomoshabinga ma'lumot bera olgan. Bog'da Qosimjonga nisbatan muomalasida esa Rohatning butun qiyofasi to'liq namoyon bo'ladi. Shu xildagi odatlar, hayotga, turmushga yengil qarash oqibati uning oilada baxtsiz bo'lishiga sabab bo'ladi. Rohatning fikricha, yoshlikda har qanaqa aysh-u ishrat qilish mumkin, faqat bokiralik yo'qolmasa bas. Vaholanki, iffat, soflik spektakl qahramonlaridan biri aytganidek: «birinchi bo'sa harom bo'ldimi, soflik yo'qoladi». Malika Rohatning ana shunday murakkab obrazini, chigal taqdirini to'liq ochib bera oldi deyish mumkin. U har bir xatti-harakati orqali qahramonning bor xislatini ifoda qilishga intiladi. Qahramonning ruhiga, ayni vaqtdagi kayfiyatiga monand so'zlaydi: ayrim o'rinlarda behayolarcha baqiradi, qichqiradi, ba'zan uning ovozi shu qadar ma'yus tortib ketadiki, hatto unga tomoshabinning rahmi keladi.

M. Berdiyev «Malika» «O'zbekiston
madaniyati» gazetasi 1975-yil,
21-fevral, 15-son.

BIRINCHI BO'SA

(Birinchi ko'rinishdan parcha)

S h o k i r. Sakkizdan o'ngacha birga o'qidik. U «A»da, men esa «B»da. Axir, amaki, shu paytgacha biror og'iz gap gapirolmasam-a! GapiRAY derdimu, ko'zi ko'zimga tushgach, gapirolmay qolardim. Mana bu yerimda bir narsa paydo bo'lib qolardi. Gapirolmay qolardim. Bugun dilimdagini hammasini aytaman, deb ahd qilgandim. Yanglishib qolsam, qog'ozga qarab olaman, deb yozib olgandim. Mana, amaki, mana (*cho'ntagidan qog'oz olib ko'rsatadi*). Har kuni soat yettidan yetti yarimgacha anavi haykal oldida uni kutardim, u, albatta bir marta o'tib ketardi. Bu bizning uchrashuv edi. Ko'z, dil bilan gaplashar edik. Bugun... bugun... yo'q, gapirolmayman. (*Bir oz jimib.*) Bugun u, Laylo o'tib ketdi. Bir yigit bilan o'tib ketdi. Axir, amaki, shunaqa ham bo'ladimi-a? Ayting, mana, siz kattasiz-ku, shunaqa bo'ladimi, men...men...

O d i l a k a. Yig'lama, o'tib ketsa, akasi yoki qarindosh-urug'idir, shunga ham yig'laydimi.

S h o k i r. Yo'q, keyin anavi chinor tagida Laylo o'sha yigitga bo'sa berdi. Axir, amaki, bu tilni qarang, sizga hammasini tutilmay gapiryapti-ya! Axir shuncha yildan beri o'shanga gapirsa bo'lmasmidi-a? Amaki, gapirsa bo'lmasmidi?!

O d i l a k a (*Shokirning yelkasiga qo'lini qo'yib, yupatib*). Bo'ldi, bo'ldi, o'zingni bos! Yoshing nechada.

S h o k i r. O'n sakkizda, u ham.

O d i l a k a. Mayli, o'g'lim, hali yosh ekansizlar, topishib ketasizlar.

S h o k i r (*Odil akaning qo'lini yelkasidan shahd olib tashlab va turtib yuborib*). Yo'q! Birinchi bo'sa harom bo'ldimi, bo'ldi, poklik tamom! Men unga qaramayman.

O d i l a k a. Gaping to'g'ri. Bunaqa paytda odam bir narsa deyishga ham qiynalib qolarkan. Nima desam ekan?

S h o k i r. Ana, amaki, ko'rdingizmi. Mana bu yerim yonib ketyapti-da! Shuning uchun ham ichdim.

O d i l a k a. O'g'lim, har narsa bo'lsa ham ichmagin. Oqibati juda yomon, mening o'g'lim ham... Ichkilik — juda yomon dushman.

Ikkinchi parda, to'rtinchi ko'rinishdan parcha

R o h a t. Endi men ham bittasi bilan yuraman, deyapman-u topilmayapti-da.

F e r u z a. Topilishi uchun, huv o'shanda aytganimda, Shokir aka bilan yurishga shoshilmaslik kerak edi. E, hammasiga asosiysi — sevgi kerak.

R o h a t. Menga qara, nima bo'lsa bo'ldi, peshanamdan ko'rdim. Qosim dadamlarning hurmatini qilar.

F e r u z a. Bu masalada birovning hurmati ish berarmidi?

R o h a t. Yaqinda kandidat bo'ladilar.

F e r u z a. Qosim akaning senga faqat kandidatligi kerakmi?

R o h a t. Har holda — Feruz, agar turmushimiz yaxshi bo'lib ketsa, meni nazariga ilmaganlar havas qilib o'lishadi.

F e r u z a. Yo'q kulishadi.

R o h a t. Ular kandidat, men vrach... Feruz, o'zlarining ham niyatlari shunaqa ekan: avvalo kandidat bo'lish, keyin uylanish. Demak, tezda uylanadi. Menga esa moyilligi bor.

F e r u z a. Qosim akaning xarakterlari shunaqa. Hammani hurmat qiladilar, ishonadilar.

R o h a t. Dadamlar ham ularni hurmat qiladilar. Mo'mingina, o'qishdan boshqani bilmaydi, deydilar.

F e r u z a. Uf-f.

R o h a t. Uf dema. Mayli, to'ygacha sevmasam, to'ydan keyin sevarman. Xullas, borimni ishga solaman.

F e r u z a. To'ygacha bo'lmagan sevgi, to'ydan keyin ham bo'lmaydi. Qiz bolamiz, axir. Uzog'ini o'ylab ish tut.

R o h a t. Uzog'ini o'ylab ish tutyapman. Hammasini o'yladim. O'ylab ham qo'ydim. Agar o'g'il ko'rsak, otini Shokir qo'yaman.

F e r u z a. Axir, bunaqa narsalar bilan hazillashib bo'lmaydi.

R o h a t. Hazillashayotganim yo'q.

F e r u z a. Jinni bo'lma.

R o h a t. Ho-o, o'zingizniki bor-da, xotirjamsiz! Aql o'rgatyapsiz.

Feruza bir zum Rohatga tikilib qoladi. Keyin jahl bilan o'rnidan turib keta boshlaydi.

Ha, Feruz, tog'gami?

F e r u z a (*yurishdan to'xtab*). Niyatingni xolisligini qara-ya! Ana, Qosim aka kelyaptilar.

R o h a t. Rostdanmi! (*Yugurib Feruzaning yoniga keladi, uning betidan o'pib oladi, sumkasini unga tutqazadi.*) Jon Feruz, sen ketaver, istasang darvoza oldida kutib tur.

F e r u z a. Yur, ketamiz. (*Rohatning qo'lidan tutib, olib ketishga intiladi.*)

R o h a t. Men hayotiy masalani hal qilayapman.

F e r u z a. Shuning uchun ham ketamiz, deyapman.

R o h a t. O'z taqdirimni o'zim hal qilishim kerakmi? Yoshim o'tib qolyapti!

F e r u z a. Shunaqami?

HAYITMAT RASUL *(1939)*

Hayitmat Rasul 1939-yilning 23-martida Xorazm viloyat Gurlan tuman, Bogʻolon qishlogʻida choʻpon oilasida tugʻilgan. Oʻrta maktab taʼlimini olgach, hozirgi M. Uygʻur nomidagi sanʼat institutining musiqali drama boʻlimida oʻqigan. Mehnat faoliyatini «Milliy» akademik teatrdan aktyorlikdan (1966—1970) boshlab, soʻng Respublika televideniyesida dramaturgiya boʻyicha bosh muharrir (1970—1989), 1989-yildan buyon hozirga qadar «Oʻzbekteatr» ijodiy ishlab chiqarish birlashmasi repertuar boʻlimida bosh muharrir vazifasida ishlab keladi.

Hayitmat Rasul 1968-yildan dramaturgiya sohasida qalam tebratib keladi. Unda badiiy ijodga qiziqish bobosi — taniqli baxshi shoir Mulla Matchon Mahammadrasul taʼsirida shakllangan. Hayitmat Rasul oʻttizga yaqin pyesa yozgan. Ularning bir qismi drama, yana bir qismi musiqali drama janriga oid.

Oʻzbek Davlat akademik teatri repertuaridan uning «Muhabbat sultoni» (1994, rejissor M. Azimov), «Piri koinot» (1997, rejissor V. Umarov), «Boshi qotgan oshiqlar» (1998, rejissor M. Xachaturov) dramalari oʻrin olgan boʻlsa, Muqimiy nomli musiqali teatrdan «Muqaddas diyor» (1975, rejissor R. Hamroyev), «Xoʻjayin» (1978, rejissor N. Saidxonov) A. Hidoyatov nomli drama teatridan «Uzoq qishloq» (1988, rejissor B. Yoʻldoshev), Ogahiy nomidagi Xorazm teatridan «Nilufar» (1988, rejissor I. Niyozmatov), «Temir qafas» (1992, rej. J. Dushanov), «Orzu» (1993, rejissor J. Dushanov) pyesalari oʻrin olgan. «Suyunchi bering, odamlar», «Vahima», «Tili asalim» kabi pyesalari ham turli viloyat teatrlarida sahna yuzini koʻrgan.

H. Rasulning M. Muqimov bilan hamkorlikda yaratilgan soʻnggi «Muqaddas taxtizar» asari 2003-yil Milliy akademik teatrdan (rejissor Arsen Ismoilov) sahnaga qoʻyildi.

Hayitmat Rasul 2001-yili «Mehnat shuhrati», ordeni bilan taqdirlangan.

HAYITMAT RASUL ASARLARI HAQIDA MATBUOT SHARHLARI. «MUHABBAT SULTONI» HAQIDA»

Shuni qayd etish kerakki, oshiqlik tasviriga, dramaturg va unga ergashib teatrlar birmuncha yangicha yondashadilar. Majnun ham, Layli ham koʻngillari kimnidir, nimanidir tusayotganini, butun vujudlarini allaqanday notanish, biroq koʻp totli his-tuygʻular qamrab olayotganini aytishadi. Oshiq qalblar bir-birini izlaydi, bir-biriga talpinadi. Nihoyat, Majnun bilan Layli uchrashadilar va ilohiy sevgiga muftalo boʻladilar.

«Hamza» teatrida rejissor Marat Azimov, rassom Baxtiyor Toʻrayev koʻmagida voqealar oʻrnini shartli — ramziy uslubda hal qilib, sahnalarning osongina oʻzgarib, bir-

biriga ulanib, yaxlit bir manzara hosil qilishiga erishgan. Beg'ubor muhabbatga yo'l bermagan muhit zahil, rangsiz, tumanli bo'yoqlarda aks ettiriladi. Uchrashuv sahnalarida gullar bilan birga yonma-yon o'sgan shumg'iyalar ko'rinadiki, bu Ibn Salom, Omir kabi razillar, bag'ritoshlarga ishora deb o'ylayman. Surxondaryoda pyesani teatrning adabiy emakdoshi Shavkat Pardayev sahnalashtirgan. Bu uning birinchi spektakli bo'lishiga qaramay, obrazli yechimga intilgan. Bunda ham voqealar o'rni shartli beriladi.

Garchi asar ikkala teatrda drama sifatida sahnalashtirilgan bo'lsa-da, musiqa bezagiga ham yetarli e'tibor berilgan. «Hamza» teatri spektaklida goh maqom, goh zamonaviy ohanglar yangraydi. Surxondaryo spektaklida esa xonandalar N. Mirzayeva va Ch. Choriyev o'rni-o'rnida xonish qilib, turadilar. Ammo ochig'ini aytganda, unda ham, bunda ham musiqa voqealar tarkibiga singib ketmagan. Bunday asarga maxsus musiqa yozilgani ma'qul edi.

Asosiy qahramonlar ham o'ziga xos. Qays rolda Qahramon Abdurahimov («Hamza» teatri) va Bozor Ramazonov (Surxondaryo teatri) namoyon bo'ladilar. Ayniqsa, Q. Abdurahimovning shu paytgacha ijro etib kelgan rollari ichida hajm va mazmun e'tibori bilan alohida ajralib turuvchi eng muhim obrazi shu Qays bo'lsa kerak. Katta mehnat qilgani ko'rinib turadi. U gavdalandirgan Qaysda ehtiros kuchli, qalbi, aqli, butun vujudini muhabbat tuyg'usi qamrab olgan.

Layli shunchaki malika, shunchaki go'zal qiz emas, balki tengsizlik, mutaassiblik, adolatsizlik hukm surgan zamonlarda o'z muhabbati, erkini himoya qilib chiqqan jasoratli zotdir. Bu rollarda o'ynagan Z. Ashurova («Hamza» teatri) va D. Yunusaliyeva (Surxondaryo teatri) shu mazmunni ifoda qilishga intilganlar.

*Muhsin Qodirov. «Ilohiy muhabbat sadosi»,
«O'zbekiston adabiyoti va san'ati» gazetasi,
1995-yil, 12-may 19-son.*

«PIRI KOINOT» HAQIDA

Al-Farg'oniyga bag'ishlangan asarlar ichida eng muvaffaqiyatlisi Hamza nomidagi akademik drama teatrida sahnalashtirilgan Hayitmat Rasulning «Piri koinot» dramasidir. Muallif butun e'tiborini allomaning olimlik sifatlarini ochishga qaratgan. Dramadagi boshqa barcha yo'nalishlar ana shu maqsadga bo'ysundirilgani bois Al-Farg'oniy buyuk mutafakkir, oliyanob qalb egasi, har bir so'zi va harakatida aql va tafakkur ufurib turgan siymo sifatida gavdalanadi. Asarni rejissor Valijon Umarov rassom Baxtiyor To'rayev bilan hamkorlikda sahnalashtirgan.

«Piri koinot» spektaklida mahobatli badiiy yechim orqali rejissor, avvalo, ota-bobolar ruhidagi ulug'vorlikni, qolaversa, ularga bo'lgan hurmat va ehtiromni ifodalashga intiladi. Yangrayotgan musiqa, taralayotgan nur, tugun va boshqa tasviriylar qandaydir katta hodisadan darak beradi. Darhaqiqat, shu sahnaning o'zidayoq osmon jismlarini o'rganayotgan olimlar va ularni mazax qilib kuzatib turgan mutaassib guruh namoyon bo'ladi. Ya'ni, to'qnashuv ikki toifa odamlar o'rtasida kechishi anglashiladi. Goh ochiq, goh pinhona kurashayotgan guruhlarining kuch va salohiyat jihatdan bir-biridan qolishmasligi asar voqealariga shiddat bag'ishlaydi. Al-Zokir aqlan Farg'oniydan ustun kela olmasligini dildan his qilgach, hiyla yo'lga o'tadi. Ana shu to'qnashuvlarda asar qahramonlarining o'ziga xos xarakterlari oydinlashadi.

Spektaklning o'ziga xos xususiyatlaridan biri — unda bosh qahramon statik, ya'ni o'zgarmas yoki ideal qahramon emas, balki oddiy insoniy xususiyatlardan xoli bo'lmagan xokisor inson. Aktyor G'aybullar Hojiyev ijrosida Al-Farg'oniy ilm izlab Bag'dodga borib qolgan, biroq ona Vatani Farg'onani, uning go'zal tabiati va sharqiroq suvlarini sog'inib yashovchi o'zbekning tashqi jihatdan oddiy, boshqalardan ko'pa ajralib turmaydigan, biroq qilayotgan mehnati, ilmiy izlanishlari bilan o'z davridan ancha ilgari ketgan inson sifatida gavdalanadi.

Al-Farg'oniy bilan Firdavsning uchrashuv sahnasini olaylik, Farg'oniy Firdavsdan salom qilishni so'raydi. Bu olimning onasi va yoriga mehr-muhabbatining ifodasigina emas, balki ona yurt qarshisidagi uzib bo'lmas farzandlik burchining go'zal tasviridir. Kelinlarga xos harir ko'ylak va ro'molda tomosha zaliga qarata Firdavs — S. Yunusova qayta-qayta engashib, kelinlik salomini takrorlashini so'raydiki, buni tomoshabin go'zal Farg'onaga ta'zimday qabul qiladi. Shu onda bejiz osmondan ukpar tashlangandek yulduzlarning sho'lalari to'kiladi. Go'yo butun borliq sevishtanlarni olqishlayotgandek.

Spektakl finalida o'zbek o'g'lonining ulkan yer timsolini aylantirishi yerning dumaloqligini birinchilardan bo'lib bashorat qilgan xalqning buyukligidan, doimo aylanib, harakatda bo'lgan zaminda o'ziga xos o'rni borligidan hikoya qilganday jaranglaydi.

*Dilfuza Rahmatillayeva. «Tarixiy dramaning
uyg'onish davri», «Istiqlol va milliy
teatr», «Yangi asr avlodi»,
2002-yil, 176—177-betlar.*

PIRI KOINOT

To'rtinchi ko'rinish

Choshgoh. Ma'mun saroyi. Barcha a'yon-u olimlar boshlarini quyi solganча turishibdi. Xalifa Ma'mun o'ta asabiy holatda. Davrada faqat Farg'oniy, Firdavs, Galdibek ko'rinmaydi.

M a ' m u n. ... Qandayin bedodlik... Qanday razolat...

Barcha gaplaringiz rost bo'lsa agar.

Farg'oniy olimmas, bir yulg'uch kimsa,

Bir olg'ir mug'ambir, shakkok ekan-da?

A b u M a n s u r. Ha, shunday, xalifam!

M a r v a z i y. Ming afsus, shunday!

M a ' m u n. Shundayki, ne uchun ilmiy ishlarin,

Ixtiro-yu yozgan kitoblarini

Ta'rifin qilmoqda butun bir olam?..

Ne sabab butun bir mag'rib-u mashriq

«Yuksak zakovatning mahsuli», deya

Qimmat baholar «Suv tarozusin»?

«Daryo jilovdori, mard bahodir», deb

Nega olqishlaydur Misr xalqlari?..

Farang-u Hindiston, ispan-u arab,

«Yettita iqlimni yaratgan dah»
Deya aytmoqdalar tasanno, tahsin?..
Xo'sh, ayting, bularning nedur sababi?!
A b u M a n s u r. Hali degandim-ku...
M a' m u n. Aql bovar qilmas yolg'onlarni siz!..
Aflotun, Arastu, Al-Xorazmiydin
Ko'chirmalar emush... Bunga qay inson,
Qaysi aqli noqis ishonur, ayting?!

Shu payt yelkasiga xurjun ortgan Farg'oniy, Firdavs va Galdibeklar kirib kelib,
orqaroqda to'xtashadi. Ma'mun ularni ko'rmasdan, so'zlashda davom etadi.

Deylik «Shammosiya» rasadin tarxi
Xorazmiydin ko'chirma ham bo'lsin, xo'p!
Ammo ne bo'libdur shogird ustozning
Ezgu ishlarini davomat qilsa?..
Axir siz buni ham udda etmasdin,
Mana, turibsiz-ku boshlarni egib?!
A l - Z o k i r. Bizni kechirgaylar, Panohi oliy!
To'g'ri, boshimiz xam, chunki gunohdin
Butunlay soqit ham emasmiz. Ammo
Yaratish, ixtiro bobida biz ham
To'xtab qolmag'onmiz!
M a' m u n. To'xtamag'onsiz?..
Juda soz, juda soz!.. O'rinli da'vo!..
Shundaykan, Al-Zokir, ko'rsating hozir
Aytgan da'voingizning isbotini siz?

Al-Zokir yonidan qog'oz oladi.

A l - Z o k i r. Mana isboti!
M a' m u n. Nedur bu?
A l - Z o k i r. Eng yaxshi
Qurilajak rasadxonaning tarxi!..

Farg'oniy beixtiyor Al-Zokir sari intiladi.

F a r g' o n i y. Yangi rasadxona?..
H a m m a. Farg'oniy?..
F a r g' o n i y. Ayting,
Qayda qurilajak rasad tarxi bu?
A l - Z o k i r. Albatta o't ketgan poydevoriga
«Shammosiya» rasadin tarxi ermas,
«Kassiyun tog'i»da endi bo'lajak,
Endi qurilajak rasadning tarxi!

F a r g' o n i y. Taajjub... Bu ishni Misr ketmasdin —
 Avval topshirganim Al-Yoqubga men?!
A l - Z o k i r. Telbaga ish buyurish telbaning ishi!
F a r g' o n i y. Shunday deng?... Telbaning ishi deng?
A l - Z o k i r. Shunday!..
M a' m u n. Savolni bas qiling, Ahmad Farg' oniy!..
 Nega kechikdingiz mashvaratdin siz?
F a r g' o n i y. Janozada erdim!
M a' m u n. Qanday janoza?
F a r g' o n i y. Yoshgina shogirdim janozasi-da!
M a' m u n. Qaysi shogirdingiz?
F a r g' o n i y. Tolib Dilmurod!
M a' m u n. A?.. Tolib Dilmurod?.. Qanday o'lgan u?
F a r g' o n i y. Mening dushmanlarim qo'lidin o'ldi!..
 Menga mo'ljall xanjar unga sanchildi!..
 Uni sevgan qiz ham jarohatlangan!..
 Tabibga topshirdim uni ham hozir!
M a' m u n. O'ldirgan kim?.. Qaysi jallod o'ldirgan?
F a r g' o n i y. Bilmadim!.. Bilmadim!.. To boshdin-oyoq
 Niqob kiygan erdi o'sha azroil!
M a' m u n. Niqob kiygan erdi?.. Oh, iblis, qotil!..
 U qo'lga olinsin! Toppingiz tezda!
 Ko'kka uchgan, yerga kirgan bo'lsa ham
 Topilsin u qonxo'r! Boring, axtaring!

Ikki a'yon chopib chiqib ketishadi.

F a r g' o n i y. Xalifai zamon. Meni afv eting!
 Keldim oldingizga vidolashgani!
 Endi bizga ruxsat?.. Kelgindi zoti
 Aslo sig'mas erkan o'zga tuproqqa!..
 O'zga elda sulton bo'lg'ondin ko'ra,
 O'z elingda o'g'lon bo'lg'on soz erkan!

Ma'mun jim. Farg' oniy xurjundan kitoblar olib, ularni yerga taxlay boshlaydi.

 Ushbu kitoblarga, barcha oldida
 Hozir o't qo'yamen! Chunki bularning
 Hammasi soxta-yu, hammasi yolg'on!
M a' m u n. Ha, xabarim bor!
 «Yuksak olimlar»ning da'volari bu!
F a r g' o n i y. «Shammosiya» rasadin poydevori
 Kuyib kuli ko'kka sovrilg'onidin,
 Oqibatda mening jism-u jonim ham
 Kuyib kul bo'lg'ondin ogoh hamdursiz?

M a' m u n. Baridin ogohmen!

F a r g' o n i y. Shundaykan, endi

Faqirga ijozat bergaysiz!

M a' m u n. Shoshmang!

Avval isbotlansin gunohlaringiz!..

Qani, allomalar, yuzma-yuz turib,

Da'volarni isbotlash payti hozir!..

Nega jim turibsiz?

A b u M a n s u r. Isboti tayyor!

Al-Xorazmiy yerning ma'mur qismini,

Ya'ni inson yashaydigan joylarin

Ajratadi to'g'ri yetti bo'lakka!..

Farg'oniy ham aynan shu fikrlarni

«Hisobil aqolim as-sab'a»sida,

Ya'ni «yetti iqlim» risolasida

Faqat qaytarganlar hech o'zgarishsiz!

M a r v a z i y. Qolaversa, Arastu va Putelmus...

M a' m u n. Fanning tanasiga tushgan marazlar!

Haqiqiy olim deb kim aytur sizni?..

O'tmish olimlarning ijodlaridin

Bebahra, beta'sir qaysi bir donish

Hayrat dunyosini yarata olg'on?..

Ayting, qaysi daho o'tmishni bilmay,

Hozirgi davronning taraqqiysig'a

Hissa qo'sha olg'on? O'zgartira olg'on?..

Shunga ham aqlingiz yetmaskan, nechun

Haqiqiy olimni yerlarga urib,

Ani chalg'itasiz izlash, ijoddin?..

Farg'oniy, ketmaysiz hech qayoqqa siz!

A b u M a n s u r. Anda biz keturmiz!

M a r v a z i y. Biz ham keturmiz!

M a' m u n. Keting! Hozir keting! «Bayt ul-hikma»da

Endi sizga aslo joy yo'q! Tez keting!

Abu Mansur va Marvaziy shitob bilan chiqib ketishadi.

Qolganlar ham yaxshi bilib qo'ysinlar!

Xalifa Ma'mun tokim o'lguncha

Boshiga ko'tarur chin iste'dodni!

Kimki soxtalikka oshno bo'larkan,

Anga do'st bo'lgum yo'q ikki dunyoda!..

Kitoblarni yig'ib oling, Farg'oniy!

Yerga sochmang asl durdonalarni!..

Yaxshimu, yomonmu, avlodga sizdin

Yodgor bo'lib qolur ushbu kitoblar!..

Ana u soxtago'y zotlardin ersa
Hech vaqo qolmag'ay kelajakka, ha,
Hech vaqo qolmag'ay, afsus, ming afsus...
T a b i b. Al-Yoqub tuzaldi!.. O'ziga keldi!..
A l - Z o k i r. Nima?.. Tuzaldi?..
T a b i b. Ha, ha, tuzaldi!..
M a' m u n. Yaratgan, aylanay karomatingdin!..
Bechora Al-Yoqub tuzaldimu, a?
T a b i b. Ha, Xalifam, ha! Tuzaldi Al-Yoqub,
Butkul tuzaldi!
F a r g' o n i y. Xudoyimga shukur,
O'zginangga shukur, Allohi karim!..
Bilardim saxovat, karomatingdin
Bahramand qilishing biz g'ariblarni...
M a' m u n. Bosh tabib boshidin oltin sochilsun!
T a b i b. Yo'q, mening boshimdin ermas, xalifam,
Farg'oniy boshidin sochilsin oltin!
M a' m u n. Ne sabab?
T a b i b. Sababi, ustoz Farg'oniy
Ona diyoridin keltirgan giyoh...
F a r g' o n i y. Yo'q, yo'q, karvonboshi keltirgan giyoh,
O'sha inson olib kelgan «zargiyoh!»..
T a b i b. Xullas Farg'onadan kelgan «zargiyoh»
Forig' qildi telbalikdan..
Boshi oq ro'mol bilan bog'langan Al-Yoqub asta kirib keladi, hamma hayratda, beso'z
unga tikilib qolgan Al-Yoqub har bir kishi qarshisida to'xtab, sinchkov nazar tashlaydi. Al-
Zokir bilan ko'zlar to'qnashib, bir-birlariga uzoq tikilib qolishadi.
A l - Z o k i r. Sen ...nima...
Meni ... Al-Zokirni tanimadingmu?..
Al-Yoqub. Yo'q, yo'q... tanigandek bo'lyapman... ha, ha...
F a r g' o n i y. Al-Yoqub, azizim...
Al-Yoqub. Ustoz Farg'oniy.

Ular bir-birlarini bag'rilariga bosgancha unsiz ko'z yoshi qiladilar.

F a r g' o n i y. Ming shukur, so'rovim bo'ldi ijobat,
Yaratgandin, har bir namoz so'ngida
Senga shifo berishlarini so'radim...
Ikkita a'yon behol Guharni suyab olgancha kirib kelishadi.

A l - Z o k i r. Bu mening cho'rim-ku. Ne-chun keldi u?

Guhar u sari yura boshlaydi.

G u h a r. Ne o'ldirding?.. Nega o'ldirding, jallod?

Sevgimdin nega ayirding meni?
Topib ber, qotil! Uni topib ber!..
A l - Z o k i r. Ushlang uni! Jinni u! Telba! Ushlang!
G u h a r. Jinni !.. Telba?.. Oh, jallod iblis, qotil!..
Sen kimlarni telba, jinni qilmading!..
A l - Z o k i r. Haydang bu jinnini!.. Men seni hozir..
M a' m u n. Shoshilma, Al-Zokir!.. Gapir cho'ri qiz!
G u h a r. Mana shu... Mana shu... Meni sevgimdin,
Yolg'iz sevganimdin ayirdi!
A l - Z o k i r. Yolg'on!
G u h a r. Koshkiydi yolg'on bo'b chiqsa!.. Dilmurod,
Nega tashlab ketding meni, Dilmurod!..
H a m m a. Dilmurod!..
G u h a r. Olim Al-Yoqubni ham,
Telba qilg'on mana shu iblis!
H a m m a. Nima?

Al-Zokir qochmoqchi bo'ladi.

M a' m u n. Ushlang yaramasni!.. Oh, sen azroil,
«Baytul-hikma» niqobidagi jallod!..
Ikki basharali odamxo'r ajdar!..

«O'zbekteatr» ijodiy ishlab chiqarish birlashmasi
repertuari bo'limidan olingan qo'lyozma
asosida chop etildi.

MASHRAB BOBOYEV

(1941—2003)

Taniqli dramaturg, shoir va nosir Mashrab Boboyev Samarqand viloyat Chelak tumanida dehqon oilasida tavallud topgan. Maktabni tugatgach, bir muddat o'z qishlog'ida ishlagan. Toshkent madaniy-oqartuv texnikumida, so'ng hozirgi M. Uyg'ur nomidagi san'at instituti aktyorlik bo'limida 1960—1965-yillari tahsil ko'rgan. «Yosh gvardiya» hozirgi («Kamalak»), G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyotlari, Yozuvchilar uyushmasi, Respublika Madaniyat ishlari vazirligi, Hamza nomidagi va Yosh tomoshabinlar teatrlarida ishlagan. Iste'dodli dramaturg va shoir Mashrab Boboyev O'zbekiston milliy axborot agentligida xizmat qilayotgan pallada, ijodi ayni gullagan bosqichda dunyodan o'tdi.

M. Boboyev adabiyotga 1960-yillarda hikoyanavis sifatida kirib keldi. Boboyevning nasriy va poetik asarlariga xos vijdon, insof va diyonat mavzusi uning dramaturgiyasi mohiyatini ham belgilab bergan. Uning pyesalari 1970—1980-yillari o'zbek teatri repertuarida faol o'rin tutib keldi. «Gurung» («Qadam ranjida») M. Boboyevning ilk dramalaridan bo'lib, dastlab Samarqand teatrida, «Qani mening yulduzim», «Onaizor» («Bizning hovli») Sirdaryo, Samarqand, Katta-qo'rg'on, Andijon va boshqa viloyat teatrlari repertuarida uzoq muddat yashab keldi. 1989-yili Muqimiy nomidagi musiqali teatrdagi «Mushkul savdo» («Tunis prezidenti») pyesasi paydo bo'ladi. Spektakl «Navro'z—89» Respublika teatrlari ko'rigida yuqori baho oldi, unda bosh rollar ijrochilari — N. Hasanova va T. Beknazarov tanlov hay'ati mukofotiga sazovor bo'ldilar.

M. Boboyev Alisher Navoiyning «Sab'ayi sayyor» dostoni asosida yaratilgan «Sevgi nidosi» baleti va teletomoshabinlarga keng tanish «Ko'ngil ko'chalari» ellik seriyali videofilm ssenariylari muallifidir.

MASHRAB BOBOYEV O'ZI HAQIDA

Kunlardan bir kun bir og'aynim: «Samarqandda tirik kino bor ekan», deb qoldi. Hayron bo'ldim. Tirik kino ham bo'larkanmi?! Aql bovar qilmaydi! U tushuntirdi. Jonli odamlar yurarmish, o'tirib-turarmish, o'yin qilarmish, qo'shiq aytib, raqs tusharmish. Samarqand bir kunlik yo'l. Tirik kinosini ko'rishga ne azobda bordim. U — teatr degan olam ekan. G'aroyib sirlarga to'la olam. Aktyor, aktrisalalar xuddi kinodagiday, lekin jonli, ovozi bor, o'zini ushlab olsangiz bo'ladi. Dramaturgiyaga ishqim o'shanda tushgan... Dramaturglarga imkoniyat emas, iste'dod kerak. Iste'dod bo'lsa bas, mavzu topiladi. Juda ko'p odam pyesa yozadi. Dramaturgiya ham bedarvoza-da! Dramaturgiyaga yakka shaxs sifatida kirib kelgan ma'qul Sharof Boshbekovga o'xshab...

Men yozgandagi holatimga e'tibor bermagan ekanman. Men hamma narsani unutib, uzluksiz o'tirardim-da, pishirganlarimni qog'ozga tushirardim. Yozish — azob, ana shu azob men uchun rohat ham edi.

Matluba Temur qizining dramaturg bilan olib borgan suhbatidan. «Teatr» jurnali, 2001-yil, 5-son.

M.BOBOYEV IJODI HAQIDA MAHKAM MUHAMMEDOV SHARHI

O'zbekiston san'at arbobi Mahkam Muhammedov o'zbek televizion teatri, milliy teleseriallar asoschilaridan biri sifatida tanilgan ijodkor. Xususan, ijodining keyingi na'munalari bo'lmish ellik seriyalik "Ko'ngil ko'chalari", A.Qodiriy romani asosidagi "Mexrobdan chayon" seriallar xalqimizning sevimli teleasarlari aylandi. Shu qatori M.Muhammedov teatr rejissori sifatida ham taniqli. U san'at institutining teatr rejissorligi fakultetini tugatgan (1957 yil).

Turli muddatlarda Sirdaryo (1978-1982), Respublika yosh tomoshabinlar (1982-1985) teatrlarida bosh rejissor sifatida ishlab Cho'lponning "Asorat", Ch. Aytmatovning "Oq kema" (Yosh tomoshabinlar teatri), Shekspirning "Richard III", Gelmannig "Imzo" (Sirdaryo) kabi asarlarini sahnaga qo'yadi. Ayniqsa, Mashrab Boboyev bilan olib borilgan izlanishlar uning hayotida chuqur iz qoldirgan.

— Mashrab Boboyev pyesalari meni maftun etgani rost. Uning ravon, ammo zalvarli fikrlari, taqdir o'yinlari, qizim senga aytaman, kelinim sen eshit, qabilibdagi qochiriqlari rejissorni o'ziga tortmay qo'ymasdi... Men Mashrabning "O'ttiz yoshlilar" asarida iste'dodning yolg'izligini, "Er tomirlarida" insonning erga bo'lgan muhabbatini, "Iroda"da buyriqbozlikning illatlarini, "Ko'ngil ko'chalari"da sho'ro tuzumining qusurlari tufayli umr shomida tavba-tazarruga aylangan ko'ngillarini ko'rganman. Mashrabning she'rlari ham o'ziga xos edi, zamirida teran fikrlar yotardi. Ko'rinishidan sodda, ravon so'zlar tagidan injular topasiz, yashirinib yotgan so'zlar qalqib chiqadi. Uning she'rlarini tanlab "O'ttiz yoshlilar"da repriza sifatida foydalanganimda uzukka ko'z qo'yganday bo'lib tushgan edi. O'zbekiston oltin fondida saqlanayotgan bu asar Rustam Xamdamiy va Sharof Boshbekov ijrosida qiyomiga etgan edi. Mashrabda oddiy hayotiy lavhalar katta, o'tkir, uzoqni ko'radigan, davr ruhini sezadigan, zamonning xarorat darajasini ilg'aydigan nayob bir fazilat bor edi. Sana't institutida o'qigani uchun bo'lsa kerek, voqealar tizmasini to'qnashuv jarayonlarini, dramaturgiyaning sir-asrorlarini yaxshi tushunar edi.

Mahkam Muhammedov. "Ustozlar izidan"
Toshkent 2006 yil. 72-73-betlar.

«ZAMINGA PAYVASTA INSON»

G'oyat keng ma'nodagi, juda ham xilma-xil ko'rinishlarga ega vijdonlilik mavzui Mashrab Boboyev asarlarining o'ziga xos leytmotivini tashkil etadi. Dramaturg ma'naviy izlanishlarining ildizi ayni shunda ko'zga tashlanadi, asarlarining nafasi undan «oziqlanadi», dramaturg insonning grajdanlik pozitsiyasiga vijdoniylikni mezon deb belgilaydi.

Mashrab Boboyev pyesalari mohiyatiga, chuqur botiniy aloqalariga ko'ra qishloq haqidagi pyesalaridir. Nima haqida yozyapsiz degan savolga u oddiygina qilib shunday javob berishi mumkin:

«O'z yerim haqida, menga yaqin odamlar haqida»...

Mashrab Boboyevning dramaturg sifatidagi iste'dodi ayni tabiiy vaziyatlar, oddiy va real xarakterlar, ularning tushunarli va tasavvur qilsa bo'ladigan xatti-harakatlari haqida so'z borganda namoyon bo'ladi.

«Bizning hovli» pyesasi M. Boboyevning pyesalari orasida bir qadar ajralib turadi. Ba'zan dramaturg o'z qahramonlariga yangi nazar bilan qaragandek, ularni o'ziga xos mezonlardan boshqacha mezonlar bilan baholayotgandek tuyuladi. Yoxud ana shu voqea muallif tomonidan qandaydir alohida, o'zi boshidan kechirgan hayot bosqichida qayta hikoya qilib berayotgandek tasavvur tug'iladi.

...M. Boboyevning pyesalarida zamin bilan bevosita bog'liq, jazirama dalalar va soya-salqin qishloq kishilariga alohida harorat va muhabbat ufurib turadi. Qahramonlarining hammasi mehnatkashlarning farzandi. Barcha kishilar ularning mashaqqatli nonini yeydi, ularning sa'y-harakatlari bilan kiyingan va ust-boshi but. M. Boboyev qahramonlarining qalbi yer harorati bilan, uning marhamati bilan oziqlangan. Kim bo'lishidan qat'i nazar, hamma buni doimo esda tutishi kerak.

*Qamariddin Ortiqov, «Teatr» jurnali,
1989-yil, 7-son.*

«BIZNING HOVLI»

Pyesada Toshkentga o'qishga kelib, institutga kirolmay uylanib, Toshkentda qolib ketgan Sulton va uni izlay-izlay, oxiri topgan onaizor Poshsha xolaning o'kinchli taqdiri haqida hikoya qilingan.

H u r b u v i. Ha, Xlestakov o'g'lim, ishdan qaytdingizmi? Bugun qanday sarguzashtlar bo'ldi?

S u l t o n. E, so'ramang, Hurbu xola... (*Poshsha xolani ko'rib, tikilib qoladi. Ko'zlariga ishonmaganday.*) Oyi?

P o s h s h a x o l a. (*Sultonga qaraganicha turibdi. Sekin-sekin o'ziga kelib o'rnidan turadi. Ko'zidan tirqirab yosh oqadi.*) Bolam! Sultonim! (*Surilib, qoqilib, Sulton tomon kela boshlaydi. O'zini yo'qotib qo'ygan. Bir amallab so'ridan pastga tushadi. Sultonni bag'riga bosadi.*) Bolam! Senmisan, a! Bu yerda nima qilib yuribsan! Ha, meni izlab keldingmi? Odamlar aytishdimi? Qidirib yurganimni aytishdimi? A? Bu yerda ekanimni qanday bilding? Bolam! (*Yana gir aylantirib o'pib chiqadi. Bag'ridan bo'shatmaydi.*) Xudoga shukur! (*Ko'zlari to'la yosh, Hurbuviga.*) Aytmadimmi topaman deb! Uni hamma taniydi, demadimmi? Mana, aytibdi odamlar, sizni onangiz qidirib yuribdi, deyishibdi. Topib kelibdi, bolajonim! (*Sultonni yana qayta boshdan o'pib — yalab chiqadi.*) Onam qayerdadir tentirab yurmasin, uyga olib kelay, deb kelibdi bolaginam? (*Sulton boya ko'tarib kirgan, hozir yerda yotgan narsalarga ishora qilib.*) Mana, shuncha narsa ko'tarib kelibdi bolajonim? Qani bolam, tarvuzingni bittasini so'yib yubor? Hurbuvi opam tatib ko'rsinlar. Bu kishi, mana, meni mehmon qilib o'tiribdilar. Juda yaxshi xotin ekan. Minnatdorchilik

qil, bolam! Qo'ni-qo'shnilarini yaxshi odamlar ekan. Bugun kech bo'lib qoldi, hammasi uy-uyiga kirib ketdi. Ertaga ertalab kelib, hammasiga minnatdorchilik qilib ketamiz, bolam! Uying shu atrofda, yaqindami deyman-da, bolam?

S u l t o n (*Onasini chekkaga tortib*). Uyim.. shu yerda, oyi.

P o s h s h a x o l a. A? Yo'g'-e?

S u l t o n (*Hurbuviga, qarab olib, sekin*). Shu yerda.

P o s h s h a x o l a (*Hurbuviga, gina bilan*). Uyi shu yerda ekan, nega mendan yashirdingiz, opa? Men sizni...

H u r b u v i. (*Nima deyarini bilmaydi*). Axir...

S u l t o n. Hechqisi yo'q, oyi. Qachon keldingiz? Qanday topib keldingiz?

P o s h s h a x o l a. Ertalab keluvdim. Samarqandning poezdidan tushdim-u taksiga o'tirdim. Olib kelib qo'ydi. Uying shu yerda ekanini ko'nglim sezdi-da, bolam! (*Hurbuviga*.) Boya bolamni nima dedingiz? Xlis...

H u r b u v i. Xlestakov.

P o s h s h a x o l a. Bolalaringni tanidim, bolam. Ikkita o'g'ling bormi?

S u l t o n. Ha.

P o s h s h a x o l a. Ikkoviniyam shunday ko'rdim-u, Sultonimning bolalari dedim. Lekin Xlis... Bolam nega odamlar seni bunday deydi, a?

S u l t o n. Hurmat qilishadi-da, oyi.

P o s h s h a x o l a (*Hurbuviga, faxr bilan*). Ko'rdingizmi? Aytmovdimmi, o'g'lim katta odam, hamma taniydi, hurmat qiladi, deb! (*Sultonga*.) Endi uyingga, boshla, bolam. (*Hurbuviga*.) Yuring, opa!

H u r b u v i (*Nima deyarini, nima qilarini bilmaydi. Hayron*.) Mayli, sizlar chiqaturlinglar, men ertalab chiqarman.

Birozdan keyin Poshsha xola bilan Sulton chiqishadi...

P o s h s h a x o l a (*O'zini tutishga harakat qiladi, lekin tutolmaydi, yig'i bosib kelaveradi*). Mendan xafa bo'lma, bolam. Shuncha harakat qildim, o'zimni shuncha zo'rladim bo'lmadi. Qilolmayman, bolam. Men u yoqda seni deb... Sen hammaga, xotininggayam, yetimman, deb yursang... Qanday tiling bordi, bolam?

S u l t o n. Oyi!

P o s h s h a x o l a. Qo'y, mayli, siqilma, kasal bo'lib qolasan. (*Ko'z yoshlarini artib, jilmayadi*.) Mana, men ham bas qildim... Xotining judayam yaxshi ekan.

S u l t o n. Ha.... Uyam katta ishda ishlaydi.

P o s h s h a x o l a. Birga ishlaysizlarmi?

S u l t o n. Boshqa joyda-yu, katta ishda...

P o s h s h a x o l a (*Sultonga*). Qishloqlarga tez-tez komissiya borib turadi. Sen ham borasanmi komissiya bo'lib?

S u l t o n. Ha.

P o s h s h a x o l a. O'zimiz tomonga o'tsang, birrov yonimga kirib chiq, bolam! (*Ko'ziga yosh qalqib chiqadi*.) Necha kunligim bor, kim biladi?

S u l t o n. E, qo'ysangiz-chi, yig'lamang! Hali ko'p yashaysiz, oyi!

P o s h s h a x o l a (*Sultonning gaplariga quloq solmay*). Mabodo... tiligrom-piligrom kelib qolsa... Tez yetib bor, bolam... Sen bormasang chiqarishmaydi... Hammaga aytib qo'rganman... Aslida shuni aytganiyam keluvdim... O'zing tepkilab...

S u l t o n. E, qo'ysangiz-chi, oyi!

P o s h s h a x o l a. Bilib bo'ladimi, bolam, hammaning boshida bor savdo-da.
Ishqilib, senga qarab o'ligim sasib ketmasin.... Kel endi (*Bag'riga bosib, uzoq o'padi.*
Yalab-yulqab chiqadi. Ko'zi to'la yosh.) Omon bo'l, bolam!
S u l t o n. Xo'p. Yaxshi boring, oyi!

QO'SHIQ

— Meni deb oromdan kechdingiz butun,
Men sizni bir xushnud eta olmadim.
Sochingiz supurgi bo'ldi men uchun,
Lekin qadringizga yeta olmadim.
Umringiz ziyoda bo'lsin har qachon,
Duoyi jonimni qiling, Onajon.
— Seni deya oromdan kechdim men butun
Sochim supurgidir kelsang hali ham
Sening borliging baxt edi men uchun,
Hali ham yagona baxtimsan, bolam!
Mayli, yaxshi bo'lgin, mayli, yomon bo'l.
Qayerda bo'lsang ham, bolam, omon bo'l!

*Mashrab Boboyev. Pyesalar. «Yoshlik
chog'im — oltin chog'im». Badiiy
adabiyot nashriyoti, 1965-yil.*

ABDULLA ORIPOV

(1941)

Atoqli shoir, O'zbekiston qahramoni Abdulla Oripov Qashqadaryo viloyat Koson tumanidagi Neko'z qishlog'ida tug'ilgan. 1963-yili Toshkent Davlat universitetining jurnalistika fakultetini tugatadi, so'ng «Yosh gvardiya» (1963—1969), G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at (1969—1974) nashriyotlarida ishlaydi. O'zbekiston yozuvchilar uyushmasida kotib, 1995-yildan hozirga qadar uyushma raisi vazifasida xizmat qilib keladi.

Xalqimizning ardoqli shoirlaridan Abdulla Oripovning poetik ijodiga xos shoirona falsafiy mushohadalar uning dramaturgiyasida ham teran ifoda topgan.

Dantening «Ilohiy komediyasi»ni o'zbek tiliga tarjima qilgach, dramatik doston shaklidan foydalanib, 1978-yili «Jannatga yo'l», 1988-yili «Ranjkom» asarlarini yaratadi. Ularda o'tkir hajviy fosh qilishlik usuli yaqqol bo'rtib turadi. Yorug' dunyoning sarson-sargardonliklari, ezgulik va inson qadr-qimmatining oyoq osti bo'lishi muallifni qayg'uga solgan edi.

A. Oripov Amir Temur tavalludining 660-yilligiga atab 1996-yili «Sohibqiron» asarini yaratadi.

«SOHIBQIRON» ASARI HAQIDA SHARHLAR

«Sohibqiron» spektaklini sahnalashtiruvchi O. Salimov shoir A. Oripovning pyesasini falsafiy-romantik drama uslubida talqin qilarkan, uni dramatism bilan boyitadi, qahramonlar holatlarini psixologik tahlillarda ochib beradi. Rejissorning maqsadi — podshohning ko'p qirrali obrazini qudratli, buyuk davlat qurishdek yagona niyat yonayotgan insonning murakkab, iztirobli kechinmalari mohiyatini yoritishdan iborat.

Spektakl kompozitsion yaxlitligi bilan ajralib turadi. Unda muqaddima, xotima mavjud bo'lib, ularda xor va bashoratchi ishtirok etadi. Sahnada umumlashma muhit yaratilgan, unda ifoda vositalari bilan voqealar o'rni va vaqti belginadi. Oddiy va ixcham dekoratsiya yechimi sahnalarni erkin joylashtirish hamda asosiy e'tiborni Amir Temur siymosiga qaratish imkonini beradi. Ruhiy holati o'ta iztirobli damlarda rejissor yirik tasvirga murojaat qiladi. Projektor nuri qahramonni umumiy fondan ajratib, tomoshabinlarga yaqinroq qilib ko'rsatadi.

Ana shunday kuchli, iztirobli sahnalardan biri suiqasd sahnasidir. Adabiy manbada bu voqea haqida qisqa dialogda eslatib o'tiladi. Spektaklda esa rejissor keng qamrovli mizansahna quradi... Sukunat ichra yolg'iz o'tirgan Amir Temur davlat taqdiri haqida chuqur o'yga tolgan. Birdan eshikning asta g'ichirlashi eshitiladi. Ohista bosilgan qadam tovushlari quloqqa arang chalinadi. Ola-chalpoq sho'lalarning jimir-jimiri, soylarning lopillashi yovuzlikdan darak beruvchi muhitni yanada kuchaytiradi. A. Ergashevning musiqasi vaziyat dramatzimini juda aniq aks ettiradi. Rejissor shu tarzda barcha sahna vositalaridan — nur, tovush, musiqadan unumli foydalangan. Bu vositalar bosh qahramon xarakterini ochishga xizmat qiladi. Amir Temur yonidan uchib o'tgan kamon o'qi taxtga sanchilganda ham o'rnidan turmaydi. U sukut saqlagancha saroy a'yonlarining harakatini kuzatadi, o'z hissiyotini oshkor etmaydi. Hatto uni necha bor o'ldirishga uringan Amir Husaynni olib kirishganda ham, hukmdorning kiprigi qilt etmaydi. Raqibini teshib

yuborgudek sovuq nigoh, ulug'vor vajohat, mag'rurona odimlar — bularning hammasi bir bo'lib oshkora g'azab va nafratdan kuchliroq ta'sir qiladi.

T. Mo'minov Temurning to'laqonli siymosini gavdalantirgan. Tomoshabin ko'z o'ngida o'tkir aql, kuchli iroda sohibi bo'lgan mard inson namoyon bo'ladi. Bundan Amir Temur qattiqqo'l, ulug'vor, bosiq. Amir Temurning avlodlariga qaratilgan so'nggi monologi hokimiyat sohibi bo'lgan insonning hayotdagi o'rni va ma'nosi haqidagi ko'p yillik o'ylarining o'ziga xos yakuniday jaranlaydi.

*Muhabbat To'laxo'jayeva. «Rejissor izlanishlari».
«Teatr» jurnali, 1999-yil, 1—2-sonlar.*

ABDULLA ORIPOV TO'RT TEMURDAN BIRINI MA'QUL TOPGANI HAQIDA

Muallif deydi: «Tashqi qiyofa o'xshasa, tomoshabinlarda juda katta taassurot uyg'otishi mumkin ekan. Uzoq yillardan beri hamkorlik qilib kelayotgan do'stimiz Hamid Qahramonov O'sh teatrida Salohiddin Umarov degan aktyorni tanladi. Xudoning qudratini qarang-ki, hozir biz hazrati Amir Temur qiyofasini shu aktyor yuziga boqib tanib olishimiz mumkin. Shu qadar o'xshash. Hattoki, soqollari ham o'ziniki, yoshi ham».

....Shoir xamon hayajonda: «Hazrati Amir Temurni shu aktyor yuziga boqib tanib olishimiz mumkin... Shu qadar o'xshash..» Aktyor mahoratiga bundan ortiq baho bo'ladimi? Ta'bdagi aktyorni topgan nozik didli rejissorlarga-chi? Rejissor deydi: eng qizig'i festival kuni bo'ldi. Eng avval boshqa Temurlar (Sohibqiron rolidagilar) O'sh Temuri — Salohiddin Umarovni boshlariga ko'tarib osmonga otishdi. Bu ularning tan bergani edi.

Muallif deydi: «Hamid Qahramonov qo'ygan shu asarda men istagan ko'p jihatlar yetuk darajada chiqqan. «Sohibqiron»ni qo'ygan ko'p teatrlar Temurni, ta'bir joiz bo'lsa estradaga aylantirib talqin qilishdi. Hamid Qahramonov esa sinalgan yo'ldan bordi. Men undan minnatdorman...

*O'rol O'zbek. «Hattoki soqollari ham o'ziniki».
«O'zbekiston adabiyoti va san'ati» gazetasi
1998-yil, 30-yanvar, 5-son.*

ASRAKS ETGAN SHE'RIYAT

Abdulla Oripovning buyuk bobokalonimiz Amir Temur hayotiga bag'ishlangan «Sohibqiron» dramasini Hamza nomidagi teatrimiz sahnasida, Qarshi va O'sh shahri teatrlari san'atkorlari ijrosida tomosha qilganman. Juda murakkab mavzuni talqin etishda uning ravon, purma'no she'riyati hamisha qanot bo'ladi. Tomoshabin qalbiga buyuk haqiqatlarni anglash, his etish yo'lini ochadi. Xalqona iboralar, to'la mag'izli satrlar, mantiqiy uzviylik, o'tmish va hozirning tabiiy ravishda bog'lanib ketishi, hissiyotlar to'qnashuvi uning asarlariga falsafiy ma'nolar bag'ishlaydi.

*Jumaniyoz Jabborov O'zbekiston xalq shoiri.
Quyida asarning 1-sahnasidan lavhalar berildi.*

«SOHIBQIRON»

Asar besh sahna (parda)dan iborat.

1-sahna. Hokimiyatdan ajralgan alamzada amir Husayinning Amir Temurning joniga qasd qilib kelishi, jinoyat ustida qo'lga tushishi, O'ljoy Turkonning o'z akasining uchi zaharli paykoni bilan o'zini o'zi nobud qilishi bayon etilgan.

2-sahna. Amir Temur amirlar, saroy mulozimlari bilan mashvarat o'tkazmoqda, uning xayolini dini islom rivoji, ilm-u ma'rifat, yurt farovonligi kabi turli masalalar chulg'ab olgan edi.

Ta'qiblardan qochib sulton Boyazid saroyidan panoh topgan Sulton Ahmad, Qora Yusuf kabi ashaddiy dushmanlar bir kunmas bir kuni yurtga ofat keltirmasmi, nega Boyaziddan bu haqda yozilgan maktubga hamon javob yo'q? Elchi keltirgan javob xati dahshatli edi: urush ochmasang xotinlaring, seni yengmasam mening xotinlarim uch taloq bo'lsin, deb yozgan edi Boyazid. Xotinlarni o'rtaga qo'yilishidan qattiq ranjigan Temur: «Borajakmiz!» deydi amirlarni da'vat etib.

3-sahna. Jang bormoqda, Temur shaxmat o'yini orqali himoya va hujum chiziqlarini belgilab, lashkarlarini boshqarib bormoqda. G'alaba degan hayqiriqlar eshitiladi, oyoq-qo'llari zanjirband Boyazid keltiriladi; Kim yutdi-yu, kim yutqizdi? Lekin ikki turkiy xalq emas, Ovro'po yutdi, gijgijlaganlar g'olib, deydi Sohobqiron Boyazidning takabburligini yuziga solib.

Rus, farang, ispan va boshqa xorij elchilari birin-ketin Temurning g'alabasi haqida hamd-u sanolar aytadilar. Faqat chin (Xitoy) elchisi Temur huzuriga o'lpon to'lash da'vosi bilan chiqadi. «Surbet muttaham» deydi Temur Chin hukmdorlarining o'tmishdagi bosqinlarini eslab.

4-sahna. Bibixonim o'zi boshchiligida qad ko'targan jom'e masjid oldida Samarqand ahli bilan safardan qaytgan Amir Temurni kutib oladi, nabiralarga o'tkazilgan to'y munosabati bilan elchilar qabul qilinadi. Chin elchisi yana o'lpon da'vosi bilan chiqadi. O'lpon to'lanmasa, urush bo'lishi tabiiy. Temur og'ir iztirob ichida o'yga toladi. «Evoh, meni avlodlarim kim deb eslashur!» deydi, o'ldirmasang, o'ldirsalar, adolat desang-u, bu jangu jadalsiz bo'lmasa, o'z haqligingni qanday tasdiq etmog'ing mumkin? Temurning Xitoyga qarshi yurishdan o'zga chorasi qolmaydi.

5-sahna Turkiston. Xoja Ahmad Yassaviy maqbarasi. Bu paydar-pay olamni o'z yo'rig'iga burgan temir iroda sohibining so'nggi manzili edi. Sohobqiron xayolan Ahmad Yassaviyga duch keladi. Kim edi u darveshmi, Xizr yo Yassaviy, der u isitma aralash: bu Temur qalbida jo'sh urgan ham temir iroda, ham insoniy o'jizlik xuruji edi. «Yo'q» deydi u, notanish siymoning qayt Chin yurishidan, uzlat lozim keksalikka, degan da'vatiga qarshi. U taqdir hurujiga ruhiy qudratini qarshi qo'yadi, qursin o'sha sovuqqa dosh berolmagan mujmal sarbozlar, deya qor quyuni ostida soch oldiradi. Lekin o'limga davo yo'q: So'nggi nafasida u tug'ilish bor joyda, o'lim haq ekanini tan oladi, chodirga yo'llanadi, shu lahzada Bibixonim buyuk Sohobqironning jon taslim etganidan dod solib ichkaridan chiqadi.

Amir Temur tavalludining 660-yilligi munosabati bilan Toshkentda o'tkazilgan «Navro'z—97» teatr festivalida o'nta teatrdan to'rttasi ko'rikda A. Oripovning «Sohobqiron» asari bilan qatnashdi. Bular hozirgi O'zbekiston Milliy akademik drama

teatri (rejissor O. Salimov, Amir Temur — T. Mo'minov), Berdax nomidagi Qoraqalpoq davlat teatri (Temur — B. Uzoqberganov), Mulla To'ychi Toshmuhammedov nomidagi Qashqadaryo viloyat teatri (rejissor A. Abdunazarov, Temur — M. To'raqulov) va Bobur nomidagi O'sh o'zbek teatri (rejissor Q. Qahramonov, Temur — S. Umarov) edi.

SOHIBQIRON

Birinchi sahnadan

Samarqand. Temur saroyi...

A m i r H u s a y n. Omad mendan yuzin o'girdi.
Yo'qsa sening toj-u taxting bo'lardi menga!
Madrasaga bekingandim, ablah Kayxisrav
Tanib qolmish egnimdagi zarbof to'nimdan.

T e m u r. Kayxisravning otasini sen o'ldirganding,
O'sha xun deb seni tutib keltirmishdir u.
Omadsizlik emasdir bu — qilmish-qidirmish.
Meni esa rasman holda Balx qurultoyi
Mamlakatning amiri deb saylab qo'yibdi.
Endi sening kimligingni aytay, Husayn,
Lashkarini siylamagan sen — xasis amir!
Sirdaryoning bo'ylarida Jetiga qarshi
Ikkalamiz chiqqan edik o'sha mash'um kun.
Osmon go'yo teshildi-yu jami bulutlar
Suvlarini to'kkan edi jang maydoniga.
Ust-boshi ho'l, holdan toygan sening lashkaring
Och-u nahor bo'lgani-chun ortga chekindi.
Loy jangida sen sababli nochor qolganman.
O'ng ming askar nobud bo'ldi, afsus, o'shanda.

A m i r H u s a y n. Temur, menga to'nkama u mag'lubiyatni,
Firibingni ko'rsat edi, sarkarda bo'lsang!

T e m u r. Ko'rmagansan firibimning mingdan birin sen.
Atrofimni zanjir kabi o'rab tursa ham
Jetilarni tumtaraqay quvdim Vatandan.
Bir jang chog'i muhtaram pir Said Baraka
Egildi-yu yerdan siqim tuproqni olib,
«Yog'iy qochdi!» deya nido qilganlaricha
Yov tomonga sochdi uni.
Yov-chi, ha, qochdi.
Bu ham firib, shundoqmasmi?

M i r S a i d B a r a k a. Avval xudodan!
Gar muzaffar qilar bo'lsa, madadin bergay.

S h a y x u l i s l o m. Qiblagohning unvonlari Sohibqironidir.

Allohimning karami-la sakkiz yuz yilda
Yulduzlarning holatlari ayricha bo'lg'ay.
Jadiy burji ko'ringaydir kiyik shaklida.
O'sha yili tug'ilgaydir bir Sohibqiron.
Eng avvali shoh Iskandar, undan so'ng esa
Tug'ilmishdir Rasul akram —
Payg'ambarimiz.
Uchinchisi hazrat Temur —
Sohibqironidir.
Avliyolar allaqachon bashorat qilib
Aytmishlarkim, Sohibqiron dunyoni olg'ay.
Sakkiz yuz yil saltanati turgay barqaror.
Jahongirga abadiyan xudo yor bo'lg'ay.
Ilohi omin!..

T e m u r. Zaharlidir?

A m i r H u s a y n. Ha, albatta! Tegsa bilarding.

T e m u r. Qay bir fozil aytgan ekan: Tuz aynisa gar

Uni nima tuzatar deb.

O'h, ablah, olchoq!

B a r l o s B a h o d i r. A'lohazrat, ruxsat bering, bu gazandaning

Paykonini o'z ko'ksiga joylab qo'yaylik.

Orqa eshikdan O'ljoy Turkon yugurib chiqadi.

O' l j o y T u r k o n. Olampanoh,

Olampanoh,

Bir zum sabr eting.

T e m u r. O'ljoy!

A m i r H u s a y n. O'ljoy?!

T e m u r. Sen qayoqdan paydo bo'lding?

O' l j o y T u r k o n. Xosxonada men,

Bosh yuvmoqqa suv tayyorlab odatdagidek,

Sartaroshning ketishini poylab turgandim.

Va daf'atan bu dahshatli suhbat g'ovuri

Qulog'imga chalindi-yu ketolmay qoldim.

Afv etgaysiz cho'ringizni.

T e m u r. Sen cho'ri emas,

Amir Temur zavjasi sen, malikadursan.

A m i r H u s a y n. Sen — Qozog'on nabirasi,

Husaynga singil.

O' l j o y T u r k o n. Men ikki o't orasida jizg'anak bo'lgan,

Ikkisin ham ayaydurgan O'ljoy Turkonman.

T e m u r. O'ljoy, mening gaplarimga quloq tut andak,

Seni go'yo g'ubori yo'q sahro guliday

O'z bag'riga bosguvchini tushungil deyman.
Shafqat bilmas hukmdor deb o'ylama meni.
Unutmaki, har qanday kas fe'lidan topgay.
Men akangning qilmishlarin afv eta-eta,
Oqibatda botgandurman gunohga balki.
Afsus, akang shu qadarli ochofat, yuho,
O'ng'ay kelsa, ayamagay hatto seni ham.

A m i r H u s a y n. Xudodan qo'rq,

Amir Temur, isbotingni ayt!

T e m u r. Necha muddat ikkalamiz it-mushuk bo'lib,
Uchrashmayin,
Arazlashib yurgan kezlarda
Makkor mo'g'ul Samarqandni qayta bosgandi.
Podshohi yo'q mamlakatning ahvoli ma'lum:
Shunday paytda bosh ko'tarib chiqdi bir guruh.

A m i r H u s a y n. Sarbadorlar!

T e m u r. Sarbadorlar, ha, sarbadorlar!

Mardonavor qo'riqladi ular shaharni,
Uloqtirib tashladilar mo'g'ul qo'shinin.
Sen bilan men tayyor oshga bakovul bo'lib,
Saltanatni tortib oldik sarbadorlardan.
Sen o'zingni amir deding, meni-chi vazir.
Sarbadorning bitta aybi — uquvsizligi.
Umrida hech toj-u taxtni ko'rmagan kosib,
Uchta-to'rtta mullavachcha ne ish qilardi?
Pala-partish farmonlarni chiqarib ular
Boyonlarni o'zlaridan tezda bezdirdi.
Shul sababli omadimiz chopdi bizlarning,
Biz ularni dorga tortdik — nomiga loyiq.

A m i r H u s a y n. Men bilardim, moyil eding sarbadorlarga,
Dordan olib qolgan eding ulardan birin.

T e m u r. Sen sabab bo'lib,

Samarqandda norozilik boshlanib ketdi.
Bir och bo'ri daf'atanda qo'raga kirib,
Ko'zi to'ymay duch kelganni bo'g'izlagandek
Soliq solding beva demay, bechora demay.
Soliq yig'ish balosini menga topshirding.
Behuda qon to'kkanlaring bir karra bo'lsa,
El-u yurti talaganing o'n karra bo'ldi.
Men bir necha sarbadorni saqlab qololdim.
Vatan uchun jonin tikkan fidoyilarning
Qismatiga achingandim, taxtiga emas.
Qish faslida ochilgan bir chechakday ular,
O'z-o'zidan halokatga mahkum edilar.
Biroq sening ochiq go'rdek yuho og'zingni

O'sha paytda yopolmasdan armonda qoldim.
Elga solgan solig'ingning katta qismini
O'ljoy bilan ikkalamiz qoplagan edik.
O'z singlingga o'zing hadya qilgan ziraklar
O'z qo'lingga qaytib borsa, olding, noinsof.
O' l j o y T u r k o n. Nahot, aka?!

A m i r H u s a y n. Ziragingni tanimaganman.
O'tgan o'tdi.
Temur endi valdirayverar.
Har doimo haq bo'ladi muzaffar odam.

T e m u r. Temur bilan gaplashganda bu hikmating puch,
Unutmagil, muzaffarman haqligim uchun.
Ulug' bir zot yashab o'tgan bizning zaminda.
Turkistonlik avliyo u
Ahmad Assaviy.
Tingla uning bir hikmatin,
G'oyat ibratli.
«Nafsim meni yo'ldan urib xor ayladi,
Termiltirib xaloyiqqa zor ayladi».
Aynan senga mo'ljallangan bir juft o'qdir bu.

O' l j o y T u r k o n. Afsuski, men xabardormen buning baridan,
Necha yillar orangizda qora xusumat.
Aka, Sizning joningizni ulug' Amirdan
Qancha marta so'rab oldim yig'lab, yolvorib.

A m i r H u s a y n. Agar mening singlim bo'lsang, yolborma, O'ljoy.
Axir men ham jangchiman-ku, men ham bahodir.
Yaxshisi, sen ko'shkingga ket, oromgohingga,
Kechir meni, aziz singlim!

O' l j o y T u r k o n. O, Olampanoh,
Hadya qiling menga o'sha kamon o'qini,
U dahshatli bir tarixdan xotira bo'lg'ay.

T e m u r. Modomiki, xosxonada bizni tinglabsen,
Xabardorsan bu suhbatning tafsilotidan.
Ma, ola qol,
Yozuvini o'qima faqat.

O' l j o y T u r k o n. (*Kamon o'qini oladi. Chiqayotib o'qiydi.*)
«Bu — Temur uchun».
Yo'q, bu — men uchun.

O'ljoy Turkon chiqadi.

T e m u r. Men hamisha shukur aytdim parvardigorga,
Qodir Alloh oydin qildi yo'limni doim.
Zabt aylasam qay bir zamin,
Qay mamlakatni

Xudoyimning xohishiga tayandim mudom.
Hatto yiroq yulduzlarning fe'li qandoq deb,
Tinglaganman qur'achi-yu munajjimlarni.
Turfa din-u e'tiqodga ibodat qilgan
Necha-necha qavmlarni hukmimga oldim.
Muhammadning yalovini ko'tardim baland.
Biroq o'zing birga o'sgan,
Birga ot surgan,
Bir masjidga some bo'lgan zotdan ayrilmoq —
Bu g'oyatda ma'yus qilib qo'yar odamni.
Siz ne deysiz,
Muhtaram pir Said Baraka?

M i r S a i d B a r a k a. Musulmonning qonin to'kmoq joiz bo'lmag'ay.

Ammo lekin dini Islom bayrog'in tutgan
Yo'lboshchiga pand bermoqlik gunohi azim.
Tavba qilsin,
Tavba qilsin, Amir Husayn
Zero, shundoq lutf etmishlar payg'ambarimiz:
Erta-yu kech ochiq erur tavba eshigi.

T e m u r. Shayxulislom janoblari, fikringiz nedur?

S h a y x u l i s l o m. Muborak bir kalimani keltirib o'tay,

U — «Qur'oni karim»dandur!

T e m u r. Vujudim quloq!

S h a y x u l i s l o m. «Yaf'allulohu moyashau va yaaxkumu mo yo'rid»,

Ya'ni, Alloh nimaniki xohlasi agar
Irodasi bilan shuni hukm qilg'aydir.

T e m u r. Inshoolloh, yaratganning o'zi bilg'aydir.

Ey, Siz mening amirlarim, bahodirlarim.
Qadamidan o't chaqnagan lashkarboshilar.
Alloh Sizning dilingizga ne tuyg'u solmish?
Muntazirman javobingga, Barlos Bahodir.

B a r l o s B a h o d i r. Muntazirman amringizga, o, Sohibqiron,
Siz amr eting — kemirgaymiz Ko'hi Qofni ham,
Siz amr eting — simirgaymiz Bahr-u ummonni.
Kuch olg'aymiz shijoat-u himmatingizdan.
Sizga sodiq bo'lurmiz deb qasam ichganmiz.
Ulug' Amir, Xudo shohid jangchining onti
Har qandayin martabadan turar balandroq.
Sizning aziz joningizga otilgan har o'q
Eng avvalo, kelib tekkay bizning ko'krakka.
Nomard yovni agarda Siz kechirsangiz ham,
Biz mutlaqo kechirmasmiz. Ketgaymiz tarqab.

Kanizak jon holatda yugurib kiradi.

K a n i z a k. A'lohazrat,

A'lohazrat,

Mudhish bir xabar,

Bu xabarni sizga kelib aytgandan ko'ra

Qani edi shu zahoti kesilsa tilim.

T e m u r. Qanday xabar? Dovdiramay gapir, kanizak!

K a n i z a k. Xonasida jonsiz yotar malika O'ljoy,

U o'zini halok etmish, manov o'q bilan.

(Kanizak qonli kamon o'qini Temurga uzatadi.)

T e m u r. Evoh!

A m i r H u s a y n. Hayhot!

T e m u r. Amir Husayn oramizni bog'lagan zanjir

Metin tog'lar silsilasi qadar bo'lsa ham,

Shu daqiqa parokanda bo'ldi, uzildi.

(Kayxisravga)

Husaynni topshirdim men, Kayxisrav, senga!

Amir Husaynni olib chiqib ketadilar.

*Abdulla Oripov. «Sohibqiron». G'afur G'ulom
nomidagi Adabiyot va san'at
nashriyoti, 1996-yil.*

USMON AZIM (1950)

Iste'dodli shoir va dramaturg Usmon Azim Surxondaryo viloyat Boysun tuman Gaza qishlog'ida tavallud topgan. O'rta maktab ta'limini olgach, Toshkent Davlat universitetiga o'qishga kirib, 1972-yili jurnalistika bo'limini tugatadi. Dastlab Respublika radiosida, gazeta va jurnallar tahririyatlarida, keyinroq Respublika Prezidenti devonida Davlat maslahatchisi sifatida ishlagan. Hozirda «Savdogar» gazetasi bosh muharrir muovini, Milliy akademik teatrdan adabiy bo'lim rahbari sifatida ishlab keladi.

Usmon Azim «Insonni tushunish», «Oqibat», «Surat parchalari» kabi she'riy to'plamlari chop etilib, poeziyada ancha tajriba orttirgach, dramaturgiyaga kirib kelgan. Dramaturgiyaga qiziqish unda radioda ishlab, «Bir qadam» radiopyesasi, «G'aroyib ajdaho», «Bog'dagi bog'cha» kabi ertaklari efirga uzatilgan kezlari paydo bo'lgan. Qayta ishlanib dastlab Surxondaryo teatri repertuaridan o'rin olgan «Bir qadam» uning sahna yuzini ko'rgan ilk pyesasi hisoblanadi.

1997-yili Milliy akademik teatrdan sahnalashtirilgan «Kunduzsiz kechalar» (rejissor Valijon Umarov) asari Usmon Azimning dramaturglik faoliyatida muhim voqeaga aylandi. 1998-yili «Alpomishning qaytishi» asari Andijon, keyinroq Muqimiy nomli musiqali (har ikki spektakl rejissori V. Umarov), Surxondaryo teatr (rejissor M. Ravshanov)larida sahna yuzini ko'radi. 2002-yili esa «Bir qadam» pyesasi «Milliy» teatr (rejissor Valijon Umarov) repertuaridan o'rin oldi.

«KUNDUZSIZ KECHALAR» HAQIDA SHARHLAR

«Kunduzsiz kechalar» spektakli markazida o'zbek adabiyotining yorqin vakili — shoir, yozuvchi dramaturg va tarjimon Cho'lpon taqdiri turadi. Shu inson taqdiri bilan qiziqqan muallif U. Azim va rejissor V. Umarov uning hayoti dramtizmi manbalarini qidiradilar. Spektakl hujjatlar va tarjimai hol ma'lumotlariga asoslangan holda shoir halokatining fojiaiy tarixi sifatida tasvirlanadi. Voqealar shoirning ajoyib she'rlari bilan to'ldirib beriladi. Bu she'rlarda Cho'lponning iztirobli kechinmalari o'z ifodasini topgan, shoirning tashvishlar, shubha-gumonlarga to'la ma'naviy olami ochib berilgan. U yashagan davr Cho'lponga shafqatsizlik qildi. Lekin u insonligicha qoldi. Hech kim va hech narsa undagi qadr-qimmatni o'ldira olmadi, uning shoirlik salohiyatini va erksevar g'oyalarini buka olmadi.

*Muhabbat To'laxo'jayeva, «Rejissor izlanishlari»,
«Teatr» jurnali, 1999-yil, 1—2-sonlar. Muhsin
Qodirov, «Teatr» jurnali, 2002-yil, 5-son.*

Bosh rol ijrochisi M. Abduqunduzov Cho'lponning o'z davri uchun kim bo'lganini tushunishga, uning she'riy va hayotiy maslagini aniqlashga orzumand. Aktyor xarakterida jilovlangan kuch, ziyolilik, ichki madaniyat jo'sh urgan inson siymosini gavdalantirgan. U muomala va odob doirasidan chetga chiqmaydi. Uning jo'shqin mijozi faqat yakuniy sahnadagina, sabr kosasi to'lib, tahqirlashlar haddan oshgandan keyin yuzaga qalqib

chiqadi. M. Abduqunduzov Cho'lpon obrazini poetik teranlik va hissiy jo'shqinlik bilan to'ldirishga muvaffaq bo'lgan.

«CHO'LPONNING TASHQI KO'RINISHI»

Muhammadalining menga juda ma'qul bo'lgan tomoni shundaki, unda lirizm bor, latofat, ichki mayinlik bor hamda shu jihatlari bilan Olim Xo'jayevga o'xshab ketadi. Chunki rahmatli Olim Xo'jayevda ham ana shunday ziyolilik bor edi, intellektuallik bor edi, aql-u zakovat bor edi. Muhammadali ham Abdulla Qodiriyga bag'ishlangan asarlarda, Cho'lpon haqidagi spektakllar, kinofilmlarda ularning obrazini yaratdi. Cho'lpon rolda aktyorning tashqi ko'rinishi, Cho'lponning tashqi ko'rinishiga juda o'xshaydi, yumaloq gardishli ko'zoynak, kulcha yuz, ayniqsa, shoirning ko'zlaridagi nur, teranlik aktyorning ko'zlarida ham bor. Men Cho'lponni ko'rgan emasman, ammo uni roldagi qiyofasiga solishtiradigan bo'lsak, mana shu xususiyatlar Muhammadalining Cho'lponida ham bor.

Shu bilan birga Muhammadalining Cho'lponida qandaydir boshqa xususiyatlar ham bor, qandaydir ichi to'la isyon, isyonkor odam ruhi bosiq bo'lsa ham, atrofdagi zamzamalarni bilib turgan, sezib turgan, shunga munosabat bildirishga qo'rqmaydigan, inson uchun, erk uchun eng keskin gaplarni aytishdan cho'chimaydigan odamning qiyofasi seziladi. Ham bosiq, mayin, mutafakkir odam, ham shu bilan birga isyonkor, jo'shib turgan, qaynab-toshib turgan odamning qiyofasi namoyon bo'ladi. Balki bir-biriga qo'shish qiyin bo'lgan sifatlardir. Lekin shu sifatlar Muhammadalining Cho'lponida juda mahorat bilan, ustalik, puxtalik bilan bir-biriga chambarchas bog'lab berilgan.

*Ozod Sharafiddinov, O'zbekiston qahramoni.
«Teatr» jurnali, 2002-yil, 5-son.*

KUNDUZZSIZ KECHALAR

Cho'lponning hovlisi. Cho'lpon va Soliha. Bir chetda ko'rinmas odam. U bu sahna davomida bermalol — ko'ngliga xush kelgan harakatda yuradi.

S o l i h a. Xafasiz?.. (*Cho'lpon tasdiqlab o'ychan bosh tebratadi.*) Xafa bo'lmang... Hech xafa bo'lmang! Oyning o'n beshi qorong'u bo'lsa, o'n beshi yorug'... Hammasi o'tib ketadi? Ishoning, o'tib ketadi!

C h o' l p o n. Nazarimda, bu hali boshlanishiga o'xshaydi... Bu balo boshimizni yemasdan o'tib ketmaydi, shekilli... Soliha, bir maslahatli ish bor. Menga juda ko'maging zarur. Jonimdan yaxshi ko'radigan bir aziz odamim bor. Men tufayli uning boshiga ham kulfat tushmog'i mumkin...

S o l i h a. Nimalar deyapsiz? Siz tufayli hech kimning boshiga kulfat tushmaydi! Siz rahmat keltiradigan insonsiz!...

C h o' l p o n. Soliha, xullas, menga yordaming kerak...

S o l i h a. Kim u aziz... odamingiz?.. Siz uchun, mayli yordam beraveraman!.. Men u kishini taniymanmi?..

C h o' l p o n. Ha, taniysan!..

S o l i h a. Unday bo'lsa... Ayting!..

C h o' l p o n. U aziz odamim — sen, Soliha, sen...

S o l i h a (quvonib). Voy, men-mi?! Men, o'zimga qanday yordam beraman! Siz tufayli boshimga qanday kulfat tushmog'i mumkin?

C h o' l p o n. Seni qismat zarracha ham ranjitmasin deyman-da...

S o l i h a. Xudoga shukur! Siz bilan zarracha ham ranjiganim yo'q! Aksincha, baxtliman! Shunday baxtlimanki, «bu baxtni taqdir nega menga munosib ko'rdi», deb ba'zan hayron qolaman!

C h o' l p o n. Soliha, azizim, seni yaxshi ko'raman... Bilasan... Ammo bu dunyo bizning yo'rig'imizga hamisha yurmaydi. Shunda ko'ngil bilan emas, ko'zni chirt yumib, aql bilan ish qilmoqqa to'g'ri keladi. O'zimning aqligim, endi bu yog'ini sabr-u mulohaza bilan eshit... Boshimda bulutlar quyuqlashyapti. Har holda ertamdan yaxshilik kutayotganim yo'q. Boshimga biror falokat tushsa, yaqin kishilarimga ham ziyon yetadimi deb qo'rqaman! Shuning uchun sening taqdiring to'g'risida o'ylamoq zarur...

S o l i h a. Meni o'ylab nima qilasiz!... O'zingizni o'ylasangiz-chi? O'zingizni! Siz bu dunyoga bir keladigan odamsiz! Mendaylar ko'p...

C h o' l p o n. Unday dema! Senday odam ham bu dunyoda yo'q! Sen mening yolg'izimsan! Agar bir kun yig'lasam, faqat sen va Vatanimdan ajralib qolayotganim uchun yig'layman!

S o l i h a. Mendan?... Mendan ham ajralib qolayapsizmi?

C h o' l p o n. Shoshma... Hozir aql haqida bekorga gapirmadim. Zakovat bilan ish tutaylik... Men o'ylab-o'ylab seni Andijonga jo'natishga qaror qildim...

S o l i h a. Agar lozim desangiz, mayli, borib bir hafta-o'n kun turib kelaveraman...

C h o' l p o n. Yo'q, menimcha... qaytish shart emas!

S o l i h a. Nega qaytish shart emas?!.. Siz mensiz nima qilasiz?..

C h o' l p o n. Tushunmayapsan... Men aytayapmanki... (*birdan qat'iyat bilan*) Xullas, ajralishimiz kerak! Meni bu dunyodan yo'q qilishsa ham, sen Omon qolganing durust. Shuning uchun tezroq bu ishni hal qilishimiz zarur!...

S o l i h a. Zarur emas! Hech ham zarur emas!... Sizday odamni kim o'ldiradi! Kimning haddi sig'adi! Mabodo... Mabodo!... o'shanday bo'lsa ham, nega meni haydaysiz?! Sizsiz tirik yurib nima qilaman?! Sizga qo'shilib o'lganim yaxshi emasmi?!

C h o' l p o n. Yaxshi emas!.. Yaxshi emas!.. Mendan qancha tezroq uzoq ketsang, shuncha yaxshi!... Soliha meni sevsang, «Abdulhamid akamning bu dunyoda rozi qildim» deb o'ylab yurging kelsa, hozir ket! Ket!...

S o l i h a. Kuygan bag'rim, suyangan tog'im, ulug' shoirim, meni shunchalar past ayol deb o'yladingizmi! Ketmayman! Er-u xotin qo'sh xo'kiz! Mabodo bu dunyoning hamma jonzod sig'adigan ko'chalarida arava tortishimizni ham ortiq ko'rsalar, qassoblarga «assalom alaykum» deb birga kushxonaga kirib boraveramiz! So'yishsa, ikkalamizni birvarakayiga so'yishsin! Qonjig'aga ikkalamizni barobar tortishsin!...

C h o' l p o n. Bunday gaplarni gapirma. Sen hech qachon o'lmasliging kerak! Andijonga ketasan...

S o l i h a. Ketmayman

C h o' l p o n. Soliha!

S o l i h a. Yashasak ham birga yashaymiz, o'lar bo'lsak ham birga...

C h o' l p o n. Rahmat, rahmat... Ammo sen o'lma! Hech qachon o'lma!

Yana o'sha tushga o'xshash hol. Yana tumanga o'xshash g'ira-shiralik. Yana o'sha g'aroyib musiqa. Cho'lponning ovozi yana «GO'ZAL»ni o'qiydi. Yana Soliha oydan go'zalga aylanadi. Ammo musiqa fojiali bir ohangga aylanadi... Cho'lpon bir parcha va Oydanda go'zal alohida bir parcha yorug'lik ichida qoladilar. Ular intiladilar, ammo tosh qafas ichidalar, bir-birlariga yaqin kelolmaydilar. Sahna bo'ylab yuguradilar, biroq bir-birlarini topolmay, qorong'ulikka qorishib ketadilar. Faqat «Abdulhamid aka!» «Oydanda go'zal! Soliha!» degan ularning alamli chaqiriqlari eshitilib turadi!

REALISTIK VA TUSHDAN IBORAT SAHNA

Kuz. Kech. Tungi qo'noqlariga qaytayotgan qarg'alarining qag'illashi. G'ira-shira. Cho'lpon hovlidagi kichkina bog'da Yosh shoir bilan o'tiribdi. Cho'lpon mo'jaz gulxanda qo'lyozmalarni yoqayapti. Bog'ning bir chetida Ko'rinmas odam.

2 - y o s h s h o i r. Hovlida hech kim yo'qmi? Yangam shu yerdamilar?

C h o' l p o n. Yo'q, u musiqa maktabiga dars olgani ketgan...

2 - y o s h s h o i r (*alanglab*). Kimdir borga o'xshaydi?

C h o' l p o n (*kulib*). Devorning qulog'i aylanib yurgandir-da!...

Andijonga ham borib, ota uyimdagi hamma qo'lyozmalarni yoqdim... Menga biror kor-u hol bo'lsa, ota-onam, singillarim jaddimga qolmasinlar deb o'yladim...

2 - y o s h s h o i r. Bekor yoqayapsiz!...

C h o' l p o n. Yozaman-u yoqaman... (*Gulxanga tashlayotgan qog'ozni g'ijimlarkan, yosh shoirga ko'rsatib*) Bu she'r senga yoqqandimi?

2 - y o s h s h o i r. Juda yoqqandi! Juda! Balki yoqmaganingiz ma'quldir!...

C h o' l p o n. Uka, gulday yurtimiz yonganda, bu qo'lyozmalar yonsa nima bo'пти!

2 - y o s h s h o i r. Bir eshitganim bor. Qo'lyozmalar yonmas emish...

C h o' l p o n. Bu gaplar bir tasalli uchun aytilganda... Qo'lyozmalar yonadi! Shunday yonadi-ki!... Bu dunyoning adadsiz yong'inlari qanchadan qancha qo'lyozmalarni yamlab yuborgan... Bu Turkiston tuprog'ida qanday buyuk daholar yuragi-yu aql qo'ri qorishgan qo'lyozmalarining kullarisovrilib yotibdi... Yovuz kuch borki, birinchi galda, avvalo, aql va yurakli odamlarga hujum qiladi. Chunki, aql topgan mantiq yurak qo'ri bilan toblansa, uni yengib bo'lmasligini yovuzlik yaxshi tushunadi... Kitoblarning baxti qaroligi shu sababdan...

2 - y o s h s h o i r (*Gulxanga navbatdagi qog'ozni tashlayotgan Cho'lponning qo'lini ushlab*). Iltimos, shu she'rni yoqmang!

C h o' l p o n. Bu uyda she'r asrab bo'lmaydi! Yangang bor... Uni asrashim kerak. Unga biror gap bo'lsa, o'zimni kechirolmayman. Meni etagimdan ushlab yurgan bu ayol har qanday sharoitda ham baxtiyor... hech bo'lmasa, Omon qolmog'i zarur. O'zim esa borgan sari omonatga o'xshab qolyapman!...

2 - y o s h s h o i r. Abdulhamid aka, shu she'rning qo'lyozmasini menga bering! Asrab, yaxshi kunlarda sizga qaytarib beraman!...

C h o' l p o n. Yaxshi kunlar qachon keladi, kim biladi! Yovuzlik esa boshimizga egilgan. Qo'li bo'g'zimizda, ko'zi har bir harakatimizni sinchiklab kuzatib turibdi... Sendan bir iltimos bor! Meni yonimda ko'p o'ralashma! Meni yo'qlab maqola ham yozibsan...

Kerak emas!... Bular shubha qilganlarni omon qoldirmaydi. Ularning tadbiri bilan aytsak, «qayta tarbiyalangan»ga o'xshab, «o'z-o'zingni tanqid qilib» deganday yuraver... (*qog'ozni o'tga tashlaydi*).

2 - y o s h s h o i r. Balki siz ham...

C h o' l p o n. Meni qanday shoir deb o'ylaysan?

2 - y o s h s h o i r. Siz — Yangi she'riyatimizning asoschisi... Xullas, birinchi shoirimiz-siz!..

C h o' l p o n. — Bilib qo'y, demak, har bir ishda ham birinchilikni xudo peshonamga bitgan... Menga yarashmaydi! Tavba qilsam ham, yolg'onligini ular bilib turadilar! Men... Cho'lponman! Vatanni toptayotganlarga ta'zim qilsam, uyat bo'ladi! Ming o'lgulik ish bo'ladi! Ming o'lgandan yomon bo'ladi! Biroq...bular o'ldirmasa ham, baribir o'lib ketaman! Chidayolmayman!... Bunday yashashga chidayolmayman! Shoir aytar so'zini o'z erkida aytolmasa!... Hozir hamma baxtni kuylashga o'tayapti! Men esa bebaxt yurti ko'rib turib, baxt haqida yozolmayman!... (*Sukut*) Hozir esa yaqinlarimning, do'stlarimning bexatarliklarini o'ylashim kerak. Men uchun ular aziyat chekmasinlar!.. (*Gulxanga ishora qilib*) Mana, bir kechalik azobim, yondi ketdi! (*Eshik taqillaydi*). Kim keldi ekan?

2 - y o s h s h o i r. — Yangamdir...

C h o' l p o n. — Yo'q, uning kelishini avvaldan sezaman... Boshqa odamdir...

.... Qorong'ulik ko'tarilganida, Cho'lpon hamon gulxanda qo'lyozmalarni yondirish bilan ovora. Faqat endi kuz emas, qish. Qor uchqunlayapti. Shoir qishlik libosda...

K o' r i n m a s o d a m. — Bular eski she'rlar-ku! Bu kecha yozganlarini nima qildi ekan?... Umuman, yozganlarini bizga o'qitib, keyin yoqsa, ma'qul bo'lardi. Men ham ovora bo'lmasdim. Yaxshisi, bu shoir-yozuvchilarga «falon mavzuda yozasan» deb aytib qo'ygan ma'qul! Axir, bizga o'xshagan qancha odam ovora: birovimiz tepaga xabar beramiz! Yoki yigirmanchi yillardagi dohiymiz Lenin tashabbus ko'rsatganlariday, hammasini xorijga haydab yubormoq ma'qul. Bitta qoldirmay. O'shanda bemalol, tinchgina yashardik... Kun sovuq... Padariga la'nat shu shoirlarni!

Cho'lpon uning gaplarini eshitmaydi.

C h o' l p o n. — Kimdir gapiryaptimi-yey!.. Devorning qulog'i borligiga-ku ko'nikib qolgan edik, endi tili borligiga hech ko'nikolmayapman....

Soliha kiradi.

S o l i h a. — Abdulhamid aka!

C h o' l p o n. — Keldingmi, Soliha! Seni kutib o'tirgandim.

S o l i h a. — Uyga kiring, sovuq qotibsiz.

C h o' l p o n. — Yo'q... Soliha, hozir Andijonga ketasan.

S o l i h a. — Men siz qayga borsangiz, o'sha yerda bo'laman deb aytgandim-ku!

C h o' l p o n. — O'shanda nega ajralmog'imiz lozimligini yaxshi tushuntirilmagan edim...

S o l i h a. — O'zimning shoirim, nima kerak yolg'on gap? Menga qancha og'ir bo'lsa ham, rostini ayting... Boshqa birovni yaxshi ko'rib qoldingizmi?

C h o' l p o n. — Gap shundaki, o'rtamizda farzand yo'q....

S o l i h a. — (*mung'ayib*) Ha....

C h o' l p o n. — Keyin qulog'imizga yetdiki, sen boshqaga ko'ngil qo'yibsan... (*sukunat*).

S o l i h a. — Yana nima qilibman?

C h o' l p o n. — Yana nima qilmoq kerak?

S o l i h a. — Meni ketmog'im shuncha zarurmidiki, yolg'onga jur'at etdingiz? (*Cukunat*).

C h o' l p o n. — Boshqa gapirma... ket. — (*sukut*) Eshikning oldida izvoshni ko'rdingmi? Narsalaringni izvoshga joylab qo'ydim. Mana bu chipta... Meni endi hech izlama. Meni deb kuyma ham... Biror bir yaxshi odam uchrasa turmushga chiq! ...

S o l i h a. — Xo'p, mayli... Muhabbat osmonidagi yorug' Cho'lpon... Xayr-mi! Sezib turibman, endi peshonamizga qaytib ko'rishmoq bitmagan ko'rinadi. Endi yulduzsiz, osmonsiz dunyoda yashayveraman... Faqat aytib qo'yay, men sizni ko'raman, Cho'lponim! Va... Bu qilgan yaxshiligingizni hech qachon unutmayman...

C h o' l p o n. — Qanday yaxshiligimni?

S o l i h a. — Hammasini fahmlab turibman. Devorlarning qulog'i uchun, hovlimizda aylanib yurgan daydi itlar uchun, bog'larimizga qo'ngan qarg'alar uchun aytayotgan gaplaringizni fahmladim...

C h o' l p o n. — Soliha, poyezdga kechikasan... Faqat omon bo'li! Meni eslama!...

S o l i h a. — Sizni eslamay bo'ladimi? Endi bu dunyoda «Cho'lpon, Cho'lpon» deb o'lib ketsam kerak! Asli, nima keragi bor edi shu yolg'onlarni. O'limga ham birga boraverar edik...

C h o' l p o n. — O'limni meni o'zimga qo'yib ber!... Hech bo'lmasa, yaxshi ko'rganim insonni ozod etoldim deb, uning qoshiga g'urur bilan boray?

S o l i h a. — G'urur shumi?.. Shumi g'urur? Bu zamon bizga g'urur qoldirdimi? Keling, bo'yinlaringizga osilib, hidlaringizga bir to'yib olay!

Ular quchoqlashadilar. Dahshatli musiqa, olam tugayotganday... Ular ajralarkan,
Soliha Oydanda Go'zalga aylanib boradi.

Oydanda Go'zal. — Alvido!

C h o' l p o n. — (*chiday olmay, o'z-o'ziga gapirganday*) Yo'q... Alvido dema! Xudo xohlasa, uchrashamiz! Parvardigor insonlarday bag'ri tosh emas, hech bo'lmasa, u dunyoda uchrashtiradi! Ko'rasan, uchrashtiradi!

O y d a n d a G o' z a l. — Cho'lponim! Sizni xudoga topshirdim...

C h o' l p o n. — Seni ham, seni ham... Meni kechir....

Oydanda Go'zal Soliha chiqib ketadi.

SHAROF BOSHBEKOV

(1951)

Sharof Boshbekov «Temir xotin» va boshqa pyesalari bilan xalqimiz orasida dovrug' taratgan dramaturglardandir. U Samarqand viloyat Bulung'ur tuman G'ubir qishlog'ida dehqon oilasida tug'ilgan. M. Uyg'ur nomidagi san'at instituti musiqali drama bo'limida tahsil ko'rgan, institutni bitirgach, 1974—1985-yillari Olim Xo'jayev nomidagi Sirdaryo, so'ng Muqimiy nomidagi musiqali teatrlarda aktyor sifatida faoliyat ko'rsatgan. Qator yillar Respublika Yosh tomoshabinlar teatrida adabiy emakdosh sifatida ishlagan. Adabiy ijodni hajviy hikoyalar yozishdan boshlagan.

«Taqdir eshigi» (1980) uning dramaturgiyadagi ilk qadamlaridan biri bo'ldi. Sh. Boshbekov pyesalari shaxs erkinligi, o'zligini anglash, qadr-qimmat, vijdon, ezgulik muammolariga bag'ishlangan. «Tikansiz tipratikanlar» (1981), «Tushov uzgan tulporlar» (1982), «Muzika sayyorasi» (1984), «Eski shahar gavroshlari» (1987), «Temir xotin» (1988), «Eshik qoqqan kim bo'ldi?» (1989), «Tentak farishtalar» (1995) kabi pyesalar shu mavzularda bo'lib, ularda dramaturg uslubiga xos timsoliy ifoda, obrazlarni g'alati (porodaksal) holatlarga solish tasviriyl omillari yaqqol ko'zga tashlanib turadi.

Uning ijodi kino va televideniye bilan ham bog'liq. «Sharif va Ma'rif», «Yuzsiz» (1993), «Tilla bola» (1994) kabi filmlar ssenariylarini yozishda «Masxaraboz» (1996) filmini yaratishda ham ssenariy muallifi va rejissor sifatida qatnashdi. Tomoshabinlar orasida shov-shuvga sabab bo'lgan ko'p seriyali «Charxpalak» telefilmi ssenariysi ham Sh. Boshbekov qalamiga mansub.

Fransuz adibasi J. Saaraning «Ma'mura kampir», Molyerning «Uchar tabib» asarlari uning erkin tarjimasida A. Hidoyatov va Yosh tomoshabinlar teatrlarida sahna yuzini ko'rgan.

Sh. Boshbekov pyesalari teatrlarimiz repertuarida faol o'rin tutib keladi. «Taqdir eshigi» 1987-yili «Milliy» teatrdan rejissor T. Isroilov tomonidan sahnalashtirildi. «Eski shahar gavroshlari» Yosh tomoshabinlar teatrida. Ular 1988-yili Respublika teatrlari «Navro'z» festivalida yuqori baho olgan. Lekin o'sha yili oliy mukofot Farg'ona viloyat teatrining «Temir xotin» (rejissor O. Salimov) spektakliga nasib etdi.

Spektakl O'rta Osiyo va Qozog'iston teatrlarining 1989-yili Bishkekda o'tgan «Navro'z» festivalida oliy mukofotga, unda Qo'chqor rolini o'ynagan M. Yusupov eng yaxshi erkak roli uchun sovrinini olishga muvofiq bo'ldi.

Sh. Boshbekov shu asari uchun 1989-yili O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining M. Shayxzoda mukofotiga sazovor bo'ldi.

1990-yili u Respublika Davlat mukofoti, 2001-yili esa «Mehnat shuhrati» ordeni bilan mukofotlandi.

OLIMJON SALIMOV

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi Olimjon Salimov 1947 yili Namangan viloyat kostonsoy shahrida tug'ilgan. U Toshkent teatri san'ati institutining ham aktyorlik (1969), ham rejissyorlik (1983) bo'limlarini tugatgan. Avval Hamza nomli Qo'qon teatrida aktyor, so'ng Farg'ona viloyat teatrida (1984-1993 y.) rejissyor va bosh rejissyor sifatida ishlagan. Uning rejissorlik iste'dodi aynan Farg'ona teatrida Ch.Aytmatovning «Sohil bo'ylab chopayotgan qoplon», Sh.Boshbekovning «Temir xotin», «Taqdir eshigi»,

E.Vohidovning “Oltin devor”, B.Darveshovning “Toshkentga sayohat” asarlari talqinida keng namoyon bo’ldi. 1993 yildan buyon O.Salimov Respublika yosh tomoshabinlar teatrida bosh rejissor sifatida faoliyat ko’rsatib keladi.

SHAROF BOSHBEKOV ASARLARI HAQIDA M.TO’LAXO’JAYEVA SHARHI (1989-yil O’rta Osiyo va Qozog’iston teatrlari festivalida)

Festival asarlari ichida aktyorlik muvaffaqiyatlari, rejissor fikri, rassomning qiziqarli mehnati mujassamdek, tomoshabinlar ham bu spektakllarni qiziqib ko’rayotgandek tuyulsa-da, baribir, hayot haqida jiddiy, katta va zamonga mos suhbat bo’lgani yo’q.

Birdan kutilmagan voqea yuz berdi. Buni mo’jiza deb atash mumkin. Yana bir milliy spektakl ko’rsatildi. Lekin u ayni festival qatnashchilari va tomoshabinlarni quvonchli taraddudga solib qo’ydi, chunki Farg’ona oblast muzikali drama va komediya teatrining Sh. Boshbekov asari asosida sahnalashtirilgan «Temir xotin» spektaklida hozir bo’lganlarning hech biri chinakam milliy pyesaning, bugungi kunimiz qahramonining yangi sotsial tipini ko’rsatuvchi spektaklning tug’ilishiga shohid bo’laman, deb o’ylamagan edi.

Shu yilning fevralida Toshkentda o’tkazilayotgan respublika festivalida «Temir xotin» spektakli O’zbekiston poytaxti teatr hayotining markaziy voqeasi bo’lib qolgan edi. Spektaklni tomoshabin va tanqidchilar yakdillik bilan qabul qilishdi. Unga Bosh sovrin topshirildi. Endi, ikki oy o’tgach, Frunzeda o’tkazilgan «Navro’z—89» festivalida bu narsa qaytadan takrorlandi...

Sh. Boshbekov insonni o’z-o’zini anglab yetishi xususidagi g’oyat jiddiy sotsial muammoni qalamga oladi. Pyesada siyosiy shiorlar yo’q, umuman tendensiyalilik hamda qandaydir o’gitbozlik va tashviqotga intilish mavjud emas. Muallif hayotiy reallikni hamda uning vositasida insonni badiiy vositalar yordamida tasvirlashga intilgan.

*Muhabbat To’laxo’jayeva. «Izlanishlar
va yechimlar». «San’at» jurnali,
1989-yil, 11-son.*

Yashirishning hojati yo’q. Yaqin-yaqingacha «o’zbek teatri tanazzulga yuz tutyapti», o’zbek rejissurasi yo’q, o’zbek dramaturgiyasi, aktyorlarning ijrochilik mahorati haqida gap ham bo’lishi mumkin emas qabilidagi uzun-quloq gap-so’zlar og’izdan-og’izga ko’chib yurardi. Bu xil fikr-mulohazalarning mavjudligi bugungi kunda har ehtimoldan xoli emas. Qizig’i shundaki, biz teatr muxlislari ham shunday «axborotlar»ga ishonib qolgan, go’yo teatr deyilsa, «bo’m-bo’sh teatr zali» ko’z oldimizda gavdalanadigan bo’lib qolgan edi.

«Navro’z—89» festivali va uning natijalari qay bir ma’noda mish-mishlarga zarba berdi, festival juri hay’ati bir ovozdin Farg’ona oblast muzikali drama teatrining «Temir xotin» jiddiy komediyasiga «Navro’z—89» festivalining bosh sovrinini berdi. Endi bu spektakl Moskvada Xalqlar do’stligi teatrida namoyish etiladi va an’anaga ko’ra yanagi yil Dushanbeda o’tadigan «Navro’z—90» festivali ham ana shu g’olib asar bilan ochiladigan bo’ldi...

*Erkin Usmonov, Tatyana Polonskaya.
«Uchrashuvlar davom etadi», «San’at»
jurnali, 1989-yil, 7-son.*

«TAQDIR ESHIGI»: TO’G’ON REJAMETOV ERKAK ROLIDA

...«Taqdir eshigi» pyesasining o'ziga xosligi ko'p qatlamli mushohada yo'sini spektaklda o'zgacha jilo bilan aks etgan. Spektaklda yosh, ammo dunyoqarashlari mustahkam qaror topgan san'atkorlarning ijodiy hamkorligi namoyon bo'ldi. Bu ma'noda, ayniqsa, rejissor (Habibulla Fayziyev) va ikki aktyor havas qilarli hamjihatlikka erishganlar. Spektaklda bosh qahramon bo'lmish Ayol rolini Shirin Azizova bugungi professional mezonlar talabiga javob bera oladigan darajaga ko'targan.

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist To'g'on Rejаметov ham o'zining eng yaxshi sahnaviy obrazini yaratgan edi, desak ham mubolag'a bo'lmaydi. To'g'ri, To'g'on Rejаметovning kino va teatr ijodiy biografiyasi boy va serqirra edi. Boz ustiga, u ijodiy tafakkuri kamolga yetgan yuksak intellektual madaniyatli aktyorlar sirasiga kiradi. Uning shu davrgacha bo'lgan ijodiga nazar tashlansa, ikki yorqin cho'qqini ko'ramiz. Bular «26-otilmasin» filmi va «Taqdir eshigi» spektaklida o'ynalgan rollaridir.

«Taqdir eshigi»da To'g'on Rejаметov o'z ijodiy uslubiga sodiq qolgan, qahramonining murakkab ichki dunyosini ochib berishda hayotiy talqinga erishgan. To'g'on Rejаметovning bu qahramoni talabchan o'lchovlar mezonida ham o'zining zamonaviyligi, shu dolzarb asrimiz, bugungi kunimiz ekanligiga ishontira oladi. To'g'on Rejаметov yengil kulgi qo'zg'atuvchi emas, balki chuqur mulohazaga da'vat etuvchi lirik, hatto romantik obraz yaratib, o'zbek teatri tarixiga o'ziga xos sahnaviy durdona armug'on etganiga ishonch hosil qilamiz.

Afsuski, shunday iste'dodli, teran talqin ustasi bo'lmish aktyorni bevaqt o'lim oramizdan olib ketdi.

*Sotimxon Inomxo'jayev. «Insoniy poklikni sharaflab...»,
«O'zbekiston adabiyoti va san'ati» gazetasi.
1983-yil, 4-fevral.*

O'zbek Yosh tomoshabinlar teatrining Sharof Boshbekovning «Eski juva gavroshlari» pyesasi asosida yaratgan spektakli teatr hayotida yaxshi bir sahifa ochdi. Bu teatr sahnasida o'smirlar hayoti bilan bog'liq asarlar an'anaviy tarzda ta'lim-tarbiya, odob-axloq kabi muammolar atrofida bo'lardi. Ularning ancha sodda, hatto primitiv sujet yo'nalishi, g'oyaviy yalang'ochligiga ham deyarli ko'nikib qolgandik. Bolalar oldida bolalar haqida hikoya qilish o'rniga, ularda ota-onalarining ta'lim-tarbiyadagi noshudliklari muhokama qilinardi. Umuman olganda, yangi spektaklda shunga o'xshash ayrim alomatlar bor. Lekin avtorning u orqali sahnada harakat qilayotgan qahramonlarning keng ma'nodagi samimiyligi, yonib turgan qalbi, o'z hayotini — demak, u orqali yurti hayotini yaxshiroq, go'zalroq ko'rishga intilish va ishonchi, inson-insonga do'st-birodar, degan g'oya shiorlarda emas — kishilar qismatida, xatti-harakatida, intilishlarida buloq suvidek beg'ubor sizib chiqishi, qahramonlarning qilmishi, yurish-turishining barcha turdagi tomoshabinga birdek tanish va yaqinligi, eng muhimi (garchi birinchi planga chiqarilmasa ham) jamiyatimizdagi kamchiliklardan ko'z yumilmagani, tomoshabinlar oldida, ular bilan umum va shaxsiy muammolar ustida fikrlashga bo'lgan chuqur va samimiy intilish spektaklga o'zgacha ruh baxsh etgan...

*Hamidjon Ikromov, «O'zbekiston adabiyoti
va san'ati» gazetasi, 1989-yil,
16-iyun, 25-son.*

TEMIR XOTIN

(Qo'chqor va Alomat sahnasi)

A l o m a t. Tushunmaydigan narsalaringizni so'rang, javob beraman.

Q o' c h q o r. Mana, deydik, men nimadandir xursand bo'ldim-a? Siz ham menga qo'shilib xursand bo'lasizmi?

A l o m a t. Yo'q, men unda xotirjam bo'laman. Negaki biron joyingiz og'riyotgani yo'q, qorningiz to'q, hech nima bezovta qilmayapti — demak, hammasi joyida.

Q o' c h q o r. E-e, unda siz ham o'zimizning mahalliy hokimiyatga o'xshagan ekansiz-da. Ular ham na dardingga sherik bo'ladi, na xursandchiligingga, nomi «mahalliy» bo'lgani bilan, bilmayman, narigi mahallaga qaraydimi... (*Birdan.*) Alomatxon, Siz yig'lay olasizmi?

A l o m a t. Yo'q.

Q o' c h q o r. Ayol kishining har zamonda yig'lab turgani yaxshi... Yengil tortadi. Erkakning yo'rig'i boshqa — uyat bo'ladi. Mana, men sira yig'lamaganman... (*O'ychan.*) Lekin, uyat bo'lmaganida yig'lardim...

A l o m a t. Uyat bo'lmaydi, yig'layvering.

Q o' c h q o r (*hijolatli*). E, qo'ysangiz-chi, qiziqmisiz...

A l o m a t. Chindan ham uyat bo'lmaydi, nimaga desangiz, men uyatni tushunmayman. Elektromagnit to'lqinlari bo'lsa, boshqa gap. Mana, hozir siz yig'layvering, Qo'chqor aka. Men robotman-ku, temirdan ham uyaladimi, odam?

Q o' c h q o r (*birpas o'ylab turib*). Nima deb yig'layman?

A l o m a t. So'z yozib beraymi?

Q o' c h q o r. Yo'g'-e, endi yig'lashniyam qog'ozga qarab yig'lasak, uyat bo'lar.

A l o m a t. Men odamlar haqida boshqacha tasavvurda edim. Ularning erki qo'lida, deb o'ylardim. Nahotki, xulosalarim noto'g'ri bo'lsa?

Q o' c h q o r. Haliyam erkimiz qo'limizda.

A l o m a t. Nega bo'lmasam yig'lamayapsiz?

Q o' c h q o r. Endi, Alomatxon, dabdurustdan qiyin-da. Bir sabab bo'lmasa...

A l o m a t. Sabab topamiz.

Q o' c h q o r. Qanday qilib.

A l o m a t. Gipnoz qilib.

Q o' c h q o r. Nima-pnoz?

A l o m a t. Gipnoz. Qanday qilib, gipnoz faqat yolg'ondan iborat bo'ladi. Masalan, tishi og'rib turgan odamga «tishingiz og'riyaptimi», deb.

Q o' c h q o r. Yolg'on gapga yig'lamayman.

A l o m a t. Axir yolg'on xuddi rostday qilib gapiriladi-da! Hamma ishonadi, hatto gapirayotgan odamning o'zi ham! Qani, mundoq o'tiring-chi. Boshladik. Ko'zimga qarang... Bo'shashing... G'o'daymang, deyaqman... Yaxshi...

Q o' c h q o r. Qo'ying, nima keragi bor, baribir yig'lamayman...

A l o m a t. Yig'laysiz (*Qo'llarini Qo'chqorning boshi uzra harakatlantirib.*) Yig'laysiz... Chunki juda ezilgansiz.... Yuragingizga qil ham sig'maydi... Ich-ichingizdan

bir nima toshib kelyapti... Hech kimning rahmi kelmaydi, birov dardingizga sherik bo'lmaydi... O'z yog'ingizga o'zingiz qovirilib yashayapsiz... Aft-angoringizga bir qarang, qirqqa kirgan qirchillama yigitsiz-ku, ko'rgan odam sizni elikka kirgan odam, deb o'ylaydi... Qurib-qaqshab boryapsiz... Esingizni tanibsizki, tinmay mehnat qilasiz, lekin hech biringiz ikki bo'lmaydi... Ro'zg'or, bola-chaqa tashvishi, deysiz, afsuski, bu tashvishlarning cheki yo'q. Ertalabdan kechgacha chumoliday g'imir-g'imir qilasiz-u, rohatini ko'rmaysiz. Kiyib olgan kiyimingizni qarang, yengil sanoat yetishtirayotgan hamma brak mahsulot siz va sizga o'xshaganlarga nasib qiladi. Nima? Shu issiqda ham neylon ko'ylak kiyadimi?

Q o' c h q o r. Magazinga kelgan ekan, arzongina deb...

A l o m a t. O'zingizga bir tashqaridan qarang, qaysi zamonda yashayapsiz o'zi? Kimga o'xshaysiz (*Eski ko'rpachalarni ko'rsatib*.) «Paxtakorman» deb ko'kragingizga urasiz-u, ko'rpangizga paxta topolmaysiz! Oyog'ingizga ilib olgan kalishingiz qayerdan chiqqan? Yangiyo'ldanmi, Toshkentdanmi?

Q o' c h q o r (*oyog'ini yig'ishtirib*). Kalishmas, patinka...

A l o m a t. Bu dunyoga kelib nima ko'rdingiz, Qo'chqor aka? «Ikki marta Toshkentga borganman», deb maqtanasiz, odamlar «Oq dengiz-u Qora dengiz» qilib yurishibdi! «Ha endi, ular boshqacha odamlar-da», deysiz. Qanaqa boshqacha? Nimasi boshqacha?! Shu darajaga yetgansizki, bora-bora undaylarga havas ham qilmay qo'ygansiz! Havas qilaverib, orzu qilaverib charchagansiz, holdan toygansiz!

Q o' c h q o r. Nima qipti, el qatori yashayapmiz...

A l o m a t. Shunday deb o'zingizni ovutasiz. G'urur, qadr-qimmatingizchi? Mundoq o'ylab ko'ring, Biron tirik jon siz bilan hisoblashadimi? Yo'q, axir! To'y-ma'raalarda poygakda o'tirasiz! «Ulug'larga» tayyorlangan dasturxonga yaqinlashmaysiz, iloji boricha o'sha tomonga qaramaslikka tirishasiz! Chunki, «mehnatkash» degan mansab bilan to'rga chiqol masligingizni bilasiz! Shlapa kiyib, galstuk taqqan ketmondasta ham sizni haqoratlashi, tahqirlashi mumkin! Alam qilmaydimi?

Q o' c h q o r. Ha, endi, rahbar bo'lgandan keyin koyiydi-da...

A l o m a t. Bayram kunlari rayondagi namoyishdan bayroqcha ko'tarib o'tganingizga xursand bo'lib yuraverasiz! Majlislarda qo'l ko'tarish-u, chapak chalishni bilasiz, boshqa hech baloni ham bilmaysiz! Ko'pincha o'sha majlisda nima gap bo'layotganini ham tushunmaysiz!

Q o' c h q o r (*ta'sirlanib*). Gapingiz noto'g'ri. Alomatxon hurmat taxtasida suratimiz turibdi...

A l o m a t. Endi bor umidingiz bolalaringizdan. Ularni o'qitib «katta odam» qilmoqchisiz. Lekin ularingizdan «katta odam» chiqmaydi. Daladan beri kelmaydigan, chalasavod bolalardan nimaniyam kutib bo'lardi? Buni bilasiz. Yana «ko'pga kelgan to'y», deb yuraverasiz. Axir umr o'tib ketyapti-ku, Qo'chqor aka!

Q o' c h q o r (*ko'ngli to'lib*). Bari bir yig'lamayman... Yaxshi yashayapmiz, bildingizmi?

A l o m a t. Yig'laysiz... Ana, ko'zingiz to'lib turibdi... labingizni tishlamang. Qo'chqor aka, foydasi yo'q. Axir yosh ko'zdan chiqadi, og'izdan emas...

Q o' c h q o r (*yig'lagudek bo'lib*). Birov sizga hayotidan noliyaptimi?

A l o m a t. Hamma gap shunda-da, nolimaysiz! Ko'nikib ketgansiz. Yaralar toshga aylangan — og'riq sezmaydiz. Dod solib baqirish-ku, qo'lingizdan kelmas, hech qursa

ingrab qo'yishga ham qodir emassiz, Qo'chqor aka?! Qalbingizning unutilib ketgan, o'zingiz ham bilmaydigan allaqaysi burchaklarida miltillayotgan ushoqqina norozilikdan qo'rqasiz, uni sezmaslikka olasiz! To'g'ri, qadr-qimmatingiz oshkora haqoratlanganida o'sha miltillayotgan cho'g' alanga olayotgan bo'ladi va siz uni aroq bilan o'chirishga urinasiz. Dunyoga shirakayf ko'zlar bilan qarab, taskin topasiz, lekin ertasi kuni kayfingiz tarqab, dunyo yana asli holiga qaytadi! Shunda yig'lamoqdan o'zga chora qolmaydi. Keyin o'ksib-o'ksib yig'laysiz.

Q o ' c h q o r (*ko'zlarida yosh o'ynab*). Yolg'on!.. Hech qachon yig'lamaganman.

A l o m a t (*xotirjam*). Yig'layapsiz. Faqat, ko'zingizni narigi tomoni bilan yig'laysiz. Ko'z yoshlaringiz tashqariga emas, ichingizga yoqqan. Mana, mening ichim to'la temir-tersak, sizning vujudingiz faqat va faqat ko'z yoshidan iborat. Lim-lim yosh...

Q o ' c h q o r (*baralla yig'laganicha oyoq ostidagi yashikni zarb bilan tepib*) E, padariga la'nat hammasining!!!

A l o m a t (*gipnozni to'xtatib*). Nega unaqa qilasiz, Qo'chqor, aka? Aytdim-ku, gaplarimning hammasi yolg'on, deb. Bu gaplarga ishonish uchun juda go'l, kaltafahm bo'lish kerak. Nahotki, siz shunaqa odam bo'lsangiz?

Q o ' c h q o r. E, yolg'oningizni ham padariga ming la'nat! (*Yosh bolaga o'xshab g'ingshib yig'laydi. Alomatning yelkasidagi qizil mikroxxemani oladi-da, qo'shni hovli tomon otib yuboradi.*) Bozortoy! Xo', Bozortoy! Bir qarab yubor, og'ayni, juda kerak bo'p qolding! Bozortoy, jon do'stim, bir qaragin, ikki og'izgina gapim bor! Senga aytmam kimga aytaman, Bozortoy! Bozortoy, qadrdonim!..

ESKI SHAHAR GAVROSHLARI

To'rtinchi sahnadan parcha

...O'sha tanish ovoz hamon eshitilib turibdi. Husanlarning odmigina uyi. Huriniso bilan Husan jimgina quloq solib turishibdi, Hasan u yoqdan bu yoqqa yurib, kuyib-pishganicha nimalarnidir uqtiryapti.

H a s a n (*baqirib*). E, uyalaman men, tushunyapsizmi, uyalaman!

H u r i n i s o. Mayli bolam, endi bormayman. Haliyam o'zlari chaqirtirishmaganida bormasdim. Sirayam bormasdim.

H a s a n. Boring, bormang deyayotganim yo'q, lekin durustroq kiyinib olsangiz bo'lmaydimi?! Ahvolingizni qarang! Boshqalarning ota-onasiga ham mundoq bir razm soldingizmi? Kiyinishini ko'rdingizmi? Gapirgan gaplarini eshitdingizmi? Sizga so'z berishsa, nuqul yig'laysiz! Nima, azaga borganmisiz?

H u r i n i s o. Xursandchiligimdan, yig'ladim-da.

H a s a n. Xursandchiligimdanmish! (*Kuyinib.*) Qachon biz ham mundoq odamga o'xshab yasharkanmiz-a? Bu xontaxtangiz shimning sho'ri-ku! Qilichday dazmollangan shim besh minutda garmoshka bo'p qoladi! (*Husanga.*) Senga qoshiq olib kelib qo'y, deganimga qancha bo'ldi?

H u s a n. Allaqachon olib kelib qo'yganman.

H a s a n. Xo', kalla! Qanaqa qoshiq olib kelding? Shu zamonda kim yog'och qoshiqda ovqat yeydi?

H u s a n. Nima farqi bor, qoringa tushsa bo'ldi-da.

H a s a n. Ha, sho'rim qursin-a! Uyning ahvolini qaranglar — o'n sakkizinchi asr! Xo', insonlar, dunyoda madaniyat degan gaplar bor, axir!

H u r i n i s o (*Husanga*). Tandırxonaning eshigini suvab qo'y, devdim-ku.

H a s a n. E, men tandırxonangizni aytyapmanmi, umuman gapiryapman! Sizlar ham bir qaranglar, dunyoda nima gaplar bo'lyapti! Odamlar qanday yashayapti! Yuravergansizlar-da, mahalladan nariga chiqmay! Rigaga borganimda bitta og'aynimnikiga kirib og'zim ochilib qoldi! Ana yashash! Ana hayot! Madaniyat! Qizlar bilan qo'lini o'pib ko'rishishadi! Biz nega muncha qoloqmiz-a?

H u s a n. Qizlarning qo'lini o'pish madaniyat bo'lsa... Amazonka qirg'og'ida bir qabila yasharkan, qizlar bilan ko'rishganda oyog'ini o'parmish! Ana madaniyat! Ularning oldida Rigang nima bo'pti!

H a s a n. Nima qilasan, aqling yetmagan narsaga burningni tiqib!

H u s a n. Menga nima deysan, gazitda shunday deb yozgan-da. Yo'q, jurnalda ekan. «Fan va turmush»da. Qiziq, shunday madaniyatli bo'lsayam go'shtni xomligicha yeyisharkan! Madaniyat ishtahaga qaramas ekan-da, a?

H a s a n. Xomligicha yeyisharkanmi?

H u s a n. Iye, o'lay agar, shunaqa deb yozilgan! Kiyimining ham tayini yo'qmish. Temirning nimaligini ham bilishmasmish. Hamma narsa yog'ochdan yoki suyakdan yasalarmish. Lekin madaniyatli — qizlarning oyog'ini o'padi!

H a s a n. Be'mani gap! Axir biz junglida emas, har tomonlama rivojlangan mamlakatda yashayapmiz! (*Onasiga*.) Anavi sholchangizni qarang! O'ziyam ikkita jahon urushini ko'rgan bo'lsa kerak!

H u r i n i s o. Ro'yxat qilib ketishdi, hovlimiz buzilsa, baland uylardan berishadi...

H a s a n. Yangi uy bilan ish bitmaydi. (*Ko'rsatkich barmog'ini chakkassiga qadab*.) Mana bu yerda revoliutsiya qilish kerak, mana bu yerda! «Yangi uy»mish! U yoqqayam mana shu ashqol-dashqolingizni ko'tarib borasiz-da!

H u r i n i s o. Ha endi, ko'rarmiz... Axir buyoqda bor-u, birov sendan bekitib yotibdimi, bolam? (*Xo'rligi kelib*.) Peshanam sho'r ekan o'zi...

H u s a n. E, sen aralashma! Ko'paytirish jadvalini bilmaydi-yu, aql o'rgatganiga o'laymi! Yozga chiqib kalkulator olib beraman, deganding, qani? Men tengilar, to'rt yuz so'mligini tutishadi, men bo'lsam almisoqdan qolganini ko'tarib yuribman!

H u r i n i s o. Tan-u joninglar sog', yeyish-ichishdan kaminglar yo'q, buyum degani topiladigan narsa, bolam. Hammasi bo'ladi hali...

H a s a n. Qachon?! O'lgandami?! Shuncha vaqtdan beri bo'lmagan narsa endi bo'ladimi?

O'zini arang tutib turgan Huriniso yig'lab yuboradi.

Doim shu! Bir nima desam, darrov ko'z yoshi! Nima menga oson deb o'ylaysizmi? Kechalari uyqudan qolib, ko'zimning nurini to'kib, yozib-chizib o'tirishimni bilasiz-ku. Hech bekordan-bekor laqillab yurganimni ko'rganmisiz? Qani Husaningiz ham shunaqa o'qisin-chi! Og'zingizdan «Husanjon, Husanjon» tushmaydi! Nima, men o'gaymi?

H u r i n i s o. Kim unaqa deyapti, bolam?

H a s a n. Nega bo'lmasam «peshanam sho'r, peshanam sho'r» deyaverasiz? Mayli, agar ja og'irligim tushayotgan bo'lsa, oddiy maktabga o'tib o'qishim mumkin. Yomon bolalarga qo'shilib, dars qilmay, ko'cha changitib yuraveraman.

H u r i n i s o. Yo'q, yo'q, sen o'qishing kerak, bolam! O'qishing kerak...

H a s a n. Bo'lmasa chidanglar-da!

H u r i n i s o. Chidaymiz, bolam, chidaymiz... Chidamay qayoqqa ham borardik...
(*Ko'z yoshini arta-arti ichkariga kirib ketadi.*)

H u s a n (*biroz jimlikdan so'ng*). Bekor qilding...

H a s a n. Vey, keyingi paytda ja aqli bo'p ketyapsanmi a? Onamiz yaxshiroq kiyinib yursalar yomonmi? Uyda stol-stulda o'tirib, mundoq sal madaniyatliroq bo'lsak yomonmi?

H u s a n. Yomonmas... Lekin, o'sha madaniyat uchun pul kerakmi, axir? Tekinga madaniyatli bo'lolmaysan. Ko'chada ko'rganingni uydan talab qilaverasanmi? Birov undoq yashaydi, birov mundoq. Men ham shu narsalarni o'ylayman. Oyim ham shuncha harakat qilyaptilar. «Men o'qiydigan maktabda farrosh bo'lib ishlamang, uyalaman», deding, boshqa maktabga o'tib ishlayaptilar. Bo'lmasa, juda uzoq, ikkita avtobusga o'tirib boradilar. Bir emas, uchta joyda ishlaydilar. Bitta odamning qilgani shuncha bo'ladi-da.
(*Botinolmay*). Men ham qarab turganim yo'q, ishqilib, qo'limdan kelganicha...

H a s a n. Rahmat, qarab turmaganingiz uchun! Toparmon ukajonimizga qullu-u-uq!
(*Jiddiy.*) O'sha har zamonda beradigan to'rt-besh so'mingni pesh qilyapsanmi?

H u s a n. Pesh qilayotganim yo'q...

H a s a n. Shoshma hali, vaqti kelib sen bir yilda topadiganingni men bir oyda topaman. Ana o'shanda salom-alik qilamiz!

H u s a n (*sidqidildan*). Juda yaxshi, top. Qaytanga xursand bo'laman.

Shu payt jahldan bo'zarib ketgan qo'shni yigit kirib keladi, qandaydir daftarni g'ijimlab ushlab olgan.

H a s a n. E-e, keling, Rasul aka.

Q o' s h n i y i g i t. Xo', akademik! (*Qo'lidagi daftarni Hasanning basharasiga otib.*) Ma!.. Ishlab bergan masalangni pishirib ye! (*Yig'lagudek bo'lib*). Sharmanda qilding-ku odamni!.. E, sendaqa Lobachevskiydan o'rgildim!...

H a s a n (*parvo qilmay, yerdan daftarni olib qaraydi*). Iye, o'zingiz masalani noto'g'ri ko'chiribsiz-da, Rasul aka. Mana bu iks minus nol ildizga olinishi kerak ekan.

Q o' s h n i y i g i t. Unisi bilan ishim yo'q, pulni cho'z!

Hasan cho'ntagidan bitta o'n so'mlik olib yigitga uzatadi. U pulni olib, g'o'ldiraganicha chiqib ketadi. Husanning hayratdan og'zi ochilib qoladi.

H a s a n (*hech gap bo'lmaganday*). Hm, ahmoq!.. Kitobdan masala ko'chirishni bilmaydi-yu, shovqini olamni buzadi! Hech qisi yo'q, hali o'zi yalinib keladi. (*Soatiga qarab qo'yib.*) Bo'pti, men borishim kerak. (*Husanga*). Kulrang kastumimni olib chiq.

Kimga aytyapman?

Husan unga tikilganicha qimirlamay turaveradi.

H u s a n (*sekin*). O'zing olib chiq.

H a s a n. Iye?.. Yangilik-ku!.. Xo'-o'p. Mayli-i! (*Ichkariga*) Oyi!

H u r i n i s o (*darrov chiqib*). Ha, bolam?

H a s a n (*Husandan ko'zini uzmay, onasiga*). Kulrang kastumimni olib chiqing.

H u r i n i s o. Xo'p bolam. (*Keta boshlaydi*.)

H u s a n. Opchiqman, oyi.

H u r i n i s o (*to'xtab*). Nega?...

H u s a n. O'zi opchiqsin.

H a s a n. Esing pastligini bilardim-u, lekin bunchalik ahmoqsan, deb o'ylamagandim. (*Onasiga*.) Kastumimni opchiqing, dedim, karmisiz!

H u s a n. (*yugurib borib Hasanning yoqasidan oladi*). Nima deding?! Nima deding, deyapman?!

H a s a n. Iye?... Qo'lingni ol!... Yaxshilikcha qo'lingni ol!... Oyi, buningiz jinni bo'p qopti!.. Ayting, qo'yvorsin.. !

H u r i n i s o. Voy sho'rim!... Hay, hay, Husan!... Nima qilyapsan, esi yo'q!

H u s a n (*Hasanga*). Kimga baqiryapsan?! Kimga-a?! Qaytib ol gapingni, qaytib o-ol!...

H u r i n i s o. Husan, deyapman! Ha, qo'lginang singur, qo'yvor uni!...

H u s a n (*Hasanga*). Kechirim so'ra hozir! Bo'lmasa mana shu aqlli boshingni yorib tashlayman!

H a s a n. Oyi!... E, qarasangiz-chi!...

H u r i n i s o (*Husanni qo'lidagi sochiq bilan savalab*). Qo'yvorasanmi, yo'qmi?! Sen hali o'z jigaringga qo'l ko'taradigan bo'p qoldingmi, a? Qachon senga aql kiradi, esi past?!

Husan Hasanning yoqasini qo'yvoradi, birpas u yoqdan-bu yoqqa chorasiz yurib turadi-da, yig'lamsiragancha kelib ko'rpachaga o'tiradi.

Endi shu yetmay turuvdi!... Birov eshitsa nima deydi? Shoshma hali sen!... (*Hasanning yoqasini to'g'rilab*.) Qo'y, xafa bo'lma, bolam. U bilan o'zim gaplashib qo'yaman. Hozir... (*Ichkariga kirib ketadi*.)

H a s a n (*Husanga*). Hech qisi yo'q, bu esda turadi. Unutmaymiz!

H u s a n. Men ham unutmayman! Kechirim so'ramaguningcha unutmayman!

H a s a n. Iye, senga nima? Qani, o'zlari xafa bo'ldilarmi? Tiling chiqib qopti! O'zlari indamayaptilar-ku!

H u s a n (*qiynalib*). Indamadi, degan gap — og'rimadi degan gap emas...

H a s a n. Voy-voy-voy-ey! Qaysi kitobdan o'qib ola qolding?

H u s a n. Bir joying hadeb og'riyversa, borib-borib og'riqqa ko'nikib ketasan..

H a s a n (*boshini sarak-sarak qilib*). Chatoq bo'pti-ku!

H u r i n i s o (*kastumini olib chiqib*). Ma, kiyib ola qolgin. (*Kiygizadi*.)

H a s a n (*onasiga*). Mendan xafa bo'ldingizmi?

H u r i n i s o. Voy, nega xafa bo'larkanman, bolam. Qo'ysang-chi...

H a s a n (*Husanga*). Ana!

H u r i n i s o. Mayli, o'zing xafa bo'lmaygina borib kelgin, xo'pmi, bolam.

Hasan chiqib ketadi. Husan unsiz yig'lamoqda edi.

Qilg'iliqni qilib qo'yib, nega yig'laysan endi? (*Xo'rligi kelib.*) Otangning bu kunlarni ko'rmay o'lib ketganiyam yaxshi bo'lgan ekan...

H u s a n (*ro'yirost yig'lab*). Unaqa demang...

H u r i n i s o (*yig'lab*). Nima dey bo'lmasa?! Hozirdan bir-biringni go'shtingni yesang, nima dey? Shular birovdan kam bo'lmasin, otasizligi bilinmasin, deb boshimni u toshdan olib, bu toshga uraman... Mendan keyin bir-birlariga suyanchiq bo'lar, biri qoqilsa, biri turg'azar, deb yuribman men ahmoq...

H u s a n (*o'tinib, iztirobli*). Bo'ldi, oyi...

Sukut.

H u r i n i s o (*ko'z yoshlarini artib*). Senlar aka-ukadan ham yaqinroq bo'lishinglar kerak, Hasan-Husansizlar axir...

Sukut

H u s a n. Nega bunaqa bo'lyapti, oyi, nega?... Ikkovimizning qo'limizdan ushlab, bir kunda maktabga olib borgansiz. Ikkovimiz ham yaxshi o'qirdik. Har yili maqto'v qog'ozi olib kelardik. Maktabda otimizni ham qo'shib aytishardi, «Hasan-Husan To'ychiyevlar» deb. Keyin-keyin u «Hasan To'ychiyev» bo'lib ketdi, men «Husan To'ychiyev» bo'lib qoldim... Qayerdadir yo'limiz ayricha ketdi... Qayerda, oyi?

Huriniso jim.

U uxlab yotadi, mening bo'lsa uxlagani vaqtim yo'q: kitob-daftarini sumkasiga solganmi, galstugi qayerda, kastumi cho'tkalanganmi, shimi dazmollanganmi-yo'qmi, ruchkasiga siyoh tortilganmi... Qalamlarining uchigacha chiqarib qo'yaman! Yo'q, oyi, minnat qilayotganim yo'q! O'lib ketay agar, minnat qilsam! Agar kerak bo'lsa, Hasan uchun kechalari vokzalda ko'mir tushirishgayam roziman — g'ing demayman. Lekin... lekin sizni nima ko'ylarga solyapti, ko'rib turibman-ku, ko'r emasman, axir!

H u r i n i s o. Qo'y, bolam, o'ksima... Kimning peshonasiga nima yozilgan bo'lsa, o'sha bo'ladi...

*Sharof Boshbekov. «Eshik qoqqan kim bo'ldi?»
Pyesalar. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot
va san'at nashriyoti, 1989-yil.*

TO'RA MIRZO

(1956)

Yetuk shoir va dramaturg To'ra Mirzo (To'ramirzo Jabborali Dadamirzo o'g'li) Namangan viloyat Chortoq tumanining Peshqo'rg'on qishlog'ida tug'ilgan. Maktab ta'limini olgandan so'ng 1979-yili Mannon Uyg'ur nomidagi san'at institutining teatrshunoslik bo'limida tahsil ko'rgan. Keyinroq Moskvadagi oliy adabiyot kursida o'qigan. Badiiy ijodiyotga 1970-yillari shoir sifatida kirib keldi va o'tgan davr ichida o'nga yaqin she'riy to'plamlar chop ettirdi. Bir necha majmualari rus va turk tillarida nashr etilgan.

To'ra Mirzo 1980-yillardan dramaturgiya sohasida faol qalam tebrata boshladi. «Ahmad ila Oqbilak» (1984, Xorazm teatri), «Sochidan salom» (1985, Samarqand va A. Hidoyatov nomli teatrlar) «Poytaxt latifalari» (1985—1986, Jizzax va Buxoro teatrlari) «Qovurilgan o'rdak parvozi» (1987, Respublika Satira va Qashqadaryo teatrlari), «Muhabbatga o'q tekkan kun» (1988, Kattaqo'rg'on teatri) kabi asarlari qator teatrlar repertuaridan o'rin oldi. 1989—1999-yillari To'ra Mirzo Amir Temur obrazi ustida ko'lamli izlanishlar olib bordi. Amir Temur haqidagi asarlarining birinchisi, Qashqadaryo teatrida rejissor B. Nazarov, ikkinchisi 1996-yili Yusuf qiziq Shakarjonov nomidagi Farg'ona teatrida rejissor M. Yusupov tomonidan sahnaga qo'yildi.

To'ra Mirzo san'at institutini tugatgach, qator gazeta va jurnallar tahririyatida ishlab, teatr spektakllari, san'atkorlar haqida ko'plab taqriz va maqolalar yozgan. 1999—2001-yillar davomida O'zbekiston televideniyesida ishlab, o'nlab videofilmlar uchun ssenariylar yaratgan. Uning tarjimachilik faoliyati ham e'tiborli: Jon Pristlining «Xazina», Agata Kristining «Qopqon», Aziz Nesinning «Yashasin, sarg'ish pushti rang» dramatik asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilgan. Poetik va dramatik asarlari uchun unga xalqaro mukofotlar, «Amir Temur» hamda «Amir Temur va To'xtamishxon» dramalari uchun esa xalqaro Firdavsiy mukofoti berilgan.

«AMIR TEMUR»

Mazkur asar buyuk sohibqiron haqida keyingi o'zbek dramaturgiyasida yaratilgan ilk tarixiy-biografik drama bo'lib, unda Amir Temur turkiy xalqlarining rahnamosi, islom dinining bayroqdori, jasur va omilkor sarkarda, davlat arbobi tarzida ko'rsatilgan.

1405-yil, O'tror, qahraton qish, keksayib qolgan Temur Xitoy yurishiga chog'langan. Chiroq o'chib yonadi, Yakkabog', 30 yoshlik Temur mo'g'ul bosqinchilariga qarshi o'tlanmoqda. Uning zavjasi O'ljoy Turkonning farzand ko'rishi, o'limi; Turk sultoni Boyaziddan haqoratli xat kelishi, Temurning Rum (Turkiya) sari qo'shin tortishi, g'alabasi, Xitoy elchisi tomonidan boj talab etilishi, g'azabga kelgan Temurning Xitoy sari yurishi sahnalari qad ko'taradi.

Asar dastlab Qashqadaryo teatrida 1991-yili rejissor Bahodir Nazarov tomonidan qo'yilgan bo'lib, Amir Temur rolini H. Amirqulov va O. Beganjiyevlar ijro etgan.

«AMIR TEMUR» ASARI HAQIDA IKKI SHARH.

«IJODIY JASORAT»

Dramaturg To'ra Mirzoning «Amir Temur» asarida Boyazid obrazi mavjud. Ammo Boyazid ustidan erishilgan g'alaba, Temurning Boyazid bilan sahnalari pyesa va spektakl

asosi emas, balki ikki buyuk sarkardaning o'zaro kurashda o'tgan umri achchiq falsafiy xulosalarga olib keluvchi zarur bir bosqich sifatida talqin qilinadi.

To'ra Mirzo asarini rejissor Bahodir Nazarov Qashqadaryo teatri jamoasi bilan sahnalashtirib ijodiy jasorat ko'rsatgan.

*Toir Islomov. «Tarix va sahna»,
1998-yil, 45-bet.*

«SOHIBQIRONNING O'LMAS RUHI QO'LLAB TURDI»

Bobokalonimiz Amir Temur timsolini juda katta mas'uliyat bilan yelkamga olganman. Faxrlanadigan tomoni shundaki, To'ra Mirzo qalamiga mansub «Amir Temur» asariga respublikamizda birinchi bo'lib bizning teatrimizda qo'l urildi. Ko'p manbalarni o'rgandim, tarixiy asarlarga mehr bo'lganini angladim. Rejissor Bahodir Nazarov bilan hamkorlikda ulug' zotdagi ana shu ikki qirrani, uning keng ruhiy dunyosini ochishga harakat qildik. Bu yo'lda meni hamisha Sohibqironning o'lmas ruhi qo'llab turdi.

*Qurbon Egamberdiyevning
O'zbekiston xalq artisti Husan Amirqulov haqidagi
«Sahnadagi javohir» maqolasidan olindi.
«O'zbekistonadabiyoti va san'ati» gazetasi.
1998-yil, 23-yanvar, 4-son.*

AMIR TEMUR

Birinchi pardadan parcha

A m i r H u s a y n. Singlim, dunyoda o'z tug'ishganingdan
Boshqa hamma yotdur, kuyov ham yovdur.
Eng qora kunlarda ko'nglim o'yini
Sen haqdagi iliq o'ylar yoritar.
O' l j o y T u r k o n O g' o. Og'a, men ham Sizni suyamen jondan.
A m i r H u s a y n. Ona o'lsa, singil onadir derlar,
Onamday suyamen, suyanchig'im sen.
Ammo ering Temur ortiq qo'rs chiqdi,
Ilyosxo'ja bilan kelishmas emish.
Burni ko'tarilgan bir mahmadona
Saltanati Oliy amaldorlarin
Izza qilar emish omi oldida.
Axir Alloh bizga inoyat etib,
Mansab bergan, Alloh nazari tushgan
Hokimlarga qarshi bormoq Allohga
Ko'p qutirmoqdur.
O' l j o y T u r k o n O g' o. Erim tildan qo'ymas
Alloh nomin hech
A m i r H u s a y n. Ey tilda aytgan-la muslim bo'lmas,
Alloh suygan kimsalar el boshida, suymoq kerak alarni

O'lj o y T u r k o n O g' o. Mansabdorlar dumi nechun mo'l, og'a?

Yo Alloh bandasi tugul fuqaro?

A m i r H u s a y n. Singlim, ering nuqsi uribdi senga,
Alloh yaratgan-ku shoh-u gadoni
Shoh shohlik qilsinmu? Yoxud xalq bilan
Qo'sh haydasinmu u? Har ish Allohdan
Singlim, ering axir xudodan qaytgan,
Jazo bermoq zarur bunday dinsizga.

O'lj o y T u r k o n O g' o. Og'a, men, erimning ixtiyoridan
Chiqsam savh bo'lg'aydir Alloh oldida,
Singlingizman, lekin erning xasmimen.
Er qo'lida erki har musulmaning

A m i r H u s a y n (*do'q urib*).
Singlim, sinib qoldim ering tufayli,
Garchand tilimiz turk, millatimiz turk,
Sen-u menda oliy mo'g'ul qoni bor.
Temurning zoti past, turklar qavmidan,
Mo'g'ullar qo'lida yurtning tizgini,
Jahannamga bizni boshlaydi Temur,
Agar singlim bo'lsang, og'alik haqqi
Mening o'tinchimni bajarmog'ing shart.
Ota o'tgach, og'a ota bo'ladi...
Ham otang, ham og'ang o'rnida o'zim
(*Qo'lidan uzuk chiqaradi*)...
Temur taomiga zahar solasen,
Vassalom.

O'lj o y T u r k o n O g' o. Yo'q, og'a o'sha zaharni
O'zim ichgum, ammo erga tik bormoq,
Joniga qasd qilmoq uchun yo'l yo'qdur.
Nega erkak bo'lib tug'ilmaganmen,
O'zim chiqar edim jonni ayamay
Kelgindiga qarshi qilich ko'tarib.

A m i r H u s a y n. Yulinar mo'g'ulga ko'tarilgan qo'l,
Ojizasen, xomsen, ayolsen, singlim,
Siyosat degani bir chuqur jardir,
Birni emas, yutar mingni qa'riga
(*Uzukni majburan singlisining qo'liga tutadi*).

O'lj o y T u r k o n O g' o. Rahmat, og'a, dunyo savdolaridan
Qutulmoq davosin berdingiz menga.
Qolgan umrimni ham erimga bersin,
Erkka zor bo'lganim haqqi erimning
Iqboli yorishsin, Alloh qo'llasin
Men o'zim ichamen najot dorisin.

A m i r X u s a y n. Uzukni qaytib ber, xotinlar bilan
Ojizlar sulh tuzar, qaytar uzukni.

O'ljoy Turkon og'o uzukni bermaydi. Amir Husayn singlisini bo'g'adi. Shu payt
Temur kirib qoladi.

T e m u r. Nomahram bo'lmasmu nikohsiz erkak?
Gar o'z og'asi, boz hokim ersa-da?

A m i r X u s a y n (*Temurni quchoqlab*).
Amir Temur, kuyov emas, inimsen,
Senga umr tilab besh vaqt namozda
Umrin o'tayotir... Qur'oni karim
Bizning do'stligimiz ko'prigi, sharti.
Qur'oni karimdan oyat o'qisam,
Qasam yodga tushar, muqaddas qasam
Alloh yo'l ko'rsatsin... Ha, bu xotining
Yig'i qilar meni olib keting deb.
Juftihalol bo'lmoqlik Amir Temurga
Qutlug' baxt, nodon, deb singlim qulog'in
Burab qo'ymoqchiydim, o'zing kep qolding
(*O'ljaoy Turkon og'oga*)
O'zing ayt, ey, nodon, nechun beziding
Er desa degulik Sher, bahodirsan?
(*O'ljaoy Turkon og'o jim*)
Mayli, er-xotinning xos sirlariga
Og'a bo'lsam ham bosh suqmagan ma'qul.
Kutib qoldi meni saltanat ishi,
Yagona singlimni ranjitma ortiq.
(*Amir Husayn tez burilib chiqadi*).

T e m u r. Eshitamen ne gap? Ochig'ini ayt
(*O'ljoy Turkon og'o jim*)

Nechun jimsen?
(*O'ljaoy Turkon og'oga*)
O'zing ayt, ey, nodon, nechun beziding
Er desa degulik Sher, bahodirsan?
(*O'ljaoy Turkon og'o jim*)
Mayli, er-xotinning xos sirlariga
Og'a bo'lsam ham bosh suqmagan ma'qul.
Kutib qoldi meni saltanat ishi,
Yagona singlimni ranjitma ortiq.
(*Amir Husayn tez burilib chiqadi*).

T e m u r. Eshitamen ne gap? Ochig'ini ayt
(*O'ljoy Turkon og'o jim*)

Nechun jimsen?
(*O'ljoy Turkon og'o jim*)
Er faqat xotinning mulki emas-ku

Kecha-kunduz uyga qamab o'tirsang,
Gapir, Ne muddaoing bor?
Er elning qulidir...
Ayt, nechun jimsen?
Mayli, damingni ol... Xobxonaga kir.

(O'ljoy Turkon og'o o'rnidan turganida etagidan uzuk yerga tushadi)

Uzuk? Ko'zlarimga tanish tuyular.

(O'ljoy Turkon og'o engashib uzukni olmoqchi bo'ladi, ammo Temur tezlik bilan o'zi oladi)

Ha, Amir Husayn qo'lida bir payt.
Ko'rganday bo'luvdim, sovg'a qildimi?

(O'ljoy Turkon og'o boshini qimirlatadi. Temur uzukning qopqog'ini ochadi).

Nima bu?

O q B u g' a. Buyuring, Amir!

T e m u r. Amir Husaynni qaytarib keling...

O q B u g' a. Bundan chiqqan zahot Amir Husayn

Otga qamchi urdi, zumda yo'qoldi.

Hozir yigitlarga buyruq beramen,

Topib keltirishar o'lik-tirigin.

O' l j o y T u r k o n O g' o. Ne bo'lsa ham og'am, uni o'ldirmang.

T e m u r. Umr bo'yi menga o'lim sog'inar,

Mening sog'inganim bo'ldi yaxshilik.

Josuslik qiladi yonimda yurib

Ilyos-u Jetining yuvindixo'ri,

Qur'on o'pib qasam ichgan qasamxo'r.

O' l j o y T u r k o n O g' o. Amir shafqat qiling yolg'iz og'amga.

T e m u r. U shafqat qilmas-ku o'z singlisiga.

O' l j o y T u r k o n O g' o. Tanti bo'ling, amir, o'tinchimdir shu.

T e m u r. Muhtoj bo'lganida qo'limni cho'zdim,

Necha bor qutqardim tang qolganida

Endi oyog'imdan chalmoq murodi,

Yaxshilik ilkin yovuz niyat-la

Qayirmoqchi bo'lgan kimsa yo'q bo'lsin.

O' l j o y T u r k o n O g' o. Amirim, yaxshimi, yomonmi biling,

U mening og'amdur manglayga bitgan.

Singil tanlay olmas odamlar ichra

Eng a'losin og'am deb, qismatim shu.

K u n c h a o' g' l o n. Ne qilaylik, Amir yigitlarim shay.

T e m u r. Mayli, uni quvmang, qo'lni bulg'amang,

Uni quvib borar ortdan qasami.

O' l j o y T u r k o n O g' o. Yaxshilik, yomonlik nechun egizak?

Subutsizlik hokim Kurrai arzda.

Et bilan tirnoqni ajratib bo'lmas,

Er desam, og'amga bo'lgan shafqatim,

Meni mag'lub qilar, og'a desam-chi,

Haqiqatga oyoq qo'ygan bo'lamen.

(O'ljoy Turkon og'o holsizlanib, o'tirib qoladi).

T e m u r. Ne bo'ldi? Tabibni chorlangiz tezroq.

O' l j o y T u r k o n O g' o. Amirim, ahvolim og'ir. Oh, sanchar.

T e m u r. Doyalarni chorlang.

(Temur O'ljoy Turkon og'oning qo'llarini silaydi)

Chida, azizim

Ona bo'lmoq axir eng oliy baxtdir.

Onadan boshlanar qutlug' bu hayot

Sening oyog'ingga bu boshim tugul,

Olamning-da borki sara gullarin

Keltirib to'shasam kamlik qiladi.

(Doyalar O'ljoy Turkon og'oni narigi xosxonaga olib chiqishadi. O'ljoy Turkon og'o dodlaydi. Temur jim, sahnaning u tomonidan bu tomoniga yuradi. Chaqaloq yig'isi eshitiladi. Doyalardan biri chopib chiqadi).

O'g'illik bo'ldingiz...

T e m u r. O'g'il! Oh!

D o y a. Ammo...

T e m u r. Nima ammo?

D o y a. Bekach bajo qildi bandachilikni.

T e m u r. Oh, shum taqdir, oh!

(Temur chopib xosxonaga kiradi. Xotinlar uvlab yig'ilishadi. Qiy-chuv. O'ljoy Turkon og'oning jasadini ko'taradilar. Temur eng oldinda chaqaloqni qo'llariga olib asta boradi).

T e m u r. Allohim gunohim ne edi aytgin,

Keng dunyo tor bo'ldi suyukligimga

Alvido kalomi bog'liq tilimga,

Quyosh nechun chiqding yana samoga?

Zavjadan ajragan baxti qaroga

Mehribon nuringni sochmoqchimisan?

Qorong'u ko'nglimni ochmoqchimisan?

Nurlar dil zulmatni yorita olmas,

Bu buyuk motamni arita olmas,

Bir yuzimni silab lutf etgan zahot

Ikkinchi yuzimga urasan nahot?!

Allohim, gunohim ne edi aytgil?!...

SALOHIDDIN SIROJIDDINOV

(1957)

Jurnalist va dramaturg Salohiddin Sirojiddinov Andijon viloyat Baliqchi tuman Chinobod qishlog'ida xizmatchi oilasida tug'ilgan. A. Qodiriy nomidagi Toshkent Davlat Madaniyat instituti havaskorlik jamoalari rejissorligi bo'limida (1975—1979), M. Uyg'ur nomidagi Toshkent Davlat san'at institutining ikki yillik dramaturglik kursida (2001) tahsil ko'rgan. Toshkentdagi Oybek nomli madaniyat uyi direktori, Respublika Madaniyat ishlari vazirligi xalq ijodiyoti boshqarmasi va «O'zbektelefilm»da muharrirlik lavozimlarida ishlagan. Hozirgi kunda Respublika radiosida teatr eshittirishlari bo'limida muharrir vazifasida ishlab keladi.

Uning «Beozor laylaklarga tegmang» degan birinchi pyesasi 1980-yili Respublika Yosh tomoshabinlar teatrida qo'yilgan. Shundan so'nggi yillarda o'ndan ortiq pyesa yozdi va ular poytaxt hamda qator viloyat teatrlari repertuariga kiritildi. Shulardan uchta «To'maris» (1990, rejissor R. Hamidov), «Fig'on» (1992, rejissor M. Azimov), «Hayot eshik ortida» (rejissor Yo. Sa'diyev) «Milliy» akademik drama teatrida qo'yilgan. «Sohibqiron Temur» (Buxoro), «Tunda uchgan turnalar» (Andijon), «Kalavanning uchi kampirda» (Jizzax), «Dod, xotinlar dastidan», «Uyingizga sovchi keldi» asarlari qator viloyat teatrlarida sahnalashtirilgan. «Qor bobo va qor momo», «O'rmon mashmashasi», «Ertaklar o'lkasi» pyesalari Yosh tomoshabinlar teatridan o'rin olgan. «Yettinchi falakdan kelgan ovoz» (rejissor Sh. Junaydullayev) va «Chorraha» (rejissyor M. Mirzaahmedov) asarlari asosida ko'p seriyali telefilmlar yaratilgan.

S. Sirojiddinov gazeta va jurnallarda T. Ro'ziyeva, S. Zohidova, M. Azimov, R. Ibrohimova, M. Hamidov, B. Mamatxonov kabi san'atkorlar haqida maqolalar e'lon qilgan.

«TO'MARIS» ASARI HAQIDA IKKI SHARH SAHNADA «TO'MARIS»

Shu yilning 7-dekabr oqshomida el suygan qahramonlardan biri To'maris Hamza nomidagi o'zbek davlat akademik drama teatri sahnasiga chiqdi. Iste'dodli yosh dramaturg Salohiddin Sirojiddinov asari asosida O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, Hamza nomidagi Davlat mukofotining sovrindori Rustam Hamidov sahnalashtirgan «To'maris» spektakli tomoshabinlarga kutilganidan ham ko'proq hayajon berdi, o'z o'tmishini unutib qo'yayozgan odamlarning mudroq hislariga ruh bag'ishladi.

Tengdoshlaring asarlarini katta teatr sahnasida, ayniqsa, Zikir Muhammadjonov, Yoqub Ahmedov, Gavhar Zokirova, Malika Ibrohimova, Shirin Azizova, Tolib Karimov, Ikroma Boltayeva, Gulchehra Ibrohimbekova, Turg'un Xonto'rayev kabi sevimli san'atkorlarimiz talqinida tomosha qilish juda boshqacha bo'larkan. Muallifning hayajonlanishini kuzatishhammasidan ham maroqli. Umr pillapoyasidan bir pog'ona yuqori ko'tarilgandek o'zingni yengil sezarkansan!..

Biz To'marisni uzoq kutdik, u bizni shunchalar ko'p kutdirdiki, bu intizorlik qilgan ozmi-ko'pmi gunohlarimizga, ancha-muncha xatolarimizga guvoh bo'ldi. Kuni-kecha «Hamza» teatri sahnasini zabt etgan «To'maris» aslida 1984-yilning oxiri, 1985-yilning boshlarida yozilgan edi. Buni qarangki, asar dunyoga kelgandan so'ng ham bizni qariyb olti yil ilhaq qildi. Dastlab, «Shamshir tutgan ayol» deb nomlangan «To'maris» asari Muqimiy

nomli o'zbek davlat musiqali drama teatri hamda Farg'ona teatrining g'aladonlarida oylab, yillab saqlandi.

«Zaminni zulmat qoplab kelmoqda! Kimningki yuragida mehr-muhabbat, shafqat, sadoqat hislari bor ekan, o'shagina zulmatga qarshi yonishi mumkin!» degan hayqiriq Kayxisravni ham seskantirib yuboradi. To'maris o'g'li Saprinagiz va uning sevgilisi Eron qizi Rayyadani o'lim changalidan ozod qilib, o'zini olovga otadi. U tomoshabin ko'z o'ngida hech so'nmas olovga aylanadi, yonib ketadi! Asar «Ona yuragi hech qachon aldamaydi», degan hukm bilan yakunlanadi.

Shuni tan olish kerakki, Malika Ibrohimova To'marisni chinakam jangovor ruh berib qiyomiga yetkazib o'ynadi. Eron shohi niqobida sahnaga chiqqan Yoqub Ahmedov tomoshabinlar ko'nglida yovuzlikka nisbatan nafrat, vahshiylikka qarshi isyon uyg'otishga muvaffaq bo'ladi. Yosh aktrisa Mahfuza Bobotillayeva muhabbat timsoli bo'lgan Maganani shunchalar qoyil qilib ijro etdiki, san'at muxlislarining yuzlari ishq alangasidan yorishib ketgandek bo'ldi.

*Zamira Egamberdiyeva «Yosh leninchi» gazetasi,
1990-yil, 12-dekabr, 237-son.*

TO'MARIS GUNOHKOR EMAS...

Yaqinda shonli teatrimizda iste'dodli yosh dramaturg Salohiddin Sirojiddin qalamiga mansub «To'maris» spektakli qo'yilayotganligini eshitib qoldim-u tushishga ahd qildim.

To'maris — xalqimiz tarixidagi buyuk siymolardan biri. U — vatan taqdiri uchun kurashuvchilar safidagi tengi yo'q Ayol! Bizning jamiyatimizda Ayol, ayniqsa, qishloqlarimizdagi «emin-erkin» Ayol xor-zorlikka yuz tutdi, paxta maydonlarida og'ir mehnatga duchor etildi, shamshod qaddi bukildi, «suv ichsa tomog'idan ko'rinadigan» latofati toptaldi. Uning o'ylari, intilishlari vatan, millat, xalq haqida emas, qora qozonini amallab qaynatish, bir etak bolasini ertaga oyoqqa turg'azish haqida! Shunday muhitda To'marisdek qahramon Onamiz obrazining sahnamizda paydo bo'lishini juda katta voqea deb hisoblayman. Uni hamma-hamma ko'rishini, ibrat olishini, bilmaganlar bilib qo'yishlarini istayman.

Men hozir spektaklning to'la tahliliga kirishib o'tirmayman. Ammo «To'maris» so'nggi yillarda yaratilgan (rejissor Rustam Hamidov) asarlar orasida alohida ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlayman, xolos. To'laqonli To'maris obrazini kuyib-yonib yaratgan iste'dodli Malika Ibrohimovani, Kayxisravni maromiga yetkazib o'ynagan do'stim Tesha Mo'minov va boshqa bir qancha rollarni suyib ijro etgan yosh san'atkorlarimizni olqishlamasdan ilojim yo'q.

*Azim Suyun. «Xalq so'zi» gazetasi,
1991-yil, 14-mart, 52-son.*

QUYIDA «TO'MARIS» ASARIDAN PARCHA BERILDI

To'maris. Jarchilar, massagetlar urug'iga jar soling! To'maris so'zim! Qabila tuprog'i xavf ostida. Qo'lida qilich tuta oladigan, yuragida o'ti bor, yigit-u qiz, erkag-u xotin himoyaga otlansin. Kimki qondan seskansa, qabiladan chiqmagani ma'qul. Yodingizda bo'lsin, biron kimsa, xoh ayol, xoh erkak qilichdan cho'chib ortiga chekinar ekan, shafqat yo'q, boshidan judo bo'lgay. Unutmang, ortimizda qabila, onalarimiz,

bolalarimiz qolayotir. Ularni dushmanga xor-u zor qilishni istamagan kimsa borki, jangga otlansin! Qabiladoshlar biz ustun kelamiz, chunki biz sha'nimizni, qabilamizni himoya qilayotirmiz. Qabilada qolayotganlar, shu so'zlarim qulog'ingizda bo'lsin. Gar falokat yuz tutib, lashkarlarimiz mag'lub kelsa, kulbalarga o't qo'ying, bironta tirik jon forslar qo'liga tushmasin. Bizdan keyin yashaganlar, massagetlar eroniylarga qul bo'lgan, deyishmasin. Ular oxirgi qoni qolguncha yurtini himoya qilib, dushman ustun kelganda qabilalariga o't qo'yib, o'zlari alangada yonib ketganlar. Massagetlar ana shunday mardonavor xalq bo'lgan, deb eslasinlar. Onajonlar, bobojonlar farzandlaringizni menga hamroh eting. Jangga ularni men boshlab kirar ekanman muqaddas tuproq, kindik qonim to'kilgan yurtim haqqi qasam ichaman. Agar jangda bir qadam ortga chekinsam, shu ona tuproqqa xiyonat qilsam, Momo Yer va Bobo Quyosh qahriga uchrayin!

(Samoviy kuchlar kirib qolishadi.)

M o m o Y e r. To'maris shamshirni tashla!

S a m o v i y k u c h l a r. Tashla shamshirni!

T o' m a r i s. Yo'q, tashlolmayman, yurtim xavf ostida.

B o b o Q u y o s h. To'maris, qo'lingda ajal!

T o' m a r i s. Ha, men ajalning dastidan tutib turibman. Ixtiyorimdan ustun bo'lgan ishga jazm etdim. O'zga chora yo'q.

O n a S a m o. Sen ajalning Zaminda keng quloch yoyishiga imkon berayotirsan. Nahotki cho'chimasang, qon hididan bahra oluvchi o'lim borliqni ishg'ol etadi. Yer yuzida hayot quriydi, tashla shamshirni.

T o' m a r i s. Yurtimga yov ajal bilan kelayotir, ajal bilan qarshi chiqmoqdan o'zga yo'l yo'q.

O n a S a m o. Qani insonlarga hadya etilgan shafqat, mehr, muhabbat. Barchasidan mahrum bo'lgan ular.

T o' m a r i s. Agar sen barchasiga qodir bo'lsang yovni to'xtat Ona Samo!

O n a S a m o. Yo'q, bu mumkin emas. Inson yetuk yaratilgan, barchasini o'zi hal etmog'i darkor.

T o' m a r i s. Gar shunday ekan mening yo'limni to'sma. Qabila taqdiri qil ustida turibdi, ularning qul bo'lishini istamayman. Insonni e'tiqodidan judo etish, erkini qo'lidan olib kul qilish ajaldan ham dahshatliroqdir...

ERKIN XUSHVAQTOV

(1959)

Erkin Xushvaqtoy Shahrizabzning Chambil qishlog'ida shofyor oilasida tug'ilgan. O'rta maktabni tugatgach, bir muddat o'z qishlog'ida ishlab, so'ng 1978-yili M. Uyg'ur nomidagi san'at instituti aktyorlik san'ati bo'yicha tayyorlov bo'limida tahsil olgan.

E. Xushvaqtoy A. Hidoyatov nomidagi teatrga chiroq yorituvchi sifatida ishga kiradi, 1987-yildan hozirgacha «Milliy» akademik drama teatrida shu vazifada ishlab keladi. Uning dramaturgiya sohasidagi ilk qadami A. Qodiriyning «Mehrobdan chayon» romanini insseniroyka qilishdan boshlandi. Ushbu asar 1994-yili akademik teatrdan T. Azizov tomonidan sahnaga qo'yildi. 1995-yili «Chimildiq» asarining ilk nusxasi M. Uyg'ur nomidagi san'at institutida diplom spektakli (rejissor Sh. Hamidova) tarzida yaratildi. 1996-yili esa uning qayta ishlangan nusxasi T. Azizov, M. Abdullayeva tomonidan «Milliy» teatrdan sahnaga qo'yiladi. 1997-yili akademik teatr repertuarida «Mashrab» asari (rejissor T. Azizov) paydo bo'ladi.

E. Xushvaqtoy 1998—2000-yillari M. Uyg'ur nomidagi san'at instituti oliy dramaturglik kursida tahsil ko'radi va «Qirmizi olma» pyesasi (M. Abdullayeva tomonidan o'sha yili diplom spektakli tarzida yaratilgan) bilan ta'lim jarayonini yakunlaydi. 2002-yilning 16-fevralida akademik drama teatrida uning «Qal'iq o'yin» (rejissor T. Azizov) asari premyerasi o'tkazildi.

Erkin Xushvaqtoy 2002-yili Prezidentimizning Farmoni bilan «Mehnat shuhrati» ordeni bilan taqdirlangan.

«CHIMILDIQ» ASARI HAQIDA SHARHLAR.

«TOMOSHADA — TOMOSHA»

«Chimildiq» folklor-etnografik tomoshasi Misr respublikasida bo'lib o'tgan nufuzli teatr anjumanida namoyish qilindi. Toshkent teatrlarining «Bahor chorrahalarida» festivalida birinchi o'rinni oldi. «Chimildiq» spektakli bugungi kunda o'zbek teatrining eng mashhur, tomoshabop asariga aylandi...

«Chimildiq» spektaklida ma'lum darajada «tomoshada — tomosha» uslubi qo'llanilgan. Chunki, unda ijrochilar muayyan obrazlar qiyofalarida yashab turib, marosimda qatnashib, tomosha ko'rsatadilar.

Demakki, har bir ijrochi go'yoki ikki qiyofada namoyon bo'ladi. Tomoshada — tomosha uslubi o'zbek teatri uchun yangilik emas, albatta. Ammo «Chimildiq»da tomoshada — tomosha uslubi uzukka qo'z qo'ygandek yarashgan...

Sarvinaz Qodirova. «Chimildiq» spektakli xususida fikr-mulohazalar. «Teatr» jurnali, 1999-yil, 1—2-son.

«CHIMILDIQ»NING YUZINCHI O'YNALISHIDA

Odam deganingiz to'lib-toshib ketdi. Bitta ortiqcha bilet, bitta bo'sh o'rin yo taburetkalarga teng bo'ldi, desam ishonavering.

Spektaklning rejissori, xalq artisti Turg'un Azizov «Aka, umid bilan keluvdik, bitta joyning ilojini qilasiz-da endi», deya katta boshini kichik qilganlarning hammasiga yordam bera olmadi.

Teatr bosh direktori, xalq artisti Yoqub Ahmedov «Men bugun joy yetmay qolganlarning har bittasini yelkamda ko'tarib turishga ham tayyorman», dedi. Juda samimiy aytdi bu gapni. Zal odamlar bilan to'lib, chinakam bayram bo'lib ketganidan bunaqa yelkani tutib turishlar doimo bo'lavermasligidan xursand bo'lib aytdi...

«Chimildiq» uzoq yillar davomida sobiq tuzum mafkurasining qurboni bo'lib kelgan va biz ham bu qurbonlikka deyarli ko'nikkan asl qadriyatlar to'g'risidagi asar. Uning bosh mag'zi — shu qadriyatlardan kelib chiqadi va bugun uning yuzinchi ijrosini tomosha qilar ekanmiz, ayta olamanki, «Chimildiq» mavzu bo'lgan milliy o'ziga xoslik, agar yozaman desa, suratga olaman desa yana yuzta, balki undan-da ko'p hissaga, romanga, dramaga, kinofilmga yetadi va ortib qoladi. Xalq qalbida e'zoz topib kelayotgan bizning oltin misol urf-odatlarimizni yozib, kuyga solib, sahnada ijro etib tamom qilib bo'lmaydi. Bu mavzu o'lmas va bitmas mavzudir.

«Chimildiq» shuning uchun ham shuhrat qozondi. Aktyorlar shuning uchun ham yayrab-yayrab o'ynashmoqda. Ehtimol, bu asar shu otaxon teatr sahnasida yetti yuz marta o'ynalgan «Alisher Navoiy» spektakliga, besh yuz marta o'ynalgan «Otello»ga son jihatdan yeta olmas. Lekin, nima bo'lganda ham, «Chimildiq» teatr hayotining juda jo'n va juda zarur bir mantig'ini bizga naqd ko'rsatib qo'ydi — teatrning teatrligi tomoshabin bilan.

Ahmadjon Meliboyev. «Chimildiq»da nima gap,
«O'zbekiston adabiyoti va san'ati» gazetasi,
1998-yil, 6-mart, 10-son.

CHIMILDIQ

Ikkinchi ko'rinishdan parcha

K u y o v. Necha yoshga kirdingiz?

K e l i n. O'n oltiga!

K u y o v. Men o'n yettiga kirganimda yer-u ko'kka jar solib dunyoga kelgan ekansiz-da?

K e l i n. Otam o'zlari kech uylanganlari uchun meni erta kuyovga berdilar.

K u y o v. Shuning uchun ham otangiz meni tushungan ekanlar-da?

K e l i n. Qarang otam ot minib qidirib, o'zlariga o'xshaganini topib, qizlarini o'shanga beribdilar!

K u y o v (*kelinga qarab*). Mendan nima istaysiz?

K e l i n. Javobimni bering, ketaman.

K u y o v. Mayli, men roziman.

K e l i n (*hayratlanib*). Chindanmi?

K u y o v. Yolg'on so'z aytishni yomon ko'raman!

K e l i n (*qafasdan qutulgan qushday esankirab qoladi*). Kishini ko'nglini tushunadigan odam ekanligingizni ko'nglim sezgan edi. (*Qo'g'irchoqni olib bag'riga bosgancha chiqmoqchi bo'ladi*.)

K u y o v. Qorong'idan qo'rqmaysizmi?

K e l i n. Qo'rqmayman.
K u y o v. Balki, tongda ketarsiz?
K e l i n (*shoshilib*). Hoziroq ketaman!
K u y o v. Shoshmang, olib borib qo'yaman.
K e l i n. Yo'q, o'zim ketaman.
M o m o. (*kelinchakning yo'lini to'sadi*). Yo'l bo'lsin, bolam?
K e l i n. Uyga ketaman.
M o m o. Kapalagimni uchirmang!
K e l i n. Javobimni berdilar!
M o m o (*hovliqib*). Taloq qildimi?
K e l i n. Yo'q.
M o m o. Xayriyat-e, taloq aytdimi deb yuragim qinidan chiqib ketay dedi-ya.
K e l i n. Taloqsiz ham ketaveraman.
M o m o. Musulmonchilikda taloqsiz ketib bo'lmaydi.
K e l i n. Ketishimga rozi bo'ldilar-ku.
M o m o. Yomg'ir tomchilayapti, hademay jala quyadi.
K e l i n. Tosh yog'sa ham ketaman.
M o m o. Yarim kechada qishloqni itlari talab tashlaydi.
K e l i n. Mayli, itlar go'shtimni yeb ketsin.
M o m o. Ketsang, yuzing qaro bo'ladi, bilib qo'y!
K e l i n. Bo'lsa bo'lsin!
M o m o. Kuyovning ostonasidan o'tdingmi, er ko'rgan xotin qisoblanasan...
K e l i n. Gapirmang!
K u y o v. Bechoraga azob bermang, momo!
M o m o. Achchiq bo'lsa ham haqiqatni gapiray, ketsang endi sening tenging xotin qo'ygan, xotini o'lgan, ikki-uch bolalik erkaklar bo'ladi.
K e l i n. Eshitishni istamayman!
M o m o. Hozir ketsang «toza emasligi uchun haydab yuboribdi», — deb odamlar bokira qaytganingga hech kim ishonmaydi.
K u y o v. Bo'ldi-da, momo!
M o m o. Haq gap achchiq bo'ladi, malomat toshlari boshlaringni yoradi.
K e l i n. Qonimga belanib qolay, ketaman.
M o m o. Hech qayerga qo'ymayman.
K e l i n. Yo'limdan qoching, momojon!
M o m o. Nima desang degin, hozir hech qayerga ketmaysan!
K u y o v. Qo'ying, momo, men rozi bo'ldim-ku, ketsa-ketsin!
M o m o. Men, ikkalangni ham ota-onang oldida javob berishim kerak. Ko'ngillaring-ko'ngillaringga tushmas ekan, ertalab kelinni ota-onasini chaqirtiramiz, ota-onangiz oldida uch taloq qilasiz, so'ng kelinni ko'chini ortib, kuzatib yuboramiz. Ikkalangiz ham ertalabgacha chimildiqda chidab o'tirasizlar. Gap shu! (*Chiqib ketadi.*)
K e l i n. O'lgim kelyapti, onajon!
K u y o v. Kuyunmang!
K e l i n. Nega tug'dingiz, onajon!
K u y o v. O'kinmang!
K e l i n. Qayerdasiz, onajon!? (*Kelin unsiz — o'ksib yig'laydi.*)

K u y o v. Yig'lamang (*ro'molcha tutadi*). Ko'z-yoshlaringizni arting!

K e l i n. Telba!

K u y o v. To'g'ri!

K e l i n. Darvesh!

K u y o v. Haq gap!

K e l i n. Latta!

K u y o v. Lapashangman!

K e l i n. Xudo yuzingni teskari qilsin!

K u y o v. Mayli...

K e l i n. Erkak kishi ham shu yoshgacha uylanmaydimi?

K u y o v. Siz so'ramang!

K e l i n. Shu tobgacha uylangan bo'lganingizda, meni zo'rlab uzatishmagan bo'lardilar.

K u y o v. Aybdorman, azizim!

K e l i n. Azizingiz emasman, sizning...

K u y o v. Mayli, jonim!

K e l i n. Jonim demang, joningiz chiqsin!

K u y o v. Tanamda jonim yo'q. Jonim qush bo'lib o'zga yurtlarga uchib ketgan. Ikkimiz bir qafasda nima qilamiz? So'zsiz o'tirganimiz bilan vaqt o'tmasa kerak (*sukut*). Sizga bir g'amgin ertak aytib beraymi? (*Sukut.*) Ertagim tugaguncha tong ham otib qolar? Keyin siz uyingizga ketasiz, men esa qalbim bilan yana yolg'iz qolaman. Eshitasizmi?

K e l i n. Ertagingiz boshingizda qolsin!

K u y o v. Haliyam boshimda qolganini aytib beraman.

Bor ekanda yo'q ekan, och ekanda to'q ekan. Qadim o'tgan zamonda, Amudaryo tomonda parijamol qiz yashagan ekan. U qizning oy desa og'zi, kun desa ko'zi bor ekan. Kulsa og'zidan gul, yig'lasa ko'zlaridan dur to'kilar ekan... Suv ichsa tomog'idan, sabzi esa biqinidan ko'rinar ekan. Xullas, bir qultum suvsiz ichsang ham tomog'ingdan qilt etmay o'tib ketar ekan. O'sha qiz ulkan shaharlardan biriga ilm olgani ketibdi. Donolarni, nodonlarni, oriqlarni, semizlarni, pishiq-xomlarni yurti bo'lgan ulkan shaharda pari qizni jamoliga mahliyo bo'lgan oshiqlar soyadek ergasha boshlabdi.

O' l a n c h i. Oydek kelin, kundek kuyov bo'lib o'tiribsizlarmi?

M o m o. Joylaringni to'shab beraylik.

O' l a n c h i (*taxmonni buzib joy sola boshlaydi*). To'shak birlashtirsin!

M o m o. Iloyo!

O' l a n c h i. To'shak tutashtirsin!

M o m o. Iloyo!

O' l a n c h i. To'shakda ko'payinglar!

M o m o. Yangasi, to'shakni qalin qilib to'shang, kelin-kuyovning beli botmasin!

O' l a n c h i. Belimiz bota-bota bizlarga balo ham urgani yo'q. Hech narsa qilmaydi (*ikki momo to'shakka yotishadi. O'lanchi momo xo'roz bo'lib qichqiradi.*) Ququ-qu-u-u!

M o m o (*o'lanchi momoga*). Turing tong otdi.

O' l a n c h i. Tush ko'ribman.

M o m o. Qanday tush?

O' l a n c h i. Boshimda toji-davlat, qo'limda qush.

M o m o. Tongda xush tush ko'ribiz!

O' l a n c h i. Qo'limdagi qush, kelin-kuyovga farzand bo'lsin! Boshimdagi toj — kuyovga toj-davlat bo'lsin!

M o m o. Aytganingiz kelsin!

O' l a n c h i (*momoga sho'xlik qilib*). Olmamidir, anormidir?

M o m o. Hazilingizni qo'ying!

O' l a n c h i (*momoning belini ushlab*). Navdamidir, xipchinmidir?

M o m o. Tegmang, xipchindir.

O' l a n c h i. Lablardagi bolmidir, qaymoqmidir?

M o m o. Qaymoqdir.

O' l a n c h i (*momoning sochlarini ushlaydi*). Bu sochmidir, sumbulmidir.

M o m o. Sumbuldir.

O' l a n c h i. Hilila yorim uyg'onsin hilila yorim hilila,

Sochlari belga cho'lg'onsiz hilila-yo, hilila.

M o m o. Ro'molim uchdi ketdi hililayo hilila,

Daryoning shamoliga hilila-yo, hilila.

O' l a n c h i. Ro'molimni olibsan hilila-yo, hilila,

M o m o. Olib dorga yoyibman hilila-yo, hilila.

O' l a n c h i. Hazilingni qo'y aqqa hilila-yo, hilila,

M o m o. Voy, senga tegmay men o'lay hilila-yo, hilila.

M o m o. Voy, toza qoldik chatoqqa hilila-yo, hilila,

O' l a n c h i. Hajring o'tida ado qilding-ku!

M o m o. Ajab bo'libdi, xo'p bo'libdi.

O' l a n c h i. Ishqingda meni gado qilding-ku!

M o m o. Battar bo'ling!

O' l a n c h i. Noz-karashmalingga, chidolmayman

Surmali ohu ko'zlaringni bir ko'ray.

M o m o. Yo'q, yo'q, yo'q...

O' l a n c h i. Yuzingni qizil deydilar, qizil yuzli ukam yor-yor,

Ko'rsat yuzingni bir ko'ray jonim ukam yor-yor.

M o m o. Yuzimni ko'rib nima qilasiz, siz akajonim yor-yor,

Bozordagi shirmoy nonni ko'rmabmidingiz yor-yor.

O' l a n c h i. Ko'zingni quralay deydilar, quralay ko'z ukam yor-yor,

Ko'rsat ko'zingni men ko'ray, jonim ukam yor-yor.

M o m o. Ko'zimni ko'rib nima qilasiz, siz akajonim yor-yor,

Ohularning ko'zlarini ko'rmabmidingiz yor-yor.

O' l a n c h i. Endi chidolmayman!

M o m o. Chidamasangiz chillak o'ynang!

O' l a n c h i. Chidolmayman (*deb kampirlar bir-birlarini quvib chiqib ketadilar*).

K e l i n. Ertagingizni davomini ayting.

K u y o v. Qiz bo'laman degan kampirlarning qilig'i xayolimni olibdi. Nima deyayotgan edim?

K e l i n. Otangiz uydan ket yo'qol, degan edi.

K u y o v. Mening otam emas. O'sha yigitning otasi.

K e l i n. Xo'sh, gapiravering.

K u y o v. Yigitga otasining o'g'il bolamisan, hamqishloqlar orasida «o'g'lingizni sog'ligi joyidami», — deb surishtiryapti. Bosh ko'tarib yurolmaydigan bo'lib qoldik, degan gaplari alam qilib bularga bir erkakligimni ko'rsatib qo'yay, deb uylanishga rozi bo'lgan ekan. Ammo topgan kelinlaringni eski urf-odat bo'yicha chimildiqda ko'raman, — debdi. Alam ustida bir begunoh qizni bebaxt qilishini o'ylamabli. Qaysar qizni bo'ysundira olmay sharmanda bo'lishiga sanoqli daqiqalar qolibdi.

K e l i n. Sizdek qalbi daryo, sabr-toqatli, his-tuyg'ularga boy inson chin muhabbatga erishish uchun bardoshingiz yetmadimi? Oxirigacha baxtingiz uchun kurasha olmadingizmi? Nega?

K u y o v (*miyg'ida kulib*). Qarang, o'sha vaqtda sizdek maslahatgo'yim bo'lmagan edi.

K e l i n. Shunday buyuk muhabbati bo'lgan odam nega meni bilmay-ko'rmay turib olishga rozi bo'ldingiz? (*Qiz kiradi.*)

K u y o v. Kel, kel, Lola! (*Qiz indamay kelinning narsalarini tomosha qila boshlaydi va kelinga choy quyib uzatadi, lekin kelin olmaydi, keyin kuyovga tutadi. Qiz chiqadi.*)

Siz kuyovsiz qolmang dedim-da. Mana tong ham otdi. Hamma gunohlarni menga yuklab, endi ketishingiz mumkin. (*Chiqadi.*)

K e l i n. Rahmat sizga oq ko'ngil odam (*Norizo qiyofada kiyimlarini yig'ishtiradi.*) Ko'nglim, qafasdan qutulgan qushdek qayoqqa uchishni bilmay qoldi. Xo'rozni ham so'yolmagan rahmdil, mehribon insonni tashlab ketsam, haligi pari qizning qismati mening boshimga ham tushmaydimi? Chimildiqqa xiyonat qilib hozir ketsam, bu kamsuqum odam boshqa bir go'zal qizga uylanib yashayveradi. Meni er ko'rgan juvon deb uchragan odam etagimga osilib, holi-jonimga qo'ymasa nima qilaman? Ota-onamni yuzlari shuvut bo'lmaydimi, qishloqda qanday qilib bosh ko'tarib yurishadi. Bir ko'ngil «Ket» deydi, bir ko'nglim «Ketma» deydi, qaysi biriga quloq tutishimni bilmay, ojizman.

(*Qo'g'irchoqni ko'rib qoladi.*)

Hovlimiz etagida bir tup anjir,
Bir tup anjir shohida tillo zanjir.
Bu zanjirni kim bitgan, zargar bitgan,
Shu taqdirni kim bitgan, tangri bitgan.
Zargar bitgan zanjirni uzib bo'lmas,
Tangri bitgan taqdirni buzib bo'lmas.

(*Ichkaridan kuyov chiqib keladi.*)

K u y o v. Iya, hali ham ketmadingizmi?

(*Kelin bo'sh piyolaga ko'zi tushib kuyovga choy quyib uzatadi.*) Ichmayman!

K e l i n. Meni qo'limdan choy ichmaysizmi?

K u y o v. Yo'q!

K e l i n. O'zgalar qo'lidan choy ichasiz!

K u y o v. O'zgalar mening qarindoshim.

K e l i n. Men-chi?

K u y o v. Siz endi, begonasiz!

K e l i n. Munchalar sovuq so'z!

K u y o v. Iliq so'zlarim tugadi!

K e l i n (*tomoshabin oldiga borib oftobani ko'tarib turadi*). Qo'lingizni yuvmaysizmi?
K u y o v. Qo'l yuvadigan ish qilganim yo'q!
K e l i n (*xontaxtani yoniga borib o'tiradi*). Asal shirin bo'lsa kerak? Yupqa mazalidir?
Uzum yeysizmi? Bu uzumni oti nima?
K u y o v. Charos!
K e l i n. Nega qizlarning ismini qo'yishgan?
K u y o v. Ko'zingizni qorasiga o'xshagani uchundir!
K e l i n (*kulimsirab*). Jonimdan o'zga yor — vafodor topa olmadim, — degan ekan
hazrati Bobur.
K u y o v. Mirzo Bobur haq ekan. Men ham topmadim!
K e l i n. Vafodoringiz yoningizdadir, ko'rmayapsiz.
K u y o v. Ko'rman-da!
K e l i n. O'kinmang! Momomdan eshitgan xalq ashulalarini aytib beraymi? Nega
jimsiz?
K u y o v. Karman-da!
K e l i n. Eshiting, quloqlaringiz ochilib qolar!
Bozor boshi loy ekan, o'tay desam soy ekan,
Ha dig'a-dig'ajon, yoringiz bo'lay og'ajon.
Bormasam bo'lar ekan, akangiz yomon ekan,
Ha dig'a-dig'ajon, yoringiz bo'lay og'ajon.
Tegmasam bo'lar ekan o'zga yori bor ekan,
Ha dig'a-dig'ajon, yoringiz bo'lay og'ajon.
Yoqdimi?

K u y o v. Yoqmadi!
K e l i n. Itingiz bo'laman degan edingiz?
K u y o v. Xura-xura jag'im charchab qoldi!
K e l i n. Otingiz bo'laman degandingiz?
K u y o v. Tuni bilan kishnadim, foydasi bo'lmadi.
K e l i n. Ota-onamdan rozilik so'ragani olib bormoqchi edingiz?
K u y o v. Ko'p gapirmasdan tuyog'ingizni shiqillating!
K e l i n. Beburd ekansiz!
K u y o v. Nima desangiz, deng!
K e l i n. Bag'ri tosh ekansiz!
K u y o v. Toshga, toshman!
K e l i n. Befahm! Erkak kishi ham shunchalik beo'xshov, landovur bo'ladimi?
K u y o v. Kulmang!
K e l i n. Kulish kerak. Sizga o'xshagan landovurlardan kulish kerak.
K u y o v. Qani eshikni orqasidan yoping. Qorangizni ko'rmay.
K e l i n. Endi, qoramni har kuni ko'rasiz.
K u y o v. Boshimni qotirmay tezroq keting!
K e l i n. Qayerga ketaman?
K u y o v. Onangiznikiga!
K e l i n. Onamni dili vayron bo'ladi!
K u y o v. Otangizni boshini xam qilish niyatingiz bor edi.

K e l i n. Niyatimdan ham, istagimdan ham, orzuimdan ham voz kechdim.

K u y o v (*kelinni yelkasidan itarib*). Bo'ling tezroq!

K e l i n. Tegmang, hech qayerga ketmayman! (*Yig'laydi.*)

K u y o v. Keting deb tegsam ham yig'laydi, qoling deb tegsam ham yig'laydi. Bu zotga nima bo'lgan o'zi? Tushunmadim!

K e l i n. Nimasiga tushunmaysiz? Shu chimildiqda qolishni istayman. Bir umrga... qolishni! (*Yig'lab turib qoladi.*)

Muallif qo'lyozmasi
asosida chop etildi.

O'zbek teatri shakllaning dastlabki bosqichidayoq dramaturglar kattalar qatori bolalar uchun ham p'esalar yoza boshlaganlar. Respublikada yosh tomoshabinlar teatri tarmog'i kengayishi bilan 1930 yillarning boshlaridan bolalar dramaturgiyasi tez taraqqiy topa boshlaydi. Respublika yosh tomoshabinlar teatri bolalar dramaturgiyasining bosh ijodxonasiga aylanadi. Bu erda faoliyat ko'rsatgan Javod Obidov, Ne'mat Do'st xo'jaev, Amin Turdiev, Ibroxim Axmedov, Mirzakarim Boboev, Omon Sharipov, Mahkam Maxamedov, Ergash Masaev singari rejissyorlar teatriga adiblarni jalb etib, yangi p'esalar yaratishda ularga amaliy yordam ko'rsatib bolalar dramaturgiyasi rivojiga qimmatli hissa qo'shdilar. Shukur Sa'dulla, Adxam Raxmat, Po'lat Mo'min, Xakim Nazir, Yorqin Mirzo kabi adiblarning bolalar haqidagi sahna asarlari shu teatrdagi tug'uldi. Kattalar teatrlari repertuariga ham bolalar haqidagi asarlar ko'p hollarda shu teatrdagi pishib etilgan asarlar kirib bordi.

Respublika yosh tomoshabinlar teatri milliy sahna san'atimiz tarixining mo'tabar sahifalarini tashkil etadi. Bu erda tomoshabinlar xotirasida chuqur iz qoldirgan obrazlari bilan shuhrat topgan. N.Eshmuhammedov, A.Ismoilov, M.Hamidov, K.Xonkeldiyev, O.Tolip, M.Yo'ldosheva singari atoqli aktyorlar ijod qilganlar. Bu ijod maskani haqida ilmiy tadqiqotlar yaratildi. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi, professor Hamidjon Ikromov uzoq yillardan buyon teatr tarixiga oid materiallar yig'ib ilmiy maqolalarini chop ettirib keladi. Majmuaga kiritilgan pyesalar shu olim arxividan olindi. Bular Shukur Sa'dullaning "Yoriltosh", Po'lat Mo'minnig "Qovoqvoy bilan Chanoqvoy", Ibrohim Ahmedov va Obid Tolipovning "Sirli sandiq" va Hakim Nazirning "Chiranma g'oz hunaring oz" asarlaridir.

O'zbekiston xalq yozuvchisi Hakim Nazir o'zbek bolalar adabiyotining yirik namoyondalaridan biri hisoblanadi. 1915 yili Toshkentning Arpapoya mahallasida tavallud topgan. U Toshkent davlat pedagogika institutini tugatgan, bolalar matbuotida, nashriyot, yozuvchilar uyushmasi radio sohalarida muharrir va adabiy xodim sifatida ishlagan, ellikdan ortiq asarlar muallifi hisoblanadi. Bularning ko'pchiligi "Yonar daryo", "Ko'k orol chiroqlari", "Dadamni topib beringlar kabi" asarlari bolalarning beg'ubor qalb ehtiroslarini ochishga qaratilgan.

Hakim Nazirning "Chiranma g'oz, hunaring oz" pyesasi uning qator nasriy asarlari kabi bolalarning axloqiy tarbiyasiga qaratilgan. "Bola aziz, tarbiyasi undan aziz" dagan maqol pyesa mohiyatini anglatishi mumkin. Unda maktab o'qituvchisi Murodning ota-onasi o'ta erkalashi tufayli ishyoqmas, boshqalardan o'zini yuqori tutib nazarpisand qilmasligi oqibatida nojo'ya holatlarga tushib qolishi, oxiri odobli o'quvchilar ta'siri natijasida o'zini o'nglab olishi haqida hikoya qilingan. O'quvchilarning o'zlarini-o'zlari boshqarish kamchiliklardan xoli bo'lishlari pyesaning muhim jihatini belgillab bergan. Shu jihatni uni tomoshabinda qiziqish uyg'otdi va repertuardan munosib o'rin oldi.

Manbaalar: 1. Hakim Nazir.

"Chiranma g'oz hunaring oz".

"Yosh gvardiya" nashriyoti 1960 yil

2. S. Mirvaliyev "O'zbek adiblari" "Yozuvchi" nashriyoti 2000 yil

Quyida ikkinchi pardadan parcha berildi

Chiranma g'oz hunaring oz

TO'LAN: Bo'yingga olmas ekansan (*mushtini ko'rsatib, sekin*), do'mbira qilaman!

BOQI: (*o'zini arang bosib*). Qo'llaringdan kelganini qilinglar! To bu tuhmatlaring uchun kelib kechirim so'ramagunlaringcha maktabga ham, boshqa yoqqa ham chiqmayman!

TO'LAN: Tavba qildik!... (*ovozini ichiga yutib*). Qaytarib oldik!...

Boqi teskari o'girilib, uy eshigini qattiq yopib kirib ketadi. Bolalar eshik oldiga borishadi.

ANOR: Bekorga ezdlaring-da bechorani. U qilganmas menimcha.

TO'LAN: (*kinoyali*). Juda rahmdilsan-da. Haligina: "bu ishni O'ktam qilmagan, Omon ham qilmagan", deb aytuvding. Murod bilan Kamol bo'lsa "biz qilmaganmiz" deb qattiq turib olishdi. Endi seningcha Boqi ham oppoq. O'zing ham darsda yo'q eding, oppoqsan. Bundan chiqdi sinf betiga dog' tushirgan — To'lan sho'rlik ekanda? (Peshonasiga urib.) eh, bechora, eh bechora!...

O'LMAS: Senga nuqul askiya bo'lsa! Jonimga tegding.

TO'LAN: Tavba qildik, komsomol boshimiz! (*Ovozini ichiga yutib*.) Qaytarib oldik!... *Paqirga turtinib yiqiladi. G'oz cho'chib chiqib g'aqillaydi.*

TO'LAN: (*yotgan yeridan*). Chiranma g'oz — hunaring oz!...

Kulgi. To'lan turib g'ozni quvadi. Uzoqdan g'ozning g'aqillab qochayotgani eshitilib turadi.

ANOR: (*bolalarga*) Bormaran joyimiz qolmadi. Endi nima qilamiz? (*Bolalar o'ylab qolishadi.*) kelinglar, tag'in bir marta Murodning oldiga boramiz!

TO'LAN: Axmoq bo'lib hadeb boraverarkanmiz-da!

ANOR: Nima, bo'lmasa sir yopig'ligicha qolaversinmi!

O'LMAS: Anor!...

ANOR: Nima?

O'LMAS: (*sirli qilib*). Yuringlar...

Bolalar: (*qiziqishib*) Qayoqqa? Qayoqqa?

O'LMAS: Yo'lda aytaman...

Hamma yugurib chiqib ketadi. Boqi sharta eshikni ochib, darvozaga chiqib qaytarkan, hamon tajang.

“SIRLI SANDIQ”

O'gay ona va uning zulmidan jabr chekkan Zumrad haqidagi ertak ikki ijodkor — I.Ahmedov va O.Tolipov tomonidan tasnif etilib sahna yuzini ko'rgan.

Ibrohim Ahmedov va Obid Tolipov Toshkent shahrining bir-biriga qo'shni Olmazor va Shayxontohur mahallalarida yashab bolaligidan do'stlashib teatrga ishqiboz bo'lib, ulkan orzular og'ushida ijod sari intilib balog'at topgan zotlar edi. Ular 1934 yili loxutiy nomidagi teatr yexnikumiga o'qishga kirishadi, 1945 yil Toshkentda Teatr san'ati instituti ochilarkan, bu o'quv yurtida ham ular birga tahsil ko'radilar.

Obid Tolipov texnikumni xatm etgach, Respublika yosh tomoshabinlar teatrida aktyor sifatida ish boshlaydi. Umrini oxiriga qadar shu maskanga qalb-qo'rini baxsh etib, o'nlab hayajonli rollari bilan tomoshabinlarning bir necha avlodi xotirasida chuqur iz qoldirdi, O'zbekiston xalq artisti degan unvon bilan taqdirlandi.

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Ibrohim Ahmedov aktyor, rejissor, dramaturg sifatida faoliyat ko'rsatib har uchala yo'nalishda ham e'tiborli ijod na'munalarini yarata oldi. Milliy qadriyatlarni tarannum etish, o'zbek yigit-qizlarining jasorati, do'stligi, vafo va sadoqati uning ijodining va ayniqsa dramaturgiyasining asosiy mavzusi edi.

I.Ahmedovning hayoti va ijodini ko'ngildan o'tkazib qaynoq samimiyat bilan maqola bitgan O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, atoqli rejissor Jo'ra Mahmudov ("Teatr" jurnali 2002 yil. 6-son) "Qahramon", "Suxrob", "Hamisha qalbmida", "Baxtli odamlar", "Fidoyilik qissasi", "Taqdir", "Ro'shnolik shaydolari", "Bahor gullari", "Vafo" singari pyesalarni sanab Axmedov yozgan asarlar o'ttizdan kam emasligini qayd etgan.

Axmedov Respublika yosh tomoshabinlar teatrida bosh rejissorlik qilgan davr (1967-1969) bu jamoa hayotida shov-shuvli voqealarga aylangan "Abdulla Nabiyev", "Amu qahramonlari" kabi spektakllar yaratilgan davr bo'ldi. Dramaturgiya sohasida Obid Tolipov hamkorligida yozilgan "Kim aybdor?", "Qimirlagan qir oshar", "Sexrli non", "Rubob toriga yashiringan jon", "Gumon" kabi pyesalari yaratiladi va ularning aksariyatini o'zi sahnaga qo'yadi.

"Sirli sandiq" ertagi ham shu davrda yozilib sahnaga qo'yilgan. Ertakda yaxshilikka yaxshilikni qaytishi g'oyasi Zumradning o'rmon jonzodlariga bo'lgan mehr-muruvvati orqali ochib berilgan edi. Zumrad yaxshiligi tufayli ormon Onasining harir liboslariga to'la sandig'iga erishsa o'rmon Onasini "jodugar" deb diliga ozor yetkazgan qo'rs, betarbiya Qimmat badxulqligining jazosiga uchraydi: unga hadya etilgan sandiq ochilganda uch boshli ajdarho o-zidan o't sachratib o'gay ona va uning tantiq qizi Qimmatga hamla qila boshlaydi. Bir zum chiroq o'chadi, sandiq ichida o'rmon Onasi paydo bo'ladi, atrofni nur qoplaydi, zamin so'lim gukzorga aylanadi. Mualliflarning qadimgi ertakka nisbatan yangicha yondashuvi, ya'ni timsoliy ifodalar orqali tomoshabinni san'atning sehrli olamiga olib kirish niyatlari ayni shu final sohasida namoyon bo'lgan. Quyida asarning ikkinchi parda ikkinchi ko'rinish chop etildi.

IKKINCHI PARDA IKKINCHI KO'RINISH

O'rmon. Bir chetda katta sada. Uning tagida Olapar zanjirlangan, oldida beda. Qarshisidagi novdaga Qo'chqor bog'langan, uning oldiga esa suyak tashlangan. Uzoqlardan Boyqushning ovozi keladi. Kech kirar payti: Boyqush uchib keladi.

BOYQUSH: Osmondan pastga,
Uchmasdan, asta.
Asta kelar shu tomon.
Ushlab guldasta,
Ana u ku-ku!
Baxt kelgani shu,
Ku-ku, ku-ku.
Yig'iling tezroq,
Yoqmasdan chiroq.
Dahshatli bo'ling,
Bundan batarroq.
Ana u ku-ku!
Yetim qiz; shu-ku;

Qolga kirsin, ku!

Ku-ku! Ku-ku!

OLAPAR: (Qo'chqorga) Tozayam quvnayapti-da.

QO'CHQOR: Bekam xafa bo'ladilar, deb indamayapman-da, bo'lmasa bir tazirini berib qo'yardim.

BOYQUSH: Ha azizlar, nega damingiz chiqmaydi? Men o'ynab kulsam, g'ashingiz keladimi? Nega indamaysizlar?

(Qo'chqor bilan olapar indamaydilar).

Biron nima ta'bingizni tirriq qildimi?...*(Oldidagi beda bilan suyakka isora qilib.)*

Ziyofat quyuq bo'lgan ekan-da.

QO'CHQOR: Bugun bizning tomonlarga bironta noma'lum zotning qadami yetganga o'xshaydi.

BOYQUSH: Hm, shunchalik kaltafaxm bo'lasizmi?

Oldingizdagi nima?

Bedami, suyak?

Ovqat totliq g'am yemang,

Beda ne kerak?

Ovqat mazali, ku-ku!

Non jizzali, ku-ku!

QO'CHQOR: Jon birodar, bir yaxshilik qilib yubor. Dov-daraxt, tog'u toshlar, parranda qushlarning mazag'idan qutulay. Oldimdagi suyakni olib tashlagin.

BOYQISH: Yemasangiz bo'lmaydi,

Ovqatingiz shu,

Hech kim sizdan kulmaydi,

Shirin-asal-ku!

Ovqat mazali, ku-ku!

Non jizzali, ku-ku!

QO'CHQOR: O'tinaman, yolvoraman. Juda bo'lmasa mana shu tuyog'm ostida turgan suyakni olib tashla.

OLAPAR: Vov! Bas! Yetar! Kimga yalinayapsan, azizim?

BOYQUSH: Ha, Olaparjon, jahlingiz chiqdimi? Achchig'ngiz kelsa, oldingizdagi bedani chaynang!...

QO'CHQOR: Ha la'nati!

OLAPAR: Ovozingni ochir!

QO'CHQOR: Suyakni olib tashlagani oldimga kelarmikan deb o'ylagan edim, kelmadi...

BOYQUSH: Hammani o'zingga o'xshash laqma deb o'ylay berma, Qo'chqorvoy. Kechalari qushlarni ovlash ucin ham jonim o'zimga kerak. Seni deb o'zini qurbon qiladigan tentaklardan emasman. Hali zamon notanish zot kelib qoladi. Mabodo, birin falokatga uchrab qolsa bormi, bir oy maza qilib bazm quraman.

QO'CHQOR: Quzg'un!

BOYQUSH: Nima deding?

OLAPAR: Birovning boshiga og'ir kulfat tusib qolsa yordam berish qo'lingdan kelmaydi-yu, uni mazax qilasan. Falokatga uchragan vaqtini mo'ljallab ko'zini o'yishga tushasan.

BOYQISH: Voy tavba. (zavqlanib kuladi)

OLAPAR: Yo'qol, bu yerdan! Yo'qol!

QO'CHQOR: Ket, ablah, ket!

(Boyqush kuladi. Sada uyg'onadi).

SADA: Hu, hu...

(O'rmonning har tomonidan aks sado eshitiladi).

Nima janjal? Nima to'polon? Bizning dargohimizga qanday odamzodning qadami yetdi? Qani u? qani?

(Shamol esadi, daraxtlarning singan ovozi eshitiladi uzoqlardan turli hayvonlarning ovozlari keladi. Boyqush Sada butog'iga qo'nadi. Gul ko'targan Zumrad kirib keladi.)

ZUMRAD: Mosh hech qayerda yo'q-ku. Moshni topmasang, uyga qaytib kelma, dedilar. Endi moshni qayerdan topaman? Bo'ri yeb qo'ygan bo'sa-ya? Yo'g'-e, bo'rining jahli oyimnikicha bo'lmasa kerak. Nahotki, bechora Moshga rahmi kelmasa? (Daraxt shoxidan uchgan qushga qaraydi). Hay qushlar... Iya, o'zimizning kaptarga o'xshaydi-ku? Kaptarjon, hoy, kaptarjon. Menga qara, endi Mosh, sen bilan qattiq hazillashmaydi. Urushib qo'ydim. Undan xafa bo'lma. Hoy, menga qara, agar yo'lda Moshni ko'rib qolsang qo'rqma, aytib qo'ygin. Uyga bormasin. Tutib olishsa o'ldirishadi. Aytib qo'yish esingdan chiqmasin, xo'pmi? Musicha, chumchuqlarga ham ayt! Moshga xabar qilishsin. (Birdan ko'zi qo'chqorga tushadi.) Voy, o'lmasam...

QO'CHQOR: Ba...

ZUMRAD: A... Siz mening Moshimni ko'rmadingizmi?

QO'CHQOR: Ba, ba. Mosh deganing nimasi?

ZUMRAD: Haligi... Mosh... vuy, shoxlarining kattaligini...

BOYQISH: Ku-ku... Bemahal nima qilib yuribsan?

(Zumrad Boyqushga qaraydi, jimlik).

Ku-ku, gapir!

(Zumrad astagina orqasiga tislanadi).

(Istehzo bilan.) Hoy qizcha, Qo'chqorga yaqinlasha ko'rma! Jahli chiqib turibdi. Suyakka qo'shib, tag'in, chaynab yubormasin.

QO'CHQOR: Hm... o'zing kimsan? Bizning joylarda nima qilib yuribsan?

ZUMRAD: Men, haligi... Joylaringiz juda yaxshi-e... xuddi boqqa o'xshaydi. Shoxlaringiz biram chiroyli, o'zingizga quyib qo'ygandek yarashgan.

QO'CHQOR: rostdan chiroylikmi? (*Shoxlarini qimirlatadi.*)

ZUMRAD: Shoxlaringizni qimirlatmay jim qarab tursangiz solatli ko'rinar ekansiz.

SADA: Vah, ha, ha, sovlati emish... Vah, ha, ha... Qimirlatmay bo'пти... Vah, ha, ha.

(Aks sado. Qochqor Zumradni suzmoqchi bo'ladi. Zumrad orqaga tislanadi, itga to'g'ri keladi).

OLAPAR: Vov, vov... ket, bu yerdan!

ZUMRAD: Voy o'lay...

OLAPAR: Jahlim chiqib turibdi. Vaqt g'animatida jo'nab qol!

ZUMRAD: Xo'p, xo'p... (Itning oldidagi bedani ko'rgach) Taglaringiz iflos bo'lib qolibdi-ku!

SADA: Vah, vah, ha, ehtiyot bo'l!

(Zumrad avval itga, keyin Qo'chqorga, daraxt shoxida qo'nib turgan Boyqushga qaraydi. Ular darg'azab. Zumrad qo'llariga tushsa, bechora qizni chaynab, tepkilab, cho'qib tashlasa. Zumrad asta ashula boshlaydi).

ZUMRAD: Chiroyli qush, boyo'g'li,
Ovozlaring yoqimli.
Ko'zlaringda nur-shu'la,
Aytib bergin ashula.

Qanotingni ochsang keng,
Senga qushlar kelmas teng.
G'ayratingni to'plab boz,
Uchgin sen balandparvoz.

(Boyqush qanotini yoyib ovozining boricha kuladi-da, ko'zdan g'oyib bo'ladi. Zumrad Boyqushni kuzatadi, so'ng Qo'chqorga qaraydi).

Gul g'unchalar ochilgan,
Shoxida qushlar sayrasin.
Maysa o'tlar bag'rida,
Ola Qo'chqor yayrasin.
Qochqorga yaqinlashadi
Shoxi sadap, sersavlat,
O'zi katta badavlat.
Suzishda zo'r yagona,
Insonga hech bermas lat.

(Qo'chqorning oldidagi suyakni oladi.)
Ola Qo'chqor muloyim
Olapar undan qolishmas.
Xizmatga tayyor doim,
Urishmas ham olishmas.
(Itning oldiga kelib suyakni beradi)
Qorningiz to'ysin oshga.
Suyakni oling yonboshga.
Xafalikni itqiting. —
Sahro-yu, tog'u toshga!

(Zumrad itning oldidan bedlarni olib Qochqorning oldiga qo'yadi.)

Ovqatlanib, jindek dam oling. Suv ichkingiz kelayotganga o'xshaydi: Arqonni yechib yuborsam, o'zingiz borib ichib kelasizmi?

QO'CHQOR: Ba...

ZUMRAD: Hozir... (*Ko'zi egilib yotgan novdaga tushadi.*) Arqon bog'lab bechorani qiynab qo'yishibdi-ku! (*Novdaga bog'langan arqonni yechadi.*)

Egilgan novda,
Qaddingni rostla.
Erkin nafas ol,
Ko'rmagin zavol,

(Novdani to'g'rilaydi).

Yer, suvga havo

Dardingga davo.

Bo'lsin yer iqbol,

Ko'rmagil zavol.

(Zumrad novda tagidagi kesaklarni maydalab soladi. Do'ppisida suv olib kelib uning tagiga quyadi, novda ko'karib gullaydi).

Ochilgin, gul-gul,

Xandon tashlab kul.

Ko'p-ko'p meva sol,

Ko'rma hech zavol.

(Novda shoxlarida meva paydo bo'ladi. Shu vaqt sada shoxida uy ko'rinib eshigi ochiladi. Qollari uzun, sochlari qor singari oppoq bo'lsa ham ahchagina baquvvat, istarasi issiq ayol uydan chiqib keladi. Ustidagi ko'kimtir libosi o'ziga quyib quyganday).

OLAPAR: Vov, vov, vov!

SADA: Huv. Ha...

QO'CHQOR: Ba, ba, ba...

(O'rmonning har tomonidan aks sado eshitiladi. Zumrad hayajonda, jimlik).

O'RMON ONASI: (dag'allik bilan) Ha, nima qilib yuribsan?

ZUMRAD: Assalomu alaykum.

O'RMON ONASI: (*sovuq*). Vaalaykum assalom. Qani yaqinroq kel.

(Zumrad qo'rqa-pisa o'rmon onasi yoniga keladi. U Zumradning boshidan-oyog'igacha tikilib chiqqach).

Bor o'choqdan olov olib kel!

ZUMRAD: Olov!

O'RMON ONASI: Huv ana. Tutun chiqayotgan joyni ko'rayapsanmi? Bor, olib kel!

(Zumrad hayron.)

O'RMON ONASI: Nega indamaysan? Olib kelishga idish yo'qmi? Biron narsa bo'lganida, o'zim olib kelardim.

ZUMRAD: Hozir, buvijon.

(Ichkariga kirib ketadi.)

OLAPAR: Ishqilib, kuyib-netib o'tirmasa yaxshi edi.

SADA: Hayronman.

OLAPAR: Bechora qiz.

O'RMON ONASI: (*qichqirib*). Jim!

(O'rmonning har tomonidan aks sado ko'tariladi. Zumrad olov olib chiqadi.)

OLAPAR: Rostakam olovmi?

SADA: (*ohista*). Jim

(Kampir tor yengidan katta chilim oladi. Olovni chilimga qo'yib chekadi. So'ng Zumradga tikiladi.)

OLAPAR: Olov-ku!

SADA: Vo ajab!

OLAPAR: Kaftiga oldin kul solib, uni ustiga cho'g' qo'yib chiqibdi.

QO'CHQOR: Aqliga qara! Balli!

O'RMON ONASI: Qani, ketdik.

(Zumradning qo'lidan yetaklab sada shoxidagi uy tomon jo'naydilar.)

Parda

“Qovoqvoy bilan chanoqvoy”

Taniqli bolalar shoiri Po'lat Mo'min (1922-2003) dramaturgiyasi sheriyatidek obrazli ifodaviyligi bilan kishini o'ziga rom etib turadi.

U Toshkentda tug'ilgan, Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika institutida tahsil ko'rgan. Institutdan so'ng bir muddat o'qituvchilik qiladi, so'ng gazeta, nashriyot tahririyatlarida, yozuvchilar uyushmasida faoliyat ko'rsatadi. 1962-64 yillari respublika madaniyat vazirligi san'at Boshqarmasida ishlab teatr ishlari bilan shug'ullandi va shu davrada dramaturgiya sohasida astoydil izlanishlar olib boradi.

P.Mo'minnig son jihatidan uncha ko'p emas. Lekin u o'z pyesalarida bolalar kundalik hayotda doim muloqotda bo'ladigan jonli va jonsiz narsalarni shoirona tasvir va obrazli ifodalar orqali jonlantiradiki, bu aynan yoshi kichik tomoshabinlar uchun mos dramaturgiya rivojiga alohida ta'sir ko'rsatdi. Pyesalarga “Qovoqvoy bilan chanoqvoy”, “Suqatoy Konfetvoy”, “Tuyaqush boyaqish” kabi nomlar berilishi ham yosh tomoshabinlar tasavvurini jonlantirish maqsadi bilan izohlanadi.

H.IKROMOV SHARXI

Po'lat Mo'min teatri o'ziga xos samimiyati, yumori, ertakona jozibasi, fikr, maqsad, g'oyalarining yorqinligi va tushunarliqligi bilan ajralib turadi. O'tkir syujeti, kutilmagan qahramonlari bilan yosh tomoshabin fikrini cho'lg'aydi, shoshirib qo'yadi... ana shunday asarlardan dastlabkisi “Qovoqvoy va Chanoqvoy” (1964) ertagidir. Spektakl tarbiyaviy jihatdan juda ahamiyatli. Personajlari esa shartli va majoziy. Lekin har bir personaj aniq hayotiy zaminga ega. Spektakl Qovoqvoy timsolida dangasalikni tanqid qilsa, Chanoqvoy timsolida g'ayrat, shijoat, idrokni ulug'laydi. Qovoqvoyning dangasaligi tufayli yuzaga keadigan qiziqarli voqealarda Tarvuz, Qovun, G'ujumoy, Lavlagijon, Oysholg'om kabi g'aroyib personajlar ham qatnashadi. O'g'lini ayaverib xomsemiz bo'lib qolgan Qovoq xola harakatlari tomoshabinda kulgi uyg'otadi. Sahnadagi bolalaracha sho'xliq, fantastica tomoshabinni yaxshilik, ezgulik, g'ayratli mehnatga chorlaydi.

Ushbu spektakl o'zbek yosh tomoshabinlar teatri sahnasida 30 yildan ortiq yashadi. Uni teatrning bir necha avlod aktyorlari ijro etib keldilar. Ayniqsa, mashhur aktyor Vohid Qodirovning Qovoqvoyi-yu, Mashhur aktrisa Manzura Hamidovanning jozibador Qovoq xolasi bir necha avlod tomoshabinlari xayoliga muhrlangani aniq. “Teatr” jurnali

2002 yil 5-son

Quyida pyesaning 2-parda 4-ko'rinishidan parcha berildi

QOVOQVOY BILAN CHANOQVOY (IKKINCHI PARDA? TO'RTINCHI KO'RINISH)

Yoz oyi. G'ozaga gullagan. Yelkalariga dori purkagich orqalagan Tarvuz, Qovunjon, G'ujumoylar kirishadi. Qo'llarida bankacha, kapalak tutadigan suzg'ich. Ular g'ozaga tushgan ko'sak qu'rta, o'rgimchakkana, kapalaklarni ushlashga kelishgan. Chanoqvoy ularga boshliq bo'lib o'rgatmoqda.

QOVUNJON: (*Qo'shiqni boshlaydi*)

Ey o'rgimchakkanalar,
Ko'rinmas pakanalar,
Ham xolangiz, ammangiz
Asirman deb hammangiz
Ko'taringlar tezda qo'l,
Hech bermaymiz sizga yo'l!

G'UJUMOY: (*Davom ettiradi*)

Yalmog'iz ko'sak qurtlar,
Yaramas — beburdlar,
Ey, ochofat chigirtka,
Tegma ekin, chigitga!
Hammangizni ushlayman,
Jag'-jag'ingga mushtlayman.

TARVUZ: Seni topmay qo'ymayman.

Ko'zlaringni uygayman.
Yuzingga qora surkayman.
Gazli dori purkayman.
Rosa boplab urgayman
Purkayman! Purkayman — o-o-o

G'UJUMOY: Ovozing ekan baland,

CHANOQVOY: Buni deydilar talent.

QOVUNJON: To'g'ri aytadi Chanoq,

Artistlikka talant zo'r.

TARVUZ: Artist bo'lardim mashhur,

Semiz-da, qorin qurgu'r.

(*Qovoqvoy ko'rinadi*)

QOVUNJON: Nima bo'lgan Qovoqqa?

Boqib qopti osmonga.

Ishi o'xshar yomonga.

CHANOQVOY: Kel, og'ayni buyoqqa.

TARVUZ: U nimani izlaydi?

QOVUNJON: Yengil ishni ko'zlaydi.

TARVUZ: Oshi bo'lsa, ish bo'lmasa,

Yoz bo'lsa, qish bo'lmasa.

G'UJUMOY: Xafa bo'lmasin Qovoq,

Uni ranjitma bundoq.

TARVUZ: Doim yuradi bekor,

Ham ishyoqmas, ham beor.

Ishda pishsin biz kabi,

Shu-da, do'stlar talabi.

QOVUNJON: kelishlariga qarang,
Qadamin bosar arang.

(Qovoqvoy asta-sekin keladi)

TARVUZ: Qovoq, Qovoq xom Qovoq,
O'qishda, ishda qoloq.

QOVOQVOY: O'zing-chi rosa quvsan,
Iching to'la liq suvsan.

TARVUZ: Men-chi, dalada ishlab
Yuribman toyda kishnab.

QOVOQVOY: *(Kerilib)*

Men uchratdim Sehrgar,
Nima istasam agar —
Qila olaman shuni,
Uchrashamiz har kuni.
Chanoqvoy quloq solgin,
Mendan-chi o'rnak olgin.
Rostini aytsam senga, —
Karra jadvalni menga
O'rgatib qo'ydi talay,
Shu sabab ishim qantday.
Yuribsanlar bo'bashib
Ishlaringdan adashib.

G'UJUMOY: Gaping rostmi, Qovoqvoy,
Maqtanarsan hoynahoy?!

QOVOQVOY: Ishonmasang so'rab ko'r,
Bilarsan kim ekan zo'r!

QOVUNJON: Yettita ikki qancha?

(Qovoqvoy ancha vaqt o'ylanib qoladi; bolalardan borib so'raydi)

TARVUZ: Yettita ikki-ancha. *(Boshqalar kulishadi)*

QOVOQVOY: *(Ko'zini yumib olib esnaydi)*

Terak shoxi bo'lar mo'rt,
Yettita ikki o'n to'rt.
Topish bo'ladi bundoq,
Bilib qo'y, tarvuz o'rtoq.

CHANOQVOY: Ey, qoyil-ku, ey qoyil,
O'rganibsan astoydil.

QOVOQVOY: Eshitib tur, ey Tarvuz,
Uch karra uch, bu — to'qqiz.

(Yana bolalardan so'raydi. Ular "To'g'ri-to'g'ri"i deyishadi.)

To'g'ri, to'g'ri, ha, to'g'ri. Uni topmagan o'g'ri.

CHANOQVOY: *(Chetga qarab)*

Buni o'zi to'qibdi,
Darsni durust o'qibdi.
Qilsa agar hafsala,
Unda ham ishlar kalla.

QOVOQVOY: Toshlik joyda yugurma,
To'rt karra besh — yigirma.
Do'stlar aytgan gapga ko'n,
Ikkita besh bo'lar o'n.

HAMMA: Qoyil, qoyil Qovoqvoy.
Kallang bopti ancha boy.

QOVOQVOY: Menga qo'ygan — talay shart.
Bajaryapman bo'lib mard. (keriladi)
Sehrgar kuchli juda,

CHANOQVOY: Bu gaplaring behuda.

QOVOQVOY: Uchrashtirsam, Chanoqvoy,
Sen bo'lasan o'sal-loy.

CHANOQVOY: Ahvolingga kulaman,
Senga hayron bo'laman.
Ishonmayman hali ham,
Sehrgar mendan kuchsiz.
So'zing bemaza — tuzsiz,
Berolmas senga yordam!

QOVOQVOY: Qo'lini-chi, Sehrgar
Shunday silkitsa agar,
Paxta bo'ladi xirmon.

CHANOQVOY: Barcha gaping g'irt yolg'on,

QOVOQVOY: Qo'lini shundoq qilar,
Hasharotlar qirilar.

CHANOQVOY: G'alatirog'-a so'zing,
Qirilib ketma o'zing.
Vah'ma gapni qilgin bas,
Bundayin ish qilolmas!
Ko'rsatib bo'psan, Qovoq,
So'zlaring yolg'on, chatoq.

CHANOQVOY: kelmoqchi edi qachon?

QOVOQVOY: Bugun otganida tong.

CHANOQVOY: Demak, gaplari yolg'on!

QOVOQVOY: Men uchratdim, gapim rost,
Har gapimga bor asos,
Yoki kelar ertalab

CHANOQVOY: Sehrgar — bu yolg'on gap.
Qovoqvoyning boshi xom,
U kelmaydi, gap tamom,

QOVOQVOY: Keladi u.

CHANOQVOY: kelmaydi.
Unchalik ketma katta

QOVOQVOY: U keladi albatta! (*yig'laydi*)

CHANOQVOY: kelsa kelar, ha mayli.

QOVOQVOY: Tongda kelar poylayman,

CHANOQVOY: Kelmaydi, bahs boylayman.

Bari bir men yutaman.

QOVOQVOY: Va'da bergan, kutaman.

QOVUNJON: Shartimiz shu, kelmasa —

Bo'lmay sen ham dangasa,

Hasorat terish uchun.

CHANOQVOY: Ikki karra besh-chi, o'n!

Do'stlar aytgan gapga ko'n.

QOVOQVOY: Sehr gar aytgan buni.

Soz ekanmi mazmuni?

CHANOQVOY: Aytgan bo'lsa aytgandir,

Bahs boylashdik biz axir.

QOVOQVOY: Ishga chiqqanim bo'lsin,

Menga sehargar kelsin.

Hasharotdan qo'rqmayman.

Paxtazorga kiraman,

Ko'ringanni qiraman.

TARVUZ: Qovoq, Qovoq xom Qovoq,

Turgan bitganing qovoq.

QOVOQVOY: Kim Qovoq?

TARVUZ: Sensan Qovoq.

QOVOQVOY: Sen-chi Tarvuz.

TARVUZ: Ha, Men Tarvuz.

QOVOQVOY: Bolalar, men Qovoqman-a?

Sizlarga chin-o'rtoqman-a?

Sen qo'zivoy Tarvuzsan.

TARVUZ: Sen tomosha Qovoqsan.

QOVOQVOY: Ichi tushgan Tarvuzsan.

TARVUZ: Sen-chi sapcha Qovoqsan

QOVOQVOY: Sen tuzlangan Tarvuzsan.

TARVUZ: Senchi, oyim Qovoqsan,

Ya'ni doim Qovoqsan

TARVUZ: Kuchimiz sinashamiz,

Kel, boksga tushamiz.

(Boksga shaylanadi, boks qo'lqopini topib kelishadi)

QOVOQVOY: Suvingni chiqaraman!

TARVUZ: Urug'ing chiqaraman!

(O'yin boshidayoq Tarvuz uning chakagiga solib qoladi)

QOVOQVOY: Voy, chakagim, voy, voy,

Urish yo'qda to'satdan,

Bu hisobmas, boshqatdan.

G'UJUMOY: To'g'ri aytar Qovoqvoy.

Yana tushadilar. Qovoqvoy yengilay deganda sahnadan Chigirtkalar, Ko'sak qurtlar chopib o'tishadi. Hamma shoshib qoladi. Shu payt G'ujumoy Paxta boboni suyab sahnaga olib kiradi. U gapirolmaydi.

CHANOQVOY: Nima qoldi bobojon?

G'UJUMOY: Hollari ancha yomon.

PAXTA BOBO: (zo 'rg'a) Uch-to'rttasi kelib zo'r,
Ustimga tashladi to'r.
Olishdim anchagina.

QOVOQVOY: U-chi, O'rgimchakkana!

G'UJUMOY: Sen bilasan qayoqdan?

CHANOQVOY: Gap olasan Qovoqdan.

*Paxta bobo holdan keta boshlaydi. Sprits o'q talgan Lavlagijon kiradi va
Oysholg'omlar Ko'sak qurti va Chigirtkani quvib o'tishadi.*

OYSHOLG'OM: Bu holda bo'lnas axir,
Kasalxonaga hozir —
Avaylab eltish kerak.

G'UJUMOY: Hollari og'ir demak,
Endi nima qilamiz?

OYSHOLG'OM: Tezda da'vo qilamiz.

Paxta boboni olib ketishadi. Faqat Tarvuz bilan Qovoqvoy qoladi.

TARVUZ: (g'ayratga kirib)
Qovoq do'stim, qani, ha,
Ushlaymiz, borib, olg'a!

QOVOQVOY: (*Qoliga qarasa — qolqop!*)
Qovoqvoy, sen ham ol, ha,
Orqada qolma, olg'a!
Yovuzni axtaraman,
Bir urib ag'daraman!
(*Qo'lini ko'taradi, chopib chiqib ketadi*).

Parda

Beshinchi ko'rinish

Birinchi ko'rinishdagi manzara. Erta tong. Tarvuz, G'ujumoy, Chanoqvoy, Qovunlar
o'tirishibdi.

TARVUZ: Ishga ancha kech qoldik,
Qani tezroq yo'l oldik.
Hasharotni uyquda —
Ushlash qulaydir juda.

G'UJUMOY: Qovoqni kutish kerak,
Yaxshimas tashlab ketsak.
Sehrgar cholni axir,
Men ham ko'rib qoyay bir, —
Deya o'yalab yurardim.
Undan madad so'rardim.

CHANOQVOY: Sehrgardan Gujum ham
So'ramoqchi-ya yordam.

TARVUZ: Men so'rardim bir ishni:
Ya'ni ozroq ozishni.

G'UJUMOY: Ishonmaymiz-ku ammo...

CHANOQVOY: Gaplaringiz bema'no,
Nimalar bo'ldi sizga,
Ishoning aqlingizga.
Qovoqqa o'xshab tag'in —
Ayta qolay ochig'in —
Yurmangiz bo'lib izza,
Haryonga kezib g'izza.

(Chanoqvoy gapirayotganda Qovoqvoy shoshib-pishib ko'zini ishqalab kirib keladi)

QOVOQVOY: Sehr gar chol keldimi?
U bir nima dedimi?
Xuddi uning tovushi
Eshitildi quloqqa

CHANOQVOY: Sehgarda es-hushi.

QOVOQVOY: Ketib qoldi qayoqqa?

CHANOQVOY: Hech kim kelmadi, o'rtoq',
Avvalo salom, Qovoq!

QOVOQVOY: Uning gapini hozir
Eshitib qoldim axir.
Senlardan cho'chidimi?
Sehr qilib uchdimi?

(U yoq- bu yoqqa yugurib qaraydi, qidiradi)

CHANOQVOY: Bo'lma buncha jonsarak,
Sehrgardan yo'q darak.

QOVOQVOY: Sehgara ovoziga
Ovozing o'xsharkan sal.

CHANOQVOY: Qarang-a da'vosiga,
Bo'lmayda sira o'sal, —
Qovoqvoy yutqazsa ham.

TARVUZ: Rosa qilmoqda alam.

(Shu orada G'ujumoy, Tarvuz chiqib ketishadi.)

CHANOQVOY: Qilayapsanmi zaryadka?

QOVOQVOY: Zaryadka qilgan edim,
Ishonmaysanlar, balkim,
Kirib qoldim g'ayratga.

(Har xil harakatlar qilib, hamma yoqqa yuguradi. Shu paytda Tarvuz, G'ujumoy kelib qolishadi)

TARVUZ: Kuchli bo'lsang agarda
Boksga tush bir marta.

QOVOQVOY: Buzilmasmi qoida?

G'UJUMOY: O'ynaymiz-mi shu joyda?
O'zim bo'laman sudya.
Yutganga bor zo'r hadya...

Tarvuz bilan G'ujumoy yuguribchiqib ketishib boksyorlar qo'lqobini topib kelishadi. O'yin boshlanadi. Oldin Qovoqvoy bor kuchi bilan harakat qiladi. Tarvuzning mazasi qochadi. Keyin Tarvuz kuch yig'ib Qovoqvoyni yenga boshlaydi. Oxirida Tarvuz

yutadi. Qovoqvoy o'tirib oladi. Tarvuzga bir bankada suv keltiradi G'ujumoy. Tarvuz esa uni Qovoqvoyga beradi, u ichib oladi, o'rnidan turadi, Tarvuz bilan ko'rishadi.

QOVUNJON: Hammadan oldin ketay,

Juda zo'rini tutay. *(ketadi)*

CHANOQVOY: Qovoq o'rtoq, qani yur.

QOVOQVOY: Damim olay, shoshmay tur.

(Indamay yerga xomush qarab turadi. G'ujumoy xafa, chiqib ketayotib)

G'UJUMOY: Sendan bir nima chiqmas,

Suv yuqmas-u, suv yuqmas.

QOVOQVOY: Bir oz poylasam agar,

Kelib qolar sehrigar.

CHANOQVOY: "Ikki besh bo'lar o'n,

Do'stlar aytgan gapga ko'n!"

Deya aytuvding o'zing,

Bitta bo'lsin-da so'zing!

(G'ujumoy yana hovliqib kiradi.)

G'UJUMOY: Yuguringlar, yuguring,

Qovunga yordam bering,

U cho'zilib yotibdi.

Kimlardir tosh otibdi.

(Chanoqvoy yugurib ketadi)

TARVUZ: Oramizda bor josus,

Ish ko'rmoqda, g'alamis.

Unda yo'qdir diyonat,

Doim qilar xiyonat.

Hashoratlarga birdak

Berib kelmoqda ko'mak

(Birdan yig'lab)

Ey, og'aynim Qovunjon,

Ishqilib bo'lg'in omon!

(G'ujumoy, Tarvuz yugurib chqib ketishadi.)

QOVOQVOY: *(O'zidan xavotir olib)*

Kimni deyapti josuz!

Yaxshi emas bunday so'z.

Menga ishora qilar,

Balki sirimni bilar.

(Shu paytda Qovoqhola o'g'lini qidirib kelib qoladi.)

QOVOQHOLA: Bolajonim, Qovoqvoy,

Qorning ochgan hoynahoy,

Poyladim qilmay toqat,

Yeding-mi biror ovqat?

Oppog'im nima deysan,

Ayta qol nima yeysan?

(Cho'ntagini kavlaydi.)

QOVOQVOY: Mendan olmang xavotir,

Bo'lmoqdaman betoqat,
Hozir kerakmas ovqat
Bo'lmoqchiman mard-botir.
Gapning ochg'in aytsam,
Sehrgar berdi yordam.

Bir chetda ularga ko'rinmay Sehrgar ko'rinadi.

Uning gapini eshitadi.

QOVOQHOLA: Sehrgaring bo'ldi kim?

QOVOQVOY: Ko'p gapirmang, bo'ling jim.

(o'zicha)

Terak shoxi bo'lar mo'rt,
Ikki karra ikki — to'rt.
Do'sting aytgan gapga ko'n.
Beshta ikki bo'lar o'n

(*O'yinga tushadi, oyisi chapak chaladi.*)

Ha, ha, beshta ikki bo'lar o'n.
O'rganvolish ekan jo'n,
Qilgan edim zaryadka,
Kirdim kuchga, g'ayratga.

QOVOQHOLA: Omon bo'lgin, jon bolam,

Ancha tinchidi ko'nglim.
Dilim alag'da edi,
Keta qolayin endi.
Ketsangiz, keting mayli,
Eh, Sehrgar tufayli
Ko'p narsa bilib olay
Ish soz bo'lar har qalay.

(*Onasi chiqib ketgach Sehrgar berkinib turgan joyidan chiqadi. Qovoqvoy indamay
teskari qarab turgan Sehrgarni ko'rib sevinadi.*)

QOVOQVOY: Sehrgar bobo, salom,

Kelmaysiz deb batamom
Umidimni uzgandim,
O'zga reja tuzgandim.
Yashasin! Endi mazza!
Ishni boshlang bo'lmasa.

SEHRGAR: Yasha, Qovoqvoy yasha!

Shartimizga yarasha —
O'rganibsan astoydil.
Qoyilman, juda qoyil.

QOVOQVOY: Zaryadka qildim oz-moz,

SEHRGAR: Bu ishing bo'lmabdi soz.

Qilsang ko'proq zaryadka.
Kirarding-da, g'ayratga.
Yengar eding Tarvuzni,

QOVOQVOY: Kim aytdi-a bu so'zni?

Qanday bildingiz bobo.
SEHRGAR: Buncha so'raysan, obbo.
Gapga chalg'itma meni,
Darsni boshlaymiz qani,
QOVOQVOY: To'qqiz joyda uch —
Yigirma yeti,
SEHRGAR: Qovunjonga ham
Jarohat yetdi.
QOVOQVOY: Qoyilman sehringizga
SEHRGAR: Aytganimni qil takror.
Degan edim necha bor.
QOVOQVOY: Besh joyda to'qqiz —
Qirq beshdir shaksiz.
SEHRGAR: O'nta o'n?
QOVOQVOY: Bo'lar yuzta.
SEHRGAR: Bo'libsan ancha usta.
Bekor ishga yugurma.
QOVOQVOY: Besh karra to'rt — yigirma.
SEHRGAR: Dars o'tamiz kun ora
Kanikulda sen zora
O'rgansang karrajadval,
Bo'lmasding sira o'sal.
Ko'p ishing hal bo'lardi,
Do'stlar ko'ngli to'lardi.
Unutmagin sen shuni:
Do'stlaringga har kuni
Yordam berishdan qochma.
To'g'ri yo'ldan adashma.

(SehrGAR g'oyib bo'ladi.)

QOVOQVOY: Yordam berishdan qochma,
To'g'ri yo'ldan adashma!
Qovoqvoy o'ylang, qani...
(SehrGAR ketida yuguradi)
Bir oz to'xtang arzim bor,
Etab sizni xabardor.

SEHRGAR: *(qaytib qolib)*

Qani gapir bolakay.

QOVOQVOY: Quloq soling men aytay.
Gapim bor juda qiziq.
Olgan edim topshiriq.

SEHRGAR: Ya'ni bir to'rva urug'?

QOVOQVOY: Undan sira qolgan yo'q.
Allaqachon yo'qotdim,
Chuqur tomonga otdim,
Shuning uchunmi Tarvuz —

Meni-chi, deydi josus.
SEHRGAR: Bu ishingdan ehtimol,
Xabari border xiyol.
QOVOQVOY: Shubha qilar bekorga.
SEHRGAR: Xo'p, qani ketdik g'orga.
QOVOQVOY: Mayli birga boraman,
Beriroqda turaman.
Ular urug'ni so'rar,
SEHRGAR: Yo bo'lmasa yeb qo'yar.
Kimki bo'lsa agar mard
Qo'ymaydi bunaqa shart.
Sen go'yo bahodirsan,
QOVOQVOY: (*dadillanib*)
Mayli borganim bo'lsin,
Yomon qoni to'kilsin,
(*Shaxdam qadam tashlab ketishadi*)
Parda.

“Yoriltosh”

Shukur Sa'dulla chuqur qalb haroratini bolajonlarning dardu-quvonchlari tasviriga qaratgan shoirlardan edi. U adabiyotga 30-yillari bolalar haqidagi she'ri bilan kirib kelgan. U Matbuot va nashriyotlarda xizmat qiladi. “Maktab kutubxonasi” tarkibiga “Shirin kun”, “O'zbek ertaklari” kitoblarini chop ettiradi.

Sh.Sa'dulla bolalar tarbiyasida san'at vositasiga alohida e'tibor qaratar edi.

O'zbekiston Davlat nashriyotida ishlar ekan, 1948 yili “Maktab teatri” degan majmua chop ettiradi. Undagi bolalarni “Pyesa va insseniroykalar”, “Ashula, she'r va hikoyalar”, “Sahna o'yinlari” deb nomlanishining o'zi bolalarni sahna bilan muloqotga kirishdek ajoyib ezgu niyatni ifoda etishi mumkin. Muqaddima o'rnida “Tuzuvchidan” degan qismda, u “To'plamga kiritilgan topishmoq, jumboq, hazil-mutoyiba, latifalar va o'yinlardan tanaffus paytlarida, tomosha boshlanishi oldida, pioneer yig'ilishlarida va konsert programmalari ichida foydalanishni maslahat beramiz” deb uqtiradi.

Ushbu majmuada Sh.Sa'dullaning “Yoriltosh”, “Ko'ngilli kecha” pyesalari va “Qahramon” degan she'ri chop etilgan.

Sh.Sa'dullaning Z.Fatxulin hamkorligidagi “Vatan ishq” musiqali dramasi S.Boboyev musiqasi bilan Muqimiy nomli musiqali va viloyat teatrlarida uzoq yillar davomida tomoshabinlar olqishlari bilan qabul qilinib keldi.

Sh.Sadulla sahna tilini yaxshi his etgani holda ko'p voqealarni she'riy tarzda ifoda etgan. Bu she'riy ifodalar musiqa (I.Akbarov musiqasi) va qo'shiq vositalari orqali “Yoriltosh” ertagi yana ham shoirona jozibadorlik kasb etadi. Asar Respublika yosh tomoshabinlar teatridagina emas, shu qatori O'zbekistonda 1930-40 yillarda mavjud bo'lgan barcha yosh tomoshabinlar va kattalar teatrlari repertuarida ham mustahkam o'rin tutib keldi.

Quyida asardan prolog va birinchi sahnasi chop etildi.

“Maktab teatri” majmua. Tuzuvchi Sh.Sa'dulla

Prolog

Sahna oldida ertakchi bolalarga ertak so'ylamoqda.

ERTAKCHI

Ertak aytsam, ado bo'lmas,

Aytmasam-chi, ko'nglim to'lmas.

Ha desalaring aytaman. (*Bolalar yoppasiga "ha, ha" deb*

qichqiradilar.)

ERTAKCHI

Ha, demasalaring aytaman.

Bolalar "ha" der, keyin jim bo'lishar.

ERTAKCHI

Bor ekan-da, yo'q ekan,

Och ekan-da, to'q ekan.

Bo'ri bakovul ekan,

Tulki yasovul ekan,

G'oz karnaychi ekan,

O'rdak surnaychi ekan.

Qarg'a qaqimchi ekan,

Chumchuq chaqimchi ekan.

(*Pauza*)

Men aytsam, bo'lgan ekan

Qadim zamonda

Gulnor degan oyjamol

Bir qiz jahonda,

Bevaqt o'lmish oyisi.

Qiz yosh chog'ida.

Qoldi o'gay onanig

Zulm quchog'ida...

O'gay ona berahm,

Azob chekar qiz,

Har jafoga ko'nadi

Sho'rlik Gulnora.

Ertayu-kech tinim yo'q...

Essiz, ey essiz,

Qiynoqdan qutilmoqqa

Torilmas chora.

Gulnoraning eng suygan

Bir singlisi bor,

Uning oti Oymoma

Hamisha do'st-yor.

Opasini jonidan
Yaxshi ko'radi.
Uning bilan har qachon
Birga bo'ladi.

Kunlar o'tdi, oy o'tdi
Yil o'tib ketdi,
Gulnoraoy ulg'ayib
Bo'yiga yetdi.
Shunda uning boshiga
Tushdi ayriliq
Ona, aka dastidan
Quchdi ayriliq.

Pauza

BOLALAR

Nima? Nima? Ayriliq?!

ERTAKCHI

Ayriliq, jafo?
Qo'qisdan boshladilar
To'yu, kayf-safo!

Kuyov — o'gay akasi,
Bexabar Gulnor.
To'yboshi o'gay ona
Benomus, beor.

Gulnora bildi, faqat
Xuddi nikoh chog',
Qochdi uydan bosh olib
Yolg'iz tog'ma-tog'.
Ona, aka yugurar
Orqama-orqa.
Ota, singil yugurar
Qorama-qora.

Gulnora yetdi oxir
Keng tog' bag'riga,
Kirmoq bo'ldi yashrinib
Toshlar qa'riga.
Mana, ko'ring, dunyoda
Qanday ishlar bor?
Tog' bag'rida roz aytib
Dard chekar Gulnor!

*Sahna qorong'ilashib, bular g'oyib bo'lishadi.
Parda ochiladi.*

Birinchi ko'rinish

Tog'-toshlar orasi. Gulnora ta'qibdan qochib kirdi. Uning sochlari to'zg'igan.

GULNORA (*kuylaydi*).

Zulm ila tushdi boshimga
Ko'p jafo, ey do'stlarim,
Ayriliqqa yo'lni soldim,
Za'farondir yuzlarim.
Bir o'zim cho'llarda yolg'iz,
Kezaman tog'lar aro,
Lat yegan bir qush kabi men,
Chunki qalbimda yara.
Tog' aro toshlar bilan
O'rtoqlasharman bir o'zim;
Do'stlarim qolgan uzoqda,
Mayliga, yosh-mas ko'zim.
Yo'llarimda o'sdi gullar
Menga o'rtoq tog', adir,
Qaytmagayman uyga ortiq,
Kek, alam, o't — dildadir.

Gulnora tez tepalikka chiqib qaraydi.

Quvib keluvchilarning shovqini eshitiladi.

Gulnora tog'larga, toshlarga, tepalarga yalinadi.

GULNORA (*kuylaydi*).

Ey, tepalar, tepalar-a,
Meni yashiring sizlar-a.
Ey, yetim tog'lar, tog'lar-a,
Rahm eting, g'am dilim dog'lar-a.
Bir xarsangga borib bag'rini beradi va yolboradi.
Yorilgin tosh, yorilgin tosh
Men senga yo'ldosh, yo'ldosh...
Gu'diros eshitiladi va shu ashulaning aks sadosi qaytadi.
GULNORA (*toqqa so'zlaydi*)
Yalindim ey baland tog-,
Xafa dilga chiroq yoq!

Qorong'ilikda chaqin guldirab, toshdan o't chiqadi. Tosh yoriladi. Gulnora avval qo'rqib ortga tislanadi, keyin suyunadi.

GULNORA

Oh, qanday murivvat,
Rahm va shafqat.
Jafokash Gulnorga
Bu kattakon baxt.

Rahmat senga rahmdil,
Mehribon, ey tog'.

Yuraging u zolimlar
Qalbidan yumshoq.

Quridi suyunchimdan,
Ko'zdagi yoshim,
Sen mening panohimsan,
Do'stim, yo'ldoshim.

Ozod qushlar singari
Quloch keraman,
Tolpinaman qo'yningga
Xurram kiraman.

Quvib kelayotganlarning shovqini yaqindan eshitiladi.

Axtarishib, tutgani
Kelishayotir,
Mehribon, oq ko'ngil tosh
Tez meni yashir...

Qulochini yuzib tosh ichiga otiladi. Tosh ichi yorug', u yerdan kuylaydi.

GULNORA(*kuylaydi*).

Ey xarsang tosh, xarsang tosh-a,
Sevinchimdan ko'zda yosh-a.

Yopilgin tosh, yopil tosh-a,
Men senga yo'ldosh, yo'ldosh-a.

Tosh guldirab, chaqmoq chaqib yopiladi. Gulnoraning bir tutam sochi chiqib qoldi.
Muzika. Ota hassaga tayanib, sahnaga kirib keladi.

OTA (so'yladi)

Hay osmon, yer, tabiat,
G'uborsiz havo,
Kuygan yuragimizga
Topgin bir davo.

Qizimizni yo'qotib
Bizlar adashdik;
Va ayrliq o'tida
Yondik zo'r dashtdek.

Aka, singil yig'laydi
Gulnoraga zor,
Ey xudoyim senga biz
Ne qilg'umiz bor?!

Ota Gulnorani izidan iz axtarib kelar edi. Iz tugab qoldi. U toshga yetib, bir tutam sochni ko'rdi. Otaga jon kirdi.

OTA

Oh, qizim, jon qizim,
Oppog'im qizim.
Bormisan dunyoda
Gulchehra qizim.

Tosh ichiga kirishga yo'l topolmadi. Keyin toshga yodbordi.

OTA (*kuylaydi*).

Yorilgin tosh, yorilgin-a,
Men qizimni ko'rayin-a
Diydoriga to'yayin-a.

GULNORA

Yorilma tosh, yorilma-ya,
Men otamni ko'rmayin-a,
Diydoriga to'ymayin-a;
Avval edi o'z otam-a,
Endi bo'ldi qaynatam-a.

ONA (*kitaturib*)

To'y emas, aza bo'ldi,
Ko'zimda yosh,
Endi bizga tong otmas
Va boqmas quyosh.

Ona, uning ketidan aka kiradi va toshga tashlanadi.

IKKOV

Yorilgin tosh, yorilgin-a

ONA

Men singlimni ko'rayin-a.
(*kuylaydi*).

OTA-ONA

Men qizimni ko'rayin-a

IKKIOV

Diydoriga to'yayin-a...

GULNORA (*tosh ichidan*)

Yorilma tosh, yorilma-ya,
Men onamni ko'rmayin-a,
Diydoriga to'ymayin-a,
Avval bo'lsa jon onam-a,
Endi bo'ldi qaynonam-a.
Avval bo'lsa o'z akam-a,
Endi bo'ldi kuyovim-a.

Ular xafa bo'lib chiqishdi. Bir-bir bosib Oymomo kirdi. U toshga bag'rini berdi,

OYMOMO (*kuylaydi*)
Yorilgin tosh, yorilgin-a,
Men opamni ko'rayin-a,
Diydoriga to'yin-a,
Murodinga etayin-a.

GULNORA
Yorilgin tosh, yorilgin-a,
Men singlimni ko'rayin-a,
Diydoriga to'yin-a,
Murodinga etayin-a.

Tosh sharaqlab, chaqin chaqib yorildi. Gulnora singlisiga, singlisi Gulnora quchog'iga otildi.

OYMOMO
Opajon!

GULNORA
Singlim!
(*quchoqlashadilar.*)
PARDA.

XOTIMA

Kitob teatrimiz tarixini birma-bir hikoya qilib berish emas, balki dramaturgiya va sahna ijodi jarayonlariga oid manbaalar bilan tanishtirish ekani xayulingizdan o'tgan bo'lsa ajabmas.

Pyesalardan olingan parchalar, ularni sahnaga qo'ygan rejissorlar aktyorlar haqidagi ma'lumotlar, san'atkor esdaliklari, mutaxassislar sharhlari barchasi jam bo'lib, ulug' san'atkorlarining noyob iste'dodi bilan yog'rilgan XX asr o'zbek teatri manzarasini ko'z oldimizga keltirsa, kitobdan ko'zlangan maqsad ijobat topibdi dasa bo'ladi. Kitob milliy istiqlool davrida yetishgan yoki ijodi shu davrda avj olgan bir necha sanoqli dramaturglargagina o'rin berildi. Holbuki, poytaxt va viloyatlarida ijod qilayotgan dramaturg va va boshqa ijodkor yoshlar dramaturgiyaga va sahnaga aynan istiqlool yillari kirib keldilar.

Shuni ta'kidlash lozimki, ijodkorlar O'zbekistonni mustaqil davlat deb e'lon qilinganligini xalqimiz tarixida misli ko'rilmagan buyuk voqea tarzida kutib olib, butun kuch va iqtidorini mustaqillik g'oyalarini tarannum etishga qaratdilar.

Adabiyotimizda, xususan, dramaturgiyamizning buyuk namoyondalari A.Fitrat, M.Shayxzoda kabi adiblar ijodida chuqur ildiz ota boshlagan buyuk Soxibqiron obrazini yaratishdek ezgu maqsad ham Istiqlool davrida to'la ro'yobga chiqqa boshladi. Shoir va dramaturg To'ra Mirzoning Istiqlool e'lon qilingan kunlari yozilib, o'sha sholi 1991 yilning o'zidayoq Qashqadaryo teatrida qo'yilgan (rejissor B.Nazarov) "Amir Temur" dramasi shu mavzudagi ilk asarlardan biri bo'ldi. Mazkur asar buyuk Soxibqiron Turon xalqini bosqinchilardan ozod etgan Islom dininig yalovbardori, benazir sarkarda va davlat arbobi sifatida sahnaviy obrazini yaratish bilan sezilarli badiiy voqeaga aylandi. Qatag'onlar tufayli o'n yillar davomida zabun bo'lib kelgan Cho'lponning "Kecha va kunduz" romani asosida "Asorat" dramasi Reapublika yosh tomoshabinlar teatrida (rejissor M.Muhammedov), "Yorqinoy" (rejissor N.Otaboyev), A.Fitratning "Abulfayzxon" (rejissor M.Azizov) Milliy akademik drama sahnasidan o'rin oladi. Sahnimizda Ismoil al-Buxoriy, Ahmad al-Farg'oniy, Mirzo Bobur singari buyuk alloma va muhandislar siymolari paydo bo'ladi.

1996 yili buyuk Soxibqiron tavalludining 660 yilligiga bag'ishlangan Respublika teatrlari festivali Amir temur obrazini yaratishda dramaturgiyada erishilgan yangi natijalar qatori rejissura va aktyorlik sohasida ham e'tiborli yutuqlar ko'rigiga aylandi. Rejissura saviyasining yuqoriligi tufayli M.Ravshanov sahnalashtirgan Surxondaryo teatrining "Amir Temur va Yeldirim Boyazid" (Q.Abdunabiyev), V.Umarov talqinidagi Sirdaryo teatrining "Amir Temur" (X.Jovid), M.Yusupov sahnalashtirgan Farg'ona teatrining "Amir Temur va To'xtamishxon" (To'ra Mirzo) spektakllari turli darajadagi sovrinlarga sazovor bo'ldilar. Amir Temur rolini ijro etgan Tesha Mo'minov (Milli teatr), Fayzulla Abdullayev (Buxoro teatri), Muzaffar To'raqulov (Qashqadaryo teatri) kabi o'n nafar aktyor o'z iste'dodining yangi qirralarini namoyon etdilar. "Andijon bahori - 99", "Andijon bahori - 2001" singari ko'rik-tanlovlarni ko'z oldimizga keltirsak, bularda qahcha-qancha ajoyib ijodiy topilmalar, yangi iste'dodlar ro'yobga chiqqanligiga guvoh bo'lamiz.

Istiqlol yillarida dramaturgiyada S.Imomov, S.Sirojiddinov, S.Nazarov, G'.Shermuhamedov, T.Nizom, Ziyon Najmiy, Q.Abdunabiyev, M.Ergashev, J.Xursandov, U.Qo'chqor, A.A'zam, B.Islomov, T.Akbarxo'jayev, F.Boboxonova kabi qalamkashlar kirib keldi. Asarlari Milliy teatrning hozirgi repertuarida yetakchi o'rin tutib keluvchi Usmon A'zim, Erkin Xushvaqto'v ham istiqlo' yillarida yetishdilar.

Milliy akademik teatrimiz bugungi kunda ham ijodiy tashabbuskorlik mavqeini qo'ldan berayotgani yo'q. Keyingi paytda unig sahnasida atoqli shoir va dramaturg Shukrullonning "Xasrat bog'i", Dilbar va Tilab Mahmudovning "Umr poyonidagi baxt", Nabijon Qodirovning "Uch kunlik dunyo", Inomjon Tursunovning "Bir qanotlilar" asarlari paydo bo'ldi.

Musiqali drama janrini yuksaltirishda Muqimiy nomli musiqali teatrning izlanishlari diqqatga loyiq: rejissor Rustam Ma'diyev "Devona", "Baxtli bo'l dugonajon" kabi asarlar yozib, o'zi sahnalashtirdi. Uning shoir Xurshid Davronnig "Bobur sog'inchi" (B.Lutfullayev musiqasi) asarini sahnalashtirib, o'zi bosh rolni ijro etganligi alohida e'tiborga molik. Bahodir Nazarov X.Xursandov bilan hamkorlikda "O'lding aziz bo'lding", "Xotinimning uch shaydosi", Boyir Xolmirzayev Salohiddin Sirojiddinovning "Osmonnig bag'ri keng", Ahad Parmonov va Mirza Azizovlar sahnaga qo'ygan Nasrullo Qobulning "Mashrab" va "To'da", Ma'ruf Otajonov talqin etgan S.Imomovning "Superqaynona", "Soyibxo'ja operatsiyasi" asarlari mazkur teatrning qizg'in ijodiy izlanishlaridan darak beradi.

"O'zbekteatr" ijodiy ishlab chiqarish birlashmasi tomonidan keyingi paytda o'tkazilgan "Dramaturgiya va zamonaviy qahramon" (2002), "Yosh rejissorlar" (2005) ko'rik-festivallari dramaturgiya rivojiga turtki berish qatori o'z teatrini yaratish harakatida bo'lgan Ilhom Normatov (Jizzax teatri), Ahmadulla Niyozov (Kattaqo'rg'on teatri), Gulruh Majidova (Sirdaryo), Shuxrat Abdullayev (Namangan) kabi san'at institutidan chiqqan yosh rejissorlarni viloyatlarda doimiy qo'nim topib iste'dodlarini keng namoyon etishlari uchun rag'batlantiruvchi juda muhim tadbirga aylandi.

Rejissorlarni viloyat sharoitiga ko'nikib, o'sha yerda o'z teatrini topishi teatrimiz isriqboli bilan bog'liq juda jiddiy muammo. 1950 yillar va undan keyingi yillarda o'z teatrini yaratib, ijodkorlik namunasini ko'rsatgan Albert Xachaturov (Namangan), Hoshim Islomov (Xorazm) singari ko'plab va hozirda ham o'n yillar davomida o'z teatri nufuzini qattiq tutib kelayotgan Mansur Ravshanov (Surxondaryo), Ubaydulla Baqoyev (Buxoro), Karim Yo'ldoshev (Namangan) kabi san'atkorlarning tajribalari yosh rejissorlar uchun saboq bo'lmog'i mumkin.

Bugungi kunda poytaxtdagina emas, shu qatori viloyatlarda ham har bir teatrning o'z dramaturglari tarkibi shakllanib bormoqda.

Masalan, Erkin Samandar, Komil Avaz (Xorazm), Abdulla Jabbor, Nurilla Abbosxon (Namangan), Ziyon Najmiy, Zahiriddin Muhiddinov, To'lan Nizom (Andijon) va shu kabi Farg'ona, Surxondaryo, Jizzax va boshqa viloyatlarda Dramaturgiyaga ko'plab yoshlar kirib kelmoqdaki, bu poytaxtda ham, viloyatlarda ham teatr san'atini yoppasiga rivoj topishi uchun muhim omil bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Manbaalar: 1. "Istiqlol va Milliy teatr", "Yangi asr avlodi", 2002 yil

2. Milliy teatrimiz namoyondalari
"Toshkent Islom Universiteti" nashriyoti
2001 yil

MUNDARIJA

Qo'llanma haqida ikki og'iz so'z.....	
KIRISH	
Milliy teatrimiz — iftixorimiz.....	
O'zbek teatrining taraqqiyot bosqichlari.....	
MAHMUDXO'JA BEHBUDIY (1874—1919)	
M. Behbudiy zamondoshlari xotirasida “Padarkush yoxud o'qimagan bolaning holi.....	
ABDULLA AVLONIY (1978—1934.....)	
Advokatlik osonmi?.....	
“Turon” truppasi “Nizomi” haqida T. Tursunov, Sh. Rizayev sharhlari “Turon” truppasining “Nizomi”.....	
ABDURAUUF FITRAT (1886—1938).....	
M. Uyg'ur Fitrat haqida.....	
Fitrat asarlari haqida Cho'lpon sharhi.....	
Chin sevish.....	
“Abulfayzxon” haqida T. Islomov, B. Qosimov sharhlari	
Abulfayzxon	
HAMZA HAKIMZODA NIYOZIY (1889—1929).....	
Hamza haqida S. Mamajonov, M. Rahmonov sharhlari.....	
Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari.....	
“Boy ila xizmatchi” dramasi haqida.....	
Y. Bobojonov rejissurasi haqida T. Tursunov sharhi.....	
A. Hidoyatovning G'ofir roli haqida A. Deych sharhi.....	
S. Eshonto'rayeva Jamila rolini qanday o'ynagani haqida S. Mahmudova sharhi.....	
O. Xo'jayev O. Jalilovning solihboyi haqida.....	
Z. Sadriyeva Poshshoyim roli ustida qanday ishlagani haqida Mariya Kuznetsovaning Hoji ona roli haqida T. Bayandiyev sharhi.....	
Olma-ota festivalida “Maysaraning ishi” spektakliga oliy mukofot berilgani haqida M. Qodirov, S. Larina, J. Anvarovlar sharhlari.....	
Burungi qozilar yoxud Maysaraning ishi.....	
G'ULOM ZAFARIY (1889—1938).....	
G'. Zafariyning va uning “Halima” asari haqida M. Rahmonov, E. Ismoilov sharhlari.....	
Halima Nosirova Halima roli ustida qanday ishlagani haqida Lutfixonim Sarimsoqova Ona rolini qanday o'ynagani haqida.....	
Halima	
XURSHID (1892—1960).....	
Xurshid va uning asarlari talqini haqida Sh. Shoumarov, M. Muhamedov, H. Nosirova sharhlari.....	
Kitobda uchrovchi maqola mualliflari va rejissyorlarning ism va familiyalari	

Farhod va Shirin
Layli va Majnun
ABDULLA QODIRIY (1894—1938)
Baxtsiz kuyov
CHO'LPON (1897—1938)
Quyida «Yorqinoy» pyesasidan lavhalar berildi
MANNON UYG'UR (1897—1955)
Mannon uyg'ur Eshimqul rolida
Turkiston tabibi
UYG'UN (1905—1990)
Alisher Navoiy
Parvona
SOBIR ABDULLA (1905—1972)
Tohir va Zuhra
ABDULLA QAHHOR (1907—1968)
So'nggi nusxalar
MAQSUD SHAYXZODA (1908—1967)
Jaloliddin
Mirzo Ulug'bek
HAMID OLIMJON (1909—1944)

KITOBDA UCHROVCHI MAQOLA MUALLIFLARI VA REJISSYORLARNING ISM VA FAMILIYALARI

Hafiz ABDUSAMATOV 87, 64
Abdurahmon ABDUNAZAROV 32, 48
Minavar ABDULLAYEVA 279
Turg'un AZIZOV 98, 124, 131, 163, 174, 204
Vahob AZIMOV 106
Marat AZIMOV 204, 232, 276
Laziz AZIZZODA 12
Ibrohim AHMEDOV 287, 289
Sirojiddin AHMEDOV 4, 13, 45, 83, 91, 158
Mirzakarim BOBOYEV 187
Habibulla APPONOV 190
Teshaboy BAYANDIYEV 4, 38
Yetim BOBOJONOV 9, 34, 35, 139
Rustam BOBOXONOV 102, 178, 184, 197, 208
Ubaydulla BAQOYEV 6, 312

Aleksandr GINZBURG 9,117, 130, 169
Aleksandr DEYCH 36
Ne'mat DO'STXO'JAYEV 187
Marva JALOLIDDINOVA 38, 132, 187
Frunze JO'RAYEV 184
Turob JO'RAYEV 139
Muhsin ZOKIROV 175
Sotimxon INOMXO'JAYEV 262
Erkin ISMOILOV 47, 94
Hamidjon IKROMOV 4, 113, 130, 262, 287, 294
Rahmatilla INAG'OMOV 217
Arsen ISMOILOV 232
Afandixon ISMOILOV 187
Tojiboy ISROILOV 260
Mahkam ISROILOV 108, 148
Hoshim ISLOMOV 6, 312
Toir ISLOMOV 4, 7, 27, 13, 27
Baxtiyor IXTIYOROV 6, 32, 178, 224
Ishoq ILYALOV 157
Bahodir YO'LDOSHEV 6, 42, 174, 185, 197
Karim YO'LDOSHEV 6,312
Naim KARIMOV 2, 4, 45, 78, 79
San'at MAHMUDOVA 36
Salohiddin MAMAJONOV 31
Jo'ra MAHMUDOV 6, 225
Ergash MASAFAYEV 6, 224, 229, 287
Rustam MA'DIYEV 113, 174,184, 200, 312
Yong'in MIRZO 4, 98, 165, 187
Ahmadjon MELIBOYEV 28
Sobir MIRVALIYEV 83, 171, 287
Mirmuhsin 36
Mahkam MUHAMMEDOV 6, 47, 48, 69
Muzaffar MUHAMEDOV 6, 47, 48, 69
Zikir MUHAMMADJONOV 126, 204
Gulruh NAJIDOVA 312
Bahodir NAZAROV 27, 28, 270, 271, 312
Baxtiyor NAZAROV 24
Bahridin NASRIDDINOV 68, 72, 76
Ibodilla NIYOZMETOV 6, 232
Ahmadulla NIYOZOV 312
Ilhom NORMATOV 312
Javod OBIDOV 287
Qamariddin ORTIQOV 242
Nosir OTABOYEV 6, 26, 112, 116228, 311
Ma'rif OTAJONOV 312

Inayatilla PO'LATOV 36, 37
Mamajon RAHMONOV 4, 6, 13, 23, 30, 32, 78, 92, 125
Dilfuza RAHMATULLAYEVA 30, 234
Mansur RAVSHANOV 6, 228, 254, 311, 312
Omonilla RIZAYEV 132, 146, 147, 225
Abdurahim SAYFIDDINOV 163
Olimjon SALIMOV 245, 260, 261
Azim SUYUN 279
Tursun SOBIROV 205
Izzat SULTON 98, 99, 130, 169, 181
Salohiddin SIROJIDDINOV 225, 226, 311
Turob TO'LA 172, 177, 217, 220
Muhabbat TO'LAXO'JAYEVA 2, 4, 12, 46, 261
Amin TURDIYEV 287
Toshpo'lat TURSUNOV 2, 4, 7, 21, 35, 46, 47, 67, 108, 152, 153, 174, 191
Matluba TEMUR qizi 240
Obid TOLIPOV 187
Erkin UMAROV 146
Erkin USMONOV 186, 262
Valijon UMAROV 232, 254, 311
Ma'murjon UMAROV 93
Mannon UYG'UR 92, 94
Zinnat FATXULLIN 221
Yakov FELDMAN 98, 10
Habibulla FAYZIYEV 262
Mamatqul HAZRATQULOV 229
Razzoq HAMROYEV 4, 6, 100, 107, 145, 147, 179
O'ktam HAKIMALI 192
Marfua HAMIDOVA 107
Rustam HAMIDOV 6, 210, 211, 212, 276, 277
Boir XOLMIRZAYEV 312
Olim XO'JAYEV 229, 264, 269
Qudrat XO'JAYEV 4, 7, 117, 118, 129, 164, 170
Lola XO'JAYEVA 93
Cho'lpon 5, 6, 24, 84, 311
Ozod SHARAFFIDINOV 85, 117
Sharif QAYUMOV 98, 116, 190, 303
Zuhur QOBULOV 204, 252
Anatoliy QOBULOV 6, 7, 170
Muhsin QODIROV 4, 43, 147, 173, 180, 211, 221, 224, 233
Sarvinoz QODIROVA 123, 279
Muhiddin QORIYOQUBOV 69
Begali QOSIMOV 28
Bahodir G'ULOMOV 191